



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

“Filologiya va pedagogika”
ilmiy-metodik jurnali

Oliv attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabr dagi

364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2026-yil
2 (21)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИМ
ЭЛЕКТРОННЫМ ЖУРНАЛОМ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

“Afg'on sayohati”
asarida muallif
pozitsiyasi va
mahorat masalalari

7
bet

Badiiy adabiyotda
uchlikning
kompozitsion
xususiyatlari

38
bet

Qiz tasviriga asoslangan
topishmoqlar
klassifikatsiyasi

114
bet

Сопоставительный анализ
сингармонизма и словесного
ударения в русском и узбекском
языках в методическом аспекте

164
bet



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2026-yil
2 (21)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:

Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova
Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 30.01.2026 da
nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinbosari

Farrux Jabborov

"Til va adabiyot ta'limi" –
"Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching"
jurnali bosh muharriri

Baxtiyor Mengliyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali professori,
filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodziyevskiy

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya

O'zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Muxtarbay Kurbanov

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Anvar Bo'ronov

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dilmurod Teshaboyev

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Gulhida Ikromova

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Aziza Axmedova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi

Iroda Nasimova

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Gulnora Mansurova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori

Xadicha Muxitdinova

O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

G'ofir Hamroyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva

O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Abduvali Daminov

O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar

fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida katta
o'qituvchisi

Gulnoza Uzokova

Qarshi davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Lola Akramova

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
o'zbek tili va xorijiy tillar,
pedagogika kafedrasida dotsenti

Zulfiya Ortiqova

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Pulotjon Qaxorov

Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti

Dilafuz Asqarova

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha
ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Qozoqboy Yo'ldosh. Najmiddin Ermat ijodining badiiy-publististik tabiati	4
Dilruh Hayitova. Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili	5
Shohsanam Kimsanboyeva. "Afg'on sayohati" asarida muallif pozitsiyasi va mahorat masalalari.....	7
Xasan Asrorov. O'rta asrlar koreys nasrida shaxs konsepti bilan bog'liq nominantlar.....	9
Yorkinoy Nasirdinova. Alexandre Papas tadqiqotlarida temuriylar davridagi sufiylik va adabiyot.....	11
Zebiniso Kabilova. Matnning fonosemantik tadqiqi	13
Sharifa Iskandarova, Odina Axmadaliyeva. Is'hoqxon Ibrat ijodida uchraydigan ayrim fors-tojikcha o'zlashmalar tadqiqi.....	14
Ozoda Jumayeva. Ingliz va o'zbek tillaridagi emotsionallikni ifodalovchi metaforik birliklar tahlili.....	15
Dilrabo Kuryazova. Prokuror imiji haqidagi ijtimoiy stereotiplarning shakllanishi va media ta'siri	17
Abdunabi To'ychiyev. O'zbektosh To'raxonli ijodiga chizgilar	20
Jamila Buranova. Zamonaviy romanlarda mifologik sujetlar talqini (Xurshid Do'stmuhammad va Ulug'bek Hamdam asarlari misolida)	21
Odinaxon Homidova. "Arba'in" va "Nazm ul-javohir" asarlaridagi til va so'zga oid hadislar tahlili.....	23
Gulianbar Quranbayeva. Sirojiddin Sayyid ijodida badiiy tafakkur va milliy ruh uyg'unligi.....	25
Laylo Suvonqulova. Arxetip va topos obrazning shakllanish asoslari	26
Munojot Saydazamova. Internet muhitidagi onimlar yangi fenomen sifatida	30
Maqsuda Jumaboyeva. Ozod Sharafiddinov talqinida Abdulla Qahhorning shaxsiyati va ijodi.....	31
Shahnoza Ziyamuxamedova. Fe'l turkumiga oid so'z yasalishi borasida ba'zi mulohazalar	32
Gavharoy Xolisova, Muxarrif Samatqulova. "Tijoriy diskurs" tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi	35
Sabohatxon Yusupova, Dilnozaxon Raxmatullayeva. "Hurmat" tushunchasining lug'aviy hamda terminologik talqini.....	36
Sidik Xodjayev. Badiiy adabiyotda uchlikning kompozitsion xususiyatlari.....	38
Guliruxsor Ro'zmatova. Nogironlik fenomeni: tarixiy bosqichlar va ijtimoiy qarashlar evolutsiyasi.....	40
Nargiza Xodjaeva, Moxiruy Abdullaeva. Типологические параллели в изображении героев произведений Ф.М.Достоевского и А.Камю.....	42
Сожида Ботирова. Сопоставительный анализ переводов произведений Дж.Х.Чейза	43
Кристина Костишина. Поэзия Бориса Пастернака в оценке критики и литературоведения.....	45
Азиза Муратова, Ольга Хегай. Нравственные ориентиры и философские смыслы в малой прозе В.Г.Распутина 1980-х годов.....	46
Зулайхо Низомитдинова. Гендерные стратегии в конфликтной коммуникации	48
София Рахимова, Наргиза Ходжаева. Применение методов когнитивной лингвистики в исследовании языковых и речевых явлений.....	49
Marjona Raxmatova. Vafo Fayzulloh ijodida vatan tuyg'usining badiiy ifodasi.....	51
Умида Хабибуллаева. Репрезентация концепта бедность в эфемистической лексике русской языковой картины мира.....	52
Мадина Эшмаматова. Фразеологизмы и характер человека (на материале русского и узбекского языков).....	54
Sadoqat Otamuratova. Munis Xorazmiy ijodida tasavvufiy tariqat masalalarining aks etishi.....	55
Aziza Gulyamova. Yuridik terminologiyada ierarxik va ma'nodoshlik munosabatlari	57
Moxitabon Mo'minova. "Dasht-u dalalarda" romanida inson va hayvon obrazlarining ramziy talqini	59
Madina Tursunova. Qadimgi o'zbek va fransuz tillarida ot so'z turkumining ko'plik va egalik shakllari.....	61
Yusufjon Abdurazzakov. Nemis va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy identifikatsiyasining frazeologizmlardagi roli (yosh va jins omili asosida).....	63
Umrinis Pulatova. Yoshlar slengining fonopragmatik tabiati.....	64
Malikaxon Axmadjonova. Mahalliy turk shevalari tadqiqi	66
Saidvali Qoriyev. Zamonaviy menejment usullari va tamoyillarining xususiyatlari.....	68
Sohiba Raimqulova. Ijodkor badiiy-estetik konsepsiyasi va uni shakllantiruvchi omillar	70
Bobir Negmatov. Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari	72
Gulchexra Jalilova. Sarguzasht-detektiv asarlar – ilk adabiy janr namunasi	74
Xurshida Muraqova. Специфика реализации жанра юмористической повести в сказочном дискурсе Х.Тухтабаева и Н.Носова	76
Дурдона Ортикова. Сравнительный анализ лингвистических дефиниций субстантив и субстантивный	78
Эъзода Рахмонова. Сравнительный анализ прилагательных в английском и узбекском языках	79
Дилдора Толипова. Лакунарные единицы как отражение национальной культуры (на материале произведений Алишера Навои и Махмудходжи Бехбуди).....	81
Наргиза Турсунова. Некоторые сведения об истоках французской средневековой литературы	83
Валентина Хегай. О тенденции к смысловому согласованию в русском языке.....	85
Наргиза Ходжаева. Язык туризма как объект лингвистического исследования	86
Гузэл Эгамбердиева. Метафора «падения» и кризис личности интеллигента в повести Фариды Нагима «Теория падений»	87
Дилдора Яхъёкулова. Аксиологический подход в литературоведении	89
Джасур Уринбеков. Когнитивно-прагматические аспекты вежливости и смягчения в экологичном общении	90
Vaziraxon Alimbekova. Adabiy til bilan omonimlikni hosil qiluvchi janubi-sharqiy Andijon shevasiga xos so'zlar tadqiqi.....	92
Гулнорахон Оманова. Влияние восточных мотивов в творчестве А.С.Пушкина, Н.В.Гоголя, И.А.Бунина	93
Muborak Norhojayeva. Tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslik	94
Valentina Masharipova. Paraphonetic Means in the Representation of Emotions in English and Russian Literary Discourse.....	96
Odinaxon Homidova. "Arba'in" va "Nazm ul-javohir" asarlaridagi til va so'zga oid hadislar tahlili.....	98
Tursunmurod Oyidinov. Tilning minimal sathi va til unsurlarining ierarxik munosabatdagi o'rni.....	100
Qahramon Sobirov. Dramatik asarlarda allegoriya va simvolizm	101
Mashhura Nurullojeva. Ozod Sharafiddinovning "Domlalar" asarida ma'rifat siymolarining tavsifi.....	103
Lola Muratova. Ispan tilida ayrim aforizmlar tahlili.....	104
Shaxloxon Yusufjonova. Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda tarjima muammolari: qiyosiy-lingvomadaniy tahlil	106
Tolkin Mardiyev. Semantic and Etymological Analysis of the Concept of "Sincerity" in English and Uzbek Literary Works.....	107
Hilola Xoldorova. Associative Field Component Analysis of the Concept "Tourism".....	109
Nargisa Qobilova, Moxinur Khasanova. Semantic Distinctiveness of Articles and Ways of Translation.....	111
Sarvar Umirov. Beyond the Cefr: Why Legal English and Esp Require a Discipline-Specific Assessment Framework	112
Sevinch Melsova. Dialect and Dialectal Features in Linguistics	114
Shaxloxon Yusufjonova. Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar va maqollar: qiyosiy-lingvomadaniy tahlil.....	116
Markhabo Abdullayeva. Syntagmatic Units in English and Uzbek in the Context of Associative Experiments and Educational Explanatory Dictionaries.....	118
Yusufjon Abdurazzakov. Nemis va o'zbek tillarida ayol shaxsiga oid frazeologizmlarning baholovchi xususiyatlari.....	120
Sanobar Kipchakova, Maftuna Pulotova. A Comparative Analysis of English and Uzbek Grammar: Morphological and Syntactic Features.....	121
Feruza Tairova. Phraseological Units Containing the Lexical Component of Color: Translating into the Uzbek and Russian Languages and Classifying.....	123

Gulchexra Xazratova. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarining ahamiyati.....	126
Mavlonbek Abdiyev. General Characteristics and Discursive Features of English-Language Political Publications.....	127
Otabek Xidirov. Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari.....	129
Tilola Madatova. O'zbekiston mediasidagi ta'lim mavzularining qiyosiy tahlili: an'anaviy OAV va yangi media.....	130
Sardor Islomov. Onomastik tadqiqotlarda davr va dunyoqarash.....	132
Svetlana Umirova. Mualliflik korpuslari xususida.....	134
Gulnoz Mamarasulova. Siyosiy nutqlar tarjimasida pragmatik muvozanat.....	135
Sojida Djurayeva. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida ruboiyning o'rganilishi.....	137
Gavharoy Xolisova, Mohidil Karimova. "Diskurs" tushunchasi tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari.....	139
Mahfuza Davronova. Qiz tasviriga asoslangan topishmoqlar klassifikatsiyasi.....	141

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Mohira Boymirzayeva. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik diskursning o'zgarishi.....	143
Dilnoza Samatova. Talabalarining rubob ijrochiligidagi texnik va badiiy mahoratini rivojlantirishda gamma va "postanovka"ning ahamiyati.....	144
Ismoiljon Karimov. O'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari.....	146
Sarbaroy Mirzayeva. Didaktik o'yinlarning bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	147
Lazokatxon Shabdullayeva. Raqamli ta'lim muhitida talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish: an'anaviy va innovatsion tamoyillar.....	150
Dilnoza Salaxova. Ispan tili darslarida qisqa metrajli filmlar va qo'shiqlardan foydalanishning didaktik samaradorligi.....	151
Dilnoza Xamroyeva. Sarguzasht asarlarini o'qitishda sarlavha va nomlarning ahamiyati.....	154
Dildora Usarova. Sun'iy intellekt asosida talabalarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va boshqarishning innovatsion modellari.....	156
Mushtariybonu Xujaxonova. Qiyosiy yondashuv asosida talabalar kasbiy leksikonini shakllantirish metodikasi (tibbiyot yo'nalishi talabalariga rus tilini o'qitish misolida).....	158
Feruz Valiyeva. Xorijiy maktabgacha ta'lim tizimida KPI amaliyoti: Finlandiya tajribasi.....	159
Sirojiddin Abdullaev, Elena Musaeva. Фонологическая обработка речи как основа нарушения чтения у детей с дислексией.....	161
Шахноза Ахмаджонова. Прагматические аспекты речевых актов в аудиторном общении на английском языке.....	163
Унгласин Джусупова. Сопоставительный анализ сингармонизма и словесного ударения в русском и узбекском языках в методическом аспекте.....	164
Гульнара Камалова. Роль контекста в усвоении лексики на занятиях по РКИ.....	165
Хилола Ниязова. Необходимость начала формирования чувства ценности времени у школьников со 2-го класса.....	167
Дилфузахон Саидқодирова. Методика использования систем искусственного интеллекта в развитии мотивации студентов к изучению английского языка.....	168
Lobarxon Jabborova. ESP ta'limida ingliz tili fonetik kompetentligini shakllantirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri.....	170
Farangiz Sherdanova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda "emotsional intellekt" tushunchasi mazmuni va rivojlanish bosqichlari.....	172
Ixtiyor Kamolov, Diyorbek Ismoilov, Abdushukur Eshonqulov. Istiqloq davri pedagogik ta'lim siyosatining shakllanishida xalq an'analarida hamda jahon tajribalarining uyg'unlashuvi.....	174
Maxliyo Turopova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish.....	176
Rushana Azimjonova, Djaxangir Gulyamov. Xulqdagig'ishuv (maktab o'quvchilari misolida).....	177
Abdumalik Sharipov. Ta'limda interfaol vositalardan foydalanib o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish.....	179
Patima Tashxodjayeva. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish.....	181
Guldona Toshpulatova. Tarbiya darslarida o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik sharti.....	182
Tursunoy Yusupova. Til ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun va mohiyati.....	183
Amina Musayeva. O'zga tili talabalarining rus tilini o'rganish motivatsiyasini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	186
Mahliyo Roziyeva. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirishda differensial yondashuv: individual ehtiyojlar va kasbiy trayektoriyalarni hisobga olish.....	187
Saida Norboboyeva. Ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishdagi muammolar.....	188
Galina Kozlova. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash sohasidagi kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini pedagogik diagnostika qilish.....	189
Sholra Khayitmuradova. The Effect of Pre-Listening Activities on Efl Learners' Comprehension Accuracy.....	191
Sarvinov Akbarova. The Significance of Learning Many Languages as a Young Child.....	193
Gulruh Tillabayeva, Muhlisaxon Abdullajilova. O'qish darslarida o'quvchilarning she'r, masal va ilmiy-ommabop janrdagi asarlarni o'rganish darsini kuzatish va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish.....	195
Behzod Rabbimov. Chet tilini o'rganishda "oldindan taxmin qilish" tushunchasi: lingvodidaktik va metodik tahlil.....	196
Muhabbat Mamasaidova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	198
Ernazar Tolepov. "Loyiha" va "innovatsion loyiha" tushunchalarining genezisi.....	200
Sayyoraxon To'xtasinova. 11-sinf "Ona tili" darsligi bo'yicha mantiqiy mushohadani rivojlantiruvchi topshiriqlar tahlili.....	202
Zayniddin Bozorov. Integrativ o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarining fuqarolik madaniyatini rivojlantirish.....	203
Gulruh Qilicheva. Chet tilini o'rganishda og'zaki nutqning ahamiyati.....	205
Navro'zjon Baqoyev. Raqamli ta'lim muhitida yapon tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish modeli.....	207
Feruz Aliqulova. The Importance of English Novels for Improving Reading Comprehension.....	208
Hayotgul Eshmuradova. Teaching Vocabulary at the Secondary School.....	209
Nigoraxon Ro'zibayeva. Fostering Learning Autonomy Through AI-Based Tasks in Higher Education.....	210
Nilufar Abdanbekova. The Role of Cultural Context in Teaching Listening to Efl Students.....	212
Dilnavoz Maxametova. The Benefits of Using a Content-Based Approach to Teach Foreign Languages to Non-Philological Students.....	214
Malohat Badalbayeva. Opportunities for Using Corpus Linguistics in Teaching English.....	216
Muhayyo Ziyayeva, Odinaxon Usmanova, Muslima To'xtamurodova, Mohichehra Adhamjonova. Artificial Intelligence Tools in Language Learning: Chinese Experience and International Practice.....	218
Mushtariy Atabekova. The Relationship Between Motivation and Emotional Readiness in Language Education and Academic Achievement.....	220
Sabohat Begnayeveva. Advantages of Applying Blended Learning and Digital Tools Technologies in Teaching English to 6th-Grade Students in Military-Oriented Specialized Schools.....	223
Alimardon Xabibullayev. Talabalar mobilligi va qo'shma ta'lim jarayonlarida til va madaniyat integratsiyasining pedagogik va institutsional ahamiyati.....	224
Tumaris Kabulova, Dilfuza Djumambetova. Sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni va imkoniyatlari.....	227
Dildoraxon Igamova. Magistrantlarning ilmiy terminologik tafakkurini shakllantirishda konseptual xaritalardan foydalanish.....	229
Alimardon Xabibullayev. Talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining pedagogik va institutsional ahamiyati.....	231
Sharobiddin Hasanov. Bo'lajak adabiyot fani o'qituvchisida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning analitik talqini.....	233
Sarvinov Sharipova. Jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslashtirilgan ingliz tili (ESP) kompetensiyasini kommunikativ-kognitiv yondashuv asosida shakllantirish.....	236
Umida Abdilakimova. Talabalarining ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish tamoyillari va mexanizmlarini ishlab chiqish.....	238
Umidjon Xasanov. Uzlaksiz ta'lim: vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda axborotlardan foydalanish masalalari.....	239

Qozoqboy YO'LDOSH,
pedagogika fanlari doktori, professor

NAJMIDDIN ERMAT IJODINING BADIY-PUBLITSISTIK TABIATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Najmiddin Ermat ijodi badiiy va publitsistik ruh uyg'unligida tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida dard va baxt, mehr va qahr, ishq va ijtimoiy mas'uliyat o'zaro birlashib, millat va vatan taqdiri bilan uzviy bog'lanib ketgani ochib beriladi. Lirik qahramonining iztiroblari orqali jamiyat ruhiy holati, uyg'oqlik va befarqlik muammolari qanday yoritilishi misollar orqali ko'rsatiladi. Shuningdek, shoir she'riyatining milliy ongini uyg'otish, erk va haqiqatga da'vat etishdagi o'rni, badiiy tasvir va ramziy obrazlar orqali inson va jamiyat ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish kuchi ham izohlanadi.

Kalit so'zlar: Najmiddin Ermat, she'riyat, publitsistika, milliy ong, vatan, ishq va iztirob, mehr va qahr, uyg'oqlik, ramziy obraz, ijtimoiy mas'uliyat.

Annotation. This article analyzes the poet Najmiddin Ermat's work in harmony with artistic and publicistic spirit. The poet's poetry reveals how pain and happiness, kindness and anger, love and social responsibility unite and are inextricably linked with the fate of the nation and Homeland. Examples show how the lyrical hero's suffering illuminates the psychological state of society, the problems of awakening and indifference. It also explains the role of the poet's poetry in awakening national consciousness, calling for freedom and truth, and its power to influence the psyche of individuals and society through artistic imagery and symbolic imagery.

Keywords: Najmiddin Ermat, poetry, journalism, national consciousness, Homeland, love and suffering, love and anger, vigilance, symbolic image, social responsibility.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество поэта Наджмиддина Эрмата в гармонии художественного и публицистического духа. В поэзии поэта раскрывается, как боль и счастье, доброта и гнев, любовь и социальная ответственность объединяются и неразрывно связаны с судьбой нации и Родины. На примерах показано, как через страдания лирического героя освещается психологического состояние общества, проблемы пробуждения и безразличия. Также объясняется роль поэзии поэта в пробуждении национального сознания, призыве к свободе и истине, силе воздействия на психику человека и общества через художественные образы и символические образы.

Ключевые слова: Наджмиддин Эрмат, поэзия, публицистика, национальное самосознание, Родина, любовь и страдание, любовь и гнев, бдительность, символический образ, социальная ответственность.

Shoir kim, she'r nima? Bashariyatning ko'pming yillik tajribasi she'r g'amdan tug'ilishini ko'rsatadi. Shunga qaraganda g'am, tashvish, mehnat – bugun ham odamzotga juda sadoqatli yo'ldosh ekan. Demak, she'r yaralishiga ham sabab ko'pdan ko'p. Lekin azaliy savol hamon ko'ndalung turibdi: nima she'r deb, kim shoir deb atalar bugun?

Shoir Najmiddin – bugunning odami. Lekin u ham qadim salafari singari ishqqa faqat jismga doir hodisa deb qaramaydi. Chinakam sevgining yuki og'ir, manzili esa majoziylik mulkidan nari, haqiqiylik saltanatiga yaqin maskan ekanini biladi:

*Bir so'z keldi kelmagandayin,
U qiz kutdi, men ichga yutdim.
Faqat ishqni o'yladim, yo Rab,
Ul suluvni butkul unutdim.*

*Bir kuz keldi baridan keyin,
Ketmog'i dushvordir, ketmog'i qiyin.
Shu qiz deya yashab umrbod,
Shu kuz ila o'tmog'im tayin.*

Asl sevgiga yo'liqqan oshiq muhabbatning ilkinchi obyekti bo'lmish suluvni unutadi. Agar Cho'lpon: **"Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'liqini bordir, Halokat bo'lg'usin bilmay, qulochni katta otdim-ku"**, deb yozg'irgan bo'lsa, Najmiddin: **"Faqat ishqni o'yladim, yo Rab, Ul suluvni butkul unutdim"**, – deya iqrar qiladi. O'zini ishq obyekti emas, balki jarayonning quchog'iga otgan oshiqning baridan keyin kelgan **"shu kuz bilan umrbod o'tmog'im tayin"**, albatta.

Najmiddin Ermat bir she'rida suyuklisiga navbatdagi xatini yozish jarayonida iztirob iskanjasida qolgan oshiq ruhiyatini dinamikasini g'oyat ta'sirli yo'sinda tasvirilaydi:

*Barmoqlar qalamni quchar qaltirab,
Ko'ngil tug'a boshlar, yig'laydi tuyg'u.
Aqlim faryod qilur: "To'xta, ey telba,
Sening xatlaringni o'qimaydi u".*

Ilk bandda ko'ngilda tug'ilgan gumon butun she'r davomida kuchayib boradi. Jumladan, ikkinchi band **"Sening xatlaringni**

o'qimagan u" satri bilan tugaydi va lirik qahramon iztirobining darajasini oshiradi. Keyingi banddagi **"U sening xatlaring ko'rmaydi ochib"** so'ngmisrasi oshiq ruhiyatini tahlilasiga sabab. To'rtinchi bandning **"Xatlaring o'qimoq u yoqda tursin, Hattoki u seni o'ylagan yo'q"** tugallanishi oshiq iztiroblarini avj nuqtaga ko'taradi. Lekin lirik qahramon o'z ishonch-u umidida mustahkam. Shu bois suyuklisiga: **"Eng so'nggi umidim to'kilmay turib: "Ularning so'zlari yolg'on", – de, gulim",** – deya murojaat qilishga kuch topadi. She'r sobit umidli oshiqning bir qadar nekbin iltijosi bilan yakunlanadi:

*Ko'ngil bu kechada o'zidan kechar,
Bu so'nggi xotima, bo'lmas boshqa payt.
Men senga sevishim aytaman endi,
Sen menga: "Xatingiz o'qiyman", – deb ayt.*

Bir she'rida shoir sevishtanlar o'rtasidagi chigaldan chigal munosabatlarning tushunish oson bo'lmaydigan serqatlam tasvirini beradi: **"Namxush noyabrday tugab boryapman, Qahraton kelsa gar, nihoya tayin. Sening ketganingni ko'rganman, yetar, Sening kelmasliging ko'rib qolmayin. Qaytar vaqting bo'ldi, yorijon"**. Yordan ayrolik uni oxir kuz yanglig' holsizlantirib bormoqda. Munosabatlarning qishi esa umriga nuqta qo'yishi tayin. Yorning ketgani uni shu g'arib holga solgan, uning kelmay qo'yishiga esa lirik qahramon bardosh berolmaydi. Shu sabab uning qaytar vaqti bo'lganini yodiga solmoqda. Shoir so'zdagi, harakatdagi va o'ydagi sezilar-sezilmas farqlarida ilg'ay olish va ifodalay bilish mahorati sabab ketganini ko'rishga kuchi yetganini, ammo kelmasligini ko'rishga ojizlik qilishini o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Chin iste'dod egasi o'zini hamisha dunyodagi barcha yaxshi-yomon ishlar uchun javobgar hisoblaydi. Shuning uchun o'zidan hech qoniqmaydi. Najmiddin Ermatning she'rlarida ham undagi kuchli mas'ullik tuyg'usi aks etadi. Ularda hayot haqiqatlari ko'ngil haqiqatlariga aylantirilgani uchun shoir faqat o'zi to'g'risida gapirganday bo'lsa-da, aslida butun bashariyat, millat, vatan singari yirik tushunchalar miqyosida fikrlayotgan bo'ladi.

Najmiddin “So’rov” she’rida yovuzlikni to’xtata olmagani, ezgulikka esa qalqon bo’lolmagani uchun o’zidan yozg’irib yozadi: *“Hayronman, kim kimga otayapti o’q? Na o’qni to’xtatdim, na bo’ldim qalqon. Boshini chuqurga berkitgan askar Bugun tirikman deb bo’lar qahramon”*. Shoir hayot murakkabliklarini anglamagani, voqealarning yaratuvchisi emas, balki kuzatuvchisigina bo’lib qolayotganini xuddi jang vaqti boshini panaga olib, tirik qolgani uchungina qahramonman, deb da’vo qilgan askarga o’xshatadi. She’rning keyingi to’rtligida tili Haqni aytmayotgani, dilidagi o’t alanganmayotgani, haqsizlikka ko’nikkanday bo’lgani sabab men o’zi tirikmanmi, deb savol qo’yishga majbur qiladi:

*Hayronman, ne uchun Haq demas tilim
Yoki o’chirdimmi dildagi cho’g’ni?
Nega ko’nayapman haqsizlikka jim,
Menga bir qaranglar, o’lganim yo’qmi?..*

Milliy poeziyamiz tajribasida yozg’irib she’rlar oz emas, lekin boshqa biron she’rda Najmiddin singari *“Menga bir qaranglar, o’lganim yo’qmi?..”* tarzida savol qo’yilmagan edi. Bu otashin savol she’rning ta’sir kuchini oshirgan. Odatda shoirlarga ko’proq o’zgalardan yozg’irish xos bo’lardi. Najmiddin norozilikni o’zining shaxsiyatiga ko’chirgani uchun bitikning ta’sir darajasi ortadi.

N.Ermatning ko’pchilik she’rlari uyg’otishga chorlovchi da’vatkor she’riyat. Lekin ular faqat aqlga ta’sir qiladigan yalang’och yo’sinda bitilmaydi, balki o’qirmanni hayajonga soladigan, ruhiy muvozanatdan chiqaradigan, ayni vaqtda, zavq ham uyg’otadigan yo’sinda bitiladi. Aslida ham o’qirmanda tuyg’u qo’zg’aydigan shoirigina haqiqiy ijodkordir. Chunki chin she’r hayajondan yaraladi va hayajon yarata oladi.

Najmiddinning she’rlaridagi chorlov o’zgalardan ko’ra ko’proq o’ziga qaratiladi. O’zi esa ko’pning biri bo’lgani,

o’zini elidan ajratmagani uchun da’vatlari millat ahliga ham tegishli bo’ladi. Shoir o’y odami uchun uyg’oqlikning ulkan mas’uliyat ekanini teran his qiladi. Savol beradigan, muammo ko’taradigan uyg’oq odam har qanday tuzum va tizim uchun noqulaylik tug’diradi. Shu bois bir o’rinda *“Ushbu she’r Shirin tushlarini suvga oqizib, Bemahal uyg’ongan odam haqida”*, deb yozadi. Jamiyatning bir maromdagi mudroq hayotiga uyg’oq nazar tashlaydigan odam hamisha bemahal uyg’ongan sanaladi. Shoir ana shunday uyg’oqlikda saodat ko’radi.

Najmiddinning butun poetik ijodi millatni erkin, baxtli ko’rishni istagi ifodasiga qaratilgan. U hurligini o’zi qozongan va shu tufayli baxtli bo’lishga haqli ulusni ko’rmoq istaydi. Uni topmaganida esa qalamidan alam-u iztirob yog’iladi:

*Axir nima uchun ko’nmaydi ko’nglim,
Baxt deb yozay desam, dard tomar oqqa.
Yoki bu millatning hurligi yolg’on,
Yoki she’rlarimning bari safsata...*

Shoir millatining ruhan chin hurlikka ega va shunga loyiq bo’lishini orzulaydi. Ayrim she’rlaridagi chegarasiz anduh, iztirob o’sha orzuning to’liq ushalmagani sabab yuzaga keladi.

Umuman, Najmiddin Ermat – hayot va millat ruhiyatining lirik manzarasini ayovsizlik bilan tasvirlaydigan shoir. Odatda “shafqatsiz realizm” birikmasi proza asarlariga qarata aytilardi. Najmiddinning lirikasi esa ayni shu xususiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Lekin shoirning shafqatsizligi millat va vatanga emas, balki undagi illatlarga qaratilgan. Uning ayovsizligida buyuk bir ayov, shafqatsizligida esa cheksiz mehr balqib turadi. Shu bois uning bitganlari kishida umidsizlik uyg’otmaydi, balki o’qirmanni o’yga toldirib, o’zini isloh qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov N. Turon sog’inchi. – Toshkent: Akademnashr, 2024.
2. Ermatov N. Bo’zla endi, bo’zto’rg’ay. – Toshkent: O’zbekiston yozuvchilari uyushmasi, 2021.

Dilruh HAYITOVA,

*Buxoro davlat pedagogika instituti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi
1-bosqich magistranti*

Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiyaga oid metaforalarning semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy tilshunoslikda metaforik konseptualizatsiya kognitiv tilshunoslikning muhim yo’nalishi sifatida e’tirof etilgan bo’lib, ekologiya mavzusidagi metaforalar inson ongida tabiat bilan bog’liq konseptual tizimlarning shakllanishini aks ettiradi. Tadqiqotda ekologik metaforalarning semantik strukturasi, ularning til va madaniyatda namoyon bo’lish xususiyatlari hamda ekologik ong shakllanishidagi roli ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: ekologiyaga oid metafora, semantik tahlil, kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, ekologik diskurs, metaforik konseptualizatsiya.

Annotation. This article analyzes the semantic features of ecological metaphors. In modern linguistics, metaphorical conceptualization is recognized as an important direction of cognitive linguistics, and metaphors on the topic of ecology reflect the formation of conceptual systems related to nature in human consciousness. The study examines the semantic structure of ecological metaphors, their peculiarities of manifestation in language and culture, and their role in the formation of ecological consciousness.

Keywords: ecological metaphor, semantic analysis, cognitive linguistics, conceptual metaphor, ecological discourse, metaphorical conceptualization.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические особенности экологических метафор. В современной лингвистике метафорическая концептуализация признана важным направлением когнитивной лингвистики, а метафоры на тему экологии отражают формирование концептуальных систем, связанных с природой, в сознании человека. В исследовании рассматривается семантическая структура экологических метафор, особенности их проявления в языке и культуре, а также их роль в формировании экологического сознания.

Ключевые слова: экологическая метафора, семантический анализ, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, экологический дискурс, метафорическая концептуализация.

Zamonaviy tilshunoslikda metaforaga nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki fikrlash va dunyoni anglash mexanizmi sifatida qaraladi. Jorj Lakoff va Mark Jonsonning “konseptual metafora” nazariyasi metaforalarning kognitiv tabiati haqidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirdi [1]. Ekologik muammolar global ahamiyat kasb etgan hozirgi davrda ekologiyaga oid metaforalar tilshunoslik, ekologiya va madaniy tadqiqotlar kesishmasida alohida e'tiborni tortmoqda. Ekologiya mavzusidagi metaforalar tabiat, atrof-muhit va ekologik jarayonlar bilan bog'liq tushunchalarni boshqa predmet sohaslariga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan metaforik modellaridir. Ular jamiyatning ekologik ongini shakllantirish, ekologik muammolarni anglash va ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili bir necha jihatdan dolzarbdir. Birinchidan, zamonaviy ekologik diskursda metaforalar ekologik bilimlarni ommalashtirish va ekologik xulq-atvorni shakllantirish uchun keng qo'llaniladi [2]. Ikkinchidan, turli tillardagi bunday metaforalar o'sha jamiyatning tabiatga munosabatini, ekologik qadriyatlarini va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Uchinchidan, bu turdagi metaforalarning semantik strukturasi o'rganish kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini boyitadi va metaforik konseptualizatsiya mexanizmlarini tushunishga yordam beradi. Tilshunoslik fani rivojida metaforaga oid tadqiqotlar alohida yo'nalish bo'lib, A.N.Baranov, Y.N.Karaulov, Z.D.Popova, I.A.Sternin, E.V.Raxilina kabi olimlar rus tilshunosligida metaforalarning kognitiv-semantik asoslarini o'rganishga katta hissa qo'shgan [3]. O'zbek tilshunosligida metafora muammolarini R.Rasulov, N.Mahmudov, H.Dadaboyev va boshqalar tadqiq etgan bo'lsa-da, ekologiya mavzusidagi metaforalarning maxsus semantik tahlili hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologik asosi sifatida kognitiv tilshunoslikning konseptual metafora nazariyasi va semantik tahlil usullari qabul qilingan. Jorj Lakoff va Mark Jonsonning “Metaphors We Live By” asarida ilgari surilgan “konseptual metafora” nazariyasi metaforalarni abstrakt tushunchalarni aniqroq va tushunarli tushunchalar orqali ifodalash mexanizmi sifatida belgilaydi [1]. Semantik tahlil metodologiyasi komponent, distribusyon va kontekstual tahlilni o'z ichiga oladi. Komponent tahlil metaforaning semantik tarkibidagi ma'no komponentlarini ajratib ko'rsatish, distribusyon tahlil metaforaning til tizimida qo'llanish doirasini aniqlash, kontekstual tahlil esa metaforaning aniq nutqiy vaziyatdagi ma'nosini ochib berishga xizmat qiladi [4]. Ekologiyaga oid metaforalarni tahlil qilishda korpus lingvistikasi usullari ham qo'llaniladi, bu esa katta hajmdagi matniiy materiallardan ekologiya bilan bog'liq metaforalarni ajratib olish va ularning qo'llanish chastotasini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologiyaga oid metaforalar turli yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda. Elena Semino va boshqa tadqiqotchilar bunday metaforalarning ommaviy kommunikatsiyada, ayniqsa ommaviy axborot vositalarida qo'llanishini o'rgangan [5]. Ular ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi kabi muammolarni yoritishda metaforalarning muhim rol o'ynashini ko'rsatdilar. Charlz Fillmorning “freym semantikasi” nazariyasi metaforalarni tushinishda muhim ahamiyatga ega, chunki u konseptual tuzilmalarning shakllanishini tushunishga yordam beradi [6]. Rus tilshunosligida A.P.Chudinov metaforalarning siyosiy diskursdagi rolini chuqur o'rgangan va metaforik modellar nazariyasini ishlab chiqqan [7].

Ekologik lingvistika yo'nalishi Einar Haugenning “tilning ekologiyasi” konsepsiyasidan kelib chiqqan [8]. Arran Stibbe ekologik diskurs tahlili bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan

va ekologik yo'naltirilgan diskursda metaforalarning rolini ko'rsatgan [9]. Uning fikricha, biz qo'llaydigan metaforalar tabiatga munosabatimizni shakllantiradi va ekologik xulq-atvorimizni belgilaydi. Masalan, tabiatni “resurs” sifatida ko'rib chiqadigan metaforalar foydalanishga yo'naltirilgan munosabatni shakllantirsa, tabiatni “onada” yoki “uyda” deb tasavvur qiladigan metaforalar g'amxo'rlik va himoya qilish kayfiyatini uyg'otadi. Zsofia Demjen va Elena Seminoning tadqiqotlari sog'liqni saqlash diskursida ekologiya mavzusidagi metaforalarning qo'llanishini ko'rsatadi, bu esa metaforalarning interdissiplinar xarakterini tasdiqlaydi [10].

Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili bir necha muhim natijalarni ko'rsatdi. Birinchidan, ekologiya mavzusidagi metaforalarni asosiy uch konseptual sohaga ajratish mumkin: biologik-ekologik metaforalar (o'simliklar, hayvonlar, ekotizimlar), geografik-landshaft metaforalar (tog'lar, daryolar, o'rmonlar) va ekologik jarayon metaforalari (o'sish, rivojlanish, muvozanat, ifloslanish). Har bir guruh o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega va turli diskurs sohaslarida turlicha funksiyalarni bajaradi. Biologik-ekologik metaforalar jamiyat va tashkilotlarni jonli organizmlar yoki ekotizimlar sifatida tasavvur qilishga asoslanadi. Masalan, ingliz tilida *the company is growing* (kompaniya o'sib bormoqda), rus tilida *организм общества* (jamiyat organizmi), o'zbek tilida *iqtisodiyot sog'ligi* kabi iboralar biologik o'sish va rivojlanish ma'nolarini ijtimoiy sohalarga ko'chiradi. Bu metaforalar dinamik jarayonlarni, tabiiy rivojlanishni va o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. Semantik jihatdan bu metaforalar nishon sohasiga tiriklik, tabiiylik, organik rivojlanish, adaptatsiya kabi ma'nolarni kiritadi. *Sog'lom iqtisodiyot* iborasida sog'liq konsepti iqtisodiy tizimning normal funkcionallashuvini, *kasallikka uchragan bozor* iborasida esa noto'g'ri funkcionallashuvni bildiradi.

Ekologik jarayon metaforalari tabiatdagi o'zgarish, muvozanat, ifloslanish, tozalanish kabi jarayonlarni boshqa sohalarga ko'chirish asosida quriladi. *Axborot ifloslanganligi, kadrlarni tiklash, bozorni tozalash, jamiyatni qayta tiklash* kabi iboralar ekologik jarayonlarning semantik xususiyatlarini ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga proyeksiyalaydi. Bu metaforalar ijobiy yoki salbiy baholash funksiyasini bajaradi: *tozalik, tiklash, muvozanat* ijobiy; *ifloslanish, buzilish, yo'qotish* esa salbiy konnotatsiyaga ega. Semantik jihatdan bu metaforalar ekologik normalar va qiymatlarni boshqa sohalarga ko'chirib, nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekani haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, turli tillardagi ekologik metaforalar ko'p jihatdan o'xshash, bu ularning universal kognitiv mexanizmlardan kelib chiqishini tasdiqlaydi. Biroq madaniy xususiyatlar ham muhim farqlar yaratadi. Masalan, o'zbek tilida *ona tuproq* metaforasi nafaqat hududni, balki ajdodlar maskani, milliy o'zlik asosi kabi ma'nolarni anglatadi va chuqur emotsional qiymat yukiga ega. Rus tilida “*мат земля*” (ona yer) metaforasi ham shunga o'xshash ma'noga ega. Ingliz tilida *mother nature* (ona tabiat) universal bo'lsa-da, tuproq bilan bog'liq metaforalar kamroq ishlatiladi va ko'proq abstrakt ekologik tushunchalar (ecosystem, environment) metaforik konseptualizatsiyada ustunlik qiladi.

Ekologiyaga oid metaforalarning funksional imkoniyatlari juda keng. Ular bilimlarni tuzilmalashtirish, murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntirish, emotsional ta'sir ko'rsatish, baholash va axloqiy-ideologik pozitsiyalarni ifodalash funksiyalarini bajaradi. Ekologik diskursda metaforalar nafaqat tasvirlash, balki ishonitirish vositasi ham hisoblanadi. Masalan, *iqlim inqirozi* metaforasi muammoning jiddiyligini ta'kidlash, *yashil texnologiyalar* metaforasi ekologik xavfsizlik va tabiat bilan uyg'unlikni anglatish uchun

qo'llaniladi. Siyosiy va ijtimoiy diskursda ekologiyaga oid metaforalar ideologik kurash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin: muayyan hodisalarni "tabiiy" yoki "tabiiy emas", "sog'lom" yoki "kasallangan" deb ta'riflash orqali ma'lum munosabatni shakllantirish mumkin.

Ekologiyaga oid metaforalarning semantik strukturasi tahlil qilish ularning ko'p qatlamli xarakterini ko'rsatadi. Metaforaning denotativ (to'g'ridan to'g'ri ma'no), konnotativ (qo'shimcha emotsional-baholovchi) va pragmatik (kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi) ma'nosi farqlanadi. Masalan, *jamiyat organizmi* metaforasining denotativ ma'nosi jamiyatning tarkibiy qismlardan tashkil topganini, konnotativ ma'nosi bu qismlarning o'zaro bog'liqligi va yaxlitligini, pragmatik ma'nosi esa jamiyatga mexanik emas, organik yondashuv zarurligini anglatadi. Metaforaning kognitiv semantikasi manba va nishon sohalari o'rtasidagi konseptual xaritalashni o'rganadi va qaysi xususiyatlar ko'chirilishi, qaysilari e'tiborga olinmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili ularning murakkab kognitiv-semantik tabiati va keng funksional imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bunday metaforalar nafaqat til hodisasi, balki fikrlash usuli, dunyoni konseptualizatsiya qilish

mexanizmi va madaniy qadriyatlarini ifodalash vositasidir. Ular biologik, geografik va ekologik jarayon konseptlarini turli abstrakt sohalarga sistemali ravishda ko'chirish orqali hosil bo'ladi va bilimlarni tuzilmashtirish, tasvirlash, tushuntirish, emotsional ta'sir ko'rsatish, baholash funksiyalarini bajaradi. Turli tillardagi ekologiyaga oid metaforalarning qiyosiy tahlili ularning universal kognitiv asoslarga ega ekanini, shu bilan birga, madaniy xususiyatlar muhim farqlar yaratishini ko'rsatadi. O'zbek, rus va ingliz tillaridagi ekologiyaga oid metaforalar o'xshash konseptual sohalardan foydalansada, madaniy kontekst va tarixiy tajriba ularning semantik strukturasi o'ziga xos xususiyatlar kiritadi. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati kognitiv tilshunoslik va semantik tadqiqotlar uchun yangi material taqdim etishdan iborat. Ekologiyaga oid metaforalarning semantik tahlili konseptual metafora nazariyasini boyitadi va metaforik konseptualizatsiya mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Amaliy jihatdan esa bu tadqiqot natijalari ekologik ta'lim, ekologik kommunikatsiya va ekologik diskurs tahlilida qo'llanilishi mumkin. Ekologiyaga oid metaforalarni to'g'ri tushunish va samarali qo'llash jamiyatda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Semino E. *Metaphor in Discourse*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 247 p.
3. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. *Словарь русских политических метафор*. Москва: Помовский и партнеры, 1994. – 330 с.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика*. Москва: АСТ, 2007. – 314 с.
5. Semino E., Demjen Z., Hardie A. *Metaphor, Cancer and the End of Life: A Corpus-Based Study*. – London: Routledge, 2018. – 198 p.
6. Fillmore Ch. *Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.
7. Чудинов А.П. *Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации*. Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2003. – 248 с.
8. Haugen E. *The Ecology of Language // The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment*. – London: Continuum, 2001. – P. 57–66.
9. Stibbe A. *Ecolinguistics: Language, Ecology and the Stories We Live By*. – London: Routledge, 2015. – 212 p.
10. Demjen Z., Semino E. *Using Metaphor in Healthcare: Physical Health // The Routledge Handbook of Metaphor and Language*. – London: Routledge, 2017. – P. 385–399.

Shohsanam KIMSANBOYEVA,

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

“AFG‘ON SAYOHATI” ASARIDA MUALLIF POZITSIYASI VA MAHORAT MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning “Afg'on sayohati” sayohatnoma asarining ijtimoiy va siyosiy ahamiyati ochib beriladi. Unda asosiy e'tibor muallif pozitsiyasi va mahorati masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sayohatnoma, safar, jadidlar, jamiyat, yo'l ocherki, ijtimoiy, siyosiy, muallif pozitsiyasi, publitsistika.

Annotation. This article reveals the social and political significance of Abdulla Avloniy's travelogue “Afghan Journey”. In it, the main attention is focused on the author's position and skill.

Keywords: travelogue, journey, Jadids, society, travel essay, social, political, author's position, journalism.

Аннотация. В данной статье раскрывается социальное и политическое значение путевого произведения Абдуллы Авлони «Афганское путешествие». В нем основное внимание уделяется вопросам авторской позиции и мастерства.

Ключевые слова: путешествие, поездка, джадиды, общество, путевой очерк, социальный, политический, авторская позиция, публицистика.

Adabiyot insoniyat tafakkuri va ruhiyatining ko'zgusi sifatida tarixiy haqiqatlarni yoritish, milliy o'zlikni anglash, jamiyatni tarbiyalash, xalqni ma'naviy uyg'otish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, publitsistik janrlar orasida sayohatnoma yoki safarnoma kabi shakllar o'zining faktologik dalillarga boyligi, real voqelikni badiiy-publitsistik usulda ifoda etishi bilan ajralib turadi. Bu janr orqali muallif nafaqat ko'rgan-kechirgan voqealarini bayon qiladi, balki ijtimoiy hayotga munosabatini, tarixiy, siyosiy va madaniy muammolarga bo'lgan qarashlarini

ham ifoda etadi. Shu ma'noda, sayohatnomalarda muallif pozitsiyasi, uslubiy yondashuvi, til mahorati va badiiy ifoda imkoniyatlari juda muhim omillar hisoblanadi.

XX asr boshlarida o'zbek publitsistikasi va adabiyotida yangicha ruhdagi asarlar, xususan, jadid ziyolilar tomonidan yaratilgan sayohatnomalar jamiyat tafakkurida yangilanish, uyg'onish, dunyoqarashning kengayishi kabi jarayonlarni tezlashtirishda muhim rol o'ynadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf

Fitrat kabi jadidlarining sayohatga oid asarlari orqali faqat geografik hududlar emas, balki ularning siyosiy, ijtimoiy, madaniy holati haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Shu asarlar sirasiga kiruvchi "Afg'on sayohati" asari o'zining g'oyaviy-badiiy yuksakligi, kuzatuvchanlik, teran tahlil, xalq taqdiri uchun kuyunish kabi jihatlari bilan alohida o'rin egallaydi.

"Afg'on sayohati" asari 1919-yilda yozilgan bo'lib, ilk o'zbek sayohatnomalaridan biridir. Ushbu asarda Abdulla Avloniyning Afg'onistonga qilgan safari davomida kuzatgan voqealar, Afg'oniston jamiyatining siyosiy-iqtisodiy holati, xalq turmushi, madaniy darajasi va islohotlarga bo'lgan ehtiyoji chuqur va teran tahlil qilinadi. Asarda nafaqat geografik joylar, balki jamiyat taraqqiyotidagi farqlar, musulmon xalqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, madaniy tafovutlar haqida dolzarb masalalar ko'tarilgan. Ayniqsa, muallifning fikr yuritish uslubi, masalalarni ochiq va dadil bayon qilishi o'quvchida chuqur taassurot qoldiradi.

Sayohatnomadagi muallif pozitsiyasi va mahoratini aniqlashda bir necha muhim mezonlarga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, muallifning dunyoqarashi va ideologik qarashlari asar mazmunida qanday ifodalangan? Ikkinchidan, u voqealarga qanday yondashadi – betaraf kuzatuvchimi yoki faol baholovchimi? Uchinchidan, muallif qanday til vositalaridan foydalanadi, qanday obrazlar yaratadi, qanday stilistik vositalar orqali o'z fikrini kuchaytiradi? Aynan shu mezonlar asosida Avloniyning "Afg'on sayohati" asaridagi mahorati va pozitsiyasi chuqur tahlilga tortilishi zarur.

"Afg'on sayohati"ning eng muhim jihatlardan biri – muallifning teran kuzatuvchanligi, mantiqiy tahliliga asoslangan yondashuvi, muammoga yechim topishga intilishi, betaraf emas, balki faol pozitsiya tutganidir. Avloniyning har bir jumlasida chuqur ma'naviy mas'uliyat, zamondoshlari oldidagi vijdoniy pozitsiyasi sezilib turadi. Asarda quruq tavsif emas, balki g'oyaviy yuklama, publitsistik ruh, ijtimoiy tanqid va pedagogik ruh uyg'unlashgan. Shuningdek, muallif tiliga xos soddalik, aniqlik, tarixiy-faktik asosga tayanganlik ham uning mahoratini namoyon etadi. U murakkab terminlarga emas, balki oddiy xalq tushunadigan iboralar orqali chuqur fikrlarni ifodalaydi. Bu jihatdan Avloniyning "Afg'on sayohati" asari o'zbek adabiy-publitsistik merosida chinakam publitsistik-badiiy uslubning namunasi sifatida qadrlanadi. "Afg'on sayohati" nafaqat tarixiy hujjat, balki muallifning ichki dunyosi, uning millat taqdiri uchun kuyunuvchi pozitsiyasini aks ettirgan badiiy hujjatdir. Ushbu asarda muallif o'z pozitsiyasini ochiq bildiradi, ijtimoiy adolat, taraqqiyot, milliy uyg'unish uchun kurashadi.

Atoqli olim B.Do'stqorayevning ta'kidlashicha, Abdulla Avloniyning "Afg'on sayohati" sarlavhali safarnomasi, aniqrog'i, kundaliklari o'z davrida nashr qilinmay qolgan. "1978-yilda Avloniy tavalludining yuz yilligi munosabati bilan shoirning shaxsiy arxivini ko'zdan kechirar ekanmiz, Afg'oniston safari kundaliklariga duch kelib qoldik", – deydi professor Begali Qosimov. Abdulla Avloniy respublika partiya va hukumatining topshirig'i bilan 1919-yilda RSFSR Tashqi ishlar xalq komissariatining vakili N.Z.Brovinga muovini tayinlanib, Afg'onistonga borgan. O'sha yili sentyabrda afg'on hukumati bilan olib borilgan muzokaralarning barchasida ishtirok etgan. Ushbu asar orqali Abdulla Avloniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini belgilashda, sho'rolar hokimiyatiga bo'lgan munosabatini oydinlashtirib olishimiz mumkin [1]. Abdulla Avloniy 1919-yil 15-iyunda Toshkentdan Afg'onistonga safari bilan yo'lga chiqqan. Abdulla Avloniyning "Afg'on sayohati" asari uning 1919-yilda Afg'onistonga qilgan safari davomida kuzatgan voqealar, ijtimoiy va siyosiy muhit, shuningdek,

o'zi duch kelgan shaxslar haqida hikoya qiladi. Asarda sayohat ishtirokchilari, ularning ichki nizolari, Turkiston va Afg'onistonning o'sha davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy holati keng yoritiladi. Ushbu sayohat ikki asosiy maqsadga ega: 1. Diplomantik missiya – Turkiston Sovet Respublikasi nomidan Afg'onistonga elchi sifatida borish. 2. Ijtimoiy va siyosiy kuzatuv – Avloniy o'zi guvoh bo'lgan ijtimoiy muammolarni tasvirlash orqali ularning ildizlarini ochib berishga harakat qiladi.

Asarda muallif Turkiston hududidagi musulmon aholining og'ir ahvolini ochiq tasvirlaydi. Sayohat davomida u Havast, Samarqand, Buxoro va boshqa joylardagi aholini kuzatadi va ularning qashshoqlik, jaholat va mustamlakachilik siyosati natijasida og'ir sharoitda yashayotganini tasvirlaydi. Masalan, 16-iyunda Xavos stansiyasida yo'l bo'ylab yomon ahvolda, yirtiq-yamoq kiyimdagi bolalar va ayollarni uchratadi. Ular ocharchilikdan qattiq azob chekayotganini, hatto ayrim hududlarda ochlikdan o'layotganlarni ko'rish mumkinligini aytadi. Buning sababi sifatida Turkistondagi har ishda ishboshi bo'lib o'tirgan rus "tovarishlar"ining o'zlari oshni oshalab, musulmonlarga esa yuqisini yalatishi natijasi ekanini achchiq-achchiq yozuvlar orqali keltiradi. Uningcha, rus bolsheviklari musulmonlar manfaatini himoya qilish o'rniga, ularni qashshoqlikka mahkum qilgan. Yo'l davomida qizil armiya askarlari qishloq aholisi bog'laridan mevalarni olib, hatto ayollar noroziligiga qaramay, ularni kaltaklaydi. Avloniy bu holatni qoralaydi va mahalliy xalqning ezilishini bayon qiladi.

Asarda Turkiston Sovet Respublikasining vakillari o'rtasida ham muayyan kelishmovchiliklar borligi aks etgan. Masalan, o'rtoq Brovinning o'zini general sifatida tutishi va hukmronligini o'rnatishga urinishlari safardagi boshqa kishilar orasida norozilik tug'diradi. Buning ortidan safdoshlar orasida bahs-munozaralar yuzaga keladi. Aslida, u oddiy vakil bo'lsa-da, o'zini yuqori martabali shaxs sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Shuningdek, sayohat davomida muloqotlar jarayonida muhim siyosiy masalalar ko'tariladi. Kogon shahrida o'tkazilgan yopiq majlisda ham muhim siyosiy qarorlar qabul qilingan, biroq muallif bu qarorlarni ochiq bayon qilishni lozim topmaydi.

Safar davomida poyezdlarning o'tin bilan yurishi, texnik nosozliklar sababli yuzaga kelgan muammolar, yo'llardagi og'ir sharoitlar Turkistonning iqtisodiy jihatdan qoloq holatini ochib beradi. Avloniy aholining ocharchilik bilan kurashayotganini, ba'zilar faqat tilanchilik qilib kun kechirayotganini alohida ta'kidlaydi. Avloniy "Afg'on sayohati" asarining boshida o'zi bilan birga yo'lga chiqqan Brovin, Ivanov, Kulikov singari tarixiy shaxslarning nomlarini alohida tilga oladi. Bundan tashqari, Afg'on amirining yirik vakillarini ham asar boshida tanishtirib o'tadi. Avloniy sayohatnoma asarining boshidayoq Turkiston aholisining nochor ahvoli, ilmsizligi haqida to'xtalib, uning sabablarini ochiqchasiga tahlil qiladi. Bunga sabab sifatida Rossiya samoderjaviyasining bosqinchilik siyosatini ko'rsatadi. Yozuvchi yo'lidagi voqealarga chuqur nazar soladi, har bir ko'rgan narsasiga befarq bo'lmaydi, uning siyosiy mohiyatini oshkor etadi. Abdulla Avloniy Samarqand va Buxoro yo'lidagi voqealarni sayohatnoma asarida to'liq bayon qilib beradi. Voqealarni ochiq-oydin hikoya qiladi. Ular tushgan parovoz (madaniyat ayg'iri) Turkmaniston yerlariga yetib borganini aytadi. Sayohatnomada yozuvchi eski paroxodda Amudaryo bo'ylab borayotganini hikoya qiladi. Turkman xalqining savodsizligi, johilligi, ularning ayanchli ahvoli va yomon turmush tarzi to'g'risida so'z yuritadi. Shu bilan birga, turkman yigitlarining epchil va jasurligini ham ta'kidlab o'tadi. Bu keltirilgan dalillar sayohatnomani qiziqarli

va badiiy jihatdan mukammal bo'lishiga sabab bo'lgan. Asarni o'qigan har bir kishi uni yanada qiziqib o'qiydi. Abdulla Avloniy sayohatnomada Afg'on safari mashaqatlarini keng yoritadi. Amudaryoda suzib borayotgan eski kema va unda bo'layotgan barcha voqealarni ipidan ignasigacha hikoya qiladi. Hech bir voqea va hodisa uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Yana Chorjo'ygga qaytib keladi. U yerdan Ashxobod shahri tomon yo'l olgan poyezdda ketayotgan yozuvchi Avloniy yo'l bo'yida yotgan, harobaga aylangan bog'larni, ekinzorlarni o'zining diqqat markazidan qochirmaydi. Bu harobazorlar haqida keng fikr yuritib, o'zining sayohat xotiralarini quyidagi she'riy satrlarga ko'chiradi:

*Gullar xazon o'lmish, tikoni qolmish,
Bog'lar barbod o'lmish, xazoni qolmish,
Zolim falak bu ellarga qahr etmish,
Xonavayron, singan qozoni qolmish [2].*

Abdulla Avloniy chegara shahri bo'lgan Kushkaga keladi. Shaharning tabiati, ob-havosi, odamlari haqida sayohatnoma asarida batafsil yozadi. Atrofi tog'lar bilan o'ralgan bu shaharda turli millat vakillari — turkmanlar, afg'onlar, ruslar, inglizlar va nemislar yashashini hikoya qiladi. Yozuvchi Afg'oniston xalqining naqadar odamshavandaligini, mehmondostligini o'z asarida keng tasvirlaydi. Ularning yurish-turishi, taomlarining mazaliligini ham asarda ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham Avloniyning sayohatnoma asari o'qishlidir. Sayohatnomada Afg'on xalqining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib hayot kechirishi qishloqlar misolida ko'rsatib beriladi. Bobotog' va Parvona tarixiy atamallari misolida asarning g'oyasi badiiy jihatdan ifodalanadi. Turkiston xalqlarining afg'onlar bilan hamjihat bo'lib yashaganliklari asarda keng yoritiladi. Masalan, Hirot shahri misolida buni ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asarda Turkiston va Afg'on xalqlarining siyosiy hayotiga ham urg'u beradi.

Avloniy "Oh! Turkiston! Bu Yevropa qonxo'rlarining olamso'z, otashfushon jahon muhorabalarini natijasida ne holga kelding?!" — derdik, yerlarda qovun, deya xo'rsinib-xo'rsinib qo'yardik" [3], deydi. Avloniyning yo'l ocherkida Afg'oniston xalqining turmush tarzi, urf-odati, kasb-korlari haqida batafsil hikoya qilinadi. Ko'rganlarining barchasini alohida-alohida mavzularga bo'lib tasvirlaydi. Shuning uchun ham sayohatnomani o'qigan kishida oson tushunish va chuqur taassurot qoladi. U Hirotida bo'lganida shaharning geografik

o'rniga ham alohida to'xtaladi. Bir tomoni Eron, bir tomoni Turkiston sarhadlari bilan chegaralanganini, shuning uchun ham 7–8 ming askar bu yerda muqim mudofaa uchun turishini ta'kidlaydi. Yozuvchi Hirot bozorlarini aylanan ekan, juda ko'p och-nochor odamlarga duch keladi. Tilanchilar shunchalik ko'pki, ular odamlarni ko'z ochirgani qo'ymaydi. Bu tasvir orqali Afg'on xalqining iqtisodiy jihatdan naqadar qiynalganini bilish mumkin. Poytaxt Kobul shahriga uchta yo'l bo'lib, uning ta'rificha xavf-xatarga to'la tog'li yo'lni tanlaydi. Bu yo'l Hazora tomondan bo'lib, Kobulga yaqinroq edi. Avloniy sayohatnoma asarida Kobul shahri yo'lidagi bir qancha rabotlar haqida ham ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar sayohatnoma asarining jozibadorligini oshiradi. U manzilgo'hlari orasidagi masofalarni ham aniq o'lchab boradi. Abdulla Avloniy Kobulda bo'lganida, u yerdagi turli elatlarning o'zaro nizolarini, hukumat amaldorlarining yerli xalqlarga jabr-zulm o'tkazishlarini batafsil yozadi.

Asarda voqealarning haqqoniy bayon etilganini ko'ramiz. Sayohatnomada vatandoshimiz, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga ham ancha o'rin berilgan, uni yozuvchi o'z e'tiboridan chetda qoldirmagan. Kobul shahri haqida Avloniy juda ko'p gapiradi, Yevropa uslubidagi binolar va bog'lar haqida maroq bilan so'z yuritadi. Sayohatnomaning o'ziga xosligi ham ana shunda. "Afg'on sayohati"da yozuvchi tarixiy shaxslarga ham o'rin beradi. Qo'qon xoni Xudoyarxonning nabirasi va uning urug'idan bo'lgan Akramxon to'ra haqida ham ma'lumot beradi, shu orqali siyosiy masalalarga ham yo'l ochadi. Yozuvchi o'z asarida xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanadi. Safar boshlig'i Brovin bilan Avloniy o'rtasidagi qarama-qarshiliklar paytida "Kar-kar qilar karnaychi, aybga qolgan surnaychi", "Holvani hokim yer, kaltagini yetim yer" kabi xalq maqollaridan foydalanadi. Bu maqollar sayohatnomaning til va uslub jihatidan mukammal yozilganini ko'rsatadi. Asarda siyosiy masalalar ham keng yoritilgan. Turkiston bilan Afg'oniston davlati o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar bayon etiladi. Avloniy Turkistondagi saylovlarga befarq emasligi ham sezilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning "Afg'on sayohati" asari muayyan tarixiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Unda narsa va hodisalarning go'zal tasvirlari, psixologik parchalar, ora-sira nazmlar ham o'rin olgan. Bu esa sayohatnomaning shunchaki xronikal xarakterda emas, balki belletristik (badiiy) asarga yaqin bo'lishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmatov A. Abdulla Avloniy ijodida sayohatning o'rni / "Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasi va jadid matbuotida ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024, 1(6). — P. 38–44. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2101>.
2. Avloniy A. Afg'on sayohati. www.kh-davron.uz.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-nashri. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.

Xasan ASROROV,

Toshkent xalqaro kimyo universiteti Samarqand ffiliali o'qituvchisi

O'RTA ASRLAR KOREYS NASRIDA SHAXS KONSEPTI BILAN BOG'LIQ NOMINANTLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta asr koreys nasrida uchraydigan personajlarning muallif tomonidan nomlanishi, asardagi shaxs konseptining o'ziga xos xususiyatlari, qahramonlarning asardagi xarakter-xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'rta asrlar koreys adabiyoti, shaxs konsepti, kisenlar, Li Gyubo, Xo Gyun, sosol janri, Koryo adabiyoti.

Annotation. This article reveals the author's naming of characters found in medieval Korean prose, the specific features of the concept of personality in the work, and the character traits of the characters in the work.

Keywords: medieval Korean literature, concept of personality, chains, Lee Guobao, Ho-hyun, genre of sosol, Koryo literature.

Аннотация. В данной статье раскрывается авторское наименование персонажей, встречающихся в средневековой корейской прозе, особенности концепта личности в произведении, характерные черты героев в произведении.

Ключевые слова: средневековая корейская литература, концепция личности, цепи, Ли Гобао, Хо-хён, жанр сосол, литература Корё.

O'rta asrlar koreys jamiyatidagi holatlar adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Koreya jamiyatida qadimdan konfutsiychilik, buddizm dinlarining ta'siri katta bo'lganligi adabiyotda yaqqol o'z ifodasini topgan. Asosan, miloddan avvalgi asrlardan milodiy X asr o'rtalarigacha bo'lgan ilk adabiyot davrida shaxs ilohiyashtirilib, turli afsonalar shakllanishiga zamin yaratdi. O'rta asrlar adabiyotida esa, yozuvchilar Buddaning tarjimai holidan ruhlangan holda o'z asarlarini yaratishdi. Bunda ular turli mif, shamanlarning hikoyalariidan foydalanishdi. Shu jihatdan olib qaralganda o'rta asrlarda shaxsga nisbatan qarash boshqa tomonga o'zgargan bo'lsa ham, buddizm va konfutsiychilik ta'sirlari hali-hanuz o'z kuchini saqlab qolgan edi. Shu sababdan bu davrda yozilgan asarlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ilohiy shaxslar bilan oddiy odamlar hayoti qo'shilgan tarzda ifodalangan.

Li Gyuboning "Zohid Sigyon. Xizmatkor Mix" hikoyasida xizmatkorning ismi diqqatimizni tortadi. U nima uchun "Mix" deb nomlangan? Buning ma'nosi nima? Asarga e'tibor bersak, buni bilib olishimiz mumkin. Zohid Sigyon xizmatkordan nima uchun bunday nom bilan atalishini so'raganda xizmatkor o'zining kelib chiqishi va hayotini hikoya qilish jarayonida o'z ismiga ham to'xtalib shunday deydi: "Tan sulolasining podsholik davri kelgach, men buddaviy rohib rutbasini kiydim va qariya Chjaoga shogird tushdim. Mulohazakorligim va o'qimishlilikim uchun menga "Qattiq tumshuq" degan nom berishdi. So'ng kunlarning birida Dintaoga jo'nadim va yo'lda Mix – Din-sanlanni uchratdim. U menga tikilib turib shunday dedi: "Qarasam, sening tepang ko'ndalang, pasting – tik. Familiyangni meniki bilan bog'lasakmikan?" Shuning uchun ham men hozir uning familiyasidaman, o'shandan beri uni o'zgartirganim yo'q" [1].

Demak, xizmatkor Mix ilm ortidan yuguruvchi shaxs timsolidir. Unga berilgan "Mix" nomi esa uning tashqi ko'rinishiga qarab atalgan familiyasidir. Bu kabi insonlar o'z maqsadiga erishish uchun, yuksak bilim olishni, o'z aql-zakovatlari bilan ish ko'rishni afzal ko'rishadi. Xizmatkor Mix obrazi ham adolatli, shirinsuxan, kim do'st-u kim dushmanligini yaxshi biladigan shaxsdir. U kerakli vaqtda nimani so'rash va qaysi savolga nima deb javob berishni yaxshi bilgani uchun ham atrofidagilari uni "Qattiq tumshuq" deb atashgan. Lekin shuncha xususiyatlar egasi bo'lishiga qaramay bu shaxs Xuashan tog'ida yashovchi mashhur zohidning xizmatiga kirib yanada ko'proq ilm olishni istaydi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu shaxs timsolida biz ilmga chanqoq kishilar qiyofasini ko'ramiz. U nafaqat o'z davri, balki hozirgi davr jamiyati uchun ham o'ziga xos timsol bo'lib qolgan.

1392-yilda Li Songe tomonidan Choson sulolasiga asos solinishi bilan koreys millatining rivojlanish jarayonida, shu bilan birgalikda koreys adabiyotida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Choson qiroli Buyuk Sechjon (1418–1450) hukmronligi davrida mamlakatda madaniy Uyg'onish, saroy akademiyasi – Chipxyonchon, ya'ni "Donishmandlar majlisi"ga asos solindi va bu yerda koreys alifbosining yaratilishi bilan, koreys adabiyotida katta o'zgarishlar ko'zga ko'rindi.

XVII asrda yirik hikoya janri – *sosol* rivojlanadi. Olimlar fikriga ko'ra, koreys nasri sosolning rivojlanishiga noma'lum muallif tomonidan yaratilgan "Imchjin urushi solnomasi" zamin yaratgan. *Sosol* janrining eng sara namunalari jumlasiga Xo Gyunning "Xon Gildon haqida qissa" asari, noma'lum mualliflarning "Chon Chji haqida qissa", "Pak xonim haqida afsona", "Chxunxyan haqida qissa" asarlari kiradi [1].

Yuqoridagi asarlarda qahramonlar qiyofasida shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, jamiyat a'zolari o'rtasidagi tengsizlik illatlari, yuqori mansab egalari kirdikorlari, oiladagi zo'ravonliklar ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Vatanga sadoqat, ayollarning bokiraligi, oilasiga bo'lgan sadoqati tasvirlangan.

XVII–XVIII asrlarda koreys adabiyoti yangicha mazmunda shakllana boshladi. "Sirxak" ("Aniq fanlar uchun harakat") ilmiy yo'nalishi asosida yozuvchilar satirik uslubdan shaxsning hayotini tasvirlashga, milliy ma'naviyatning abadiy qadriyatlarini tasvirlashga intildilar. Shuningdek, bu davrda koreys romani janri rivojlandi. Roman janrining shakllanishi Kim Manchjun nomi bilan bog'liq. Muallifi noma'lum bo'lgan asarlar ham talaygina uchraydi. Masalan, shunday asarlardan biri "Sadoqatda tengi yo'q Chxunxyan haqida qissa"dir. Bu qissa qahramoni Chxunxyan – "Bahor atri"dir. U mahalliy qo'shiqchi ayol, ya'ni Kisen bo'lib, uning chehrasi shu qadar go'zal bo'lganki, u bilan faqat bahor go'zalligi bellasha olgan ekan.

"Kamon qoshlari tog' cho'qqilarini, oq tishlari va aqiq lablari esa tunda ochilgan shaftoli gulini eslatar ekan. Qora bulutlarni eslatadigan sochlarini u taroq bilan yarim oy shaklida o'rib, pushtirang tasmalar bilan bog'lab olgan ekan. Egniga ipak ko'ylak ustidan oq ipakdan chakmon tashlab olgan ekan. Boshiga ipak ro'mol o'ragan, oyoqlariga ip gazlamadan paypoq va qizil kovush kiygan ekan..." [1].

Yuqoridagi tarifdan Chxunxyaning qanchalar go'zal ekanligini bilib olish mumkin. Hokimning o'g'li janob Li u bilan uchrashib, turmush qurishlari kerakligini aytganda Chxunxyan hokimning o'g'li ekan deb, tezda rozi bo'lmaydi. Aksincha, u oqilona o'ylab, kelajakni ko'rib qaror chiqaradi. Chxunxyaning bu xislat buguni jamiyatda ayrim qizlarda ham uchratish mumkin. Shu sababdan ham, Chxunxyan o'z davridagi va hozirgi davrdagi barcha yosh qizlar uchun namuna bo'lib qoldi desak bo'ladi. To'g'ri, Chxunxyan kisen bo'lishi mumkin, lekin u qalbi toza, oqko'ngil hamda samimiy o'n olti yoshli qizdir. Janob Li unga uylanib uni tashlab ketmaslik uchun ahdnoma yozib ham beradi. Ammo, taqdir taqozosi bilan janob Li boshqa viloyatga borishiga to'g'ri keladi. Ular ajralishadi. Ayni shu o'rinda biz Chxunxyaning sadoqatini ko'rishimiz mumkin. Oddiy qo'shiqchi qiz ahd-u paymon qilgan kishi bilan ajrashgach uyning ayollar qismida janob Lini kutadi, unga bo'lgan sadoqatiga, muhabbatiga zarracha ham xiyonat qilmaydi. Hattoki, yangi hokim uni o'ziga xizmat qilishga undaganida ham u hokimga bo'ysunmasdan, ko'plab azoblarni boshidan o'tkazishiga to'g'ri keladi. Nihoyat, janob Li qaytib kelgach ular birga bo'lishadi, podsho ziyofatida Chxunxyan boshidan o'tgan voqealarni hikoya qilib berganda, podsho Chxunxyaning "sodiq xotin" unvonini beradi. Chxunxyan kabi ayollar bugun jamiyatda kamdan kam uchraydi. O'z eriga bo'lgan sadoqati sababli Chxunxyan og'ir azoblarga sabr bilan bardosh berdi va o'z maqsadiga erishdi.

Kisenlar haqida gap ketganda ular turli ziyofatlarda erkaklarning ko'nglini xushlashi, ikkiyuzlamachilik holatlari ko'p uchrab turadigan holatdir. Sadoqat, vafodorlik tuyg'ulari haqida, umuman, gapirsa ham bo'ladi. Lekin, Chxunxyan kisen bo'lsa-da, yosh janob Li bilan turmush qurgandan keyin, unga nisbatan sadoqatini saqlab qoldi, o'z turmush o'rtog'iga nisbatan xiyonat qilishni o'zi uchun o'limdan ham og'ir azob deb tushundi. Aynan shu sababli, Chxunxyan keyingi avlodlar uchun o'rnak bo'luvchi sadoqat ramzi bo'lib qoldi.

Koryo adabiyotining uchinchi davrida ijod qilgan Pak Chivon o'zining "Saxovatli hojatxona tozalovchi haqida

hikoya”sida faylasuf nomidan qariya Om tog’ani “Saxovatli axlatchi janob” deb nomlaydi. Uning bunday nom bilan atalishiga sabab, Om tog’aning pul ortidan quvmasligi, undagi samimiylik va oliyanoblik hislaridir. Bir qarashda “kuni bilan axlat titib yuradigan, dasturxon ustida og’zini chapillatadigan, uxlayotganda xurrak otadigan, lapanglab yuradigan, odamlar orasida yurganda to’nkadek ovoz chiqarmaydigan yoki quloqni berkitadigan darajada xoxolab kuladigan” [1] oddiygina bir inson obrazidir. Lekin shunday bo’lsa-da, u samimiy, boshqalarga zarari tegmaydigan, aksincha, jamiyatga foydasi tegadigan shaxsdir. Uni atrofida har qancha maqtashmasin, kibrga berilmaydi, jahllanishsa, kek saqlamaydi. Atrofimizga nazar tashlaydigan bo’lsak, Om tog’a

kabi shaxslar jamiyatda ko’cha-ko’ydagi hamda odamlarning xonadonlaridagi chiqindilarni, axlatlarni tozalash kabi turli xildagi iflos ishlarni bajarsalar-da, lekin ular jamiyat uchun xayrli ishlar qiladilar. Jamiyatning toza muhitda sog’lom yashashi uchun bu shaxslar erta-yu kech mehnat qiladi. Ularga nisbatan bo’lgan yaxshi-yomon munosabatlarga qaramay ular o’zlarining bu ishlari bilan maqtanmaydilar yoki kibrga berilmaydilar. Bugungi kunda bu kabi insonlarni o’zimizning kundalik hayotimizda ham ko’plab uchratish mumkin. Zero, shaxsning qadr-qimmati uning tashqi ko’rinishi bilan emas, aksincha qiladigan ishi, beradigan foydasi bilan belgilanishini ayrim kishilar bilib olishi kerakligi g’oyasi yuqoridagi asarda asosiy o’rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. T. Saydazimova, Choy So Yong va b. Klassik koreys adabiyoti nasri antologiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2013.
2. Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы до XX века. СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского ун-та, 2003.
3. Концевич Л., Рифтин Б. Корейские предания и легенды из средневековых книг. М.: Художественная литература, 1980.

Yorkinoy NASIRDINOVA,

*Qo’qon davlat universiteti Andijon ffiliali tillarni o’qitish kafedrasini mudiri,
ffilologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori*

ALEXANDRE PAPAS TADQIQOTLARIDA TEMURIYLAR DAVRIDAGI SUFIYLIK VA ADABIYOT

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz sharqshunosi Alexandre Papas tadqiqotlarida temuriylar davri sufiylik merosi va adabiyot masalalarining yoritilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot Papasning Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi va matn madaniyatiga oid asarlari, xususan, “Ainsi parlait le derviche” kitobi, shuningdek, Alisher Navoiy ijodiga doir “maxfiy ilm/maxfiy til” konsepsiyasiga asoslangan talqinlariga tayangan. Metodologik asos sifatida interpretativ matnshunoslik, tarixiy-kontekstual va qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvlari qo’llanadi. Tadqiqot natijalari Papas yondashuvi Temuriylar davri adabiy merosini anglashda tasavvufiy konsepsiyalarni “ichki til” sifatida o’qish hamda ijtimoiy-diniy matnlarni ham tahlilga kiritish zarurligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: temuriylar davri, tasavvuf, Naqshbandiya, Alisher Navoiy, maxfiy ilm, chekka diskurs, fransuz sharqshunosligi.

Annotation. This article analyzes the illumination of the Sufi heritage and literary issues of the Timurid era in the research of the French orientalist Alexandre Papas. The research is based on Papas’s works devoted to the history of Sufism and the culture of the text of Central Asia, in particular, the book “Ainsi parlait le derviche”, as well as interpretations of the work of Alisher Navoi based on the concept of “secret science / secret language”. Interpretative textology, historical-contextual and comparative literary approaches are used as a methodological basis. The research results show that the Papas approach in understanding the literary heritage of the Timurid era requires reading Sufi concepts as an “internal language” and analyzing socio-religious texts.

Keywords: Timurid period, Sufism, Naqshbandiyya, Alisher Navoi, hidden knowledge, marginal discourse, French Orientalism.

Аннотация. В данной статье анализируется освещение суфийского наследия и литературных вопросов эпохи Тимуридов в исследованиях французского востоковеда Александра Папас. Исследование основано на его работах, посвященных истории суфизма и текстовой культуре Центральной Азии, в частности, на его книге «Так говорил дервиш», а также на интерпретациях творчества Алишера Навои, основанных на концепции «тайной науки / тайного языка». В качестве методологической основы используются интерпретативная текстология, историко-контекстуальный и сравнительно-литературоведческий подходы. Результаты исследования показывают, что подход Папаса в понимании литературного наследия эпохи Тимуридов требует чтения суфийских концепций как «внутреннего языка» и включения социально-религиозных текстов в анализ.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, суфизм, накшбандийя, Алишер Навои, тайное знание, маргинальный дискурс, французское востоковедение.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va Xurosonda siyosiy markazlashuv, ilm-fan va san’at, saroy adabiyoti, sufiylik tariqatlarini faoliyati bilan ajralib turadigan madaniy “tugun davr”. Bu davr adabiy merosini, xususan, Hirot muhitini talqin qilishda ko’pincha saroy va elita markazli qarashlar ustun bo’ladi. Aleksandr Papas tadqiqotlari esa temuriylar davri madaniyatini tushuntirishda ikki yo’nalishni uyg’unlashtiradi: bir tomondan, sufiylikning nazariy-axloqiy konsepsiyalarini adabiyot “ichki semantikasi” bilan bog’laydi; ikkinchi tomondan, diniy-ijtimoiy “chekka” guruhlar – qalandar, darvish haqidagi rivoyat va matnlarni tarixiy manba sifatida muomalaga kiritadi.

Papas Markaziy Osiyodagi “boshqa islom” hodisasiga e’tibor qaratib, musulmon jamiyatlarida dogmaga indifferent yoki antikonformistik diniy shakllar bo’lganini ko’rsatadi. U darvishlarning tajribasi nafaqat amaliy marosimlarda, balki “idiomlar”da – qisqa formulalar, qo’pol poetika, argo tilda

ham ifodalanganini ta’kidlaydi. Bu nuqtayi nazar temuriylar davri adabiyotini ham “yolg’iz poetik mahsulot” emas, balki murakkab diniy-ijtimoiy kommunikatsiya tizimi sifatida ko’rishga undaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – Papasning aynan shu metodologik tamoyillari va ular temuriylar davri sufiylik-adabiyot munosabatini yoritishda qanday ishlashini tahlil qilish [1].

Papasning asosiy ilmiy pozitsiyasi – islomni yagona, monolit hodisa sifatida tasavvur qilish noto’g’riligi. U islom “ko’p oqimli” bo’lib, turli talqin va amaliyotlar mavjudligi “hammasini bir xil” ko’rsatishga yo’l qo’ymasligini eslatadi. Bu fikr temuriylar davriga ham to’g’ridan to’g’ri tatbiq etiladi: “Hirot va Movarounnahrda Naqshbandiya kabi tariqatlar, saroy olimlari, shoirlar bilan birga “antinomik” yoki muqobil yo’nalishlar ham mavjud bo’lgan”.

Muhimi, Papas ushbu “chekka” tajribani tarixiy manbalar orqali qayta tiklash uchun ko’p tilli materialga tayanadi: u

fors, “sharqiy turk” (chig’atoy / sharqiy turkiy) va rus tilidagi manbalar asosida Markaziy Osiyoda darvishlar tarixini XV asrdagi nisbiy “bag’rikeng” mavjudlikdan keyingi davrlardagi yo’q qilinishgacha bo’lgan uzluksiz chiziqda ko’rsatadi. Bu yondashuv temuriylar davri adabiyotining “faqat saroy” emasligini, balki ijtimoiy qatlamlararo muloqot (hatto qarama-qarshilik) maydoni ekanini ko’rsatadi: darvishlar ham “o’z tili” va “o’z poetikasi” orqali tajriba yozgan.

Papas metodologiyasining eng muhim jihati – tarixchi vazifasini “yorug’likda turgan” buyuk nomlar bilan cheklamaslik. U sufiy matnlar – risolalar, qo’llanmalar, tarjimai hol to’plamlari ko’pincha real ijtimoiy “chekka” tajribani yashirishini aytib, tadqiqotchini “katta nomlar va katta matnlar”dan yuz o’girib, “soya”ga qarashga chaqiradi: mayda ustozlar, anonimlar orqali “past qatlamlar ruhiyati” ko’rinadi.

Bu tamoyil temuriylar davri adabiyotini o’rganishda ham foydali: Navoiy va Jomiy kabi mualliflarni tahlil qilish bilan bir qatorda, ular yashagan muhitda mavjud “marginal” diniy-axloqiy diskurslarni ham hisobga olish zarur. Papasning usuli shu nuqtada qiyosiy adabiyotshunoslikka yaqinlashadi: u matnning yolg’iz “badiiy-estetik” o’qimaydi, balki uni diniy antropologiya, ijtimoiy tarix va til masalalari bilan birga o’qiydi.

Papasning temuriylar davri adabiyotiga qo’shgan muhim hissasi – Navoiy matnlarida “marginal” diniylikka munosabat masalasini ochib berishidir. U *Mahbûb al-qulûbdagi* keskin baholarga qaramay, Hirotning aynan Navoiy davrida diniy chekkalik (marginalité religieuse) kuchli qiziqish uyg’otganini qayd etadi. Papas bu fikrni tarixiy xotira va adabiy manbalarni bog’lab asoslaydi: Wâsifi 1530-yillardagi xotiralarida “aqli telbalar” va darvishlar haqida epizodlar beradi, ularni saroy muhitida “ko’ngil ochish” (divertir la cour) uchun aytiladigan hikoyalar sifatida ham ko’rsatadi [1–83].

Ahamiyatli shundaki, Papas bu yerda darvish fenomenini “romantik afsona” sifatida emas, balki shaharning (Hirotning) madaniy psixologiyasiga bog’langan ijtimoiy hodisa sifatida o’qiydi. Shu kontekstda u Navoiy darvishga “alohida hudud” ajratmaganini, balki uni “ommiy shaffoflik” maydonida – ya’ni jamiyat ko’z o’ngida, odob va “yaxshi tuyg’ular” yonida tasavvur qilganini eslatadi. Bu kuzatuv temuriylar davri adabiy merosida sufiylik “ichkarida” – axloqiy-ruhiy tarbiya va “tashqarida” – ijtimoiy ko’rinish, shaharlik madaniyat qanday kesishishini ko’rsatadi.

Papas Navoiy asarlarini talqin qilishda sufiylikni oddiy “tematik fon” emas, balki matnning semantik mexanizmi sifatida ko’radi. Bibliografik manbalarda Papasning “La Makhfi’ilm ou science secrète de ‘Alî Shîr Nawâ’î. Le projet d’une langue mystique Naqshbandi” maqolasi Journal of the History of Sufism (3-son)da 229–255-betlarda qayd etilgan [2]. Ayrim ko’rsatkichlarda esa shu maqola yili 2002 deb ham beriladi (Papas, 2002, 229–255-b.). Ushbu farq amaliy bibliografiyada uchrashi mumkin bo’lgan nashr sanasi/son raqami tafovuti bilan izohlanadi; biroq maqolaning konseptual markazi o’zgarmaydi: Navoiyda “sirli bilim” va “sirli til” masalasi. Mazkur konsepsiyaning temuriylar davri adabiyoti uchun ahamiyati shundaki, u Navoiy merosini “faqat til himoyasi” yoki “til siyosati” darajasida o’qishga qarshi alternativ yo’l taklif qiladi. Marc Toutant Papasning yondashuvini sharhlab, Navoiy Muhakamat al-lug’atayn asarini biryozlama lingvistik traktat

sifatida tushunish o’rniga, matn ichida “Naqshbandiy “mistik til” loyihasi”ni “kod” sifatida o’qish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Bu talqinga ko’ra, Navoiy “klassik fors poetikasi”ning ayrim belgilarini o’zlashtirgan holda, ayni paytda “fors tilining o’zi bo’lmagan” va “ma’lum turkiy/chig’atoy”ni falsafiy-diniy konseptsiyalari xizmatiga qo’ygan badiiy til modelini shakllantirgan [3].

Papasning metodologik yutug’i shundaki, u Navoiy adabiyotini Naqshbandiya tafakkuri bilan bog’lab, “ma’no uzatish mexanizmi”ni tahlil qiladi. Ya’ni temuriylar davri poetik merosi nafaqat estetik, balki “sufiy-gnoseologik” tashuvchidir. Shu sababli Navoiy matnlarini chuqur anglash uchun “tasavvufiy konseptsiyalarni ham ichkaridan o’qish” zarurati yuzaga keladi. Papasning yondashuvi faqat g’oya va konseptsiyalar bilan cheklanmaydi; u darvish amaliyotining moddiy komponentlarini ham “matn” sifatida talqin qiladi. Masalan, qalandarlar an’anasida muayyan risola doirasida darvish anjomlari (kiyim, asbob-uskunalar) ham jismoniy, ham ramziy reyestralarda izohlanishini ko’rsatadi: muallif kiyim qismlariga oid arabcha formulalarni keltiradi, natijada “so’zlar” asketlarning diniy muhitini to’ldirib yuboradi; har bir nomlash va “yashirin ma’no” muhim.

Papas bu holatni shunday konseptual izohlaydiki, kiyim tikish va kiyinish metaforasi darvishlar tarixining o’ziga aylanadi: “patchwork” kabi har bir parcha – yoki avliyo shaxs, yoki payg’ambarlik rivoyati, yoki spekulyativ ta’limotga ulanadi.

Temuriylar davri adabiyotiga qaytadigan bo’lsak, bu yondashuv Navoiy va zamondoshlari poetikasida ham “so’z – ramz – amaliyot” uchligini ko’rishga yordam beradi. Ya’ni sufiylik timsollari faqat “she’riy bezak” emas: u ijtimoiy va marosimiy tajriba bilan bog’langan semantik tarmoqdir. Papasning fikr doirasida badiiy matn ham, marosimiy til ham, hatto kiyimning “nomlanishi” ham bir xil semantik maydonda ishlaydi.

Yuqoridagi kuzatuvlarni umumlantirib, Papas metodologiyasining temuriylar davri adabiy merosini o’rganishdagi uchta amaliy natijasini ajratish mumkin:

1. Kanonni “kengaytirish”: Hirot timuriy madaniyatini faqat saroy poetikasi bilan emas, diniy chekkalik haqidagi rivoyatlar, xotiralar, risolalar bilan ham birga o’qish [1].

2. Tilni sufiy semantika sifatida ko’rish: Navoiy matnlaridagi til bahslarini “mistik til loyihasi” sifatida talqin qilish imkoniyati Temuriylar davri adabiyotini qiyosiy (turkiy–forsiy) va diniy-intellektual kontekstda qayta o’qishga yo’l ochadi [3].

3. Manbaga yaqin “mikro” o’qish: “katta nomlar”ga tikilib qolmasdan, “soya”dagi mayda aktorlar (anonim darvishlar, qalandarlar)ga qarash, ularning til registrari (argo, qo’pol poetika, qisqa formulalar)ni tarixiy hujjat sifatida ko’rish.

Aleksandr Papas tadqiqotlarida temuriylar davri sufiylik va adabiyot munosabati ikki qatlamda ochiladi: birinchisi – Navoiy singari kanon shoirlarning matnlarida sufiylikni ichki semantik mexanizm sifatida o’qish (“maxfiy ilm/til”, Naqshbandiy “mistik til” loyihasi); ikkinchisi – temuriylar davri va undan keyingi Markaziy Osiyo muhitida diniy chekkalik (darvishlar, qalandarlar) tajribasini ko’p tilli manbalar asosida tarixiy rekonstruksiya qilish. Papasning “soya” metodologiyasi temuriylar davri adabiy merosini kengroq madaniy maydon sifatida ko’rishga yordam beradi: “Hirot – faqat saroy emas, balki ko’p ovoqli (ko’p registri) diniy-adabiy makondir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Papas A. Ainsi parlait le derviche. Les marginaux de l’islam en Asie centrale. – Paris: Cerf, 2018.
2. Papas A. “La Makhfi’ilm ou science secrète de ‘Alî Shîr Nawâ’î. Le projet d’une langue mystique Naqshbandi // Journal of the History of Sufism, 2001, 3. – P. 229–255.
3. Toutant M. Un empire de mots. Pouvoir, culture et soufisme à l’époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mîr ‘Alî Shîr Nawâ’î. – Louvain: Peeters, 2016.

Zebiniso KABILOVA,

Andijon davlat chet tillari universiteti umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti

MATNING FONOSEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnning fonosemantik jihatlari, ya'ni tovush va ma'no o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi. Tadqiqot til belgilarining bir-biri bilan bog'liqligi, ularning nutqdagi ifodalovchi roli va psixik tasviri asosida olib borilgan. Maqolada, shuningdek, fonostemalarning so'z semantikasi va badiiy ifodadagi ta'siri tahlil qilinadi, ularning fonemalar bilan aloqasi va so'z tarkibidagi o'zgarishlarga ta'siri ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonosemantik vositalar tilning ritmik, emotsional va ekspressiv qatlamlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, lug'aviy birliklarning rivojlanishida ularning roli muhim.

Kalit so'zlar: fonetika, fonosemantika, nutq, ritmik-sintaktik xususiyatlar, belgilar, ekspressivlik, emotsionallik, fonopoetika, fonetik ritm, badiiy ifoda, psixik manzara.

Annotation. In this article, the phonosemantic aspects of the text, that is, the relationship between sound and meaning, are studied. The research was conducted on the basis of the interrelationship of linguistic signs, their expressive role in speech, and their psychological representation. The article also analyzes the influence of phonostems on word semantics and artistic expression, showing their connection with phonemes and their influence on changes in word structure. The research results show that phonosemantic means are important in the rhythmic, emotional, and expressive layers of language, and their role in the development of lexical units is great.

Keywords: phonetics, phonosemantics, speech, rhythmic-syntactic features, signs, expressiveness, emotionality, phonopoetics, phonetic rhythm, artistic expression, psychological landscape.

Аннотация. В данной статье изучаются фоносемантические аспекты текста, то есть взаимосвязь между звуком и значением. Исследование проводилось на основе взаимосвязи языковых знаков, их выразительной роли в речи и психического описания. В статье также анализируется влияние фоностем на семантику слова и художественное выражение, показывается их связь с фонемами и их влияние на изменения в структуре слова. Результаты исследования показывают, что фоносемантические средства имеют важное значение в ритмическом, эмоциональном и экспрессивном пластах языка, и их роль в развитии лексических единиц велика.

Ключевые слова: фонетика, фоносемантика, речь, ритмико-синтаксические особенности, знаки, экспрессивность, эмоциональность, фонопоэтика, фонетический ритм, художественное выражение, психическая картина.

Fonostilistikani muloqotning turli soha va holatlarida fonetik hodisalarning uslubiy vazifalari, ahamiyati haqidagi qonuniyatlarni o'rganuvchi fan sifatida tushunish uni ijtimoiy lingvistikaning tashkiliy qismiga aylantiradi. Nutqning turli uslubiy ko'rinishlarining fonetik shakllanishi fonostilistik tadqiqot uchun muhim masaladir. Hozirga qadar fonostilistikaga doir tadqiqot ishlari juda kam. Fonostilistik vositalarning til semantikasiga munosabatini aniqlash va ularning tildagi mavqeini belgilash – bizning tadqiqot ishimizning asosiy vazifasi. Shu bilan birga so'zning iste'mol doirasining kengayishida fonetik motivatsiyalanishning o'rni va rolini aniqlab olish uchun tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida so'zning fonetik jihatini ko'rsatib beruvchi omillarni kompleks tarzda o'rganish taqozo etiladi. Bu tadqiqot ishi ana shu masalalarni hal etishda o'ziga xos yechim bo'ladi deb o'ylaymiz. Inson nutqidagi tovushlarda turli ma'nolar aks etadi. Ma'lum tovushlarning ma'lum ma'nolar bilan muvofiqligini o'rganish – demak, tilni o'rganishdir. Belgi – moddiy. Muloqot jarayonida belgilar faollashadi. Moddiy belgilar muloqot jarayonida so'zlashuvchilar ongida shu belgilar hissiy tasviri ko'rinishida aks etadi. Belgilar moddiy belgilarga nisbatan ikkilamchi va ularning faoliyati to'la ravishda belgilarga bog'liq hamda ular orqali belgilanadi [1].

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlashga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayon tilshunoslikka oid ko'pgina ishlarda o'zining ilmiy ifodasini topdi. Fikr moddiy asoslangan bo'lishi zarur. Nutq xuddi shunday asos bo'la oladi. Nutq fikrni ifodalash bilan birga, fikrni shakllantiradi ham. Fonostema shaklan fonema bilan teng bo'lib [2] (bunga hamma tilshunoslar ham qo'shilavermaydi), tadqiqotlarimiz davomida uni fonemaning yangi – keyingi bosqichdagi ko'rinishi sifatida baholash lozim, degan xulosaga keldik. Til stratifikatsiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, moddiy qobig'ini o'zgartirmay keyingi bosqichga ko'tarish imkoni bor. Xususan, morfema – leksema – so'z iyerarxiyasida shaklan bir xil birliklarning uchrashi tabiiy hol. Fonostemalar fonologiyaning yuqori qatlami yoki, balki, alohida qatlam bo'lib, fizik tovushning ma'noviy "yuk" olgan holati ana shu qatlamning o'rganish birligidir.

Bu sohadagi eng diqqatga sazovor tadqiqotlar A.P.Juravlyov, N.A.Pavlyuk tomonlaridan olib borilgan bo'lib, fonosemantik

tadqiqotlar jarayoniga kompyuter imkoniyatlari ham jalb etilishi bilan o'ziga xosdir [3]. Bu sohada maxsus tadqiqotlar olib borilmasa-da, juda ko'p tilshunoslar o'z qiziqishlarini namoyon qilganlar. Masalan, N.D.Arutyunovning lingvistik referensiyalarga oid tadqiqotida quyidagi fikrni uchratamiz: "Ma'nolarning shakllanishi jarayonida borliq tilga "tazyiq o'tkazadi", unda o'z belgilarini qoldirishga intiladi; referensiya jarayonida til nutqda reallashib borliqqa yo'l izlaydi", ya'ni tilda borliqning muayyan belgisi bo'lishi shart [4].

Ushbu tadqiqot ishida dialektikaning shakl va mazmun mutanosibligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ayrimlik, umumiylik va xususiyliklar birligi qonunlari metodologik asos sifatida qo'llanildi. Tadqiq jarayonida tavsiflash, tasniflash, ziddiyatga qo'yish va matematik lingvistikaning ayrim usullaridan foydalanildi.

Til taraqqiyoti jarayonida lug'aviy birliklar shakli va tarkibi, semantikasidagi o'zgarishlar turli xil ichki va tashqi omillarning o'zaro mo'jizaviy murakkab munosabatlarining natijasidir. So'zning fonetik motivlanishi o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Til lug'at boyligi boyishining umumiy qonuniyati shundan iboratki, ma'nosi eskirgan, xiralashgan, iste'mol doirasi tobora torayib borayotgan, ekspressivlik xususiyatini yo'qotib borayotgan "qotma" birliklar yangi emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan birliklar bilan o'zaro raqobatlashadi va bu kurashda o'z o'rnini ularga bo'shatib beradi. Bunday dialektik raqobat kurashi ularning tildan butkul chiqib ketishiga, yoki boshqa lug'aviy mikrosistemalar tarkibiga kirib ketishiga turtki bo'ladi.

Fonostemalarning fonemalar bilan qiyosi shunday xulosaga olib keldi. Ularning reallashuv jarayoni bir butun silsilalarning turli bo'g'inlari bo'lib, shu tufayli ham fonemalarning fizik xususiyatlari fonostemalarning semantik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi [5]. Deylik, "kuch" shkalasi bo'yicha 1-o'rinda turgan "b" bu pozitsiyani egallashida, uning "buqa", "bong", "boy" so'zlarida turishi emas, uning "jarangli", "portlovchi" undosh ekani asosiy omildir.

Shunga alohida e'tibor berish lozimki, so'zning fonostemantik tarkibi uning semantik tarkibi kabi o'ta murakkab qurilma bo'lib, muayyan fonostema o'z qo'shnilari

ta'siri, shuningdek, konstitutiv ta'sirlar natijasida o'zining semantik tavsifga teskari holatda ham turishi mumkin. Xususan, "b" fonostemasining "bola" kabi so'zlardagi mavqei uning shkalamizdagi bahosiga bir qarashda mos kelmaydi.

"b" – "kuch" shkalasida birinchi, "hajm" shkalasida to'rtinchi o'rinlarni egallagan. "Bola" esa kichik va kuchsiz.

Aftidan, bu o'rinda "l" fonostemasi yetakchi bo'lib qolgan. Chunki u "kuch" shkalasida 21, "hajm" shkalasida 25-o'rinni egallaydi. Ammo "b"ning ham o'ziga xos o'rni bor. Rus tilining shu sohadagi tadqiqotchilari orasida so'z boshida turgan fonostema yetakchilik qiladi, degan uncha qat'iy bo'lmagan qarash bor. Biz o'zbek tili fonostemalarining bu xildagi tavsifiga yetarlicha asos topmadik.

Biz fonostemalarning so'zga birikishida boshqa bir qonuniyat amal qilishiga e'tibor berdik. Fonostemaning ma'no uzvlari har bir konkret birikuv uchun alohida kompozitsiya hosil qila oladi. Masalan: "b" ning quyidagi kompozitsiyalari, ayniqsa, faol:

B – "juda yaxshi", "yoqimli"

Masalan: bola.

B – "kuchli", "katta", "faol"

Masalan: buqa.

B – "kuchli", "faol", "yoqimli"

Masalan: boy.

Fonosemantik motivlanishda boshqa tillarning materiallariga, albatta, alohida hushyorlik bilan yondashish lozimligini avval ham ta'kidlagandik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Стернин И.А., Проблемы анализа структуры значения слова. Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1979.
2. Скаличка В. Исследование венгерских звукоподражательных выражений // Пражский лингвистический кружок, 1967, №1.
3. Sharafitdinov X. Poetik fonetika // O'zbek tili va adabiyoti, 1978, №2. – B. 53–55.
4. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1975.
5. Qilichev E.R. O'zbek tilining praktik stilistikasi // Pedagogika institutlari filologiya fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 1980.
6. institutlari filologiya fakultetlari studentlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 1980.
7. Коршунов А.М., Кантатов В.В. Теория отражения и эвристическая роль знаков. М.: Наука, 1974.

Sharifa ISKANDAROVA,

Farg'ona davlat universiteti professori;

O'dina AXMADALIYEVA,

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

IS'HOQXON IBRAT IJODIDA UCHRAYDIGAN AYRIM FORS-TOJIKCHA O'ZLASHMALAR TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zlashma so'zlar haqida umumiy ma'lumot berilgan, Is'hoqxon Ibrat ijodida qo'llanilgan ba'zi fors-tojikcha leksemalar misollar orqali tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Is'hoqxon Ibrat, fors-tojikcha leksemalar, o'zlashma so'zlar, izofiy birliklar.

Annotation. This article provides an overview of borrowed words, and some Persian-Tajik lexemes used in the works of Is'hoqxon Ibrat are examined with examples.

Keywords: Is'hoqxon Ibrat, Persian-Tajik lexemes, borrowed words, izafet units.

Аннотация. В данной статье представлена общая информация о заимствованных словах, на примерах исследованы некоторые персидско-таджикские лексемы, использованные в творчестве Исхахана Ибрата.

Ключевые слова: Исхахон Ибрат, персидско-таджикские лексемы, заимствованные слова, изафетные единицы.

Barchamizga ma'lumki, dunyoda bironta ham sof til mavjud emas. Har qanday tilning lug'at tarkibi chetdan kirgan so'zlar hisobiga, yoki mavjud tilning o'z shevalaridan so'z olish natijasida boyib boradi. Chetdan kirib kelgan, jamiyat tomonidan tan olingan, kundalik muloqotda foydalaniladigan so'zlar o'zlashma so'zlar hisoblanadi. Biz ushbu tadqiqotimizda o'zlashma so'zlar haqida ma'lumot beramiz va unga namunalar keltiramiz.

Sir emaski, har qanday tilning lug'at tarkibi uch mustaqil, ya'ni noterminologik (mustaqil ma'noli so'zlar va yordamchi so'zlar), umumilmiy (ilmiy soha vakillariga xos maxsus leksemalar) hamda terminologik aniq terminologik tizimlarga oid maxsus leksemalar qatlamidan tashkil topadi [2: 243]. Boshqa tillarda kuzatilgani kabi o'zbek tili terminologik leksikasi asl o'zbekcha (turkcha), o'zlashma (sug'dcha, xitoycha, arabcha, forcha-tojikcha, mo'g'ulcha, ruscha-baynalmilal), sodda, oddiy barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qo'llanishda bo'lgan umumadabiy til, so'z yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan [3: 23].

O'zlashmalar har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri. o'zlashtirish jarayoni

murakkab hodisa bo'lib, lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'langan. Ijtimoiy-siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar natijasida u yoki bu til lug'at tarkibida o'zlashmalar paydo bo'ladi. Tabiiyki, ushbu hodisa boshqa qarindosh bo'lmagan tillardan kirgan katta miqdordagi o'zlashmalarga ega o'zbek adabiy tili uchun ham taaluqlidir.

Uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot davomida o'zbek xalqi o'zga xalq va millatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va lisoniy munosabatlarda bo'lgan. Bunday aloqalar natijasida o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi yangi tushunchalar hamda realiyalar hisobiga yanada boyidi va boyib bormoqda. O'zbek adabiy tiliga kelib chiqish nuqtai nazaridan turfa va rang-barang so'zlar o'zlashgan [3: 99].

Hozirgi o'zbek tili leksikasida fors-tojikcha o'zlashmalar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri o'ziga xos lisoniy asoslarga ega. Bu ta'sir turli lisoniy sathlarda o'z aksini topadi. Xususan, bu jarayon tilning fonetik sathida ma'lum qadar ko'proq o'z aksini topganligini keltirish mumkin. Jumladan, bir bo'g'inda qator undoshning

kelishi ham o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarda kuzatiladi.

*Qaynotangiz davlatin Sizga nasib etsun egam,
Toleying bo'lsun baland, yonsun chiroq...
Asrimiz insonlariga bo'lmadi bir dardkash,
Kimni ko'rsang suhbat aylar sanda bo'lsa non-u osh.*

Yuqoridagi parchalarda qator undoshli forscha so'zlar uchraydi: *baland* hamda *dardkash*.

*Man xasta dil hayron bo'lub,
Ishqingda sargardon bo'lub.
Parvona yanglig' o'rgulib,
Ko'rgoni keldim sog'inib.*

Ushbu she'rdagi *sargardon* so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, bu so'z tojik tilida "bosh" ma'nosini anglatadigan sar otiga "aylantir" ma'nosini beradigan gardonidan fe'lining *gardon* – hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "boshi aylanib, behuda ovora" ma'nosini anglatadi [4: 143]. Haqiqatdan ham, ushbu so'z ko'pincha *sarson* so'zi bilan juftlik hosil qilib, "qiynaldi", "ishining boshini topolmadi" kabi ma'nolarda ishlatiladi. *Sargardon* so'ziga O'ZMEda quyidagicha ta'rif beriladi: forscha sap-bosh; gardon – aylantirmoq. 1. Bekorga ovorayi sarson bo'lib yurish, ovorayi sarsonlik; 2. Boshidan o'girib sadaqa qilish; o'zbekistonning ayrim tumanlarida og'ir yotgan bemor yoki o'zining boshidan aylantirib faqirlarga berilgan pul, mol yoki boshqa qimmatbaho narsalar; 3. XX asrning 30-yillarigacha to'y va bazmlarda raqqos va raqqosalar o'yinga tushganda ularning boshlaridan aylantirib, so'ng qo'llariga berilgan pul yoki boshqa sochilgan tanga-chaqalar. Z.Alimovanning "O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'tgan o'zlashmalar lug'ati"da *sargardon* so'ziga shunday ta'rif beriladi "boshi aylanuvchi, adashib, daydib yuruvchi; parishon, nochor, notavon, daydi". Manbalardan olingan ushbu ta'rifga ko'ra *sargardon* so'zi salbiy bo'yoqqa ega leksema ekani aniqlandi.

*Xudodin yoki xat oldingmu o'lmaslikka dunyoda,
Qo'lingda bo'lsa ko'rsat o'lmasligingga bir xattu hujjat.
Tamanno aylama uxroda bu ilmim Xudodir deb,
Valilar ham o'tolmas oxirat ko'prugidin belat.*

"Xudo" forscha – diniy sig'inish va e'tiqod qilishning obyektini sifatida namoyon bo'ladigan ilohiy kuch; azaliylik va abadiylik, yaratuvchilik timsoli. Har bir dinda Xudo

butun olamni yaratuvchi sifatida e'tirof etiladi. Xudo turli ta'limotlarda turlicha talqin qilinadi. Qadimgi diniy e'tiqodlarda jonsiz narsalarga, jon va ruhga, hayvon va o'simliklarga topinilgan. O'zbekcha *xudo* so'zi forscha *xudo* so'zidan olingan bo'lib, roman-german tillaridagi *god, got, gud* so'zlari bilan o'zakkodoshdir [5: 473]. Musulmon olamida *Xudo, Alloh, Rab, Robbi* kabi so'zlar teng maqomda ishlatiladi. Ibrat ijodida forsiy izofalarni ham uchratish mumkin:

*Gar to'g'ri so'z qilursan, ul hukm egri aylar,
Anga tushuntururga dardi dahon o'lursan.
Vallot yoki qozi erur mashaqqat,
Ashrorlar so'zidin dardi nihon o'lursan.*

Izofiy birikma mustaqil ma'noga ega bo'lgan ikki va undan ortiq leksik birlikdan tashkil topishiga ko'ra so'z birikmasiga, ana shu birliklar o'zaro birikib, yangi lug'aviy ma'no ifodalashi va gapda bir sintaktik vazifada kelishiga ko'ra qo'shma so'zga o'xshab ketadi. Izofiy birikma tarkibidagi birliklarning aniqlanmish va aniqlovchi yoki qaralmish va qaratqich tarzida joylashuvi asosiy xususiyatlaridan biridir. Arab va fors tillaridan o'zlashgan izofiy birikmalar o'zbek tili uchun til hodisasi bo'lib, zaruriyatga ko'ra yangi izofiy birliklar hosil qilinmaydi, ular ko'pincha tayyor lug'aviy birlik sifatida mavjudligi bilan so'zga yaqin turadi va lug'atlarda lisoniy sifatida aks etadi [1: 13]. Yuqoridagi parchada ham izofiy birliklar ishtirok etgan bo'lib, *dard* va *dahon*, *dard* va *nihon* birliklari orqali yuzaga chiqmoqda. Jumladan, *dard* so'zi forscha so'z bo'lib, kasallik, ozor, azob kabi ma'nolarni anglatadi. *Dahon* so'zi esa aslida *dahan* – "og'iz" ma'nosini beradi. *Dard* va *dahon* birlashib, forsiy izofani tashkil qilgan hamda ma'nosi ham birlashib ketgan. Ya'ni "seni rost so'zingni ham noto'g'ri deyshaversa, sen ularga tushuntirib berguningcha darding boshlanib ketadi" ma'nosida tushunishimiz mumkin. Keyingi parchadagi *dardi nihon* birikmasi esa shoirlar so'zidan dardingni ichingga yutasan, dardingni yashirasan ma'nolarini anglashimiz mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, u yoki bu tildan o'zlashgan birliklar o'zbek tili lug'at tarkibining boyishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, tilimizdagi fors-tojikcha qatlamning shakllanishi ajdodlarimizning ushbu xalqlar bilan qadimdan davom etib kelayotgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalari natijasidir. Bunday leksik birliklarning ona tilimiz tarkibiga chuqur singib ketishi xalqlararo qo'shnichilik an'analarining lisoniy in'ikosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonov M. "Boburnoma"dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. d-ri. diss. avtoref..... – Farg'ona, 2020.
2. Даниленко В. Русская терминология. Москва: Наука, 1977.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
4. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. <https://uz.wikipedia.org> (murojaat sanasi: 01.01.2026).

Ozoda JUMAYEVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI EMOTSIONALLIKNI IFODALOVCHI METAFORIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida emotsionallikni ifodalovchi metaforalar tahlilga olingan. Tadqiqot davomida qayg'u, baxt, xursandchilik, azob, jahl, qo'rquv kabi emotsiyalarni obrazli ifodalashda ikki tildagi metaforalarning kognitiv, lingvistik va lingvokulturologik ahamiyati misollar yordamida tadqiq qilinadi. Qiyoslash metodi asosida har bir tildagi metaforalarning o'xshash va farqli xususiyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: emotsiya, metafora, konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, madaniy kod.

Annotation. This article analyzes metaphors that express emotionality in the English and Uzbek languages. The research investigates the cognitive, linguistic, and linguocultural significance of metaphors in both languages for the figurative expression of emotions such as sadness, happiness, joy, suffering, and anger with examples. The similarities and differences of metaphors in each language are demonstrated using a comparative method.

Keywords: emotions, metaphor, concept, linguoculturology, cognitive linguistics, culture, cultural code.

Аннотация. В данной статье анализируются метафоры, выражающие эмоциональность в английском и узбекском языках. В ходе исследования на примерах рассматривается когнитивное, лингвистическое и лингвокультурологическое значение метафор в обоих языках при образном выражении таких эмоций, как печаль, счастье, радость, страдание, гнев. На основе сопоставительного метода выявлены сходства и различия метафор в каждом из языков.

Ключевые слова: эмоция, метафора, концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, культура, культурный код.

Til insonning ichki kechinmalari va hissiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Inson o'z his-tuyg'ularini har doim ham bevosita ifoda eta olmaydi, shu sababli ko'pincha metaforik vositalarga murojaat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda metaforalarning o'zni beqiyosdir, chunki u nafaqat badiiy vosita sifatida emas, balki tafakkur mexanizmi sifatida asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Metaforik birliklar his-tuyg'ularning tilda ifodalanishida markaziy o'rin egallaydi. Ular majoziy til orqali emotsional tajribalarni chuqurroq anglashga ko'maklashadi. Metaforalar nutqni obrazli, ta'sirchan va mazmunan boy qilish bilan birga, milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi hissiyotni ifodalovchi metaforalarni qiyosiy o'rganish har ikki xalqning dunyoqarashi va hissiy tajribasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Emotsiyalar psixologik hodisa bo'lib, til orqali ijtimoiylashadi. Metafora esa hissiyotlar kabi mavhum tushunchalarni konkret obrazlar yordamida ifodalash imkonini beradi. Mashhur ingliz olimi E.Ortoni kundalik hayotda metaforalardan foydalanish nutqimizda ifodalab bo'lmaydigan fikrlarimizni ifodalashga yo'l ochib berishini ta'kidlagan. Zamonaviy tilshunoslikda metaforalarning kognitiv va lingvistik jihatdan chuqur tadqiq qilgan olimlar J.Lakoff va M.Jonson o'zining "Metaphors we live by" asarida quyidagi fikrlarni keltirganlar: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir" [1]. Darhaqiqat, metaforalar vositasida insonning hissiyotlari va ruhiy dunyosi to'la ochib beriladi.

Britaniyalik professor Tim Uorton emotsionallik konseptini kognitiv jihatdan tahlil qilarkan, quyidagi xulosaga keladi: "Hissiy muloqot paytida yetkaziladigan ma'lumot turi so'zlovchini hissiy jarayonlar yuqori darajada faollashadigan holatga soladi va shu sababli tinglovchi tomonidan tan olinishi va tanlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi". Ushbu fikrdagi markaziy g'oya shundaki, kognitiv ta'sir tushunchasi odatda hissiyotlarni o'qish jarayonlari bilan faollashtiriladigan yangi hissiy ta'sir tushunchasi bilan to'ldirilishi kerak.

Ingliz va o'zbek tillaridagi emotsionallikni ifodalovchi metaforik birliklarni tahlil qilish natijasida til, madaniyat va psixologiyaga oid omillarning murakkab o'zaro aloqasi namoyon bo'ladi. Ko'plab ilmiy izlanishlar hissiy ifodalarning til tuzilmalarida, ayniqsa metafora va unga yaqin obrazli birliklar orqali, qay tarzda mujassamlashganini yoritib beradi. Ingliz tilida hissiyotlarni ifodalovchi metaforalar ko'pincha tashqi va vizual belgilar asosida quriladi. Ayniqsa, ranglar orqali hissiy holatni ifodalash keng tarqalgan. Masalan quyidagi namunaga e'tiborimizni qaratsak:

– *to be blue/feel blue – xafa.* Ushbu iboralardagi blue – ko'k rang ingliz mentalitetida qayg'uli holat, xafalikni ifodalaydi.

– *green with envy – hasaddan ko'karmoq.* Iborada hasad hissiyoti green, ya'ni yashil rang bilan ifodalangan.

Bundan tashqari, ingliz tilida emotsiyani ifodalash uchun harorat bilan bog'liq so'zlar qatnashgan metaforalar ham mavjud. Masalan, *hot with anger – jahldan yonmoq* birikmasi kuchli g'azabni bildiradi. Bu metaforalar ingliz

tilida emotsiyalarning nisbatan obyektiv va umumiy talqin qilinishini ko'rsatadi. Ingliz yozuvchisi Charles Dickensning asaridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak: *Hope is a fragile flame* [2] – *Umid – nozik alanga.* Adib ushbu metafara orqali inson hayotida umidning qanchalik nozik va o'tkinchi, biroq uning tafti olov kabi insonni kuydirishini "flame" so'zi orqali o'ta mohirlik bilan ko'rsatib bergan.

O'zbek tilida esa emotsiyalar asosan ichki ruhiy holat bilan bog'liq holda ifodalangan. Ingliz tilida jismoniy holat, tabiat hodisalari va ranglar orqali yaratilgan metaforalar hissiyotni ifodalashda ustunlik qilsa, o'zbek tilida insonning jigar, yurak, ko'ngil kabi tana a'zolari hissiyotlarni ifoda etuvchi metaforalarning asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, *yuragi ezildi* iborasi chuqur qayg'uni ifodalasa, *Ko'ngli tog'dek ko'tarildi* metaforasi orqali kuchli quvonchni namoyon qiladi. Bu metaforalar o'zbek xalqining hissiyotlarga chuqur va samimiy munosabatini aks ettiradi.

O'zbek tilida *yurak* so'zi turli emotsiyalarni ifodalashda ishlatiladi:

– *Yuragi qoq yorila yozdi* [3]. Ushbu iborada yurak so'zi juda kuchli hayajonni ya'ni qo'rquvni boshdan kechirish, go'yoki bir lahzaga yuragi urishni to'xtaganday bo'lish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu metaforani aynan *yurak*, ya'ni *heart* so'zi orqali ifodalanganini ingliz tilida ham uchratish mumkin: *have one's heart stand still.*

– *...lekin, to'g'risini aytsam, ot o'yini ancha qiziq. Bularnikini ko'rib bo'lguncha yuragim tars yorilib ketayozdi* (Oybek, "Qutlug' qon") parchasidagi *Yuragi tars yorilib ketayozdi* [4] iborasi insonning sabr-chidami tugab, xunob bo'lib ketish ma'nosidagi kuchli hissiyotini ifodalaydi:

– *Uning bosh og'rig'i ham bilinmay qoldi. Yuragi to'lib, dodlab yuborguday bo'ldi. Sekin cho'ntagidan ro'molchasini olib, ko'zini artdi* (Mirmuhsin. "Hayotga qaytish"). Parchadagi *yuragi to'lib turibdi* iborasi orqali adib asar qahramonining qanchalik ruhiy azobdaligi, ayta olmay yig'ilib qolgan gaplarini kimgadir aytishga ehtiyoji borligini ifodalamoqda.

Mir Alisher Navoiy bobomiz "Xamsa"sida *Ko'nglim o't ichra yonar* iborasini keltirganlar. Ushbu parchada "Ko'ngil" so'zi orqali chuqur ichki iztirob ifodalangan. O'zbek tilida *jigar* so'zi insonning sevgi azob kabi hissiyotlarini ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan: *Qo'yavering, jigaridan urgan bo'lsa, kutadi* (S.Ahmad. "Qadrdon dalalar"). Ushbu parchadagi *jigaridan urmoq* metaforik birligi sevib qolmoq, o'ziga oshiq qilmoq ma'nolarini ifodalaydi. *Paxta deb jigarim suv bo'ldi-yu, makkajo'xoriga nima bor* (Sh.Rashidov, "Bo'rondan kuchli") parchasidagi "jigari suv bo'ldi" iborasi esa asar qahramonining qattiq ruhiy va jismoniy azobdaligini ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida emotsional metaforalar ko'proq tashqi belgilar asosida, o'zbek tilida esa ichki ruhiy kechinmalar orqali ifodalangan. Ingliz metaforalari nisbatan qisqa va neytral bo'lsa, o'zbek tilidagi metaforalar kuchli ekspressivlik va obrazlilikka ega. Ingliz va o'zbek tillarida emotsionallikni ifodalovchi metaforik birliklar til va madaniyatning uzviy bog'liqligini namoyon etadi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G. Metaphors We Live By /G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. – 276 p.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.
3. O'zbekcha iboralar. <https://toshquvvatovdictionary.wordpress.com/ozbekcha-iboralar>.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.

Dilrabo KURYAZOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi

PROKUROR IMIJI HAQIDAGI IJTIMOYIY STEREOTIPLARNING SHAKLLANISHI VA MEDIA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada prokuratura organlari xodimlarining imiji borasidagi ijtimoiy stereotiplarning shakllanishi va bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining roli tahlil qilingan. 2025-yil fevral-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'ylab 512 ta respondent ishtirokida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari asosida prokuratura organlari xodimlarining jamoatchilik nazaridagi qiyofasi, ularning kasbiy kompetensiyasi, adolati, korrupsiyaga qarshi turgan imiji va shaffoflik masalalari kompleks o'rganilgan. Tadqiqotda jamoatchilikning prokuratura organlariga nisbatan ijobiy munosabatining yuqoriligi aniqlangan bo'lsa-da, mediamakonda ideallashtirilgan imij yaratish xavflari va tanqidiy jurnalistikaning zarurligi asoslangan. Prokuratura imijini optimallashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan va OAV bilan hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: prokuror imiji, ijtimoiy stereotiplar, mediatizatsiya, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari, adolatlilik, korrupsiya darajasi, shaffoflik, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy so'rov.

Annotation. The article analyzes the formation of social stereotypes about the image of prosecutor's office employees and the role of mass media in this process. Based on the results of a social survey conducted in February-May 2025 throughout the Republic of Uzbekistan with the participation of 512 respondents, the image of prosecutor's office employees in the eyes of the public, their professional competence, level of justice, anti-corruption image and transparency issues were comprehensively studied. Although the study revealed a high level of positive public attitude towards the prosecutor's office, the risks of creating an idealized image in the media space and the need for critical journalism are substantiated. The scientific work develops directions for optimizing the prosecutor's image and provides practical recommendations for improving cooperation with the media.

Keywords: prosecutor's image, social stereotypes, mediatization, public opinion, mass media, justice, corruption level, transparency, professional competence, social survey.

Аннотация. В статье анализируется формирование социальных стереотипов об имидже работников органов прокуратуры и роль средств массовой информации в этом процессе. На основе результатов социологического опроса, проведенного в феврале-мае 2025 года по всей Республике Узбекистан с участием 512 респондентов, комплексно изучены образ работников органов прокуратуры в глазах общественности, их профессиональная компетенция, уровень справедливости, имидж в борьбе с коррупцией и вопросы транспарентности. Хотя в исследовании выявлен высокий уровень положительного отношения общественности к органам прокуратуры, обоснованы риски создания идеализированного имиджа в медиaprостранстве и необходимость критической журналистики. В научной работе разработаны направления оптимизации имиджа прокуратуры и даны практические рекомендации по совершенствованию сотрудничества со СМИ.

Ключевые слова: имидж прокурора, социальные стереотипы, медиатизация, общественное мнение, средства массовой информации, справедливость, уровень коррупции, транспарентность, профессиональная компетенция, социологический опрос.

Zamonaviy jamiyatda davlat institutlarining imiji va jamoatchilik ongida ularning qanday qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, prokuratura tizimining ijtimoiy qiyofasi nafaqat ushbu tizimning samarali faoliyatiga, balki kengroq ma'noda huquqiy davlat qurish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamoatchilik tomonidan prokuratura organlariga bo'lgan ishonch darajasi, ular faoliyatini baholash mezonlari va shakllangan stereotiplar media– makonda davlat organlari imijini konstruksiyalash mexanizmlarini tushunish uchun muhim nazariy va amaliy hodisa hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari davlat organlari faoliyatini jamoatchilikka yetkazishda va ijtimoiy stereotiplarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jurnalistika sohasi mutaxassislari prokuratura kabi davlat institutlarining qiyofasini media-makonda qanday tasvirlashi, qaysi jihatlariga e'tibor qaratishi va qanday narrativ yaratishi jamoatchilik ongida shakllanadigan imijga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli prokuratura organlari imijini ilmiy jihatdan o'rganish, ijtimoiy stereotiplarning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish va media ta'siri omillarini aniqlash ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda prokuratura tizimini isloh qilish, uning faoliyatida shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik bilan aloqalarni kengaytirish yo'nalishida olib borilayotgan keng

qamrovli ishlar prokuror imijini o'rganishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Jamiyat va davlat organlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, raqamli media muhitida samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ijtimoiy stereotiplarni boshqarish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim vazifalaridan biridir.

Imij va stereotiplar nazariyasi borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, bu sohada XX asr boshlarida amerikalik jurnalist va siyosatshunos Uolter Lippman asosiy nazariy asoslarni yaratgan. Lippman o'zining 1922-yilda nashr etilgan "Jamoatchilik fikri" asarida stereotiplar tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan va "odamlarning ongida shakllangan tasavvurlar real voqelikdan ko'ra ijtimoiy aloqa va munosabatlarni belgilashda ko'proq ahamiyatga ega" deb ta'kidlagan. Bu yondashuv zamonaviy media tahlilida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Deyvid Olport o'z tadqiqotlarida stereotiplarning ijtimoiy idrokidagi rolini chuqur o'rgangan va "stereotiplar murakkab ijtimoiy voqelikni sodda kategoriyalarga keltirish orqali bilishni yengillashtiruvchi kognitiv mexanizm" sifatida ta'riflagan. Bu nazariya prokuror imijini o'rganishda ijtimoiy tasavvurlar qanday shakllanishini tushunishga yordam beradi.

Sotsial idrok nazariyasi doirasida Serj Moskovisi ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, "ijtimoiy tasavvurlar jamiyat a'zolari o'rtasida muloqot

jarayonida yaratiladigan va tarqatiladigan bilimlar, qarashlar va ishonchlar tizimidir". Bu yondashuv prokuratura organlari imiji qanday konstruksiya qilinishini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Media ta'siri nazariyalari orasida kun tartibi nazariyasi (agenda-setting theory) alohida ahamiyat kasb etadi. Maksvell MakKombs va Donald Shou tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyaga ko'ra, "ommaviy axborot vositalari jamoatchilikka nima haqida o'ylash kerakligini aytmaydi, balki nima haqida o'ylash kerakligini belgilaydi". Bu prokuratura organlari imijini mediada qanday konstruksiya qilinishini tahlil qilishda muhim nazariy qurol hisoblanadi.

Freyning nazariyasi esa medianing ma'lum voqea yoki hodisani qanday kontekstda taqdim etishi jamoatchilik idrokiga ta'sirini o'rganadi. Robert Entman fikricha, "freyning muayyan aspektlarni tanlash va ularni kommunikatsiya matnida shunday joylashtirishki, natijada muayyan muammo ta'rifi, sababiy talqin, axloqiy baho va yechim tavsiyasi ilgari suriladi". Bu yondashuv prokurorlar haqidagi media diskursini tahlil qilishda qo'llaniladi.

Imidjologiya sohasidagi tadqiqotlar orasida fransuz sotsiologi Per Burdyo ishlari muhim o'rin tutadi. U "simvolik kapital" konsepsiyasini ishlab chiqib, "ijtimoiy maydonda aktyorlarning obro' va nufuzi ularning haqiqiy resurslaridan kam bo'lmagan ahamiyatga ega" deb ta'kidlagan. Bu prokuratura organlarining institutsional imiji qanday qiymatga ega ekanligini tushunishda muhim nazariy asos bo'ladi.

Erving Gofman o'zining dramaturgik yondashuvi doirasida "o'zini namoyish qilish" (self-presentation) konsepsiyasini ishlab chiqqan va "ijtimoiy xayotda odamlar o'zlarini muayyan rol o'ynayotgan aktyorlar kabi tutadilar va o'z imijlarini ongli ravishda boshqaradilar" deb yozgan. Bu nazariya prokurorlarning jamoatchilik oldidagi qiyofasi qanday konstruksiya qilinishini tushunishga yordam beradi.

Media ta'sirining kumulyativ modeli (cumulative effects model) doirasida Elizabet Noel-Noyman "sukut spirali" nazariyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, "odamlar o'zlarining fikrlari ko'pchilikka mos kelmasa, uni ochiq bildirishdan qo'rqadilar, natijada dominant fikr yanada kuchayib boradi". Bu nazariya prokuratura organlari haqidagi jamoatchilik fikri qanday shakllanishini tahlil qilishda qo'llaniladi.

Institutsional imij nazariyasi doirasida Kennet Boulding "imij inson yo organizatsiyaning xulq-atvorini belgilovchi reallikning subyektiv modeli" deb ta'riflagan. U imijning uch komponentini ajratgan: "kognitiv (bilishga oid), affektiv (hissiy) va konativ (xulq-atvoriga oid)". Bu yondashuv prokuratura organlari imijining ko'p qirrali tabiatini tushunishda qo'llaniladi. Davlat organlari imiji borasida rus olimlari orasida Y.B.Perelgina o'z tadqiqotlarida "davlat institutlari imiji jamiyatning siyosiy tizimga bo'lgan ishonchini belgilovchi asosiy omil" ekanligini ta'kidlagan. Bu fikr prokuratura organlari imijining jamiyat va davlat munosabatlarida tutgan o'rnini ko'rsatadi.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari prokuratura organlari xodimlarining jamoatchilik ongida asosan ijobiy qiyofaga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Respondentlarning 77,2 foizi prokurorlarga hurmat bilan qaraydi va ularni ijobiy baholaydi. Bunday yuqori ko'rsatkich bir qator omillar bilan izohlanishi mumkin. Birinchidan, prokuratura tizimining uzoq tarixiy an'analari va jamiyatda huquq-tartibotni saqlovchi muhim institut sifatidagi mavqei ijtimoiy xotirada mustahkam o'rin olgan. Ikkinchidan, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va prokuratura faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda.

Biroq tahlilda diqqatga sazovor jihat shundaki, respondentlarning 12,1 foizi betaraf pozitsiyada ekanligi aniqlangan. Bu kategoriyadagi fuqarolar prokuratura organlari faoliyati bilan yetarli darajada tanishmagan yoki ular haqida aniq tasavvurga ega emas. Bunday holat ikki xil talqinga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan, prokuratura organlarining jamoatchilik bilan aloqalari va ma'lumotlar yoritilishida ma'lum kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, aholining muayyan qismi prokuratura xizmatlari bilan bevosita aloqada bo'lmaganligi sababli neytral munosabatni tanlagan bo'lishi mumkin.

Salbiy munosabatda bo'lgan respondentlar ulushi 10,7 foizni tashkil etadi. Garchi bu raqam nisbatan kichik bo'lsa-da, uni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Salbiy stereotiplarning shakllanishida bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy salbiy tajriba, mediada yoritilgan muammoli holatlar, tizimdagi ayrim kamchiliklar va korrupsiya holatlari haqidagi xabarlar jamiyatning ma'lum qismida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Kasbiy kompetensiya masalasi prokuror imijining muhim komponenti hisoblanadi. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 58,7 foizi prokurorlarni yuqori malakali mutaxassislar deb baholagan, 28,6 foizi esa ularni yetarlicha malakali, biroq ba'zi kamchiliklari bor deb hisoblaydi. Umumiy hisobda 87,3 foiz ijobiy baho prokuratura tizimining kadrlar tayyorlash va malaka oshirish sohasidagi samarali ishini tasdiqlaydi. Biroq 12,7 foiz respondent prokurorlarning malakasini o'rtacha yoki pastroq deb baholagan tizimda mavjud muammolarga ishora qiladi.

Adolatlilik tamoyiliga rioya qilish prokuratura organlari imijining axloqiy asosini tashkil etadi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 50,2 foizi prokurorlarni to'liq adolatli deb hisoblaydi va ularning faoliyatida qonun ustuvorligi amal qilishiga ishonadi. Yana 29,9 foiz prokurorlar asosan adolatli deb baholaydi. Umumiy hisobda 80,1 foiz ijobiy baho prokuratura organlarining jamiyatdagi obro'sining yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 14,3 foiz respondent prokurorlar faoliyatini ba'zida adolatli deb baholaganligi va 5,6 foiz kamdan-kam adolatli yoki adolatsiz deb hisoblaganligi tizimdagi ma'lum muammolarni aks ettiradi.

Media-makonda prokurorlar imijining shakllanishi alohida tahlilni talab qiladi. Respondentlarning 52,1 foizi ommaviy axborot vositalarida prokurorlar juda ijobiy qahramon va adolat himoyachisi sifatida tasvirlanishini qayd etgan. Yana 27,4 foiz prokurorlar mediada asosan ijobiy yoritiladi va ularning yutuqlari ko'rsatiladi deb hisoblaydi. Umumiy hisobda 79,5 foiz respondent prokurorlarning mediadagi qiyofasi ijobiy deb baholagan. Bu ko'rsatkich ommaviy axborot vositalari prokuratura organlari bilan samarali hamkorlik qilayotganini va asosan ijobiy xabarlarni tarqatishga yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Biroq bu yerdagi muammoli jihat shundaki, haddan ortiq ijobiy imij yaratish real holatni ob'ektiv aks ettirmasligi mumkin. Prokurorlarning mediada qahramon sifatida ideallashtirilishi ikki xavf tug'diradi. Birinchidan, jamoatchilikda noreal kutuvlar shakllanishi va keyinchalik kutilmagan natijalar paydo bo'lganda keskin norozilik yuzaga kelishi mumkin. Ikkinchidan, tizimdagi haqiqiy muammolar yashirilishi va ularni hal qilish imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Faqat 15,4 foiz respondent mediada prokurorlar haqida muvozanatli axborot berilishini qayd etgan, bu esa tanqidiy jurnalistikaning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Korrupsiya masalasi prokuratura organlari imijiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi sezgir mavzulardan biridir. So'rov natijalariga

ko'ra, 55,8 foiz respondent prokuraturada korrupsiya deyarli yo'q yoki alohida holatlar bo'lishi mumkin deb hisoblaydi, 20,6 foiz esa boshqa davlat organlariga nisbatan past darajada deb baholaydi. Umumiy hisobda 76,4 foiz ijobiy baho prokuratura tizimining korrupsiyaga qarshi imijini tasdiqlaydi. Biroq 17,1 foiz o'rtacha darajada, 6,5 foiz esa yuqori darajada korrupsiya bor deb hisoblaydi.

Bu yerdagi paradoksal holat shundaki, so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida prokuratura organlarining yuqori lavozimli mansabdorlari korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilgani haqida keng yoritilgan xabarlar jamoatchilikning umumiy ijobiy munosabatiga kuchli ta'sir ko'rsatmagan. Bu holatning ikki xil izohi mumkin. Birinchi izoh shundaki, prokuratura organlarining o'z tizimidagi korrupsiya holatlarga qarshi qat'iy choralar ko'rishi jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirgan va tizimning ichki tozalanishiga ishonch uyg'otgan. Ikkinchi izoh esa respondentlarning so'rovnoma javob berishda to'liq ochiq bo'lmaganligi, davlat organi haqida salbiy fikr bildirishdan cho'chiganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shaffoflik va ochiqlik darajasi zamonaviy davlat organlari imijining muhim mezonini hisoblanadi. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, 48,9 foiz respondent prokuratura organlarini to'liq ochiq va shaffof deb baholagan, 19,2 foiz asosan ochiq deb hisoblaydi. Umumiy hisobda 68,1 foiz ijobiy baho prokuratura tizimining shaffoflikka erishishdagi yutuqlarini tasdiqlaydi. Biroq 31,9 foiz respondent prokuratura faoliyati qisman ochiq, deyarli yopiq yoki mutlaqo yopiq deb baholagani tizimda hali hal qilinmagan muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Media ta'sirining mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining katta qismi prokuratura organlari bilan bevosita aloqada bo'lmaydi va ular haqidagi ma'lumotlarni asosan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan oladi. Shuning uchun mediada yaratiladigan imij jamoatchilik ongida shakllanadigan stereotiplarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kun tartibi nazariyasiga muvofiq, media qaysi mavzularni yoritishi va qanday kontekstda taqdim etishi jamoatchilikning diqqat markazini belgilaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, O'zbekiston jamoatchiligida prokuratura organlari xodimlarining imiji asosan ijobiy bo'lib, respondentlarning aksariyati ularni adolatli, malakali va korrupsiyaga qarshi turadi deb baholaydi. Bu prokuratura tizimining uzoq yillik faoliyati davomida yaratgan obro'si va jamiyatda erishilgan ishonch darajasini aks ettiradi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, prokurorlar kasbiy kompetensiyasi yuqori baholangan va ular qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi deb e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari prokuratura organlari imijini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Media-makonda prokurorlar asosan ijobiy qahramonlar va adolat himoyachilari sifatida tasvirlanadi. Biroq bu yerda muhim muammo yuzaga chiqadi – haddan ortiq ideallashtirilgan imij yaratish real holatni ob'ektiv aks ettirmasligi va jamoatchilikda noreal kutuvlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Tanqidiy jurnalistika yetarli darajada rivojlanmagan va tizimdagi haqiqiy muammolar ko'pincha yoritilmay qolmoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy stereotiplarning shakllanishida bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy an'analar, shaxsiy tajriba, media axborotlari, korrupsiya haqidagi xabarlar va shaffoflik darajasi jamoatchilik ongida prokuratura organlari haqida ma'lum tasavvurlarni yaratadi. Bu stereotiplarning aksariyati ijobiy bo'lsa-da, respondentlarning ma'lum qismida salbiy yoki neytral munosabat mavjudligi e'tiborga loyiqdir.

To'rtinchidan, korrupsiya masalasi prokuratura imijiga eng sezgir ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Garchi jamoatchilikning aksariyati prokuraturada korrupsiya darajasi past deb hisoblasa-da, yuqori lavozimli mansabdorlarning jinoiy javobgarlikka tortilishi haqidagi xabarlar tizimga nisbatan ishonchni ma'lum darajada zaiflashtiradi. Biroq qarama-qarshilik shundaki, bunday holatlarning ochiq ko'rsatilishi ba'zi xollarda tizimning o'z ichidagi muammolarni hal qilish qobiliyatini namoyish etish sifatida qabul qilinadi.

Beshinchidan, shaffoflik va ochiqlik masalasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, respondentlarning uchdan birdan ko'prog'i prokuratura faoliyatini yetarli darajada ochiq emas deb baholaydi. Bu zamonaviy raqamli jamiyatda davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqa mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, mediatizatsiya jarayonlari prokuratura imijiga yangicha talablarni shakllantirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va yangi media muhiti prokuratura organlaridan tezkor reaksiya, interaktiv muloqot va ma'lumotlarni ochiq yetkazish ko'nikmalarini talab qilmoqda. An'anaviy bir tomonlama kommunikatsiya modelidan ikki tomonlama dialogga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz. Birinchidan, prokuratura organlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish zarur. Bunda nafaqat ijobiy yutuqlarni, balki mavjud muammolarni ham ochiq muhokama qilish imkoniyatini yaratish kerak. Tanqidiy jurnalistikani rag'batlantirish va jurnalistlarga prokuratura faoliyatining turli jihatlarini chuqurroq o'rganish uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, prokuratura organlarining raqamli kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar, mobil ilovalar orqali jamoatchilik bilan bevosita aloqa o'rnatish zamonaviy talabdir. Prokuratura xodimlarini media bilan ishlash va raqamli kommunikatsiya ko'nikmalariga o'rgatish dasturlarini joriy etish kerak.

Uchinchidan, prokuratura faoliyati to'g'risida muntazam va tizimli axborot tarqatish mexanizmini yaratish zarur. Yillik hisobotlar, statistik ma'lumotlar, muvaffaqiyatli ishlar va muammoli masalalar to'g'risida ochiq ma'lumotlar taqdim etish shaffoflikni oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda erishilgan natijalarni keng yoritish bilan birga profilaktik choralarini ham ta'kidlash lozim. Korrupsiya holatlarini faqat jazolash jarayoni sifatida emas, balki tizimni takomillashtirish va shaffoflikni oshirishning bir qismi sifatida taqdim etish kerak.

Beshinchidan, jamoatchilik fikrini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Muntazam sotsiologik so'rovlar, fokus-guruhlar va onlayn platformalarda muloqot orqali jamoatchilikning prokuratura organlariga nisbatan munosabatini o'rganish va unga mos ravishda imij strategiyasini moslashtirish zarur.

Oltinchidan, prokuratura organlarining jamoatchilik bilan aloqalar bo'limlarini kuchaytirish va ularga yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish lozim. PR mutaxassislari, sotsiologlar, psixologlar va media eksperlarining ishtiroki imijni professional darajada boshqarishga imkon beradi.

Yettinchidan, yoshlar orasida prokuratura organlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish kerak. Oliy o'quv yurtlari, maktablar va yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda prokuratura faoliyatini

ochiq ko'rsatish, amaliy mashg'ulotlar va o'quv ekskursiyalari tashkil etish kelajak avlodning huquqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlari imiji zamonaviy O'zbekistonda ijobiy bo'lib, jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Biroq globallashtirish, raqamlashuv

va jamiyat talablarining o'zgarishi yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Media bilan samarali hamkorlik, shaffoflikni oshirish, raqamli kommunikatsiya usullarini qo'llash va jamoatchilik fikriga doimiy e'tibor qaratish prokuratura imijini yanada mustahkamlash va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Lippmann W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. – 427 p.
- Allport G.W. The Nature of Prejudice. – Cambridge: Addison-Wesley Publishing Company, 1954. – 537 p.
- Moscovici S. La psychanalyse, son image et son public. – Paris: Presses Universitaires de France, 1961. – 650 p.
- McCombs M., Shaw D. The Agenda-Setting Function of Mass Media // Public Opinion Quarterly, 1972. Vol. 36, №2. – P. 176–187.
- Entman R.M. Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm // Journal of Communication, 1993. Vol. 43, №4. – P. 51–58.
- Bourdieu P. La distinction. Critique sociale du jugement. – Paris: Les Éditions de Minuit, 1979. – 670 p.
- Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – New York: Anchor Books, 1959. – 259 p.
- Noelle-Neumann E. The Spiral of Silence: Public Opinion – Our Social Skin. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 277 p.
- Boulding K. The Image: Knowledge in Life and Society. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1956. – 175 p.
- Перелыгина Е.Б. Психология имиджа. М.: Аспект Пресс, 2002.

Abdunabi TO'YCHIYEV,

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,
fflogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEKTOSH TO'RAXONLI IJODIGA CHIZGILAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbektosh To'raxonlining "Ko'ksimdagi tumorim – Vatan!" nomli she'rlar va masallar to'plamining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. To'plamdagi she'rlar an'anaviy Vatan, mustaqillik, milliy qadriyatlar va tarixiy shaxslar obrazlari orqali yurtga muhabbat, vatanparvarlik va ma'naviy mas'uliyat g'oyalarini tarannum etadi. Maqolada asarning mazmun-mohiyati, poetik yo'nalishi hamda zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: she'r, vatanparvarlik, milliy g'oya, zamonaviy o'zbek she'riyati, teatr va adabiyot uyg'unligi, badiiy tafakkur.

Annotation: This article analyzes the ideological and artistic features of the collection of poems and fables by Uzbektosh Toraxonli entitled "My amulet in my chest is the Motherland!". The poems in the collection glorify the ideas of love for the country, patriotism and spiritual responsibility through the images of traditional Motherland, independence, national values and historical figures. The article highlights the content, poetic direction of the work and its place in modern Uzbek literature.

Keywords: poem, patriotism, national idea, modern Uzbek poetry, harmony of theater and literature, artistic thought.

Аннотация. В данной статье анализируются идеологические и художественные особенности сборника стихов и басен Узбекташа Торагонли "Мой амулет в груди – Родина!". Стихотворения прославляют идеи любви к Родине, патриотизма и духовной ответственности через образы традиционной Родины, Независимости, национальных ценностей и исторических личностей. В статье освещаются содержание, поэтическое направление произведения и его место в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: стихотворение, патриотизм, национальная идея, современная узбекская поэзия, гармония театра и литературы, художественная мысль.

O'zbektosh To'raxonlining mazkur "Ko'ksimdagi tumorim – Vatan!" [1: 208] deb nomlangan she'rlar va masallar kitobi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, aytish mumkinki ijodkorning she'riyatga bo'lgan salohiyatini ko'rsatgan. Chunki, O'zbektosh To'raxonli ko'p qirrali ijodkor. U kishi O'zbekiston davlat San'at va madaniyat institutining musiqali teatr rejissurasi fakultetini tamomlagan. O'zbekiston Yozuvchilar va Teatr arboblari uyushmalari a'zosi. Dramaturg, rejissyor.

Ijodkorning "Quvonch" hikoyalar to'plami, "Oq va qora", "Qochoq kuyov" qissalar to'plami hamda "Ko'ksimdagi tumorim – Vatan!" deb nomlangan she'rlar va masallar kitobi nashr etilgan. Uning muallifligida "To'maris" spektakli sahnalashtirilgan. "Patirning yetti siri" spektaklining muallifi va sahnalashtiruvchi rejissyori. Ijodkorning o'zi bu jarayon haqida "Teatr, kino va adabiyot – osmonga tutashgan tog'lar", deb ta'rif beradi.

Bu to'plam ham odatdagidek an'anaviy Vatan, mustaqillik, allomalarimiz haqidagi she'rlar bilan boshlanadi. Bu she'rlarda Vatanga bo'lgan muhabbat balqib turadi:

Tumorim vatan!

Gullari huzurbaxsh gulzorim Vatan,
Hamisha navqiron bahorim Vatan.
Ulug'ligim baxti, umrimning ko'rki,
Ko'ksimda asragan tumorim Vatan.

Yoki

Vatan muqaddasdir, Vatan sajdagoh,
Dunyo ostonasi, qutlug' qiblagoh,
Unda shoh, kim bo'lsa holidan ogoh,
Unsak aziz Vatan bilan unarmiz,
So'nsak aziz Vatan bilan so'narmiz! [1: 150]

– singari misralar kitobxon qalbini zavqlantiradi.

Vatanning har bir qarichi muqaddas. Xalqimizda "Vatan ostonadan boshlanadi", degan gap bor. O'zbektosh To'raxonlining ijodida ham Sirdaryoga bag'ishlangan bir qancha she'rlarni uchratishimiz mumkin. Bu bejiz emas, chunki To'raxonli Sirdaryo farzandi, Guliston shahrida tug'ilgan, unib-o'sgan.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning qizi Madinaga bag'ishlagan she'rida "Chida yorug' tongni kutamiz, qizim, Biz hali hammadan o'tamiz, qizim", – degan jumlar bor. O'zbektosh To'raxonlining ham mazkur she'ri shunga hamohang yangraydi:

Yupanch so'z

Qizim, yaxshilarga yaxshi bo'ladi,
Umr koshonasi baxtga to'ladi,
Yo'liga ko'klardan nur to'kiladi,
Biz bir kun bir olam bo'lamiz, qizim,
Orzular shavqiga to'lamiz, qizim.

*Yelkamizga Xumo qushlari qo'nar,
Hali osmonimiz yulduzga to'lar,
Ko'plarga dars bo'lar biz yurgan yo'llar,
Biz hali bir olam bo'lamiz, qizim,
Bir go'zal kelajak quramiz, qizim.*

O'zbektosh To'raxonli zamonamizdagi ijtimoiy muam-molarga ham o'z munosabatini bildiradi. Uning "So'nggi sayyora" she'ri bunga misol:

*Yigirmanchi asrga kelib,
Tor bu ko'nglimizga torlik qildi yer
Oy bag'riga qadam tashladik.
Yigirma birinchi asrda esa,
Yolg'izlikda yurishni istab
Oydan ham yiroqda bo'lishni istab
Internetda yashay boshladik.*

Bu misralarda hayotimizni egallagan internet balosi o'ziga xos yo'sinda tasvirlangan. Mazkur to'plamdagi ko'plab to'rtliklar ham o'ziga xos hayotiy xulosalardir.

O'zbekxon To'raxonli she'rlari tematikasi rang-barangdir. Ijodida jadidlar, Abdulla Qodiriy, Mirzo Ulug'bek, Vatan himoyachilari, bitiruvchilar, talaba qizlar, targ'ibotchilar, faxriylar, shoir, masxaraboz, qirq yoshlilarga, hatto sotilgan do'stlarga bag'ishlangan she'rlarni uchratamiz. Shuningdek, ijodida sho'x, o'ynoqi qo'shiqbop she'rlar ham anchaginani tashkil etadi. Ko'pgina she'rlari hofizlarimiz tomonidan kuylanmoqda.

Adabiyotga qadam qo'ygan har bir insonda ichki shavq, hayajon kuchli bo'ladi va o'z yozganlari ko'ziga chiroyli va bebaho ko'rinadi. Tezroq o'z ijod namunasini keng xalq ommasiga ko'rsatgisi keladi. Albatta, ko'p ijodkorlarga xos bo'lgan, hali me'yoriga yetmagan o'rinlar O'zbektosh ijodida ham bor. Ba'zi she'rlarida ritorika, baqir-chaqir, nimagadir undashlar uchraydi, lekin nazmga xos bo'lgan poetik obraz

ko'rinmaydi. Masalan, "Bahor xirgoyisi" she'ridagi quyidagi misralarga e'tibor bering:

*Yerni uyg'ontirdi maysa shiviri,
Kuydek yangrar soylar shildir-shildiri,
Osmonni to'ldirdi qushlar chug'uri,
Yurtimga nur olib keldi navbahor,
Dasta gul ko'tarib keldi navbahor...*

Shu taxlit oddiy so'zlar tizmasidan iborat bo'lgan hamda kitobxonga she'r deb tavsiya etilayotgan misralarni qayta ishlash zarurati mavjud.

So'zning so'zdan farqi bor. Olim so'zi aqlga, shoir so'zi qalb va hissiyotga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham barcha oqil so'z she'r bo'lmagandek, barcha she'riy so'z hikmat bo'lavermaydi. Tabiatida zavq-shavq bo'lmagan inson san'atni his etishi qiyin. Ulug' olim, ulkan davlat arbobi, nodir kasb egasi bo'lish mumkin. Lekin she'r zavqi tamoman boshqa narsa. Shu xususiyati bilan she'r yuraklarni zabt etadi, ruhiyatni yuksaklarga ko'taradi.

O'zbektosh To'raxonli she'rlarini "Qushlarim" deb ataydi:

*She'rlarim – ko'ksimdan uchgan qushlarim,
Charx uring, zavq bering moviy samoga,
Ranglarga chulg'ansin rangsiz tushlarim,
Umrinni to'ldiring teran ma'noga...
She'rlarim – ko'ksimdan uchgan qushlarim...*

Yana bir o'rinda ko'ngil izhori bo'lgan kechinmalarini oqqushlarim, yoqutlarim deb ataydi va yerni yoritishni istaydi:

*"She'rlarim – oqqushlarim, orzulashni o'rgatsin.
She'rlarim – yoqutlarim, bir kaft yerni yoritsin!"*

Barcha san'at turlari kabi she'riyat ham inson qalbiga, ruhiyatiga oziq beradi, unga qanot bo'lib, yuksakka ko'taradi. O'zbekxon To'raxonli ijodiga rivoj tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbektosh To'raxonli. Ko'ksimdagi tumorim – Vatan! – Toshkent: Adabiyot, 2024. – 208 b.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
3. Karimov H. Istiqloq davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 364 b.
4. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – 304 b.

Jamila BURANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida doktoranti

ZAMONAVIY ROMANLARDA MIFOLOGIK SUJETLAR TALQINI (Xurshid Do'stmuhammad va Ulug'bek Hamdam asarlari misolida)

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek romanchiligida mifologik arxetiplar va sujet qoliplarining badiiy talqini X.Do'stmuhammad va U.Hamdami asarlari misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotda "monomif", "abadiy qaytish" va "kosmogoniya" tushunchalari orqali qahramonlar ruhiyatidagi ekzistensial evrilishlar yoritiladi. Mifologik tafakkurning zamonaviy roman strukturasi va falsafiy ko'lamini kengaytirishdagi o'zni ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mifologizm, monomif, qahramon sayohati, abadiy qaytish, arxetip, zamonaviy o'zbek romani, intellektual proza.

Annotation. The article examines the artistic interpretation of mythological archetypes and plot patterns in the modern Uzbek novel, using the works of Kh.Dostmuhammad and U.Hamdami as examples. Existential transformations in the characters' psychology are highlighted through the concepts of "monomyth", "eternal return", and "cosmogony". The role of mythological thinking in expanding the structure and philosophical scope of the modern novel is scientifically substantiated.

Keywords: mythologism, monomyth, hero's journey, eternal return, archetype, modern Uzbek novel, intellectual prose.

Аннотация. В статье исследуется художественная интерпретация мифологических архетипов и сюжетных моделей в современном узбекском романе на примере произведений Х.Достмухаммада и У.Хамдама. Через призму концепций «мономифа», «вечного возвращения» и «космогонии» освещаются экзистенциальные трансформации в психологии героев. Научно обоснована роль мифологического мышления в расширении структуры и философского масштаба современного романа.

Ключевые слова: мифологизм, мономиф, путь героя, вечное возвращение, архетип, современный узбекский роман, интеллектуальная проза.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligida mifologizm nafaqat badiiy uslub yoki estetik usul, balki borliqni anglashning universal falsafiy modeli va inson ruhiyatining tub qatlamlarini tadqiq etuvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy roman janri o'zining epik ko'lamini kengaytirish, personajlarning ichki dunyosini umuminsoniy miqyosga olib chiqish maqsadida qadimiy mifologik arxetiplarga, "qahramonning sayohati", "abadiy qaytish" va "olamning yaralishi" kabi fundamental sujet qoliplariga murojaat qilmoqda.

Jozef Kempbell o'zining monomif nazariyasida ta'kidlaganidek, mifologik sujetlar insoniyatning jamoaviy ongsizligida yashaydigan va har qanday davrda qahramonning ruhiy evrilishlarini tushuntirib beruvchi universal kodlardir [2: 45]. Bu kodlar orqali yozuvchi zamon va makon chegaralarini buzib o'tadi, o'z qahramonini muayyan ijtimoiy muhitdan chiqarib, uni borliqning abadiy haqiqatlari bilan yuzlashtiradi. O'zbek adabiyotida mustaqillik davridan so'ng shakllangan intellektual va psixologik prozada Xurshid Do'stmuhammad va Ulug'bek Hamdam ijodi ushbu yo'nalishning eng yuqori nuqtalarini tashkil etadi. Ularning asarlarida mif shunchaki tashqi bezak yoki metafora emas, balki asar konfliktini tubdan hal qiluvchi, qahramonning ekzistensial inqirozini yoritib beruvchi va sujet dinamikasini belgilovchi asosiy substansiya vazifasini o'taydi. Bu yozuvchilar mifni qayta jonlantirar ekanlar, milliy mentalitet va zamonaviy tafakkur tarzini mifologik arxetiplar bilan o'zaro uyg'unlashtirishga erishadilar. Mifologik strukturaning asosi hisoblangan "qahramon yo'li" zamonaviy romanlarda shaxsning ma'naviy kamoloti va o'zligini anglash jarayonini aks ettiradi. Jozef Kempbell qahramon yo'lini uch asosiy bosqichga: ketish (chaqiriq), tashabbus (sinovlar maydoni) va qaytishga ajratadi [2: 128]. Bu bosqichlar insonning dunyoga kelishi, qiyinchiliklar orqali chiniqishi va ma'naviy haqiqatga erishishi simvolidir.

Ulug'bek Hamdamning "Sayohat" romani strukturaviy jihatdan ushbu monomif qolipiga to'liq tayanadi va uni badiiy jihatdan boyitadi. Romandagi qahramonning jismoniy safar qilishi shunchaki tashqi dunyoni o'rganish yoki turistik harakat emas, balki Mircha Eliade ta'riflagan "markazni qidirish" (ona vatan, ona tuproq va o'zlik markazi) mifologemasidir [5: 64]. Qahramon o'zining asl "men"ni topish, ijtimoiy niqoblardan xalos bo'lish uchun odatiy hayotidan, ya'ni ijtimoiy qoliplardan chiqadi va noma'lumlik sari yo'l oladi. Bu mifik yo'lda u uchradigan turli timsollar klassik mifologiyadagi "murabbiy" (mentor) va "darvozabon" (to'siq) vazifasini bajaradi. Har bir uchrashuv qahramon uchun ma'naviy imtihon bo'lib xizmat qiladi, natijada u o'zining ichki qo'rquvlarini yengib, yangilangan shaxs sifatida shakllanadi. Muallif "Sayohat" orqali insonning butun umri aslida mifik bir safar ekanligini ta'kidlaydi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida esa "qahramon sayohati" o'ta murakkab labirint mifi bilan uyg'unlashib ketadi. Bosh qahramon Fozilning bozor ichidagi kechinmalari va intilishlari – bu tartibsiz Xaosdan (bozorning shovqin-suroni, nafs va hirs dunyosidan) tartibli Kosmosni (qalb xotirjamligi va haqiqatni) qidirish harakatidir. Bozor bu yerda shunchaki savdo-sotiq qilinadigan moddiy makon emas, balki insoniyatning barcha moddiy ehtiyojlari, ma'naviy tanazzuli va ehtirosleri jamlangan makon – mifik Labirint sifatida gavdalanadi. Labirint markazida esa haqiqat yashiringan bo'ladi. Fozil ushbu labirintdan chiqish yo'lini, ya'ni ma'naviy najotni qidirar ekan, uning har bir fikriy harakati inson ruhining yangilanishiga, qadimiy "qayta tug'ilish" mifi asosida shakllanishiga xizmat qiladi [1: 92]. Yozuvchi bozor arxetipi

orqali zamonaviy dunyoning murakkab qiyofasini va unda adashgan insonning najot yo'lini ko'rsatib beradi. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, X.Do'stmuhammad va U.Hamdam ijodida mifologik sujetlar shunchaki tarixga qaytish emas, balki kelajakka ma'naviy ko'priq tashlashdir. Ular monomif qoliplari orqali zamonaviy o'zbek qahramonining eng murakkab psixologik holatlarini universal tilda ifodalab bera olganlar.

Mifologik tafakkurning eng xarakterli xususiyatlaridan biri – bu vaqtning chiziqli (linear) emas, balki aylanma (siklik) ekanligidir. Mircha Eliade o'zining fundamental tadqiqotlarida "abadiy qaytish mifi"ni tushuntirar ekan, insoniyat tarixidagi har bir muhim voqea aslida qadimiy "ilk vaqt"da (*in illo tempore*) sodir bo'lgan muqaddas harakatning takrori ekanligini asoslaydi [5: 110]. Zamonaviy roman janrida ushbu konsepsiya qahramonning o'z o'tmishi, milliy ildizlari va ma'naviy sarchashmalari bilan yuzlashishini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida Yusuf obrazining fojiasi aynan "muvozanat"ning buzilishi, ya'ni mifik yaxlitlikdan uzilish, dunyoning moddiy va ma'naviy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikning yo'qolishidir. Qahramon o'z hayotidagi tartibni tiklash, yo'qolgan muvozanatni qaytadan topish uchun o'zligiga, ota-bobolaridan qolgan qadriyatlarga "qaytish"ga majbur bo'ladi. Bu yerda "qaytish" shunchaki nostalgiya yoki orqaga intilish emas, balki mifik vaqt ichida o'zligini qayta kashf etish, o'z taqdirining fundamental asoslarini yangitdan qurishdir [6: 156]. Yusufning azoblari muvozanatni tiklash yo'lidagi mifik qurbonlik kabi talqin qilinadi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodida, xususan, "Bozor" romani va boshqa qissalarida vaqt ko'pincha tarixiy parallelizmlar va mifik takrorlanishlar orqali beriladi. Yozuvchi vaqtni shunday tasvirlaydiki, o'quvchi bugungi kun voqealari aslida ming yillar oldingi afsonalarning zamonaviy ko'rinishi ekanini his qiladi. Bu esa o'quvchiga inson taqdiri yagona va abadiy qonuniyatlarga bo'ysunishini, har bir "yangi" voqea aslida "eski" haqiqatning qaytishi ekanligini eslatib turadi. Bunday yondashuv asar ko'lamini mahalliy muammodan umuminsoniy falsafa darajasiga ko'taradi.

Har qanday yirik badiiy asar o'zida mifik darajadagi "dunyo qanday yaratildi va u qanday yakun topadi?" degan savollarni tashiydi. Mifologiyada dunyoning yaratilishi (kosmogoniya) – bu betartiblik, ya'ni Xaosdan muayyan tizim va Tartib, ya'ni Kosmosning hosil bo'lishidir. Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida kosmogoniya mifi qahramonning ma'naviy-axloqiy tiklanishi orqali namoyon bo'ladi. Muallif jamiyatning ma'naviy chirishini, nafs va hirs hukmronligini (ma'naviy kaos) tasvirlar ekan, uning ichidan yangi, pokiza insonning tug'ilishi zarurligini uqtiradi. Fozilning bozor ichidagi ruhiy kurashlari bu– o'z qalbida yangi bir dunyoni yaratishga urinishdir. Bu jarayon mifologiyadagi "dunyoning yangidan yaralishi" motiviga to'la mos keladi, zero har bir yangilangan qalb bu – yangi bir koinotning tug'ilishidir [1: 210]. Ulug'bek Hamdam ijodida esa esxatologik (dunyoning oxiri, qiyomat) kayfiyatlar va og'riqlar ko'proq seziladi. Uning asarlaridagi qadriyatlar yemirilishi, iymon inqirozi va insonning o'zligidan begonalashishi kichik bir ma'naviy dunyoning mifik "qiyomati" sifatida gavdalanadi. Biroq, mifologik mantiq shuni ko'rsatadiki, har bir yo'q bo'lish, har bir o'lim yangi bir boshlanishning urug'ini o'zida tashiydi. "Muvozanat" romanidagi qahramonning ruhiy azoblari bu – dunyo tartibi o'zgarishi oldidan kechadigan mifik "tozalanih" (katarsis) va qayta tug'ilish jarayonidir [6: 280].

Mifologik sujetlar faqatgina voqealar ketma-ketligida emas, balki qahramonlarning arxetipik tabiatida ham namoyon bo'ladi. Karl Yung nazariyasiga ko'ra, har bir inson ongsizligida muayyan mifik obrazlar yashaydi. Ulug'bek Hamdamning "Sayohat" romanida bu holat qahramonning yo'lda uchratadigan "sirli yo'lovchi" yoki "dono murabbiy" obrazlarida aks etadi. Bu personajlar qahramonning ichki dunyosidagi yashirin haqiqatlarni yuzaga chiqaruvchi mifik "psixopomp" (ruh yo'lboshchisi) vazifasini o'taydi. Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida esa "soya" arxetipi ustuvorlik qiladi. Fozilning bozor ichidagi sargardonligi davomida u duch keladigan tuban niyatli kimsalar, aslida, insoniyatning yashirin, qorong'u tomonlarini ifodalovchi mifik maxluqlarning zamonaviy ko'rinishidir. Fozil o'zining ma'naviy poklanishi yo'lidagi nafaqat tashqi dushmanlar, balki o'z ichidagi mifik "soya" bilan ham kurashishga majbur bo'ladi [1: 142].

Zamonaviy o'zbek romanida makon shunchaki voqealar kechadigan fon emas, balki mifik simbolga aylangan. Xurshid Do'stmuhammad uchun "Bozor" bu – dunyoning mitti maketi, ya'ni mifik "Dunyo obrazi" hisoblanadi. Bozorning tartibsiz rastalari, cheksiz shovqini qadimgi miflardagi Xaosni ifodalasa, qahramonning u yerdagi o'ziga xos burchagi (kitob do'koni yoki sokin burchak) Kosmosni – tartibni ifodalaydi. Bozor – bu inson imtihon qilinadigan mifik labirintdir. Bu yerda qahramon "halok bo'lishi" (ma'naviy o'lim) yoki "qayta tug'ilishi" (ma'naviy tirilish) mumkin [3: 185]. Ulug'bek Hamdam asarlarida esa "Yo'l" makoni muqaddaslashadi. Mifologiyada "Yo'l" bu – o'tish (transitsiya) davrini anglatadi. "Sayohat" romanida qahramon bosib o'tgan masofa uning jismoniy charchog'i bilan emas, balki ma'naviy yuksalishi bilan o'lchanadi. Mircha Eliade

ta'riflaganidek, muqaddas makonga eltuvchi yo'l har doim "qiyin yo'l" (*difficult passage*) bo'lib, u mifik to'siqlar bilan to'ladi [5: 78].

Har ikki adib ham mifologik sujetlarni yoritishda maxsus til va simvollardan foydalanadi. Masalan, asarlardagi "Suv" (tozalanish), "Olov" (sinov va transformatsiya), "Tush" (paralleldunyo bilan aloqa) simvollari mifik qatlamlarni yanada chuqurlashtiradi. Xurshid Do'stmuhammad asarlarida "tush" motivi qahramonning mifik o'tmish bilan muloqot qiladigan ko'prigi vazifasini o'taydi. Tush orqali qahramon vaqt chegarasini buzib o'tadi va "ilk vaqt" haqiqatlarini anglaydi. Ulug'bek Hamdamda esa simvollar ko'proq ekzistensial muvozanatni ifodalashga xizmat qiladi. Uning asarlarida tabiat hodisalari (shamol, yomg'ir) qahramonning ichki mifik holati – tartibsizlikdan uyg'unlikka o'tishini ko'rsatib beruvchi mifik xabarchilardir [6: 215].

Xurshid Do'stmuhammad va Ulug'bek Hamdam romanlari o'zbek adabiyoti tarixida "mifologik realism" ning o'ziga xos maktabini yaratdi. Bu romanlarda mif – inson ruhining eng chekka hududlarini o'rganuvchi mikroskop; ijtimoiy muammolarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi ko'priki; vaqt va makonni bir nuqtaga jamlovchi estetik asbob vazifasini o'tamoqda. Ushbu yozuvchilarning mahorati shundaki, ular miflarni shunchaki nusxa ko'chirish orqali emas, balki milliy ruh va islomiy tasavvuf falsafasi bilan sug'orilgan holda yangilaganlar. Natijada bugungi o'zbek romani nafaqat mahalliy, balki jahon adabiy jarayonlarining teng huquqli va intellektual salohiyatga ega bo'lagiga aylandi. Bu esa milliy adabiyotimizning badiiy takomilida yangi mifopoetik bosqich boshlanganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do'stmuhammad X. Bozor. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Кэмпбелл Д. Тысячеликий герой. Москва: АСТ, 2018.
3. Мелетинский Е. Поэтика мифа. Москва: Наука, 1976.
4. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
5. Элиаде М. Миф о вечном возвращении: Архетипы и повторяемость. СПб.: Алетея, 1998.
6. Hamdam U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2003.

Odinaxon HOMIDOVA,

Andijon davlat universiteti adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

“ARBA'IN” VA “NAZM UL-JAVOHIR” ASARLARIDAGI TIL VA SO'ZGA OID HADISLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" va "Arba'in" asarlarida til va so'z mas'uliyati masalasi Qur'oni Karim oyatlari hamda hadislar asosida qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. So'zning inson tafakkuri, axloqiy kamoloti va ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini yoritiladi. Navoiyning badiiy tafakkuri Qur'on va hadis mazmunini axloqiy-falsafiy konsepsiyaga aylantirgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Nazm ul-javohir", "Arba'in", hadis, Qur'oni Karim, til va so'z mas'uliyati, nutq madaniyati, sukut, islomiy axloq, kamil inson.

Annotation. This article examines the issue of language and responsibility of speech in Alisher Navoi's works "Nazm ul-javohir" and "Arba'in" through a comparative and analytical approach based on the Qur'an and Hadith. The article demonstrates how Navoi transforms Qur'anic and prophetic teachings into a profound ethical and philosophical concept, presenting silence as an active moral choice. The findings contribute to the study of Navoi's legacy in the context of Islamic moral philosophy and speech ethics.

Keywords: Alisher Navoi, "Nazm ul-javohir", "Arba'in", Hadith, Qur'an, responsibility of speech, speech ethics, silence, Islamic morality, perfect human.

Аннотация. В данной статье вопрос об ответственности языка и слова в произведениях Алишера Навои «Назм уль-джавахир» и «Арбаин» изучается в сравнительно-аналитическом аспекте на основе аятов Священного Корана и хадисов. Освещается роль слова в человеческом мышлении, нравственном совершенствовании и социальных отношениях. Художественное мышление Навои основано на превращении содержания Корана и хадисов в нравственно-философскую концепцию.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Назм уль-джавахир», «Арбаин», хадис, Коран, ответственность слова, культура речи, молчание, исламская этика, гармоничный человек.

Shoirilar sultoni hisoblanmish Nizomiddin Mir Alisher Navoiy qoldirgan ilmiy va badiiy meros biz avlodlar uchun juda qadrlidir. Uning badiiy, axloqiy-diniy g'oyalari necha asarlar o'tsada o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Chunki uning asarlari

Yaratgan Zotning ilohiy kalomi, Qur'oni Karim va Muhammad Mustafo (s.a.v)ning hadislar asosiga qurilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) butun bashariyat uchun o'rnak hisoblanadi. Sababi Payg'ambarimiz (s.a.v) yer yuzidagi eng go'zal hulq

sohiblaridir. Navoiy qoldirgan ma'naviy xazina zamirida ham butun bashariyatni komil inson sifatida tarbiyalash g'oyasi mujassamdir. Ana shunday tengsiz asarlaridan qirq hadisni nazm yo'lida sharhlagan "Arba'in" va Ali Ibn Abutolibdan rivoyat qilingan hadislar sharhiga bag'ishlangan "Nazm ul-Javohir"dir. Mazkur maqola orqali har ikki asrdagi til va uning insoniyatni yo saodatga yoki falokatga duchor etishi mumkinligi haqidagi hikmatlar va hadislarini o'rganamiz. "Nazm ul-javohir" asaridagi 225 ta hadisdan 16tasi, "Arba'in" dagi 40 ta hadisdan 4 tasi tildan ehtiyotkorlik bilan tog'ri foydalanish haqida so'z boradi. Insoniyat tildan foydalanar ekan bu mavzular o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Hazrat Navoiy so'zga ta'rif berar ekan "Nazm ul-javohir" asarining kirish qismida quyidagi satrlarni keltiradi: "so'z bog'i ajib gulistonedurkim, anda jonbaxsh atirlik ashjori mavzun va ruhparvar royihalik ko'pdurur va lekin foydasiz xas-u hoshoki, balki zararlik holi xaloki ham bordur" [1: 4].

- "So'z bog'i" – nutq olami, til va fikrlar dunyosining ramziy ifodasi.
- "Jonbaxsh atirlik ashjor" – foydali, hikmatli, qalbnitiriltiruvchi so'zlar.
- "Ruhparvar royihalik" – inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi go'zal fikrlar.
- "Foydasiz xas-u hoshok" – behuda, mazmunsiz so'zlar.
- "Zararlik holi xaloki" – yomon niyyatli, fitnali, insonni halokatga yetaklovchi so'zlar.

Ushbu o'rinda Navoiyning badiiy tafakkuriga tahsin aytmay iloji yo'q. Hazrat so'zni ajib bir gulistonga qiyos etmoqki, unda insonga jon bag'ishlovchi xushbo'y gullar bisyor. Ammo gulistonda begona o'tlar ham bo'lgani kabi so'z gulzorida ham insonga yoqmaydigan, ba'zida o'ziga ziyon ham keltiruvchi xas-hashaklar ham uchrab turadi. Gulzorga kirgan odam nimani uzishi mutlaqo o'ziga bog'liq. Muattar hidli gullarni uzsa ko'ngli ham bundan taskin topadi. Tikon uzgan insonni qo'li tikonlardan ozor topadi va atrofdagilar ham ziyon ko'rishi ehtimoldan holi emas. Agar odam gulistondan gul uzish qo'lidan kelmasa sukut eng tog'ri yo'l bo'lib qoladi. Buning eng oqilona tanlov ekanligining isboti sifatida Navoiy quyidagi misralarni keltiradi:

*Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil,
Yuz nav nadomatu malomat hosil,
Oz so'zlaganidin istiqomat hosil,
Sokidligidin vale salomat hosil* [1: 31].

Mazkur to'rtlikda shoir so'z va sukut dialektikasini markazga qo'yadi. Birinchi misrada "til ildami" iborasi orqali o'ylamay aytilgan so'z, shoshqaloqlik bilan bildirilgan fikr nazarda tutiladi. Navoiy bunday holatning oqibatini "g'aromat" – zarar, yo'qotish, baloga duchor bo'lish bilan bog'laydi. Bu yerda til insonni halokatga yetaklovchi qudratga ega ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi misrada ushbu holat yanada kuchaytiriladi: "yuz nav, nadomatu malomat" iborasi tilni tiyib bo'lmaslik natijasida inson ichki pushaymon (nadamat) va ijtimoiy qoralanish (malomat)ga duchor bo'lishini anglatadi. Bu jihatdan ruboiy ijtimoiy axloq va shaxsiy mas'uliyat masalalarini qamrab oladi.

Uchinchi misrada shoir qarama-qarshi holatni ilgari suradi: "oz so'zlash" – hikmatli, o'ylangan, me'yorli nutq manbai sifatida baholanadi va u "istiqomat", ya'ni to'g'rilik, barqarorlik, axloqiy muvozanatga olib kelishi ta'kidlanadi. Bu g'oya islomiy axloq falsafasidagi i'tidol (me'yor) tamoyili bilan hamohangdir.

To'rtinchi misrada esa Navoiy fikrni yakunlab, sukutni eng oliy holat sifatida ko'rsatadi: "soqitlik" (jimlik, kamgaplik) insonni "salomat" – xavfsizlik, osoyishtalik va ma'naviy poklikka eltadi. Bu o'rinda sukut oddiy jim turish emas, balki donolik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu to'rtlik "Arba'in" asarida keltirilgan: "Al-muslimu man salima al-muslimuna min yadihi va lisonihi" [2: 24–25] hadisi bilan ma'no jihatdan hamohanglik hosil qiladi. Islom axloq tizimida shaxs va jamiyat munosabatini belgilovchi mezon hisoblanadi. Hadisda musulmonlik faqat e'tiqod yoki ibodat bilan emas, balki ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi axloqiy xulq bilan o'lchanadi. Bandaning iymoni ibodat yoki boshqa amallar bilan emas ijtimoiy hayotdagi ahloqiy normalar bilan belgilanmoqda. Tilning zarar yetkazish ehtimoli alohida ta'kidlanadi. Hadisni badiiy tarzdasharhlar ekan quyidagi ruboiyni keltiradi. Bu ruboiy hadisni mazmunini ochib berishda o'ziga xoslik kasb etgan.

*Kim musulmonlig' aylasa da'vo,
Chin emas gar ffdo qilur jonlar.
Ul musulmondururki, solimdur,
Tiliyu ilgidin musulmonlar* [2: 27–28].

To'rtlikda shoir "da'vo" va "haqiqat" qarama-qarshiligini asosiy g'oyaviy o'q sifatida qo'yadi. Birinchi misrada musulmonlikni og'zaki iddao darajasida qabul qilish keskin tanqid qilinadi. Shoirning fikricha, faqat "musulmonman" deya e'lon qilish, hatto zarurat bo'lsa jonini fido qilish ham chin musulmonlik mezoni bo'la olmaydi. Ikkinchi misra orqali Navoiy bu fikrni yanada keskinlashtiradi: tashqi fidoyilik ichki axloqiy poklik bilan uyg'un bo'lmasa, u haqiqiy imon belgisi emas. Bu o'rinda shoir ibodat va qahramonlikni emas, balki kundalik axloqiy mas'uliyatni ustuvor qo'yadi. Uchinchi va to'rtinchi misralarda esa shoir aniq mezoni belgilaydi: haqiqiy musulmon – boshqalar uning tilidan ham, qo'lidan ham omon bo'lgan shaxsdir Navoiy hadis mazmunini she'riy, xalqona va axloqiy jihatdan kuchli shaklga keltiradi. "To'rtlik"da "til" va "qo'l" tushunchalari ramziy ma'noga ega: til – ma'naviy zarar (haqorat, tuhmat, g'iybat), qo'l esa jismoniy zarar timsolidir. Navoiy bu ikki unsur orqali jamiyatdagi tinchlik va ishonch muhiti insonning nutqi va amaliy xulqiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Insonning har qanday amali yo'q bo'lib ketmaydi. Misqolcha yaxshilik qilgan bo'lsa ham, zarra yomonlik qilgan bo'lsa ham. Ammo yaratganning marhamati keng. U bandalariga g'oyatda mehribon. Kichkina yaxshiligiga katta mukofot hozirlaydi. Agar gumohga qadam bosgan bo'lsa-yu mag'firat so'rasa, gunoh daftaridan o'chiradi. Sababi Alloh biz uchun qilgan ishlarimizni yozib borish uchun ikkita kotib tayn etgan. Bittasi hayrli ishlarimizni, boshqasi ma'siyatlarimizni umrimizning oxirigacha yozib oladi. Bu haqida Alloh ilohiy kitobi Qur'oni Karimda shunday marhamat qilgan: "Inson aytgan har bir so'zi uchun uning yonida kuzatuvchi farishta hozirdir" [3: 518].

Oyatdan shu narsa ayon bo'lib turibdiki, inson tilidan chiqadigan har bir so'z ilohiy qudratning nazorati ostida turadi. Shu sababli ham o'zini imonli musulmonman degan inson tiliga va so'ziga diqqatli bo'lishi lozim. Uning tilidan boshqalar ozor ko'rmasligi lozim. Zotan, har bir so'z uchun adolatli zot oldida javobgarligi ulkan bo'ladi. Hadisda ham shunga ishora qilingan. So'z ijtimoiy havfsizlikning asosiy mezon etib belgilangan. Navoiy esa so'z badiiy-axloqiy konsepsiyaga aylantiradi. Bu qarash Navoiy ijodini islomiy axloq falsafasining adabiy ifodasi sifatida yangicha talqin qilish imkonini beradi. Sukutni shoir axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat shakli sifatida baholaydi. Qur'oni Karimdagi "nazorat" va Navoiy ijodidagi yohud hadisidagi "yaxshi so'z yoki sukut" tamoyili bir-biriga bog'liqdir. Banda Alloh uni doimiy nazoratida tutishiga imon keltirgan ekan, yaxshi so'zni so'zlashi, buni aksi bo'lganda sukut saqlashi uning uchun manfaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir // Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Arba'in // Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Qur'oni Karim. Tafsiri Hilol / tarjima va tafsir muallifi Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-nashr, 2018.
4. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-Jome' as-sahih. – Qohira: Dor al-hadis, 2001.
5. Muslim ibn Hajjaj. As-Sahih. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 2000.

Gulianbar QURANBAYEVA,
Urganch davlat universiteti doktoranti

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA BADIY TAFAKKUR VA MILLIY RUH UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy-falsafiy xususiyatlari, uning she'riyatida milliy ruh, inson qalbi tasviri va poetik tafakkur uyg'unligi tahlil qilinadi. Shoirning to'rtliklari hamda lirik she'rlari asosida ramziy obrazlar, falsafiy mushohada, badiiy ifoda ixchamligi va mazmun teranligi ochib beriladi. Adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda shoir ijodining zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sirojiddin Sayyid, zamonaviy o'zbek she'riyati, badiiy tafakkur, milliy ruh, to'rtliklar, poetik obraz, Vatan va Ona timsoli, falsafiy mushohada.

Annotation. This article examines the artistic and philosophical features of the poetry of the People's Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid. The study focuses on the harmony of national spirit, poetic thinking, and the depiction of the human inner world in the poet's works. Through the analysis of quatrains and lyrical poems, symbolic imagery, philosophical reflection, and expressive conciseness are explored. The research highlights the poet's significant contribution to modern Uzbek poetry.

Keywords: literary portrait, portrait essay, artistic journalism, poet's personality, poetic thinking, modern poetry.

Аннотация. В статье анализируются художественно-философские особенности творчества народного поэта Узбекистана Сirojiddin Sayyid, раскрывается своеобразие поэтического мышления, национальный дух и изображение внутреннего мира человека в его поэзии. На основе четверостиший и лирических стихотворений поэта рассматриваются символические образы, философские размышления и художественная лаконичность выражения. В работе также определено место творчества поэта в современном узбекском литературном процессе.

Ключевые слова: литературный портрет, портретная статья, художественная публицистика, личность поэта, поэтическое мышление, современная поэзия.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos xalqchil, mazmundor ijod namunalari, betakror poetik ifodalar yaratish san'ati bilan e'tirof etiladigan O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid o'z she'rlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan ijodkoridir. Sirojiddin Sayyid bolalik yillaridan boshlab adabiyotga oshno bo'lgan. 1985-yilda shoirning "Ruhim xaritasi" nomli ilk to'plami chop etiladi va bu to'plam tez orada kitobxonlar mehriga sazovor bo'ladi. Bugunga qadar Sirojiddin Sayyidning "Salqin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil", "Mehr qolur, muhabbat qolur", "Kuydim", "Uyingdagi beshiklar", "Vatanni o'rganish", "Egasi bor yurt", "Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni", "Dil fasli", "Yashasin yomg'irlar", "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur", "Bug'doybo'y Vatan", "Ochil, ey gul, ki bo'ston vaqti bo'ldi", "Onanming kulchalari" kabi bir qancha kitoblari, 2008-yilda "So'z yo'li" nomli ikki jildlik tanlangan asarlari nashrdan chiqarildi. Shuningdek, shoirning uch jildlik "Saylanma"si ham chop etildi. Qizg'in ijod bilan birgalikda shoir tarjimonlik faoliyati bilan ham shug'ullanadi.

Sirojiddin Sayyid tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan adabiyot durdonalarida ijodkorning so'z qo'llash mahorati namoyon bo'ladi. S.Sayyid ijodini o'rganish bo'yicha adabiyotshunos N.Rahimjonovning "Dil manzillari" (Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar), va N.Jabborovning "Metaforaga boy she'riyat", "Ruhim xaritasi"dan "Dil fasli" gacha, "She'riyat – ruh ozodligi" kabi maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodini talqin qilishda ushbu tadqiqotlarga tayanish o'rinli bo'ladi. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslik fanida keng qo'llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, **tahlil va sintez** metodi orqali portret-maqolalarda ilgari surilgan fikrlar tizimli ravishda o'rganildi va umum-

lashtirildi. **Qiyosiy-tipologik metod** yordamida shoir ijodining mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan aloqador jihatlarini aniqlashtirildi. **Germenevtik tahlil** she'riy matnlardagi badiiy-falsafiy mazmuni chuqur anglashga xizmat qildi. Shuningdek, **tarixiy-adabiy metod** asosida shoir ijodining rivojlanish bosqichlari va ularning adabiy jarayondagi o'rni yoritildi. Ushbu metodlar majmui portret-maqola janrining ilmiy-estetik imkoniyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Sirojiddin Sayyid ijodi adabiyotshunoslarga tomonidan izchil o'rganib kelinmoqda. Jumladan, N.Rahimjonovning "**Dil manzillari**" asari shoir ijodiy portretini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda shoirning poetik tafakkuri, obrazlar tizimi va ruhiy olami tahlil etilgan. N.Jabborovning "**Metaforaga boy she'riyat**", "**She'riyat – ruh ozodligi**" kabi maqolalarida esa Sirojiddin Sayyid she'riyatining falsafiy qatlamlari, ramziy tasvir va metaforik tafakkuri ochib beriladi. Mazkur tadqiqotlar shoir ijodini talqin qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. "Sirojiddin she'rlarida insonning o'z umri – tirikligi oldidagi mas'uliyati, hayotini ezgu ishlarga safarbar etish burchi, odamlar koriga yarashlikdek qat'iyat ijtimoiy-falsafiy mazmuni belgilab beradi" [9: 156]. Ana shu falsafiylik va fidoyilik Sirojiddin Sayyid she'rlariga o'ziga xos jozibadorlik baxsh etadi.

Shoir qalamga olgan mavzular rang-barang. Bu she'riyatda mumtoz adabiyot an'analari bilan bir qatorda yangicha tafakkur tarzi uyg'unlashgan. Shoirning Insoniylik, Ezgulik, Vatan, Xalq, Muhabbat kabi tushunchalarni ifodalashdagi mahorati o'ziga xoslik kasb etadi. Ijodkor o'z she'rlarida ushbu mavzularning har biriga teran to'xtaladi va ularning ichki mohiyatini nazm orqali namoyon etadi. Buni muallifning bir qator ijod namunalari misolida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, shoirning "Dil" sarlavhali she'rida o'ziga berilgan ijod ne'matidan shukronaligi quyidagicha aks etadi:

*“Xudo menga bergan nolam
Siyoh – qoni bilan kelgan.
Xudo menga bergan qalam
Siyohdoni bilan kelgan” [10: 91].*

Chindan, ijodkorlik buyuk ne‘mat. Ana shu iste‘doddan o‘rinli foydalanish uchun yaratilgan imkoniyat esa ijodkorga qilingan eng yuksak tuhfadir. Shoir dunyoni bir kam deb nolimaydi. O‘ziga taqdim etilgan iste‘dod va yaratish baxtining tugal, qalami va siyohdoni bir butun ekanligiga shukrona keltiradi. Sirojiddin Sayyid o‘z ijodi bilan she‘riyatga falsafiy mushohadakorlik va teran taffakur uyg‘unligini olib kirdi. Uning she‘riyatida inson qalbining eng ichki kechinmalari va uning botinida mujassamlashgan turfa tuyg‘ularni yoritishga e‘tibor qaratilgan. Sirojiddin Sayyid tomonidan yaratilgan har bir badiiyat namunasida shoir shaxsining o‘ziga xos fikrlash salohiyati, estetik did va mahorat uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Oz so‘z bilan ko‘p ma‘no ifodalash, hech bir zamonda eskirmaydigan mavzularning ohorli talqini, kutilmagan va jozibali tashbihlar qo‘llay olish Sirojiddin Sayyid she‘riyatining xos xususiyatidir [11: 258]”. Ushbu o‘ziga xoslik uning bir qator to‘rtliklarida ham namoyon bo‘ladi:

*“Dunyo ikki qism: gul bilan puldir,
Kim qanday tushunsa – ma‘nisi shuldir.
Pulga gul bo‘lganlar – eng nochor qullar,
Gulga gul bo‘lganlar – eng go‘zal quldir” [9: 211].*

Azaldan mumtoz adabiyotda gul obrazi go‘zal yor – ma‘shuqa timsoli sifatida tavrirlanadi. Shoir asl insonlarning boylikka, pulga emas, balki ilohiy ishqqa oshno bo‘lmoqlarini majoziy ma‘noda “eng go‘zal qullik” tarzida ifodalaydi. Ezgulik va muhabbat tushunchasining o‘zaro uyg‘un ekanligini gul timsoli orqali ochib beradi.

S.Sayyidning bir qancha go‘zal to‘rtliklari “Shamnoma” turkumidan joy olgan. “Shamnoma” turkumini tashkil etgan to‘rtliklar – bu umrnoma satrlaridir. Zahmatli mehnat ila kechgan umrning hikmatga aylangan sahifalaridir. Hayot saboqlaridan ko‘ngilgaingan tafakkur shu‘lalaridir” [11: 159].

*Sog‘ bo‘ling, ey do‘st-u hamxonam mening,
Tugaydir bir kuni hangomam mening.
Balki bu shamnomam – sevinchlarimdir,
Balki bu shamnomam – g‘amnomam mening [12: 91].*

She‘r – goh cheksiz quvonchning, goh chuqur g‘amning mevasi. Shoirning o‘zi e‘tirof etganidek, o‘tkinchi dunyoning

dard-u tashvishlari ichra o‘tayotgan umr go‘yoki hangoma va bu hangoma bir kun yakun topadi. Ijodkor o‘z shamnomasini yaratar ekan, unga quvonchi-yu g‘amini muhraydi, shamdek yonayotgan ko‘ngildan yozadi, qog‘ozga emas shamdek yonayotgan ko‘ngillarga yozadi. Uning bitiklari ko‘ngillarni sham kabi yoritadi. S.Sayyid to‘rtliklarida bu kabi go‘zal baytlar, betakror tashbehlar bisyor.

*Ko‘ngillar to‘yida kelinchaklarning,
Libosiga tiking ishqiy baytimni [12: 98].*

Shoir nikoh to‘yining ko‘ngillar to‘yi bo‘lishini tilaydi va bu ko‘ngillar to‘yiga atab ishqiy baytlar bitadi. Ushbu baytlar kelinchaklarni ishq tumori yanglig‘ asrashiga ishora qiladi. Bu kabi ohorli badiiy topilmalar qo‘llash san‘ati satrlarga yanada teranlik baxsh etadi. Shoirning “Hikmat” sarlavhali she‘rida u inson uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan muqaddas maskan – ota uyiga bo‘lgan mehr va sadoqatdan buyuk hikmat yo‘qligini bayon etadi:

*Yashinlar yoritgan, ey olis uyim,
Shuncha yillar kuyib,
Qancha qismat kechib,
Qancha o‘y-u ffroq,
Hikmat ko‘rmadim men sendan buyukroq [12: 193].*

She‘riyatda, umuman, badiiy adabiyotning barcha yo‘nalishlarida ijodkor mahorati masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu bois ijod va mahorat tushunchalari uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Har qanday ijodkorning mahorati u yaratgan asarlarda bo‘y ko‘rsatadi. Xususan, yuqorida Sirojiddin Sayyid she‘riyatidan o‘rin olgan bir qator go‘zal satrlar tahlili orqali biz shoir ijodida o‘ziga xos iste‘dod va mahorat jilosini tuydik.

Sirojiddin Sayyid she‘riyatida qalamga olingan har qanday mavzu muallifning yoqin iste‘dodi bilan o‘zaro mutanosiblik kasb etadi. Shoirning ijod namunalari zamiriga hayot haqiqatlari chuqur singdirilgan. She‘rlardagi ohangdorlik va teran ma‘no qirralari ijodkor uslubining o‘ziga xosligidan darak beradi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid o‘zining betakror she‘rlari, teran badiiy tafakkuri aks etgan to‘rtliklari orqali inson qalbini, kechinmalarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu bois, ijodkorning to‘rtliklarida ifodalangan kuchli poetik mazmun qalblarimizga chuqur kirib boradi, mulohazaga undaydi va bigza uyg‘oq ruh baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She‘riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Sayyid S. Onamning kulchalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Jabborov N. She‘riyat – ruh ozodligi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006.
6. Sayyid S. Xayyomdan bir kosa, Rumiyan bir jom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

Laylo SUVONQULOVA,

Navoiy davlat universitrti tayanch doktoranti

ARXETIP VA TOPOS OBRAZNING SHAKLLANISH ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada insoniyatning badiiy tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan topos hamda arxetip obrazlar shakllanishi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Bunda “arxetip” va “topos” tushunchalarining kelib chiqishi, ularning mifologik ahamiyati, madaniy xotira bilan uzviy bog‘liqlik xususiyati, folklor va yozma adabiyotdagi janrlar bilan aloqadorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, topos va arxetip obrazlarning semantik qatlamlari, adabiy jarayondagi taraqqiyoti va badiiy matndagi funksiyalari ilmiy dalillar orqali asoslangan.

Kalit so‘zlar: topos, arxetip, obraz, makon, semiosfera, Karl Yung, ramz, mif, sxema.

Annotation. This article scientifically and theoretically examines the formation of topos and archetypal images associated with the artistic thinking of humanity. In this case, the origin of the concepts of “archetype” and “topos”, their mythological significance, the nature of their close connection with cultural memory, and their connection with genres of folklore and written literature are analyzed. Also, the semantic layers of topos and archetypal images, their development in the literary process and their functions in the literary text are based on scientific evidence.

Keywords. Topos, archetype, image, space, semiosphere, Carl Jung, symbol, myth, scheme.

Аннотация. В статье с научно-теоретических позиций исследуются процессы формирования топосов и архетипических образов, обусловленных художественным мышлением человечества. Рассматриваются генезис понятий «архетип» и «топос», их мифологическая семантика, неразрывная связь с культурной памятью, а также взаимодействие с жанрами фольклора и письменной литературы. Особое внимание уделяется анализу семантических уровней топосных и архетипических образов, их эволюции в литературном процессе и функциональной роли в художественном тексте на основе научно обоснованных данных.

Ключевые слова: топос, архетип, образ, пространство, семиосфера, Карл Юнг, символ, миф, схема.

Badiiy obrazning dunyoga kelishi hamda shakllanishida topos fundamental poetik birlik sanaladi. “Topos” (yunoncha “topos” – joy, makon) tushunchasi ilk bor Aristotel asarlarida qo'llanilgan. Uning ta'rifiga ko'ra, toposlar umumiy (ko'plab savollarga javob bo'ladigan) yoxud qism (aniq sohalar) gagina tegishli bo'lishi mumkin. Grek faylasufi Platon esa o'z asarlarida toposni xotira joyi sifatida keng yoritib beradi, bu esa o'sha joyni muqaddas va ramziy makonga aylanishini ifodalaydi. Masalan, Afina va Rim shaharlari, u yerdagi qadimiy binolar, piramidalar.

Rus olimasi Irina Vasilyeva esa o'z maqolasida topos gumanitar fanlarda qayta evristik ahamiyatini E.R.Kurtsiusning mashhur “Yevropa adabiyoti va lotin o'rta asrlari” (“Europäische Literatur und lateinisches Mittelalter”, 1948) asari tufayli o'tirganligini hamda toposning gumanitar sohalarida eng ko'p tarqalgan, biroq yetarlicha aniqlikka ega bo'lmagan tushuncha ekanligini ta'kidlab o'tgan. Bundan tashqari, maqolada jahon olimlarining toposga bergan bir qancha ta'riflari mavjud: A.F.Losev: “Toposlar – hayot va tafakkurdagi shunday faktlarki, ular bizning sillogizmlarimizni, hatto ularning mazmunan g'alati yoki tushunarsiz bo'lishiga qaramay, ishonarli ko'rsatadi”. Yangi davr adabiyotida esa topos mazmuniy torayishga uchraganligi sabab A.V.Mixaylov: “XIX asrning butun madabiyati bo'ylab sochilgan “ritorik parchalarning siniqlari” [1: 70–74], deb ta'rif berganini ko'rishimiz mumkin. A.F.Losev “topos” tushunchasini faqatgina klassik ma'nodagi “umumiy joy” shaklida emas, balki aniq bir tuzilma, ma'no va madaniy ahamiyatga ega joy sifatida tushuntirib beradi. Topos ma'lumotlarni qabul qilishni shakllantiradi, insonni kengroq fikrlashga undaydi. Kurtsius esa topos tushunchasini arxitep bilan bog'lagan birinchi olim sanaladi.

Topos – ma'lum bir madaniyat, millat yoki tarixiy davr uchun xos, adabiyot va san'atda tez-tez uchraydigan va muayyan o'z ma'nosiga ega bo'lgan umumiy hamda qayta-qayta takrorlanadigan obrazdir. U ma'lum bir tarixiy davr, milliy madaniyat yoki o'z davriga tegishli madaniy va diniy an'analar bilan uzviy bog'liqdir. Topos obrazning shakllanishida semantik o'zak bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Yevropa Uyg'onish(reneessans) davri adabiyotidagi ideal inson toposi ma'naviy, diniy, axloqiy jihatlari bo'yicha o'z davrining komil shaxsi sifatida tasvirlanadi. Bunda ideal inson kategoriyalari aynan o'sha davrga mosdir. Ya'ni toposlarda muayyan bir davr ham katta ahamiyatga ega.

Y.Lotman, G.Bacheland, M.Baxtin, N.Frye singari mutaxassislar toposni arxitepik makon hamda semiosfera (bu Yu.Lotmanning semiotik madaniyat bo'yicha ishlab chiqqan tushuncha. Semiosfera o'z obyektini jihatidan madaniyatga mohiyatan teng bo'lgan semiotik makon bo'lib, lingvistik muloqotning zaruriy shartidir) [8] sifatida talqin qilgan. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchi (yuboruvchi) ifodalagan toposlarni kitobxon (qabul qiluvchi) ilg'ab olishi uchun ular o'rtasida madaniy jihatdan bog'liqlik bo'lishi yoxud qabul qiluvchi

yuboruvchining madaniyatidan xabardor bo'lmog'i lozim. Shundaygina ular o'rtasida semiotik maydon hosil bo'ladi. Baxtinning “kronotop” (grekcha chronos – vaqt, topos – joy, makon) atamasi ham aynan topos bilan yaqin tushuncha bo'lib, bunda zamon va makon sintezi orqali obrazning ma'no sistemasi shakllanadi. Aytish mumkinki, topos obrazlar madaniyat, makon tushunchalarini o'zida qamrab olgan sistemalar tizimidir. Ayniqsa, ular milliy poetik tafakkur bilan birgalikda shakllanganligi uchun xalq og'zaki ijodida beqiyos o'ringa ega. Masalan, “bog”, “cho'l”, “quduq”, “yo'l” kabi ramziy makon obrazlari yangi poetik matnlarda qayta talqin qilinadi. Shu sababdan ham topos madaniy davomiylikni o'zida mujassamlashtirgan deyshimiz mumkin.

Xo'sh, toposlarning “motiv” va “arxitep” bilan farqli jihatlari qanday? Ularning farqli jihatlari shundaki, arxitep bosh obraz, ya'ni umuminsoniy obrazlar bo'lib avloddan avlodga o'tib yuradi va inson madaniyat shakllarini qadimiy afsonalardan, zamonaviy hayotgacha yetkazib keladi. Motiv asarni harakatlantiruvchi voqea-hodisa, shu harakatni amalga oshuruvchi personaj motiv obraz. Toposlar esa umumiy va tipik obrazlardir, butun bir davrga yoki millatga tegishli bo'lib, yozuvchi tomonidan alohida olinmasligi ham mumkin.

Topos obrazining asosiy xususiyatlari:

1. Umumiylik. Bunda u keng kitobxonlar (auditoriya) uchun yaqin, tanish va tushunarli bo'ladi. Masalan, xar bir zamondagi insonlar uni o'zining zamonasi, madaniyati va ba'zi an'analari bilan bog'lay oladi.

2. Topos obrazining ko'p va tez-tez takrorlanishi. Ya'ni bir xil topos obrazlar yoki motivlar adabiyotda, san'atda, teatrdan, kino va boshqa madaniy ko'rinishlarda tez-tez uchraydi.

3. Ma'lum tarixiy joydagi madaniyat yoki tarixiy davrga xosligi. Masalan, Uyg'onish (reneessans) davri adabiyotidagi inson kamolot, aql va go'zallikka intilishi topos sifatida uchraydi.

Topos – ritorik matnlarda paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, adabiy topika haqidagi ilk tasavvurlar ritorikaga borib tarqaladi. Ritorikada topos obrazini ikki asosiy ma'noda tushunishimiz mumkin: birinchidan, ma'lum bir mavzuni yoritib, ochib berish usuli sifatida; ikkinchidan, keng tarqalgan tasavvurlar yoki hammaga ma'lum sentensiya(fikr)lar sifatida. Toposning asosiy vazifasi shundan iboratki, u so'zlovchiga (notiqqa) o'z nuqtayi nazarini, fikrlarini isbotlash uchun dalillar keltirishga hamda nutq uchun mazmunli va boy material ishlab chiqishga yordam berishdan iborat. Agar so'zlovchi (notiq) o'z fikrlarini ifodalashda ma'lum va tushunarli ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsa, uning o'z fikrini yuqori darajada yetkazib bera olish imkoniyati oshadi va shundan kelib chiqib topos obrazlar to'plami turli badiiy nutq jarayonlari hal etishga yordam beradi.

Rus adabiyotshunosligida ham topos obrazlarning keng tadqiq etilganligini e'tirof etish joiz. Xususan, N.E.Ryabtseva va M.V.Topchievaning maqolasida aytilishicha, zamonaviy rus adabiyotida bolalik toposining semantikasini turli davrlarda

turli olimlar o'rgangan. Masalan, I.Kabish ijodi, T.Tolstoyning adabiy asarlari ("Oltin ayvonda o'tirishardi"), V.Tokarevning "Yangi yil hikoyasi" nomli asarlaridagi toposlarga alohida to'xtalib o'tilgan va yozuvchining poetik konteksi bilan unda qo'llanilgan toposlarning konstruksiyasi tahlilga tortilgan. Bunda uy, bog'cha, maktab, yo'qotilgan jannat, xotira va xotirasizlik toposlari bolalik afsonalari bilan chambarchas bog'liq ekanligi tahlil qilingan [2: 54–57]. Tadqiqot davomida zamonaviy rus adabiyotida quyidagi bolalik holatlarini yaqqol uchratishimiz mumkin. Misollar:

1. Bolalik davrlarini turli xil vayronkor va xavfli kuchlar, kasallik, o'lim kabi vaziyatlarda himoyasiz bo'lishini va gohida bu hodisalarning o'tkinchi bo'lishini.

2. Asosiy ma'no yo'qotilgan jannat, ya'ni bolalar olami va kattalar olamining o'zaro konflikt (zid) qo'yilishi.

3. Odatiy tarzda bolalik mavzusi bilan idiallik xronotop (tinch va baxtli makon va zamon tasviri)ga o'lim va patografik topos (ruhiy iztirob, kasallik)larning qarama-qarshi qo'yilishida.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib maqolada zamonaviy adabiyotning bolalik toposlari ideallik xronotop(kronotop)ning klassik formulalarini o'zida ifodalashi aytib o'tiladi. M.M. Baxtinning so'zlariga ko'ra, bolalik hayoti, uning butun bir voqealari, qadrdon daryo va o'rmon, qadrdon uy bilan organik tarzda uzviy bog'langan va bu makon qanchalar kichik chegaralangan bo'lishiga qaramay o'ziga chorlayveradi. U hayotidagi boshqa joylar, boshqa olamlar bilan uzviy bog'liq emas. Shundan kelib chiqib, agar biz amaliy o'rganib tahlil qilsak, ya'ni olis o'tmishga qaytsak, bolalikning chang ko'chalari, loyqa oqqan daryolar, g'arq pishgan mevali daraxtlar, biz o'ynagan o'yinlar, tanish va juda yaqin chehralar, hatto tunda yotib eshitgan ertaklarimizni ilmiy jihatdan bolalik toposlari deb nomlasak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, toposlar notiqlik sa'atida muhim ahamiyat kasb etadi. Toposlar suhbatlashish jarayonida, hatto bu chuqur, mantiqiy suhbat bo'lmasa-da, aniq asoslangan dalillar orqali gapirishga hamda suhbatdoshini ishontirishga yordam beradi. Badiiy adabiyotda esa ijodkor yetkazmoqchi bo'lgan maqsadiga erishishda ko'maklashadi.

Topos obraz madaniy hamda makon tushunchalari bilan chegaralangan qatlam hisoblansa, arxetip undan yuqori va keng diapazonga ega ilmiy tushunchadir. Arxetip obraz atamasi adabiyot nazariyasida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Sababi arxetip nafaqat konkret badiiy qahramon yoxud syujet elementi, balki umuminsoniy timsollar majmui, xalqlar tafakkurida qadimdan mavjud bo'lib kelgan ramziy modellar sistemasidir. XX asr adabiyotida arxetip atamasi badiiy tafakkurni psixologik asoslar orqali talqin etishga imkon yaratgan muhim nazariy paradigma bo'lib shakllandi. Arxetip obraz – badiiy matnda namoyon bo'ladigan, biroq o'z ildizlarini insoniyatning qadimiy kolloktiv tajribalaridan oluvchi umumiylik model sanaladi. Tabiiyki, arxetip obrazlarning yuzaga kelish ildizlarini o'rganish badiiy tafakkur evalutsiyasi qonuniyatlarini aniqlash, og'zaki va yozma o'rtasidagi genetik bog'liqlikni tushuntirish, yangicha adabiy obrazlarning manbalarini belgilashga yordam beradi. Arxetip (yunoncha archetypon – "birlamchi obraz, ilk namuna") – eng umumiy hamda asosiy, ibtidoiy motiv va obrazlarning majmuasini anglatuvchi tushuncha bo'lib, ular umuminsoniy xarakterga ega va barcha badiiy tutulmalar asosida yotadi. XX asrda bu termin ilmiy-madaniy muomalaga shveysariyalik psixanalitik, madaniyatshunos Karl Gustav Yung tomonidan kiritilgan ("Об архетипах" "Arxetiplar haqida" 1937) [9].

Arxetiplar mohiyatiga ko'ra obraz yoxud motivning o'zi emas. Aksincha ularning sxemasi, ya'ni modelidir. Shu jihatdan arxetip universallik xarakteriga ega bo'lib, u umuminsoniy va individual qatlamni, o'tmish hamda bugungi kunni bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi.

Yung ta'limoti XX asr g'arb adabiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni G.Gesse, T.Mann, M.Frishi, J.Joys, U.Golding, M.A.Asturiyas, G.G. Markes va boshqa yozuvchilar ijodida yaqqol ko'rish mumkin [9]. Bundan tashqari rus adabiyotida ham A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol, I.S.Turgenov, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov asarlarida arxetiplarning o'ziga xos ifodalanish usullari mavjud [3: 249]. Arxetip biologiya, lingvistika, psixologiya, falsafa, matnshunoslik, informatika fanlarining kesishish nuqtasidagi tushunchadir. Arxetip ilmiy maydonga Yung asarlari orqali kirib kelgan bo'lsa-da, "unga yaqin g'oyani –inson psixikasida alohida shaxs emas, balki butun jamoaga xos bo'lgan muayyan ruhiy shakllarning mavjudligini – ilgariroq fransuz olimi Lyusien Levi-Bryul ham ilgari surgan edi. U bu tushunchani "jamoaviy tasavvur" ("representations collectives") deb atagan" [3: 250]. Rus olimasi N.V.Shelepova o'z maqolasida arxetipik tasavvurlarning ifodalanish muammosini ko'rib chiqishda J.Faulzning "Qora daraxt minorasi" ("The Ebony Tower") hikoyasi misolida tadqiq etgan. Bu hikoyaning obrazlarini tahlil qilishda, albatta Yung qarashlaridan unumli foydalanadi. Hikoyadagi obrazning prototipi rim mifologiyasidagi ma'buda Diana obrazi tanlab olingan. Yozilishicha, bu asardagi eng muhim personaj – "Mouse" (Sichqon) laqabi berilgan qiz obrazi. Asar davomi kitobxon uning haqiqiy ismi Diana ekanligini biladi. Albatta, ijodkorning obrazni aynan ikki xil nom bilan atashiga sabab bor. Rim ma'budasi Diana ramzi va sichqon timsoli o'rtasida umumiyliklar mavjudligi aytilgan. Maqolada sichqon obrazi tizimli keng ko'lamli ravishda tahlil etilgan:

"Sichqon – xthoniy (yer osti bilan bog'liq) arxetipik timsol. Uning obrazi qadimiy arxetipik kuchlarni o'zida mujassam etadi. Turli xildagi mifologik qarashlarga ko'ra, sichqon dafn marosimlari, o'lim, urush, ocharchilik, kasallik, qashshoqlik kabi holatlar bilan bog'lanadi. Ba'zi xalq tasavvurlarida sichqonlar marhumlarning ruhlari sifatida qabul qilinmadi va yaxshi odamlarning ruhlari qizil rangda, gunohkorlarning ruhlari qora rangda tasvirlanadi. Boshqa madaniy qatlamlarda esa sichqon tabobat ilohlari kultlari (yunon mifologiyasida – Apolon, Asklepiy; hind madaniyatida – Shiva kulti, o'limdan qutulish marosimlari bilan bog'liq talqin qilinadi. Qadimgi Gretsiyada "Apolon-Sminfey" degan sig'inish mavjud bo'lgan bo'lib, bu nom yunoncha "sminthos" – "sichqon" so'zidan kelib chiqqan. Bu kultda sichqon xudoning buti sanalgan.

Kuan Syulining ilmiy maqolasida esa arxetipik adabiy tanqid va itertekstuallik haqida nazariy ma'lumotlar, Yung, Plotin, Iriney, Avgustin, Freydlarning konsepsiyasi, ularning farqli va o'xshash jihatlarini tahlil qilgan. Unga ko'ra, arxetip istilohi ilmiy muomilaga Karl Gustav Yung tomonidan kiritilgan bo'lsa-da, undan ilgariroq Filon Aleksandriy asarlarida atama sifatida qo'llanilgan. Yung o'z asarlarida arxetip atamasi Filon tomonidan insoniyatning ong osti psixik holatini ifoda etish uchun qo'llanilganligi aytib o'tiladi. Iriney yaratuvchining mavjudotlarni tashqi arxetiplardan foydalanib yaratgan deb izohlasa, Avgustin esa bu so'zni qo'llamasam ham unga mazmun jihatidan teng keluvchi "idea" atamasidan foydalanganligi izohlab o'tiladi [4: 89–90]. Bu izohlardan bilish mumkinki, arxetiplar kollektiv psixikaning bazaviy qurilmasi hisoblanadi.

Bu bazaviy tuzilmadagi tushunchalar inson ongida muntazam ravishda takrorlanuvchi ramzli modellardir. Bu ramzlar birinchi navbatda eng qadimgi miflar zamirida yaratilgan bo'lib, ibtidoiy insonning kollektiv ongsizlik mahsuli. Unda insoniyat xudolar, tabiat kuchlariga ramziy urg'u yuklagan va shu jihatdan munosabat bildirgan (masalan, xudolarga qurbonlik keltirish, tabiat hodisalaridan qo'rqish, buyumlarga va hayvonlarga sig'inish). Vaqtlar o'tib esa xudolar haqidagi miflar qahramonlar to'g'risidagi afsonalarga, afsonalar esa mavzusiga ko'ra komediya hamda tragediya syujetlariga va bora-bora realistik adabiyot syujetiga aylangan. To'g'ri, bu bosqichlar davomida o'zgarishlar bo'lgan, lekin konstruktiv tuzilmalar o'zgarmagan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham arxetip obrazlar atroflicha talqin etilgan bo'lib, Adabiyotshunoslik lug'atida quyidagicha izohlanadi: "Arxetip – inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema", fikriy konstruksiya va qoliplar, motivlar va ularning turli kombinatsiyalari, "arxetip" tushunchasi shveysariyalik ruxshunos K.Yung ta'limoti bilan bog'liq holda ommalashdi. Unga ko'ra, arxetiplar kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridan boshlab insoniyat xotirasida "kollektiv ongsizlik" sifatida yashaydi va ijod jarayonida turli shakllarda o'zini namoyon etaveradi. Ya'ni arxetiplar universal xarakterga ega bo'lib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin. Arxetip konstruksiyasi va sxemalardan o'ziga xos "syujet va syujet holatlari" jamg'armasi hosil bo'ladi, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi. K.Yungga ko'ra, arxetip avvalo shakl hodisasi bo'lib, muayyan davrda yashayotgan ijodkor ongida uyg'ongandagina uning hayotiy tajribasi bilan boyitiladi va konkret mazmun kasb etadi" [5: 38]. Ushbu lug'atda Yung qarashlaridan kelib chiqqan holda arxetip obrazga ta'rif berilgan bo'lib, bu fikrlar orqali arxetipda shakl masalasi birlamchi hodisa ekanligini anglash mumkin. Sababi bir turdagi hodisa, qahramon yaxud bir detal shakli jihatdan bir asardan ikkinchi asarga ko'chishi mumkin, faqat ularni mazmun jihatdan tasvirlash ijodkorning shaxsiy yondashuvi, maqsadi va davr bilan o'zgacha tus oladi. Masalan, Kushushning o'limi (A.Qodiriy "O'tkan kunlar") motivi muhabbat hamda ijtimoiy muhit to'qnashuvi natijasi, urush davridagi o'lim (Said Ahmad "Ufq") motivi esa insoniylikni sinovdan o'tkazish omili, mustaqillik davri adabiyotida esa (O.Matjon, M.Yusuf, X.Davron ijodlari) o'lim motivi falsafiylik kasb etadi. Arxetip obrazlarning o'zbek adabiyotida o'rganilishini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- a) folklorshunoslik asarlarida – arxaik mifologik qatlam sifatida;
- b) qiyosiy adabiyotshunoslikda – jahon adabiyoti bilan bog'liqlik va umumiylik holida;

- c) semiotik yondashuvda – belgilar hamda ramzlar sifatida;
- d) madaniy xotira nazariyasi asosida – milliy tafakkurni shakllantiruvchi omil tarzida.

Arxetip obrazlarning ilk namunalarini qadimgi miflar tarkibida uchratishimiz mumkin. Miflardagi obrazlar tizimi davrlar o'tgan sari ma'no konstruksiyasidagi o'zgarishlar arxaik qatlamni yuzaga keltirgan. Shu jihatdan o'zbek adabiyotshunosligida obrazlar spesifikasi va arxetiplik xususiyatini tahlil etishda arxaik miflarga murojaat qilish o'rinlidir. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida N.Mallayev, M.Saidov, O.Madayev, T.Xo'jayev, M.Rajabovalar mifologik syujetlar va obrazlarning yozma adabiyotdagi ta'siri masalasida, T.Haydarov, J.Eshonqulov, O.Qayumovning o'zbek folklorining arxaik qatlamini tashkil etgan mifologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, mifologik obrazlarning genezisi to'g'risida, shuningdek, M.Saidov, M.Narziqulova, G.T.Garirovalarning mifologik sujet, motiv va obrazlarning o'zbek adabiyotidagi ta'siri xususidagi izlanishlari arxetip obraz masalasiga anchagina oydinlik kiritgan [6: 18]. Arxetip ma'lum bir ichki model bo'lib, mif uning tashqi hikoya ko'rinishi sanaladi. Arxetiplar kollektiv ongsizlikda mavjud bo'lgan, insoniyat esa til, sujet hamda obrazlardan foydalanib mif shaklida taqdim etgan. Shu sababdan ham miflar va arxetiplar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Quyida bir necha mashhur arxetip turlarini keltirishimiz mumkin:

1. Qahramon – qiyinchilikka duch kelganlarni qutqaruvchi obraz (Alpomish, Mariya uchun Miryoqub qahramon).
2. Murabbiy – yo'l ko'rsatuvchi obraz (Farhodning ustози, jadid).
3. Oshiq – yurak amri bilan ish ko'ruvchi obraz (Farhod).
4. G'amxo'r – atrofdegilar haqida qayg'uruvchi, yordam berishga doimo tayyor obraz, ko'pincha ota-ona (Qurvonbibi)
5. Begunoh – axloqiy jihatdan toza xarakter, bola yoki bola kabi sof obraz (Zebi).
6. Qo'zg'olonchi – o'rnatilgan tartib va qoidalarga qarshi chiquvchi obraz (Unsin).
7. Boshqaruvchi – boshqalar ustidan nazorat o'rnatuvchi, qonuniy va ruhiy boshqaruvchi obraz (noib to'ra, eshon).
8. Qiziquvchi – tavakkalchi, yangi tajribalar, sayohatlardan ilhom oluvchi obraz (Odyssey) [7: 5].

Yuqoridagi obrazlarning barchasi insoniyat ongida tayyor, faqat turi xil asarlarda xilma-xil personajlar korinishida namoyon bo'luvchi arxetiplardir. Zero, mifologik tafakkur mahsuli bo'lgan arxetiplar semantik jihatdan ramziylikni ifodalashi uning metaforiklik xususiyatini orttiradi. Bu xususiyat ibtidoiy tafakkur shakllanishiga, og'zaki ijod namunalarining boyishiga, diniy-falsafiy qarashlarga katta turtki bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Васильева И.Э. Топос в культуре нового времени к постановке проблемы. М.: Мир русского слова, 2018.
2. Рябцева Н.Е., Топчева. М.В. Топос детства в современной литературе / Актуальные вопросы современной филологии и журналистики, 2018, №1.
3. Шелепова Н.В. Особенности использования архетипов в художественном тексте. М.: Наука и современность, 2010.
4. Сюли К. Архетипическая литературная критика и интертекстуальность. М.: Философская мысль, 2023.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
6. O'rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024.
7. Usmonova U. Jahon adabiyotshunosligida badiiy obraz turlari. International Conference on Developments in Education. – Amsterdam: Notherlands, 2024.
8. Лотман Ю.М. Семиотическое пространство. М., 1996.
9. Издательств «ЛИЦЕЙ». <https://licey.net>.

Munojot SAYDAZAMOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

INTERNET MUHITIDAGI ONIMLAR YANGI FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada internet onomastikasining rivoji va uning tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Yangi raqamli kommunikatsiya muhitida an'anaviy va virtual onimlar o'rtasidagi farqlar, shuningdek, internetda paydo bo'lgan yangi fenomenlar va terminologiyalar o'rganiladi. Shuning uchun maqolada internet makonida onomastik birliklarning funksiyalashuvi va ularning til tizimidagi rolini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar zarurligini ta'kidlanadi. Bu soha tilshunoslikda yangi ilmiy yondashuvlar va tadqiqot yo'nalishlarini ochishi haqida ilmiy xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: internet onomastikasi, raqamli onomastika, onimlar, onomastik birliklar, atoqli nomlar, virtual onimlar, internet muhiti, raqamli xizmatlar, virtual makon, til va texnologiya, internet lingvistikasi, onomastik tizim, internet identifikatsiyasi, lingvistik fenomen, onomastik tipologiya.

Annotation. The article analyzes the development of internet onomastics and its significance in linguistics. In the new digital communication environment, the differences between traditional and virtual onyms, as well as new phenomena and terminologies that have appeared on the Internet, are studied. Therefore, the article emphasizes the need for research aimed at determining the functioning of onomastic units in the Internet space and their role in the language system. A scientific conclusion is given that this field opens up new scientific approaches and research directions in linguistics.

Keywords: internet onomastics, digital onomastics, onyms, onomastic units, proper names, virtual onyms, internet environment, digital services, virtual space, language and technology, internet linguistics, onomastic system, internet identification, linguistic phenomenon, onomastic typology.

Аннотация. В статье анализируется развитие интернет-ономастики и её значение в лингвистике. Рассматриваются различия между традиционными и виртуальными онимами в условиях новой цифровой коммуникативной среды, а также новые феномены и терминология, возникшие в интернет-пространстве. В работе также подчёркивается необходимость исследований, направленных на выявление функционирования ономастических единиц в сетевом пространстве и их роли в языковой системе. Делается вывод о том, что данная область открывает новые научные подходы и направления исследований в современной лингвистике.

Ключевые слова: интернет-ономастика, цифровая ономастика, онимы, ономастические единицы, собственные имена, виртуальные онимы, интернет-среда, цифровые сервисы, виртуальное пространство, язык и технологии, интернет-лингвистика, ономастическая система, интернет-идентификация, лингвистический феномен, ономастическая типология.

So'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari va raqamli tarmoqlarning jadal rivojlanishi tilshunoslik onomastikasida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, sohalarda xizmat ko'rsatishning yangi raqamli formatga o'tishi va Internet muhitining keng qamrovli kommunikatsiya imkoniyatlari yangi fenomenlarning paydo bo'lishiga turtki berdi. Shu tariqa, raqamli muhit onomastika doirasidagi tadqiqotlarni yangi kontekstda olib borish imkonini yaratdi.

Ma'lumki, internet olamining o'ziga xosligi bir qator lingvistik xususiyatlar bilan belgilanadi. Jumladan, ma'lumotlarning subyektivligi, global xarakteri va tilning yangi formatlarda namoyon bo'lishi bu muhitni odatiy kommunikatsiya maydonidan ajratib turadi. Natijada internet onomastikasi o'ziga xos mikroolamni hosil qiladi va bu mikroolam til xususiyatlari orqali o'zini namoyon etadi. "Internet onomastikasi real hayotning vizual analogi sifatida shakllanmoqda. U o'zining ichki olami, o'y-fikrlari va tasavvurini ifoda etish maqsadida inson tomonidan yaratilgan sun'iy nomlar birligidir" [1: 77].

"Internet kommunikatsiyasi ommaviy axborot vositalari kommunikatsiyasi bilan ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lishiga qaramay, aniq identifikatsiyalanmaydigan o'ziga xos pozitsiyani egallaydi va zamonaviy diskurs tiplari ichida barqaror o'ringa ega bo'lmoqda" [2: 65]. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatishning raqamlashtirilgan shakllar bilan almashishi yangi lingvistik fenomenlarning yuzaga kelishiga olib keladi va raqamli muhitdagi onimlar bu umumiy tendensiyadan mustasno bo'la olmaydi. Shu bois internet onomastikasi, onomastik fenomenlar va ularning yuzaga kelish mexanizmlarini tushunishga bo'lgan ertiyoj ortdi.

O'zbek tilshunosligida internet makoni onomastikasining o'rganilishi bo'yicha ayrim kichik natijalarga erishilgan bo'lsa-da, bu masala yetarlicha o'rganilgan deb aytish qiyin. Ayniqsa, internet muhiti sharoitida onomastik birliklarning funksiyasiga bag'ishlangan ilmiy manbalarning deyarli yo'qligi zamonaviy raqamli onomastika masalasining rivojlanmaganligini yaqqol

ko'rsatadi. So'nggi besh yil ichida onimlarning internet kommunikatsiyasidagi funksiyalariga oid masalalar faqatgina ayrim maqolalarda ko'tarilgan, xolos [5: 362].

Boshqa tomondan, internet kommunikatsiyasining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan atoqli nomlar sohasidagi jarayonlar onomastikaga ilmiy fan sifatida, eng avvalo, uning terminologiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. S.Kersten va N.Lotze ta'kidlaganidek, onomastikaning fan sifatidagi o'ziga xos xususiyati – onimlar kategoriyalarini ifodalovchi terminlarning faol yaratilishidir; bu, bir tomondan, zarur bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, terminologik tizimning, xususan, ahamiyatsiz farqlarni ifodalovchi nomlarning haddan tashqari ko'payishiga olib keladi [3: 133].

Internet muhitida onimlarning funksiyalashuvi muammosi o'zining ko'p o'lchovli tabiati tufayli murakkabdir. Internetga xos bo'lgan onomastik hodisalar ushbu muammoning muhim, ammo mutlaqo yagona jihati emas. Internet onomastikasi onlayn (internet muhiti) va oflayn (odatiy "real" dunyo) makonlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning mantig'iga muvofiq shakllanadi, deb taxmin qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan jadal sur'atlarda ommalashib borayotgan virtual reallikning barpo etilishi turli yo'llar bilan amalga oshmoqda.

Birinchi, real dunyoda inson faoliyati mahsuli sifatida yaxshi tanish bo'lgan va virtual muhitga ko'chirilgan obyekt hamda hodisalarning virtualizatsiyasi haqida so'z yuritish mumkin. Bu turli xil hodisalarga taalluqlidir: elektron pochta xizmatlari, kutubxonalar, onlayn do'konlar, onlayn banklar, elektron gazeta va jurnallar kabi. Mazkur jarayonda ikki asosiy shaklni ajratib ko'rsatish muhim. Bir tomondan, real hodisalarning qisman virtualizatsiyasi mavjud bo'lib, bu tashkilotlar, tijorat tuzilmalari va boshqalarning virtual muhitdagi mavjudligi hamda faoliyati sifatida tushuniladi; bunday faoliyat real dunyodagi tashkilot faoliyatini to'ldiruvchi unsur sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, real tashkiliy faoliyat shakllarining to'liq virtual analoglari vujudga kelishi kuzatiladi, buning eng yaqqol namunasi raqamli kutubxonalardir.

Ikkinchidan, internet kabi yangi kommunikativ makonning shakllanishi hayotimizga hech qanday yangilik olib kirmaydi, deymaymiz. Virtual reallikning barpo etilishi virtual muhitdan tashqarida bevosita analoglari mavjud bo'lmagan mutlaqo yangi turdagi hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Zamonaviy tillarning leksik tizimlarida kuzatilayotgan kompyuter terminologiyasining jadal rivoji bunga yaqqol dalildir. Axborotning qanday tashkil etilishi, uni taqdim etish va saqlash tamoyillari har bir holatda tubdan farq qiladi.

Shu bilan birga, real hodisalarning virtual makonga ko'chirilishini ifodalovchi ayrim metaforalarni ham yuqorida ta'riflangan ma'nodagi virtualizatsiya natijasi sifatida tushunib bo'lmaydi. Masalan, virtual muloqot makoni sifatidagi internet forumini fan, biznes va siyosatda qo'llaniladigan tashkiliy va kommunikativ shakl bo'lgan forumlar bilan qiyoslash qiyin. Ikkinchi holatda forumlar tantanavorlik bilan ajralib turadigan maxsus tadbirlar bo'lsa, internet forum oddiy, kundalik muloqot uchun mo'ljallangan, majburiy tarzda ixtisoslashgan platforma hisoblanadi. Xuddi shu mantiq onomastik birliklarning funksiyalashuvida ham kuzatiladi. Birinchidan, internet muhiti an'anaviy onimlarni o'zlashtiradi va bu jarayon

mavjud onimlarning internet kommunikatsiyasiga oddiy ko'chirilishi hamda virtualizatsiya qilingan obyektlar uchun yangi atoqli nomlarning yaratilishini o'z ichiga olishi mumkin. Bu holatda onlayn va oflayn makonlar bir-birini go'yoki takrorlaydi. Ikkinchidan, internet muhiti atoqli nomlar sohasida mutlaqo yangi hodisalarni yuzaga keltiradi va ular, o'z navbatida, onomastik tizimga teskari ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, internet onomastikasining muammolari ikki asosiy yo'nalishga ajratilishi mumkin. Bu an'anaviy onimlarning internet kommunikatsiyasida, turli diskurslarning internet variantlarida, shuningdek, "birlamchi reallik"ni to'ldiruvchi virtual makonda umumiy holda funksiyalashuvidir. Ushbu yo'nalish doirasida shuni ta'kidlash joizki, tadqiqotchilar har doim ham onomastik birliklarning internet muhiti, ya'ni ularning funksiyalashuv sohasi bilan bog'liq ifodalanish xususiyatlariga yetarli darajada e'tibor qaratmaydilar. Mazkur tadqiqot yo'nalishi nihoyatda istiqbolli bo'lib, aynan internet kontekstida onomastik birliklar ega bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi ehtimoli yuqori.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Попова А.В. Структурни особливости никнеймив в английський та український антропоніміци. Актуальні питання вивчення германських, романських і словянських мов і літератур та методіки викладання іноземних мов.—Донецьк, 2017.—С. 62–67.
2. Kisel O.V., Mikhailov V.V., Savinova Y.A., Bosik G.A. New Onomastic Realities In Digital Era. Education Environment for the Information Age. Vol 46. K. Lo (Ed.), 2018. — pp. 293–300.
3. Olga Kosovych, Kateryna Nesterchuk. Onyms in Internet Communication: New Phenomena and Realizations. // Матеріали VI Міжнародної науково-практичної конференції. — Ukraine. — P. 3.
4. Khusanova Z. The Role of Nicknames in Uzbek Anthroponymics. // Journal of Universal Science Research, 2(6), 362–375. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/36403>.

Maqsuda JUMABOYEVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

OZOD SHARAFIDDINOV TALQINIDA ABDULLA QAHHORNING SHAXSIYATI VA IJODI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinovning etyudlari asosida Abdulla Qahhorning shaxsiyati va ijodi tahlil qilinadi. Unda yozuvchining badiiy mas'uliyati va so'zga munosabati yoritiladi. O.Sharafiddinovning tanqidiy qarashlari orqali Abdulla Qahhorning adabiy-estetik qiyofasi ochib beriladi. Natijada adib obrazining milliy adabiy tafakkurdagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Ozod Sharafiddinov, Abdulla Qahhor, etyud, talqin, "Sinchalak".

Annotation. This article analyzes Abdulla Qahhor's personality and work based on Ozod Sharafiddinov's studies. It highlights the writer's artistic responsibility and attitude towards the word. Through O.Sharafiddinov's critical views, the literary and aesthetic image of Abdulla Qahhor is revealed. As a result, the role of the writer's image in national literary thinking is determined.

Keywords: Ozod Sharafiddinov, Abdulla Qahhor, etude, interpretation, "Sinchalak".

Аннотация. В данной статье анализируется личность и творчество Абдуллы Каххара на основе этюдов Озода Шарафиддинова. Освещается художественная ответственность писателя и его отношение к слову. Через критические взгляды О.Шарафиддинова раскрывается литературно-эстетический образ Абдуллы Каххара. В результате определяется место образа писателя в национальном литературном мышлении.

Ключевые слова: Озод Шарафиддинов, Абдулла Каххар, этюд, интерпретация, «Синчалак».

O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqid tarixida Ozod Sharafiddinov nomi teran tafakkur, estetik halollik va ijodkor shaxsiyatiga chuqur hurmat bilan qarash an'anasini boshlab bergan olimlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. "Ozod Sharafiddinov adabiyot, adabiy tanqid maydoniga o'tgan asr 50-yillarining o'rtalarida, mamlakatda mustabid tuzum adabiy siyosati qisman yumshagan, erkinlik shabadalari esa boshlagan bir paytda kirib keldi. O'sha kezlari adabiy hayotda tanqidchilik rivojida yangi bir to'lqin boshlandi. Ozod aka ana shu to'lqinning oldingi safida bordi, so'z san'atidagi sog'lom kuchlar, umidbaxsh tamoyillarning, navqiron iste'dodlarning ixtirochisi va himoyachisi sifatida tanildi" [1], — deydi Umarali Normatov.

Ozod Sharafiddinovning Abdulla Qahhor shaxsiyati va ijodiga bag'ishlangan etyudlari adib siyomosini oddiy biografik yoki adabiy faktlar yig'indisi sifatida emas, balki murakkab ruhiy, axloqiy va estetik hodisa sifatida ochib beradi. O.Sharafiddinov uchun A.Qahhor — avvalo yozuvchi emas, balki so'z oldida mas'uliyatni chuqur his qilgan, haqiqatdan chekinishni o'ziga ravo ko'rmagan ijodkor shaxsdir. Bu haqida Ozod Sharafiddinov "Chinorlardan biri" maqolasida shunday deydi: "Boshqa bir misol. 1967-yil sentabr oyining so'lim oqshomlaridan biri. Alisher Navoiy nomidagi teatrning ko'pni ko'rgan muhtasham zali. Adibning 60 yillik to'yi nishonlanmoqda. Hay'atda partiya va hukumat rahbarlari, atoqli arboblal, adiblar va san'atkorlar.

Zalni liq to'ldirib o'tirgan odamlar Abdulla Qahhorning nutqini kutishyapti. Nihoyat, unga so'z berildi. U shoshilmay bitta-bitta bosib minbarga chiqdi, bafurja ko'zoynagini burniga qo'ndirdi, yonidan qog'ozini olib, yoyib tekisladi-da, o'ziga juda yarashadigan barqut ovozi bilan nutqini boshladi. Nutq juda qisqa edi, lekin shu qisqa nutq zalda bo'ron yasadi. Ko'p o'tmay bu bo'ron zaldan tashqariga chiqdi, shahaga, viloyatga, respublikaga yoyildi. O'shanda adib nima degan ediki, bu gaplar hammani bu qadar larzaga solgan edi. "Men partiyaning Soldati emas, ongli a'zosiman!" Bu gap zalda bombaday portladi. Qizig'i shundaki, uning Toshkentning qoq o'rtasida turib kechasi aytgan gapi yarim soatda Moskvaga – Markaziy komitetga va boshqa tegishli tashkilotlarga yetgan edi" [1].

O.Sharafiddinov A.Qahhor shaxsiyatini tahlil etar ekan, uning ichki intizomi, ma'naviy qat'iyati va badiiy haloligini markaziy tushuncha sifatida ilgari suradi. Qahhor ijodidagi hayotni bezamasdan, bo'yamasdan ko'rsatishga intilish tanqidchi tomonidan yozuvchining axloqiy pozitsiyasi bilan bog'lanadi. A.Qahhor asarlaridagi keskinlik, ba'zan achchiq kinoya yoki ruhiy taranglik, O.Sharafiddinov talqinida, adibning haqiqatga bo'lgan sadoqatidan kelib chiqadi. U yozuvchi ruhiyatidagi murosasizlikni adabiy jasorat belgisi sifatida baholaydi. "O'sha paytda partiya a'zosi yuqoridan aytilgan har qanday buyruqni soldatday so'zsiz bajarmog'i kerak edi. Qiziq, o'sha kezlarda va undan keyin ham butun Sovet Ittifoqida boshqa birona yozuvchi buyruqni so'zsiz bajaradigan itoatkor bo'lish g'oyasiga qarshi lom-mim degani yo'q. Abdulla Qahhor o'sha nutqda, aslida inson erkini, inson aqlini himoya qilib hayqirgan, inson ustidan zo'ravonlik qilishga qarshi norozilik bildirgan edi. Abdulla Qahhor bu nutqidan keyin umrining oxirigacha va vafotidan keyin ham anchagacha ta'na-dashnomlardan qutilmadi" [1].

Ozod Sharafiddinov A.Qahhor ijodini o'rganishda uni zamondoshlari bilan qiyoslash yo'lga bormaydi, balki uning ichki ijodiy mexanizmlarini, badiiy tafakkurini ochishga harakat qiladi. Etyudlarda ijodkor tilining ixchamligi, obrazlarining

aniqligi, voqelikni qisqa, ammo chuqur ifodalash uslubi alohida e'tirof etiladi. Tanqidchi nazarida yozuvchi hikoya va qissalarida ortiqcha so'z yo'q, har bir detal badiiy yuk ko'taradi.

Bu esa yozuvchining yuqori badiiy didi va o'ziga nisbatan talabchanligidan dalolat beradi. O'sha paytlarda "g'oyaviy zararli asar" deb topilgan "Sinchalak" qissasi haqida so'z borganda, "Chindan ham "Sinchalak" birinchi qarashda, o'ta yuksak "g'oyaviy" asardek ko'rinadi. Yaqinda "Sinchalak"ni qayta o'qib chiqdim va bir narsaga hayron qoldim – Abdulla Qahhor 1959-yildayoq "Bo'ston" kolxozi va uning atoqli raisi Arslonbek qalandarov timsolida totalitar tuzumning modelini ifodalagan ekan-ku. Eng muhimi – bu tuzumning ichdan chiriganini, chuqur tanazzul holini kechirayotganini ko'rsatgan ekan. Har holda, "Sinchalak"ni yangi so'z bilan o'qinsa, unda kolhoz tuzumining ichki yemirilishi tasvirlanganiga ishonch hosil qilish mumkin" [1].

O.Sharafiddinov A.Qahhor shaxsiyatidagi ichki ziddiyatlarga ham e'tibor qaratadi. U adibni faqat ijobiy fazilatlar majmuasi sifatida emas, balki iztirob chekkan, shubhalangan, o'zini va zamonini o'ylagan murakkab ruhiy olam egasi sifatida ko'rsatadi. Aynan mana shu ruhiy murakkablik A.Qahhor ijodini hayotiy va ishonarli qilgan omil sifatida talqin etiladi. Yozuvchining insoniy zaifliklari uning badiiy kuchini kamaytirmaydi, aksincha, ijodini yanada samimiy va ta'sirchan qiladi.

Ozod Sharafiddinov uchun A.Qahhor ijodi milliy adabiyotning axloqiy mezonlarini belgilovchi muhim bosqichdir. U A.Qahhor asarlarida o'zbek xalqining ruhiyati, ijtimoiy muammolari va insoniy dramalari o'ziga xos realizm bilan ifodalanganini ta'kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinov talqinida Abdulla Qahhor shaxsiyati va ijodi bir-biridan ajralmas yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining axloqiy pozitsiyasi uning badiiy uslubida, hayotga qarashi esa obrazlar tizimida aks etadi. Sharafiddinovning etyudlari orqali Qahhor nafaqat buyuk adib, balki o'z zamonining vijdoni bo'lgan shaxs sifatida gavdalanadi. Bu talqin Qahhor merosini bugungi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qayta anglashga muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Sulton I v.b. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

FE'L TURKUMIGA OID SO'Z YASALISHI BORASIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida fe'llar so'z yasovchi affiksleri -lan, -lash, -lat va ularning omonim -la+-n, -la+-sh, -la+-t tizmalari tahlil qilinadi. Affikslarning so'z yasovchi vazifasi, ma'no xususiyatlari va omonimik munosabatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, -lan va -la+-n tizmasi fe'llarda mustaqil til hodisasi bo'lib, ular asosida hosil bo'lgan fe'llar ma'nosi va vazifasi nutq kontekstida farqlanadi. Shu bilan birga, -lash va -lat affiksleri yordamida yasalgan fe'llarning tarqalishi, qo'llanish doirasi va semantik xususiyatlari aniqlangan. Maqola fe'llar so'z yasash jarayonidagi omonimiya, affikslarning vazifasi va ularning nutqiy ifodasi masalalarini yoritadi.

Kalit so'zlar: fe'l turkumi, so'z yasovchi qo'shimcha, affiksatsiya usuli, omonimik qator, omoaffiksler, yasama fe'llar.

Annotation. The article analyzes the word-forming suffixes of Uzbek verbs -lan, -lash, -lat and their homonymous systems -la+-n, -la+-sh, -la+-t. Their word-forming functions, semantic properties, and homonymic relations are examined. The study shows that the -lan and -la+-n systems are independent linguistic phenomena, and the meaning and functions of verbs formed with them manifest in speech context. The distribution, usage scope, and semantics of verbs with -lash and -lat suffixes are also analyzed. The article highlights issues of homonymy, suffix functions, and their expression in discourse.

Keywords: verb group, word-forming suffix, addition method, homophone series, homophone suffixes, artificial verbs.

Аннотация: В статье анализируются словообразовательные аффиксы глаголов узбекского языка -lan, -lash, -lat и их омонимичные формы -la+-n, -la+-sh, -la+-t. Рассматриваются словообразовательная функция, семантические особенности и омонимические отношения. Исследование показывает, что системы -lan и -la+-n являются самостоятельными языковыми явлениями, а смысл и функции образованных с их помощью глаголов проявляются в контексте речи. Также рассматриваются распространение, область применения и семантика глаголов с аффиксами -lash и -lat. Статья освещает вопросы омонимии, функций аффиксов и их речевого выражения.

Ключевые слова: глагол, словообразовательный аффикс, метод аффиксации, омонимичные ряды, омоаффиксы, производные глаголы.

Affikslardagi omonimlikni belgilashda, avvalo, o'zbek tilining sinxronik holatlarini farqlash kerak. Hozirgi zamon o'zbek tilida affiksial omonimlar tilning sinxronik holati asosida belgilanishi lozim, chunki diaxronik planda barcha affiksial morfemalarning har jihatdan o'zgarishi tabiiy. U yoki bu davrda o'zaro omonim bo'lgan affikslar tilning hozirgi holatida omonim bo'lmay qolishi yoki buning aksi ham bo'lishi mumkin.

O'zbek tilining affikslaridagi omonimiya hodisasi ma'no va vazifasiga ko'ra tamomila bir-biridan farq qiluvchi affikslarning shaklan bir xilligiga asoslanadi va ular turli yo'llar bilan vujudga keladi:

a) affiks morfemalarda hech qanday genetik bo'lmagan holda, tasodifiy ravishda shaklan o'xshash, bir xil bo'lib qolish natijasida: oqish - belgining kamligi; boqish - harakat nomi; yugurishdi - ko'plik;

b) ayrim affikslarning birikib bir affiks holiga kelishi yoki qisqarib, uning yakka bir affiksga aylanib qolishi natijasida: *-ma* (*-m-a*- bosma) qo'shma affiksi *-ma* bo'lishsizlik affiksi bilan, kitobcha (*-cha chog'-choq* affiksining qisqargani) so'zidagi *-cha* affiksi o'zbekcha so'zidagi *-cha* affiksi bilan ana shunday holatda omonim bo'lib qolganda;

d) ko'p ma'noli affiksning turli ma'nolari orasidagi bog'lanishning yo'qolib ketishi, ular ma'nosining bir-biridan uzoqlashib, farqlanib ketishi natijasida: men so'zidan kelib chiqqan *-m* (ko'zim so'zida) egalik affiksi bilan, *-m* (bordim) shaxs-son ko'rsatkichining omonimik munosabati ana shu uzoqlashish asosida yuzaga kelgan;

e) o'zbek tiliga o'zlashayotgan ayrim affikslar orasidagi shakliy o'xshashlik asosida: avanturistka, yo'lka kabilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-lan*, *-lash*, *-lat* qo'shma affikslari faol fe'l yasovchilar bo'lib, ular yordamida ko'plab fe'llar yasaladi: *zavqlanmoq*, *duduqlanmoq*, *yuzlanmoq*; *ahdlashmoq*, *go'zallashmoq*, *dag'allashmoq* kabi. Bu qo'shma affikslar aslida fe'l yasovchi *-la* affiksi bilan nisbat shaklini yasovchi affiksning o'zaro birikishidan va bir affiksga aylanishidan yuzaga kelgan:

-la+-n>-lan, *-la+-sh>-lash*, *-la+-t>-lat*. Demak, *-lan*, *-lash*, *-lat* qo'shma affikslari yordamida yasalgan fe'llar bilan *-n*, *-sh*, *-tir* affikslari orqali yasalgan nisbat shakllari imlosi va talaffuziga ko'ra bir xil bo'lib qoladi hamda bu tarkibiga ko'ra ikki xil so'zshakllar orasida omonimik munosabat yuzaga keladi. Bularni bir-biridan farqlab olish ayrim hollarda u qadar oson bo'lavermaydi. Hatto *-lan*, *-lash* qo'shma affikslari yordamida yasaluvchi *shodlanmoq*, *jonlanmoq*, *bahslashmoq*, *gaplashmoq* kabi fe'llar (mustaqil leksemalar) o'zlik va birgalik nisbati shakllari deb qaralgan manbalar ham bor [1: 58].

Shuningdek, shu vaqtgacha nashr etilgan o'zbekcha-ruscha lug'atlarga va "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga nazar tashlasak, o'rganilayotgan qo'shma affikslar yordamida yasalgan juda ko'p fe'llarning noto'g'ri ravishda fe'lning u yoki bu nisbat shakli deb ta'riflanganini ko'ramiz [2].

Holbuki, bunday fe'llarda *-lan*, *-lash* va *-lat* affikslarining vazifasini baholar ekanmiz, ularning, avvalo, fe'l yasovchi ekanligiga e'tibor berishimiz kerak. Chunki A.Shcherbakning so'zlari bo'yicha "Fe'l yasovchi affikslar va yordamchi fe'llar, avvalo, fe'llikning ko'rsatkichlaridir" [3: 46].

O'zbek tilshunosligida *-lan* va *-la+-n* affikslari haqida turli fikrlar mavjud. Bunda: *-lan* va *-la+-n* affiksli holatlarni farqlash; ikkinchidan, *-lan* affiksining ma'nosi va vazifalari; uchinchidan, *-lan* affiksli fe'lning fe'l nisbatlari bilan munosabati; to'rtinchidan, *-la+-n* shaklidagi fe'lning fe'l nisbatlariga munosabati kabi masalalar e'tiborni o'ziga tortadi. Biz mana shu masalalarni o'rganish maqsadida "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan va R.Qo'ng'urov, A.Tixonovning "O'zbek tilining chappa lug'ati" kitoblaridan *-lan* va *-la+-n* affiksli fe'llarga 332

ta misol to'pladik. Bulardan 150 tasi *-lan* affiksi bilan yasalgan fe'llar va 182 tasi *-la* affiksi bilan yasaliib, shakl yasovchi *-n* affiksini olgan fe'llardan iborat.

-la+-n affikslari tizmasi fe'l so'zshaklda ikkita mustaqil affiksning yonma-yon kelishi bilan yuzaga keladi. *-la* affiksi fe'ldan boshqa hamma so'z turkumidan fe'l yasaydi: *ko'zla*, *oqla*, *tezla*, *sizla*, *shiqirla*, *dukurla* va boshqalar. Bu affiksning konkret ma'nosi fe'l o'zaginging ma'nosi bilan bog'liqdir [4: 68]. Bu affiks bilan yasalgan fe'l *-n* affiksini olgach, tuzilish shakliga ko'ra *-lan* yasovchi affiksli fe'lga omonim bo'lib qoladi. *-la+-n* affikslar tizmasi fe'llarda *-n* affiksi *-la* yasovchili fe'lning o'zlik yoki majhul nisbat shakllarini hosil qiladi. Ayrim hollarda esa *-la+-n* affiks tizmasi fe'l o'zlik nisbatining ham, majhul nisbatning ham shakli bo'lishi mumkin. Ikki xil nisbatga xos fe'l shakllari orasidagi omonimik munosabat o'zlik va majhullik nisbatlari shakllarining *-n* omoaffiksi bilan yasalishi sababli yuzaga keladi.

-lan affiksli fe'llarda bu affiksning, eng avvalo, so'z yasovchi, ot, sifat va ravishlardan fe'l yasovchi sifatida qatnashayotgani ko'zga tashlanadi. *-la* affiksi, asosan, o'timli fe'l yasaydi, ya'ni tashqi obyektga yo'naltirilgan faol harakatni, amalni ifodalovchi fe'llarni yasaydi. *-lan* affiksi esa undan farqli ravishda harakat/holatning egasi tomonidan yuzaga keladigan, lekin undan tashqaridagi obyektga emas, uning o'zida qoladigan holatning yuzaga kelish jarayonini ifodalovchi fe'llarni yasaydi. Tashqi obyektga yo'naltirilmagan, shunday obyektga ega bo'lmagani uchun bu fe'llar o'timsizdir.

Yuqorida sanalgan fe'llardan ko'rinishicha, *-lan* affiksi tarixiy zarurat, ehtiyoj tufayli *-la* fe'l yasovchi affiksining o'zlik nisbati ko'rsatkichi *-n* bilan qo'shilishidan tug'ilgan. Chunki *-lan* yasovchisi *-la* affiksi ham, *-la+-n* affikslar tizmasi ham ifodalay olmaydigan holatni, harakatni bildiradi. Bu holat shaxsning (predmetning ham) ruhiyati, kayfiyati, ma'naviyatidagi (ko'zga ko'rinmas) harakatlar bilan bog'liq. *-lan* affiksli fe'llarda o'zlik nisbatiga xos deb talqin etiladigan ma'no bu fe'llar ifodalaydigan harakat/holatning shu o'ziga xos xususiyatidir. Masalan, *ajablanmoq*, *bezovtalanmoq*, *rivojlanmoq*, *nafratlanmoq*, *sabrsizlanmoq* va boshqalar. Bu va bu kabi fe'llarda o'zlik nisbati ma'nosi bor deyish uchun bu fe'llarning bosh nisbat shakli va bosh nisbatga xos ma'nosini topish lozim bo'ladi.

Biroq bu fe'llarning bosh nisbat shakli, ya'ni, aytaylik, *-la* affiksi bilan yasalgan shakllari yo'q. Shuningdek, bu fe'llarni bosh nisbatga xos deb olsak (shunday deyishga majburmiz, chunki hozirgi kunda bu fe'llar o'zlik nisbati fe'llari kabi bosh nisbatning o'timli fe'llaridan o'zlik nisbati ko'rsatkichining qo'shilishi bilan yuzaga kelayotgani yo'q), u holda bu fe'llardan o'z navbatida o'zlik nisbatiga xos fe'llarni hosil qilish ham mumkin emas.

Demak, *-lan* affiksi va *-la+-n* affikslari tizmasi o'ziga xos, alohida til hodisalari bo'lib, ular orasidagi omonimik munosabat nutqiy jarayondagina namoyon bo'ladi. Ya'ni bu affikslar qatnashgan fe'l shakllarining omonimligi va, ayni paytda, bajaradigan vazifasi anglatadigan grammatik ma'nosiga ko'ra farqlanishi muayyan matnda, nutqda o'z ifodasini topadi. *-la+-n* va *-lan* affikslari bilan kelgan fe'l asoslarini so'z turkumlari nuqtayi nazaridan o'rganish quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

Affikslar	Ot		Sifat (asliy)	Son (sanoq)	Ravish (tarz)
	aniq	mavhum			
-la+-n	98	50	32	-	4
-lan	25	68	50	1	3

Jadvaldan ma'lum bo'lishicha, *-la+-n* affiksleri aniq otlarga ko'plab qo'shilgani holda, *-lan* affiksi xuddi shunday otlarga, aksincha uch baravar oz qo'shiladi. Bu affikslarning sifatlarga qo'shilishida boshqacha manzara ko'zga tashlanadi: *-la+-n* sifatlarga kam qo'shilgani holda, aksincha, *-lan* affiksi sifatlarga ikki baravardan ortiqroq qo'shib, ulardan fe'l yasaydi. Ravish turkumi bo'yicha ham deyarli shunday natija kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, *-la* aniq ma'noli otlardan aniq, faol amal ma'nosidagi fe'llarni yasashga moyil. *-n* affiksi bu fe'lga o'z ma'nosini qo'shadi. Lekin *-lan* affiksi belgi-xususiyat anglatuvchi sifat va ravishlardan shu belgi-xususiyatga ega bo'lish ma'nosidagi fe'llarni yasaydi. Bu fe'llar faol amal ma'nosini anglatmaydi. *-lan* affiksi *-la* affiksiga nisbatan mana shunday harakatni emas, biron holatga o'tish, shunga ega bo'lish ma'nosidagi fe'llarni hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bu uning mavhum otlarga talaygina hollarda qo'shilishida ham ko'rinadi: *-la* affiksining qo'llanish doirasi *-lan* affiksining qo'llanishiga qaraganda, umuman olganda, ko'p. Lekin mavhum otlarga *-lan*, *-la+-n* affikslariga nisbatan bir oz ko'proq qo'shiladi. Bu affikslar *-lan* ham, *-la+-n* ham olmoshlarga mutlaqo qo'shilmaydi.

-lash affiksi bilan yasalgan fe'llarga omonim *-la+-sh* affikslar tizmasi fe'llarda *-la* affiksining fe'l yasashi ayon. *-la+-sh* affikslari qatnashgan so'zshakllardagi *-sh* affiksi omoaffiksdir. Bu yerda: 1) birgalik nisbati ko'rsatkichi *-sh*; 2) o'zlik nisbati ko'rsatkichi *-sh*; 3) harakat jarayonining intensivligini (yoki aksincha) ko'rsatuvchi *-sh*; 4) ishni asosiy bajaruvchiga yordamlashish ma'nosini *-sh* affikslari ayni bir shaklda kelib, turli vazifalarni bajarimoqdalar.

-lash affiksi ham tarixan *-la* va *-sh* affikslarining birikuvidan hosil bo'lib, u hozirgi kunda ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi. Sonlardan faqat "bir" so'ziga qo'shib, "birlash" fe'lini yasaydi. *-lash* affiksining tarkibidagi *-sh* affiksi o'zlik va birgalik nisbatlaridan biri ma'nosini ifodalaydi: *ko'maklashmoq*, *asabiylashmoq*, *suhbatlashmoq*, va *dalashmoq*. Lekin *-lash* affiksi bilan yasalgan fe'llarning ma'nosi bu fe'lning yasali sh asosiga, uning qaysi so'z turkumiga mansubligi, qanday ma'noning ifodalanishiga bog'liq. *-lash* affiksi bilan yasalgan fe'llarni ma'nosiga ko'ra ba'zan *-lan* affiksi bilan yasaluvchi fe'llardan farqlash qiyin: *yiriklashmoq*, *osonlashmoq*, *tezlashmoq*, *yaqinlashmoq*, *og'irlashmoq* kabi.

Lekin *-lan* va *-lash* affikslari vositasida fe'l yasali shi so'zlar doirasida, umuman olganda, chegaralangan: aynan bir xususiyatli fe'llarning ba'zilar *-lan* affiksi yordamida yasalsa, ba'zilar *-lash* affiksi vositasida yasaladi. Masalan, *havaslanmoq*, *to'lqinlanmoq*, *ovqatlanmoq*, *shakllanmoq*, *zavqlanmoq*, *foydalanmoq* fe'llarining *-lash* affiksi bilan yasali shi yo'q. Bu esa tilning taraqqiyotini belgilovchi, tilni harakatlantiruvchi omil, avvalo, zarur tushuncha, ma'nolarni ifodalovchi yangi so'z va so'z birikmalariga bo'lgan ehtiyoj, zarurat ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Til taraqqiyoti, uning nutqda sayqallanishi murakkab va nozik jarayon bo'lib, unda tanlov nihoyatda kuchli, aloqa-aralashuv vositasi sifatida,

murakkab his-tuyg'ularni ifodalash vositasi sifatida til o'ziga kerakli, zarur so'zlarni davr, sharoit talabiga va ehtiyojiga ko'ra yaratib oladi. *-lan*, *-lash* so'z yasovchi affikslarining yuzaga kelishi va faol fe'l yasovchiga aylanishi ham mana shu zarurat tufaylidir.

-lan affiksi bilan yasalgan fe'llarda o'zlik darajaga, *-lash* affiksi yordamida yasaluvchi fe'llarda o'zlik va birgalik darajaga xos xususiyatning saqlanishidan qat'i nazar, bu affikslar vositasida yasaluvchi fe'llar bosh nisbat shakli hisoblanadi. Chunki *rivojlanmoq*, *og'irlashmoq* kabi fe'llarda nisbat shaklini yasovchi formant yo'q.

-lash affiksi bilan yasalgan fe'llar *-lan* bilan yasalgan fe'llar *-lan* bilan yasalgan fe'llarga nisbatan kam. *-lan* affiksi asosan otlardan va boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasasa, *-lash* affiksi asosan sifatlardan va nisbatan kamroq boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasaydi. Bular *-lan* va *-lash* affiksi fe'llar har holda boshqa-boshqa bo'lib, bir-biridan ko'p hollarda ajralib turishini ko'rsatadi.

-lat affiksi fe'llar juda oz. Asli *-la* va *-t* affikslarining birikuvidan yuzaga kelgan. *-lat* fe'l yasovchisining *-lan* va *-lash* affikslariga nisbatan siyrak uchrashini shu bilan izohlash mumkinki: *-lan* va *-lash* affikslari bilan yasalgan fe'llar bosh, o'zlik va birgalik nisbatlariga xos bo'lib, ular qatnashgan gaplar *-la+-n*, *-la+-sh* affikslari tizmasi fe'llar qatnashgan gaplardan tuzilishiga ko'ra oz farqlanadi. Lekin orttirma nisbat ko'rsatkichi *-t* o'timsiz fe'llardan o'timli fe'llarni yasaydi va shuning uchun bu fe'llar qatnashgan gachplarning tuzilishi unga obyekt kiritilishi sababli o'zgaradi. Gapning yangi tuzilishi orttirma nisbat ma'nosini ifodalashga moslashadi. Shuning uchun *-la+-t* affikslarining yonma-yon kelishida orttirma nisbat ma'nosi *-la+-n* va *-la+-sh* tizmalarida *-sh* va *-n* affikslaridagi o'zlik va birgalik ma'nolariga qaraganda kuchli. Bu *-la* va *-t* affikslarining birikib, bir affiks bo'lib ketishiga qulay sharoit yaratmaydi.

-la affiksi fe'l o'timli bo'lganda gap qurilishida undagi ma'nosining ifodalanishi bilan bog'liq holda o'ziga xos o'zgarish ro'y beradi: yangi kirgan undovchi subyekt ish-amalning bajarilishini boshqaradi, bosh nisbatga xos tuzilmadagi subyekt jo'nalish kelishigi shaklda ikkinchi subyektini ifodalaydi. Masalan:

1. Hazilingiz qursin, – dedi chiroqni pastlayotib (A.Q.).

2. Kecha o'zingiz menga ariqdan ko'zoynagingizni izlatdingiz... (A.Q.).

-la affiksi bilan yasalgan o'timli fe'llarga *-t* affiksi qo'shilishida ham ayrim hollarda ularning bir affiksga aylanishlari kuzatiladi. Misol qilib, arzonlat, yolqinlat, yolg'izlat, ildamlat, og'irlat, tinchlat, to'lqinlat, uzoqlat, takomillat, tikkalat, yaqinlat, qalinlat, qoyillat, qorong'ilat fe'llarini ko'rsatish mumkin. *-lat* affiksi bu fe'llarda asosan ot, sifat va ravishlardan fe'l yasashga xizmat qiladi. Bunday paytda *-lat* affiksi harakatning natijasi, belgisini bildirib keladi, orttirma nisbat ma'nosi o'sha so'zlardan sezilib turadi [5: 71].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I–II jildlar. Москва: Русский язык, 1981.
3. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (глагол). Л.: Наука, Ленинградское отд-ие, 1981.
4. G'ulomov A. Fe'l. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1954.
5. Yusupxo'jayeva H. O'zbek tili izohli lug'atida fe'llarning ishlani shi. – Toshkent: Fan, 1988.

Gavharoy XOLISOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida
dotsenti, ffilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Musharraf SAMATQULOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti ingliz ffilologiyasi yo'nalishi talabasi

“TIJORIY DISKURS” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA RIJOJLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada “tijoriy diskurs” tushunchasining shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. “Diskurs” atamasining lingvistika, falsafa, sotsiologiya hamda pragmatika sohalaridagi talqinlari yoritilib, uning nutq, matn va kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Diskursning asosiy belgilari, turlari va funksional xususiyatlari zamonaviy ilmiy qarashlar asosida izohlanadi. Shuningdek, yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning diskurs haqidagi nazariyalari qiyosiy tahlil qilinib, ushbu tushunchaning bugungi tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: diskurs, diskurs tahlili, nutq, matn, kommunikativ jarayon, lingvistika, pragmatika, ijtimoiy kontekst, nazariy asoslar, funksional xususiyatlar.

Annotation. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the formation and evolution of the concept of “commercial discourse”. It explores various interpretations of the term “discourse” within the fields of linguistics, philosophy, sociology, and pragmatics, highlighting its intrinsic connection to speech, text, and communicative processes. The study explicates the core characteristics, typologies, and functional features of discourse based on contemporary scientific perspectives. Furthermore, a comparative analysis of the theories by leading foreign and local scholars is conducted to substantiate the role and significance of this concept in modern linguistics.

Keywords: discourse, discourse analysis, speech, text, communicative process, linguistics, pragmatics, social context, theoretical foundations, functional features.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические основы становления и развития понятия «коммерческий дискурс». Рассматриваются интерпретации термина «дискурс» в лингвистике, философии, социологии и прагматике, раскрывается его неразрывная связь с речью, текстом и коммуникативными процессами. В исследовании на основе современных научных взглядов эксплицируются основные признаки, типология и функциональные особенности дискурса. Кроме того, проводится сравнительный анализ теорий ведущих зарубежных и отечественных ученых, обосновывается место и значимость данного понятия в современной лингвистике.

Ключевые слова: дискурс, дискурс-анализ, речь, текст, коммуникативный процесс, лингвистика, прагматика, социальный контекст, теоретические основы, функциональные особенности.

Diskurs – muloqotning asosi bo'lib, u har qanday til birligi kabi belgisi xususiyatga ega. Bu uning ikki tomonlama tabiatini anglatadi: moddiy shakl (matn yoki nutq) va g'oyaviy mazmun (ma'no) sifatida tahlil qilinadi. Diskursni o'rganishda

uning tashqi olam bilan bog'liqligi juda muhim. Zero, har bir belgi real dunyo obyekti bo'lganligi sababli, diskursni u sodir bo'layotgan ijtimoiy muhit va vaziyatdan ayri holda tadqiq etib bo'lmaydi [1].

No	Tahlil yo'nalishi (bo'limlar)	Tarkibiy elementlar va mohiyati	Ilmiy xulosasi (konseptual mazmuni)
1	Strukturaviy-semiotik asos	Shakl (Moddiylik) + mazmun (Ideallik). Diskurs – ikki tomonlama tabiatga ega belgi.	Diskurs shunchaki axborot emas, balki nutqiy shakl va g'oyaviy ma'noning dialektik birligidir.
2	Ontologik xususiyat	“Muhitdagi til”. Diskurs – tildan foydalanish jarayoni va uning ijtimoiy borliqdagi in'ikosi.	Diskurs statik matndan farqli o'laroq, jamiyatda sodir bo'layotgan “tirik” kommunikativ jarayondir.
3	Pragmatik-metodologik shart	Kontekstual bog'liqlik. Diskursni tadqiq etishda tashqi olam, vaziyat va ijtimoiy muhit omillari.	Diskurs tahlili til birligini u yuzaga kelgan real hayotiy vaziyatdan (kontekstdan) ayri holda o'rganishi mumkin emas.

Diskurs – bu shunchaki nutq akti emas, balki insonning dunyoni anglash va idrok etish jarayonida yuzaga keladigan **kognitiv faoliyatining** mahsulidir. Nutq orqali mazmunning ifodalanishi (verballashuvi) ma'lumotni qayta ishlash jarayoni bilan bevosita bog'liq. Tilshunos olimlar diskursni turlicha talqin etishadi. Kubryakovaning fikriga ko'ra, “tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan birorta ta'rifi mavjud emas”. “Diskurs” termini jahon tilshunosligida so'nggi o'n yillikda juda keng qo'llanilib, bir necha ma'noda talqin qilinmoqda. Mazkur termin dastlab bog'lanma matn tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik

suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi Sossyurning tarafdorlari nutq tushunchasiga ko'proq e'tibor berishadi. Misol uchun, E.Benveniste deyarli hech qachon “nutq” atamasini ishlatmaydi, undan “muloqot”ni afzal ko'radi. E.Brussans Sossurcha, til nutq dioxotomiyasiga uchinchi komponent nutqni o'z ichiga oladi, uni til va nutq orasiga joylashtiradi va unga vositachi vazifasini beradi. Shu bilan birga, til mavhum belgilar tizimi vazifasini bajaradi; nutq so'zlovchi tildan foydalanadigan ma'lum kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi; nutq, nutq faoliyatining mexanizmi va jarayonining o'zidir [2].

A.A.Kibrik va uning hammualliflari ham o'z fikrlarini bayon qilgan: "Diskurs – matndan ko'ra kengroq tushuncha. U bir vaqtning o'zida lisoniy faoliyat jarayoni va uning natijasi – va uning natijasida matn paydo bo'ladi" [3]. Insoniyatning ijtimoiy, kommunikativ aloqaga kirishi sababi ma'naviy va moddiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi. Ehtiyojlar esa, zamon va makonga qarab o'zgaradi. Bundan kelib chiqib, shuni aytamizki, diskurs davr o'tishi bilan o'zgarib turuvchi hodisadir. Tilshunos olim T.M.Nikolayeva "Matn lingvistikasining qisqacha lug'ati" asarida diskurs tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Diskurs – matn lingvistikasining ko'p qiymatli atamasi bo'lib, bir qator mualliflar tomonidan deyarli omonim ma'nolarda qo'llaniladi. Ulardan eng keng tarqalgan shakllari izchil matn, matnning og'zaki-so'zlashuv shakli, dialoglar, monologlar, ma'nosi jihatda bog'liq bo'lgan gaplar guruhidir" [4]. "Diskurs" va "matn" tushunchalarini o'rtasidagi chegarani izlar ekanimiz, V.Karasikning "Diskurs – muloqot vaziyatiga kirishgan, bog'langan matn" [5], N.Artyunovning "matn" inson turmush tarziga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmagan muloqot shakli [6] degan ta'riflarga duch kelamiz.

Yangi geoiqtisodiy chaqiriqlar biznesda til va kommunikatsiyaning o'rganilishini yanada dolzarb qiladi. Biz allaqachon yangi sinergetik yo'nalish sifatida bizneslingvistika – til resurslarining biznesda qo'llanilishini o'rganadigan interdisipliner tadqiqot sifatida ajratish zarurligini asosladi. Olim N.D. Artyunovning ta'rifiga ko'ra "nutqning hayotga singib ketishi"ni nazarda tutadi. Yu.S. Stepanov ta'kidlashicha, "diskurs bu – til ichidagi til", ammo o'ziga xos ijtimoiy voqelik sifatida taqdim etilgan. Boshqacha qilib aytganda, sifat, savdo, xususiy mulk va bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq barcha narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Tijorat bu – mutlaq iqtisodiy hodisadir, uning maqsadi foyda olish.

Shunga ko'ra, tijoriy muloqot bu moddiy manfaat olishga qaratilgan tijorat faoliyati ishtirokchilarining kommunikativ o'zaro ta'siridir. Ishbilarmonlik muloqotini biroq boshqacha tushuntirish Y.Danyushinaning ilmiy ishlarida mavjud bo'lib, u diskursni "ishbilarmonlik (tashkiliy va korporativ, menejment, biznes-tahliliy), ommaviy axborot vositalari va publitsistik, o'quv, akademik va shaxsiy va kundalik subdiskurslarning murakkab simbiozi" deb tushunadi. Ushbu ta'rif biznes diskursining sintetik xususiyatiga, o'zaro ta'sirning boshqa sohalar tarkibiy qismlarining muloqotda ishtirok etishiga va nutqning o'zi murakkab shakllanishiga qaratilgan. Tijoriy muloqot ishbilarmonlik muloqotining ajralmas qismi ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi barcha xususiyatlar unga ham tegishlidir.

Xulosa qilib aytganda, diskursning nutq sifatida ta'riflanishi uning dinamik strukturaga ega ekanini isbotlaydi. Bu yondashuv tadqiqotchiga tilni statik holatda emas, balki jamiyatning barcha sohalariga, xususan, tijorat va iqtisodiy munosabatlarga kirib borgan tirik mexanizm sifatida o'rganish imkonini beradi. Shunday qilib, tijoriy diskurs – bu shunchaki sotuvchi matn emas, balki ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi murakkab lingvokognitiv va pragmatik muloqot zanjiridir. Mazkur tadqiqot doirasida tijoriy diskurs professional tijorat sohasida yuzaga keladigan, tijorat faoliyati ishtirokchilarining kasbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan, moddiy manfaatlarga erishishga qaratiladigan, ishbiarmonlik va publitsistik, o'quv va akademik elementlar, shuningdek, shaxsiy va kundalik subdiskurslar sintezidan iborat, buning natijasida muloqot murakkab sinkretik xususiyat kasb etadigan, bu esa o'z navbatida muloqotning maqsadlari, funksiyalari, tarkibiy-kompozitsion va uslubiy xususiyatlarini belgilaydigan diskurs turi sifatida tushunilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кравченко А.В. Естественно-научные аспекты семиозиса // Вопросы языкознания, 2000, №1.
2. Teun A. van Dijk [Электронный ресурс] <http://www.discourses.org>.
3. Mamajonov M. Antroponimlar diskurs relevanti sifatida. – Farg'ona, 2020.
4. Кибрик А.А. Когнитивные исследования по дискурсу // Вопросы языкознания, 1994, №5.
5. Николаева Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистика текста. М., 1978, №8.
6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. М.: Гнозис, 2004.
7. Артюнова Н.Д. Метафора // Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.296.

Sabohatxon YUSUPOVA,

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
fflogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;*

Dilnozaxon RAXMATULLAYEVA,

Farg'ona davlat universiteti magistranti

“HURMAT” TUSHUNCHASINING LUG'AVIY HAMDA TERMINOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "hurmat" tushunchasining lug'aviy va terminologik talqini tilshunoslik, sotsiologiya hamda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yoritiladi. Hurmatning kommunikativ va pragmatik funksiyalari, shuningdek, madaniyatlararo muloqotdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hurmat, sotsiopragmatika, nutq etiketi, kommunikatsiya, madaniyat.

Annotation. This article examines the lexical and terminological interpretation of "respect" from linguistic, sociological, and cultural perspectives, focusing on its communicative and pragmatic functions in intercultural communication.

Keywords: respect, sociopragmatics, speech etiquette, communication, culture.

Аннотация. В статье рассматривается лексическое и терминологическое толкование понятия «уважение» с лингвистической, социологической и культурологической точек зрения, а также его коммуникативные и прагматические функции.

Ключевые слова: уважение, социопрагматика, речевой этикет, коммуникация, культура.

Hurmat soʻzining lugʻaviy maʼnosi koʻplab tillarda bir-biriga yaqin mazmunlarni anglatadi. Oʻzbek tilida bu soʻz arabcha “حُرْمَة” (*hurmah*) ildizidan kirib kelgan boʻlib, asl maʼnosi – “muqaddaslik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish”. Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *hurmat* quyidagicha izohlanadi: ehtirom, izzat, ulugʻlash, yuksak baho berish; kimgadir nisbatan odobli, muloyim hamda eʼtiborli munosabatda boʻlish holati. Bundan tashqari, *hurmat* soʻzining sinonimlariga *izzat*, *ehtirom*, *ulugʻlash*, *sadoqat* soʻzlari ham kiradi. Bu soʻzlar hamda ular bilan bogʻliq iboralar oʻzbek madaniyati hamda axloqiy qadriyatlarida keng qoʻllaniladi.

Lingvistik jihatdan *hurmat* – kishilar oʻrtasidagi ijtimoiy masofani, ijtimoiy maqomni, yoshi, mavqei yoki rasmiy holatini inobatga olib, til vositalari orqali bildiruvchi nutqiy hodisadir. Bu hodisa pragmatika, sosiolingvistika hamda etnolingvistika kabi fan sohalarida oʻrganiladi. “Hurmat ifodasi kommunikativ faoliyatda nutq egasining tinglovchiga yoki suhbatdoshga boʻlgan munosabatini bildiradi. Bu: muomala etiketi, nutq madaniyati, til registri (yaʼni rasmiy – norasmiy uslub), hamda suhbatdagi ijtimoiy rollar orqali namoyon boʻladi” [11: 46].

Tilshunoslikda “hurmat” tushunchasi kommunikativ pragmatika, sosiolingvistika hamda madaniy tilshunoslik kabi sohalarida muhim tahlil obyekti hisoblanadi. U til orqali shaxslararo munosabatlarda ierarxiya, odob, ijtimoiy masofa hamda roldagi farqlarni ifodalash vositasi sifatida koʻriladi. Masalan, Braun hamda Levinsonning (1987) “Face Theory” modelida *hurmat* ijtimoiy “yuz” (*face*)ni saqlashga qaratilgan strategiyalar orqali namoyon boʻladi. *Hurmat* ifodalari deiktik vositalar (*siz–sen*), modallik, muloyimlik (*hedging*), eʼtiborni oshirish, soʻzlashuvdagi ijozat hamda ruxsat soʻrash kabi elementlar orqali ifodalanadi.

“Sotsiologiyada *hurmat* – ijtimoiy qadriyat. Shaxslar hamda guruhlar orasidagi ijtimoiy tenglik, obroʻ hamda maqomni belgilovchi meʼyor. Jamiyatda shaxsga boʻlgan *hurmat* koʻpincha yosh, jins, maqom, bilim yoki axloqiy fazilatlariga bogʻliq boʻladi” [12: 10]. Falsafada *hurmat* shaxsning axloqiy qadr-qimmatini tan olishdan kelib chiqadi. I.Kantning etik falsafasida *hurmat* boshqa odamni maqsad sifatida koʻrish (*vosita emas*) deb talqin qilinadi. Madaniyatshunoslikda *hurmat* har bir millat hamda madaniyatda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Masalan, Sharqiy jamiyatlarda, jumladan, oʻzbeklarda *hurmat* koʻproq kollektivizm, kattalarga itoat, “*sen–siz*” muomalasi orqali ifodalanadi. Gʻarb jamiyatlarida esa tenglikka asoslangan yondashuv ustun turadi.

“*Hurmat*” tushunchasi koʻp qatlamli hamda koʻp sohalarida oʻrganiladigan hodisadir. Uning lugʻaviy ildizlari qadimiy diniy hamda madaniy manbalarga borib taqaladi, lekin zamonaviy tahlil esa uni til, madaniyat, psixologiya hamda sotsiologiya nuqtai nazaridan kengroq koʻrib chiqadi. Tilshunoslikda bu tushuncha, ayniqsa, kommunikativ *hurmat* hamda pragmatik strategiyalar orqali tahlil qilinadi [7: 30].

Zamonaviy tilshunoslikda *hurmat* tushunchasi koʻproq sotsiopragmatika, nutq etiketi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda diskurs tahlili kabi sohalarida oʻrganiladi. Bu yondashuvlarda “*hurmat*” nafaqat tilshunoslik obyekti sifatida, balki ijtimoiy ong mahsuli hamda kommunikativ vosita sifatida talqin qilinadi. Masalan, P.Braun hamda S.Levinsonning “*Politeness: Some Universals in Language Usage*” nomli asarida *hurmat* (*politeness*) universal til hodisasi sifatida baholangan boʻlib, ular *hurmat*ni yuzni saqlash (*face-saving*) strategiyasi sifatida koʻrsatadilar. Ularning fikricha, har bir inson oʻzining ijtimoiy mavqeyini saqlab qolish istagiga ega boʻladi hamda bu ehtiyoj muloqotda *hurmat* ifodalari vositasida amalga oshiriladi. Shuningdek, zamonaviy

tadqiqotlarda “*hurmat*” tushunchasi lingvomadaniy birlik sifatida ham koʻriladi. Yaʼni, har bir madaniyatda *hurmat* oʻziga xos ramzlar, iboralar, ogʻzaki hamda yozma kontekstlar orqali ifodalanadi. Shu bois bu tushuncha kontekstual hamda nisbiy xarakterga ega boʻlib, har doim madaniy muhit bilan bogʻliq holda tahlil qilinadi [1: 7].

*Hurmat*ning semantik tarkibi. Semantik nuqtayi nazardan “*hurmat*” tushunchasi turli komponentlardan iborat boʻlib, ular orasida

- tan olish (eʼtirof) – kimgadir yoki nimagadir ijtimoiy yoki shaxsiy maqom berish;

- masofa saqlash – shaxsiy hududga tajovuz qilmaslik, chegaralarni bilish;

- iltifot hamda muomala – yumshoq, odobli muloqot yuritish;

- baholash – insonning yoshi, lavozimi, ilmiy yoki diniy maqomi asosida qadriini eʼtirof etish kabi maʼnolar mavjud.

Bu semantik komponentlar til vositalarida (soʻzlar, iboralar, qoʻshimchalar, intonatsiya) oʻz aksini topadi. Masalan, oʻzbek tilidagi *domla*, *ustoz*, *muhtaram*, *janoblari*, *marhamat* qiling, *iltimos* kabi birliklar *hurmat* bildiruvchi leksik vositalar sanaladi. Terminologik yondashuvda *hurmat* bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab atamalar shakllangan. Ularning baʼzilari:

- Politeness* (odoblilik) – kommunikativ jarayonda odobli, muvozanatli, ijtimoiy maqomni inobatga olgan muloqot olib borish holati [7: 12];

- Face* (*yuz*, *shaʼn*) – shaxsning ijtimoiy obroʻsini saqlashga qaratilgan kommunikativ tamoyil (Levinson, Braun);

- Honorifics* (*hurmat* shakllari) – til vositalarining ijtimoiy maqom hamda rolga qarab oʻzgarishi (masalan, *janob*, *siz*, *hurmatli*);

- Speech etiquette* (*nutq etiketi*) – tilning ijtimoiy madaniy normalarga mos, odobli qoʻllanishi.

“Shu terminlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar *hurmat* tushunchasini muloqotning asosiy tarkibiy qismi, tilning ijtimoiy funksiyasi sifatida talqin qilishga yordam beradi” [1: 7].

“*Hurmat*” har bir madaniyatda alohida ahamiyatga ega madaniy kod sifatida namoyon boʻladi. U qadriyatlar, odatlar, anʼanalar, din, axloqiy normalar bilan bogʻliq boʻlib, til orqali ifodalanadi. Shu sababli tillararo tarjimada yoki madaniyatlararo muloqotda bu kodlarning notoʻgʻri talqini tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bevosita ism bilan murojaat qilish (*Jon*, *Mary*) odatiy boʻlsa, oʻzbek tilida esa bu koʻpincha *hurmat*sizlik deb qabul qilinadi. Shuningdek, oʻzbek tilida *siz–sizlab* murojaat qilish *hurmat* koʻrsatkichi boʻlsa, ingliz tilida *you* zamiri universal shakl boʻlib, aynan *hurmat* darajasi modal feʼllar hamda ohang orqali ifodalanadi.

“*Hurmat*” tushunchasining lugʻaviy hamda terminologik talqini uni lingvistik tahlil obyekti sifatida toʻliq anglash uchun muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu bobda olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, “*hurmat*” tushunchasi turli lugʻaviy izohlar hamda ilmiy qarashlarda murakkab, koʻp qatlamli hamda kontekstga bogʻliq semantik mazmunga ega. Lugʻaviy jihatdan “*hurmat*” tushunchasi eʼtirof, izzat, obroʻ, boʻysunish, odob, ehtirom kabi maʼnolar bilan uzviy bogʻliqdir. Bu tushuncha har bir tilda milliy-madaniy tafakkur, qadriyatlar tizimi hamda kommunikativ muhit bilan shakllanadi. Tilshunoslikda esa nafaqat etik tushuncha, balki muhim pragmatik, sotsiolingvistik hamda diskursiv birlik sifatida oʻrganiladi.

Terminologik yondashuvlar “*hurmat*” tushunchasini *politeness*, *honorifics*, *face*, *speech etiquette* kabi ilmiy atamalar

orqali tahlil qilish imkonini beradi. Bunda har bir atama insonlar o'rtasidagi muloqotda hurmat ifodalarning qanday shakllanishi, qanday holatlarda qo'llanishi hamda qanday natija berishini ochib beradi. Shuningdek, madaniyatlararo farqlarni e'tiborga olgan holda, "hurmat" tushunchasining

madaniy kod sifatida aks etishi, tillararo farqlar hamda muloqotdagi xatarlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jihatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois "hurmat"ning lingvistik ifodasi bilan birga, uning sotsiokulturni asoslarini ham tahlil qilish zarur.

References

1. Abduazizov A. Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Brown P., Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Culpeper J. Impoliteness: Using language to cause offence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
4. Fukada A., Asato N. Universal politeness theory: Application to the use of Japanese honorifics // Journal of Pragmatics, 2004. Vol. 36, №11. – P. 1991–2002.
5. Ide S. Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness // Multilingua, 1989. Vol. 8, №2-3. – P. 223–248.
6. Leech G. The pragmatics of politeness. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
7. Matsumoto Y. Reexamination of the universality of face: Politeness phenomena in Japanese // Journal of Pragmatics, 1988. Vol. 12. – P. 403–426.
8. Meyerhoff M. Introducing sociolinguistics. – 3rd ed. – London: Routledge, 2018.
9. Scollon R., Scollon S. W. Intercultural communication: A discourse approach. – 3rd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2012.
10. Spencer-Oatey H. Face, identity and interactional goals // Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness Theory / ed. by H. Spencer-Oatey. – London: Continuum, 2008. – P. 11–47.
11. Usmonova G. Hurmat ifodalarning tilshunoslikdagi o'rni // Filologiya masalalari, 2018, №2. – B. 45–52.
12. G'aniyev M. O'zbek tilida murojaat shakllari hamda ularning lingvopragmatik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.

Sidik XODJAYEV,

*Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

BADIIY ADABIYOTDA UCHLIKNING KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda uchlik tamoyilining o'rni va uning asar kompozitsiyasidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Uchlik tamoyilining badiiy asar mazmun-shakl birligini ta'minlashdagi funksiyalari aniqlanib, ular voqelik mohiyatidan kelib chiqqan holda o'zak, yondosh va sayyor xususiyatlarga ajratib ko'rsatilgan. Nazariy fikrlar isboti uchun antik adabiyot manbalari, Mark Tven romanchiligi hamda o'zbek va jahon xalqlari ertaklaridagi sayyor sujetlar qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, arxitektonika, obraz, syujet, uchlik, konflikt, uchlik tamoyili.

Annotation. This article examines the role of the triad principle in fiction and its significance in the composition of the work. The functions of the triad principle in ensuring the unity of content and form of a work of art are defined, and they are divided into core, adjacent, and wandering features based on the essence of reality. For the proof of theoretical ideas, sources of ancient literature, the novels of Mark Twain, and traveling plots in the tales of Uzbek and world peoples were subjected to a comparative analysis.

Keywords: composition, architectonics, image, plot, triad, conflict, triadprinciple.

Аннотация. В данной статье исследуется роль принципа триады в художественной литературе и его значение в композиции произведения. Определены функции принципа триады в обеспечении единства содержания и формы художественного произведения, которые, исходя из сущности действительности, разделены на основные, побочные и путешествующие особенности. Для доказательства теоретических идей был проведен сравнительный анализ источников из античной литературы, романов Марка Твена, а также странствующих сюжетов в сказках узбекских и мировых народов.

Ключевые слова: композиция, архитектоника, образ, сюжет, триада, конфликт, принцип триады.

Badiiy asar yaratilishida ijodkor qo'llagan uchlik tamoyili va uning asar kompozitsiyasiga alohida xususiyat sifatida singdirib yuborilishi badiiy asarning shakl va mazmun birligini ta'minlovchi muhim unsur sanaladi. Shuning uchun adabiyotshunoslikda badiiy asar tahlili va talqini o'rganish jarayonida badiiy asar kompozitsiyasini tekshirish va undagi uchlik tamoyilini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Manbalarni o'rganishda ayon bo'ldiki, tadqiq etilayotgan muammoo'z vaqtida antik nazariyotchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Masalan, "lirik xorlardagi strofa, antistrofa va epodlarni almashinib turuvchi uchlik" deb atashgan [5: 39]. To'g'ri, mazkur ta'rif ko'proq dramatik yoki tragik asarlarga nisbatan qo'llangan. Lekin biz uchun muhimi, asar kompozitsiyasida uchlik tamoyilining mavjudligini sanaladi. Boshqa bir nazariy manbada esa "Nima bo'lganda ham, shubhasiz, janriy identifikatsiyaning mahsuldorligi barcha asar strukturasi asosida "qahramon-muallif-o'quvchi" yotadi", deyilgan [5: 105]. Shu manbaning boshqa o'rnida esa

an'naviy uchlik tushunchasini quyidagi tarzda tilga olingan: "Shuningdek, tadqiqotchilar zamonaviy nemis olimlarining an'naviy uchlik (epos, lirika, drama)ni qayta tekshirish konsepsiyasiga ham murojaat qilishadi" [5: 111].

Ko'rinadiki, adabiyotshunoslik nazariyasida uchlik tamoyili mavjud. Lekin so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda, xususan, badiiy asar arxitektonikasiga oid izlanishlarda uchlik tamoyiliga nisbatan kamroq e'tibor qilinadi. Vaholanki, asar kompozitsiyasida uchlik va uning turli shakllari mazmuniy komponentlar yuzaga chiqishini ta'minlovchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Aslida uchlik voqelikni badiiy idrok etish, tasvirlash tamoyili sifatida adabiyotshunoslikda mavjud. Xususan, "ertak strukturasi tashkil etuvchi asosiy tamoyil binarlik hisoblanadi. Biroq syujet qurilishida uning yonida uchlik tamoyili ham ishtirok etadi va u strukturaning ikkilik xususiyatini buzmaganda unga sezilarli o'zgarishlar kiritadi [6]". Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, uchlik asosga ega badiiy asarlar talaygina

bo'lib, bunday matnlarda uchlik xususiyati voqelikning asosiy qismida namoyon bo'ladi.

Barcha asarlarda badiiy voqelik kompozitsion ifodaga ko'ra, uch o'lchamli shaklda aks ettiriladi. Mazkur o'rindagi uchlik tamoyili kompozitsiyaning, o'z navbatida badiiy asar qurilishining asosini tashkil etgani uchun uni o'zak xususiyat, deb olish kerak. Ba'zi asarlarda sujet tuzilishiga ko'ra, uchlikning yondosh yoki sayyor jihatlarini ham ko'zga tashlandi. Bunda bir asarda parallel ravishda keladigan, uchlik tamoyilidagi obrazlar kompozitsiyasi hamda o'xshash motivga qurilgan sayyor syujet kompozitsiyasidagi uchlik nazarda tutiladi.

Ma'lumki, badiiy asar kompozitsiyasida obraz yoki syujet qurilishida uchlik alohida o'ringa ega. Chunki badiiy adabiyot o'z mohiyatiga ko'ra, borliqni, butun hayotni qamrab oladi. Borliq esa kishiga uch o'lchamda namoyon bo'ladi. "Chunki badiiy asardagi shakl va mazmun birligi aniq makon va zamon doirasida namoyon bo'ladi" [2: 152]. Shunday ekan, har qanday badiiy asar kompozitsiyasidagi sujet qurilishi uch o'lchamda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, AQSh yozuvchisi Mark Tven "Janna d' Ark" (Personal Recollections of Joan of Arc) romanidagi voqealar Fransiya o'tmishida yoz bergan. Ana shu tarixiy voqealarni badiiy qayta shakllantirishda yozuvchi asar voqealarini uch o'lchamda tasvirlaydi. Buni quyidagi parchadan kuzatish mumkin: "O'sha olis davrda bizning qishloq boshqa qishloqlar kabi chekka, ovloq go'sha edi. O'zining qing'ir-qiyshiq, tor, uzun va qisqa ko'chalari, dehqonlarning tomlariga yopilgan poxoli hoshiyadek ko'rib turadigan hovlilari labirintni eslatardi. Uylar kichik tuynuk, to'g'rirog'i, oyna o'rnidagi teshikdan tushgan nur bilan xira yoritilardi. Poli – tuproqdan, mebellari deyarli yo'q edi. Aholi asosan chorvachilik bilan, yoshlar esa cho'ponlik bilan shug'ullanardi. Qishloq ajoyib joyda joylangan edi. Bir tomoni Maas daryosining chamanlarga aylangan kengqirg'ogiga, boshqa tomoni esa gullar va o't-o'lanlar bilan qoplangan tepaliklarga tutashgan bo'lib, tepaliklardan ham balanroqda qalin, tim qorong'u qayinzor shovullab turardi".

Mazkur parchada Janna d'Ark tug'ilib o'sgan qishloq tabiati va u yerdagi kishilar haqida badiiy ma'lumot berilgan. Mark Tven shu yerda Domremi qishlog'i joylashgan makon, uning uzunligi, kengligi va yuzasini tasvirlaydi. Aynan shu tasvirda biz uch o'lchamni kuzatishimiz mumkin. Ya'ni qishloq joylashgan makon tabiati ajoyibligini ta'kidlar ekan, uning yuzasi haqida ham ma'lumot beradi. Ikkinchidan, uning Maas daryosi qirg'og'idan tepalikka qadar cho'zilgani (uzunligi), balandligi esa asosan poxol bilan yopilgan tomlari va tepalik ortidagi shovullab turgan qayinzor orqali ifodalangan. Demak, peyzaj tasviri yordamida yozuvchi aniq joyni tasvirlar ekan uni o'quvchiga uch o'lchamli tasvirlar orqali yetkazadi. Ana shu tasvirning o'zidayoq yozuvchi voqealar xuddi shu yerdan boshlanishiga ishora qiladi. Shu yerda yuqoridagi parcha umumiy kompozitsiyaning muhim qismi bo'lgan sujet uchun esa ekspozitsiya ekani aniqlashadi. Xulosa qilish mumkinki, uch o'lchamli tasvir asar kompozitsiyasida badiiy estetik ta'sir va badiiy asar kompozitsiyasi uchun muhim ifoda vositasi sanaladi.

Bundan tashqari, badiiy asarlarda badiiy matn, qahramon va o'quvchi uchligi ko'rinadi. "Asarni boshqa voqelik sifatida qabul qilish (bizning voqelik bilan bog'liq holda) – biz o'quvchilar mavjud bo'lmagan, qahramonlar yashaydigan va harakat qiladigan barcha narsalar – o'quvchining nuqtai nazarini fikr bilan uyg'unlashtirish, ya'ni qahramonlardan birining nuqtai nazarini, aniqrog'i o'quvchi xuddi qahramonlar kabi, u qahramonni o'rab turgan hamma narsani reallik deb

baholab, muallif va matnning mavjudligini unutishi talab etiladi" [3: 172]. Natijada badiiy voqelikning matn, qahramon va o'quvchi uchligidagi munosabatini tahlil ehtiyoji tug'iladi.

Aslida "sayyor sujet" nazariyasi adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy maktab deb atalgan yo'nalishga oid ta'limotlardan biri edi. Rossiyada bu maktabga akademik A.N.Veselovskiy [1: 12] asos solgan bo'lib, u turli xalqlar orasidagi madaniy aloqalarni o'rganish va adabiy-nazariy ishlarida tarixiylikni isbotlash sohasida ko'p foydali xizmatlar qilgan. "Sayyor sujet" nazariyasi qiyosiy-tarixiy maktabning zaif va soxta ta'limotlaridan biri edi... deb, u asossiz ta'limot sifatida e'tirof etiladi va bu jabhadagi izlanishlar badiiy asarni bir qolipga solib qo'yadi, degan fikrni beradi. Bir tomondan olganda shunday, ammo sayyor syujetning har bir xalq badiiy asarida yuzaga chiqishida o'ziga xoslikni kuzatish mumkin. Masalan, o'gaylik motiviga asoslangan sayyor syujetlarda voqea tasviriga gap qurilishi, badiiy tasviriy ifodalar qo'llanishi, personajlar nomlanishi, shumlikni amalga oshirgan obrazlar xatti-harakatida o'zlari mansub bo'lgan xalq urf-odatini, turmush tarzidan kelib chiqiladi.

Fikr isboti uchun "Zumrad va Qimmat" ertagini olib ko'raylik. "Bir zamonlarda katta soy bo'yida kichkina bir uy bo'lgan ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o'gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi turar ekanlar. Kampirning Zumrad degan o'gay qizini ko'rganini ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. U hadebqizni urib, qarg'ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechorga birpas ham tinchlik bermas ekan" [9: 235]. E'tibor qilinsa, ekspozitsiyada katta soy va uning bo'yida yolg'iz, kichkina uy bo'lganligi tasvirlangan.

"Ayo bobo"da esa ertak boshlanishida tabiat tasviri berilmaydi: "Bir chol va kampir bo'lgan ekan. Cholning o'zining qizi, kampirning ham qizi bor ekan. Kampir o'zining qizini erkalar, yalab-yulqar, cholningqizini ega urishib, qarg'ar ekan. Qiz barcha ishlarni so'zsiz baarar, barcha ishlarni a'lo darajada bajarar ekan. Odamlarga uni maqtayolmas ekan, chunki kampir buni eshitib qolsa, qizni yana qattiqroq qarg'ab, urishar ekan" [7: 3].

"Zolushka"da ertak boshlanishida ham farqlar bor: "Boy va mashg'ur odam bo'lgan ekan. Uning xotini o'lib qolibdi va u ikkinchi marta uylanibdi. Ikkinchi xotini shu qadar shafqatsiz, qahri qattiq ekanki, dunyoni izlab bunaqasini topib bo'lmamas emish. Uning ikkita zaharli ilonga o'xshagan qizlari bor ekan. Erida esa bitta qiz bo'lib, u kamgap va samimiy bo'lib, u xuddi onasi kabi dunyoda kam uchraydigan mehribonlardan ekan" [10]. Ko'rinadki, "Zumrad va Qimmat" ertagida soy bo'yidagi uyda yashaydigan chol va uning kampiri, ularning qizlari haqida xabar berilsa, "Ayo bobo" va "Zolushka"da soy, qishloq haqida gap yo'q. "Ayo bobo"da esa o'zbek ertaklaridek chol va kampir hamda ularning bittadan qizlari borligi aytiladi. Zolushkada esa boy va mashhur odamning xotini o'lgani aytiladi. Ertaklardagi ana shu kabi tanishuvdan so'ng o'gaylik motivi asosidagi zulm bayon qilinadi. Har uchlasida ham ona o'gay qizini ko'rolmasligi, unga zulm qilishi berilgan.

"Zumrad va Qimmat"da "Zolushka" yoki "Ayo bobo" ("Morozko") ertaklari sujetidagi Yevropa tabiati va Yevropa xalqlari hayotiga oid tushuncha, tasvir, obraz va detallar uchramaydi. Shuningdek, o'gaylik motivida o'xshashlik bo'lsa-da, obrazlarning ko'rinishdagi poetik va uslubiy talqinlari, milliylik, xalqchilik, g'oyaviy ta'sirchanlikni ta'minlash bilan bog'liq badiiy-estetik vazifalarda qator farqlar borligi ko'rinadi.

Umuman olganda, sayyor sujetlardagi uchlik timsoli mazkur tipdagi sujetlarning barcha xalqlardagi umumiy yetakchi xususiyati sanaladi. Biz yuqorida tahlilga tortgan turli ertaklardagi personajlar uchligi yoki voqelik, qahramon

va o'quvchi uchligi ham, keng ma'noda, istalgan badiiy asarda uchraydigan hodisadek tuyulsa-da, aslida unday emas. Chunki sayyor sujetlarning bir xalqdan ikkinchi xalq folkloriga ko'chishi (migratsiyasi) ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turli xalqlar turmush tarzidagi o'zaro yaqinlik bilan bog'liq jarayon hisoblandi. Shu ma'noda boshqa badiiy asarlarda, xususan, yozma adabiyotda uchrashining ijtimoiy omillari o'zaro madaniy

aloqa, ijodiy ta'sir mahsuli sanaladi. Badiiy asardagi uchlikning yondosh xususiyati sifatida bir vaqtning o'zida asarda ikki va undan ortiq sujetga oid uchlikning qo'llanishiga nisbatan aytish mumkin. Badiiy asarlarni o'rganishda asar kompozitsiyasidagi obrazlar munosabati, sujet va uning komponentlarining joylashuvi uchlikning o'zak, yondosh va sayr xususiyatlarini yorqinroq ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Веселовский А. Историческая поэтика. Москва: Высшая школа, 1989.
2. Yo'lchiyev Q. Lirik she'rda badiiy ma'kon muammosi // International Journal of Word Art, 2020, №5. – B. 148.
3. Теория литературы: в 4 т. Т.1. Литература / гл.ред. Ю.Б.Борев. М.: ИМЛИ им. А.М.Горького РАН, 2005.
4. Теория литературы: в 4 т. Т.3: Роды и жанры (основные проблемы в историческом освещении) / гл.ред. Ю.Б.Борев. М.: ИМЛИ им. А.М.Горького РАН, 2005.
5. Twain M. Personal recollections of Joan of Arc. – New YorkЖ 1896. – 427 p.
6. Перро Ш. Золушка. URL: <https://thelib.ru/books/> (дата обращения: 16.01.2026).
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 400 b.

Guliruxsor RO'ZMATOVA,

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

NOGIRONLIK FENOMENI: TARIXIY BOSQICHLAR VA IJTIMOYIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironlik fenomenining tarixiy shakllanish jarayoni hamda turli davrlarda kishilik jamiyatida nogiron shaxslarga nisbatan bildirilgan munosabatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nogironlik fenomeni, tarixiy rivojlanish, jamiyat munosabati, ijtimoiy stereotiplar, Yevgenika ta'limoti, inklyuziya, inson huquqlari, ijtimoiy integratsiya.

Annotation. This article examines the historical formation of the phenomenon of disability and analyzes societal attitudes toward persons with disabilities across different historical periods.

Keywords: disability phenomenon, historical development, societal attitudes, social stereotypes, Eugenics ideology, inclusion, human rights, social integration.

Аннотация. В данной статье рассматривается историческое формирование феномена инвалидности и анализируется отношение общества к лицам с инвалидностью в разные исторические периоды.

Ключевые слова: феномен инвалидности, историческое развитие, общественные установки, социальные стереотипы, евгеническая идеология, инклюзия, права человека, социальная интеграция.

Nogironlik masalasi insoniyat tarixida muhim ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Turli davrlarda jamiyatning rivojlanish darajasi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga qarab nogiron shaxslarga nisbatan munosabat ham keskin farqlangan. Ba'zi tarixiy bosqichlarda nogironlik ijtimoiy chetlatish va kamsitish bilan bog'langan bo'lsa, boshqa davrlarda rahm-shafqat yoki himoya obyektiga aylangan. Zamonaviy jamiyatda esa nogironlik inson huquqlari va inklyuziya nuqtayi nazaridan baholanmoqda.

Ibtidoiy davrda insonlar og'ir sharoitda yashaganligi sababli, faqat tirik qolish imkoniyati bo'lganlar yashab keta olganlar, aynan shundan kelib chiqib ushbu davrda nogironligi bor shaxslarga nisbatan hech qanday munosabat shakllanmaganligini ko'rish mumkin.

Kishilik jamiyati shakllana boshlagach, nogironligi bor shaxslarga nisbatan bo'lgan munosabat turli xil diniy mifologiyalarda shakllandi. Qadimgi Mesopotamiyadagi shumerlarning sopol taxtachalarga bitilgan hikmatlarida nogironligi bor shaxsga tengsizlik asosida ijtimoiy munosabat bo'lgani aks ettirilgan. Jamiyatda nogironlik qoralangan va noxushlik alomati sifatida talqin etilgan. Shumer madaniyatining turli bashoratlarida quyidagilar bitilgan: "Agar ayol eshitmaydigan bola tug'sa, qirol taxtdan mahrum bo'ladi, agar ayol 6 barmoqli bola tug'sa, dushman qirol saroyini xonavayron qiladi, agar ayol pakana bola tug'sa, turli xil noxush voqealar ro'y beradi, agar ayol sog'lom o'g'il tug'sa, jamiyat rivojlanadi". Qadimgi Spartada nogironligi

bor bolalar jarga ulotirilganligi tarixan ma'lum. Qadimgi Rim qonunchiligida esa nogironligi bor bolalarga meros qoldirilgan va ularga turmush qurish ta'qiqlangan. Qadimgi Afinada nogironligi bor bolani o'ldirish tavsiya qilingan.

Qadimgi Yunon tabibi Gippokrat nogironlik va aqliy zaiflikni ilk marotaba ilmiy asoslashga harakat qilgan. Uning ta'kidlashicha, muayyan insonning aqliy zaifligi va boshqa kasalliklari hech qanday shayton yoki xudoga aloqasi yo'q. Bu holat inson tanasidagi biologik xususiyatlar bilan bog'liqdir. Aflotun nogironlikni Yevgenika nuqtayi nazaridan, uning shogirdi Arastu esa nogironlikni iqtisodiy nuqtai nazardan talqin etib, Sparta tajribasini oqlaganlar. Aflotun badbashara bo'lgan insonlarga g'amxo'rlik qilishni ta'qiqlovchi qonunni qabul qilinishining tarafdori bo'lgan. Lekin, aqlida nuqsoni bo'lgan shaxslar hech qanday jazoga tortilishi kerak emas deb hisoblagan. Arastu jamiyatda nogironligi bor shaxslarni zarur bo'lmasligi kerak deb hisoblagan.

Hindistonning qadimgi mifologiyasi bo'lgan "Mahabhorat"da ko'zi ojiz hukmdor Durixroshir haqida so'z boradi. Unda ko'zi ojiz hukmdor ko'p narsani bila olmaydi. Shuning uchun noto'g'ri qarorlar qabul qiladi deb e'tirof etilgan. Qadimgi Hindistonning boshqa mifologiyalarida nogironlik tasodifiy holat deb belgilangan. Shuningdek, Alloh hech qachon, hech narsani bejiz yaratmaydi deb qayd etilgan.

Qadimgi Xitoyda nogironlik fenomeniga doir qarashlar Konfutsiy falsafasi tufayli shakllangan. Konfutsiy ta'limotiga

ko'ra, jismoniy nuqsonlar insonning qadr-qimmatini belgilamaydi. Uning qadr-qimmatini aqliy va ma'naviy komilligi bilan belgilanadi deb ta'kidlangan.

Qadimgi Markaziy Osiyo tarixini o'z ichida aks ettirgan va zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da ham nogironlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu manbada nogironligi bor shaxslarni davolash va nogironlikni bartaraf etish jarayonlari tavsiflangan. "Avesto"da nogironlikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish muhimroq ekani ta'kidlangan. Birinchidan, turmush qurayotgan yigit va qiz benuqson va sog'lom bo'lishi kerakligi qayd etilgan. Ikkinchidan, homilador ayollar iztirob chekmasligi, asabiylashmasligi, ko'proq meva va go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishlari kerakligi qayd etilib, faqat halol mehnat bilan topilgan rizq bilan oziqlanish kerakligi aytilgan. "Injil"da Iso payg'ambar eshitish qobiliyatini yo'qotgan, ko'zi ojiz shaxslarni davolangan ko'p marotaba keltirilgan.

O'rta asrlarda nogironligi bor shaxslarga nisbatan turli stereotiplar tufayli salbiy munosabat shakllanib, ular shaytonning malayi sifatida talqin etilgan. Bu davrda nogironligi bor shaxslar daydi va nochor hayot kechirishgan. Yevropaning Parij, Venetsiya kabi katta shaharlarida ko'zi ojiz, zaif eshituvchi shaxslarni masxaralovchi tomoshalar tashkil etilgan. Uyg'onish davriga kelib Yevropada nogironligi bor shaxslarga nisbatan munosabat o'zgarib boshladi. Uyg'onish davrining mutafakkirlari asarlarida nogironligi bor shaxslarga nisbatan jamiyatda munosabat o'zgarishi lozimligi qayd etildi. Bu holatni biz ayniqsa buyuk fransuz mutafakkiri Jan Jak Russoning ta'limotlarida ko'ramiz. Uning fikriga ko'ra, "barcha insonlar teng huquqlidir. Agar biz barcha insonlarning teng huquqliligini tan oladigan bo'lsak, unda jamiyatdagi kuchlilar kuchsizlarga yordam berishlari lozimdir. Jamiyatdagi adolat kuchlilarning kuchsizlarga yordam berishi bilan ifodalanadi".

Usmoniylar saltanatida nogironligi bor shaxslar foydali shaxs deb hisoblangan, ayniqsa sulton saroyida kechalari shovqin bo'lmasligi uchun eshitish qobiliyatini yo'qoygan shaxslarning xizmatidan foydalanilgan va ular bilan imo-ishora tilida muloqot qilingan. Bu haqda ko'plab sayyohlar yozgan. Ba'zi hollarda sud jarayonlarida imo-ishora tilidan foydalanishga ham sayyohlar guvoh bo'lishgan.

Ko'pchilik islomiy o'lkalarda muazzinlik vazifasini asosan ko'zi ojiz insonlar bajargan. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimda nogironligi bor shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllanishiga katta e'tibor qaratilgan. Qur'oni Karimning "Baqara" surasida nogironligi bor shaxslarning mulkka egalik qilishi ham belgilangan: "Ey mo'minlar, bir biringiz bilan qarz muomalasini qilsangiz, yozib qo'yinglar. Orangizda bir kotib adolat bilan yozsin. Agar zimmasida qarzi bo'lgan aqlsiz, ojiz yoki yosh bola, juda keksa, kar-soqov, yoki til bilmasligi tufayli aytib yozdirishga qodir bo'lmasa uning homiy vakili adolat bilan yozdirsin va sizlar rozi bo'ladigan adolatli guvohlardan ikki erkak kishi yoki bir erkak, ikki ayol, biri unutilib adahsa, biri unga eslatadi" [8: 48].

Fiqh ilmining asoschilaridan biri Burxoniddin Marg'inoniy "Kitob Al-hidoya" asarida nogironligi bor shaxslarning huquqlariga alohida to'xtalgan. Birinchidan, jinoyat sodir etgan nogironligi bor shaxslarga erkinliklar berilgan. Ikkinchidan, tilsiz qolgan kishiga nikoh o'qitishi, o'z mulkiga ega bo'lishi huquqi berilgan. Uchinchidan, imo-ishora tili biz so'zlashadigan til bilan bir xil huquqiy maqomda bo'lishi kerakligi belgilangan.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" kitobida nogironligi bor shaxslarning mehnat qilish huquqi va davlat tomonidan iqtisodiy ta'minlanishi kerakligi haqida

shunday yozadi: "Haqiqiy baxt-saodatga erishuv yo'lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go'zal ish-amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar fozila shahar, ya'ni fozil odamlar shahridir. Inson barcha a'zolari solim, butun, mukammal ishlab turganida sog'lom bo'lganiday, barcha aholisi go'zal yaxshi xulqli va bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir" [5: 239]. Shuni ham aytish joizki, Forobiyning "Fozil odamlar shahri" ta'limoti Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qarashlarida, Amir Temurning davlat boshqaruv tamoyillarida ham o'z aksini topdi.

XIX asr oxirlariga kelib Yevgenika ta'limoti shakllanib, jamiyatning ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi "sog'lom" va "mukammal" aholini yaratish g'oyasiga asoslangan edi [9]. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda, yevgenika tarafdorlari nogironligi bor shaxslarni jamiyat hayotidan cheklash, ularni alohida ijtimoiy guruh sifatida ajratishga qaratilgan siyosat va amaliyotlarni ilgari surdilar. Bu holat nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy faolligi va huquqlarining keskin cheklanishiga olib kelgan, shu bilan birga uning g'oyalaridan irqchilikni oqlash maqsadlarida ham foydalanilgan.

Sobiq Sovet Ittifoqida nogironligi bor shaxslarga bo'lgan munosabat, nogironlikning tibbiy modeliga asoslandi. Unda nogironlik barqaror kasallik sifatida tushuniladi. G'amxo'rlik asosan ko'zi ojiz va eshitish qobiliyatini yo'qotgan shaxslarga nisbatan bo'ldi. Ularning o'z tashkilotlari va mehnat korxonalari ochildi. Boshqa turdagi nogironligi bor shaxslarga deyarli hech qanday e'tibor qaratilmadi.

XX asrning 70-yillariga kelib nogironligi bor shaxslarga nisbatan jahonda ijobiy munosabat shakllana boshladi. Bunga 2 ta jahon urushi va nogironligi bor shaxslarning faollashuvi sabab bo'ldi. Mazkur jarayonda Eyt Roberts, Judi Hyuman kabi nogironligi bor yetakchilar tufayli "Mustaqil hayot" konsepsiyasi ishlab chiqildi va u asosida bir qator muhim bo'lgan xalqaro hujjatlar qabul qilindi. 1971-yilda "Aqliy rivojlanishdan orqada qolgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi BMT ning Deklaratsiyasi, 1975-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, 1982-yilda BMTning "Nogironligi bor shaxslarni himoya qilishning Umumjahon dasturi", 1993-yilda "Nogironligi bor shaxslar uchun teng imkoniyatlarni yaratish standart qoidalari" va nihoyat 2006-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda ushbu hujjat nogironligi bor shaxslarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning asosiy hujjati hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 1991-yilning 18-noyabr kuni "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish" Qonuni qabul qilindi. Aytish joizki, mazkur qonun mamlakatimizda qabul qilingan ilk qonunlardan biri bo'ldi. Aynan mustaqillik davridan boshlab, nogironligi bor shaxslarning manfaatlarini himoya qiluvchi turli jamoat tashkilotlar paydo bo'ldi. So'nggi yillarda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sa'y-harakatlari tufayli nogironligi bor shaxslarga nisbatan siyosat tubdan o'zgardi. Qisqa vaqt ichida 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Birlashgan Millarlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi [1]. Nogironlikni tushunishda eskirib qolgan "Tibbiy" modeldan umume'tirof etilgan "Ijtimoiy" modelga o'tilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir

kasallikka chalinganlar, shuningdek, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bor bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ishlarni amalga oshirish qilib belgilangan [3]. Nogironligi bor shaxslarga nisbatan munosabatlarning shakllanish va rivojlanish tarixining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, nogironligi bor shaxslarga bo'lgan salbiy qarashlar tasodifiy emas, balki asrlar davomida shakllangan ijtimoiy stereotiplar mahsulidir. Ularga nisbatan munosabatlar nogironlikni tibbiy model emas, ijtimoiy model sifatida qabul qilina boshlagani sababli yaxshilanib borgan.

Ikkinchidan, islom dinining tarqalishi va Sharq mutafakkirlarning insonparvarlikni targ'ib etuvchi ta'limotlari

nogironligi bor shaxslarga nisbatan tolerant munosabatning shakllanishiga olib kelgan. Shu sababli musulmon Sharqida ularga bo'lgan qarashlar ancha ijobiy tarzda shakllangan.

Uchinchidan, Im-fan va madaniyatning rivojlanishi kishilik jamiyatida nogironligi bor shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Texnologiyalar rivojlagani sari ularning ijtimoiy integratsiya jarayonlari jadallashib bormoqda.

To'rtinchidan, muayyan jamiyatning barqaror rivoji barcha a'zolarining, jumladan nogironligi bor shaxslarning ham faol ishtirokiga bog'liq. Inklyuziv ta'lim va ijtimoiy siyosat nafaqat adolatni ta'minlaydi, balki jamiyat salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 07.06.2021-yildagi O'RB-695-sonli "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5447413>.
2. O'zbekiston Respublikasining 15.10.2020-yildagi O'RB-641-sonli "Nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5049511>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023-yildagi PF-82-sonli "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <http://lex.uz/docs/-6480342>.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari / tarj. Rasulev A., Mirzayev K., Karimov U., Murodov A. – Toshkent: Sharq, 2020. – 688 b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 318 b.
6. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai. – Toshkent: Sharq, 2001. – 152 b.
7. Burhonuddin Marg'iboniy. Hidoya / Tarjima va izohlar mualliflari: A'zamxon Qambarov (bosh tarjimon), Akmaljon Ikromjonov, Ilhomjon Bekmirzayev. Hidoya 1-juz. – Toshkent: Hilol Nashr, 1990. – 894 b.
8. Qur'oni Karim manolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Munir, 2023. – 624 b.
9. Yevgenika. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevgenika>.

Наргиза ХОДЖАЕВА,

доктор философии по филологическим наукам (PhD), старший преподаватель,

Мохируй АБДУЛАЗИЗОВА,

магистрант I курса Ферганского государственного университета

ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ В ИЗОБРАЖЕНИИ ГЕРОЕВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Ф.М.ДОСТОЕВСКОГО И А.КАМЮ

Аннотация. В статье при сопоставительном анализе типологических параллелей в изображении героев в художественных мирах Ф.М.Достоевского и А.Камю – писателей из разных культурно-исторических эпох и философских традиций, обнаружено родство в трактовке экзистенциальных ситуаций человека, поставленного перед предельными вопросами свободы, вины, ответственности и смысла бытия. Анализ показывает, что при принципиальных различиях в философских основаниях (христианский персонализм Достоевского и атеистический экзистенциализм Камю) оба автора создают модели «пограничного сознания», в которых герой переживает кризис ценностей и проходит испытание свободой. Делается вывод о том, что Камю не только полемически отталкивается от Достоевского, но и типологически продолжает его традицию, трансформируя религиозно-этическую проблематику в категорию абсурда и «честного бунта».

Ключевые слова: Достоевский, Камю, типологические параллели, герой, экзистенциализм, абсурд, вина и ответственность.

Annotatsiya. Maqolada turli madaniy-tarixiy davrlar va falsafiy an'analarga mansub bo'lgan ikki adib – F.M.Dostoyevskiy va A.Kamyu badiiy olamidagi qahramonlar talqinining qiyosiy tahlili jarayonida erkinlik, aybdorlik, mas'uliyat va borliqning ma'nosi kabi fundamental savollar qarshisida qolgan insonning ekzistensial holatlarini yoritishdagi yaqinlik aniqlangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, falsafiy asoslardagi tub farqlarga qaramay (Dostoyevskiyning xristian personallashuvi va Kamyuning ateistik ekzistensializmi), har ikkala muallif qahramon qadriyatlar inqirozini boshidan kechiradigan va erkinlik sinovidan o'tadigan "chegara osti ongi" modellarini yaratadilar. Maqolada Kamyu nafaqat Dostoyevskiy bilan polemik bahsga kirishishi, balki uning an'analari tipologik jihatdan davom ettirib, diniy-axloqiy muammolarni absurd va "halol isyon" kategoriyasiga transformatsiya qilishi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Dostoyevskiy, Kamyu, tipologik parallellar, qahramon, ekzistensializm, absurd, ayb va mas'uliyat.

Annotation. In the article, a comparative analysis of typological parallels in the depiction of heroes in the artistic worlds of F.M.Dostoevsky and A.Camus – writers of different cultural and historical epochs and philosophical traditions – reveals kinship in the interpretation of human existential situations, placed before extreme questions of freedom, guilt, responsibility, and the meaning of existence. Analysis shows that with fundamental differences in philosophical foundations (Dostoevsky's Christian personalism and Camus's atheistic existentialism), both authors create models of "boundary consciousness", in which the hero experiences a crisis of values and passes the test of freedom. It is concluded that Camus not only polemically rejects Dostoevsky, but also typologically continues his tradition, transforming religious-ethical issues into the category of absurdity and "honest rebellion".

Keywords: Dostoyevsky, Camus, typological parallels, hero, existentialism, absurdity, guilt and responsibility.

Типологическое сопоставление героев Ф.М.Достоевского и А.Камю – одна из продуктивных проблем сравнительного литературоведения, поскольку позволяет выявить устойчивые модели художественного осмысления человеческого существования в ситуации мировоззренческого кризиса. Уже в середине XX века Камю прямо указывал на Достоевского как на одного из духовных предшественников экзистенциализма, называя его «пророком нигилизма», который, однако, не принял его окончательно [1]. Тем самым задаётся проблемное поле: герои Достоевского и Камю существуют в сходных экзистенциальных координатах, но приходят к различным этическим и философским выводам.

Образ Родиона Раскольникова в романе «Преступление и наказание» и образ Мерсо в повести «Посторонний» образуют одну из наиболее наглядных типологических параллелей. Оба героя совершают убийство и оказываются в ситуации столкновения с законом и обществом, однако внутренние мотивации и способы переживания вины у них принципиально различны. Раскольников совершает преступление, исходя из рационалистической идеи «права на кровь», проверяя себя как «необыкновенного человека» [2]. Его сознание раздвоено, а преступление порождает мучительный внутренний конфликт, выраженный в постоянных колебаниях между гордыней и жадой искупления.

Мерсо же убивает «без умысла», почти случайно, и не испытывает традиционного чувства вины; абсурдность его поступка подчёркивается тем, что общество осуждает его не столько за убийство, сколько за эмоциональную «неправильность» – за отказ плакать на похоронах матери [3]. Типологическое сходство здесь проявляется в самой постановке героя перед судом – юридическим и метафизическим, однако различие заключается в ответе на этот суд: Раскольников приходит к признанию и покаянию, тогда как Мерсо принимает абсурд мира без трансцендентного смысла.

Философский контекст этих образов позволяет увидеть, что Достоевский трактует свободу как трагическое бремя, неотделимое от ответственности перед Богом и другими

людьми. В знаменитом монологе Ивана Карамазова о «слезинке ребёнка» формулируется этическая дилемма, в которой свобода разума вступает в конфликт с идеей божественной гармонии [4]. Камю развивает эту линию в светском ключе: отрицая трансцендентный смысл, он утверждает необходимость «честного бунта» – принятия абсурда без самообмана [5]. В этом смысле Иван Карамазов типологически соотносится с героями Камю – Калигулой или Сизифом, для которых мир лишён высшего оправдания, но человек всё же несёт ответственность за свои поступки.

Особое значение в типологии героев имеет мотив бунта. У Достоевского бунт против Бога и мира неизбежно приводит к разрушению личности или к поиску религиозного примирения. Дмитрий Карамазов, принимая страдание, обретает возможность нравственного возрождения, тогда как Иван, отвергший идею искупительного смысла, оказывается на грани безумия. Камюанский бунт принципиально иного рода: он не предполагает спасения, но и не допускает вседозволенности. В «Чуме» доктор Риэ действует исходя из элементарной человеческой солидарности, не веря ни в Бога, ни в окончательный смысл истории, но признавая моральный долг сопротивления злу [6]. Здесь обнаруживается типологическое родство с «положительными» героями Достоевского – Соней Мармеладовой или старцем Зосимой, – однако религиозная мотивация заменяется этикой ответственности без метафизических гарантий.

Типологические параллели между героями Достоевского и Камю выявляют не столько прямые заимствования, сколько глубинное родство художественного мышления, обращённого к предельным вопросам человеческого существования. Камю продолжает линию Достоевского, радикально переосмысливая её в условиях «смерти Бога» и философии абсурда. Если для Достоевского конечным горизонтом остаётся возможность искупления и преображения, то для Камю – честное принятие абсурдного мира и нравственная стойкость человека в нём. Именно в этом напряжённом диалоге двух традиций и заключается их типологическое единство и принципиальное различие.

Литература

1. Camus A. L'Homme révolté. – Paris, 1951.
2. Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. Полное собрание сочинений в 30 т., т. 6. Л., 1973.
3. Camus A. L'Étranger. Paris, 1942 / Рус. пер.: Камю А. Посторонний. М., 1989.
4. Достоевский Ф.М. Братья Карамазовы. Полное собрание сочинений в 30 т., т. 14. Л., 1976.
5. Camus A. Le Mythe de Sisyphe. – Paris, 1942.
6. Camus A. La Peste. – Paris, 1947, p. 132 / Рус. пер.: Камю А. Чума. М., 1990.

Сожида БОТИРОВА,

преподаватель английского языка

Ташкентского государственного технического университета

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖ.Х.ЧЕЙЗА

Аннотация. В центре внимания сопоставительного анализа переводов произведений Дж.Х.Чейза, одного из наиболее популярных авторов криминальной прозы XX века, находятся переводческие решения, связанные с передачей лексической, стилистической и прагматической специфики оригинального текста, особое внимание уделяется использованию синонимии и вариантизма как средств достижения переводческой адекватности. На основе анализа фрагментов оригинала и их переводов выявляются основные переводческие стратегии, а также типичные трудности и ошибки. Результаты исследования показывают закономерность и функциональную обусловленность вариативности перевода в художественном переводе.

Ключевые слова: художественный перевод, сопоставительный анализ, переводческая эквивалентность, синонимия, вариантизм, переводческая стратегия, лексическая вариативность.

Annotatsiya. XX asr kriminal nasrining eng mashhur mualliflaridan biri J.X.Cheyz asarlari tarjimalarining qiyosiy tahlili diqqat markazida asl matnning leksik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini yetkazish bilan bog'liq tarjima yechimlari, tarjima adekvatligiga erishish vositalari sifatida sinonimiya va variantlilikdan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Asliyat parchalarini va ularning tarjimalarini tahlil qilish asosida asosiy tarjima strategiyalari, shuningdek, odatiy qiyinchiliklar va xatolar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada tarjima variativligining qonuniyati va funksional shartlanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, qiyosiy tahlil, tarjima ekvivalentligi, sinonimiya, dispersiya, tarjima strategiyasi, leksik dispersiya.

Annotation. This article is devoted to a comparative analysis of translations of the works of J.H.Chase, one of the most popular crime writers of the 20th century. The focus is on translation decisions related to the conveyance of the lexical, stylistic, and pragmatic specifics of the original text. Particular attention is paid to the use of synonymy and variance as means of achieving translation adequacy. Based on the analysis of original fragments and their translations, the main translation strategies, as well as typical difficulties and errors, are identified. The results of the study demonstrate that translation variability is a natural and functionally determined phenomenon in literary translation.

Keywords: literary translation, comparative analysis, translation equivalence, synonymy, variance, translation strategy, lexical variance.

Художественный перевод – это сложный и многогранный процесс, требующий от переводчика не только знания языка оригинала и языка перевода, но и глубокого понимания стилистических, культурных и прагматических особенностей текста. Особую значимость в этом контексте приобретает сопоставительный анализ переводов, позволяющий выявить различные подходы к передаче одного и того же оригинала [1, с. 64]. Произведения Дж.Х.Чейза, отличающиеся динамичным сюжетом, обилием диалогов и разговорной лексики, представляют собой благодатный материал для подобного анализа.

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью осмысления переводческой вариативности как неотъемлемой характеристики художественного перевода. Сравнение различных переводов позволяет выявить, как переводчики используют синонимические и варианты средства для сохранения авторского стиля и коммуникативного эффекта оригинала.

Цель статьи – сопоставительный анализ переводов произведений Дж. Х. Чейза и определение роли синонимии и вариантизма в достижении переводческой адекватности.

Теоретические предпосылки сопоставительного анализа. Сопоставительный анализ в переводоведении направлен на выявление сходств и различий между оригиналом и его переводами, а также между несколькими переводами одного и того же текста, что позволяет оценить степень эквивалентности перевода, выявить переводческие стратегии и определить границы допустимой вариативности.

Синонимия в переводе рассматривается как один из основных инструментов передачи значения и экспрессии оригинального текста. Выбор того или иного синонима зависит от контекста, жанра, стилистической окраски и коммуникативной задачи высказывания. Вариантизм же отражает возможность существования нескольких равноценных переводческих решений, каждое из которых может быть оправдано с функциональной точки зрения [2, с. 81].

В художественном переводе абсолютная тождественность оригиналу недостижима, поэтому переводчик неизбежно прибегает к вариантным решениям, стремясь сохранить не столько формальную структуру текста, сколько его художественное воздействие на читателя.

Особенности оригинального текста Дж.Х.Чейза. Его проза характеризуется лаконичным стилем, напряжённым сюжетом и преобладанием диалогической речи. Автор активно использует разговорную лексику, просторечные выражения и элементы криминального жаргона, что создаёт эффект достоверности и усиливает динамику повествования.

Для переводчика подобные особенности представляют серьёзную трудность, поскольку прямые эквиваленты не всегда существуют в языке перевода [3, с. 37]. В таких

случаях переводчик вынужден прибегать к функциональной замене, используя синонимы или варианты конструкции, способные передать экспрессивную и прагматическую нагрузку оригинала.

Сопоставительный анализ переводческих решений. Сравнение различных переводов произведений Дж.Х.Чейза показывает, что переводчики нередко по-разному интерпретируют одни и те же лексические единицы. Так, нейтральное слово оригинала в одном переводе может передаваться стилистически окрашенным эквивалентом, а в другом сохранять нейтральность. Подобные расхождения свидетельствуют о различии переводческих стратегий и индивидуального стиля переводчиков.

Особенно ярко вариативность проявляется при передаче диалогов. Один переводчик может стремиться к максимальной разговорности речи персонажей, используя просторечные и сниженные формы, другой – предпочитать более литературный вариант, сглаживая стилистические контрасты. Оба подхода имеют право на существование, однако по-разному воздействуют на читателя и формируют образ персонажей [4, с. 58].

Синонимия также играет важную роль при передаче оценочной лексики. Использование различных синонимов позволяет переводчику варьировать степень эмоциональной окраски, усиливая или смягчая экспрессию оригинала. В некоторых случаях подобные изменения смещают авторский замысел и снижают адекватность перевода.

Вариантизм как отражение переводческой интерпретации. Анализ переводов показывает, что вариативность является неотъемлемой частью художественного перевода, обусловленная как объективными факторами (различия в языковых системах), так и субъективными (индивидуальный стиль переводчика, переводческая школа, временной контекст).

Не всякая вариативность оправдана. В тех случаях, когда вариантный перевод искажает характер персонажа или изменяет тональность повествования, можно говорить о нарушении переводческой эквивалентности. В то же время функционально мотивированный вариантизм способствует более точной передаче художественного смысла оригинала.

Существенное влияние на переводческие решения оказывает ориентация переводчика на предполагаемого адресата перевода. В зависимости от читательской аудитории (массовый читатель, подготовленный читатель, академическая среда) меняется степень допустимой разговорности, экспрессивности и стилистической сниженности текста. В переводах произведений Дж.Х.Чейза это особенно заметно при передаче криминального жаргона и эмоционально насыщенных реплик персонажей.

Одни переводчики стремятся адаптировать текст к нормам литературного языка, тем самым сглаживая стилистические контрасты, другие сознательно сохраняют

или даже усиливают разговорные элементы, ориентируясь на эффект динамичности и напряжения. В данном случае переводческая норма выступает не как жёсткое предписание, а как система ориентиров, допускающих определённую свободу интерпретации. Именно в рамках этой нормы и возникает переводческий вариантизм, отражающий баланс между верностью оригиналу и требованиями принимающей культуры. Таким образом, различия между переводами можно рассматривать не как недостаток, а как проявление функционально мотивированной переводческой интерпретации.

В художественном переводе синонимический выбор напрямую влияет на формирование образов персонажей и общее восприятие текста. Даже незначительные на первый взгляд лексические расхождения могут изменить эмоциональный фон сцены, характер героя или оценочное отношение автора к происходящему. В переводах произведений Дж.Х.Чейза это проявляется, в частности, при передаче глаголов действия, эмоционально окрашенных прилагательных и оценочной лексики, связанных с описанием насилия, угрозы или психологического напряжения.

Сопоставительный анализ показывает, что более удачны те переводческие решения, в которых синоним подбирается с учётом контекста и прагматической функции высказывания, а не только его словарного значения.

Непродуманный синонимический выбор может привести к снижению напряжённости повествования или искажению авторского замысла. Следовательно, в художественном переводе синонимия выступает не просто как средство языковой замены, а как важный инструмент воссоздания целостной образной системы оригинального произведения.

Проведённый сопоставительный анализ переводов произведений Дж.Х.Чейза позволяет сделать вывод о том, что синонимия и вариантизм играют ключевую роль в художественном переводе. Различия между переводами отражают многообразие переводческих стратегий и интерпретаций оригинального текста, при этом наиболее успешны те переводы, в которых вариативность служит средством сохранения стилистической и прагматической целостности произведения. Результаты исследования могут быть использованы в практике художественного перевода и в обучении будущих переводчиков.

Литература

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). М.: Высшая школа, 1990.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.: Международные отношения, 1975.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988.
4. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2002.
5. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. М.: ИОСО РАО, 2001.
6. Newmark P.A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.

Кристина КОСТИШИНА,

магистрант II курса

Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

ПОЭЗИЯ БОРИСА ПАСТЕРНАКА В ОЦЕНКЕ КРИТИКИ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В статье представлен системный анализ динамики восприятия поэзии Б.Л.Пастернака в литературоведении на протяжении столетия. Выявлены ключевые рецептивные парадигмы: ранние оценки (1910–1920-е гг.); идеологическое отчуждение (1930–1950-е гг.); «второе открытие» (конец 1950-х – 1960-е гг.); структуралистские подходы (1960–1980-е гг.); современный плюрализм с преобладанием интертекстуального, культурно-исторического и архивно-биографического методов. История пастернаковедения рассмотрена как модель эволюции русского литературоведения XX–XXI вв.

Ключевые слова: Борис Пастернак, рецептивная критика, история литературоведения, советская критика, эмигрантская критика, современное пастернаковедение, философская лирика, «Доктор Живаго», поэтика, интертекстуальность, архивные исследования.

Annotatsiya. Maqolada bir asr davomida adabiyotshunoslikda **B.L. Pasternak** she'riyati idrok etilishi dinamikasining tizimli tahlili taqdim etilgan. Tadqiqotda asosiy retseptiv (qabul qilish) paradigmalar aniqlangan: ilk baholar (1910–1920-yillar); mafkuraviy chetlatish (1930–1950-yillar); "ikkinchi kashfiyot" (1950-yillarning oxiri – 1960-yillar); strukturalistik yondashuvlar (1960–1980-yillar); intertekstual, madaniy-tarixiy va arxiv-biografik metodlar ustuvorlik qilayotgan zamonaviy plyuralizm. Pasternakshunoslik tarixi XX–XXI asrlar rus adabiyotshunosligi evolutsiyasining modeli sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Boris Pasternak, retseptiv tanqid, adabiyotshunoslik tarixi, sovet tanqidi, muhojir tanqid, zamonaviy pasternakshunoslik, falsafiy lirika, "Doktor Jivago", poetika, intertekstuallik, arxiv tadqiqotlari.

Annotation. The article presents a systematic analysis of the dynamics of B.L. Pasternak's poetry perception in literary studies over a century. Key receptive paradigms were identified: early assessments (1910s-1920s); ideological alienation (1930s-1950s); "second discovery" (late 1950s - 1960s); structuralist approaches (1960s - 1980s); modern pluralism with the predominance of intertextual, cultural-historical, and archival-biographical methods. The history of Pasternak studies has been considered as a model of the evolution of Russian literary studies in the 20th-21st centuries.

Keywords: Boris Pasternak, receptive criticism, literary history, Soviet criticism, emigrant criticism, modern Pasternak studies, philosophical lyrics, "Doctor Zhivago", poetics, intertextuality, archival research.

В истории русской литературы XX века поэтическое наследие Бориса Леонидовича Пастернака (1890–1960) занимает уникальное место не только по своей художественной высоте, но и по характеру его критического и академического освоения. Его творческая траектория, пролежавшая через символизм, футуризм к уникальному

синтетическому стилю, совпала с эпохой тектонических общественных сдвигов, что предопределило крайнюю политизацию и драматизм его рецепции. История толкований поэзии Пастернака – это не просто хроника сменяющихся друг друга оценок, а своего рода интеллектуальная автобиография эпохи, зеркало, в котором с особой

точностью отразились борьба эстетических доктрин, давление идеологии на культуру, феномен «внутренней эмиграции» и сложный путь возвращения к научной объективности и методологическому разнообразию.

Наша цель – выявить особенности репрезентации характера человека во фразеологии русского и узбекского языков, в частности рассмотреть теоретические подходы к изучению фразеологизмов в психолингвистике, классифицировать фразеологические единицы, описывающие личностные черты, выявить их оценочный и эмоционально-психологический потенциал, определить универсальные и культурно-специфические особенности. В трудах В.В.Виноградова фразеология определяется как система устойчивых сочетаний, обладающих семантической слитностью и воспроизводимостью. В.Н.Телия подчёркивает культурно-оценочную природу фразеологизмов, рассматривая их как «свернутые тексты культуры». С точки зрения психолингвистики (А.А.Леонтьев), фразеологические единицы функционируют в сознании говорящего как целостные образы, а не как сумма отдельных слов.

Фразеологизмы, характеризующие человека, тесно связаны с процессами социальной перцепции, отражают

механизмы категоризации личности, формируют устойчивые стереотипы и упрощают когнитивную обработку информации. Таким образом, фразеология является важным инструментом моделирования психологического портрета человека в языковом сознании.

В качестве методов исследования использованы описательный, сопоставительный, семантический и психолингвистический анализ. Материалом послужили фразеологические единицы, отобранные из фразеологических словарей русского и узбекского языков, а также примеры из художественной литературы и публицистики.

Фразеологизмы, репрезентирующие положительные черты характера

В русском языке положительные личностные качества передаются через метафоры духовного богатства и нравственной ценности: золотое сердце, широкая душа, чист на руку, человек слова. Эти фразеологизмы формируют образ морально устойчивой, надёжной и доброжелательной личности.

В узбекском языке аналогичные значения реализуются через выражения ko'ngli toza (чистая душа), yuragi keng (широкое сердце), gapida turadigan odam (человек, держащий слово), niyati pok (чистые намерения). Общей для обоих языков является ориентация на внутренний мир человека, что свидетельствует об универсальности этических ценностей.

Фразеологизмы с отрицательной оценкой характера

Отрицательные черты характера в русском языке выражаются посредством образов нестабильности, ограниченности и скрытности: ветер в голове, мелкая душонка, двойное дно, себе на уме. Эти единицы несут ярко выраженную экспрессивно-оценочную нагрузку и используются для социального дистанцирования.

В узбекском языке отрицательная оценка передаётся фразеологизмами ikkiyuzlama (двуличный), boshi havoda (легкомысленный), ko'ngli tor (жадный, скупой), gap bilan aldamoq (обманывать словами). Здесь также прослеживается связь характера с представлениями о внутреннем пространстве личности.

Классификация фразеологизмов по типу личностных характеристик

В результате анализа характеризующие человека фразеологизмы можно условно разделить на следующие группы: 1) морально-этические качества (честность, доброта, коварство); 2) интеллектуальные характеристики (мудрость, легкомыслие); 3) эмоционально-волевые черты (смелость, трусость, выдержка); 4) социально-коммуникативные качества (надёжность, двуличие). Данная классификация универсальна и применима к обоим языкам, однако конкретные образные средства её реализации различаются.

Психолингвистический аспект функционирования фразеологизмов

С психолингвистической точки зрения фразеологизмы функционируют как устойчивые когнитивные схемы, активирующие в сознании носителя языка комплекс ассоциаций, эмоций и культурных знаний, обеспечивают быструю и экономичную интерпретацию личности в процессе коммуникации [1, с. 195].

Использование фразеологизмов при характеристике человека формирует обобщённый психологический образ, который легко распознаётся и воспроизводится. В межкультурной коммуникации такие единицы могут служить

индикаторами национального менталитета и системы ценностей.

Проведённое исследование показало, что фразеологизмы русского и узбекского языков являются важным средством отражения характера человека, выполняют оценочную, когнитивную и коммуникативную функции, формируя устойчивые представления о личности в языковом сознании.

Сопоставительный анализ выявил универсальные оппозиции «положительное – отрицательное», при этом образная база фразеологизмов определяется национально-культурной спецификой. Психолингвистический подход позволяет рассматривать фразеологизмы как механизм языкового моделирования личности и средство социальной категоризации.

Полученные данные можно использовать в курсах психолингвистики, фразеологии, сопоставительного языкознания и межкультурной коммуникации. Перспективы дальнейших исследований связаны с расширением языкового материала и привлечением экспериментальных психолингвистических методов.

Литература

1. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка. М., 1977.
2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., 1996.
3. Леонтьев А.А. Психолингвистика. М., 2003.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. М., 2001.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent, 2005.

Sadoqat OTAMURATOVA,

Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti ixtisosligi 3-bosqich doktoranti

MUNIS XORAZMIY IJODIDA TASAVVUFIIY TARIQAT MASALALARINING AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shermuhammad Munis ijodida tariqat masalalarining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shoir g'azallarida aks etgan tariqat maqomlari, jumladan, "zuhd", "sabr", "rizo", "shukr" va "ma'rifat" tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida shoir ijodida tariqat nafaqat diniy-axloqiy ta'limot, balki yuksak badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tariqat, maqom, zuhd, rizo, sabr, ma'rifat, haqiqat, shukr, g'azal.

Annotation. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of tariqa issues in the works of Shermuhammad Munis. The essence of the maqams of tariqat, reflected in the poet's ghazals, including the concepts of "asceticism", "patience", "contentment", "gratitude", and "enlightenment", is revealed. As a result of the research, it is substantiated that the tariqa in the poet's work manifests itself not only as a religious-moral doctrine, but also as a product of high artistic thinking.

Keywords: tariqat, maqom, zuhd, rizo, sabr, ma'rifat, haqiqat, shukr, ghazal.

Аннотация. В данной статье анализируется художественно-философская интерпретация вопросов тариката в творчестве Шермухаммада Муниса. Раскрывается содержание и сущность тарикатских макамов, отражённых в газелях поэта, в частности понятий «zuhd», «sabr», «riza», «shukr» и «ma'rifat». В результате исследования обосновывается, что в поэтическом наследии автора тарикат предстает не только как религиозно-нравственное учение, но и как выражение высокого художественного мышления.

Ключевые слова: тарикат, маком, zuhd, rizo, sabr, ma'rifat, istina, shukr, gazel.

Shermuhammad Munis ijodida tariqat – insonning ichki dunyosi bilan bog'liq yo'l bo'lib, u insonning ichki pokligi va vazmin tabiatidir. Tariqat arab tilidan "yo'l degan ma'noni bildirib, bu yo'ldan faqat Haq taolaga yaqinlashmoq va Uning roziligini topishga intilganlar yuradi. Bu yo'lga kirishni xohlagan kishilarga "solik", safar davomida ularga "sayri suluk" deyiladi. Ammo tasavvufda tariqatlar shunchalik ko'pki, sanog'lar yetmaydi. Tariqatlar tarbiya metodlariga, zikr ko'rinishlariga, muhabbat darajalariga, fikr tizimlariga ko'ra farq qiladi. Har bir tariqatning ustozlari bo'lib, ular shayx deb yuritiladi. Ulardan Qodiriya, Kubraviya, Mavlaviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlari mashxurdir.

Qodiriya tariqatining ilk markazi Bag'dod shaxri hisoblanadi. Shayx Abdulqodir Jiloniy (1078–1166)

tomonidan asos solingan ushbu tariqat keyinchalik bir qancha shaxobchalari ham bo'lgan. Jumladan, ashrafiya, xolisiya, g'aribiya, rumiya, isaviya va boshqalar. Kubraviya asoschisi barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan "Usuli ashara" asari muallifi Shayx Najmiddin Kubro (1154–1226) bo'lib, bu tariqatning ham shahobchalari bo'lgan. Masalan, nuriya, firdavsiya, hamadoniya, bahoiya, nurbaxshiya va boshqalar. Islom dunyosida keng tarqalgan tariqatlardan biri mavlaviya tariqati bo'lib, uning asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumi (1227 m.v.e.)dir. Uning "Masnaviyi manaviy" asari mashxurdir. Bu tariqatning sho'balari yo'q. Yassaviya tariqati asoschisi esa Xoja Ahmad Yassaviy (1166 m.v.e.)dir. So'fiyona hikmatlarni sodda til, xalqona uslubda bayon etib, "Devoni hikmat" asarini yozadi. Bu tariqat keyinchalik naqshbandiya tariqati doirasida

davom etgan. Naqshbandiya tariqati Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tariqatlardan biri bo'lib asoschisi Xoja Muhammad ibn Muhammad Sayyid Jaloliddin Bahouddin Naqshband (1318–1389)dir. Tariqatning to'rt tamal asosi bor, bular: shariat bilan zohirni poklash, tariqat bilan botinni poklash, haqiqat bilan Alloh do'stligiga yaqinlashmoq, ma'rifat bilan Allohning o'ziga erishmoq.

Avalo, Munis devoniga oid asosiy manbalar sifatida 1980-yilgi Munis "Saylanma"si, 2025-yilgi "O'zbek adabiyoti xazinasi"ning Shermuhammad Munisga bag'ishlangan 37-tomlari tahlil qilindi. Unda g'azallarining manbaviy-nasriy tavsifi keltirilgan bo'lsa-da, tasavvufiy ma'no qatlamlari chuqur tahlil etilmagan. Jumladan, Munis ijodi borasida N.Jumayevning "Munis g'azaliyoti", "O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasi"ning 31-tomida shoir ijod namunalari tahlilga tortilgan. Mavjud adabiyotlarda Shermuhammad Munis g'azallarining umumiy badiiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, uning ayrim she'rlaridagi tasavvufiy obrazlar tizimi, ma'naviy-falsafiy qatamlar chuqur ochilmagan. Shuning uchun maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga, Munis g'azaliy merosining tasavvufiy-estetik tahliliga yangicha yondashuv asosida baho berishga urinadi.

Munis g'azallarining asosiy yo'nalishlaridan biri – Haqqa muhabbat, murshidga sadoqat, nafsni yengish, ruhiy kamolotga yetish singari tasavvufiy jihatlardir. U bu g'oyalarni o'zining g'azaliy tili, ramzlar tizimi, poetik mahorati bilan ifoda etadi. Ayniqsa, ishq ramzi orqali berilgan "ma'naviy sayr" tushunchasi uning ruhiy yo'nalishdagi asarlarining asosini tashkil etadi. Munis ijodi va uning g'azaliy merosi xususida ilmiy adabiyotlarda muayyan fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, uning tasavvufiy qarashlari, ayniqsa ayrim g'azallarida mujassam tasavvufiy bosqich va maqomlar tahliliga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola shu jihatdan mavjud adabiy-tanqidiy tadqiqotlarni to'ldirishga qaratilgan.

Tariqatning markaziy tushunchalaridan biri – bu pir (murshid) va murid (shogird) o'rtasidagi munosabatdir. Munis bu masalani yoritishda quyidagi misralardan foydalanadi:

*O'l nabi do'stlig'idur ishim,
 Boshim erur xoki dari Murtazo* [1: 98].

Baytdan piri Allohga eltuvchi yo'l degan xulosa kelib chiqadi. Baytda shoir nafaqat Ali (r.a.)ga muhabbatni, balki pirga bo'lgan sadoqatni ham bildiradi. Shoir "xoki dari Murtazo" deb, o'zini pir eshigidagi gado sifatida tasvirlaydi.

*Har zamon, ey shoh, vasling men gadoy istaram,
 Naqdi jon ilgimda, har dam xoki poying istaram* [1: 101].

Bu bayt tasavvufning tariqat bosqichini aks ettiradi. Tariqat bu – nafsni poklash, murshidga tobelik, o'zini yo'qotish yo'lidir. Shoir bu bosqichda o'zini "gadoy", ya'ni faqir, Haq huzurida mutlaq muhtoj banda deb ataydi. "Naqdi jon" – salikning yagona sarmoyasi – qalbidir, u bu qalbni Haqqa hadya etmoqda. "Xoki poying" esa murshidning yo'lida sadoqat ramzidir. Bu bosqichda shoir "faqru fano" holatiga yaqinlashmoqda. U endi Haq vaslini til bilan emas, jon bilan istash darajasiga yetadi. Bu maqomda Haqning izmidagi to'liq itoat mujassam.

*Farzandlik tariqi budurkim, suv sabab,
 Topmas qo'lngin ichgali bir qattra ob ab* [1: 198].

"Farzandlik tariqi" – bandalik yo'li, "ob ab" – pok suv, inoyat. Baytda shoir inson qanchalik kuchli bo'lmasin Alloh rahmat(suv)siz najot yo'qligi haqida fikr yuritgan.

Shoir uchun zohir va botin o'zaro teskari emas, bir-birini to'ldiruvchi hodisalar. Ma'rifat – botin nuri zohirni yoritgan holatdir. Bu qarash Naqshbandiya tariqatidagi "xilvat dar anjuman" ("xalq ichra Haq bilan bo'lish") tamoyiliga uyg'un: orif dunyodan uzilmaydi, dunyo unga zulmat bo'lmaydi. Tasavvufda shukrni – zikrning bir shakli. Zikrda til bilan eslansa, shukrda qalb bilan eslanadi. Munis g'azallarida bu ikki holat uyg'un:

*Munis bu yanglig' duo etar subh-u shomkim,
 Ishrat halol bo'lsin-u kulfat harom ango* [1: 78].

Bu baytda "duo" – zikr, "ishrat halolligi" – shukr. Munis uchun shukr – doimiy zikr holati; banda har lahzada Allohni yodga olib yashaydi.

Tariqatda orifning ruhiy barqarorligini ta'minlab, Allohga yaqinlik, Allohga muhabbatini ham kuchaytiruvchi maqom ham shukrdir. Allohga va uning irodasiga to'liq suyanuvchi maqom bu tavakkul maqomidir. Tavakkul ruhiy tinchik va ishonch maqomidir. Ammo bu harakatsizlik emas, balki natijani Allohdan deb bilishdir. Solik sabr va shukrni o'zida mujassam etganida, tavakkulga yetadi; tavakkul orqali esa rizo holatiga kiradi. Bu maqom insonni g'am va qo'rquvdan ozod etadi. Tasavvufda tariqat maqomlaridan rizo maqomi eng yuksak maqomlardan hisoblanadi. Inson sabr, shukr, tavakkul maqomlarini bosib o'tgach rizo maqomiga yetib keladi. Rizo maqomida orif Allohning har bir buyurganini muhabbat bilan qabul qila boshlaydi, norozilik tushunchasidan yiroq bo'ladi. Munis she'riyatida rizo – aynan shu zikrlarning badiiy ifodasi:

*Har neki bitmish menga qilki qazo,
 Qulmen-u yo'q mendin ango juz rizo* [1: 65].

Baytda "qazo" – taqdir, "rizo" – sabr, taqdirga rozilik. Munis sabrni Allohning taqdiriga qalban rozi bo'lish sifatida ko'rsatadi.

*Lavhi azal uzra qildi marqum,
 Ijod aro har ne erdi ma'lum* [1: 208].

Bu bayt Allohning "azaliy yozuvi"ni ifodalaydi. Tariqatda bu – taqdirga taslim bo'lish bosqichi: salik biladiki, har narsa yozilgan, Haqning irodasidan tashqarida hech narsa yo'q. Bu – "rizo maqomi", ya'ni barcha holni Haq yozgan qadar sifatida qabul etish.

Keyingi maqomimiz – muhabbat maqomi. Sabr, shukr, tavakkul qilib, Allohning taqdiriga rozi bo'lgan orif, albatta, Allohning muhabbatiga erishadi. Eng yuksak maqom desak ham bo'ladi. So'fiylar uchun muhabbat maqomi – komillikning cho'qqisi, barcha maqomlar mujassam bo'lgan ilohiy komillik.

Shermuhammad Munis ijodida tariqat insonning ichki dunyosi bilan bog'liq yo'l bo'lib, u insonning ichki pokligi va vazmin tabiatidir. Tariqat arab tilidan "yo'l" degan ma'noni bildirib, bu yo'ldan faqat Haq taologa yaqinlashmoq va Uning roziligini topishga intilganlar yuradi. Bu yo'lga kirishni xohlagan kishilarga "solik", safar davomida ularga "sayri suluk" deyiladi. Ammo tasavvufda tariqatlar ko'p. Ular tarbiya metodlariga, zikr ko'rinishlariga, muhabbat darajalariga, fikr tizimlariga ko'ra farq qiladi. Tariqat maqomlari o'zaro bog'liqdir, masalan, sabrning natijasi shukr, shukrning natijasi esa rizodir. Shukr qilgan inson ishning oxirida bir hikmatga yoki rahmatga ega bo'ladi. Shukr qilmagan inson Allohdan uzoqlashadi, unda norozilik kayfiyati uyg'onadi, bu esa inson ma'naviy olamining zayiflashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek adabiyoti xazinasidan. Shermuhammad Munis. 37-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2025.
2. Salohiy D. Tasavvuf – komil axloq ilmi. – Samarqand: Turon nashr, 2025. – 168 b.
3. Munis Sh. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
4. Munis Sh. O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasi. – 31-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Jumayev N. Munis g'azaliyoti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.

Gulnora GULYAMOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori

YURIDIK TERMINOLOGIYADA IERARXIK VA MA'NODOSHLIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek yuridik terminologiyasida giponimiya hodisasi, shu asosda yasalgan leksika, yuridik terminologiya mavzuiy guruhlar tarkibidagi jins-tur bog'lanishlar, muayyan bir giperonim (jins)ning giponim (turi)lari, termin hosil qilishda giperonimlik vazifasini bajaruvchi leksika xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, lug'aviy birliklarning, jumladan, terminlarning o'zaro munosabatida leksik sinonimlar va variantdorlik turlarining holatiga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: termin, giponim, arxisema, giperonim, tur, sinonim, lug'aviy birlik, leksik sinonim, o'z va o'zlashma termin, variantdorlik.

Annotation. This article discusses the phenomena of hyponymy in Uzbek legal terminology, vocabulary derived from this basis, generic relationships within the thematic groups of legal terminology, hyponyms (types) of a particular hyperonym (gender), vocabulary that plays the role of a hyperonym in the formation of the term. Attention is also drawn to the state of lexical synonyms and differences of variability in the interaction of vocabulary units, including terms.

Keywords: term, hyponym, archisema, hyperonym, type, synonym, lexical unit, lexical synonym, own and borrowed term, variance.

Аннотация. В данной статье рассматривается явление гипонимии в узбекской юридической терминологии, лексика, образованная на этой основе, гендерно-видовые связи в рамках тематических групп юридической терминологии, гипонимы (виды) определенного гиперонима (рода), а также лексика, выполняющая функцию гиперонима при терминоподобии. Также уделяется внимание состоянию лексических синонимов и типов вариантности во взаимоотношениях лексических единиц, в том числе терминов.

Ключевые слова: термин, гипоним, архисема, гипероним, тип, синоним, лексическая единица, лексический синоним, собственный и заимствованный термин, вариативность.

So'nggi yillar davomida jamiyatimizning har bir sohasida keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar amalga oshirilib, "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha tom ma'noda hayotiy holatga aylanmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish eng muhim ustuvor vazifaga aylandi. Bu borada jamiyatimizning har bir sohasida diqqatga sazovor ishlar jadal olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda til masalasi, uning barcha tarmoqlari rivoji davlatimiz siyosatidagi muhim jihatlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda til siyosati – davlatning til sohasidagi maqsad, tamoyil va chora-tadbirlar tizimi bo'lib, u milliy tilni rivojlantirish, uning huquqiy maqomini mustahkamlash va birlashtirilgan hayotida to'liq qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan. Konstitutsiya bilan belgilab qo'yilgan Davlat tilining asosiy maqsadi davlat boshqaruvi, sud-huquq, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va ish yuritishda davlat tilining ustuvor qo'llanilishini ta'minlashdir. Davlat tilining **ijtimoiy ahamiyati** milliy o'zlikni anglash, jamoatchilik ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini yaratishning asosiy tamoyillaridan biri bu qonun ustuvorligini ta'minlash va odamlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya qilishining asosiy omili uning aniqligi, puxtaligi va ravshanligidir. Shunday ekan, har qanday hujjat sifati nafaqat ularni ishlab chiqaruvchilarning yuqori malakasiga, balki ularning kommunikativ va adabiy savodxonligiga ham bevosita bog'liq. Ona tilimizda yangidan yangi qonuniy akt, hujjatlarning qabul qilinishi, sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi hisoblangan yuridik til, uning terminologik tizimining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratib bermoqda. Milliylik huquq tili va uslubi rasmiy tilda ko'plab o'zbekcha yuridik atama, ibora va terminlar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Jumladan, *bandlik, sarmoya, gender tengligi, mulkdor, hissadorlik, protsessual kelishuv, kriminalistik aynanlik,*

manfaatlar to'qnashuvi, kiberxavfsizlik, raqamli dalillar kabi terminlar jamiyat rivojiga bog'liq bo'lib, muloqotga faol kirib, milliy lug'at tarkibining boyitmoqda.

Ma'lumki, yuridik terminlar qonun tili leksikasi hisoblanadi. Ana shu leksika o'ziga xosligi bilan o'zbek tili lug'at qatlamida alohida o'rin tutadi. Terminologiya qoidalariga asosan, har qanday yuridik tushunchalarni ifodalovchi termin ma'lum talab va me'yorlarga amal qilishi lozim. Bu terminning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. Bir termin qachonki bir tushunchaga teng kelsa, mazmun-mohiyati aniq bo'ladi. Ayniqsa, yurisprudentsiyaga oid terminlar ganchalik takomillashgan bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar, shunchalik aniq va puxta bo'ladi, jamiyatda qonun ustuvorligiga to'liq erishiladi.

O'zbek tilining yuridik terminologik tizim tarkibidagi terminlarni tahlil qilish natijasida ularning bir-biri bilan giponimik munosabatga ega ekanligi aniqlandi. "Voqelikda narsa, belgi, xususiyatlararo jins-tur bog'lanishlari juda keng tarqalgan. Bunday bog'lanishlarni tabiatda ham, hayotda ham, fanda ham juda ko'p uchramiz" [1: 2]. Yuridik terminologiya ham bu fikrni to'la ma'qullaydi. Mazkur terminologik tizimga kiruvchi mavzuiy guruhlar, ular tarkiblarining qaysi biriga murojaat qilinmasin, jins-tur bog'lanishi mavjud ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Yuridik terminologiyaning "jinoiy-protsessual huquq" mavzusi guruhini olib ko'raylik. Uning asosini "Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat" [2: 1] tushunchasi tashkil etadiki, u **jinoiyat** termini orqali ifodalanadi. Binobarin, mazkur termin shu mavzuiy guruhning arxisemasi sifatida giperonimlik vazifasini bajaradi. Uning giponimlari o'nlab terminlardan tashkil topgan bo'lib, ular birikma tarzida namoyon bo'ladi. Bunday giponimlarning xarakterli jihati shundan iboratki, tegishli aniqlovchi komponentdan keyin aniqlanmish komponent vazifasini o'tovchi jinoiyat terminining ham o'zi qo'shilib keladi:

Jinoyat [jins] – *ijtimoiy xavff katta bo'lmagan jinoyat – uncha og'ir bo'lmagan jinoyat – og'ir jinoyat – o'ta og'ir jinoyat – qasdan sodir etilgan jinoyat – ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyat – murakkab aybli jinoyat – retsidiv jinoyat* [turlar] va b. **Jinoyat** giperonimining giponimlaridan yana bittasini olib ko'raylik. U quyidagi ma'noni anglatadi: "...jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish hamda ularni cheklashdan iborat bo'lgan majburlov chorasi" [3: 5].

Mazkur tushuncha **jazo** termini bilan ifodalanadi. Giperonimlik vazifasini bajaruvchi bu terminning ham o'ziga yarasha giponimlari mavjud, ya'ni: **jazo** [jins] – *jarima – muayyan huquqdan mahrum qilish – axloq tuzatish ishlari xizmati bo'yicha cheklash – qamoq – intizomiy qismga jo'natish – ozodlikdan mahrum qilish – mol-mulkni musodara qilish – o'lim* [turlar]; Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkin: a) jarima; b) muayyan huquqdan mahrum qilish; v) axloq tuzatish ishlari; g) xizmat bo'yicha cheklash; d) intizomiy qismga jo'natish; e) ozodlikdan mahrum qilish; y) o'lim jazosi [4: 3].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida shunday deyilgan: "Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasdan ishtirok etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi" [5: 7]. Demak, jinoyat giperonimining giponimi sifatida **ishtirokchilik** termini yuzaga chiqadi. O'z navbatida, mazkur termin giperonimlik vazifasini ham bajaradi: jinoyat ishtirokchilari – ishtirokchilik shakllari. Bu tushunchalar o'rtasida o'zaro munosabat yana davom etaveradi, ya'ni giponimik bog'lanishlar tobora chuqurlasha boradi:

a) jinoyat ishtirokchilari [jins] – *jinoyatni bajaruvchi – tashkilotchi – dalolatchi – yordamchi* [turlar]; Jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb ataladi.

b) ishtirokchilik shakllari [jins] – *oddiy ishtirokchilik – murakkab ishtirokchilik – uyushgan guruh – jinoiy uyushma* [turlar]; Jinoyatda ishtirokchilik: odiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma shaklida bo'ladi [6-7].

Jinoyat giperonimining giponimlaridan yana bittasini olib ko'raylik. U quyidagi ma'noni anglatadi: "...jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish hamda ularni cheklashdan iborat bo'lgan majburlov chorasi" [7-5]. Mazkur tushuncha **jazo** termini bilan ifodalanadi. Giperonimlik vazifasini bajaruvchi bu terminning ham o'ziga yarasha giponimlari mavjud, ya'ni: **jazo** [jins] – *jarima – muayyan huquqdan mahrum qilish – axloq tuzatish ishlari xizmati bo'yicha cheklash – qamoq – intizomiy qismga jo'natish – ozodlikdan mahrum qilish – mol-mulkni musodara qilish – o'lim* [turlar]; Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkin: 1) jarima; 2) muayyan huquqdan mahrum qilish; 3) axloq tuzatish ishlari; 4) xizmat bo'yicha cheklash; 5) intizomiy qismga jo'natish; 6) ozodlikdan mahrum qilish; 7) o'lim jazosi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyatchining turlaridan biri "iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" [8: 7] deb atalgan. Binobarin, ayni shu birikmani giponimik termin deb hisoblash mumkinki, uning turlarini anglatuvchi qator terminlar mavjud:

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar [jins]: *bosqinchilik* (Bosqinchilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish..., [9: 7]: – *tovlamachilik* (tovlamachilik, ya'ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish..., [10: 7] – *talonchilik* [11: 7] – *o'zlashtirish* yoki *rastrata* (Aybdorga

ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish..., [12: 7] – *ffribgarlik* (Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki mulkiy huquqini qo'lga kiritish..., [13: 7] – *o'g'rilik* (O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish..., [14: 7] [turlar]. Keltirilgan dalillardan muayyan bir giperonim – jinsning bir nechta giponimi – turi mavjud bo'lib, keyingilarining ba'zilari giperonimlik vazifasini bajarib kelishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Bu terminlarning o'zaro aloqadorligini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Terminlar sinonimiyasi. Yurisprudentsiyada lug'aviy birliklarning, jumladan, terminlarning o'zaro munosabatida sinonimiya masalasi alohida e'tiborga ega, chunki hozirgi o'zbek yuridik terminologiyasida ko'plab tushunchalar ikki va undan ortiq terminlar bilan ifodalab kelinmoqda, ayniqsa, sinonimlarning leksik sinonimlar va variantdorlik turlari ko'proq uchraydi. Yuridik terminlar lug'atlari va qomuslarida, leksik sinonimlar qatorini uchta va undan ortiq terminlar ham tashkil etganligini ko'rish mumkin:

a) *sinish – kasodga uchrash, vasiylik – homiylik, guvoh – shohid, vorislik – meros olish, merosxo'r – voris, kamomad – kam kelish;*

b) *talonchilik – o'g'rilik – mol-mulkini talab olish, oqlash – haqli deb topish – aybsiz deb topish, ko'rik – ko'rish – ko'zdan kechirish – tekshirib chiqish, ko'rgazma – ko'rsatma – ko'rsatuv va b.*

Sinonimlar adabiy til uslubini hamda jonli so'zlashuv nutqini bezashga yordam bersa-da, lekin rasmiy va ilmiy uslublar uchun bu holat ijobiy hisoblanmaydi, chunki sinonimlar bir yuridik tushunchaning aniq ifodasi bo'la olmaydi, natijada axborot almashinuv jarayoni qiynlashadi [15: 6]. Afsuski, o'zbek tilining yuridik terminologiyasida ham ko'plab sinonimlar uchraydi. Natijada qonunlar yaratishda, huquqiy aktlar tuzishda birxillikdan chekinish holatlari kuzatilmoqda.

Boshqa terminologik sohalarda bo'lganidek, o'zbek yuridik terminologiyasida ham o'z va o'zlashma terminlardan iborat sinonimik qator tez-tez uchrab turadi. Bunda, ayniqsa, ruscha-baynalmil va o'z (ularning ba'zilari forsiy yoxud arabiy bo'lishidan qat'i nazar) qatlamga doir lug'aviy birliklar sinonimiyasi ko'zga tashlanadi. Qonunchilikka oid qator manbalarni tahlil qilish natijasida yuridik sinonim terminlardan foydalanishning quyidagi holatlari uchradi:

1. O'z terminlarimiz (ularning ko'pi ona tilimizga o'zlashib ketgan fors-tojikcha yoki arabcha bo'lishi mumkin) sinonimiyasi: *nasiya – qarz – burch, topshiriq – vazifa, ega – biylovchi – egallovchi – egalik qiluvchi, vasiyat – vasiyatnoma, farmoyish – ko'rsatma, asos – bahona – vaj, tarafdor – yoqlovchi, jabr – zulm – istibdod.*

2. O'zlashma termin va uning o'zbek tilidagi sinonimlari: *avdar – mulk – boylik, adyulter – er-xotin vafosizligi, avantyura, qaltis ish, tavakkaliga xatarli ish, anketa – so'rovnoma, zayom – qarz, arbitraj – hakamlar sudi, valyuta – chet el puli, aparteid – irqiy ayirmachilik – huquqni cheklash – ta'qib qilish, mandat – vakolatnoma, auktsion – kimoshdi savdosi, blanket norma – huquqiy norma – havola qiluvchi norma, veto – taqiq.*

3. O'zbekcha termin va uning o'zlashma sinonimi: *ijara – prokat, omonat qo'yilgan pul – depozit, ruxsatnoma – rozilik, imzo – viza.*

4. O'zlashma termin va uning aralash tipdagi sinonimlari: *hadya akti – hadya hujjati, aktнома – qaydnoma – qayd daftari, ma'muriy jarayon – protsess – ma'muriy ish yuritish tartibi – ma'muriy muhokama kabilar.*

Shu bilan birga, yuridik terminologiyada yakka va birikma terminlar sinonimiyasi ham ko'plab ishlatilayotganligini ko'rish mumkin: *yoqlash – himoya qilish, bildiruvchi – aytuvchi – arz*

qiluvchi, boqim – boshqaning boqimida bo'lish, nazorat – nazorat qilish, huquqbuzarlik – tartib buzish, guvohlantirish – tekshiruvdan o'tkazish, oqlash – aybsiz deb topish.

Birikma terminlarning ham sinonimlashib kelishi odat tusiga aylanganligini ta'kidlab o'tish lozim. Masalan: *tortib olish – bosib olish – qo'lga kirgizish, ehtiyot sudya – zapas sudya, kafolatda turish – kafflikda bo'lish, qonunsiz harakat – g'ayriqonuniy ish, shikoyat qilish – shikoyat arizasi berish, payli shirkat – hissadorlik shirkati, pul yuborish – pul o'tkazish, qayta ro'yxatga olish – qayta ro'yxatdan o'tkazish, meros qabul qilish – meros olish va b.* [16: 9]. Demak, hozirgi o'zbek yuridik terminologiyasida sinonimlarni yuzaga keltiruvchi faol usul bu kalkadir. Ya'ni chetdan so'z qabul qilish natijasida, tilda bir terminning bir necha ko'rinishlari paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda ham me'yoriy hujjatlarda sinonimlardan keng foydalanib kelinmoqda. Shu bois, yuridik idoralar hujjatlari hozircha o'zini to'la oqlay olmayapti, terminlarning bixillik qoidasiga amal qilinmayapti. Buni ko'plab misollarda ko'rish mumkin: *yagona soliq, bir xil soliq; nikoh yoshi, balog'at yoshi; huquqsizlik, haqsizlik; ma'mur, ma'muriyat boshlig'i, boshqaruvchi; konsullxona, konsullik, vakolatxona va b.* Kuzatishlar natijasida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, qonunchilikdagi me'yoriy hujjatlar terminologiyasidagi har xilliklar huquq sohasiga me'yorlashmagan so'zlar evaziga ham ko'paymoqda: *tovar – mol, butlovchi buyum; zona – doira, hudud; dotatsiya – qo'shimcha mablag' berish, kemtikni to'ldirish; protokol – qaydnoma, majlis bayoni, bayonnoma va h.k.*

O'zbek yuridik terminologiyasida sinonimiyaning variantdorlik turi ham keng tarqalganligini ta'kidlash lozim. Bunday variantdor terminlar ikki xil ko'rinishdadir:

1. Bir komponentli terminlar variantdorligi: *kafflik – kafolat, ishonchsizlik – ishonmaslik, o'g'irlash – o'g'irlik, narx-narx-navo, jaholat – jaholatparastlik va b.*

2. Ikki va undan ortiq komponentli, ya'ni birikma terminlar variantdorligi: *odil sudlov – adolatli sudlov, sud muhokamasi – sud tekshiruvi – sud taftishi, moliya organlari – moliyaviy organlar, xususiy ajrim – alohida ajrim, yuriskonsult – yuridik konsultant – yuridik maslahatchi va b.*

Huquq bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy termin – **hokimlik** terminini olib ko'raylik. Mazkur so'z ham

ifodalayotgan tushunchaga nisbatan ikki xil ko'rinishda ishlatilmoqda (*Toshkent shahar hokimligi, Yunusobod tumani hokimiyati*). Bu o'rinda **hokimlik** variantidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki **hokimlik** termini grammatik qurilishi, tovush tuzilishi, talaffuzi jihatidan o'zbek adabiy tili talablariga to'liq mos keladi. Bundan tashqari, **-lik** affiksi o'zbek adabiy tilida faol so'z yasovchi qo'shimcha hisoblanadi (*tadbirkorlik, javobgarlik, ta'magirlik, giyohvandlik, dezertirlik va h.k.*).

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, **hokimiyat** termini "davlat boshqarmasi" ma'nosida qat'iylashib qolgan: oliy hokimiyat. Bunday hokimiyatni esa prezident yoxud vazir (ministr) boshqaradi. Shunday ekan, tuman, shahar, viloyatlarni boshqarish organini **hokimlik** deb atash ma'qul deb hisoblaymiz. Demak terminlar bir ma'noli bo'lib, fikrni aniq ifodalashi, ya'ni mazmun ikki ma'noda bo'lmasligi, uning qo'llanilishi yakka holda bo'lib, sinonimlardan xoli bo'lishi. Terminlar sinonimiyasi haqiqatan ham axborot almashinuv jarayonini qiyinlashtiradi, chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun terminologiya nazariyasida "bitta tushunchaga – bitta til birligi" prinsipiga amal qilish lozimligi alohida uqtiriladi.

Yuqorida keltirilgan dalillar yuridik terminologiyada ham sinonimiya (absolyut sinonimlar) va uning bir turi – variantdorlik ancha avj olganligini tasdiqlaydi. Shunday ekan, nafaqat terminshunoslar, balki yurist mutaxassislar ham iloji bor qadar "bittaga – bitta" prinsipi asosida ish ko'rishlari lozim.

Xulosa o'rnida alohida ta'kidlash joizki, yuridik terminlarning giponimik (jins-tur) munosabatlarini aniqlash shu soha terminologiyasining sistem xarakterda ekanligini tasdiqlaydi. Yuridik terminologiyada ham bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq termindan iborat sinonimiya yurisprudentsiyada axborot almashish jarayonining qiyinlashuviga olib kelmoqda. Shu bois o'zbek tili yuridik terminologiyasining taraqqiyotini ta'minlashda umumhuquqiy terminlar tezaurusi muhim rol o'ynaydi. Umumhuquqiy tezaurusda yurisprudentsiyaning barcha sohalari terminlari bir joyga jamuljam qilinadi. Natijada yuridik terminologiyani tartibga solish (masalan, sinonimiyani bartaraf etish), shu asosda o'zbek yuridik tili terminologiyasida mavjud bo'lgan qator muammolar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – M., 1981. – B. 281.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Mualliflar jamoasi. Yuridik ensiklopediya. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Mahmudov N.M., Ko'chimov SH.N., Sharipova N.YE. Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati. – Toshkent: Zamin, 2021.
5. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – Toshkent: Adolat, 2003.
6. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Aminov A. O'zbek tilida ish yuritish. – Toshkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>.
8. O'zbekiston Respublikasi Kodekslari. – Toshkent: Adolat, 2014.
9. Gulyamova G.YA. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti: Filol. fan. nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 2005.

Moxitabon MO'MINOVA,

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

“DASHT-U DALALARDA” ROMANIDA INSON VA HAYVON OBRAZLARINING RAMZIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Dasht-u dalalarda” romanida inson va hayvon obrazlari uyg'unligi badiiy tahlil qilinadi. Asarda bo'ri va tulki timsollari orqali inson xarakterining turli jihatlarini, axloqiy tanlov, vijdon va mas'uliyat masalalari yoritiladi. Hayvon obrazlarining ramziy, mifopoetik hamda totemistik qatlamlari ochib berilib, inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik g'oyasi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek nasri, inson va tabiat, hayvon obrazi, bo'ri timsoli, ramz, totemizm, ekologik tafakkur.

Annotation. This article provides a literary analysis of Normurod Norqobilov's novel “In the Steppes and Fields” through the lens of the harmony between human and animal imagery. The symbolic representation of the wolf and the fox reveals different aspects of human

character, as well as issues of moral choice, conscience, and responsibility. The symbolic, mythopoetic, and totemic layers of animal imagery are examined, and the idea of the organic interconnection between human beings and nature is substantiated.

Keywords: Uzbek prose, human and nature, animal imagery, wolf symbolism, symbolism, totemism, ecological thinking.

Аннотация. В статье проводится художественный анализ романа Нормуро́да Норқобилова «В степях и полях» с точки зрения гармонии образов человека и животных. Через символику волка и лисы раскрываются различные стороны человеческого характера, проблемы нравственного выбора, совести и ответственности. Рассматриваются символические, мифопоэтические и тотемические пласты образов животных, обосновывается идея органической взаимосвязи человека и природы.

Ключевые слова: узбекская проза, человек и природа, образ животных, символ волка, символика, тотемизм, экологическое мышление.

Mustaqillik davri o'zbek nasri inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yangicha badiiy tafakkur asosida aks ettirishga intilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda adabiyotning faqat ijtimoiy muammolarni emas, balki ekologik tafakkur, tabiatga munosabat, hayvonot va nabotot, jamodot olami bilan bog'liq ramziy qatlamlarni ham chuqur yoritishga e'tibor qaratilmoqda. Inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik badiiy konsept sifatida namoyon bo'lmoqda.

Normurod Norqobilov ijodi ana shu yo'nalishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yozuvchining asarlarida inson va tabiat uyg'unligi, hayvon obrazlarining ramziy ma'nolari, totemistik qarashlar bilan bog'liq badiiy talqin tizimli ravishda yoritiladi.

Abdug'ofur Rasulov tadqiqotlarida Normurod Norqobilov ijodining tog' va tog'oldi muhitiga daxldorligi, tabiat va inson hayotining bir-biri bilan uzviy aloqador holda tasvirlanishi alohida ta'kidlanadi [1: 134]. Olim yozuvchining asarlarida makon faqat fon vazifasida emas, balki mustaqil badiiy komponent sifatida qatnashishini ta'kidlaydi.

Normurod Norqobilov nasrini o'qib-o'rganish, undagi tasvir yo'sinini sichkov kuzatish yozuvchi ijodida naturalistik ifoda yetakchiligini ko'rsatadi. O'ylashimizcha, muallifning tabiat hodisalari, jonivorlar, tosh-tuproq, tog'u-toshlarni badiiy tasvirlashga moyilligi tabiiy holatda uni naturalistik tasvirga olib kelgan [2: 131–132].

Inson va tabiat, inson va nabotot olami azaldan dialektik birlikda hayot kechirib keldi. Ammo o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab bu an'analar ma'lum darajada unutila boshladi. Inson o'zi anglamagan holda tabiat va uning mo'jizalari oldida "lol" qolishga majbur bo'ldi. Ezgulik, adolat, haqiqat o'rnini yovuzlik, vahshiylik, inson xarakteridagi shafqatsizlik egallay boshladi. Bu kabi muhim xususiyatlar Normurod Norqobilovning "Dasht-u dalalarda" romani qahramonlari bo'lgan To'lanboy, Ro'ziqul, Haydar obrazlarida yaqqol kuzatiladi. Romanda olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiriladi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishi adib dunyoqarashi va badiiy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polотно bo'lsin, adolat, haqiqat, mehr-shafqat, ezgulik kabi tushunchalar talqini asosiy o'rinni egallaydi [3: 95].

Roman dalalarning betakror va o'ziga xos ohangidan iborat madhiya singari jaranglaydi. Unda inson va tabiat yonma-yon tasvirlanadi va harakatlanadi. Ular bir-birini to'ldiradi, taqozo etadi, hamkorlik qiladi. Dastlab To'lanboyning o'tkir nigohi orqali tanishganimiz uzoq "dasht adog'idagi qizg'ish qiyalik yoqalab borayotgan Bo'zbo'ri" voqealar silsilasiga hamqishloqlarining mol-holini asrab qolish uchun ongli ravishda "el tanigan polvondan oddiygina podachiga aylangan" Eshqul polvon kirib kelishi munosabati bilan qadrdonimizga aylanib qoladi. Ular so'zsiz tushunadilar, kerak paytda bir-birini himoya qiladilar, asraydilar. Bo'zbo'ri Eshqul polvonning mollariga mutlaqo daxl qilmaydi. Aksincha, boshqa hudud

jondorlaridan ularni himoya qiladi. Eshqul polvon ham o'z tug'ishgan inisidek aziz va qadrdon Bo'zbo'rini yomon odamlar hujumidan asrab qoladi [4: 63].

Chindan ham Normurod Norqobilov o'zini har lahzada tabiat bilan uyg'un deb biladi va asarlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibning "Dasht-u dalalarda" romanida inson va tabiat birligi asosiy konsept sifatida talqin qilinadi. Ular go'yo yonimizda yurgandek tasavvur uyg'otadi, biz voqealarga bevosita guvoh bo'lamiz. "Dasht-u dalalarda" romanida hayvonlar ham tabiatning bir bo'lagi, insonlarga yaqin do'st sifatida aks etadi. Nafaqat bu asarda, balki yozuvchining deyarli barcha asarlarida bu mavzu yetakchilik qiladi. Asarda Eshqul polvon obrazi Bo'zbo'ri bilan qarindoshlik munosabatida tasvirlanadi. Bu timsol turkiy xalqlarda bo'lining totem sifatida muqaddaslashtirilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Eshqul polvon bo'rilarni juda yaxshi ko'radi, hatto ularni "inim" deb ataydi. Uning bir qo'shig'i bor edi:

*Odam bolasining har qiligi bordir,
Joyi kelsa, u jondordan yomondir.
Jondorni yomon demang odamlar,
Kezi kelsa, odam undan yomondir [5: 22].*

Ushbu misralar orqali inson tabiatining murakkabligi, unda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi uzluksiz ichki kurash mavjudligi badiiy jihatdan ochib beriladi. Inson har qanday xatti-harakatni qilish salohiyatiga ega bo'lib, bu salohiyat uning aqli, tafakkuri va irodasi orqali namoyon bo'ladi. Biroq ayni shu imkoniyatlar bir vaqtning o'zida ham yuksalish, ham tubanlashish yo'lini ochib beradi. Shu sababli ushbu to'rtlikda insonning har bir harakati ma'naviy me'zonlar asosida baholanishi zarurligi ta'kidlanadi. Jondor va inson qarama-qarshiligi orqali axloqiy hukm anglashiladi. Bu hukm ijtimoiy ogohlantirishni ham o'zida mujassam etadi. U insonni o'z nafsini, g'azabini, manfaatparastligini nazorat qilishga, ichki vijdon bilan yashashga da'vat etadi.

Qadimda kishilar og'ir va ayanchli turmushlarini yaxshilashga intilganlarida yoki mushkul vaziyatga tushganlarida bo'riga yolvorib, undan madad tilashgan. Xuddi shunday mushkul vaziyatda Eshqul polvon o'zining himoyachisi va homiysi bo'riga yalinadi, undan yordam so'raydi:

– Ey, jondorlar sultoni! Bu nima yotish, yor u yoqda-yu, men bu yoqda! Anovu battol vakilni deb nahot hammamiz qon yutamiz! Biror chora yo'qmikan unga?!

Shuning uchun dashtda och quzg'unday izg'ib, manovi podani qirib yurgan vakilni o'zing bir yoqlik qilmasang bo'lmaydi. Senga qonun yo'q" [5: 105].

Mazkur parcha bo'lining jondor sifatidagi talqinida inson va tabiat o'rtasidagi axloqiy mezonlar almashuvi g'oyasini ilgari suradi. Bo'ri odatda yovvoyilik, shafqatsizlik va kuch ramzi sifatida qaraladi. Biroq ushbu nutqda qahramon aynan bo'riga murojaat qilayotgani shuni anglatadiki, odamlar orasida shafqatsizlik shu darajaga yetganki, bo'ri obrazi endi yovuzlik ramzi sifatida emas, balki adolat timsoli sifatida qabul qilinadi. Bu esa insoniy jamiyatda axloq me'yorlarining ag'darilib ketganini bildiradi. Qahramonning bo'riga murojaati esa

odamlar adolatni tabiatni shafqatsiz, ammo halol hukmidan kutishga majbur bo'layotganini ifodalaydi. Bu o'rinda bo'ri insoniy yolg'onlardan, ikkiyuzlamachilikdan yiroq, faqat tiriklik qonuni bilan yashovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Yozuvchi qat'iyatli, qo'rqmas, mehrini ham, qahrini ham kerak joyda ko'rsata oladigan farosatli Eshqul polvonni bo'zbo'riga, uquvsiz, kekchi, bir oz izzattalab otasidan ko'ra Dasht-u dalalarga o'gayroq bo'lgan To'lanboyni Qoraquloq tulkiga qiyosan tasvirlaydi. Eshqul polvon xuddi bo'ri singari har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmaydi, aqliga suyanib sovuqqonlik bilan ish tutadi [4: 63].

To'lanboyni qoraquloq tulkiga qiyoslanishi yozuvchi tomonidan ijtimoiy befarqlik, tabiatga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarning ramzi sifatida ishlatilgan. Demak, tabiatdagi hayvon obrazlari N.Norqobilov ijodida inson xarakterining yaxlit psixologik portretini ochishga xizmat qiladi.

Bo'ri va Eshqul polvon kelishib olib, bitim tuzganday ikkisi ham bir-biriga zarar yetkazmaydi. Yozuvchi ularning o'zaro zarar yetkazmasdan yashashlarini bitimga o'xshah holatda tasvirlar ekan, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy uyg'unlik g'oyasini badiiy obraz orqali ifodalaydi. Eshqul polvon obrazi esa an'anaviy dunyoqarash, tabiat bilan uyg'un yashash tamoyili va axloqiy barqarorlikning badiiy idealiga aylanadi. Uning o'g'li To'lanboyni esa otasining aksi. U tabiatga, hayvonlarga otasichalik mehr qo'ymagan. U hayvonlarni qiynab, azoblab, ularga zarar yetkazadi. Qiynash yoki o'ldirish orqali zavq oladi. To'lanboyni obrazi zamonaviy insonda tabiatga begonalashuv, ekologik

befarqlik, hatto zo'ravonlikning paydo bo'lishini ifodalaydi. Ota va o'g'il orasidagi qarama-qarshilik faqat oilaviy muammolar emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi qadimiy uyg'unlikning yo'qolishi jarayonini ko'rsatadi. To'lanboyni obrazi orqali yozuvchi shuni ta'kidlaydiki, inson tabiatga zo'ravonlik qilar ekan, aslida o'zini vayron qiladi. Chunki tabiatdan begonalashish – ma'naviy va ruhiy ildizlardan uzilishdir. Asarda To'lanboyni hayvonlarni qiynashi yoki ularga ozor yetkazishi individual xarakter belgisi bo'lib qolmay, balki zamonaviy jamiyatda shakllanayotgan inson qiyofasining umumlashtirilgan timsoli sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi bu obraz orqali badiiy tipiklashtirish usulidan foydalanib, tabiatdan begonalashgan, ma'naviy ildizlardan uzilgan inson qiyofasini yaratadi.

Normurod Norqobilovning "Dasht-u dalalarda" romanida inson va tabiat, ayniqsa inson va hayvon obrazlari o'rtasidagi uyg'unlik markaziy badiiy g'oya sifatida talqin qilinadi. Bo'ri, tulki kabi jonzorlar inson xakteri, ruhiy kechinmalari va axloqiy qiyofasini ochuvchi ramziy timsollarga aylantiriladi. Eshqul polvon va Bo'zbo'ri o'rtasidagi munosabatlar orqali sadoqat, himoya, adolat kabi qadriyatlar yoritilsa, To'lanboyni Qoraquloq tulkiga qiyoslanishi insondagi ichki yovuzlik va befarqlik holatlarini ko'rsatadi. Asarda hayvon obrazlari faqat tasvir unsuri emas, balki inson ma'naviyatini yorituvchi badiiy vosita sifatida aks etadi. Natijada roman inson va tabiat o'rtasidagi abadiy bog'liqlik, axloq, vijdon va ezgulik g'oyalarni chuqur badiiy mazmunda ifodalagan asar sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
2. Fayzullayev X. "Dasht-u dalalarda" romanida naturalistik tasvir qirralari. // Tafakkur ziyosi, 2020, №4.
3. Bazarov S. Normurod Norqobilov asarlarining poetikasi. Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Jizzax, 2021.
4. Solijonov Y. Mo'jizalar sehri. – Toshkent: Adib, 2013.
5. Norqobilov N. Dasht-u dalalarda. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

Madina TURSUNOVA,

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

QADIMGI O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING KO'PLIK VA EGALIK SHAKLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi o'zbek va fransuz tillaridagi ot so'z turkumining ko'plik va egalik shakllari qiyosiy-grammatik va tipologik jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Har ikki tildagi otlarning ko'plik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar, ularning shakllanish mexanizmi hamda tarixiy taraqqiyoti ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, egalik (possessivlik) munosabatlarini ifodalashda qo'llaniladigan morfologik va sintaktik vositalar o'zaro qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tilshunoslik, tarixiy grammatika, ot so'z turkumi, ko'plik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, affiksatsiya, morfologik vositalar, qadimgi o'zbek tili, qadimgi fransuz tili.

Annotation. This article analyzes the plural and possessive forms of nouns in ancient Uzbek and ancient French languages in comparative-grammatical and typological aspects. Grammatical means expressing the plural category of nouns in both languages, their formation mechanism, and historical development are illuminated on a scientific basis. Morphological and syntactic means used to express possessive relations are also compared.

Keywords: comparative linguistics, historical grammar, noun, plural category, possessive category, affixation, morphological means, ancient Uzbek language, ancient French language.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются формы множественного числа и притяжательности существительных в древнеузбекском и древнефранцузском языках в сравнительно-грамматическом и типологическом аспектах. Грамматические средства, выражающие категорию множественного числа существительных в обоих языках, механизм их образования и историческое развитие освещаются на научной основе. Также сравниваются морфологические и синтаксические средства, используемые для выражения отношений принадлежности (посессивности).

Ключевые слова: сравнительное языкознание, историческая грамматика, имя существительное, категория множественного числа, категория принадлежности, аффиксация, морфологические средства, древнеузбекский язык, древнефранцузский язык.

Tilshunoslikda grammatik kategoriyalarni qiyosiy jihatdan o'rganish tillarning tuzilishi va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi o'zbek va fransuz tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularda ot so'z turkumining ko'plik va egalik shakllari o'ziga

xos grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Mazkur maqolada ushbu kategoriyalarning har ikki tildagi shakllanish mexanizmi va tarixiy rivoji qiyosiy-grammatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi o'zbek tilida ko'plik va egalik shakllarining asosan affiksatsiya orqali ifodalanishi, fransuz

tilida esa ko'plikning morfologik, egalikning esa analitik vositalar yordamida yuzaga chiqishi yoritiladi.

Ko'plik shakllari. Qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan morfologik qoidalar bo'yicha otlarda ko'plik shakli asosan *-lar/-lär* affiksi yordamida hosil bo'ladi. Eski o'zbek tilida ham *-lar/-lär* affiksli shaklning asosiy vazifasi grammatik ko'plik ma'nosini ifodalashdan iborat bo'lgan [1].

“Resuller örüng yüz bu ol yüzke köz
Ya **olar** kızıl eng bu engke mence” (resuller – “payg‘ambarlar”,
“olar” = “ular”).
“Bu kudret idisi uluğ bir bayat
Ölüglerni tırgüzmeğ asan anga” (**özüglerni** – “o'liklarni”).
“Bu kün bar yarın yok bu dünya nengi
Mening tımşing neng **adinlar** onğı” (adinlar – “boshqalar(i)").

Fransuz tilining ko'plik shakllari tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, o'rta fransuz tilining o'ziga xos belgisi, undan oldingi davrlarga nisbatan, deklinatsiya ya'ni otlarning kelishik bo'yicha turlanish jarayonining yo'qolishidir [6]. Darhaqiqat, qadimgi fransuz tilida (XI–XIII asrlar) otlarning **deklinatsiya tizimi** mavjud bo'lib, ular ikki xil shaklda turlangan: **cas sujet** (ega shakli, nominativ) va **cas régime** (to'ldiruvchi shakli ya'ni egadan boshqa barcha kelishik shakllari). Bu tizim lotin tilidan meros bo'lib, gapdagi otning vazifasiga qarab o'z shaklini o'zgartirib turgan.

Masalan, *mur* (“devor”) so'zi to'rt xil variantda ishlatilgan:

- **murs** (ega shakli, birlik);
- **mur** (to'ldiruvchi shakli, birlik);
- **mur** (ega shakli, ko'plik);
- **murs** (to'ldiruvchi shakli, ko'plik).

Demak, qadimgi davrda bitta ot uchun to'rt xil shakl qo'llanilgan. Biroq XII–XIV asrlarga kelib, bu tizim asta-sekin soddalashdi. **Cas sujet** (ega shakli) yo'qolib, uning o'rnini **cas régime** egalladi. Natijada otlarning shakllari qisqarib, ularning faqat ikki xil ko'rinishi qolgan xolos: **mur** (birlik), **murs** (ko'plik).

Shu tariqa **-s qo'shimchasi** ko'plikning asosiy belgisi sifatida mustahkamlanib, o'rta fransuz davridan boshlab yagona norma sifatida shakllandi. Umuman olganda, qadimgi fransuz tilida lotincha deklinatsiya tizimining izlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, o'rta fransuz davrida bu tizim butunlay yo'qoldi. Shundan so'ng fransuz tilida otlarning birlik va ko'plik shakllarini farqlashning yagona vositasi sifatida **-s qo'shimchasi** qoldi. Bu esa zamonaviy fransuz tilining grammatik tizimida hamon amal qiladigan asosiy qoidadir: *Franceis barons en plurent si la pleignent* [8]. (*Les barons francs la pleurent et la plaignent* – Frank baronlari yig'ladilar va unga achindilar). *Li rois a ses chevaliers dist* [7].

Qadimgi turkiy tilda *-lar/-lär* affiksi ko'plik ma'nosidan tashqari yana bir qancha ma'nolarni bildirish uchun qo'llanilgan. Jumladan, mavhum otlarga qo'shilganda, kuchaytirish yoki ta'kidlash ma'nolarini anglatgan.

*Edibler edibi fažillar başı
Güherdin söz aymiş ögün söz bışı
Uğan rāhmet itsün bu sa'at anga
Yarın kopsa bolsun yaranlar işi* [4].

Ushbu baytda *fažillar* so'zi ko'plikni emas, balki fazilatning ulug'ligi, umumlashgan ta'kidlash ma'nosini anglatmoqda. Ya'ni “fazilatlarining boshi” deganda alohida fazilatlar ro'yxati nazarda tutilmagan, balki fazilat tushunchasining eng oliy darajasi ta'kidlangan.

XII–XIII asr qadimgi fransuz tilida esa *-s* qo'shimchasi hech qachon turkiy tillardagi kabi kuchaytirish yoki ta'kidlash vazifasini bajarmagan. U sof **ko'plik** va ayrim hollarda **nominativ** sifatida qo'llangan. Odatda son yoki miqdor ifodalovchi so'zlar otlarga aniqlovchi bo'lib kelganda ko'plik qo'shimchasi ishlatilmaydi. Ammo qadimgi badiiy o'zbek tilida ayrim hollarda *-lar/-lär* qo'shimchasi qo'shilgan va bu esa ko'plik ma'nosiga alohida urg'u berish uchun xizmat qilgan.

Egalik shakllari. Qadimgi va zamonaviy o'zbek tili grammatikasida otlarning egalik qo'shimchalari deyarli bir xil shakllangan bo'lib, bu ikki davr tili faqatgina ushbu affikslarning fonetik jihatlariga ko'ra farq qiladi. Umuman olganda, egalik affikslarini tanlashda ularni qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishi ustuvorlikka ega bo'lib, boshqa tillar, jumladan fransuz tili grammatik qoidalarida bo'lgani kabi unli harf bilan tugagan so'zlarga undosh, aksincha undosh harf bilan tugagan so'zlarga unli bilan boshlangan affiks qo'shiladi. Aniқ emri birle teğer teğgüçi [5]. Ushbu misolda emri so'zi morfologik jihatdan emr ildiz va *-i* 3-shaxs birlik egalik qo'shimchasidan tarkib topgan bo'lib amri, buyrug'i ma'nosini anglatgan. Ushbu misolda ham ko'rinib turibdiki, emr so'zi undosh harf bilan tugaganligi sababli, *-i* egalik affiksi qo'llanilmoqda.

Qadimgi fransuz tilida esa egalik suffiksi mavjud bo'lmagan, ya'ni egalik ma'nosi egalik sifatleri (mon/ma/mes, ton/ta/tes, son/sa/ses, nostre/noz, vostre/voz, lor) orqali belgilanib, zamonaviy fransuz tilida bo'lgani kabi so'zga hech qanday qo'shimcha qo'shilmagan: *Lor oirre ont aprestée nostre françoise gent* [2]. Qadimgi fransuz tili egalik sifatleri kelib chiqish etimologiyasiga yuzlanadigan bo'lsak, xalq lotin tilidagi egalik sifatleri fonetik o'zgarishlarga uchrab, qadimgi fransuz tiliga yonma-yon kelgan ikki unlining talaffuzdagi qiyinligi tufayli, ularning birini, asosan *-e* unli tovushining tushirib qoldirilishi orqali kirib kelgan. Jumladan, *mea* shakli qisqarib *ma* ko'rinishiga, *meum* va *meon* shakllari esa *mon* ko'rinishiga, lotin tilidagi *meus*, keyinchalik *meos* shaklida ishlatilgan egalik sifatleri esa dastlab *mos* shakliga o'zgarib bo'lib, qadimgi fransuz tiliga *mes* shaklida kirib kelgan. Bundan kelib chiqadiki, *tes* va *ses* shakllari ham analogik yo'l bilan hosil bo'lganligi ehtimoli juda yuqori. Biroq Joseph Angladening ta'kidlashicha, ular aslida *tuos*, *suos* shakllaridan kelib chiqib, xalq lotinida *tos*, *sos* ko'rinishiga o'tgan [3], qadimgi fransuz tiliga esa *tes*, *ses* ko'rinishida kirib kelgan. Dastlab *mon*, *ton*, son egalik sifatleri erkak jinsdagi so'zlar uchun qo'llanilgan, keyinchalik esa unli harf bilan boshlangan ayol jinsdagi so'zlar oldidan ham aynan ushbu sifatlardan foydalanilgan: *mon âme*. Bu qoida esa bugungi kungacha yetib kelib, hozirgi fransuz grammatikasida ham o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Fonetika, morfologiya va sintaksis. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
2. Adenet le Roi, Li Romans de Berte aus grans piés. – Bruxelles: Comptoir Universel M.Closson et C^e, 1874.
3. Anglade J. Grammaire élémentaire de l'ancien français. Cinquième édition. – Paris: Librairie Armand Colin, 1934.
4. Edib Ahmed bin Mahmud Yükneci. Atabetü'l-hakayik. Hazirlayan Reşid Rahmeti Arat. 3. baski. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2006.
5. İlhan n. atebetü'l hakayik'ta fiil yüksek lisans tezi. Elazığ, 2013.
6. Nyrop K. Grammaire historique de la langue française. Tome premier. Copenhague: Det Nordiske Forlag, Ernst Bojesen; Leipzig: Otto Harrassowitz. – Paris: Alphonse Picard & Fils, 1899.
7. Rousse M, éd. et trad. Chrétien de Troyes. Erec et Enide. – Paris: GF-Flammarion, 1992.
8. Short Ian, éd. et trad. La Chanson de Roland. 2^e éd. – Paris: Librairie Générale Française, Lettres gothiques, Le Livre de Poche, 1990.

Yusufjon ABDURAZZAKOV,
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXS IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYASINING FRAZEOLOGIZMLARDAGI ROLI (yosh va jins omili asosida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi jarayonida frazeologik birliklarning tutgan o'rnini yosh va jins omillari asosida qiyosiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning shaxsni ijtimoiy jihatdan tasniflash, baholash, stereotiplashtirish hamda muayyan ijtimoiy rollarga joylashtirishdagi funksiyalari yoritib beriladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar shaxsni nafaqat ifodalovchi, balki jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar asosida "qanday bo'lishi kerak" degan modelga moslashtiruvchi muhim diskursiv mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya va gender tadqiqotlari uchun nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: frazeologiya, ijtimoiy identifikatsiya, yosh omili, jins (gender) omili, shaxs konsepti, baholovchi semantika, lingvomadaniyat, sotsiolingvistika, stereotiplash, qiyosiy tilshunoslik.

Annotation. In this article, the role of phraseological units in the process of social identification of a person in the German and Uzbek languages is analyzed from a comparative-theoretical point of view based on age and gender factors. The functions of phraseological units in the social classification, evaluation, stereotyping of a person and placement in certain social roles are highlighted. The results of the analysis show that phraseological units function not only as a representative of the individual, but also as an important discursive mechanism that adapts to the model of "how it should be" based on social norms and values in society. The research results are of theoretical significance for comparative linguistics, phraseology, and gender studies.

Keywords: phraseology, social identification, age factor, gender factor, personality concept, evaluative semantics, linguoculture, sociolinguistics, stereotyping, comparative linguistics.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-теоретический анализ роли фразеологических единиц в процессе социальной идентификации личности в немецком и узбекском языках на основе возрастных и гендерных факторов. Раскрываются функции фразеологизмов в социальной классификации, оценке, стереотипизации и позиционировании личности в определенных социальных ролях. Результаты анализа показывают, что фразеологизмы выступают в качестве важного дискурсивного механизма, который не только выражает личность, но и адаптирует ее к модели «как должно быть» на основе социальных норм и ценностей в обществе. Результаты исследования имеют теоретическое значение для сравнительного языкознания, фразеологии и гендерных исследований.

Ключевые слова: фразеология, социальная идентификация, возрастной фактор, гендерный фактор, концепт личности, оценочная семантика, лингвокультура, социолингвистика, стереотипизация, сопоставительное языкознание.

Zamonaviy gumanitar fanlarda, xususan, tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslikda "identifikatsiya" tushunchasi markaziy o'rinlardan birini egallamoqda. Inson o'zini jamiyatda qanday anglaydi, boshqalar uni qanday baholaydi, u qaysi ijtimoiy guruhlarga mansub sifatida qabul qilinadi – bularning barchasi til orqali shakllanadi va mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ongni tashkil etuvchi va tartibga soluvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [6: 41]. Ayniqsa, frazeologik birliklar bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Chunki frazeologiya xalqning tarixiy tajribasi, kollektiv tafakkuri, stereotiplari va qadriyatlar tizimini o'zida jamlagan barqaror til qatlamidir [2: 28]. Frazeologizmlar orqali jamiyat shaxsni nafaqat tasvirlaydi, balki uni baholaydi, tasniflaydi va muayyan ijtimoiy "rol"ga joylashtiradi; buni frazeologiyaning aksialogik (qadriyatga yo'naltirilgan) tabiatidan kelib chiqib izohlash mumkin [2: 64].

Shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi ko'pincha uning yoshi va jinsi kabi asosiy sotsial belgilari orqali amalga oshiriladi. Har bir madaniyatda "yoshlik", "keksalik", "erkaklik", "ayollik" tushunchalari muayyan me'yorlar va stereotiplar bilan bog'langan bo'lib, bu holat frazeologiyada ayniqsa aniq aks etadi [3: 52]. Masalan, o'zbek tilida "ona suti og'zidan ketmagan" (tajribasiz yosh), "oqsoqol" (hurmatli keksa shaxs), "erkak so'zi – bir so'z" (erkaklik ideali) kabi birliklar; nemis tilida "noch nicht trocken hinter den Ohren" (hali yosh), "ein alter Hase" (tajribali odam), "das schwache Geschlecht" (ayolga stereotip baho) kabi birliklar shaxsni jamiyatdagi o'rniga ko'ra belgilaydi [4: 77]. Mazkur maqolaning maqsadi – nemis va o'zbek tillarida shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasida frazeologik birliklarning rolini yosh va jins omillari asosida kompleks va qiyosiy tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodologik jihatdan frazeologiya nazariyasi, sotsiolingvistika, gender lingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kesishgan nuqtada olib borildi. Nazariy asos sifatida frazeologik tizim va barqaror birliklar haqidagi qarashlar [1: 33], frazeologiyaning baholovchi-aksialogik mohiyati [2: 19], lingvokulturologik yondashuvning prinsiplari [3: 14], nemis frazeologiyasining tipologik tavsiflari [4: 21], konseptlar va madaniy konstantalar masalasi [6: 58] hamda diskurs va ijtimoiy ong munosabati [6: 102] hisobga olindi.

Tavsifiy-analitik metod – birliklarni aniqlash, guruhlash va dastlabki tavsif berish; Qiyosiy-tipologik metod – ikki tildagi universal va milliy-spetsifik modellarni ajratish [4: 45]; Semantik va komponent tahlil – "yosh", "jins", "ijtimoiy rol" komponentlarini ochish [1: 87]; Kognitiv tahlil – frazeologizmlar ortidagi konseptual ssenariylarni aniqlash [6: 70]; Kontekstual-pragmatik tahlil – real nutqda baholash, ta'sir va stereotiplash funksiyalarini ko'rsatish [6: 118].

Frazeologik birliklar ko'pincha "nomlash" (nominatsiya) bilan cheklanmaydi: ular shaxsga nisbatan ijtimoiy baho, kategoriyalash, sinfiy/rolga ajratish va stereotip asosida talqin qilish vazifalarini bajaradi [2: 73]. Bunday birliklar jamiyatning "normal" deb qabul qilingan modellari (masalan, "yetuk kishi", "hali pishmagan", "haqiqiy erkak", "uy bekasi")ni til orqali qayta ishlab chiqaradi [3: 61]. Demak, frazeologiya – bu shaxsni tasvirlovchi til qatlami emas, balki shaxsni "ijtimoiy me'yor" doirasida ko'ruvchi va talqin qiluvchi mexanizmdir [6: 125].

"Yoshlik" – tajribasizlik va "hali tayyor emas" modeli, o'zbek tilida: "ona suti og'zidan ketmagan" (tajribasiz, hali hayot ko'rmagan), "pishib yetilmagan" (qaror va mas'uliyatga tayyor emas), nemis tilida: "noch grün sein" (hali "yashil", ya'ni tajribasiz), "(noch) nicht trocken hinter den Ohren sein" (hali yosh, pishmagan). Bu birliklar shaxsni "ishonch shkalasi"ning

quyi qismiga joylashtiradi: ya'ni jamiyat nazarida bunday shaxs "o'rganishi kerak", "og'ir vazifa olmasligi kerak" degan diskursiv xulosaga olib keladi [6: 132].

"Keksalik" – tajriba, mavqe va legitimlik modeli, o'zbek tilida: "oqsoqol" (hurmat, tajriba, maslahatga loyiq shaxs), nemis tilida: "ein alter Hase" (ko'p ko'rgan, tajribali odam), "nicht mehr der Jüngste sein" (endi yosh emas). Bu birliklar yoshi ulug' shaxsni "ijtimoiy kapital" egasi sifatida ko'rsatadi: tajriba, ishonchlilik, mas'uliyatni ko'tara olish [6: 84]. Muhimi, bu yerda "yosh" biologik fakt sifatida emas, balki ijtimoiy maqom sifatida talqin qilinadi [3: 66].

Erkak obrazining identifikatsiyasi: qat'iyat va mas'uliyat modeli, o'zbek tilida: "erkak so'zi – tosh", "erkak so'zi – bir so'z" (qat'iyat, va'da, mas'uliyat), nemis tilida: "ein Mann ein Wort" (erkak – so'zining ustidan chiqadigan shaxs). Bu birliklar erkakni normativ tarzda "qaror qabul qiluvchi", "mas'uliyat egasi", "ijtimoiy hokimiyat subyekti" sifatida kodlaydi [6: 97]. Ya'ni frazeologiya erkakka nisbatan "qanday bo'lishi kerak" degan ijtimoiy modelni mustahkamlaydi [2: 90].

Ayol obrazining identifikatsiyasi: rolga bog'langan stereotiplar, o'zbek tilida: "uy bekasi" (uy-ro'zg'orga bog'langan ijtimoiy rol), nemis tilida: "das schwache Geschlecht" (ayolni stereotip tarzda "zaif" deb belgilash), "eine Frau am Herd" (ayolning "oshxona" bilan bog'lanishi). Bu birliklarda ayol obrazi ko'pincha: uy va oila bilan bog'langan, hissiy yoki "zaif" deb talqin qilingan, ijtimoiy nazorat ostidagi subyekt sifatida kodlangan holatda uchraydi [3: 73]. Shu ma'noda frazeologizmlar gender stereotiplarni "oddiy haqiqat" sifatida

ko'rsatishi va ularni diskurs orqali qayta ishlab chiqarishi mumkin [6: 140].

Baholovchi va stereotiplashtiruvchi funktsiya. Frazeologiya orqali jamiyat: kim "yetuk", kim "hali tayyor emas", kim "ishonchli", kim "ishonchsiz", kim "mos", kim "mos emas", degan ijtimoiy filtrlashni amalga oshiradi [2: 58]. Bu filtrlash esa tilning baholovchi semantikasi bilan kuchayadi: frazeologizm ko'pincha "oddiy tavsif" emas, balki "baholovchi hukm" vazifasini bajaradi [1: 112]. Natijada frazeologiya ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlovchi va uzatuvchi ijtimoiy xotira mexanizmi sifatida ko'rinadi [6: 63].

Umumiy xulosa qilib aytganda, nemis va o'zbek tillarida frazeologik birliklar shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasida markaziy va tizimli rol o'ynaydi. Ular shaxsni: yoshiga qarab, jinsiga qarab, ijtimoiy mavqeyiga qarab, jamiyat kutishlariga mos yoki mos emasligiga qarab tasniflaydi, baholaydi va ijtimoiy ongda muayyan kategoriya doirasiga joylashtiradi [2: 101].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, frazeologiya shaxsni ifodalash vositasi bo'lish bilan birga, shaxsni ijtimoiy modelga moslashtirish vositasi hamdir [6: 151]. Yoshga oid frazeologizmlar "ijtimoiy ishonch shkalasi"ni chizsa, genderga oid frazeologizmlar "ijtimoiy rol ssenariylari"ni uzatadi: kim rahbar bo'lishi "tabiiy", kimning vazifasi "uy bilan cheklanishi kerak" kabi qarashlar til orqali legitimlashtiriladi [3: 79]. Shu tariqa, frazeologik birliklar nafaqat tilshunoslik obyekti, balki ijtimoiy ong, madaniyat va ideologik stereotiplarni tahlil qilish uchun ham muhim manba ekanini ko'rsatadi [6: 118].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кунин А.В. Курс фразеологии. М., 1996.
2. Телия В.Н. Русская фразеология. М., 1996.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. М., 2001.
4. Burger H. Phraseologie. – Berlin, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent, 1992.
6. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. М.: Языки русской культуры, 1997.
7. Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. Благовещенск, 2004.
8. Волков А.А. Курс русской риторики. М.: Изд-во храма св. Татьяны, 2001.
9. Гак В.Г. Проблемы лексико-грамматической организации предложения. М.: Наука, 1968.

Umriniso PULATOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

YOSHLAR SLENGING FONOPRAGMATIK TABIATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar slenging fonopragmatik tabiati zamonaviy o'zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sleng birliklarida fonetik vositalarning (cho'zilish, urg'u almashinuvi, intonatsion kuchayish, fonetik deformatsiya) pragmatik ma'no hosil qilishdagi roli yoritiladi. Yoshlar nutqida tovushlar orqali emotsionallik, baholovchanlik, ta'sirchanlik va kommunikativ pozitsiyani namoyon etish holatlari kontekstual tahlil asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar slengi, fonopragmatika, pragmatik ma'no, fonetik ekspressivlik, nutq ta'sirchanligi, emotsionallik, kommunikativ kontekst.

Annotation. This article examines the phonopragmatic nature of youth slang from the perspective of modern Uzbek linguistics. The study focuses on the pragmatic functions of phonetic devices such as sound elongation, stress variation, intonational intensification, and phonetic deformation in youth slang expressions. Particular attention is paid to how phonetic form contributes to emotionality, evaluation, expressiveness, and communicative stance in informal youth discourse.

Keywords: youth slang, phonopragmatics, pragmatic meaning, phonetic expressiveness, speech impact, emotionality, communicative context.

Аннотация. В статье рассматривается фонопрагматическая природа молодежного сленга в русле современной узбекской лингвистики. Исследование направлено на выявление прагматического потенциала фонетических средств, таких как растяжение звуков, смещение ударения, интонационное усиление и фонетическая деформация, используемых в молодежной речи. Особое внимание уделяется роли звуковой формы в передаче эмоциональности, оценки, экспрессивности и коммуникативной позиции говорящего.

Ключевые слова: молодежный сленг, фонопрагматика, прагматическое значение, фонетическая экспрессивность, речевое воздействие, эмоциональность, коммуникативный контекст.

Yoshlar slengi bu – tilning yosh avlod tomonidan ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllantirilgan, norasmiy, ekspressiv va ko'pincha metaforik birliklaridan iborat murakkab til hodisasi. U nafaqat so'zlarning o'ziga xos ma'nosi va ifoda vositalari bilan, balki subyektning emotsional, kognitiv va ijtimoiy holatini aks ettirish xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shu sababli, yoshlar slengini o'rganishda lingvopragmatik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvopragmatika tilni kommunikativ va kontekstual vosita sifatida o'rganadi, bunda til birliklari nafaqat ma'no ifodalaydi, balki subyektning kayfiyati, munosabati va ijtimoiy identifikatsiyasini ham namoyon qiladi. Yoshlar slengi esa aynan shunday jihatlari bilan lingvopragmatikaning tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi. Yoshlar slengi tilning ijtimoiy jihatdan belgilangan quyi tizimi bo'lib, u nutq jarayonida muayyan pragmatik vazifalarni bajaradi. Sleng birliklari orqali so'zlovchi o'ziga xos ijtimoiy qarashlarini, munosabatini va bahosini ixcham hamda obrazli shaklda ifodalaydi. Shu bilan birga, sleng nutqda tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, baholash va emotsional munosabatni yetkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiy til birliklari bilan solishtirilganda, sleng birliklari tushunchani noan'anaviy, ko'pincha kinoyal yoki begonalashtirilgan obraz orqali ifodalaydi. Bunda ifodalovchi (so'z shakli) bilan ifodalanmish (ma'no) o'rtasidagi odatiy bog'lanish vaqtincha buziladi [1: 65]. Natijada ma'no bevosita emas, balki bilvosita, assotsiativ tarzda idrok etiladi va bu holat birlikning ekspressivligini kuchaytiradi. Yoshlar slengi pragmatik jihatdan so'zlashuv va oddiy xalqona leksika bilan bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar sleng birliklarining emotsional va baholovchi imkoniyatlarini oshiradi. Fonopragmatika nutqning tovush darajasida yuzaga keladigan pragmatik belgilarni o'rganadi. Yoshlar slengida fonetik soddalashuv, tovush tushishi va qisqarish hodisalari tez-tez uchraydi. Bu holatlar grammatik yoki fonetik xato sifatida emas, balki maqsadli pragmatik tanlov sifatida qaraladi.

Fonetik reduksiya, nutq tezligini oshiradi, norasmiylikni kuchaytiradi, guruh ichidagi "o'zimizniki"lik hissiy mustahkamlaydi [2: 93]. Bu jihatdan fonetik reduksiya yoshlar slengida ijtimoiy identifikator vazifasini bajaradi. Fonopragmatik hodisalar yoshlar slengida individual emotsiyadan tashqari, sotsiolingvistik vazifani ham bajaradi. Bir xil fonetik uslubda gapirish orqali yoshlar:

- muayyan ijtimoiy guruhga mansublikni bildiradi;
- kattalar nutqidan ajralib turadi;
- rasmiy diskursga qarshi norasmiy diskursni shakllantiradi.

Bu jarayonda fonopragmatika yoshlar slengining sotsiolingvistik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki sleng nutqda ma'no ko'pincha leksik birlikning o'zidan emas, balki uning fonetik-realizatsion shakli orqali yuzaga chiqadi. Aynan shu holat fonopragmatikaning yoshlar slengini tadqiq etishdagi metodologik ahamiyatini belgilaydi. Nutq jarayonida fonetik hodisalar pragmatik ma'no hosil qiluvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi: tovush o'zgarishi pragmatik semani yuzaga chiqaradi, intonatsiya nutq aktining illokutiv kuchini belgilaydi, tovush cho'zilishi baholovchi va emotsional munosabatni kuchaytiradi, nutq tezligi kommunikativ dinamika va spontanlikni ifodalaydi, pauza esa ko'pincha yashirin, bilvosita ma'noni shakllantiruvchi vosita vazifasini bajaradi [3: 26–39].

Mazkur fonopragmatik vositalar yoshlar slengida tizimli ravishda faol ishlatiladi. Sleng nutqda aynan tovushning cho'zilishi, urg'u va intonatsiyaning o'zgarishi, nutq tezligining

oshishi yoki pasayishi orqali emotsional-ekspressivlik kuchaytiriladi. Bu holatda sleng birliklari faqat axborot uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki nutq egasining munosabati, bahosi va kommunikativ niyatini ifodalovchi pragmatik signallarga aylanadi. Natijada sleng yordamida emotsiya ochiq yoki bilvosita tarzda namoyon etiladi, suhbatdoshga nisbatan ijtimoiy va psixologik munosabat belgilanadi hamda nutqning samimiylik darajasi oshiriladi. Shu bilan birga, fonopragmatik vositalar yoshlar slengida ijtimoiy masofani belgilovchi muhim mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Bir xil fonetik-uslubiy ifodaning qo'llanishi suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi, rasmiy nutq me'yorlaridan chetga chiqish esa yoshlar muloqotini kattalar diskursidan ajratib turadi. Bu jarayon natijasida sleng nutqda "o'zimizniki"lik tamoyiliga asoslangan kodli muloqot shakllanadi. Mazkur kodli muloqot nafaqat til birliklari, balki ularning fonetik realizatsiyasi orqali ham anglashiladi. Shu jihatdan qaralganda, har qanday sleng gapni oddiy fonetik hodisa sifatida emas, balki fonopragmatik mohiyatga ega bo'lgan nutqiy birlik sifatida talqin qilish lozim. Slengda tovush, intonatsiya, tezlik va pauza semantik jihatdan ikkilamchi bo'lsa-da, pragmatik jihatdan yetakchi o'rin egallaydi. Demak, yoshlar slengi nutqda ma'no ko'pincha "nima aytilgani"dan ko'ra, "qanday aytilgani" orqali shakllanadi. Bu esa fonopragmatik yondashuvni yoshlar slengini sotsiolingvistik va pragmatik jihatdan chuqur tahlil qilishning eng samarali yo'li ekanini ko'rsatadi.

Tovush tushirilishining fonopragmatik mexanizmi va yoshlar slengidagi ko'rinishlari quyidagicha. Yoshlar slengida tovushning tushirilishi (sinkopa) fonetik jarayon emas, balki pragmatik strategiyadir. Tushirilgan tovushlar orqali nutq tezlashadi, rasmiylikdan chiqadi, jamoaviy "kod"ga kiradi, suhbatdoshlik masofasi qisqaradi, ichki samimiyat kuchayadi. Xususan, tovush tarkibidagi o'zgarishlar pragmatik semaning shakllanishiga olib keladi, ya'ni fonetik modifikatsiya natijasida nutq birligi yangi baholovchi yoki munosabat bildiruvchi semantik qatlam kasb etadi. Bu holatda so'zning asl ma'nosi saqlanib qolgan bo'lsa-da, uning kommunikativ vazifasi kengayadi va pragmatik jihatdan kuchayadi. Intonatsiya esa yoshlar slengida nutq aktining illokutiv kuchini belgilovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bir xil leksik tarkibga ega gaplar turli intonatsiyada aytilishi orqali mutlaqo boshqa pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Intonatsiyaning ko'tarilishi norozilik, hayrat yoki e'tirozni ifodalasa, pasayishi kinoya, befarqlik yoki istehzo ma'nolarini shakllantiradi. Demak, yoshlar slengida intonatsiya axborotni uzatishdan ko'ra, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni ifodalashga xizmat qiladi va shu orqali nutq aktining kommunikativ kuchini belgilaydi. Shu jihatdan intonatsiya sleng nutqda semantik emas, balki fonopragmatik dominant sifatida namoyon bo'ladi.

Tovush cho'zilishi ham yoshlar slengida baholovchi va emotsional ma'noni kuchaytiruvchi muhim fonopragmatik vosita hisoblanadi. Cho'zilish orqali nutq egasi ma'lum bir holatga nisbatan o'z hissiy munosabatini ochiq yoki bilvosita tarzda namoyon etadi. Bunda cho'zilgan tovush hayrat, norozilik, zavqlanish yoki masxara kabi emotsional holatlarni kuchaytiradi va nutqqa ekspressivlik bag'ishlaydi. Muhimi shundaki, bu holatda cho'zilish grammatik me'yor buzilishi sifatida emas, balki maqsadli pragmatik tanlov sifatida yuzaga chiqadi. Shu sababli tovush cho'zilishi yoshlar slengida emotsional baholash mexanizmi sifatida barqarorlashgan.

Nutq tezligi ham sleng muloqotida muhim fonopragmatik ahamiyat kasb etadi. Tezkor nutq dinamika, spontanlik va norasmiylikni ifodalaydi, sekinlashgan nutq esa shubha,

ikkilanish yoki yashirin kinoyani bildirishi mumkin. Yoshlar muloqotida nutq tezligining o'zgarishi suhbat jarayonining ichki ritmini belgilaydi va kommunikativ vaziyatga mos ravishda pragmatik ma'no hosil qiladi. Bu jihatdan tezlik fonetik parametr bo'lishiga qaramay, sleng nutqda pragmatik signal vazifasini bajaradi. Pauza esa yoshlar slengida ko'pincha yashirin, bilvosita ma'noni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Pauza orqali aytilmagan ma'no tinglovchi tomonidan kontekst asosida anglanadi va bu holat sleng muloqotining kodli tabiatini yanada kuchaytiradi. Pauza nutqda sukut emas, balki pragmatik jihatdan mazmunli signal sifatida talqin etiladi. Aynan shu orqali yoshlar muloqotida ochiq ifodalanmagan, ammo umumiy tajriba asosida tushuniladigan ma'nolar yuzaga chiqadi. Mazkur fonopragmatik vositalar majmui yoshlar slengida emotsional holatni kuchaytiradi, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni belgilaydi, ijtimoiy masofani aniqlaydi va nutqni samimiylashtiradi. Shu asosda sleng yoshlar orasida "o'zimizniki" tamoyiliga asoslangan kodli muloqotni shakllantiradi. Bu kodli muloqot nafaqat leksik birliklar orqali, balki ularning fonetik realizatsiyasi orqali ham tan olinadi.

Bir xil fonopragmatik uslubda gapirish yoshlarning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini bildiradi va ularni rasmiy diskurs hamda kattalar nutqidan farqlaydi. Shu bois har qanday sleng gapni oddiy fonetik hodisa sifatida emas, balki fonopragmatik mohiyatga ega bo'lgan nutqiy birlik sifatida baholash lozim. Sleng nutqda ma'no "nima aytilgani" bilan emas, balki "qanday aytilgani" bilan belgilanadi. Demak, fonopragmatika yoshlar slengining ichki mexanizmini, uning sotsiolingvistik va pragmatik tabiatini ochib beruvchi asosiy ilmiy yondashuv bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, quyida keltirilgan gapning fonopragmatik tahlilini amalga oshiramiz.

— Sen undan qo'rqmaysanmi?

— Yo'q, qo'rqmayman. Nega qo'rqaman? Faqat unga emas, **luubbboyiga javob**, do'st.

— Ha senga gap yo'q [4].

Mazkur kontekstda muloqot ishtirokchilari o'rtasida kuch, qo'rquv va ijtimoiy ustunlik bilan bog'liq baholovchi kommunikativ vaziyat yuzaga kelgan. Birinchi replikada berilgan savol ("Sen undan qo'rqmaysanmi?") suhbatdoshning ehtimoliy qo'rquvini taxmin qilishga asoslangan bo'lib, u bilvosita tarzda ijtimoiy ustunlikni tan olishni talab qiladi. Ikkinchi replikada esa ushbu taxmin qat'iy inkor qilinadi va inkor nafaqat leksik vositalar orqali, balki fonopragmatik

kuchaytirish yordamida ifodalanadi. "Faqat unga emas, luubbboyiga javob" birikmasida "u" tovushining cho'zib aytilishi markaziy fonopragmatik rolni bajaradi. Bu cho'zish oddiy emotsional kuchaytirish bilan cheklanmay, balki umumlashtiruvchi va absolut bahoni yuzaga chiqaradi [5: 4]. Ya'ni nutq egasi o'zining qo'rqmasigini faqat muayyan shaxsga nisbatan emas, balki har qanday "lubboyi" tipidagi shaxslar toifasiga nisbatan namoyon etadi. Shu tariqa cho'zish orqali "hammasiga javob", "hech kimdan cho'chimayman" degan pragmatik sema shakllanadi.

Fonopragmatik jihatdan qaralganda, u tovushining cho'zishi nutq egasining o'ziga ishonchi va ustunlik pozitsiyasini ta'kidlaydi. Bu cho'zish nutqni sekinlashtiradi va tinglovchi e'tiborini aynan shu birlikka jamlaydi. Natijada *luubbboyi* so'zi oddiy sleng nomi bo'lishdan chiqib, ijtimoiy stereotipni umumlashtiruvchi pragmatik belgiga aylanadi. Nutq egasi o'zini "qo'rqadiganlar" guruhidan ajratib, "hammasiga javob bera oladiganlar" qatlamiga joylashtiradi. Bundan tashqari, gapning umumiy intonatsion konturi ham muhim ahamiyatga ega. Replikaning boshlanish qismi ("Yo'q, qo'rqmayman. Nega qo'rqaman?") tezkor va qat'iy intonatsiyada aytilib, inkor kuchini oshiradi. So'nggi qismda esa intonatsiya biroz pasaygan holda, cho'zilgan talaffuz bilan beriladi. Bu holat nutqning pragmatik ta'sirini kuchaytirib, ishonchli va mutlaq pozitsiyani mustahkamlaydi. Pausasiz, uzluksiz aytilishi esa nutq egasining ichki ikkilanishsiz gapirayotganini ko'rsatadi.

Mazkur kontekstda "javob" leksemi ham fonopragmatik jihatdan muhim. U to'g'ridan-to'g'ri jismoniy qarshilikni emas, balki ijtimoiy va psixologik ustunlik, ya'ni gap bilan, pozitsiya bilan qarshi turish qobiliyatini bildiradi. "Luubbboyiga javob" birikmasi cho'zib aytilishi orqali "faqat himoyalana olaman" emas, balki "har qanday bosimga qarshi turaman" degan keng pragmatik ma'noni yuzaga chiqaradi.

Shu tariqa mazkur gapda fonopragmatik vositalar — tovush cho'zishi, intonatsiya, tezlik va umumlashtiruvchi nominasiyaning birgalikda ishlatilishi natijasida nutq egasining qo'rqmaslik, o'ziga ishonch va ijtimoiy kuch pozitsiyasi shakllanadi. Bu ma'no bevosita aytilmagan bo'lsa-da, fonopragmatik realizatsiya orqali aniq anglashiladi. Umuman olganda shunday xulosa kelib chiqadiki, yoshlar slengi nafaqat leksik, balki fonopragmatik jihatdan ham faol va ta'sirchan hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'qituvchi, 1982.
2. Hamrayev K. Nutqning pragmatik xususiyatlari va ularning badiiy matndagi ifodasi. — Toshkent: Fan, 2018.
3. Hakimov M. O'zbek pragmatolingvistikasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2013.
4. Detiski_mir. <https://t.me/+QTd3vTVWkTRhMmVi>.
5. Pulatova U. O'zbek yoshlari slengining ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, 2025, №1.

Malikaxon AXMADJONOVA,

Andijon davlat universiteti folklorshunoslik va dialektologiya yo'nalishi magistranti

MAHALLIY TURK SHEVALARI TADQIQI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining ajralmas bo'lagiga aylangan milliy turk urug'larining shevasiga doir ma'lumotlar bayon qilingan, ularda o'zbek adabiy tiliga qiyosan solishtirilgan.

Kalit so'zlar: turk, sheva, dialekt, lahja, fonetika, leksika, lingvokulturologiya, dissimilyatsiya, palatal singlarmonizm.

Annotation. The article presents information on the dialects of the national Turkic tribes, which have become an integral part of the Uzbek people, and compares them with the Uzbek literary language.

Keywords: Turkish, dialect, dialect, phonetics, lexis, linguoculturology, dissimilation, palatal synharmonism.

Аннотация. В статье изложены сведения о диалектах национальных тюркских племён, вошедших в состав узбекского народа, а также проведён их сопоставительный анализ с узбекским литературным языком.

Ключевые слова: тюркский, говор, диалект, наречие, фонетика, лексика, лингвокультурология, диссимилиация, палатальный сингармонизм.

Odam-tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir [1]. Darhaqiqat, til bu har millatning qudratini belgilab beruvchi kuchdir. O'zbek tili ham juda boy til. Shevaga xos so'zlarni o'rganish esa milliy o'zligimiz va tilimiz mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishga yordam beruvchi omillar sirasiga kiradi. Bu haqda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev shunday yozadi: "Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham "ona tili" deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda I.A.Karimovning: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasiga bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir" [2], degan so'zlarini eslash o'rinli.

O'zbek xalq shevalari rang-barang xususiyatlarni o'zida ifoda etadi. Ularning xaritalardagi ko'rinishi til o'rganuvchilar uchun tilshunoslik va dialektologik qonuniyatlarni tushuntirishda juda qo'l keladi. Lingvistik xaritalarda ko'rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi talay masalalarni yanada chuqurroq va mukammalroq o'rganish imkonini beradi [4: 9]. Dialektal farqlanish asosan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim hududlarda unli va undosh tovushlarning talaffuzi, fe'l shakllari yoki kundalik so'zlashuvga oid leksik birliklar bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shunga qaramay, bu dialektlar o'zaro umumturkiy asos va umumxalq til birliklari orqali birlashib, o'zbek tilining yaxlid tizimini tashkil etadi. Bilamizki, o'zbek tili dialektlari uch yirik guruhga ajratiladi: qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz. "Qipchoq lahjasi vakillari yurtimizdagi eng ko'p tarqalgan lahjadir. O'zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to'g'ri ekanligiga dalildir. Andijon viloyati Qirg'iziston bilan chegaradosh viloyat bo'lgani uchun, qolaversa, tarixda bu hududda qipchoqlar istiqomat qilgani uchun ham viloyatda qipchoq lahjasi vakillari ko'pchilikni tashkil etadi. Andijonning janubi-sharqiy hududlariga kiruvchi Qo'rg'ontepa, Jalaquduq, Xo'jaobod tumanlarining ko'p qishloqlari qipchoq lahjasida so'zlashadilar" [5: 2,] deya ta'kidlaydi V.Alimbekova.

O'zlarini "turk" deb atovchi, O'zbekistonning ayrim hududlarida keng tarqalgan milliy turk urug'larining gapirish uslubi, fonetikasi, leksikasi boshqa o'zbek shevalaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Avvalo, ularning tili shevami yoki dialect, degan savolga javob izlasak. **Sheva** forscha "ravish", "tarz", "yo'sin" degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. **Dialekt** so'zi greekcha bo'lib, **sheva** degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi [3: 4].

Turk urug'larini O'zbekiston hududida keng tarqalmasdan faqat ayrim tuman va mahallalardagina mavjudligini, etnik jihatdan ularning kelib chiqishi haqida yetarli manbalar mavjud emasligini hisobga olsak, ularning til xususiyatlarini **sheva** deb ataganimiz haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Ushbu milliy turk urug'lari vakillari asosan qo'shni Qirg'iziston va unga chegaradosh hududlar, xususan, vodiya boshqa viloyatlarga qaraganda ko'proq uchraydi. Ularning yashash hududlari: Qirg'iziston respublikasi Aravon tuman; respublikamizda Andijon viloyatidagi Buloqboshi tumaniga qarashli Shirmonbuloq va Kulla MFY; Xo'jaobod tumaniga qarashli Sharqyulduz, Sharq, Jonto'ra, Sho'rsabho'z, Gulobod, Mirzaka, Sohobqiron, Gagarin, G'alaba, Chaqar, Go'shtemas, Uchtepa,

To'rtko'cha, Uzumzor, Sohobqiron, Boymahalla ko'chalari; Asaka tumaniga qarashli Mehnatobod va Niyozbotir MFYlar, Qo'rg'ontepa tumani va Farg'ona viloyatining ayrim hududlari hisoblanadi.

O'zbek tili dialektlari uch yirik guruhga ajratilishi haqida yuqorida aytib o'tdik: Qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz. Milliy turk shevasi asosan qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi tarkibiga kiradi va uning qonuniyatlarini o'zida saqlaydi. Ularning fonetikasida yuqoridagi kabi ba'zi jihatlar mavjudki, bu milliy turk shevasining boshqa shevalardan ajratib turuvchi belgisi hisoblanadi. Misol uchun, "-*h*" affiksi ham qaratqich, ham tushum kelishigi ma'nolarini ifoda etadi. Qaratqich-tushum affiksidadagi *n/d/t* tovushlarining almashinishi bilan xarakterlanadigan shevalarga Andijon, Marg'ilon, Qo'qon guruh shevalari kiradi" [6: 92] – deydi N.Murotova. Masalan: *Ovqatingd^h yedingmi?*, *Bugun apamdikida qolaman*.

Turk urug'idan bo'lmagan Andijon aholisi esa bunday so'zlar tarkibidagi *ng* tovushini tashlab keta qoladi. Bu holatda *h* unlisi o'zining cho'ziqroq varianti *h* ga almashadi: *ovqatingd^h yedingmi?* Ushbu farqlanish Professor V.V.Rashetovning tasnifiga ko'ra qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Farg'ona guruhiga mansub. *Qo'ymoq* fe'li yordamida tuzilgan ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi tarkibidagi *q* chuqur til orqa tovushi o'zidan oldingi so'zning oxirgi harfi ta'sirida *p* lab-lab undoshiga aylanib ketishi kuzatiladi. Masalan: *1. Bugun uy vazifalarimni ertaroq yoziq qo'ydim* (ayrim o'rinlarda *yoziqqo'ydim*). *2. Ukangni bog'chadan opkeqqo'y* (*opkeppoy*) Bu hodisa tilshunoslikda **dissimilyatsiya** deb ataladi.

Ushbu urug' vakillari shevasida singarmonizm hodisasining palatal singarmonizm turi ko'p uchraydi. "Shunday qilib, **palatal singarmonizm**da so'zning hamma morfemalaridagi unlilar, ya'ni so'zning o'zagidagi morfemalar hamda affiksidadagi unlilar ohangdoshlashib moslashgan bo'ladi" [7: 45] va adabiy tildagi *i* va *e* tovushlari *h* unlisining qisqa talaffuz qilnadigan varianti, orqa qator, yuqori tor *h* va old qator, o'rta-keng, lablanmagan *e* ga almashadi. Masalan, *bilmayman* – *b^hilmeman*, *qilmayman* – *q^hmeman*. Ikki – *ekki*, *anavini* – *ononi*, *ano'ni* so'zlari ham palatal singarmonizm hodisasi asosida o'zgartirildi.

Milliy turk shevasi leksikasida ham ajoyib so'zlar borki, ular bu shevaning jozibadorligini ta'minlaydi. Ayniqsa qarindosh-urug'chilik terminlarida:

1. Buvi ya'ni ota-onaning onasini ular *opa*, *apa*, *kattaopa*, *katapa*, *ena* so'zlari bilan ifodalashadi.

2. Opa so'zining *apa*, *apcha*, *opacha*, *apacha* variantlari bor.

3. Amakilarini barcha turklar *ova* deb ataydilar.

Quyida bulardan tashqari bir necha so'zlarning o'ziga xos farqlanishlarni ko'rib chiqamiz:

1. Non botirmoq – *non cho'mmoq*. Masalan, Shakarchoqga non chomib beraman, kel bolam

2. Qurug'choyning sifatsizroq va arzonroq turini *o'salchoy* deytilar.

3. Rezinadan tayyorlangan shippak ya'ni tapochkani *gadoy tapochka* (*gaday tapichka*) deb atashadi. Bunga sabab bu turdagi shippaklar xalq orasida qadrlanmaydi va arzon baxolanadi.

4. Burun ichida qotib qolgan suyuqlik – manqani *tataq* deytilar

5. Montiqasqonning tag qismi *qopqonqasqon* yoki *tuynuk* deb atalgan. Lekin bu termin bora-bora o'z mohiyatini yo'qotmoqda. Faqatgina katta yoshdagi bobo va buvilar leksikasida mavjud.

6. Yosh bolalarni erkalatish va koyish maqsadida *g'alcha* so'zi ishlatiladi. Bu qattiq koyish ham, to'la erkalatish ham emas. Huddi adabiy tildagi jinnivoy so'zi kabi.

Fonetika va leksikasidagi o'ziga xosliklardan tashqari milliy turk shevasida ajoyib xususiyat bor. Bu turk urug'i tilidagi va xarakteridagi biroz qo'pollik va dag'allikdir. Andijon, xususan, Xo'jaobod aholisidan farqli o'laroq bu sheva vakillari qizlari, qo'ni-qo'shnilar va boshqa yaqinlarini hattoki, kelinlarini sensirab gapiradilar. O'zbek xalqi orasida yoshidan qat'i nazar ko'pchilik bilan suhbat qurayotganda, ularga buyruq berayotganda hurmat yuzasidan sizlab gapirish odat tusiga kirgan ammo turk urug'lari to'g'risida bunday deyish qiyin. Ular

bunday holatlarda ham sensirab murojaat etadilar: *qillaring, bo'llaring* kabi. Adabiy tilda bu hol jaxldorlik yoki qo'pollikni anglatrsa, bu sheva vakillari uchun oddiy holdir.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy turk shevalarini tadqiq etish Andijon dialektal zonasida tarqalgan qarluq-chigiluyg'ur lahjasini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Umuman olganda, bu sheva Andijon shevasiga juda yaqin, lekin yuqoridagi kabi o'ziga xosliklari va biroz dag'alligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar. <https://n.ziyouz.com>.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2013.
4. Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2019.
5. Alimbekova V. Dialektologiya sohasida Andijon shevalarining o'rganilishi. // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019.
6. Murodova N. "Areal lingvistika" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi. https://uzsmart.uz/library/view/113390.html?utm_source=chatgpt.com.
7. Habibullaeva N. Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi // Образование, наука и инновационные идеи в мире, №24.

Saidvali QORIYEV

ZAMONAVIY MENEJMENT USULLARI VA TAMOYILLARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy menejment usullari va tamoyillarining mazmuni hamda ularning korxonalarini samarali boshqarishdagi o'rni yoritilgan. Iqtisodiy, ma'muriy va ijtimoiy-psixologik boshqaruv usullari tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Zamonaviy menejmentning moslashuvchanlik, innovatsion yondashuv va inson resurslarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xususiyatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: zamonaviy menejment, boshqaruv usullari, boshqaruv tamoyillari, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy usullar, ma'muriy usullar, ijtimoiy-psixologik usullar, motivatsiya, inson resurslari, raqamlashtirish.

Annotation. The article examines the essence of modern management methods and principles in a market economy and their role in ensuring effective enterprise management. Economic, administrative, and socio-psychological management methods are analyzed, and their practical significance is highlighted. The key features of modern management, including flexibility, an innovative approach, and a focus on human resource development, are substantiated.

Keywords: modern management, management methods, management principles, market economy, economic methods, administrative methods, socio-psychological methods, motivation, human resources, digitalization.

Аннотация. В статье раскрывается сущность современных методов и принципов менеджмента в условиях рыночной экономики и их роль в эффективном управлении предприятиями. Проанализированы экономические, административные и социально-психологические методы управления, а также показано их практическое значение. Обоснованы такие характеристики современного менеджмента, как гибкость, инновационный подход и ориентация на развитие человеческих ресурсов.


Ключевые слова: современный менеджмент, методы управления, принципы управления, рыночная экономика, экономические методы, административные методы, социально-психологические методы, мотивация, человеческие ресурсы, цифровизация.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarini samarali boshqarish zamonaviy menejment usullari va tamoyillaridan oqilona foydalanishni talab etadi. Global raqobat, raqamlashtirish, bozor ehtiyojlarining tez o'zgarishi menejerlardan fleksibil yondashuv, oqilona qarorlar qabul qilish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini qo'llashni talab qiladi. Zamonaviy menejment tizimi an'anaviy boshqaruvdan farqli ravishda jarayonlarni optimallashtirish, inson omili va texnologiyalar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan.

Akademik S.S.Gulomovning fikriga ko'ra, menejment o'zini egiluvchan va uddaburon boshqaruv tizimi deb biladi va o'z vaqgida qayta tuzilish, bozor konyukturasi, hamda raqobat kurashini, ijtimoiy taraqqiyot omilini ziyraklik bilan seza olish qobiliyatiga ega. Bunda inson harakatlarini tayyorlash, tashkil qilish va to'g'ri yo'lga solish haqidagi san'at mujassamdir [1].

Iqtisodchi olim S.N.Voropayevning fikriga ko'ra "menejment bu – cheklangan resurslar sharoitida, berilgan maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy tizimlar faoliyatini tashkil etish ilmidir" [6]. E.S.Lovkov fikriga ko'ra, "Menejment usullari bu – tashkilot missiyasini bajarish va uning maqsadlariga erishish maqsadida jamoaga umuman, hamda xodimlarga alohida ta'sir ko'rsatish usullari va uslublari majmuasidir [3]".

"Boshqaruv tamoyillari – obyektiv iqtisodiy qonunlardan kelib chiqadigan asosiy qoidalar bo'lib, ular boshqaruv subyektlari tomonidan muayyan obyektlar va odamlarni boshqarish jarayonida qo'llanilishi lozim [5]". Shuningdek, E.A. Ivanov va T.A. Flyagin so'zlariga ko'ra: "Tajribali menejer turli vaziyatlarda tashkilotga ta'sir ko'rsatishning turli usullarini qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak". Ta'sir ko'rsatishning va menejmentning asosiy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:



1-rasm. Boshqaruv ta'sirining usullari [2]

Boshqaruv usullari boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatishning yakuniy jarayonini tavsiflaydi. Faqat muayyan vazifalar boshqaruv jarayoni metodlari yordamida bajariladi. Shuningdek, bevosita (to'g'ridan to'g'ri) va bilvosita ta'sir, rasmiy va norasmiy usullar ajratiladi. To'g'ridan to'g'ri ta'sir usullaridan foydalanilganda ta'sirning bevosita natijasiga erishish ko'zda tutiladi; instrumental ta'sir metodlari yordamida yuqori natijalarga erishish uchun sharoit yaratiladi. Rasmiy va norasmiy usullar nisbatlari boshqaruv uslubining o'ziga xos belgilarini aks ettiradi. Boshqaruv usullari tizimida umumiy usullar ajratiladi. Ularga an'anaviy tarzda iqtisodiy, ma'muriy (ba'zan tashkiliy deb ham ataladi) va ijtimoiy-psixologik usullar kiradi.

Iqtisodiy boshqaruv usullari boshqaruv obyektining iqtisodiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatish usullaridan iborat bo'lib, iqtisodiy qonunlar talablaridan ong'li ravishda foydalanishga asoslanadi. Bu metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: respublika, viloyat, tuman darajasidagi boshqaruv organlari tomonidan qo'llaniladigan usullar; tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan usullar.

Birinchi guruhga mamlakat va hududning soliq tizimlari hamda kredit-moliya mexanizmlari, ya'ni korxonaning tashqi muhitidagi iqtisodiy omillar kiradi. Ikkinchi guruh quyidagilardan iborat: xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimlari; ish sifati va samaradorligi uchun javobgarlik tizimlari; tashkilot faoliyatining iqtisodiy me'yorlari (moliyalashtirish va mehnat unumdorligi, mahsulot turlari bo'yicha rentabellik me'yorlari). Bu me'yorlar marketing tadqiqotlari, mahsulot sifati asosiy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish darajasi, shu jumladan biznes reja tahlili asosida ishlab chiqiladi. Boshqaruvning muhim iqtisodiy usullaridan biri xodimlarni motivatsiya qilish bo'lib, u har bir xodimning ish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Motivatsiya shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish uchun turli rag'batlantirish va muvofiqlashtirish vositalari orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy rag'batlantirish shakllariga quyidagilar kiradi: mehnat miqdori va sifatiga muvofiq mehnatga haq to'lash tizimini shakllantirish; mukofotlar, qo'shimcha mukofotlar, asosiy tarif stavkasiga ustamalar ko'rinishidagi rag'batlar; xodimning tashkilot foydasini taqsimlashda ishtirok etishi; xodimga turli imtiyoz va yengilliklar berish, jumladan pensiya jamg'armasi shakllantirish, xavfsizlikni ta'minlash, transport xizmatlari

ko'rsatish, uy-joy ijarasiga ko'maklashish va bolalar muassasalari bilan ta'minlash, o'quv to'lovlari to'lashda yengilliklar berish, malaka oshirish, xodim va uning oilasining dam olishini tashkil etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni imtiyozli narxlarda sotib olish imkoniyatlarini yaratish; xodimga imtiyozli kredit berish; xodimlarning hayotini imtiyozli sug'urtalash va boshqalar. Yuqorida sanab o'tilgan rag'batlantirish shakllaridan tashqari, jazo va ogohlantirish tizimi, imtiyozlarni qisqartirish yoki butunlay olib tashlash ham qo'llanilishi mumkin.

Ma'muriy usullarga quyidagilar kiradi: mamlakat va hudud qonun hujjatlari tizimi; tashkilotning normativ-metodik (majburiy qo'llanilishi zarur) hujjatlari tizimi; operativ boshqaruv tizimi (davlat boshqaruvi). Mamlakat va alohida hudud qonun hujjatlari tizimi qonunlar, qarorlar, normativlar, standartlar, nizomlar va boshqa hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ular respublika va hududiy organlar tomonidan tasdiqlanib, muayyan hududlarda majburiy qo'llaniladi. Ularning tartibi, tuzilmasi va mazmuni belgilanishida boshqaruvning ilmiy, nazariy va amaliy jihatlari hisobga olinishi lozim.

Tashkilotning normativ-metodik hujjatlari tizimiga quyidagilar kiradi: standartlar, metodikalar, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, rahbariyat tomonidan tasdiqlangan buyrug'lar, farmoyishlar va ko'rsatmalar. Bu hujjatlar barcha boshqaruv tizimlari tuzilmasi, mazmuni va o'zaro aloqasini aniq tartibga solishi kerak. Ijtimoiy-psixologik metodlar quyidagi boshqaruv maqsadlariga yo'naltiriladi: jamoada ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qo'llab-quvvatlash; xodimlarning sog'ligi va ruhiy-moral muhitini ta'minlash; qonun va normativ hujjat talablariga rioya qilish. Ijtimoiy-psixologik boshqaruv obyektlari: xodimlarning shaxsiy, psixologik va psixofiziologik xususiyatlari; ish va ish joylarini tashkil etish usullari; kadrlarni tanlash, joylashtirish, o'qitish va qayta tayyorlash tizimi; axborot taqdimoti va uning ishlatilishi; xodimlarni rag'batlantirish tizimi; jamoada ruhiy-moral muhit; xodimlarning ijtimoiy-maishiy sharoitlari.

Zamonaviy menejment usullari va tamoyillari boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va korxonalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish, moslashuvchanlik, inson resurslarini rivojlantirish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish bugungi boshqaruv tizimining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Korxonalar ushbu usul va tamoyillardan kompleks tarzda foydalanganda bozor raqobatida ustunlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S. Menajment asoslari. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2002. – 240 b.
2. Иванова Е., Флягина Т. Основы менеджмента: уч.пос. для студентов бакалавриата. М.: РУТ (МИИТ), 2020.
3. Ловкова Е. Основы менеджмента: уч.пос. Владимир: Изд-во ВлГУ, 2020.
4. Углинская В. Менеджмент: уч.пос. для студентов очной и заочной форм обучения. Рубцовск, 2017.
5. Удалов Ф., Алёхина О., Гапонова О. Основы менеджмента: уч.пос. Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госун-та, 2013.
6. Воропаев С. Менеджмент: уч.пос. М.: Колосс, 2017.

Sohiba RAIMQULOVA,

Termiz shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
ma'naviy va mariffy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari,
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

IJODKOR BADIY-ESTETIK KONSEPSIYASI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijodkor shaxsining badiiy-estetik konsepsiyasi va uni shakllantiruvchi omillar masalasi zamonaviy o'zbek adabiy jarayoni kontekstida tahlil qilinadi. Badiiy asarning estetik mohiyati, muallif shaxsiyati, dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy tamoyillarining hikoya janrida namoyon bo'lish shakllari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy-estetik konsepsiya, ijodkor shaxsiyati, estetik tafakkur, zamonaviy o'zbek adabiyoti.

Annotation. This article analyzes the artistic-aesthetic concept of creative personality and its forming factors in the context of modern Uzbek literary process. The aesthetic essence of a literary work, the author's personality, their worldview, and the forms of manifestation of spiritual and moral principles in the short story genre are illuminated from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: artistic and aesthetic concept, creative personality, aesthetic thinking, contemporary Uzbek literature.

Аннотация. В данной статье анализируется художественно-эстетическая концепция творческой личности и её формирующие факторы в контексте современного узбекского литературного процесса. Эстетическая сущность художественного произведения, личность автора, его мировоззрение и формы проявления духовно-нравственных принципов в жанре рассказа освещаются с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: художественно-эстетическая концепция, личность творца, эстетическое мышление, современная узбекская литература.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarni faqat voqea-hodisalar bayoni yoki shakliy qurilish nuqtayi nazaridan tahlil qilish yetarli emasligi tobora ravshanlashib bormoqda. Bugungi ilmiy yondashuv badiiy matnni muallif shaxsiyati, uning estetik ideali, dunyoqarashi va ijodiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Chunki badiiy asar, bu nafaqat tasvirlangan voqelik, balki ijodkorning borliqni idrok etish usuli, ma'naviy-axloqiy qarashlari va estetik mezonlarining badiiy ifodasidir. Shu ma'noda, har bir badiiy matn muallif shaxsiyatining estetik konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ma'naviy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy matnning estetik tabiatini belgilovchi asosiy omillardan biri – ijodkor shaxsining badiiy tafakkuridir. Ijodkorning dunyoqarashi, hayotga munosabati, ijtimoiy voqelikka bergan bahosi hamda estetik ideali asar mazmuni, syujeti, obrazlar tizimi va badiiy konflikt tabiatida o'z aksini topadi. O'quvchi badiiy asarni mutolaa qilish jarayonida faqat voqealar rivojini kuzatibgina qolmay, balki muallifning ichki ruhiy olami, kechinmalari va estetik pozitsiyasi bilan ham yuzlashadi. Shu bois badiiy asar tahlilida muallif shaxsiyati va uning estetik qarashlarini inobatga olmasdan turib, asarning g'oyaviy-badiiy mohiyatini to'liq anglash mushkuldir.

Adabiy jarayon tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir davr adabiyoti o'sha davr ijodkorlarining estetik ideallari va ijtimoiy-ma'naviy qarashlari bilan belgilangani ayon bo'ladi. Qadimiy va mumtoz adabiyot namunalaridan tortib, zamonaviy adabiy asarlarga bo'lgan keng adabiy makonda ijodkor shaxsining estetik konsepsiyasi yetakchi omil sifatida namoyon bo'lib kelgan. Har bir tarixiy bosqichda ijodkor o'z zamonasining ruhini, muhit muammolarini va insoniy kechinmalarini individual badiiy tafakkur asosida qayta talqin


etgan. Shu jihatdan qaraganda, hikoyachilik an'anasi ham faqat janr xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik pozitsiyasi bilan belgilanadigan murakkab badiiy hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, hikoya janrida ijodkor shaxsiyatining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ixcham shaklga ega bo'lgan bu janrda muallif estetik g'oyani qisqa, ammo chuqur mazmunli badiiy vositalar orqali ifodalashga majbur bo'ladi. Shu sababli hikoyada har bir detal, har bir obraz va badiiy ishora muallifning estetik tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Hikoyachilikda muallif shaxsining ma'naviy-axloqiy tamoyillari, hayotga munosabati va estetik qarashlari yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda hikoyachilik an'anasini tahlil qilishda **ijodkor badiiy-estetik konsepsiyasi** metodologik asos sifatida tanlandi. Chunki adabiy-estetik konsepsiya ijodkor tafakkurining ichki mexanizmlarini, uning badiiy olamni anglash usullarini va estetik idealini aniqlash imkonini beradi. Ijodkorning adabiy-estetik qarashlari esa tarixiy-madaniy muhit, ijtimoiy omillar, ijodiy erkinlik va individual badiiy tajriba bilan uzviy aloqada shakllanadi. Shu bois mazkur omillarni birgalikda tahlil qilish zamonaviy o'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkur taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Maqodan ko'zlangan asosiy maqsad ijodkor shaxsining badiiy-estetik konsepsiyasini shakllantiruvchi omillarni aniqlash, ularning zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi ifodasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda adabiy jarayonda shaxs omilining estetik ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

Badiiy matnning estetik ta'sir kuchi, avvalo, uning ichki poetik tizimi va obrazlar olami bilan belgilanadi. O'quvchi badiiy asarni mutolaa jarayonida nafaqat voqealar rivojini kuzatadi, balki unda mujassam bo'lgan obrazlarning ichki ruhiy holati, qismati va ma'naviy iztiroblari bilan ham bevosita

yuzlashadi. Shu jarayonda matnning har bir jumlasini, har bir semantik qatlamida uni kashf etgan ijodkor hikoyachining shaxsiyati, dunyoqarashi, e'tiqodiy qarashlari, estetik ideali va hayotga munosabati aks etib boradi. Badiiy nutqning bunday xususiyati adabiy asarni oddiy axborot vositasidan farqlab, uni muallif ruhiyati va tafakkurining estetik ifodasi darajasiga ko'taradi. Mazkur holat faqat zamonaviy adabiyot namunalari xos bo'lmay, balki qadimiy va klassik adabiy matnlarda ham izchil kuzatiladi. Har bir tarixiy davrda yaratilgan hikoya va rivoyatlar muallif yashagan ijtimoiy-madaniy muhit, axloqiy me'yorlar va estetik qarashlarning badiiy in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois hikoyachilik fenomenini tahlil qilishda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi muhim metodologik omil hisoblanadi.

Hikoya janriga mansub asarlarda kuzatiladigan mushtarak uyg'unlik, avvalo, hikoyanavis shaxsiyatining ma'naviy-axloqiy tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, hayotga muhabbat, insoniylik g'oyalari sadoqat, imon va e'tiqodda sobitqadamlik, adolat va haqiqat tantanasi uchun intilish kabi fazilatlar hikoyachining individual badiiy tafakkurini belgilovchi yetakchi mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlar hikoya syujeti, obrazlar tizimi va konflikt tabiatida o'zining badiiy ifodasini topib, asarning umumiy g'oyaviy-estetik yo'nalishini belgilaydi. Shu ma'noda, hikoya janri nafaqat badiiy voqelikni ixcham va ta'sirchan shaklda aks ettiruvchi adabiy shakl, balki ijodkor shaxsiyatining ma'naviy-estetik qiyofasini ochib beruvchi muhim adabiy fenomen sifatida ham baholanishi lozim.



1-rasm. Ijodkor badiiy-estetik konsepsiyasi modeli

Taniqli adib Nazar Eshonqul estetik qarashlarini yozuvchi Sh.Xolmirzayev bilan kechgan suhbat orqali shunday namoyon qiladi: "Biz birinchi uchrashuvdayoq, 1989-yili bo'lsa kerak, juda oddiy gaplashganmiz. Shukur aka Yozuvchilar uyushmasida uchratib qolib: "Maymun yetaklagan odam"ni siz yozdingizmi? – dedi. Men bosh irg'adim. "Hmm... Shunday yozsa ham bo'larkan", – dedi. Bu bilan hikoya yoqdimi, yoqmadimi yo menga tanbeh berdimi, bilolmadim. Burgutqarash qilib, xuddi mening ichimdagini ham o'qib olmoqchidek sal dimog' bilan tikildi. Mendan o'sha davrga xos bo'lgan, o'zining tili bilan aytganda, "adabiy bodilik"ni izladi. Keyin: "Men juda ham sodda qilib yozardim. Aylantirib o'tmasdim. Bu choli tushmagur ko'p qirg'inlar qilgan. Xalqni qirgan, endi shumshayib o'tiribdi. O'g'lidani kaltak yeb yotibdi, xor bo'lib, nima uchun kurashdi,

shu o'g'lidani kaltak yeyish uchunmidi deb yozardim", - dedi. O'shanda kutganimdek nasihat ham qilmadi, tanqidiy fikrlarini ham aytmadi, boshqa bunday yozmang, menga o'xshab yozing demadi, faqat o'zining qanday qilib yozishi mumkinligini ta'kidladi. Men o'sha paytga qadar Shukur aka haqida boshqacha fikrda edim. Negadir menga qo'rs, manman, kibrli bo'lib ko'rinardi" [5]. Adib fikrida davom etib, yana shunday yozadi: "O'shanda Shukur akamning ijod masalasida birovga hech qachon o'zining fikrini majburlashga urinmaganini, aksi, har bir narsada o'zining fikriga ega bo'lishini sezdim.... Korrente haqida gaplashganda Shukur aka bu yozuvchilarning nomini tushunmasdi, ular dunyosidan yiroq ham emasdi. Faqat bu nomlar ostida adabiy bodilik qiladiganlarni yoqtirmasdi. Tildagi zaharxandalik, qo'rslik – hammasi ijod qilayotganing

iste'dod injiklari, o'zidan qoniqmasligi oqibatida paydo bo'lgan kechinmalar edi. Ammo adabiyotda biron iste'dodni sezsa, garchi o'zini xuddi bexabardek tutsa ham, lekin ichida o'sha yozuvchiga bo'lgan hurmatini saqlab yurar; bir kuni bu munosabatini "gullab" qo'yardi" [5]. Ijodkor tafakkurining mohiyati va uning badiiy olamni anglash yo'li, avvalo, qiyosiy tahlil jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, ijodiy ong o'zini nafaqat mavjud estetik an'analar doirasida, balki ularga qarshi yoki ular bilan munosabatda shakllantiradi. Shu bois adabiy jarayonda avangard yo'nalish vakillarining zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Ular nafaqat mavjud badiiy me'yorlarni qayta ko'rib chiqadi, balki yangi estetik mezonlar va ifoda usullarini joriy etish orqali adabiyotning rivojlanish tendensiyasini belgilab beradi. Mazkur jarayonda ijod falsafasi va ijod jarayoniga doir qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor bilan kechadigan adabiy-madaniy muloqot yoki suhbatlar, bir tomondan, individual badiiy tafakkurning shakllanish bosqichlarini yoritib bersa, ikkinchi tomondan, muallifning borliqni idrok etish usuli, estetik ideali hamda san'atning jamiyatdagi o'rni haqidagi konseptual qarashlarini ochib beradi. Bunday suhbatlar ijodkor shaxsiyati va uning asarlari o'rtasidagi ichki aloqadorlikni aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Sobiq sho'ro davrining mafkuraviy bosimi va qat'iy ideologik shart-sharoitlaridan xalos bo'lgan o'zbek zamonaviy adabiyoti yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Adabiyot endilikda jamoatchilik fikrini shakllantirish yoki inson qalbini ma'lum g'oyalar ruhida "tarbiyalash" vositasi sifatidagi biryozlama vazifadan voz kechib, badiiy tafakkurning erkin, ko'pqatlamli va polifonik shakliga aylandi. Natijada o'zbek adabiyoti murakkab struktura va o'ziga xos poetik tizimga ega bo'lgan, mazmun va shakl jihatidan keng ko'lamli badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Shu tariqa, zamonaviy o'zbek

adabiyotida ijod erkinligi, individual badiiy tajriba va estetik izlanishlar ustuvor tamoyilga aylanishi natijasida adabiy jarayon sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu holat adabiyotning nafaqat ijtimoiy-ma'rifiy, balki falsafiy-estetik mohiyatini ham chuqurlashtirib, uni zamonaviy madaniy tafakkurning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Chunki ikki hikoyanavisning fikri ijod falsafasini chuqurroq anglashga qo'l keladi: "Shukur Xolmirzayev maktabida esa hayotni, muhitni fosh qilishdan ko'ra insonning shu muhitda tutgan o'rni va og'rig'ini ko'rsatish muhim o'rin tutadi. Muhit o'zining barcha kirdikorlarini, butun fojiasini inson ko'ngliga qamab tashlagan, inson ko'ngli shu muhitning aksidir. Kimki muhitning o'zini aks ettirishga kirishsa, jimjimalarga aldanib qoladi, muhitning tasvirchisiga aylanadi. Inson ko'nglidagi dardni topolgan odam muhitni fosh qilgan odamdur. Chunki har qanday muhit o'zini inson ko'nglida fosh qilib qo'yadi" [5].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek hikoyachiligida milliy an'analarning zamonaviy estetik izlanishlar bilan uyg'unlashuvi barqaror qonuniyatga aylanganini ko'rsatadi. Mumtoz adabiy meros, xalq ruhiyati va tarixiy xotira ijodkor tafakkurida yangicha estetik shakllar orqali qayta talqin qilinmoqda. Bu holat adabiy jarayonning uzluksiz evolyutsion rivojlanishini ta'minlab, hikoya janrining mazmun va shakl jihatidan boyishiga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, hikoya janri zamonaviy ijtimoiy, ruhiy va falsafiy muammolarni ixcham, ammo ta'sirchan badiiy shaklda ifodalovchi yetakchi janr sifatida o'z mavqegini mustahkamlab bormoqda. Ijodkor badiiy-estetik konsepsiyasining nazariy asoslarini aniqlash, uni shakllantiruvchi omillarni tizimlashtirish hamda zamonaviy o'zbek hikoyachiligi misolida badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini ochib berish bugungi kun adabiy jarayonda juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2004.
3. Isomiddinov Z. Abdulla Qahhorning "Kartina" hikoyasi va "Maftuningman" kinokartinasini va konfliktlilik nazariyasi // Sharq yulduzi, 2013, №2.
4. Odilov Sh. Keyingi yillar o'zbek hikoyalarida zamondoshimiz obrazi (70–80 yillar): Filol. fan. nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 1989.

Bobir NEGMATOV,

*Sarvon universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori,
falsafa fanlari doktori*

FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. Maqolada Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya, ilm-fan to'g'risidagi qarashlari chuqur tahlil qilingan hamda ularni bugungi kunda jaholatga qarshi kurashda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: inson, komil inson, barkamol avlod, ta'lim, tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, xulq-atvor, ma'naviy-xalqiy sifatlar.

Annotation. The article deeply analyzes the views of the great oriental thinker Al-Farabi on education and science, and highlights their role as a key factor in the fight against ignorance today.

Keywords: human, perfect person, perfect generation, education, upbringing, science, profession, educator, educated, behavior, spiritual and moral qualities.

Аннотация. В статье проводится углубленный анализ взглядов великого восточного мыслителя Аль-Фараби на образование и науку, а также подчеркивается их роль как ключевой фактор в борьбе с невежеством в наши дни.

Ключевые слова: человек, гармоничная личность, гармонично-развитое поколение, образование, воспитание, наука, профессия, педагог, образованный, поведение, духовно-нравственные качества.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limning ilg'or tajribalarini chuqur egallash, chinakam vatanparvar va yuksak tarbiya egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning bu boradagi ulkan merosini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan sanaladi.

Sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim berish – o'quvchiga o'qish, o'rganish asosida ilm, nazariy bilim berishdir. Tarbiya berish esa yoshlarga ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan

xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir. Alloma o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida ta'lim berish oddiydan murakkabga qadar borishi lozimligini ko'rsatadi: "Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirishdan iborat. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Nazariy bilimlarni yo ustozlar, yo hukumatlar o'rgatadilar. Nazariy bilimlarni bilish avvalo, nazariy bilimlar jinsidan bo'lgan yolg'iz bir jins haqidagi avvalgi muqaddima va avvalgi ma'lumotni bilish va tanish, ikkinchisi esa yuqorida aytib o'tilgan hollar va kategoriyalar, ya'ni mavjudot turlari va fazilatlarini tartibli ravishda bilib borishdan iboratdir.

Yoshlar yuqorida sanab o'tilgan narsalar: kasb-hunar, ish-tajriba, qasd va g'ayratga ega bo'lganlari va shu narsalarni o'z vujudlarida singdirganlaridan so'ng, ularni asta-sekin egallashda yuqorilay boradilar hamda yuqorida aytib o'tilgan fazilatlarini aniqlab borib, nazariy bilimlarning hammasida mantiqiy fikrlash yo'lini ishlatishga odatlanadilar. Shu tartibda bolalarga o'rgatish yo'li bilan ular to kamolga yetguncha hamma shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi. Shundan keyin shu fazilatlardan birini juz'iy raislikka aylantiradilar va bola yetti yoshdan o'n sakkiz yoshga yetguncha, bu fazilat juz'iy raislik martabasidan asta-sekin yuqorilashtira borilib, so'ngra bu fazilatni oliy martabali rais, ya'ni eng ustun fazilat holiga ko'taradilar" [1].

Bundan tashqari, Forobiy nazariy bilimni birgina xalqning o'zi egallashi mumkinmi yoki hamma millatlar va hamma shahar xalqlari egallashlari mumkinmi, shu nazariy bilimni barcha xalqlarga umumiy qilishning yo'llari qanday va bu bilimning har bir xalq tomonidan egallash yo'llari qaysi tartibda – bularning hammasini bilish kerak. Bu nazariy bilimlarni bir millatdan ikkinchi bir millatga tarqatish, bir shahar xalqidan ikkinchi bir shahar xalqiga yoki shahar xalqining bir qismidan boshqa qismiga yoyish – xalqlarda nazariy fazilatni hosil qilish usulidir.

Mutafakkirning qayd etishicha, odamlarga tarbiya berish usuli ikki xil bo'ladi. Birinchi usul – san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Manzil egasi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchining tutgan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat mazkur mamlakatda yashovchilarning muallim-tarbiyachisi bo'lganidek, shohlar ham fuqaroning muallimi va tarbiyachisi bo'ladilar. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat va muallim har ikkovi o'z yo'lida, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Forobiy o'z fikrini davom ettirib, hukumatlarning tarbiya usullari ham xuddi shunday ekanini yozadi: "hukumatning tarbiyasi xoh majburiy bo'lsin, xoh yaxshi gap-muomala va mehribonlik bilan bo'lsin, ma'lum mehnat, kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi aholiga ozmi-ko'pmi tarbiya berishdir. Hukumatlar ta'lim va tarbiya berishda xuddi oila boshlig'i, bolalar tarbiyachisi va muallimdek bo'ladilar, shahar xalqi va boshqa sahroyi xalqlarni tarbiyalashda ularni kasb-hunarga o'rgatish yo'lida ishlatiladigan yo'l-yo'riq turlicha bo'ladi, ya'ni kishilarning rahbarlariga qarab majbur qilish yo'li bilan tarbiyalaydilar" [1]. Bunday kuch esa ayniqsa juz'iy kasb-hunarlarida ishlatiladi. Masalan, bu kuch – harbiy asbob-uskunalaridan foydalanishda, navkarlarni urushga yo'llashda, mudofaa ishlarida ko'riladigan eng nozik tadbirlarni qo'llashda ishlatiladi. Chunki shahar xalqlari va sahroyi xalqlar odamzotni

chinakam insonlik darajasiga ko'taradigan, uni chinakam baxt-saodatga erishtiradigan kasb-hunarlarini egallashga o'z ixtiyorlari bilan berilmaydilar.

Abu Nasr Forobiyning ilm-fanning jamiyat hayotida tutgan o'rnini va uni insonning kamolotga erishuvida muhim omil ekanligi to'g'risida aytgan fikrlari ham diqqatga sazovordir. U shunday yozadi: "Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, dono va ilmi kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin" [2]. Bizning fikrimizcha,

Forobiy ilmi kishini eng oliy fazilat egasi va u kishilarning baxt-saodatga erishishida rahnamolik qiladi, degan fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki ilm-fan – taraqqiyot asosidir. Shunday ekan, ilm-fansiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi, qayerda ilm-fan taraqqiy etsa, o'sha jamiyatda taraqqiyot tantana qilishi muqarrardir.

Inson bilimi, uning kamoloti va umumiy dunyoqarashining taraqqiyotida tarbiyaning rolini ta'kidlab, Forobiy o'zining "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" (في أصل العلوم) asarida shunday yozadi: "Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar noo'rin ko'rinadi. U bilim va tajribaga ega bo'lgandan so'ng fikri o'zgaradi, noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi" [2].

Forobiyning diqqatga sazovor bo'lgan fikrlaridan yana biri – insonning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan omillar, ya'ni aql va axloq masalasidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmo'gi lozim, bu degani, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi – jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal insonni tarbiyalashdir. Forobiy insonni har tomonlama yetuk, mukammal qilib kamol toptirishda yordam beradigan ta'lim-tarbiya usullariga juda katta e'tibor beradi. U, avvalo, ta'lim berish bilan tarbiyalash o'rtasidagi tafvutni yaxshi tushunadi, ta'lim-tarbiya metodlariga kelganda esa ularni avvalo ikkiga ajratadi: birinchisi tarbiyalanuvchining xarakteri, xohish, intilishlariga, ruhiy mayllariga qarab ta'lim-tarbiya yo'li asta-sekin tushuntirish, anglatish yo'li bilan olib borilsa, ikkinchisi esa majbur etish, chora ko'rish, mo'ljallangan maqsadga bo'ysundirish va unga yo'naltirish yo'li bilan olib boriladi. Bu har ikki metod ham bir maqsadni, yetuk va mukammal insonni kamol toptirishni nazarda tutadi.

Forobiyning ta'lim-tarbiya metodlari haqidagi fikrlari bu bilangina chegaralanmaydi. Allomaning "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida" (فيما ينبغي أن يعلم قبل تعلم الفلسفة) asaridagi quyidagi fikrlar bu jihatdan e'tiborga loyiqdir: "Muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shliqqa ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdga muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agarda shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning o'qiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi" [5].

Xullas, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari nafaqat o'z zamonasida, balki bizning davrimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu g'oyalar bugungi globallashuv sharoitida barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashda, ular ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirishda muhim manba bo'lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. – Toshkent: O'zSSR FA, 1963.
2. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII–XII вв. Москва: АН СССР, 1960.
3. Xayrullayev M.M. Forobiy ruhiy proseslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. – Toshkent: O'qituvchi, 1967.

Gulchexra JALILOVA,

Oriental universiteti tillar-2 kafedrası o'qituvchisi

SARGUZASHT-DETEKTIV ASARLAR – ILK ADABIY JANR NAMUNASI

Annotatsiya. Sarguzasht-detective janrlar adabiyot shakllana boshlangan ilk davrlardan oq mavjud bo'lgan. Inson yaralibdiki, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy muhit, iqtisodiy inqiroz va boshqa sabablarga ko'ra turli maskanlarga ko'chib yurishga majbur bo'lgan va bu jarayonda xavfli vaziyatlar, qiyinchilik va muammolarga duch kelgan, ammo ularni yengib o'tgan. Natijada bunday hodisalar xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma manbalarda o'z aksini topgan. Mazkur maqolada sarguzasht-detective janrining tarqiqiyot bosqichlari, ilk asarlar va ulardagi janrga xos xususiyatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: janr, sarguzasht-detective, proto-detective asar, sarguzasht motivi, janr elementlari, jinoyat.

Annotation. Adventure-detective genres have existed since the earliest periods of literature formation. Since the creation of man, he has been forced to migrate to different places due to climate change, social environment, economic crisis, and other reasons, and in this process, he has faced dangerous situations, difficulties, and problems, but he has overcome them. As a result, such phenomena were reflected in examples of oral folk art and written sources. This article examines the developmental stages of the adventure-detective genre, early works, and their genre features.

Keywords: genre, detective adventure, protodetective work, adventure motif, genre elements, crime.

Аннотация. Приключенческо-детективные жанры существовали с самых ранних периодов формирования литературы. С момента сотворения человека он был вынужден мигрировать в разные места из-за изменения климата, социальной среды, экономического кризиса и других причин, и в этом процессе он сталкивался с опасными ситуациями, трудностями и проблемами, но преодолевал их. В результате такие явления нашли отражение в образцах устного народного творчества и письменных источниках. В данной статье рассматриваются этапы развития приключенческо-детективного жанра, ранние произведения и их жанровые особенности.

Ключевые слова: жанр, детективное приключение, протодетективное произведение, мотив приключения, элементы жанра, преступление.

Sarguzasht va detektiv janri taraqqiyoti insonlar olamni anglashni boshlagan ilk davrlarga borib taqaladi, ya'ni, bu shunchaki bir adabiy yo'nalish emas, balki ijtimoiy tajriba va badiiy tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Tafakkur va taraqqiyot inson hayotining ajralmas qismi bo'lgani kabi, jinoyat ham inson tabiatiga xos, inkor etib bo'lmaz haqiqatdir. Jamiyatda ijtimoiy adolatni tiklash va jinoyat masalasi hukmi sud ixtiyoriga havola qilinishi nafaqat adolatli muhit yaratishga, balki adabiyot olamiga detektiv janrining kirib kelishiga ham asos bo'ldi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, detektiv janrining paydo bo'lishi insoniyatning ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini ifoda etuvchi tabiiy tarixiy jarayondir [1: 2]. A.R.Fahmiy fikriga ko'ra, detektiv adabiyotining bugungi eng muhim elementlarini qadimgi dunyo san'at namunalari ko'ramiz. Darhaqiqat, struktura nuqtayi nazaridan qarasaq, insoniyat ilk hikoya qilish san'atini boshlagandan beri detektiv asarlar mavjud bo'lgan [2: 42].

Detektiv asarlarda sarguzasht motivi asarning badiiy asosi sifatida keng qo'llaniladi, bu motiv asar qahramonlarini xavfli sayohatlarga yo'naltiruvchi va hayotiy tajribalarini boyituvchi narrativ harakatga keltiruvchi kuch bo'lib, sir va tergovning asosiy elementlari bilan bog'lanadi. Fransuz adabiyotshunosi Tzvetan Todorov detektiv adabiyotning hikoyasi – detektivning yashirin haqiqatni izlashdagi sarguzashti ekanligini ta'kidlaydi [3: 125]. Sarguzasht odatda detektiv asarning dinamikasini ta'minlovchi motivatsiya yoki "izlanish" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni, sodir etilgan jinoyatni fosh etar ekan, detektiv turli manzillarga sayohat qiladi, to'qnashuvlarga duch keladi va noma'lum hududlarni o'rganishga kirishadi. J.G.Kaveltning fikriga ko'ra, uzoq tarixi va rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan sarguzasht va detektiv janrlari XX asrning ikkinchi yarmida o'zaro birlashdi va bu sintez natijasida yangi – "triller", "psixologik detektiv" va "sarguzasht-detective" kabi gibrid janrlar yuzaga keldi. Ularda nafaqat jinoyat, balki xavfli

sarguzasht, quvnoq suyet, ichki psixologik ziddiyatlar ham muhim o'rin tutadi [4: 61]. Lekin bizningcha sarguzasht va detektiv janrining birlashuvi ancha avvalroqqa, ya'ni adabiy tafakkur shakllana boshlagan ilk davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotchi B.A.Xoliqov detektiv janri taraqqiyotini ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy va adabiy-badiiy kabi uch omilning mavjudligi bilan izohlaydi [5: 31].

Ma'naviy-ma'rifiy yozma manbaalar negizi hisoblanmish Qur'oni Karim, Injil hamda Payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi rivoyatlar to'plamlarida sarguzasht va detektiv elementlari markazlashgan g'oya sifatida talqin etilgan aynan sura yoki oyat mavjud emas, chunki bu kitoblar axloqiy, ruhiy kamolikka erishish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi ibratli kitoblar hisoblanadi. Biroq, Qur'oni Karimdagi ba'zi suralarda Payg'ambarlarning hayotidagi voqealar, ular boshidan kechirgan sinovlarni bayon etishda sarguzasht va detektiv unsurlari namoyon bo'ladi. Shu jihatdan yaqqol namuna bo'la oladigan sura bu – Yusuf surasi (12-sura) bo'lib, unda Hazrati Yusuf (a.s.) hayoti bayon qilinadi, uning bolaligidan boshlab boshidan kechirgan sinovlari, o'z aka-ukalari tomonidan xiyonatga uchrashi, quduqda o'tkazgan qora kunlari, tuxmat bilan zindonga tashlanishi va nihoyat, Misrda yuqori martabaga erishishgacha bosib o'tgan voqealar hikoya qilinadi. Yusuf (a.s.) ning aka-ukalari tomonidan xiyonatga uchrab, quduqqa tashlanishi suradagi sarguzashtning birlamchi elementi sifatida namoyon bo'ladi, chunki, Yusuf (a.s.) ning hayoti xavf ostida qoladi va voqea dramatik tus oladi. Uning sayohlar tomonidan qutqarilishi va Misrga olib ketilib, qul sifatida sotib yuborilishi sarguzasht adabiyotida qahramonning turli manzillarga sayohati va yangi makonlarni o'rganish tamoiliga misol bo'ladi [6: 168].

"Sarguzasht va detektiv janri elementlari asosan epik dostonlar va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Yunon mifologiyasidagi "Odisseya", hind eposidagi "Ramayana",

arab dunyosidagi “Ming bir kecha” kabi asarlar – sarguzasht janrining arxaik ildizidir” [7: 201] – deya fikr beradi amerikalik adabiyotshunos J.Kincaid. Bu dostonlarda nafaqat sarguzashtlilik, balki detektivlilik hususiyatlarini ham uchratish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilganlar asarlar qadimgi davrlarga tegishli bo‘lib, asosan miloddan avvalgi VIII–IV asrlarda yozilgan. Darhaqiqat, dostonlar syujetiga nazar solar ekanmiz, bunda asar qahramonining shakllanishida sarguzasht asosiy omil sifatida tasvirlanganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Yunon adabiyoti eng mashhur yodgorliklaridan biri – “Odissey” Homer qalamiga mansub bo‘lib, unda Itaka podshosi Odisseyning Troya urushidan so‘ng vataniga qaytish yo‘lida ko‘p yillar davomida boshidan kechirgan sarguzashtlari, uzoq, qiyin yo‘llarni bosib o‘tish jarayonida afsonaviy maxluqlar bilan to‘qnashuvi, aql-zakovati hamda afsonaviy jasoratlarida hikoya qilinishi sarguzasht asarlarga xos elementlarning yaqqol namunasidir. Yurtiga qaytib kelar ekan, sodir etilgan jinoyatlar ya‘ni – uzoq yillar davomida dushmanlari va xattoki, o‘z do‘stlari tomonidan talon-taroj qilinayotgan vatani, dushmanlari tomonidan zo‘rlab egalik qilishga urinilayotgan nikohidagi ayoli Pinelopa va o‘z uyidan quvib solingan qonuniy taxt vorisi – o‘g‘li Telemaxni qutqarishi dostonida detektivlik elementlari aks etganiga misol bo‘la oladi [8: 320].

Sharq adabiyoti durdonalaridan hisoblanmish “Ming bir kecha” arab adabiyotidagi eng qadimgi qo‘lyozmalardan biri bo‘lib, o‘rta asrlarga ya‘ni V–XV asrlarga tegishlidir, u sarguzasht va detektiv elementlari eng ko‘p tasvirlangan asarlardan biri hisoblanadi, bunda asosiy voqea Shahrizodning hayotini saqlab qolish uchun qiroлга har kecha “Alovuddinning sehrli chirog‘i”, “Ali bobo va qirg‘ qaroqchi”, “Sinbod dengizchi” kabi sarguzasht voqealarga boy yangi ertaklar aytib berilishi bilan izohlanadi. Bu asar fors, hind, arab xalqlari ertak va masallari jamlanmasidan iborat bo‘lib, ildizlari Qadimgi Hindiston va Misrga borib tutashadi [9: 344]. Undagi “Uch olma” hikoyasi Shahrizod tomonidan 19–25 kechalar aytilgan ertak bo‘lib, jahon adabiyoti detektiv janrining shakllanishiga asos bo‘lgan ilk asarlardan biri sanaladi. “Ming bir kecha” asaridagi ertaklar bir-biriga bog‘lanib ketaveradi [10: 204]. Oliver Terle tahlillariga ko‘ra, bu hikoya detektiv adabiyot shakllanishida ahamiyatli yozma manbaa hisoblanadi, chunki unda voqea huddi detektiv janriga oid hususiyat, ya‘ni fosh etilishi zarur bo‘lgan qotillik aks ettirilishi bilan boshlanadi. Ammo hikoyada detektiv obrazida shakllantirilgan vazir detektiv qahramon sifatlarini namoyon etmaydi, garchi imkoni bo‘lsa-da, hech qanday surishtiruv ishlarini amalga oshirmaydi va tasodifiy omad sababli ikki marta o‘limdan qutulib qoladi. Shu bilan birga, xotining qotili bo‘lishiga qaramay, yigit ham hech qanday jazoya tortilmaydi, aksincha xalifa tomonidan keyinchalik mukofotlanib, xattoki yuqori lavozimga ishga olinadi. Bu esa, asar o‘rta asrga oid chirkin ijtimoiy muhitni, ya‘ni o‘sha davrdagi jamiyatda ayollarga nisbatan adolatsiz munosabatni fosh etadi [11: 1]. Hikoyada voqealar talqini avtomatik sarguzashtlilik hosil qiladi va badiiy asos drayveri hisoblanadi. Bu davrda detektiv adabiyot mustaqil

janr sifatida shakllanmagan, ammo jinoyat va adolat mavzulari mavjud [2: 42].

Adabiyotshunos olim Sh.Sulaymonov detektiv asarlar genezisida xalq og‘zaki ijodi namunasi sanalmish ertaklarni proto-detektiv yozma manbaalar sifatida tasniflagan va bir necha xalqlar ertaklaridan misollar keltirgan, detektiv adabiyot taraqqiyotida bevosita ishtirok etgan olti turdagi o‘zbek xalq ertaklarni ilmiy tadqiq etgan [12: 13]. Janr taraqqiyotida nafaqat ertaklar, balki doston, ballada va boshqa folklor manbaalarning ham o‘rni beqiyos. Jumladan, shu davrga tegishli o‘zbek adabiyotiga murojaat qilar ekanmiz, “Alpomish” va “Ravshan” dostonlarida sarguzasht va detektiv elementlarini yaqqol namunasini ko‘rishimiz mumkin. Surhayl mastonning fitnasi sabab yetti yil umrining gullagan davrini surgunlikda Chilbir cho‘lida o‘tkazishga majbur bo‘lgan Alpomish boshidan kechirgan azob-uqubatlari xayoti, sevgilisi Oybarchini qutqarish uchun ko‘rsatgan jasorati, aql-zakovati sarguzasht unsurlari sifatida talqin qilinadi. Surgunlikda yurgan kezlari Ultontoz saltanatga egalik qiladi, adolatsizlik hukm suradi va sevgilisi Oybarchinga uylanmoqchi bo‘ladi, bu esa, nafaqat uning oilasiga, hattoki, yurtiga, vataniga xiyonat, ya‘ni katta jinoyat hisoblanadi, bu vaziyatda Alpomish faqatgina kuch-qudrati va salohiyatiga suyanibgina qolmasdan, mohir detektiv kabi ish tutadi, ya‘ni, fitnani fosh etishda mantiqan yondashib, Qultoy qiyofasida dushmanining kuchli va kuchsiz tomonlarini o‘rganadi, Bodombikach bilan aytishuvlar qilgandan so‘nggina dushman bilan kurashib g‘alaba qozonadi.

Yevropa adabiyotiga to‘xtalar ekanmiz, qahramonlik va sarguzasht asarlar, ya‘ni ritsar romanlari juda mashhur edi. “Qiroл Artur va uning doira ritsarlari” sarguzasht janrining rivojiga asos bo‘ldi. C.S.Levis bu asarlarni nafaqat jang va sarguzasht voqealardan iborat, balki unda ritsar sharafi, ayolga sodiqlik va sarguzashtning o‘ziga xos axloqiy manzarasi tasvirlanishini ta‘kidlaydi [13: 26]. Ritsar romanlarning asosiy belgilari ulardagi qahramonlarning sirli va havfli hodisalarga boy uzoq safarlarga chiqishi, safari mobaynida vatani, qiroli va burchiga sadoqati tarannum etilishi bilan izohlanadi. Huddi zamonaviy detektivlar kabi turli fitnalarni fosh etishda, hiyonatkor dushmanlar bilan kurashib ularni yengishda ko‘rsatgan jasorati keyinchalik bu janrning rivojlanishiga zamin bo‘ldi.

Albatta, xalq og‘zaki namunalari hisoblanmish folklorlar, dostonlar va diniy mavzularni yorituvchi ilohiy kitoblar, shu bilan birga, o‘rta asr klassik adabiyot durdonalari, drama va tragediyalarda jinoyat chiziqlari aks etgan voqea va hikoyalar badiiy daraja, tasvir, obraz, mavzu va syujet xususiyatiga ko‘ra zamonaviy detektiv asarlar bilan tenglasha olmaydi, ulardagi detektiv unsurlar tugun va yechim sifatida namoyon bo‘ladi va aksariyat hollarda ijobiy yakun bilan tugaydi. Lekin, har qanday jinoyatning fosh bo‘lishi, ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi, axloqiy-tarbiyaviy xususiyati bugungi zamonaviy sarguzasht-detektiv asarlar uchun mustahkam poydevor, proto-detektiv manbaa va asos sifatida tajriba namunasi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Георгинова Н.Ю. История появления и становления детективного жанра в литературе. Москва: Библиотечное дело, 2018.
2. Fahmy A.R. The detective novel // Fussol Literary Criticism Journal, 1982, 2(2). – P. 42.
3. Todorov T. The Typology of Detective Fiction. In The Poetics of Prose. – Ithaca, NY: Cornell University Press, 1977.
4. Cawelti J.G. Adventure mystery and Romance: Formula stories as art and popular culture. – Chicago: University of Chicago press, 1976.
5. Xoliqov A. Detektiv romanlarda badiiy talqinini tizimli modellashtirish (Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlari misolida): Filol. fan. nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 2018.
6. Qur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B 168

7. Kincaid J. The adventure genre in literature. – New York: Oxford literary review, 2010.
8. Gomer. Odissey (Rus tilidan Qodir Muhamedov tarjimasini). – Toshkent: G'afur G'ulom, 2012. -320 b.
9. The Arabian Nights: A Companion by Robert Irwin. – London: Allen Lane, the Penguin Press, 1994.
10. Ming bir kecha. 1–27-kechalar. Birinchi kitob (Tarjimon: Solih Mutallibov). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
11. Tearle O. A summary and analysis of the Tale of the Three Apples. Interesting Literature. <https://interestingliterature.com/2022/05/three-apples-summary-analysis/>.
12. Sulaymonov Sh.S. O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiati: Filol. fan. nomz. diss. avtoref... – Buxoro, 2002.
13. Lewis C.S. The Allegory of Love. – New York: Oxford university press, 1958.

Хуршида МУРАДОВА,

преподаватель кафедры иностранных языков университета Турон

СПЕЦИФИКА РЕАЛИЗАЦИИ ЖАНРА ЮМОРИСТИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ В СКАЗОЧНОМ ДИСКУРСЕ Х.ТУХТАБАЕВА И Н.НОСОВА

Аннотация. В статье проведен сопоставительный анализ юмористических сказочных повестей Н.Носова и Х.Тухтабаева, рассмотрены механизмы комического и дидактический потенциал сказочных элементов, выявлено различие подходов: ситуативный юмор Носова ориентирован на нравственное воспитание, а магический реализм Тухтабаева – на социальную сатиру. Обоснована роль детского юмора как универсального медиатора в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: юмористическая повесть, сказочный дискурс, Н.Носов, Х.Тухтабаев, комическое, сатира, лингвокультурология.

Annotatsiya. Maqolada N.Nosov va X.To'xtaboyevning yumoristik ertak qissalari qiyosiy tahlil qilingan, ertak elementlarining komik va didaktik imkoniyatlari mexanizmlari ko'rib chiqilgan, yondashuvlarning farqi aniqlangan: Nosovning vaziyatli yumori axloqiy tarbiyaga qaratilgan bo'lsa, X.To'xtaboyevning sehrli realizmi ijtimoiy satiraga qaratilgan. Madaniyatlararo muloqotda bolalar yumorining universal vositachi sifatidagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar: yumoristik qissa, ertak diskursi, N.Nosov, X.To'xtaboyev, komik, satura, lingvokulturologiya.

Annotation. The article conducts a comparative analysis of the humorous fairy tales of N.Nosov and H.Tukhtaboyev, examines the mechanisms of comic and didactic potential of fairy tale elements, and reveals the difference in approaches: Nosov's situational humor is oriented towards moral education, while Tukhtaboyev's magical realism focuses on social satire. The role of children's humor as a universal mediator in intercultural communication has been substantiated.

Keywords: humorous novella, fairy-tale discourse, N.Nosov, Kh.Tukhtaboyev, the comic, satire, linguoculturology.

В сказочном дискурсе современной детской литературы жанр юмористической повести занимает особое место, являясь одним из наиболее эффективных инструментов формирования мировоззрения ребенка, который не только развлекает, но и активно развивает чувство юмора, критическое мышление, эмпатию, способность к самоанализу и моральные ценности. Через смех над собственными и чужими ошибками юный читатель учится относиться к неудачам с доброжелательной иронией, преодолевать страх перед неизвестным и осваивать нормы поведения в обществе. Расцвет такого направления в советской и постсоветской детской прозе приходится на 1950–1970-е годы, когда юмор стал ключевым элементом синтеза жанров – сказки, бытовой повести и психологического этюда, сочетая развлечения с психологической разрядкой и нравственным воспитанием.

Актуальность темы обусловлена растущим интересом к межкультурным аспектам детской прозы, где юмор служит инструментом для преодоления социальных и культурных барьеров, а сказочный дискурс позволяет интегрировать фантастику с реальностью для воспитательного воздействия [1, с. 20].

Первый систематический сравнительный анализ творчества узбекского писателя Худойберди Тухтабаева и русского классика Николая Носова, чьи произведения практически не сопоставлялись в научной литературе, несмотря на ярко выраженные параллели, показал мастерское использование юмора и сказочных элементов для глубокого отображения детского характера: Носов – через доброжелательный, «мягкий» смех над повседневными неудачами и наивностью коротышек или обычных мальчишек, Тухтабаев – через сатирический магический реализм, где фантастические превращения

и ожившие предметы разоблачают социальные пороки (хвастовство, невежество, высокомерие). Общие черты – олицетворение неживого, абсурдные ситуации, воспитательная роль смеха – сочетаются с культурными акцентами: у Носова преобладает индивидуальное развитие через ошибки, у Тухтабаева – коллективные ценности и фольклорные архетипы. Такой подход позволяет не только осветить специфику жанра в двух традициях, но и подчеркнуть его универсальную ценность для современной детской литературы в многонациональном контексте.

Наша цель – выявить специфику реализации жанра юмористической повести в сказочном дискурсе Х.Тухтабаева и Н.Носова, проанализировать жанровые особенности, изучить лексические и стилистические средства комического, сравнить приемы сказочного дискурса и определить воспитательную роль юмора. Методами исследования стали структурно-типологический, герменевтический, теоретико-литературоведческий и сравнительно-аналитический подходы, позволяющие разобрать тексты на уровне жанра, комического и дискурса, использованы ключевые произведения – трилогия о Незнайке, рассказы «Мишкина каша», «Три охотника» у Носова, повесть «Верхом на желтом великане» («Sariq devni minib») и связанные с ней работы, где сказочный элемент сочетается с сатирой, у Тухтабаева.

Как показывают полученные данные, у Носова жанр юмористической повести эволюционирует от коротких бытовых рассказов к развёрнутым сказочным трилогиям, где комическое возникает из взаимодействия характеров (архетипы озорных, наивных мальчишек в дуэтах или компаниях коротышек), абсурдных ситуаций (повседневные неудачи, преувеличенные детские промахи) и языковых средств (ирония, парадокс, тавтология, олицетворение) [1,

с. 22]. Юмор Носова преимущественно доброжелательный, «мягкий», он не высмеивает, а мягко исправляет, превращая ошибки в уроки без морализаторства.

В рассказе «Мишкина каша» юмор строится на детской наивности, беспомощности в быту и абсурдных действиях героев. Мальчики решают сварить кашу без опыта: «Кашу ведь просто варить», – уверенно заявляет Мишка, но вместо варки просто наблюдает, как «она сама варится». Кульминация – оживление каши: «Вдруг смотрю: крышка на кастрюле приподнялась, и из-под нее каша лезет». Мишка пытается её впихнуть обратно: «Мишка схватил ложку и стал кашу обратно в кастрюлю впихивать. Мял ее, мял, а она будто пухнет в кастрюле, так и вываливается наружу». Финал полон иронии: «О! – говорит Мишка. – Хорошая каша получилась, знатная! [...] Тьфу! Что это за каша! Горькая, несолёная и воняет гарью» [2, с. 50–55]. Олицетворение каши («каша лезет», «пухнет») усиливает абсурд, подчёркивает детскую беспомощность и превращает бытовую неудачу в комический урок о необходимости знаний и труда.

В «Трёх охотниках» комический эффект достигается через парадокс и преувеличенные байки: три весёлых охотника (дядя Ваня, дядя Федя, дядя Кузьма) хвастаются подвигами, но никому не удаётся добыть дичь. Каждый рассказывает фантастическую историю спасения от зверей, где герои чудом избегают опасности, но в итоге признают: «Ходили, ходили, много разных зверушек видели, но никого не убили». Кульминация – ироничный вывод: «Хорошо поохотились, правда? И зверушки ни одной не убили, и весело время провели» [2, с. 124]. Это доброжелательный смех над хвастовством и выдумками, где сказочный дискурс проявляется в фольклорных преувеличенных охотничьих историях, близких к байкам, и подчёркивает любовь к природе: «Без зверушек и пичужек в лесу было бы скучно. Никого убивать не надо. Животных надо любить».

В «Приключениях Незнайки и его друзей» юмор часто связан с наивностью и фантазиями коротышек, особенно Незнайки. Яркий пример – пародийный стишок: «Торопыжка был голодный, проглотил уютю холодный. А потом сказал: «Ну, вот! Теперь я сыт на весь год!». Когда Торопыжка возмущается: «Никакого холодного уютю я не глотал!», Незнайка отвечает: «Это я просто для рифмы сказал, что уютю был холодный» [3, с. 20–100]. Сказочный дискурс здесь сочетает утопию Цветочного города (идеальный мир коротышек) с реалистичными моральными уроками через комические провалы: Незнайка сочиняет стихи-дразнилки, вызывая смех и лёгкое осуждение друзей, что учит ответственности за слова и творчество. У Носова комическое служит нравственному воспитанию через мягкий смех над ошибками, где абсурд и олицетворение раскрывают детскую психологию и превращают повседневность в сказку.

У Тухтабаева юмористическая повесть интегрирует сказочный дискурс с элементами магического реализма и фэнтези, фокусируясь на острой сатире социальных пороков – таких как невежество, хвастовство (*тапманлик*), лень, ложь и детская гордыня. В повести «Верхом на желтом великане» (“*Sariq devni minib*”, часто называемой в ранних частях как “*Sehrli qalroqcha*”) главный герой – озорной мальчик Хошимджан – предстаёт типичным представителем детской наивности и самоуверенности, чьи повседневные проделки плавно переходят в фантастические приключения. Волшебная шапка (*qalroqcha*) и желтый великан (*sariq dev*) становятся катализаторами, где магия разоблачает человеческие слабости: превращение в великана или

использование волшебных предметов служит метафорой гордыни и самонадеянности, заставляя героя пережить абсурдные ситуации для самопознания и нравственного роста [4].

Юмор у Тухтабаева строится на контрасте реального детского характера (наивность, лень, хвастовство) и магического мира, где обыденные пороки гиперболизируются через фантастику. Уже в первой главе (“*Ko'chaga quvildim*”) повествование насыщено сарказмом и самоиронией героя: Хошимджан представляет себя с наигранной важностью – “*Tanishib qo'yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam – Ro'ziyev, Ro'zivoiyo traktirchini o'g'liman*” – но сразу разоблачает свою лень и враньё. Он хвастается маминной медалью за доение коров, которую тайком носит: “*O'tgan yili sutni ko'p soqqani uchun medal olgan. O'sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi*” [там же], что приводит к комическим последствиям – наказаниям от директора и матери.

Николай Васильевич Гоголь в общественном сознании ассоциируется с произведениями, отражающими связь русского и украинского народов. Однако увлечение мусульманским Востоком, как правило, остаётся без должного внимания. Известно, что Гоголь выступал с лекцией по истории мусульманских государств, особое внимание заостряя на личности отдельных правителей, например, Аль-Мамуне: «Ни один государь не принимал правления в такую блестящую эпоху своего государства, как Аль-Мамун» [3, с. 105]. Его исследование о мусульманской политике можно найти в сборнике «Арабески», где интерпретировано восхищение к исламскому народу: «Багдад, столица этого нового чудесного мира», «Дамаск мог одеть всех сластолюбцев дорогими тканями и снабдить всю Европу стальными мечами, и араб уже думал, как бы осуществить на земле рай Магомета, создавал водопроводы, дворцы, целые леса пальм, где сладострастно били фонтаны и дымилась благовония Востока» [там же].

Иван Алексеевич Бунин обогатил русскую литературу не только переводами произведений Саади, но и такими

стихотворениями о Востоке, как «Черный камень Каабы» [4, с. 233], «Тайна» [там же, с. 221], «Магомет в изгнании» [там же, с. 260], «Потомки пророка» и многими другими... В них аккумулировались впечатления от знакомства с философией и искусством Востока.

Будучи впечатлённым от глубины смыслов строк из Священного Корана, Бунин находит им применение в своих произведениях и использует отрывки перевода коранического текста в качестве эпиграфов к своим работам. Также они находят отражение в содержании самих стихотворений. Например, произведение «Тайна» даёт отсылку к началу шести сур, где используются открывающие буквы («фаваатих») «الم» – «Алиф, Лям, Мим»: «Аль-Бакара», «Аль-Имран», «Аль-Анкабут», «Ар-Рум», «Лукман», «Ас-Саджда».

У Бунина есть также стихотворения, названные в честь сур Священного Корана. Например, в сборниках его произведений можно найти отсылку к коранической суре «Аль-Каусар», правда, с иной вариацией звучания – «Ковсёр» [4, с. 182]. Само слово муфассиры часто переводят либо как «изобилие», либо как «Райская река».

Священный Коран – главный источник духовно-нравственного развития для мусульманских народов, однако благородные аяты оказали влияние и на многих знаменитых представителей иных конфессий.

С древнейших времён наука объединяла представителей интеллектуалов, принадлежащих к разным религиям и мировоззрениям.

Влияние аятов и хадисов на русскую литературу не ограничивается исключительно стихотворениями, в которых можно найти коранические мотивы. Глубокий след мусульманские вера и культура оставили и в других аспектах жизни и творчества деятелей литературы. Вдохновлял известных русских писателей и поэтов ислам, Коран, жизнь Пророка Мухаммеда.

Как видно из представленного выше обзора, внимание лучших поэтов и писателей XIX–XX веков к Священному Корану имело под собой большую симпатию и уважение, которые они продемонстрировали в своих произведениях.

Литература

1. Цявловский А. Летопись жизни и творчества А.С.Пушкина. 1799–1826. Л., 1991.
2. Взаимопроникновение культур: Коран в русской поэзии. М.: Наука, 2006.
3. Гоголь В.Н. Арабески. СПб.: Наука, 2009.
4. Бунин И.А. Собрание сочинений в 9 т., т. 1. М.: Художественная литература, 1965.

Muborak NORHOJAYEVA,

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi*

TILLARNI CHOG'ISHTIRMA O'RGANISHDA KONSEPTUAL UMUMIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslik masalasi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Turli tillarda olamni konseptualashtirish jarayonining umumiy va milliy xususiyatlari yoritilib, til birliklari orqali ifodalanadigan konseptlarning shakllanish mexanizmlari o'rganiladi. Tillararo qiyosiy tahlil asosida universal va milliy kontseptlar, ularning leksik-semantik hamda madaniy asoslari aniqlanadi. Til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilib, konseptual o'xshashlik va farqlarning sabablari izohlanadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy va kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot hamda tarjimashunoslik sohalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tillarni chog'ishtirma o'rganish, konsept, konseptual umumiylik, kognitiv tilshunoslik, til va tafakkur, madaniyat, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article analyzes the issue of conceptual commonality and specificity in the comparative study of languages from the point of view of cognitive linguistics. The study highlights the general and national features of the process of conceptualizing the

world in different languages, and studies the mechanisms of formation of concepts expressed through language units. Also, based on cross-linguistic comparative analysis, universal and national concepts, their lexical-semantic and cultural foundations are identified. The article substantiates the inextricable link between language, thought and culture, and explains the reasons for conceptual similarities and differences. The results of the study are of important scientific and practical importance for the fields of comparative and cognitive linguistics, intercultural communication and translation studies.

Keywords: comparative study of languages, concept, conceptual commonality, cognitive linguistics, language and thought, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос концептуальной общности и специфики в сравнительном изучении языков с точки зрения когнитивной лингвистики. В исследовании освещаются общие и национальные особенности процесса концептуализации мира в разных языках, изучаются механизмы формирования понятий, выражаемых языковыми единицами. На основе межъязыкового сравнительного анализа выявляются универсальные и национальные понятия, их лексико-семантические и культурные основы. В статье обосновывается неразрывная связь между языком, мышлением и культурой, объясняются причины концептуальных сходств и различий. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для сравнительной и когнитивной лингвистики, межкультурной коммуникации и переводоведения.

Ключевые слова: сравнительное изучение языков, понятие, концептуальная общность, когнитивная лингвистика, язык и мышление, сравнительный анализ.

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni chog'ishtirma o'rganish masalasi nafaqat strukturaviy va tipologik jihatdan, balki kognitiv va madaniy nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli tillarda olamni konseptuallashtirish jarayonida namoyon bo'ladigan konseptual umumiylik va o'ziga xoslik masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki til inson tafakkurining mahsuli bo'lish bilan birga, milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab tizimdir.

Kognitiv tilshunoslik doirasida "kontsept" tushunchasi inson ongida shakllanadigan bilimlar majmui sifatida talqin qilinadi va u til birliklari orqali ifodalanadi. Har bir til borliqni o'ziga xos tarzda tasniflaydi, baholaydi va nomlaydi. Shu bilan birga, turli tillarda konseptual umumiylikning mavjudligi inson tafakkurining universal xususiyatlari bilan izohlanadi. Demak, tillarni chog'ishtirma o'rganish jarayonida universal va milliy kontseptlarning o'zaro munosabatini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Konseptual umumiylik tillar o'rtasidagi o'xshash semantik maydonlar, umumiy kognitiv modellar va universallar orqali namoyon bo'lsa, konseptual o'ziga xoslik har bir tilning milliy-madaniy tajribasi, mentaliteti va ijtimoiy hayot tarziga bog'liq holda shakllanadi. Bu farqlar ayniqsa leksik-semantik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar va baholovchi birliklar tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tillarni chog'ishtirma o'rganish jarayonida konseptual umumiylik va o'ziga xoslik muammosini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: kontsept tushunchasining nazariy asoslarini yoritish; konseptual umumiylik va milliy o'ziga xoslikning shakllanish omillarini aniqlash; tillararo qiyosiy tahlil asosida universal va milliy kontseptlarni ajratib ko'rsatish; til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish.

Kognitiv tilshunoslikda "kontsept" tushunchasi inson ongida shakllanadigan bilim, tasavvur va tajribalar majmui sifatida talqin qilinadi. Kontsept til va tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib, borliq hodisalari haqidagi bilimlarning til birliklari orqali ifodalanishini ta'minlaydi. Shu sababli tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual tahlil muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Kontseptlar individual ongda shakllansa-da, ularning asosiy qismi ijtimoiy va madaniy tajriba mahsuli sifatida umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Bu holat turli tillarda ayrim kontseptlarning o'xshash yoki farqli tarzda ifodalanishiga olib keladi. Chog'ishtirma tilshunoslikda konseptual yondashuv tillararo umumiylik va o'ziga xoslikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Konseptual umumiylik inson tafakkurining universal xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, barcha tillarda mavjud

bo'lgan asosiy tushunchalar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, vaqt, makon, harakat, hayot, o'lim, tabiat kabi fundamental kontseptlar deyarli barcha tillarda mavjud bo'lib, ularning shakllanishi biologik va kognitiv omillar bilan izohlanadi. Til darajasida konseptual umumiylik umumiy semantik maydonlar, o'xshash metaforik modellar va universallar orqali ifodalanadi. Turli tillarda bir xil yoki yaqin ma'noga ega birliklarning mavjudligi insoniyat uchun umumiy bo'lgan idrok va tafakkur mexanizmlarini aks ettiradi. Shu bois tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylikni aniqlash til universallari masalasini yoritishga xizmat qiladi.

Konseptual o'ziga xoslik har bir til va xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy hayot tarzi bilan bevosita bog'liqdir. Milliy kontseptlar muayyan xalq uchun muhim bo'lgan hodisa va tushunchalarni ifodalab, boshqa tillarda to'liq muqobilga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday kontseptlar ko'pincha madaniy belgilar, an'analar va mentalitet bilan uzviy aloqada bo'ladi. Til tizimida konseptual o'ziga xoslik asosan leksik birliklar, frazeologizmlar, maqolmatallar va baholovchi birliklar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu birliklar orqali xalqning borliqqa bo'lgan munosabati, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari ifodalanadi. Shuning uchun konseptual o'ziga xoslikni tahlil qilish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslikni aniqlash nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tillararo farqlarni faqat grammatik yoki leksik darajada emas, balki kognitiv darajada tushunish samaraliroq natijalarga olib keladi. Tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslik masalasini yoritishda mashhur tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishning nazariy poydevori Vilgelm fon Gumboldt tomonidan yaratilgan bo'lib, u tilni milliy tafakkur va xalq ruhining ifodasi sifatida talqin etadi hamda til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab beradi.

"Kontsept" tushunchasining leksik-semantik va kognitiv asoslari Yuriy Apresyan va Elena Kubryakova tadqiqotlarida ochib berilgan bo'lib, ularda kontseptlar til tizimining muhim usuri sifatida talqin qilinadi. Konseptual metafora nazariyasi Jorj Lakoff va Mark Jonson tomonidan ishlab chiqilib, metaforalarning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Lingvokulturologik yondashuv esa Vera Teliya va Valentina Maslova asarlarida yoritilib, milliy kontseptlarning madaniy va frazeologik asoslari tahlil qilingan. Qiyosiy tilshunoslik va til universallari masalalari Roman Yakobson va Jozef Grinberg tadqiqotlarida asoslab berilgan. O'zbek tilshunosligida esa Shavkat Safarov, Mirzohid

Yo'ldoshev va Dilorom Ziyamuxamedova ilmiy ishlari kognitiv tilshunoslik, til va tafakkur munosabatlari hamda olamning lisoniy manzarasini o'rganishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Tillarni chog'ishtirma o'rganish jarayonida konseptual umumiylik va o'ziga xoslikni aniqlash uchun avvalo kontseptlarning lisoniy ifodalanish vositalari tahlil qilindi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kontseptlar til tizimida asosan leksik-semantik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar hamda baholovchi birliklar orqali ifodalangan bo'ladi. Ushbu birliklarning qiyosiy tahlili tillararo umumiy va milliy xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Konseptual o'ziga xoslik asosan milliy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Bunday kontseptlar ko'pincha muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlil jarayonida frazeologik birliklar va metaforalar orqali ifodalangan milliy kontseptlar tilning madaniy kodini aks ettiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Ayrim kontseptlarning boshqa tillarda to'liq muqobilga ega emasligi ularning milliy o'ziga xosligini yanada kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, konseptual umumiylik va o'ziga xoslik bir-biriga zid hodisalar emas, balki o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir. Umumiy kontseptlar milliy madaniyat ta'sirida turli tillarda o'ziga xos shakl va mazmun kasb etadi. Bu holat tillarni chog'ishtirma o'rganishda faqat shakliy emas, balki kognitiv va madaniy yondashuvning ham muhim ekanligini ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar natijasida konseptual yondashuv tillararo o'xshashlik va farqlarni chuqurroq anglash imkonini berishi aniqlandi. Ushbu yondashuv tarjimashunoslik, chet tillarini o'qitish hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan semantik va madaniy tafavutlarni bartaraf etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan chog'ishtirma va kognitiv tahlillar natijasida tillarni qiyosiy o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslik masalasiga doir bir qator muhim ilmiy xulosalar olindi. Tadqiqot jarayonida kontseptlarning lisoniy ifodalanishi

til tizimining leksik-semantik, frazeologik va pragmatik qatlamlari orqali amalga oshishi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, konseptual umumiylik asosan inson tafakkurining universal xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarda namoyon bo'ladi. Vaqt, makon, harakat, sabab-oqibat, hayot va o'lim kabi fundamental kontseptlar turli tillarda mavjud bo'lib, ularning semantik yadrosi umumiy kognitiv asosga ega. Bu holat tillar o'rtasida umumiy konseptual maydonlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari konseptual umumiylik va o'ziga xoslik o'zaro qarama-qarshi hodisalar emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar ekanligini tasdiqladi. Umumiy kontseptlar har bir tilda milliy madaniyat ta'sirida o'ziga xos mazmuniy va shakliy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu esa tillarni chog'ishtirma o'rganishda faqat strukturaviy emas, balki kognitiv va madaniy yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual umumiylik va o'ziga xoslik masalasi kognitiv va qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar tilning inson tafakkuri va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq ekanligini hamda kontseptlar orqali borliqni idrok etish jarayoni til tizimida aks etishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari konseptual umumiylik inson tafakkurining universal xususiyatlari bilan belgilanib, asosiy fundamental tushunchalarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, konseptual o'ziga xoslik har bir til va xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan bog'liq holda shakllanib, milliy kontseptlar tizimida o'z aksini topadi. Bu holat tillararo farqlarni faqat lingvistik emas, balki kognitiv va madaniy omillar asosida izohlash zarurligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni aniqladiki, konseptual umumiylik va o'ziga xoslik bir-biriga zid tushunchalar emas, balki o'zaro uyg'unlashgan va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Umumiy kontseptlar turli tillarda milliy madaniyat ta'sirida o'ziga xos mazmun va shaklga ega bo'ladi. Bu esa tillarni chog'ishtirma o'rganishda konseptual yondashuvning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. Москва: Прогресс, 1985. – 451 с.
2. Сапир Э. Язык: Введение в изучение речи. Москва: Прогресс, 1993. – 256 с.
3. Уорф Б.Л. Язык, мышление и реальность. Москва: АСТ, 2004. – 352 с.
4. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. Москва: УПСС, 2004. – 256 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
7. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Москва: Академия, 2008. – 256 с.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2013. – 198 b.
9. Ziyamuxamedova D. Olamning lisoniy manzarasi va milliy tafakkur masalalari // O'zbek tilshunosligi masalalari, 2020, №2. – B. 34–41.

Valentina MASHARIPOVA,

Urgench State university named after Abu Rayhan Biruni

PARAPHONETIC MEANS IN THE REPRESENTATION OF EMOTIONS IN ENGLISH AND RUSSIAN LITERARY DISCOURSE

Annotation. This article is devoted to the linguocultural analysis of parophonetic means utilized in the English literary text by J.Galsworthy ("The Man of Property") and the Russian text by F.Abramov ("Братья и сестры"). The purpose of the research is to identify how prosodic and acoustic characteristics of speech, expressed lexically, reflect culturally established models of verbal behavior and national norms of emotional expression. The comparison demonstrates that parophonetic means serve as significant indicators of cultural differences and function as a tool for the artistic formation of character images.

Keywords: paraphonetic means, marker, prosody, linguoculturology, literary text.

Annotatsiya. Maqola J.Golsuorsiyning ingliz badiiy matni ("The Man of Property") va F.Abramovning ruscha matni ("Братья и сестры") da qo'llangan parafofnetik vositalarning lingvomadaniy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotdan maqsad leksik jihatdan ifodalangan nutqning prosodik va akustik xususiyatlari verbal xulq-atvorning madaniy jihatdan shakllangan modellari va hissiy ifodalashning milliy me'yorlarini qanday aks ettirishini aniqlashdan iborat. Qiyoslash shuni ko'rsatadiki, parafofnetik vositalar madaniy farqlarning muhim ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi va personajlar obrazlarini badiiy shakllantirish vositasi sifatida ishlaydi.

Kalit so'zlar: parafofnetik vositalar, marker, prosodiya, lingvokulturologiya, badiiy matn.

Аннотация. В данной статье рассматривается лингвокультурный анализ парафофнетических средств, используемых на материале английского и русского языков (на примере произведений J.Galsworthy The Man of Property Ф.Абрамова «Братья и сестры»). Целью исследования является определение того, как лексически выраженные просодические и акустические особенности речи отражают общепринятые нормы вербального поведения, а также национальные нормы выражения эмоций. Данное сопоставление выявляет роль парафофнетических средств как важных показателей культурных различий и инструмент создания художественного образов персонажей.

Ключевые слова: парафофнетические средства, маркер, просодия, лингвокультурология, художественный текст.

Paralinguistic means are a subject in recent international studies. Among the key works, the research of Uzbek linguists makes a special contribution, particularly D.A.Abdurazizova, who analyzes paralinguistic means in intercultural communication, emphasizing the national and cultural specificity of gestures and facial expressions in Uzbek descriptions of a person (for example, gestures of respect such as "pressing the hand to the heart") [1: 3; 2: 11]. In a comparative analysis of English and Uzbek, N.U.Kodirova and G.I.Nurmurodova examine paralinguistics in ceremonial situations, including portraiture in wedding and funeral descriptions, where Uzbek gestures emphasize formality [7: 551–552]. These studies emphasize Eastern values in the paralinguistics of the Uzbek portrait.

Such paraphonetic means as intonation, timbre, rhythm, and melody are key components of a literary text that enable the writer to convey emotional states, social roles, and cultural communication patterns [3: 53–54; 4: 13–15]. Their representation in literary texts is primarily achieved via lexically expressed markers of manner speech allowing the reader to recreate a potential acoustic realization of a character's utterances [5: 26–57].

In the linguocultural sense, paraphonetic markers are components of a semiotic system that represent national notions about the standard of verbal behavior, the acceptable level of emotionality, and formal limits on the expressing of feelings [6: 76–78; 8: 6]. A comparative linguocultural analysis of English and Russian literary texts reveals a cultural difference in expression and perception such prosodic features as "voice", "politeness", and "emotionality". The research material was based on fragments from J. Galsworthy's novel The Man of Property and F.Abramov's novella Brothers and Sisters.

Paraphonetic markers in Galsworthy's work are expressed restrainedly and frequently serve to highlight the social role of the character.

1. "*...said Irene softly*". The adverb "soft" denotes calm, even and mild timbre of Irene's voice describing its smoothness and lack of impulsivity. From the perspective of the cultural code, the English softness of voice is associated with femininity, delicacy, and restraint – qualities expected of a representative of the upper class. Thus, this prosodic device becomes a symbol of the heroine's social status and emotional self-control.

2. *A silent, almost morose <...> "Tom's bad again; I can't tell what's the matter with him!"* This exclamatory intonation conveys anxiety; nevertheless, the situation is described by a phrase "almost morose inattention", creating the impression that the suppressed emotion transforms within the framework of a polite social conversation. Standardized emotionality is characteristic of English culture: even a complaint is presented in the form of socially acceptable small talk. Therefore, the

intonation in this example is ritualized rather than being a genuine expression of emotion.

3. "*Why*", he said in a surprised voice... "*Dear me!*" The phrase "in a surprised voice" indicates a change in tone, an increase in tempo, and sharp intonational shifts. However, the interjections "Why?" and "Dear me" are signals of the British tradition of understated surprise denoting that the expressed emotion is carefully constrained.

The analyzed paralinguistic means fall within the paradigm of "etiquette politeness" whose key function is to maintain social stability in communication. Based on the research, it can be concluded that English paraphonetic markers are restrained in their expression and integrated into the norm of ritualized communication. They function as markers of social status and form the characters' images via distinct, culturally regulated manifestations of emotion.

Russian verbal culture demonstrates more open and dynamic pattern of emotional expression. Paraphonetic markers in F. Abramov's work are vividly contrasting and intense.

1. "*с обидой в голосе проговорил Степан Андреевич*". The phrase sets the timbral coloration of the voice (lowering of tone, a lingering/drawling quality, slowness). In the Russian tradition, resentment (or обида) is a socially acknowledged emotion, the expression of which does not require masking. This vocal characteristic serves to directly represent the character's inner state.

2. "*Нет, вру я, – обиделась Настя*". The verb conveys the severity of the emotional experience. The tone rises sharply on the negative ("Нет" / "No"), followed by a falling intonation on "вру я" ("I'm lying"). This paraphonetic sign acts as an element of character: Russian speech often conveys a flash-like, discrete emotionality, which is based on directness and sincerity.

3. "*огрызнулся Мишка... горячо зашептал он*". The difference between the two paraphonetic markers, "*огрызнулся*" (snapped/snarled) and "*горячо зашептал*" (hotly whispered), indicates the typical Russian emotional amplitude. The first term refers to high tempo, sharpness, and aggressiveness while the second one shows a fast-paced, and emotionally charged whisper. Russian culture allows abrupt shifts between emotional states within a single situation. This represents the dynamic and spontaneous nature of the national emotional code.

Drawing from the above analysis, paraphonetic markers in the Russian text are vividly expressed and closely linked to the psychological portrait of the character. They convey a wide amplitude of emotions and reflect the cultural norm of open manifestation of feelings.

Discussion and conclusion. The comparison of the English and Russian material allows us to identify a number of essential linguocultural differences.

Indicator	English Text (J.Galsworthy)	Russian Text (F.Abramov)
Degree of Expression	Low, controlled	High, emotionally saturated
Function of Paraphonetics	Social (maintenance of norms)	Psychological (expression of character)
Intonation	Smooth, even	Contrasting, impulsive
Cultural Norm	Restraint, self-control	Directness, sincerity, dynamism
Author's Strategy	Minimalism of descriptions	Vivid, detailed marking

Thus, paraphonetic means serve as identifiers for cultural communication scenarios whereby the British model denotes minimalistic, ritualized articulation while the Russian model reflects an unrestrained release of emotional authenticity.

Consequently, these markers are essential elements in literary discourse for identifying national distinctions and function as a tool for the artistic formation of character portrayal.

References

1. Abduazizova D. Paralinguistic means in intercultural communications // Next Scientists, 2022, 2 (10). – P. 289–292.
2. Абдуазизова Д. Анализ паралингвистических средств в художественном тексте // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022, №5 (52). – B. 96–108.
3. Crystal D. Prosodic Systems and Intonation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Guyer J., Briñol P., Vaughan-Johnston T., Fabrigar LR., Moreno L., Petty R. Paralinguistic Features Communicated through Voice can Affect Appraisals of Confidence and Evaluative Judgments, 2021, 45(4). – P. 479–504.
5. Trager G. Paralanguage: a first approximation // Studies in Linguistics, 1958. Vol. 13. – P. 27.
6. Crystal D. Prosodic Systems and Intonation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
7. Qodirova N., Nurmurodova G. Linguocultural peculiarities of paralinguistic elements in English and Uzbek languages // The Lingua Spectrum, 2025, 4(1).
8. Guyer J., Briñol P., Vaughan-Johnston T., Fabrigar L., Moreno L., Petty R. Paralinguistic Features Communicated through Voice can Affect Appraisals of Confidence and Evaluative Judgments // Journal of Nonverbal Behav, 2021, 45(4). – P. 479–504.

Odinaxon HOMIDOVA,

Andijon davlat universiteti adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

“ARBA’IN” VA “NAZM UL-JAVOHIR” ASARLARIDAGI TIL VA SO’ZGA OID HADISLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” va “Arba’in” asarlarida til va so’z mas’uliyati masalasi Qur’oni Karim oyatlari hamda hadislar asosida qiyosiy-tahliliy jihatdan o’rganiladi. So’zning inson tafakkuri, axloqiy kamoloti va ijtimoiy munosabatlardagi o’rni yoritiladi. Navoiyning badiiy tafakkuri Qur’on va hadis mazmunini axloqiy-falsafiy konsepsiyaga aylantirgani asoslanadi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, hadis, Qur’oni Karim, til va so’z mas’uliyati, nutq madaniyati, sukut, islomiy axloq, komil inson.

Annotation. This article examines the issue of language and responsibility of speech in Alisher Navoi’s works “Nazm ul-javohir” and “Arba’in” through a comparative and analytical approach based on the Qur’an and Hadith. The article demonstrates how Navoi transforms Qur’anic and prophetic teachings into a profound ethical and philosophical concept, presenting silence as an active moral choice. The findings contribute to the study of Navoi’s legacy in the context of Islamic moral philosophy and speech ethics.

Keywords: Alisher Navoi, “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, Hadith, Qur’an, responsibility of speech, speech ethics, silence, Islamic morality, perfect human.

Аннотация. В статье рассматривается проблема ответственности слова в произведениях Алишера Навои «Назм ул-жавохир» и «Арбаин» на основе сравнительного анализа с Кораном и хадисами. Обосновано, что Навои превращает коранические и хадисные идеи в целостную нравственно-философскую концепцию.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Назм ул-жавохир», «Арбаин», хадис, Коран, ответственность слова, культура речи, молчание, исламская этика, совершенный человек.

Shoirilar sultoni hisoblanmish Nizomiddin Mir Alisher Navoiy qoldirgan ilmiy va badiiy meros biz avlodlar uchun juda qadrli. Uning badiiy, axloqiy-diniy g’oyalari necha asarlar o’tsa-da o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Chunki uning asarlari Qur’oni Karim va payg’ambarimiz (s.a.v)ning hadislariga asosiga qarilgan. Navoiy qoldirgan ma’naviy xazina zamirida butun bashariyatni komil inson sifatida tarbiyalash g’oyasi mujassamdir. Ana shunday tengsiz asarlaridan biri – qirq hadisni nazm yo’lida sharhlagan “Arba’in”, ikkinchisi Ali Ibn

Abutolibdan rivoyat qilingan hadislar sharhiga bag’ishlangan “Nazm ul-Javohir” asarlaridir. Mazkur maqolada har ikki asrda tilga olingan mavzu – tilning insoniyatni yo saodatga yoki falokatga duchor etishi mumkinligi haqidagi hikmatlar va hadislarini o’rganamiz. “Nazm ul-javohir” asaridagi 225 ta hadisdan 16tasi, “Arba’in”dagi 40 ta hadisdan 4 tasida tildan ehtiyotkorlik bilan tog’ri foydalanish haqida so’z boradi.

Hazrat Navoiy “Nazm ul-javohir” asarning kirish qismida so’zga ta’rif beradi: “So’z bog’i ajib gulistonedurkim, anda

jonbaxsh atirlik ashjori mavzun va ruhparvar royihalik ko'pdurur va lekin foydasiz xas-u hoshoki, balki zararlik holi xaloki ham bordur" [1: 4].

- "So'z bog'i" – nutq olami, til va fikrlar dunyosining ramziy ifodasi.
- "Jonbaxsh atirlik ashjor" – foydali, hikmatli, qalbnl tirlitiruvchi so'zlar.
- "Ruhparvar royihalik" – inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi go'zal fikrlar.
- "Foydasiz xas-u hoshok" – behuda, mazmunsiz so'zlar.
- "Zararlik holi xaloki" – yomon niyatli, fitnali, insonni halokatga yetaklovchi so'zlar.

Navoiy so'zni ajib bir gulistonga qiyos etmoqda, unda insonga jon bag'ishlovchi xushbo'y gullar bisyor. Ammo gulistonda begona o'tlar ham bo'lgani kabi so'z gulzorida ham insonga yoqmaydigan, ba'zida o'ziga ziyon ham keltiruvchi xas-hashaklar ham uchrab turadi. Gulzorga kirgan odam nimani uzishi mutlaqo o'ziga bog'liq. Muattar hidli gullarni uzsa, ko'ngli ham bundan taskin topadi. Tikan uzgan insonning qo'li tikanlardan ozor topadi va atrofdagilar ham ziyon ko'rishi ehtimoldan holi emas. Agar odam gulistondan gul uzolmasa, sukut eng tog'ri yo'l bo'ladi. Navoiy bu oqilona tanlov ekanini ham izohlaydi:

*Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil,
Yuz nav nadomatu malomat hosil,
Oz so'zlaganidin istiqomat hosil,
Sokidligidin vale salomat hosil* [1: 31].

Mazkur to'rtlikda shoir so'z va sukut dialektikasini markazga qo'yadi. Birinchi misrada *til ildami* iborasi orqali o'ylamay aytilgan so'z, shoshqaloqlik bilan bildirilgan fikr nazarda tutiladi. Navoiy bunday holatning oqibatini "g'aromat" – zarar, yo'qotish, baloga duchor bo'lish bilan bog'laydi. Ya'ni til insonni halokatga yetaklovchi qudratga ega ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi misrada ushbu holat yanada kuchaytiriladi: *yuz nav, nadomatu malomat* iborasi tilni tiymaslik oqibatida inson ichki pushaymon (nadamat) va ijtimoiy qoralanish (malomat) ga duchor bo'lishi anglashiladi. Bu jihatdan ruboiy ijtimoiy axloq va shaxsiy mas'uliyat masalalarini qamrab oladi.

Uchinchi misrada shoir qarama-qarshi holatni ilgari suradi: *oz so'zlash* – hikmatli, o'ylangan, me'yorli nutq manbaysi sifatida baholanadi va u *istiqomat*, ya'ni to'g'rilik, barqarorlik, axloqiy muvozanatga olib kelishi ta'kidlanadi. Bu g'oya islomiy axloq falsafasidagi i'tidol (me'yor) tamoyili bilan hamohangdir.

To'rtinchi misrada esa Navoiy fikrni yakunlab, sukutni eng oliy holat sifatida ko'rsatadi: *soqitlik* (jimlik, kamgaplik) insonni *salomat* – xavfsizlik, osoyishtalik va ma'naviy poklikka eltadi. Bu o'rinda sukut oddiy jim turish emas, balki donolik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu to'rtlik "Arba'in" asarida keltirilgan "*Al-muslimu man salima al-muslimuna min yadihi va lisonihi*" [2: 24–25] hadisi bilan ma'no jihatdan hamohanglik hosil qiladi. Islom – axloq tizimida shaxs va jamiyat munosabatini belgilovchi mezon. Hadisda musulmonlik faqat e'tiqod yoki ibodat bilan

emas, balki ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi axloqiy xulq bilan o'lchanadi. Bandaning iymoni ibodat yoki boshqa amallar bilan emas, ijtimoiy hayotdagi ahloqiy normalar bilan belgilanmoqda. Tilning zarar yetkazish ehtimoli alohida ta'kidlanadi. Hadisni badiiy tarzda sharhlar ekan, quyidagi ruboiyni keltiradi:

*Kim musulmonlig' aylasa da'vo,
Chin emas gar ffdo qilur jonlar.
Ul musulmondururki, solimdur,
Tiliyu ilgidin musulmonlar* [2: 27–28].

To'rtlikda shoir "da'vo" va "haqiqat" qarama-qarshiligini asosiy g'oyaviy o'q sifatida qo'yadi. Birinchi misrada musulmonlikni og'zaki iddao darajasida qabul qilish keskin tanqid qilinadi. Shoirning fikricha, faqat "musulmonman" deya e'lon qilish, hatto zarurat bo'lsa jonini fido qilish ham chin musulmonlik mezoni bo'la olmaydi. Ikkinchi misra orqali Navoiy bu fikrni yanada keskinlashtiradi: tashqi fidoyilik ichki axloqiy poklik bilan uyg'un bo'lmasa, u haqiqiy iymon belgisi emas. Bu o'rinda shoir ibodat va qahramonlikni emas, balki kundalik axloqiy mas'uliyatni ustuvor qo'yadi. Uchinchi va to'rtinchi misralarda esa shoir aniq mezonni belgilaydi: haqiqiy musulmon – boshqalar uning tilidan ham, qo'ldan ham omon bo'lgan shaxsdir. Navoiy hadis mazmunini she'riy, xalqona va axloqiy jihatdan kuchli shaklga keltiradi. "To'rtlik"da "til" va "qo'l" tushunchalari ramziy ma'noga ega: til – ma'naviy zarar (haqorat, tuhmat, g'iybat), qo'l esa jismoniy zarar timsolidir. Navoiy bu ikki unsur orqali jamiyatdagi tinchlik va ishonch muhiti insonning nutqi va amaliy xulqiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Insonning har qanday amali yo'q bo'lib ketmaydi, isqolcha yaxshilik qilgan bo'lsa ham, zarra yomonlik qilgan bo'lsa ham. Ammo Yaratganning marhamati keng. U bandalariga g'oyatda mehribon. Kichkina yaxshiligiga katta mukofot hozirlaydi. Agar gunohga qadam bosgan bo'lsa-yu mag'firat so'rasa, gunohidan kechadi.

Alloh ilohiy kitobi Qur'oni Karimda shunday marhamat qilgan: "*Inson aytgan har bir so'zi uchun uning yonida kuzatuvchi farishta hozirdir*" [3: 518]. Oyatdan shu narsa ayon bo'ladi, inson tilidan chiqadigan har bir so'z ilohiy qudratning nazorati ostida turadi. Shu sababli ham o'zini iymonli musulmonman degan inson tiliga va so'ziga diqqatli bo'lishi lozim. Uning tilidan boshqalar ozor ko'rmasligi kerak. Zotan, har bir so'z uchun adolatli zot oldida javobgarlik ulkan bo'ladi. Hadisda ham shunga ishora qilingan. So'z ijtimoiy havfsizlikning asosiy mezon etib belgilangan. Navoiy esa so'zni badiiy-axloqiy konsepsiyaga aylantiradi. Bu qarash uning ijodini islomiy axloq falsafasining adabiy ifodasi sifatida yangicha talqin qilish imkonini beradi. Sukutni shoir axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat shakli sifatida baholaydi. Qur'oni Karimdagi "nazorat" va Navoiy ijodidagi yohud hadisdagi "yaxshi so'z yoki sukut" tamoyili bir-biriga bog'liqdir. Banda Alloh uni doimiy nazoratida tutishiga iymon keltirgan ekan, yaxshi so'zni so'zlashi, buni aksi bo'lganda sukut saqlashi uning uchun manfaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir // Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Arba'in // Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Qur'oni Karim. Tafsihi Hilol / tarjima va tafsir muallifi Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-nashr, 2018.
4. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-Jome' as-Sahih. – Qohira: Dor al-hadis, 2001.
5. Muslim ibn Hajjaj. As-Sahih. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiy, 2000.

Tursunmurod OYDINOV,

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

TILNING MINIMAL SATHI VA TIL UNSURLARINING IYERARXIK MUNOSABATDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning minimal sathi va til unsurlarining iyerarxik munosabatdagi o'rni xususida ma'lumotlar beriladi. Fonetik va fonologik sathlarning til sistemasidagi mavqei, ularning o'zaro farqli va umumiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, fonemaning differentsial belgilari asosida subfonematik (merizmatik) sathning shakllanishi, fonematik sathning boshqa til sathlari bilan vertikal-pog'onali munosabati ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Natijada fonemaning til tizimidagi integrativ funksiyasi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: fonetik sath, fonologik sath, merizmatik sath, differentsial belgilar, urg'u, ritmik-aksentuatsion, subfonematik sath.

Annotation. This article provides information about the minimum level of language and the role of its elements in the hierarchical relationship. The phonetic level and its emergence and use by scientists in world linguistics are discussed. The article reflects the clarification of the specific features of the phonetic and phonological levels.

Keywords: phonetic level, phonological level, merismatic level, differential signs, stress, rhythmic-accentuative, subphonematic level.

Аннотация. В данной статье представлена информация о минимальном уровне языка и месте языковых элементов в иерархических отношениях. Освещается положение фонетического и фонологического уровней в языковой системе, их различия и общие черты. Также на основе научных источников объясняется формирование субфонематического (меризматического) уровня на основе дифференциальных признаков фонемы, вертикально-ступенчатые отношения фонематического уровня с другими языковыми уровнями. В результате обосновывается интегративная функция фонемы в языковой системе.

Ключевые слова: фонетический уровень, фонологический уровень, меризматический уровень, дифференциальные знаки, ударение, ритмико-акцентуативный, субфонематический уровень.

Til sistemasida uning eng kichik birliklarini birlashtiruvchi sath masalasi hozirgacha munozarali bo'lib qolmoqda. Ba'zi tilshunoslar bu o'rinda "fonetik sath" tushunchasidan foydalansalar, boshqalari "fonologik sath" tushunchasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb bilmog'dalar, ayrimlari esa bunday sathning mavjudligini inkor etayotganini ko'ramiz. Masalan, S.D.Katsnelson sathlar mavjudligini, aniqrog'i, shu nom bilan aytilishini inkor etadi [7: 101].

A.A.Reformatskiy tadqiqotlarida "fonetik sath" (yarus) tushunchasi qo'llanilib, bunda muallif Boduen de Kurtene g'oyasiga asoslangani seziladi: "Eng avval otusiga kirib qolgan "so'z tovushlardan tashkil topadi" degan aqidadan voz kechmoq kerak, zotan, mazkur tushuncha mutlaqo izohtalabdir. Chunki, birinchidan, so'z morfemalardan tashkil topadi (hatto bir morfemali so'zlar ham bundan istisno emas); ikkinchidan, morfemalar tovushlardan emas, balki fonemalar vositasida shakllanadi. Nutqda talaffuz etiladigan tovushlar fonemalarni taqozo etadi, fonemalar morfemalar uchun qurilish materialidir" [8: 95]. N.S.Trubetskoy esa quyidagilarni mutlaqo to'g'ri ta'kidlagan edi: "...правила сочетаемости фонем предполагают наличие более высокой фонологической единицы, в рамках которой они действительны. Такой более высокого порядка фонологической единицей не всегда должно быть слово. Во многих языках такой единицей является не слово, а морфема" [10: 280].

Tilning fonologik sathi birliklari faqat morfematik sath birliklari bilangina uzviy aloqador emas, balki barcha sath birliklarini ham fonologik birliklar ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. R.I.Avanesov ta'biri bilan aytganda, "tilning grammatik qurilishini, uning lug'at tarkibini o'rganish, fonetik sistemasini o'rganishni ham taqozo etadi". Biroq bu bilan fonetika va grammatikani qorishtirib yuborish mumkin, degan xulosaga kelib bo'lmaydi. R.I.Avanesovning fikri ham ibratlidir: "...fonema bilan ma'no tushunchasi o'rtasida uzviy aloqa mavjud bo'lsa ham, bu munosabat bevosita emas, balki bilvositadir. Zotan, fonema so'z ma'nosini emas, uning tovush qobig'inigina farqlaydi" [1: 13–14]. H.Jamolxonovning bu haqdagi mulohazalarida ham shu tarzda belgilanadi: "Fonema – so'zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig'ini farqlash orqali ularning ma'nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir" [5: 38].

Fonemaning morfema yoki so'zning tovush qobig'ini farqlashi faqatgina fonetik o'zgarish emas. Bu jarayonda fonema o'zining differentsial belgilarini namoyon etadi. Albatta, uning bunday xususiyati hozirgi tilshunosligimizda ichki pog'onali munosabat deb atalayotgan fonologik hodisaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, bu xildagi differentsial belgilar fonematik sath ichida "merizmatik sath" deb ataluvchi mikrosathning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Fonemaning differentsial belgilari segmentlarni tashkil eta olmaydi. Lekin shunday bo'lsa ham, u fonemaning ichki bo'linishini taqozo etishi bilan ajralib turadi. Fonemalarning differentsial (merizmatik) belgilari fonematik sath ichida yashovchi quyi sathni (subfonematik) tashkil etadi [4: 144]. Shu bois ayni paytda fonematik va quyi fonematik sathlar unsurlari o'rtasida pog'onali munosabat shakllanadi. Merizmatik sath birliklari (aniqrog'i, unsurlari), fonematik sath birliklaridan farqli ravishda, sintagmatik munosabatga kirisha olmaydi. Ular o'rtasida faqat paradigmatic munosabat shakllanadi. Shuning uchun ba'zi tilshunoslar merizmalar alohida sathni tashkil etaolmasligini ta'kidlaydilar. Masalan, V.M.Solntsev merizmalar sintagmatik munosabatga kirisha olmagan uchun, ular til sathlariga taalluqli bo'lgan "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" shartiga javob bera olmasligini va shu bois ularni alohida sath tarzida talqin etish noto'g'ri ekanligini aytadi [9: 14].

Bizningcha, V.M.Solntsevning mazkur fikri haqiqatga yaqin. Shuning uchun tilshunoslik adabiyotlarida bu o'rinda "subfonematik sath" tushunchasidan foydalanilmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, fonemalar fonematik sath doirasidagina paradigmatic munosabatda bo'ladi. Ular fonematik sathdan katta sathlar birliklarida belgining ifodalovchi jihatini tashkil etib, o'zaro sintagmatik munosabatga kirishadi. Lekin sathlar munosabati bunday xususiyat kasb eta olmaydi. Chunki ular pog'onali munosabat qurshovida bo'ladi. Shu bois fonematik sath bilan morfematik sath, morfematik sath bilan so'z sathi va h.k. o'rtasidagi munosabat vertikal chiziq doirasida ro'y beradi [6: 16].

Fonematik sath birliklarining ichki pog'onali munosabatini nisbiy tushunmoq kerak. Chunki fonemalarning differentsial belgilari nutqda o'zining aniq ifodasini topadi, zotan, ular fonemalarning artikulyatsion va akustik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir [3: 60]. Ravshanki, fonema nutqning minimal segmenti vazifasida kela oladi, prosodema hamda ritmik-

aksentuatsion vositalar esa bunday funksiyani bajara olmaydi. Bu jihatdan ularni fonemalarning differentsial belgilari bilan qiyoslash mumkin. Biroq, differentsial belgilar fonematik sath doirasida ichki pog'onali munosabatni shakllantiradi, urg'u, ritmik-aksentuatsion vositalar hamda prosodemaning esa bunday xususiyatlari yo'q. Ammo, mazkur vositalarning nutqni segmentlash uchun, fonemalarning nutqdagi holatini (bo'g'in tarkibida) belgilash uchun ta'siri kattadir. Ichki pog'onali munosabat vujudga kelishi jarayonida fonema integrativ funksiya bajaradi [2: 41].

Tilshunos olimlar bergan ma'lumotlarda fonemaning til tizimidagi o'rni, uning morfema va boshqa yuqori sath birliklari

bilan bilvosita, ammo uzviy bog'liqligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Fonemaning differentsial belgilari fonematik sath doirasida ichki pog'onali munosabatni yuzaga keltirishi, ushbu belgilar subfonematik (merizmatik) birliklar sifatida mustaqil sath emas, balki fonematik sathning quyi darajasi ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, fonematik sath bilan boshqa til sathlari o'rtasidagi munosabatning sintagmatik emas, balki vertical-pog'onali xarakterga ega ekanligi aniqlashtirildi. Natijada fonema tilning minimal segment birligi sifatida integrativ funksiya bajarishi, fonologik tizim esa tilning barcha sathlari faoliyatini ta'minlovchi muhim strukturaviy asos ekanligi xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аванесов Р.И. Кратчайшая звуковая единица в составе слова и морфемы // Вопросы грамматического строя. М., 1955.
2. Бабаев И.А. Фонетические единицы и их терминологическое обозначение И.А.Бодуэном де Куртенэ и в современной лингвистике// Бодуэн де Куртенэ и современная лингвистика. – Казань, 1989.
3. Баранникова Л.И. Основные сведения о языке. М., 1982.
4. Головин Б.Н. Язык // Общее языкознание. М., 1979.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
6. Колшанский Г.В. Проблемы стратификации языка //Вопросы языкознания, 1968. №2.
7. Мартынов В.В. Два уровня языковой действительности и двойное членение языка // Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967.
8. Реформатский А.А. О соотношении фонетики и грамматики (морфологии) // Вопросы грамматического строя. – М., 1955.
9. Солнцев В.М. О понятии уровня языковой системы // Вопросы языкознания, 1972. №3.
10. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960.

Qahramon SOBIROV,

*Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,
ffilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

DRAMATIK ASARLARDA ALLEGORIYA VA SIMVOLIZM

Annotatsiya. Ushbu maqola dramatik asarlarda allegoriya va simvolizmning lingvostilistik va estetik funksiyalarini tahlil qiladi. Allegoriya mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalash, simvolizm esa chuqur falsafiy ma'nolarni ramziy vositalar bilan ochib berish sifatida ko'rib chiqiladi. O'zbek dramaturgiyasi misollarida ularning konfliktlarni kuchaytirishdagi roli aniqlanadi.

Kalit so'zlar: allegoriya, simvolizm, dramatik asar, badiiy obraz, lingvostilistika, estetik funksiya.

Annotation. This article analyzes the linguostylistic and aesthetic functions of allegory and symbolism in dramatic works. Allegory expresses abstract concepts through concrete images, while symbolism reveals profound philosophical meanings via symbolic means. Examples from Uzbek dramaturgy illustrate their role in intensifying conflicts.

Keywords: allegory, symbolism, dramatic work, literary image, linguostylistics, aesthetic function.

Аннотация. Статья анализирует лингвостилстические и эстетические функции аллегории и символизма в драматических произведениях. Аллегория выражает абстрактные понятия через конкретные образы, символизм же раскрывает глубокие философские смыслы с помощью образных средств. На примерах узбекской драматургии определяется их роль в усилении конфликтов.

Ключевые слова: аллегория, символизм, драматическое произведение, художественный образ, лингвостилистика, эстетическая функция.

Badiiy asarlarda **allegoriya, simvolizm** kabi trop turlari qadimdan mavjud. Allegoriya – mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalash usuli [1]. Simvolizm ma'lum bir obraz yoki belgining chuqurroq ma'noga ega bo'lishi [2]. Ularda turli xarakterdagi kishilar obrazi majoziy tarzda yaratiladi, turli dunyoqarashdagi kishilarning hayotga qarashlari va o'zaro munosabatlari aks ettiriladi [3: 105]. "Simvolizatsiya – nutq kechimidagi ellipsis bilan bog'li sodir qiluvchi metofora. Allegoriya nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog'li holatda yuzaga chiqadi" [4: 97]. Dramatik asarlarda **allegoriya** va **simvolizm** muhim badiiy vositalar hisoblanadi. Ular orqali muallif murakkab g'oyalarni yashirin yoki ramziy tarzda ifodalaydi. Anvar Obidjonning "Qo'ng'iroqli aldamchi" asarida bu usullar orqali ijtimoiy, falsafiy va psixologik mavzular chuqurroq talqin qilinadi.

Darhaqiqat, dramatik asarda personaj xarakterini yaratishda uning nutqi individuallashtirilishi asosiy o'rin tutadi. Chunki

til – oyna, u orqali personaj qiyofasi, xarakter xususiyatlari, bilim doirasi, tajriba ko'rgan-ko'rmaganligi, dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, Anvar Obidjonning "Qo'ng'iroqli aldamchi" pyesasi qahramonlarining nutqi e'tiborni jalb etuvchi bir qator xususiyatlarga ega. Muallif ushbu asarning janrini ikki pardali cho'pchak deb atagan va Uloq, Eshak, Ho'kiz, Bo'taloq, Qo'zichoq, It, Quyon, Tulki, egizak Bo'rilar unda ishtirok etuvchi obrazlardir.

Asarda tasvirlangan voqea sodda: Ashqal, Dashqal deb atalgan egizak bo'rilarning "do'st bo'lamiz, sen oqsoqol bo'lasan" degan aldoviga uchgan uloqqa bir necha hayvonni ergashtirib, ular turadigan toqqa boradi. Quyoning o'z vaqtida Olaparni xabardor etishi tufayli, ular xavfdan qutilib qoladilar. Biz bu yerda qahramon nutqiga yuklanadigan bir xususiyat – unda xarakter ko'rinishi masalasi ushbu asarda qanday hal etilgani haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Asarda Uloq bosh qahramon obrazidir. Uning maqtanchoqlik fe'li

yetakchi xususiyatdir. Uloqning maqtanchoqligi, o'zini katta tutishi, hukmdor – oqsoqol bo'lish vasvasasi o'zga hayvonlarga munosabatida, uning nutqidagi o'dag'aylash, mensimaslik, buyruq, maslahat berish ohanglarida aks etadi. Shuning uchun ham uning nutqida ko'proq buyruq gaplar, kuchli urg'ular tez-tez uchrab turadi. Buni tomoshabin yoki o'quvchi dastlabki sahnadayoq his etadi. Uloq dastlabki sahnada Tulki bilan to'qnashib ketgach, dag'dag'a qiladi: *"Po'sht! (bo'ynidagi qo'ng'iroqchani jiringlatadi). Amaldorga yo'l berilsin!"* Tulki uni mensimay, to'yga borayotganini ma'lum qilganda, yana balanddan keladi: *"Ie, kim ekan u mendan so'ramay to'y qilayotgan? Tanobini tortib qo'yamiz. Xo'sh, qopingdagi nima?"*

E'tibor bersangiz, birinchi holatda *"Po'sht!"* bo'laklarga ajralmaydigan gapi tez yo'l bo'shatishni talab etuvchi o'dag'aylash ma'nosini ifodalaydi. Bu aslida odamlarni yo'ldan qochirish uchun ishlatiladigan xitobdir. Tarixiy asarlarda ham amaldorlar kelishi munosabati bilan odamlar shu xitob orqali yo'ldan chetlashtirilgani tasvirlari uchraydi. *Amaldorga yo'l berilsin!* gapi ham rasmiy nutqqa xosdir. Gap kesimning majhul nisbatda, III shaxs shaklida kelishi uning farmoyish, buyruq ohangini ta'minlaydi. Odatda rasmiy nutqda buyruq umumga qaratilgan, umumxalq, umumdavlat manfaati nazarda tutilgan bo'ladi. Yuqorida eslatganimizdek, o'tmish tasviri berilgan xalq ertaklari, dostonlarida xonlarga yo'l bo'shatish buyrug'i ham xizmatkorlar tomonidan amalga oshirilgani ko'rinadi.

Xonlar o'zlariga yo'l bo'shatishlar, deb aytmagan. Ushbu asarda bu buyruqni Uloqning o'zi aytishi, birinchidan, uning maqtanchoqligini ochadi, ikkinchidan, uning ushbu holatiga nisbatan o'quvchida kulgi uyg'otishga xizmat qiladi.

Ikkinchi misolda ham Uloqning maqtanchoq qiyofasi ko'rinib turibdi. Uloqning nazarida, hamma o'z ishi, yurish-turishi, rasm-rusumlarida oqsoqol bilan hishlabshishi kerak. Shunga ko'ra, *Ie, kim ekan u mendan so'ramay to'y qilayotgan?* deya zug'umli kinoya qiladi. O'zini o'zi oqsoqol qilib tayinlab yurgan uloqning boshqalarning to'y qilishiga ham hukmronlik qilish talabi o'quvchilarda kulgi qo'zg'aydi va asarga qiziqishlarini, estetik zavqlarini oshiradi. *Tanobini tortib qo'yamiz* gapi ham rasmiy, balandparvoz nutqqa xosdir. Kesimning shaxs-son qo'shimchasi ko'plik shaklida kelishi, ayniqsa, uning ibora bilan ifodalangani dimog'dorlik ohangini kuchaytirgan. Uloqning Tulki qopida nima borligiga qiziqishi ham o'ziga bino qo'yanligini anglatib turadi. Bu shunchaki qiziqish emas, balki ayni paytda amirona talabdir. Demak, oqsoqolning nazaridan hech nima chetda qolmasligi, boshqalar unga itoatkorona bor-budlarini ayon etishlari kerak.

Bir gal Eshak ham uning *ruxsat beraman!, hisobga olaman* deganlaridan ensasi qotib, uni ermaklaydi. Ammo Uloq yana uni savodsizlikda ayblab, o'zining shu yaylovga boshliq bo'lganini ta'kidlaydi. Chunki Uloq uning qo'shiq aytmoqchi bo'lganida, *"ruxsat beradi"*, qo'shig'i haqida fikrini so'raganda, *"Har qalay, ancha durust. Buni, albatta, hisobga olaman"*, degan edi. Ana shu muomalada ham Uloqning o'zini baland olish ko'rinadi. Hech gapdan hech gap yo'q *"xo'jayin"* paydo bo'lganidan esa Eshakning jahli chiqadi.

Dag'dag'ali nutqda *"vey"* undovi, alohida so'zni ajratib urg'u berish dag'dag'ani kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Uloq o'ziga e'tibor bermagan Eshakka: *"Vey, Esh-shak!"* deya murojaat qiladi. Boshqalarni mensimovchi nutqda ularni laqabi bilan chaqirish, kamchiligini aytib chaqirish, *"hu"*, *"hey"*, *"be"* undovlarini pisand qilmaslik ohangida qo'llash ham ko'p uchraydi. Masalan, Bo'taloqning bizga oqsoqol nimaga kerak degan ma'nodagi mulohazasiga nisbatan, Uloq unga: *"Hu, o'qimagan!"* deya tanbehan murojaat qiladi.

Tulki obrazi nutqida uning xarakter ko'rinishlari ham qiziqarli. Bu nutq vaziyatga qarab tovlanuvchi, firibgarlik belgilari aks etib turuvchi xususiyatlarga ega. Masalan, u tovuq o'g'irlab kelayotib, to'yga borayotganligini, to'yonaga ikkita par yostiq olib ketayotganligini aytib, yolg'on so'zlaydi. Quyvon uning o'g'irilgini fosh etganda esa Quyvoni *"karam o'g'risi"* deya ayblaydi, o'g'riga chiqaradi. Tulkining nutqidan har yerdan firibgarona xabardorlik fe'li ham ayon seziladi. U Uloqning dag'dag'asi oshavergach, unga mug'ombirona sipolanib, uning ham halol emasligini, sirini bilishini qulog'iga shipshiydi.

Tulki Uloqning sirini bilishi va bu sirni ochish-ochmaslikda o'z manfaatini ko'zda tutadi. Gap shundaki, Uloq bir gal o'tloqda adashib qolgan, uni Tulki o'lja qildim deb sevinganda, Ashqal va Dashqol – egizak bo'rilar paydo bo'lib, o'ljadan quruq qolgan. Bo'rilar esa Uloq bilan go'yo do'st tutinib, Serkaning qo'ng'irog'ini o'g'irlashga, kichikroq podaga bosh – Oqsoqol bo'lib yurishga *"da'vat"* etgan. Tulki bu sirni bilishini aytgach, Uloq undan maqsadi nimalagini so'raydi. *"Maqsad yo'lbarlarda bo'ladi, tulkilarda nafs bor!"* – deydi. – *Sir saqlashim uchun menga pora berishing kerak"*. Uloq pora nimaligini tushunmaydi. *"Pora nimaligini bilmasliging yaxshi emas, – deydi so'ngra Tulki. – Sendan haqiqiy boshliq chiqishiga ko'zim yetmay turibdi. Ochig'ini aytсам, og'zimni moylashing kerak, azizim. Hech bo'lmasa, qo'zichoqning yog'i bilan"*.

Ushbu nutq parchasidan ko'rinadiki, Tulkining boshliqlikka ko'tarilish va sir bekitish masalalarida firibgarona dunyoqarashi bor. Uningcha, bu yo'llar *"pora"* va *"og'iz moylash"* tushunchalari bilan bog'langan. Buni bilmagan Uloqning boshliq bo'lolmasligi aniq, bunga ishora qilib, *"sendan haqiqiy boshliq chiqishiga ko'zim yetmay turibdi"*, deb qayd etadi.

Muallif asar qahramonlari nutqini individuallashtirishda ularning tabiati bilan bog'liq ayrim leksik unsur (element) larni muvaffaqiyatli qo'llashda mahorat ko'rsatgan. Masalan, Ho'kiz *xo'sh* so'zini xush ko'rmaydi. Shuning uchun Uloq unga: *"xo'sh, bu adolatdanmi?"* deya savol berganida, *"Sendan iltimos qilaman, oqsoqol, bundan keyin men bilan gaplashganingda, xo'sh degan so'zni ishlatmagin"*, deya mulohaza bildiradi. Ana shu so'z vaqti-vaqti bilan muloqotlarda takrorlanadi va bunga Ho'kizning e'tirozlari o'quvchi hamda yosh tomoshabinlarda yengil kulgi, zavqlanish qo'zg'aydi. Masalan, bir gal Uloq o'zining Oqsoqolning isboti uchun tamg'ali dalil keltirib, *"xo'sh, sizlarga yana nima kerak?"* deganda, *"Senga aytuvdimku, oldimda xo'sh degan gapni ishlatma deb"*, deya e'tiroz bildiradi. Boshqa bir o'rinda Eshak: *"Xo'sh, nima gap!"* deganida, *"Xo'sh demay gapir-e"*, – deya jahllanadi. Oqsoqolning gapi bilan Quyvoni quvib yuborishganda, Ho'kiz uning gapi, ehtimol, rostdir degan mulohazani o'rtaga tashlaydi. Uloq bunga javoban, *"Rost gapirganida nima, xo'sh?"* deganida, yana achchiqlanib, yana *"xo'sh"* deydi-ya! deya akslanadi. Qo'zichoqning hammaning gapini, bir-biriga teskari aytilganda ham, *"to'g'ri"*, *"to'ppa-to'g'ri"* deya ma'qullayverishi uning tajribasizligi, ishonuvchanligi, har yaxshi gap unga ma'qul ko'rinaverishi kabi xususiyatlari, umuman, qo'y tabiati ifodasini topadi.

Bo'taloqdagi keskin, murosasiz xarakter uning nutqidagi *"tupirdim"* leksikoni orqali yaxshi ifodasini topadi. Masalan, Uloq hayvonlarga joy bo'lashganda, Bo'taloqqa adirning etaklari tegadi. *"Tupirdim adirning etagiga, – deydi u. – Yantoqdan boshqa narsa yo'q"*. To'qqa sayohat chog'i: *"Tfu, shuyam sayohatmi?"* – deya asabiylashadi. Uloqning Oqsoqollik a'loamatlari haqida gap ketganda, *"tupurdim o'sha temir-tersaklarga"*, – deydi. Asar oxirida ham Uloqqa kechirimlilik

qiladi. Kechirishini ham shu leksik vosita bilan ifodalaydi: “Tupirdim shu xafagarchilikka. Biz bilan quvnasang-chi”.

Umuman, olganda, Anvar Obidjonning “Qo’ng’iroqli aldoqchi” asarida qahramonlar xarakteri ular nutqida yaxshi ifodasini topgan. Muallif ularning nutqini individuallashtirishda tildagi leksik-grammatik vositalarning uslubiy ma’no xususiyatlaridan o’rinli foydalana olgan. Demak, badiiy asarlarda majoziy obrazlar berilganda, ularda turli xarakterdagi kishilar obrazi ifodalanadi va bu xarakterlar ularning nutqi orqali ochiladi.

Dramatik asarlarning personajlari nutqida simvolik (ramziy) ifodalar ham obrazlilik, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, “Hamza” dramasi bosh qahramoni Hamza asarning birinchi parda birinchi ko’rinishida “Quyosh yo’qolmas” deydi. Bunda xalqning madaniy merosini ramziy ifoda etadi. “Quyosh” so’zi tahlili: asosiy ma’no (denotativ): Quyosh –

Yerga nur va issiqlik beruvchi osmon jismi; ko’chma ma’no (konnotativ): yorug’lik, hayot, umid, abadiylik, hokimiyat timsoli. “Yo’qolmas” so’zi tahlili: Morfologik tahlil: “Yo’qol” fe’lining inkor shakli (“yo’qol+ma+s”); semantikasi: Abadiylik, o’zgarmaslik, saqlanib qolish mazmunini bildiradi; haqiqiy ma’no: Quyosh astronomik jihatdan yo’q bo’lmaydi; majoziy ma’no: G’oyalar, qadriyatlar, qahramonlik abadiy saqlanadi; tasviriy vosita sifatida: metafora (quyosh – abadiylik timsoli); kuchli sintaktik konstruksiya: Qisqa, ammo chuqur ma’noli ibora – epigrammatik uslub xususiyati; badiiy ta’sir: Ibora dramadagi asosiy mavzuni (abadiylik, kurash) ifodalaydi.

Dramatik matnlarda **allegoriya** va **simvolizm** orqali jamiyatdagi riyokorlik, adolatsizlik kabi murakkab mavzular yoritilgan. Qo’ng’iroq, qorong’u va yorug’lik kabi obrazlar universal ramziy ma’noga ega bo’lib, asarning badiiy qimmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bloomfield M.W.A Grammatical Approach to Personification Allegory // Modern Philology, 1963. <https://doi.org/10.1086/389535>.
2. Crisp P. Allegory and Symbol – a Fundamental Opposition // Language and Literature, 2005. <https://doi.org/10.1177/0963947005051287>.
3. Burkhardt A., Brigitte N. Tropical Truth(s): The Epistemology of Metaphor and Other Tropes. – Berlin: De Gruyter, 2010.
4. Mirtojdiyev M. O’zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so’z, 2010.

Mashhura NURULLOYEVA,

*O’zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi*

OZOD SHAROFIDDINOVNING “DOMLALAR” ASARIDA MA’RIFAT SIYMOLARINING TAVSIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ozod Sharofiddinovning “Domlalar” asarida berilgan maqolalarning ayrimlari tahlil qilinib, asosan adib hayotida muhim rol o’ynagan ustozlar yodga olinadi. Maqolalarda ustozlarning insonparvarligi, ilmiy rahbarlik va shogirdning shaxsiy va ijodiy kamolotidagi roli batafsil yoritadi. Maqolada ustoz-shogird munosabatlarining falsafiy, pedagogik va ijtimoiy mazmuni ochib beriladi.

Kalit so’zlar: saboq, ma’rifat, xotira, kamolot, tanqidchilik maktabi, adabiy meros.

Annotation. This article analyzes some of the articles given in Ozod Sharofiddinov’s work “Domlalar” and mainly mentions the mentors who played an important role in the writer’s life. The articles detail the humanism of teachers, scientific guidance, and the role of students in their personal and creative development. The article reveals the philosophical, pedagogical, and social content of teacher-student relationships.

Keywords: lesson, enlightenment, memory, maturity, school of criticism, literary heritage.

Аннотация. В этой статье анализируются некоторые статьи, представленные в произведении Озода Шарофиддинова «Учителя», и в основном упоминаются учителя, сыгравшие важную роль в жизни писателя. В статьях подробно освещается гуманизм наставников, их роль в научном руководстве и личностном и творческом развитии ученика. В статье раскрывается философское, педагогическое и социальное содержание отношений наставник-ученик.

Ключевые слова: наставление, просвещение, память, духовное становление, школа литературной критики, литературное наследие.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotida ustozning o’rni beqiyosdir. Ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi, hayotiy qarashlarni yo’naltiruvchi, ma’naviy-axloqiy mezonlarni singdiruvchi buyuk kuchdir. Inson hayoti davomida duch keladigan murakkab tanlovlar, kasbiy va shaxsiy rivojlanish bosqichlarida ustoz ko’rsatmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O’zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilik maktabida muhim o’rin tutgan Ozod Sharofiddinovning “Domlalar” turkumiga mansub maqolalari ana shunday yuksak ma’naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega asarlardandir. Ushbu turkumda adib o’z hayotida muhim rol o’ynagan ustozlarining siymosini xotira-essela shaklida yoritib, ustoz-shogird munosabatlarining chuqur falsafiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib beradi.

Ustoz-shogird munosabatlari masalasi Sharq va G’arb ilmiy-falsafiy tafakkurida keng yoritilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida ustoz shaxsiga alohida e’tibor qaratilib, uni jamiyatni taraqqiy ettiruvchi asosiy kuch sifatida baholash mumkin [1] Xususan, Navoiy

“Mahbub ul-qulub” asarida ustozni “insonni zulmatdan nurga yetaklovchi mash’al” sifatida ta’riflaydi [2]. Zamonaviy pedagogika va adabiyotshunoslikda ham ustoz fenomeni shaxs kamoloti bilan uzviy bog’liq holda o’rganilgan. O’zbek adabiyotshunoslari – Naim Karimov, Umarali Normatov, Laziz Qayumov kabi olimlar o’z tadqiqotlarida ijodkor shaxs shakllanishida ustozlar ta’sirining muhimligini ta’kidlaydilar. Ozod Sharofiddinov ijodiga bag’ishlangan ilmiy maqolalarda ham uning tanqidiy tafakkuri, prinsipial pozitsiyasi va adabiy qarashlari shakllanishida ustozlar maktabi asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi.

“Domlalar” turkumi adabiy tanqid, xotira esse va publitsistika janrlarining sintezidan iborat bo’lib, u adibning hayotiy tajribasi va ilmiy-badiiy qarashlarini mujassam etadi. Ushbu turkum hozirga qadar ko’proq badiiy asar sifatida baholangan bo’lsa-da, undagi pedagogik, psixologik va ijtimoiy g’oyalar alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Mazkur tadqiqot sifat jihatdan tahliliy yondashuvga asoslanib olib borildi. Tadqiqot jarayonida Ozod Sharofiddinovning “Domlalar” turkumiga kiruvchi “Ilk

muallimlarim”, “Aspirantura saboqlari” hamda “Dorilfunun mening taqdirimda” maqolalari asosiy empirik manba sifatida tanlandi. Ushbu asarlar muallifning shaxsiy hayotiy tajribasi, ijodiy shakllanishi va ilmiy kamolotida ustoz shaxsining tutgan o‘rnini ochib beruvchi muhim matnlar hisoblanadi.

Tadqiqotda matnni ichki mazmuniy qatlamlari, g‘oyaviy yo‘nalishi hamda badiiy-publitsistik xususiyatlarini aniqlash maqsadida interpretativ tahlil usulidan keng foydalanildi. Bu usul orqali asarlarda ifodalangan ustoz-shogird munosabatlari, pedagogik qarashlar va axloqiy tamoyillar chuqur talqin qilindi. Shuningdek, biografik metod tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qildi. Ozod Sharofiddinov hayoti va ijodiy faoliyatining turli bosqichlari – maktab yillari, aspirantura davri va dorilfunundagi ustozlik faoliyati – adabiy matnlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Bu yondashuv adib shaxsiy tajribasi va asarlarda aks etgan xotiralar o‘rtasidagi ichki mantiqiy bog‘liqlikni aniqlashga, ustozlar ta‘sirining real hayotiy manbalarini ochib berishga imkon yaratdi. Tadqiqot jarayonida Sharofiddinovning ustozlari bilan bog‘liq xotiralari tarixiy-pedagogik kontekstda tahlil qilinib, sovet davri ta‘lim tizimi va ilmiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olindi. Bundan tashqari, pedagogik-falsafiy yondashuv qo‘llanilib, ustoz shaxsining ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, uning jamiyatdagi ijtimoiy mas‘uliyati va tarbiyaviy missiyasi tahlil qilindi. Asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar Sharq pedagogik an‘analari hamda zamonaviy ta‘lim nazariyalari bilan uyg‘un holda talqin etildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta‘minlash maqsadida ilmiy adabiyotlar, adabiyotshunoslik va pedagogika sohasidagi nazariy qarashlar bilan uyg‘unlashtirish tamoyiliga amal qilindi.

“Ilk muallimlarim” maqolasida Sharofiddinov maktab davridagi ustozlarini chuqur ehtirom bilan eslaydi. Ayniqsa, adabiyot o‘qituvchisi Qudrat Ahmedov obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Ustozning o‘quvchilar taqdiriga befarq bo‘lmasligi, har bir bolaning oilaviy sharoiti va ruhiy holatini chuqur bilishi uni oddiy pedagog emas, balki ma‘naviy murabbiy sifatida

gavdalantiradi. Qudrat Ahmedovning Ozod Sharofiddinovni pedagogika texnikumidan qaytarib olib kelishi adib taqdirida burilish nuqtasi bo‘lgan. Bu holat ustozning mas‘uliyat hissi va shogird taqdiriga bo‘lgan beqiyos e‘tiborini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, Sobit Komilov timsolidagi ustozning innovatsion pedagogik yondashuvi – darsni qiziqarli va hamkorlik asosida tashkil etish usullari ko‘rsatiladi.

“Aspirantura saboqlari” maqolasida ustoz-shogird munosabatlari ilmiy muhit doirasida yoritiladi. Korneliy Zelinskiy obrazi dastlab sovuq va talabchan ilmiy rahbar sifatida namoyon bo‘lsa-da, voqealar rivoji davomida u haqiqiy murabbiy, shogirdning mas‘uliyatini o‘z zimmasiga ola biladigan ustoz sifatida ochiladi. Dissertatsiya mavzusining o‘zgarishi, vaqt tanqisligi va moddiy qiyinchiliklarga qaramay, Zelinskiyning qat‘iyati va ishonchi Sharofiddinovning ilmiy yetukligini ta‘minlaydi. Bu jarayon adibda tanqidiy fikrlash, dalillilik va ilmiy mas‘uliyatni shakllantiradi.

Uchinchi maqolada Sharofiddinovning shogirdlikdan ustozlik maqomiga ko‘tarilishi tasvirlanadi. O‘zbekiston Milliy Universitetida qariyb 40 yillik pedagogik faoliyati davomida adib ustozlik an‘analarini davom ettiradi. Bu jarayon “ustozlar maktabi”ning uzviyligini ko‘rsatadi: kechagi shogird bugun ustozga aylanadi [3].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ozod Sharofiddinovning “Domlalar” turkumi ustoz fenomenining badiiy-publitsistik ifodasi bo‘lib, u inson kamolotida ustozning hal qiluvchi rolini ishonchli hayotiy misollar asosida yoritadi. Maktab davridan tortib, ilmiy va pedagogik faoliyatigacha bo‘lgan yo‘l ustozlar bergan saboqlar bilan chambarchas bog‘liq ekani asarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur asar nafaqat xotira, balki hayot darsligi sifatida ham ahamiyatlidir. Undagi g‘oyalar zamonaviy yoshlar uchun ma‘naviy tayanch, pedagoglar uchun esa kasbiy mas‘uliyatni chuqur anglashga xizmat qiladi. Shunday ekan, “Domlalar” turkumini ustoz-shogird munosabatlarini o‘rganishda muhim ilmiy-manbaviy asos sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 160 b.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001. – 184 b.
3. Sharofiddinov O. Domlalar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2005. – 240 b.
4. Saidova M. Ustoz-shogird an‘analari va zamonaviy ta‘lim. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 180 b.

Lola MURATOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

ISPAN TILIDAGI AYRIM AFORIZMLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ispan tilini chet tili sifatida o‘rganishda aforizmlardan foydalanishning kognitiv va pragmatik jihatlari hamda ularning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Aforizmlarga lingvokognitiv va madaniy jihatdan belgilangan hodisa sifatida alohida e‘tibor qaratiladi, bu ispan tilida so‘zlashuvchilarning kontseptual fikrlash modellarini aks ettiradi. Aforizmlarni idrok etish va talqin qilishning kognitiv mexanizmlari, jumladan, kontseptualizatsiya, metaforizatsiya va tasniflash jarayonlari tahlil qilinadi. Aforizmlarni zamonaviy lingvodidaktik amaliyotga lingvistik o‘ziga xoslikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida integratsiya qilishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: aforizm, kognitiv lingvistika, pragmatika, ispan tili, lingvodidaktika, madaniyatlararo muloqot, kontseptual metafora, lingvistik shaxsiyat, chet tillarini o‘qitish.

Annotation. This article discusses the cognitive and pragmatic aspects of using aphorisms in the study of Spanish as a foreign language and their significance. Aphorisms are given special attention as a linguocognitively and culturally determined phenomenon, reflecting the conceptual thinking models of Spanish speakers. The cognitive mechanisms of perception and interpretation of aphorisms, including the processes of conceptualization, metaphorization, and classification, are analyzed. The conclusion is drawn about the expediency of integrating aphorisms into modern linguodidactic practice as an effective means of developing linguistic identity.

Keywords: aphorism, cognitive linguistics, pragmatics, Spanish language, linguodidactics, intercultural communication, conceptual metaphor, linguistic personality, foreign language teaching.

Аннотация. В данной статье рассматриваются когнитивные и прагматические аспекты использования афоризмов при изучении испанского языка как иностранного, а также их значение. Особое внимание уделяется афоризмам как лингвокогнитивно и культурно обусловленному феномену, отражающему концептуальные модели мышления испаноязычных. Анализируются когнитивные механизмы восприятия и интерпретации афоризмов, включая процессы концептуализации, метафоризации и классификации. Делается вывод о целесообразности интеграции афоризмов в современную лингводидактическую практику как эффективного средства развития языковой идентичности.

Ключевые слова: афоризм, когнитивная лингвистика, прагматика, испанский язык, лингвистическая дидактика, межкультурная коммуникация, концептуальная метафора, лингвистическая личность, преподавание иностранных языков.

Globalashuv va intensiv madaniyatlararo o'zaro ta'sir sharoitida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat amaliy, balki kognitiv-madaniy xususiyatga ham ega bo'lmoqda. Zamonaviy xorijiy tillarni o'qitish usullari turli kommunikativ vaziyatlarda lingvistik birliklarni yetarlicha idrok etish, talqin qilish va ulardan foydalanishga qodir lingvistik shaxsni rivojlantirishga qaratilgan. Grammatika va uni o'qitish har doim ikkinchi/xorijiy tilni (L2) o'rganish bo'yicha barcha va har qanday munozaralarda bahs-munozara mavzusi bo'lib kelgan.

Muayyan submadaniyatlarning (geymerlar, musiqachilar, sportchilar, IT mutaxassislari) professional slanglari va jargonlari qo'shimcha sifatsiz lug'at qatlamlarini hosil qiladi. Ushbu ixtisoslashgan aforizmlar variantlari ko'pincha umumiy yoshlar aforizmi bilan bir-biriga mos keladi va murakkab, ko'p qatlamli tizimni yaratadi. Masalan, ispan tilida so'zlashuvchi geymerlarning o'yin aforizmi ingliz terminologiyasini faol ravishda o'zlashtiradi va uni ispan fonetikasiga moslashtiradi: "farmear" ("to farm" dan - o'yinda resurslarni to'plash"), "rushear" ("to rush" dan - tez hujum qilish), "tiltear" ("to tilt" dan - o'yin paytida o'zini yo'qotish). Shu nuqtayi nazardan, aforizmlar alohida o'rin tutadi, bu ona tilida so'zlashuvchilarning jamoaviy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi ixcham, semantik jihatdan sig'imli iboralar.

Ispan tilini o'rganishda aforizmlar muhim kognitiv va pragmatik funktsiyani bajaradi, nafaqat lingvistik materialni o'zlashtirishga, balki talabalarning kontseptual fikrlashini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi bir-biri bilan bog'liq bir nechta omillardan kelib chiqadi. Birinchidan, zamonaviy ispan tilidagi nutq jarangli so'z boyligining deyarli barcha aloqa sohalariga yoshlarning kundalik suhbatlaridan tortib, ommaviy axborot vositalari, kino, televideniye, reklama va onlayn muloqot kabi jamoatchilik sohalariga faol kirib borishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, past darajadagi so'z boyligining pragmatik va kognitiv jihatlarini har tomonlama o'rganish voqelikni lingvistik tasniflashning asosiy mexanizmlarini, tajribaning turli sohalarini kontseptsiyalash usullarini va shaxslararo muloqotda og'zaki ta'sirning pragmatik strategiyalarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Uchinchidan, Yevropa va Lotin Amerikasi o'rtasida, shuningdek, Lotin Amerikasi mintaqasida ispan tilining sezilarli mintaqaviy o'zgarishi jarangli so'zlarning ham universal, ham idioetnik xususiyatlarini o'rganish uchun noyob tadqiqot muhitini yaratadi.

Aforizm – qisqalik, umumiylilik va ifodalilik bilan ajralib turadigan barqaror lingvistik birlik. Maqol va maqollardan farqli o'laroq, aforizmlar ko'pincha ma'lum bir muallifga ega va muallifning dunyo haqidagi individual tasavvurini ifodalaydi. "Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan, aforizm tushunchalar va aqliy modellarni verbalizatsiya qilish shaklidir. A.Verzbikaning fikriga ko'ra, til voqelikni tasniflash vositasi bo'lib xizmat qiladi va madaniy jihatdan shartlangan

fikrlash usullarini aks ettiradi" [1: 90]. Misol uchun: "Pensar es servir" (o'ylash – xizmat qilish"). Bu aforizm Ispaniya falsafiy an'anasiga xos bo'lgan ijtimoiy mas'uliyat sifatida fikrlash tushunchasini aks ettiradi.

Aforizmlardan foydalanishning kognitiv jihati kontseptualizatsiya, tasniflash, talqin qilish, metaforik fikrlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aforizmlar uzoq muddatli xotirani faollashtiradi va barqaror assotsiativ aloqalarni shakllantirishga yordam beradi. J.Lakoff ta'kidlaganidek, "metaforalar nafaqat stilistik vosita, balki fikrlashning asosiy mexanizmidir" [2: 40]. *El amor es ciego – Sevgi ko'rdir.* Bu aforizm kontseptual metaforaga asoslangan. Ispan tilini o'rganishda aforizmlar lingvistik kompetensiyaning leksik, grammatik, semantik, pragmatic tarkibiy qismlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. *Quien mucho abarca, poco aprieta – Ko'p ish qilgan kishi ozgina narsaga erishadi.*

Til o'rganuvchilarga nisbiy gaplarning tuzilishini o'zlashtirish va belgilangan fe'lli iboralar orqali so'z boyligini kengaytirish imkonini beradi. "Pragmatik nuqtayi nazardan, aforizmlar ma'ruzachining kommunikativ niyatlarini amalga oshiradigan maxsus nutq harakatlari sifatida ishlaydi. Kontekstga qarab, ular quyidagilarni bajarishi mumkin: argumentativ vazifasi, odatiy vazifasi, baholash vazifasi, ifodali vazifasi kabilar" [4: 50]. *Más vale tarde que nunca – hech bo'lmaganidan ko'ra kech bo'lgani yaxshiroq.* Ko'pincha u harakatni oqlash yoki kommunikativ keskinlikni yumshatish uchun ishlatiladi, bu esa uning pragmatik moslashuvchanligini ta'kidlaydi.

Aforizmlarni o'rganish madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga hissa qo'shadi, chunki ular fikrlash va kommunikativ xatti-harakatlarning milliy xususiyatlarini aks ettiradi. Misol uchun: *La paciencia es la madre de la Ciencia – Sabr – ilmning onasi.* Bu aforizm Ispaniya madaniy an'anasiga xos bo'lgan sabr-toqat va asta-sekin o'rganishning qadrini namoyish etadi. Ispan tilini o'qitishda aforizmlardan quyidagilarda foydalanish mumkin:

- munozara materiali sifatida;
- tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish uchun;
- yozma ish uchun asos sifatida;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun.

"Ispan tilidagi va talabalarning ona tilidagi aforizmlarning qiyosiy tahlili samarali hisoblanadi, chunki u universal va madaniy jihatdan o'ziga xos tushunchalarni anglashga yordam beradi" [5: 11].

Aforizmlar ispan tilini o'qitishda kognitiv va pragmatik yondashuvlarni birlashtirishning samarali vositasidir. Ulardan foydalanish til va madaniy xususiyatlarni chuqur tushunishga yordam beradi, analitik fikrlashni rivojlantiradi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Shunday qilib, aforizmlarni ta'lim jarayoniga kiritish zamonaviy til o'qitishda metodologik jihatdan asosli va istiqbolli yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М.: Русские словари, 1996.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987.
4. Костомаров В.Г., Верещагин Е.М. Язык и культура. М.: Индрик, 2005.
5. Ortega y Gasset J. *Ideas y creencias.* – Madrid, 1940.

Shaxloxon YUSUFJONOVA,
Farg'ona davlat universiteti dotdenti

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA TARJIMA MUAMMOLARI: QIYOSIY-LINGVOMADANIY TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy-lingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning shakllanishi, semantik xususiyatlari hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritiladi. Nemis va o'zbek tillaridan olingan misollar asosida frazeologik birliklarni tarjima qilishda ekvivalentlik, funksional moslik va milliy-madaniy omillarning o'рни ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, chet tillarni o'qitish jarayoni uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: frazeologizm, tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyat, nemis tili, o'zbek tili, ekvivalentlik.

Annotation. This article presents a comparative linguistic and linguocultural analysis of phraseological units in German and Uzbek. The study focuses on the semantic features of phraseological units and the challenges involved in their translation. Based on examples from both languages, the article examines translation strategies such as equivalence, functional correspondence, and the consideration of national and cultural factors. The findings of the research are of significant theoretical and practical value for translation studies and foreign language teaching.

Keywords: phraseological units, translation studies, comparative linguistics, linguoculture, German language, Uzbek language, equivalence

Аннотация. В статье проводится развернутый сравнительно-лингвистический и лингвокультурологический анализ фразеологических единиц и пословиц в немецком и узбекском языках. Рассматриваются их место в языковой системе, исторические этапы формирования, семантико-структурные особенности, а также роль в отражении национального менталитета и культурных ценностей. На основе конкретных языковых примеров выявляются общие и специфические черты фразеологических единиц двух разноструктурных языков. Результаты исследования имеют теоретическую и практическую значимость для переводоведения, методики преподавания языков и сравнительного языкознания.

Ключевые слова: фразеология, переводоведение, сравнительное языкознание, лингвокультура, немецкий язык, узбекский язык, эквивалентность.

Insoniyat taraqqiyoti davomida turli xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar kengaygani sari tarjima faoliyatiga ehtiyoj ham ortib borgan. Bir til doirasida muloqot nisbatan aniq va samarali kechsa, turli tillarda so'zlashuvchi kishilar o'rtasida mazmunni to'liq va tushunarli yetkazish uchun tarjima vositachiligi zarur bo'ladi [1: 9]. Yozuvning paydo bo'lishi va rivoji tarjimaning imkoniyatlarini kengaytirib, ilm-fan va madaniyatlararo aloqalarda yozma tarjimaning ustuvor ahamiyat kasb etishiga sabab bo'ldi [2: 16]. Tarjima amaliyoti rivojlanishi jarayonida eng murakkab masalalardan biri – frazeologik birliklarning adekvat tarjimasidir. Chunki frazeologizmlar ko'chma ma'no, barqaror strukturaga egalik, emotsional-ekspressiv bo'yoq va milliy-madaniy komponentlarning mavjudligi bilan ajralib turadi [7: 19]. Agar oddiy leksik birliklar ayrim hollarda so'zma-so'z o'girilsa ham, frazeologik birliklarda bunday yondashuv ko'pincha ma'noning buzilishi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi [10: 43].

Nemis va o'zbek tillari tipologik jihatdan farqli bo'lsa-da, ikki tilda ham universal hayotiy tajriba (mehnat, sabr, hushyorlik, ehtiyotkorlik) asosida shakllangan frazeologizmlar, shuningdek, milliy mentalitetga bog'liq "realialar" ham mavjud [8: 55]. Shu bois frazeologik birliklarni qiyosiy-lingvomadaniy tahlil qilish va tarjima muammolarini aniqlash tarjimashunoslik uchun dolzarb ilmiy masaladir [3: 27]. Maqolaning maqsadi – nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy asosda tahlil qilish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ko'rsatish hamda amaliy tarjima strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi: frazeologik birliklarni yig'ish, guruhlash va dastlabki izoh berish uchun tavsifiy-analitik metod [7: 31]; nemis va o'zbek frazeologizmlarining o'xshash/farqli jihatlarni aniqlash uchun qiyosiy-lingvistik metod [3: 42]; ko'chma ma'no, baholovchi komponent va obraz manbasini ajratish uchun semantik va komponent tahlil [4: 88]; milliy realiyalar, mentalitet

va madaniy kodlarning tarjimaga ta'sirini izohlash uchun lingvomadaniy yondashuv [8: 60]; ekvivalentlik, funksional moslik va adaptatsiya strategiyalarini baholash uchun tarjima tahlili [10: 52]. Material sifatida nemis va o'zbek frazeologik lug'atlari hamda tarjimashunoslikka oid ilmiy manbalardan tanlab olingan misollar tahlil qilindi.

Frazeologik birliklarning tarjimada murakkabligi. Frazeologizmlarning tarjimada qiyinchilik tug'dirishiga sabab bo'ladigan omillar: ko'chma ma'no va semantik "yaxlitlik" (so'zma-so'z tarjima qilinsa, ma'no yo'qoladi) [4: 33], barqaror strukturaviy model (komponentlarni erkin almashtirib bo'lmaydi) [7: 55], milliy-madaniy komponent (obraz manbasi boshqa madaniyatda mavjud bo'lmashligi mumkin) [8: 71], pragmatik funktsiya (istehzo, kinoya, yumor kabi bo'yoqlar) [10: 66]. Shu sababli tarjimada faqat leksik moslik emas, balki funksional va madaniy moslik ham talab etiladi [3: 58].

To'liq ekvivalent orqali tarjima. Ba'zi birliklar ikki tilda ham mazmun va obraz jihatdan mos tushadi: *Zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen* (nemis) – *Bir o'q bilan ikki quyonni urish* (o'zbek). Bu holatda obraz ham, ma'no ham saqlanadi va tarjima nisbatan oson kechadi [7: 88].

Funksional analog orqali tarjima. Ko'pincha frazeologizmning obrazi bir madaniyatga xos bo'lib, ikkinchi tilda aynan shu obraz topilmaydi. Bunda funksional analog tanlanadi: *Tomaten auf den Augen haben* (nemis) – "ochiq narsani ko'rmaslik" ma'nosida – *Ko'zi ko'r, qulog'i karday bo'lmoq* (kontekstga mos analog). Bu usulda "obraz" emas, "funktsiya va ma'no" ustuvor bo'ladi [10: 71]. Ekvivalent ham, analog ham topilmasa, tavsifiy tarjima qo'llanadi: *Nemis: Schwein haben* – tavsifiy tarjima: *Omadi kelmoq, baxti kulmoq*. Bu yondashuvda milliy obrazning bevosita tarjimasi emas, semantik mazmuni ochib beriladi [3: 63].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda hayotiy tajriba va mehnatga oid frazeologizmlar keng uchraydi: *Ohne Fleiß kein Preis* – *Mehnat qilgan to'yadi*; *Den Nagel auf den Kopf treffen* – *gapning po'stkallasini aytish*. Bu birliklar mazmunan yaqin bo'lsa-da, obraz manbalari turlicha bo'lib,

milliy til tafakkurining farqini ko'rsatadi [8: 79]. Shuningdek, ba'zi frazeologizmlar milliy realiyalar bilan bog'liq bo'lib, tarjimada ularni madaniy muvofiqlashtirish zarur bo'ladi [7: 103]. Frazeologizmning noto'g'ri tarjimasi matn mazmunining buzishi, kinoya/yumorni yo'qotishi, madaniy noqulaylik (pragmatik xato) keltirib chiqarishi mumkin [10: 93]. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimiga, balki tarix, urf-odat va madaniy kontekstni tushunishga ham tayanishi zarur [1: 44].

Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy-lingvovadaniy tahlil qilish tarjima jarayonidagi semantik umumiylik hamda milliy-madaniy farqlarni ochib beradi

[8: 118]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarni tarjima qilishda doim ham to'liq ekvivalentlikka erishib bo'lmaydi, shu bois tarjimada funksional moslik va madaniy adaptatsiya eng maqbul strategiya sifatida namoyon bo'ladi [3: 75]. Frazeologizmlarning adekvat tarjimasi madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshiradi, tarjimonning professional kompetensiyasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi [10: 121]. Mazkur ish natijalari tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, nemis tilini o'qitish jarayonida frazeologik birliklardan samarali foydalanish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev K. Tarjimashunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Xolbekov M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Москва: ЭТС, 2002.
4. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Москва: Международные отношения, 1974.
5. Найда Ю. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
6. Добровольский Д. Сопоставительная фразеология. Москва: Языки славянских культур, 2011.
7. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 2005.
9. Виноградов В.В. Русская фразеология. – Москва: Наука, 1977.
10. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011.

Tolkin MARDIYEV,

Associate Professor of Samarkand economics and service Institute

SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “SINCERITY” IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Annotation. This article examines the semantic and etymological roots of the concept of samimiylik (“sincerity”) in English and Uzbek literary texts. First, the origins, lexical meaning, and historical development of the words “sincerity” and “samimiylik” are explored. Then, the study analyzes how representations of sincerity are formed in English and Uzbek literature and identifies differences in the conceptualization of sincerity within linguistic and cultural contexts.

Keywords: sincerity, etymology, semantics, literary text, English literature, Uzbek literature.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiy matnlarida “samimiylik” tushunchasining semantik va etimologik ildizlari tahlil qilinadi. Avvalo, “sincerity” va “samimiylik” so'zlarining kelib chiqishi, leksik ma'nosi hamda tarixiy rivoji o'rganiladi. Ingliz va o'zbek adabiyotida samimiylik qanday ifodalanishi tahlil qilinib, ushbu tushunchaning lingvistik va madaniy kontekstlarda konseptualashuvidagi farqlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: samimiylik, sincerity, etimologiya, semantika, adabiy matn, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются семантические и этимологические истоки понятия «искренность» в английских и узбекских литературных текстах. Вначале исследуются происхождение, лексическое значение и историческое развитие слов sincerity и samimiylik. Затем анализируется, как формируются образы искренности в английской и узбекской литературе, а также выявляются различия в концептуализации искренности в лингвистическом и культурном контекстах.

Ключевые слова: искренность, этимология, семантика, литературный текст, английская литература, узбекская литература.

Sincerity (Uzbek: samimiylik) is one of the key concepts reflected in artistic and cultural discourse. Its expressions, metaphorical forms, and cultural foundations across different languages offer significant scholarly interest. In English, sincerity has been extensively discussed in aesthetic, moral, and literary contexts – for instance, in Lionel Trilling's well-known work *Sincerity and Authenticity*, where sincerity is analyzed as a commitment to one's inner truth and a refusal to present a false self. In Uzbek, *samimiylik* is most often represented through metaphors of the heart, emotional warmth, openness, and harmony between inner feelings and outward behavior. Despite the importance of this concept, there exists a noticeable lack of comparative studies that directly analyze sincerity in English and Uzbek literary traditions. For example, studies such as *Sincerity and Its Discontents* in American Poetry explore sincerity in the context of American poetry, while other works examine semantic and etymological aspects of related concepts. Yet,

comprehensive contrastive research comparing English and Uzbek representations of sincerity remains limited.

The aim of this article is to identify the semantic structure and etymological roots of the concept of sincerity in both English and Uzbek literature and to analyze the literary devices through which this concept is expressed in artistic texts.

The methods used in the article are as follows:

1. Etymological analysis – identifying the etymological roots of the English words sincerity and Uzbek words sincerity through dictionaries, etymological sources, and academic research.
2. Lexical-semantic analysis – analyzing words and phrases that are synonymous with sincerity in English and Uzbek.
3. Corpus/text analysis – collecting examples from English and Uzbek literary texts (novel, story, poem) and analyzing them from the perspective of images of sincerity.

4. Comparative/comparative approach – identifying commonalities and differences in the concept of sincerity in English and Uzbek.

5. Cultural-anthropological approach – analyzing cultural concepts, metaphorical images, and views on communication within the language.

Sincerity in English:

The English word sincerity is generally traced back to the Latin *sincerus*, meaning “clean,” “pure,” or “unmixed.” Some linguistic sources also connect *sincerus* to the elements *sin* – (“one,” “single”) and *crescere* (“to grow”), referring to something that “grows as one,” i.e., unaltered or genuine. A more popular folk etymology derives *sincere* from *sine cera* (“without wax”), implying “without covering, without disguise,” but historical linguists reject this explanation. The Oxford English Dictionary likewise dismisses the *sine cera* story as an inaccurate folk interpretation rather than a real etymological origin [3].

In English literary studies, sincerity became a central aesthetic and moral concept during the seventeenth and eighteenth centuries – particularly within Romanticism and later the Victorian period. In his influential study *Sincerity and Authenticity*, Lionel Trilling analyzes sincerity as fidelity to one’s inner truth and the refusal to present a false or contradictory self. Similarly, eighteenth- and nineteenth-century critics such as Ball describe sincerity as a shifting “critical term,” whose aesthetic and ethical weight changed across different literary eras.

Samimiylik in Uzbek:

The Uzbek term *samimiylik* is believed to originate from the Arabic root *samīm* (“sincere,” “honest,” “pure-hearted”), though its full historical development has not been extensively studied. In some Turkic and Persian-Turkic contexts, *samimiylik*

also carries connotations of “inner,” “from the heart,” or “true feeling.”

Semantically, *samimiylik* in Uzbek encompasses ideas of heartfelt speech, emotional openness, internal honesty, and alignment between inner feeling and outer expression. The word frequently appears in expressions like *samim yurak*, *samimiy soʻz*, and *samimiy goʻzallik*, emphasizing emotional depth and inner sincerity. Examples: In English: “*He spoke with a heart as clear as glass*”. In Uzbek: “*U soʻzlarida yurakning tiniqligi sezilib turardi*”. Based on corpus analysis, textual comparison, and lexical-semantic interpretation, the following results emerge:

Sincerity in English Literature. Sincerity is often associated with transparency, inner truthfulness, and spiritual openness, expressed through metaphors such as to open one’s heart, to bare the soul, or transparent expression. In the Victorian period, sincerity was viewed as an ideal rooted in Romantic subjectivity; intellectuals often equated sincerity with being faithful to one’s “inner voice” [4]. In the late twentieth and early twenty-first centuries, the “New Sincerity” literary movement attempted to reinterpret sincerity through postmodern paradoxes—aiming to combine authenticity with self-awareness. English criticism also explores the tension between sincerity and insincerity, including theatrical or staged “performative sincerity”.

Samimiylik in Uzbek Literature. In Uzbek literature, *samimiylik* is commonly expressed through images of the heart, emotional warmth, honest speech, and inner harmony e.g., *samimiy soʻz*, *samimiy suhbat*, *ichi samimiy*. In dialogic contexts, phrases such as *samimiy suhbat* (“heartfelt conversation”) show that sincerity is not only individual but often relational. Unlike the narrower moral notion of “honesty”, *samimiylik* also includes emotional openness, heartfelt communication, and cultural aspects shaped by family and community.

Table 1. Metaphorical Representations of Sincerity in English and Uzbek Literature

Language	Metaphorical Expression	Description
English	to bare the soul	Expression of psychological openness and revelation of inner truth
English	<i>transparent expression</i>	Communication marked by clarity, honesty and absence of disguise
Uzbek	<i>Yuragim ochildi.</i>	Opening one’s inner feelings; emotional and heartfelt sincerity
Uzbek	<i>to’la samimiy soʻz</i>	Words spoken genuinely and sincerely from the heart

Cultural Orientations. The concept of sincerity in English is closely linked to individual authenticity. In Trilling’s research, it is noted that in the 19th century, sincerity was associated with transparency and the principle of personal fidelity, whereas in the 20th century it was replaced by the idea of authenticity [2]. This principle aligns with the communicative model in English culture, which emphasizes individualism and inner truth [3]. In Uzbek culture, sincerity is related not only to alignment with inner truth but also to values such as compassion, social harmony, and respect in communication [4], [5]. Therefore, in Uzbek literature, the concept of sincerity reflects not only personal inner truth but also the individual’s relationship with society.

In English literature, sincerity is manifested through characters’ inner dialogues and heartfelt expressions. For instance, in the novels of James Joyce and Virginia Woolf, characters express their feelings directly through inner monologues, allowing the reader to fully perceive their inner

world [1], [2]. In Uzbek literature, authors such as Abdulla Qodiriy, Chulpon, and Ulugbek Kodirov often express sincerity through interpersonal dialogue and inner monologues. For example, in Chulpon’s stories, characters convey their emotions through expressions such as “sincere heart” and “sincere words” [4], [5].

This article analyzed the semantic and etymological aspects of the concept of sincerity in English and Uzbek literary texts. The etymological approach showed that the English word *sincerity* derives from the Latin root *sincerus*, and the folk etymology *sine cera* was rejected. Although the precise etymology of the Uzbek word “*samimiylik*” has been less studied, a lexical-semantic analysis identified semantic clusters such as “*samimiy*” (sincere), “*yurak*” (heart), and “inner feelings”.

In literary texts, English sincerity relies more on metaphors of transparency, fidelity to inner truth, and spiritual openness. In Uzbek texts, sincerity is expressed primarily through

communication, warmth of heart, and internal emotional harmony. While the English concept emphasizes individual truth and autonomy, the Uzbek concept is more closely related to relationships and emotional concord.

For future research, the following are recommended: quantitative analyses based on larger corpora, comparative studies across different literary genres (poetry, drama, essays), and in-depth analyses of translation examples.

References

1. Ball P.M. Sincerity: The Rise and Fall of a Critical Term. – Cambridge: Cambridge University Press, 1964.
2. Trilling L. Sincerity and Authenticity. – Cambridge: Harvard University Press, 1972.
3. Williams G. Rhetoricalities of Sincerity in Early Modern English. – London: Palgrave Macmillan, 2012.
4. Katsman R. The Problem of Sincerity and Insincerity in Literature. – Ramat-Gan: Bar-Ilan University, 2021.
5. Mlinko A. Sincerity and Its Discontents in American Poetry Now. – Chicago: Poetry Foundation, 2008.
6. Balliro M.J. The New Sincerity in American Literature. – Kingston: University of Rhode Island, 2018.
7. Rozmatova S. Cultural Models of Sincerity: Communicative Behavior in Anglo-American and Uzbek Societies. – Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2025.
8. Rozmatova I.E. A study of speech etiquette formulas in English and Uzbek // Lingvospekr. – Toshkent, 2024, №2. – B. 15–20.

Hilola XOLDOROVA,

Namangan state university 2 grade basic doctoral student

ASSOCIATIVE FIELD COMPONENT ANALYSIS OF THE CONCEPT “TOURISM”

Annotation. This article investigates the associative field of the concept “tourism” through a comparative linguistic analysis based on a free associative experiment. The study aims to identify and classify the semantic components of the associative fields formed in the linguistic consciousness of Uzbek- and English-speaking respondents. The experiment involved 200 participants, including 100 Uzbek-speaking and 100 English-speaking respondents, who were asked to provide their first spontaneous association with the stimulus word “tourism”. The collected data were analyzed using component analysis, semantic grouping, and statistical methods.

Keywords: tourism, associative field, component analysis, linguistic consciousness, comparative study.

Annotatsiya. Ushbu maqolada “turizm” konseptining assotsiativ maydoni erkin assotsiativ eksperimentga asoslangan qiyosiy lingvistik tahlil orqali o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillarida so'zlashuvchi respondentlarning lisoniy ongida shakllangan assotsiativ maydonlarning semantik komponentlarini aniqlash va tasniflashdan iborat. Tajribada 200 nafar ishtirokchi, shu jumladan, 100 nafar o'zbek va 100 nafar ingliz tilida so'zlashuvchi respondent ishtirok etdi, ulardan “turizm” stimuli so'ziga birinchi tasodifiy assotsiatsiyani berish so'raldi. To'plangan ma'lumotlar komponent tahlil, semantik guruhlash va statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: turizm, assotsiativ maydon, komponent tahlil, til ongida, qiyosiy tadqiqot.

Аннотация. В данной статье исследовано ассоциативное поле понятия «туризм» посредством сравнительного лингвистического анализа на основе свободного ассоциативного эксперимента. Исследование направлено на выявление и классификацию семантических компонентов ассоциативных полей, формирующихся в языковом сознании узбекскоязычных и англоязычных респондентов. В эксперименте приняли участие 200 участников, в том числе 100 узбекскоязычных и 100 англоязычных респондентов, которым было предложено дать свою первую спонтанную ассоциацию со словом-стимулом «туризм». Собранные данные были проанализированы с использованием компонентного анализа, семантической группировки и статистических методов.

Ключевые слова: туризм, ассоциативное поле, компонентный анализ, языковое сознание, сопоставительное исследование

Vinogradov's and Amosova's classifications appeared to be a much more complex and ambiguous issue. The reason they are viewed together in the current paragraph of this paper is a close similarity (better say, practical identity) of the major criterion they employ. However, there are minor cases when Amosova's classification does not coincide with Vinogradov's vision (consider the cases 11, 14, 15, 17, 25, 27, and 29). In the cases of 11, 14, 15, 17, 25, 27, and 29, the presence of the three components, in which the relationship between any of the two is completely idiomatized and none of the components can be said to be the clue for the particular contextual meanings of the other(s), suggests the unit's being an idiom by Amosova; however, the denotational meanings of one of their constituent parts (once, get, give, look, see, have) is preserved and obvious when examining the meaning of the unit. And this latter feature, to our vision, corresponds to Vinogradov's view of phraseological unities.

The same units (11, 14, 15, 17, 25, 27, and 29) cause the biggest problems when classifying them according to Vinogradov's approach. The reason is their having more than two components, all but one of the components having a transferred meaning. However, according to the rules of phrase building, in each of the cases the head word in the

phrase was that very remaining word with non-transferred meaning which makes the relationship of it with the rest of the words in the combination primary and the relationships of those remaining words having transferred meaning with each other secondary, thereby making the following structure for each phrase valid: non-transferred meaning component (head word in the phrase) + transferred meaning component (a word or group with own relationship functioning as the subordinate in the phrase)

As an overall conclusion, we'd like to emphasize that, as the authors whose views we have provided in the opening section of this paper say, both the distinctions that Vinogradov and Amosova make between the classes of phraseological units are quite subjective because of very ambiguous nature of semantic relationships between the words within the units. Thus, a person exceedingly competent in English might have come up with a quite different labeling of certain units from the one we did when taking Vinogradov and Amosova's subdivisions into account. All in all, we tried to remain reliant on the objective linguistic data to provide the evidence for our choice of the classes of the most problematic phraseological units.

References

1. Babich G.N. Lexicology: A Current Guide. Екатеринбург: Great Bear, 2005.
2. Glazunov S.A. The new dictionary of contemporary informal English. Москва: Русский Язык, 2003.
3. Koonin A.V. The comprehensive English-Russian phraseological dictionary. Москва: Русский Язык, 2006.
4. Principles of classifications of phraseological units. <http://major-theoretic.narod.ru/lexicology/11-Criterion-of-borrowing.doc>.

Gulchexra XAZRATOVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi

GLOBALASHUV SHAROITIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari ta'sirida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati o'rganiladi. "Madaniyatlararo muloqot" tushunchasi, uning nazariy asoslari va jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, madaniyat, ta'lim, jamiyat, tolerantlik.

Annotation. This article examines the role and importance of intercultural communication skills in the development of modern society under the influence of globalization processes. The concept of "intercultural communication", its theoretical foundations, and significance in society are highlighted. Also, based on scientific sources, problems arising in the process of intercultural communication and ways to eliminate them are analyzed.

Keywords: globalization, intercultural communication, communicative competence, culture, education, society, tolerance.

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение навыков межкультурного общения в развитии современного общества под влиянием процессов глобализации. Освещается понятие «межкультурная коммуникация», ее теоретические основы и значение в обществе. Также на основе научных источников анализируются проблемы, возникающие в процессе межкультурной коммуникации, и пути их устранения.

Ключевые слова: глобализация, межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, культура, образование, общество, толерантность.

Globallashuv XXI asrning eng muhim va murakkab ijtimoiy jarayonlaridan biri bo'lib, u insoniyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro migratsiyaning kuchayishi, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi hamkorlikning kengayishi natijasida dunyo tobora "yagona makon"ga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda turli madaniyat, til va qadriyatlarga ega bo'lgan insonlar o'rtasidagi muloqot muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari shaxsning ijtimoiy moslashuvi, professional muvaffaqiyati va jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi [6: 27]. Shu sababli globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniy, til va ijtimoiy muhitga mansub shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab kommunikativ jarayondir. Ushbu jarayonda faqat lingvistik birliklar emas, balki madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor modellari ham muhim rol o'ynaydi. O'zbek olimlari ham madaniyatlararo muloqotni jamiyat barqarorligi va millatlararo totuvlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydilar [8: 64]. Shu bois madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Globallashuv ta'lim tizimiga yangi vazifalar va talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni nafaqat kasbiy bilimlarga ega mutaxassis, balki xalqaro muhitda samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida tayyorlashi lozim. Xalqaro akademik almashinuv dasturlari, qo'shma ta'lim loyihalari va xorijiy talabalar sonining ortishi madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Globallashuv

sharoitida mehnat bozori xalqaro tus olib, mutaxassislardan madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etmoqda. Ko'p millatli jamoalarda ishlash, xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borish jarayonida madaniy farqlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Hofstede madaniy tafovutlarni tushunmaslik professional faoliyatda nizolar va tushunmovchiliklarga olib kelishini ta'kidlaydi [4: 112]. Madaniyatlararo muloqot jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jo'rayevning fikriga ko'ra, madaniyatlararo dialog jamiyatda millatlararo totuvlikni ta'minlashning muhim vositasidir [6: 30].

Madaniyatlararo muloqot jarayonida stereotiplar, til to'siqlari, madaniy xulq-atvor farqlari va neverbal muloqotdagi tafovutlar kabi muammolar yuzaga keladi. Ushbu omillar muloqot samaradorligini pasaytirib, noto'g'ri tushunish va ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin. Deardorff madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo'li ekanligini ta'kidlaydi [5: 245]. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, madaniyatlararo treninglar va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlardan foydalanish bu borada muhim ahamiyatga ega [9: 58].

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari shaxsning ta'limiy, professional va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu ko'nikmalar ta'lim sohasida talabalarni xalqaro muhitga tayyorlashga, professional faoliyatda samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga hamda jamiyatda tolerantlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofstede G. Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.
2. Deardorff D. Identification and assessment of intercultural competence // Journal of Studies in International Education, 2006.
3. Jo'rayev R. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Rasulova M. Chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning ahamiyati // Xalq ta'limi, 2020.
5. Karimova D. Ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Universitet, 2021.

Mavlonbek ABDIYEV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz tilini o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

GENERAL CHARACTERISTICS AND DISCURSIVE FEATURES OF ENGLISH-LANGUAGE POLITICAL PUBLICATIONS

Annotation. This article analyzes the discursive elements of English-language political periodicals and their common features. It examines how political information serves evaluation, argumentation, and strategic structures through lexical, syntactic, and pragmatic means. The role of phraseological and paremiological units in the formation of the concept of "audience" and ideological views has also been determined.

Keywords: political discourse, media discourse, English-language publications, ideological framing, pragmatics.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi siyosiy davriy nashrlarning diskursiv elementlari va ularning umumiy xususiyatlari tahlil qilingan. Leksik, sintaktik va pragmatik vositalar orqali siyosiy axborotning baholash, argumentatsiya va strategik tuzilmalarga qanday xizmat qilishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, frazeologik va paremiologik birliklarning "auditoriya" tushunchasi va ideologik qarashlarni shakllantirishdagi roli aniqlangan.

Kalit so'zlar: siyosiy nutq, media nutqi, ingliz tilidagi nashrlar, mafkuraviy tuzilish, pragmatika.

Аннотация. В данной статье анализируются дискурсивные элементы политических периодических изданий на английском языке и их общие характеристики. Рассматривается, как политическая информация служит оценочным, аргументационным и стратегическим структурам посредством лексических, синтаксических и прагматических средств. Также определена роль фразеологических и паремииологических единиц в формировании понятия «аудитория» и идеологических взглядов.

Ключевые слова: политический дискурс, медийный дискурс, англоязычные публикации, идеологическое осмысление, прагматика.

English-language political magazines have long been important tools for influencing public opinion and conversation. They mediate between political institutions and society by working at the nexus of journalism, political communication, and social influence. Van Dijk (1998) asserts that media discourse is crucial in defining public perception, choosing which facts to emphasise, and organising information about political events. Ideological stances and institutional priorities are reflected in this selective fabrication of reality.

According to Fairclough (2001), political media texts are rooted in power dynamics and seek to legitimise particular political ideas rather than being objective depictions of events. As a result, they exhibit a deliberate use of language, integrating discourse markers, grammatical structures, and lexical choices to affect readers' perceptions and responses.

English-language political publications, such as daily newspapers, analytical magazines, and online political platforms, are examined in this study using a qualitative discourse-analytic method. Finding the verbal and pragmatic means by which political information, ideology, and evaluative positions are conveyed to the audience is the main objective.

Three interrelated dimensions are the main focus of the analysis. In order to understand how publications represent the objectives of political institutions, parties, or analysts and how power relations are ingrained within textual structures, the institutional orientation and ideological positioning of texts are first analysed [4].

Second, patterns that support argumentation, persuasion, and evaluation are identified by analysing lexical and syntactic features. These patterns include the use of evaluative adjectives, idiomatic expressions, and intricate syntactic constructions that highlight or frame specific political interpretations (Chilton, 2004). Third, pragmatic techniques are examined, paying particular emphasis to the use of phraseological and paremiological units, presupposition, implication, and evaluative framing. By appealing to common cultural knowledge and discreetly encoding ideological perspectives, these tactics enable political actors to shape audience perception without resorting to overt persuasion.

Purposive sampling was used to gather data, choosing texts that cover a variety of political subjects and genres that are typical of popular English-language political conversation. Close reading and coding for recurrent linguistic patterns, evaluative indicators, and framing techniques were used to each piece. The focus was on how phraseological and paremiological units serve as practical tools to organise meaning, support ideological narratives, and emotionally engage the reader. Interpretive analysis, which used the concepts of critical discourse analysis to examine the relationship between language, power, and ideology, was used in conjunction with the qualitative technique.

All things considered, this methodological framework makes it possible to conduct a thorough analysis of English-language political publications, connecting linguistic characteristics with pragmatic functions and ideological effects and offering insights into how political discourse influences public perception and aligns it with institutional agendas.

A number of crucial elements influencing the communicative and ideological influence of a few chosen English-language political publications were identified through study. A key component of texts is institutional orientation, which frames events in accordance with organisational aims by continuously reflecting the viewpoints of political parties, institutions, or analysts [7]. Additionally, publications are contentious, combining factual reporting with interpretive commentary to direct readers towards specific ideological and evaluative interpretations. Idioms, metaphors, stylistic techniques, and evaluative adjectives all subtly affect audience judgement, making evaluative language an essential component (Chilton, 2004; Dobrovol'skij & Piirainen, 2005). In order to match language with ideological objectives, strategic framing emphasises some aspects of events, policies, or political actors while downplaying others.

There is also a clear pragmatic orientation: phraseological and paremiological units serve as indicators of assessment and persuasion, and language is tailored to the audience's past knowledge, expectations, and cultural [7]. Lastly, cultural resonance strengthens common cognitive frames and increases participation through idioms, proverbs, and shared knowledge. Overall, these characteristics show that rather than merely reporting events, English-language political periodicals actively create social and political reality by influencing perception and forming ideological understanding.

The results imply that political media written in English serve as tactical communication instruments that actively influence public opinion and ideological comprehension. These writings accomplish a number of interconnected tasks through argumentation, evaluative language, and strategic framing: they inform audiences, convince readers, justify political actions, and create group interpretations of events [7]. Specifically, phraseological and paremiological units – such as proverbs, idioms, and fixed expressions – act as pragmatic markers that strengthen ideological narratives, simplify difficult concepts, and improve the persuasiveness and clarity of political messages.

In addition to highlighting the complex interactions between language, ideology, and audience participation in English-language media, an understanding of these discursive characteristics offers a theoretical and methodological basis for examining pragmatic tactics in political discourse.

English-language political periodicals actively contribute to the creation and mediation of political reality in addition to serving as impartial information providers. Ideological perspectives, institutional agendas, and power dynamics are reflected and reinforced by their argumentation, evaluative language, and strategic framing. Idioms, fixed phrases, and proverbs are examples of phraseological and paremiological units that greatly increase the texts' capacity for persuasion and evaluation, promoting both cognitive comprehension and emotional involvement. Understanding these discursive elements gives academics a framework for examining how language, ideology, and audience perception interact in political media, providing insightful information for research on media communication, pragmatics, and political discourse.

References

1. Chilton P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. – London: Routledge, 2004.
2. Dobrovol'skij D., Piirainen E. *Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives*. – Amsterdam: John Benjamins, 2005.
3. Entman R.M. Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm. *Journal of Communication*, 43(4), 1993. – P. 51 – 58.

4. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 2001.
5. Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 2002.
6. Mieder W. Proverbs Speak Louder Than Words: Folk Wisdom in Political Discourse. – Burlington: University of Vermont, 2004.
7. van Dijk T.A. Discourse and Power. – Houndmills: Macmillan, 1998.

Otabek XIDIROV,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
 ffilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik hozirgi zamon tilshunosligining eng faol va istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, axborot, texnologiya, lingvistik, tilshunoslik, tushuncha, tasavvur, tafakkur, psixologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika.

Annotation. This article expresses the opinion that cognitive linguistics is one of the most active and promising directions of modern linguistics.

Keywords: cognitive linguistics, information, technology, linguistics, concept, imagination, thinking, psychology, psycholinguistics, neurolinguistics.

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о том, что когнитивная лингвистика является одним из самых активных и перспективных направлений современной лингвистики.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, информация, технология, лингвистика, концепция, воображение, мышление, психология, психолингвистика, нейролингвистика.

Raqamli dunyoda yuzaga kelgan tendensiyalar zamonaviylashishni talab etadi, shu nuqtayi nazardan ushbu olamda paydo bo'lgan tushunchalarni anglash va tafakkur hamda tasavvur qilish uchun yordam beradigan yo'nalishlardan biri kognitiv tilshunoslikdir. Mazkur yo'nalish tilni inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda o'rganadigan fan sohasidir. Kognitiv tilshunoslikka ko'ra, til faqat aloqa vositasi emas, balki insonning fikrlashi, idrok etishi va bilimni shakllantirish tizimi sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslik til ma'lumotlarini kodlash va transformatsiya qilish mexanizmi bo'yicha ishlashda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikning ushbu yo'nalishida shaxsning ongi, tafakkuri va ular bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlari hamda holatlari o'rganilganligi uchun uni bilim va bilish, inson faoliyati jarayonida dunyoni idrok etish haqidagi fan deyish maqsadga muvofiq.

Kognitiv tilshunoslikda til insonning aqliy qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligidan kelib chiqib, ushbu yondashuvda ilgari suriladigan asosiy mavzular quyidagilardir:

- tabiiy til orqali yuzaga keladigan kategoriyalashuvning strukturaviy xususiyatlari ya'ni prototiplik, sistemali polisemiya, kognitiv modellar;
- tilning funksional tamoyillari;
- sintaksis va semantika o'rtasidagi konseptual bog'liqlik;
- tildan foydalanishning pragmatik asoslari.

Kognitiv tilshunoslik – tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lib, dastlab 1970-yillarning boshlarida rasmiy yondashuvlardan voz kechish asnosida vujudga kelgan. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik o'z ildizlarini 1960 – 1970-yillarda shakllangan zamonaviy kognitiv fan taraqqiyotiga, xususan, inson tomonidan kategoriyalash jarayoni bilan bog'liq ishlarga hamda Gestalt psixologiyasi kabi oldingi ilmiy an'analarga taqaladi. 1970 – 1980 yillarda bu yo'nalishdagi tadqiqotlar kam sonli olimlar tomonidan olib borilgan bo'lsa, 1990-yillarning boshlariga kelib, bu sohada izlanishlar jadallik bilan olib borila boshlandi, qolaversa, o'zini *kognitiv tilshunos* deb tanituvchi tadqiqotchilar soni ham oshdi. 1989 – 1990-yillarda esa Xalqaro Kognitiv tilshunoslik jamiyati va Kognitiv Tilshunoslik ilmiy jurnali tashkil etildi. Yirik kognitiv tilshunoslardan biri bo'lgan R.Langaker bu voqeani "kognitiv tilshunoslikning mustahkam asoslangan,

o'zini anglagan intellektual harakat sifatida tug'ilishi" [1: 68] – deb ta'riflagan.

Tilshunoslikda kognitivizm sohasining paydo bo'lishi antik davrlarga borib taqalashiga qaramay, uning rasmiy tilshunoslik sohasida tan olinishi XX asrning so'ngiga borib taqaladi. Ushbu yo'nalishga oid izlanishlar til va tafakkurning murakkab munosabatlari o'rganilishidagi asosiy muammolarni ilgari suradi va ular asosan tilshunoslikning nazariy jihati bilan bog'liqdir. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat muammosi rivojlanishining navbatdagi bosqichi psixolingvistika bo'lib, u nutqni yaratish va idrok etish jarayonlarini, tilni inson ongida saqlanadigan belgilar tizimi sifatida o'rganish jarayonlarini, tilning o'zaro bog'liqligini o'rganadi [2: 132].

Ta'kidlashlaricha, kognitivlik aslida falsafaiy tushuncha bo'lib, lug'atlarda uning izohi turlicha keltirilgan. Jumladan, Falsafiy qomusiy lug'atlarda ushbu atama quyidagicha izohlanadi: "Kognitivlik – hodisalarni anglash va bilib olish imkoniyatini bildiruvchi tushuncha" [3: 198]. Shuningdek, Moskvada nashr qilingan Falsafiy ensiklopedik lug'atda esa bu atamaga quyidagicha ta'rif berilgan: "**КОГНИТИВНЫЕ (lot. cognitio – знание, познание), познаваемые, соответствующие познанию**" [4: 263], ya'ni bilish jarayoni va unga mos keluvchi tushunchalar sifatida ko'riladi.

Yuqoridagi keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, kognitiv atamasi zamirida inson ongida ro'y beradigan bilish va u bilan bog'liq psixofiziologik, mantiqiy, neyrofiziologik, biologik jarayonlar nazarda tutiladi. Bu jarayonlar bevosita insonning milliy-mental tabiati, tafakkur tarzi bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv tilshunoslik birinchi galda psixolingvistika bilan bog'liq bo'lib, u lisoniy hodisalarni psixologik jihatlariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, antropolingvistika bilan bog'liq bo'lib, inson tafakkuri evolyutsiyasi muammolarini ham qamrab oladi. O'z navbatida, mental tafakkur bilan bog'liq muammolarni qamrab oladi va shu bo'yicha etnolingvistikaga ham murojaat qiladi.

Inson tomonidan til tizimini harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish usullarini tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadigan bo'lim ham Kognitiv tilshunoslikdir. Yuqorida kognitiv tilshunos soha vakili paydo bo'lganligini esga olgan holda, kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan

vazifalari bilan qiziqadi. Ushbu soha vakillari til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni faollashtiruvchi sabablarni izlaydi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot jarayoni – lisoniy sintaktik tuzilmalarni tarkiban hamda mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi.

Shunday ekan insonning lisoniy faoliyatini tushuntiruvchi fan sifatida ushbu yo'nalish tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohasiga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Kognitiv tilshunoslikka oid tarjima qilingan va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida kognitiv tilshunoslikka oid bilimlar L.Talmy, J.Lakof va R.Langaker kabi olimlarning fikrlari bilan boshlanganligi aniqlandi. Xususan, R.Langaker kognitiv grammatika modeliga asos solgan u yaratgan nazariya hozirgacha qo'llanilib keladi. Kognitiv grammatika modelida grammatika tor doirada, barcha tushunadigan vosita sifatida o'rganilmaydi, balki kengroq ma'noda – til tizimining to'liq tuzilmasi, ya'ni tovush, ma'no va morfosintaksisni o'z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida qo'llaniladi. J.Lakof ham kognitiv metafora nazariyasining asoschilaridan biri, M.Jonson esa J.Lakof bilan birgalikda kognitiv metafora va inkorporatsiya nazariyalarini ishlab chiqqan. L.Talmy esa kognitiv semantika ya'ni til orqali makon, harakat va kuch konsepsiyalarining ifodalanishini o'rganadi. G.Faukonner til va tafakkurning aralash konseptual nazariyasini ilgari surgan olim sifatida tanilgan. Bu olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni inobatga olgan holda bir so'z bilan rasmiyatchilikdan voz kechish va tilni soddalashtirish maqsadida ushbu nazariyalarni ilgari surishgan. Eng qiziq tarafi shundan iboratki, sanalgan olimlarning 90 foizi AQShlik olimlardir. Bundan kelib chiqadiki, insoniyatning tafakkurini rivojlantiruvchi va til bilan bog'langan modellarni ishlab chiqish aynan shu davlatdan boshlangan.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida kognitivizm va kognitiv tilshunoslik hamda turli til modellari va mexanizmlari ustida ish olib borayotgan V.Evans, D.Geyertaerts, U.Kroft,

D.Kruz, J.Fokonye kabi olimlarni keltirish mumkin. Rus tilshunoslari orasida ham kognitiv tilshunoslikning masalalari bo'yicha ishlayotgan tilshunos olimlar ham uchraydi. V.Maslova, Y.Kubryakova, Z.Popova, I.Strenin, N.Boldirev, A.Babushkin kabi olimlar semantik va kognitiv yondashuvni mohiyatini ochib berishda, konseptual tahlil madaniy konseptlar, diskurs va mental modellar bo'yicha tadqiqot olib borishda ilg'or bo'lishgan.

S.Askoldovning ta'kidlashicha, "til fikrlar va g'oyalarning tabiati va tuzilishi haqida tushuncha beradigan kognitiv funktsiyani aks ettiradi. Demak, kognitiv tilshunoslikning tilni o'rganishning boshqa yondashuvlaridan farq qiladigan eng muhim jihati shundaki, til inson ongining muayyan fundamental xususiyatlari va dizaynini aks ettiradi deb faraz qilinadi. Kognitiv tilshunoslikda til insonning kognitiv qobiliyatlaridan birining ifodasi sifatida qaraladi" [14: 14]. A.V.Kravchenkoning fikriga ko'ra, "kognitiv tilshunoslik o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi". Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili sohiblarining "tafakkur grammatikasi"ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirgan holda zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda kognitiv tilshunoslik insonning tafakkuri jarayonlari va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga yo'naltirilgan fundamental yo'nalishlardan biri sifatida alohida o'rin egallashini anglash mumkin. Ushbu yondashuv tilni mustaqil va yopiq tizim emas, balki inson ongining, bilish va idrok qilish jarayonlarining ajralmas bir bo'lgi sifatidan talqin etadi. Shu ma'noda kognitiv tilshunoslik nafaqat an'anaviy lingvistik yondashuvlardan, balki psixologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, sun'iy intellekt nazariyasi kabi boshqa kognitiv fanlar bilan ham yaqin aloqada shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Geeraerts D., Cuyckens H. *Introducing Cognitive Linguistics. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics*, 2012. 10.1093/oxfordhb/9780199738632.013.0001.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика. Монография*. М.: АСТ: Восток-Запад. – 132 с.
3. *Qomusiy lug'at*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2004. – 198 b.
4. *Философский энциклопедический словарь*. М.: Советская энциклопедия, 1983. С.263
5. Аскольдов С.А. *Коцепт и слово*. М.: Academia, 1997. Стр.14

Zilola MADATOVA,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

O'ZBEKISTON MEDIASIDAGI TA'LIM MAVZULARINING QIYOSIY TAHLILI: AN'ANAVIY OAV VA YANGI MEDIA

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston media makonida ta'lim mavzularining yoritilish jarayoni an'anaviy matbuot va zamonaviy blogerlik faoliyati misolida tahlil qilinadi. Asosan "Ma'rifat" gazetasi va blogerlarning ta'limiy mavzularni yoritishdagi o'rni, afzalliklari va cheklavlari solishtirilib, ular o'zaro to'ldiruvchi kommunikativ vositalar sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, gazeta, bloger, jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, bosma OAV, ta'lim islohotlari, ijtimoiy tarmoqlar.

Annotation. In this article, the process of covering educational topics in the media space of Uzbekistan is analyzed using the example of the traditional press and modern blogging activities. Basically, the role, advantages, and limitations of the newspaper "Ma'rifat" and bloggers in covering educational topics are compared, and they are evaluated as complementary communicative tools.

Keywords: education system, newspaper, blogger, journalism, mass media, print media, educational reforms, social networks.

Аннотация. В данной статье процесс освещения образовательных тем в медиапространстве Узбекистана анализируется на примере традиционной прессы и современной блогерской деятельности. В основном сравниваются роль, преимущества и ограничения газеты «Маърифат» и блогеров в освещении образовательных тем, они оцениваются как взаимодополняющие коммуникативные средства.

Ключевые слова: система образования, газета, блогер, журналистика, средства массовой информации, печатные СМИ, образовательные реформы, социальные сети.

O'zbekiston taraqqiyotida ta'lim sohasi doimo ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. Mustaqillikdan keyingi davrda mazkur sohani isloh qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining markazida turdi [1]. Shunga muvofiq, ta'lim mavzularining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi nafaqat axborot tarqatish, balki keng jamoatchilikni ma'rifiy jarayonlarga jalb etish, islohotlar mohiyatini tushuntirish va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida ta'lim masalalarining yoritilishi bo'yicha ayrim ilmiy maqolalar va tahliliy ishlanmalar bor bo'lsa-da, an'anaviy matbuot hamda bloglarning bu boradagi faoliyatini taqqoslovchi kompleks tadqiqotlar deyarli yo'q. Shu bois mazkur maqola mavzuning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Ayrim mahalliy tadqiqotlarda "Ma'rifat" gazetasining ixtisoslashgan jurnalistika sifatidagi o'rni [2], "Ma'rifat" gazetasining til masalasi [3], "Ma'rifat" gazetasida janrlar masalasi [4] kabi jihatlari o'rganilgan.

Ta'lim jurnalistlari umumiy jurnalistika standartlariga amal qiladi, biroq ularning faoliyati chuqur ixtisoslashuvni talab etadi. Ular ta'limdagi qonun va qarorlar, o'quv tizimi va dasturlari, boshqaruv shakli, ta'limning har bir bo'g'inidagi jarayonlar va islohotlar mohiyatini chuqur tushunadigan va tahlil qila oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ochiqlik va ishonchlik bu yo'nalishdagi jurnalistikaning eng muhim tamoyillaridan biridir.

O'zbekiston ta'lim makonida **axborot oqimi ko'p tarmoqli**: bir tomonda rasmiy va an'anaviy OAV, ikkinchi tomonda blogosfera va yangi media. Ularning o'zaro ta'siri natijasida ta'lim mavzusining ijtimoiy ahamiyati, muhokama darajasi hamda dolzarbligi sezilarli darajada oshib bormoqda. O'zbekistonning ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda an'anaviy OAV, xususan, "Ma'rifat" gazetasi muhim o'rin egallaydi. "Ma'rifat" pedagoglar va ta'lim tizimi xodimlari uchun mo'ljallangan ixtisoslashgan gazeta sifatida ta'lim sohasidagi muammolar, yangiliklar va islohotlarni muntazam yoritib keladi. Jumladan, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar ijrosi, ta'lim tizimidagi muammo va kamchiliklar, bugungi ta'lim tizimi hayotidan hikoya qiladigan mavzularda har xil materiallar e'lon qiladi.

"Ma'rifat" gazetasida chop etilayotgan materiallarning asosiy qismi tahliliy va tanqidiy ruhda yozilgan bo'lib, ular ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni ochib berish, ularning sabablarini tahlil qilish hamda yechim yo'llarini taklif etishga qaratilgan. Gazeta nafaqat o'quvchi auditoriyasiga yangilik yetkazadi, balki ijtimoiy muhokama maydonini yaratish, pedagogik tajriba almashinuvi hamda davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi. Gazetada e'lon qilinayotgan maqolalar mualliflari orasida jurnalistlardan tashqari, olimlar, pedagoglar, talaba-yoshlar va ta'lim tizimi ishtirokchilari ham mavjud. Ularning fikrlari va tahlillari gazeta sahifalariga xilma-xillik, ilmiy asos va jamoaviylik ruhini olib kiradi. Shu orqali "Ma'rifat" gazetasining jamiyatda fikrlar plyuralizmini shakllantirishdagi o'rni ham namoyon bo'ladi.

Maqolalarda o'qituvchilarning ijtimoiy maqomi, ta'lim muassasalaridagi infratuzilma, dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlarining amaliyotga mosligi kabi dolzarb masalalar keng tahlil qilinadi. Shu jihatdan "Ma'rifat" nashrining asosiy missiyasi – tanqidiy tahlil asosida rivojlanish sari yo'naltirish deb baholash mumkin. Gazeta materiallari ko'proq tahliliy uslubda yoziladi, nashr haftada 1 marta chop etilishi inobatga olinib, asosan unda tanqidiy-tahliliy, publistitik va badiiy uslubdagi maqolalar

o'rin oladi. Informatsion va davriy jihatdan o'z dolzarbligini tez yo'qotadigan materiallar gazetaning elektron saytida nashr etiladi. Gazetada chop etilayotgan materiallarning asosiy qismini ta'lim sohasiga oid tahliliy va tanqidiy maqolalar tashkil etadi. Bu jihatdan "Ma'rifat" gazetasi nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ta'lim siyosatini shakllantirishga xizmat qiluvchi jamoatchilik minbariga aylanganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston ta'lim sohasi blogerlar tomonidan ham faol yoritib kelinmoqda. Xususan, Komil Jalilov, Ulug'bek Po'latov kabi blogerlar o'z platformalarida ta'lim tizimidagi dolzarb masalalarni yoritish, o'qituvchilar, talabalar va ota-onalar o'rtasida muloqot maydonini yaratish bilan ajralib turadi.

Komil Jalilov – pedagog, ta'lim bo'yicha ekspert [5]. K.Jalilov telegram tarmog'ida "Jalilov.Qaydlar" kanali orqali berib boradigan bloglarida asosan o'qituvchi maqomi, o'qituvchilarning mehnat sharoitlari, ta'lim tizimidagi adolatsizliklar, imtihon jarayonlari va korrupsiya muammolari, darsliklar sifati, tizimga kiritilayotgan yangiliklar haqida ochiqchasiga fikr yuritiladi. U o'z chiqishlarida faktlarga asoslanish, muammoni real voqealar misolida ko'rsatish, shuningdek, xalq bilan bevosita muloqot qilish orqali auditoriya ishonchini qozongan. "Jalilov.Qaydlar" telegram kanali 2022-yil 18-oktabrda ochilgan, hozirda 4 167 nafar obunachisi mavjud. Jalilov ta'lim jarayonlariga bevosita aloqador shaxs bo'lgani bois uning postlari omma uchun biroz murakkabroq, tushunarsiz tuyuladi. Chunki mutaxassis jarayonlarni chuqur tahlil qilishi bilan birga ko'p o'rinlarda fikr va xulosalarini kinoya, sarkazm aralash ifodalaydi [6].

Jalilov postlari o'z auditoriyasiga tezkor xabar va yangilik yetkazmaydi, metodik yordamlar taqdim etmaydi, u ta'lim eksperti sifatida jarayonlarga munosabatini bildiradi, noto'g'ri deb hisoblagan yangi islohotlarga nisbatan e'tirozini, achchiq tanqidini qayta va qayta bildiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan ikki postda darsliklar yaratishda Finlandiya metodlariga amal qilish, O'zbekiston ta'limiga fin metodlarini olib kirish tashabbuslariga nisbatan qarshilik ifodasi aks etadi. Jalilov bloglarida ta'lim eksperti sifatida OAVda ta'limga doir eng shov-shuvli axborotlarni kuzatib, tahlil qilib, ularga o'z munosabatini bildiradi. Masalan, 2025-yil sentabr oyida Toshkent viloyatining Bo'ka, Piskent, Oqqo'rg'on va Quyi Chirchiq tumanlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yirik zaharlanish yuz bergani va bu jarayonlar bir nechta saytlar, jurnalist va blogerlar tomonidan yoritilganida keltirilgan fakt va ma'lumotlarni tahlil qilgan.

Ta'lim masalalarini yoritishga ixtisoslashgan blogerlardan yana biri – Ulug'bek Po'latov. U faoliyati mobaynida davlat umumta'lim maktabida o'qituvchi, yoshlar yetakchisi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, Toshkent shahridagi "Yurist va kadr" nodavlat ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlagan. Ayni vaqtda Toshkent shahridagi Profi University pedagogik masalalar bo'yicha rektor maslahatchisi hamda "Xalq ta'limi Info" tahririyati direktori lavozimida faoliyat olib boradi. [7].

Pedagog 2028-yil 25-oktabr kuni Telegramda "Xalq ta'limi info|Ulug'bek Po'latov" kanalini (obunachilari 26.10.2025 sana holatiga 112 242 nafarni tashkil etadi) ochadi va noyabr oyidan boshlab tarmoqqa o'qituvchilar ish faoliyatida kerak bo'ladigan hujjatlarni yuklay boshlaydi. Masalan, ta'limga tegishli bo'lgan qonun va qarorlar, ish rejalar, dasturlar, yo'l xaritalari, o'qituvchilar yuritadigan hujjatlarning namunalari shular jumlasidan. Bu kabi xujjatlar pedagoglar uchun har doim zarur va tabiiyki, kanal asta-sekinlik bilan o'z auditoriyasini yig'a boshlaydi. U.Po'latov shundan so'ng o'qituvchilar uchun dolzarb va javobi noaniq bo'lib turgan masalalarga oydinlik kirituvchi

ma'lumotlar bilan bo'lisha boshlaydi. Dastlab kanal ta'limga oid qarorlar va Prezident murojaatnomalari, videoselektor yig'ilishlaridan keyingi sohada kutilayotgan o'zgarishlarni qisqa kontekstlarda yetkazishga xizmat qiluvchi postlar joylaydi. "So'ragan edingiz" xeshtegi ostida obunachilardan kelgan savollarga javoblar berib borishni yo'lga qo'yadi. Tez orada kanal ta'lim muassasalarida ro'y beradigan nizolar, ziddiyatlarga doir xabarlarini ham bera boshlaydi. Biroq ushbu nizolar va muammoli holatlar bloger tomonidan shaxsan o'rganilmaydi, ko'proq bu nizolarga vazirlik qanday munosabat bildirgani haqida ma'lumot beriladi [8]. 2023-yil U.Po'latov Xalqaliminfo.uz saytini ham tashkil qiladi. Sayt OAV sifatida 2023-yil 16-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan ro'yxatdan o'tgan. Hozirda Xalqaliminfo.uz sayti O'zbekistondagi ta'limga ixtisoslashgan onlayn nashrlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bloglar va an'anaviy matbuot o'rtasida farq mavjud bo'lsa-da, ular O'zbekiston ta'lim siyosatini yoritishda o'zaro to'ldiruvchi kommunikatsion tizimni tashkil etmoqda. Shu bilan birga

keyingi yillarda har ikki jabhada ham ta'lim masalalari ochiq-ochkorlik tamoyillariga asoslangan holda yoritila boshlagan. "Ma'rifat" gazetasi singari rasmiy nashrlar ta'lim sohasidagi islohotlar, davlat dasturlari va yutuqlarni tizimli ravishda, rasmiy manbalarga tayanib yoritish bilan birga, xalq murojaatlari, muammolariga yechim topishda ham muammoni yoritib, jamoatchilikka taqdim etish, mutasaddi tashkilotlar e'tiborini jalb qilmoqda. Ta'limiy bloglar – erkin fikr, tezkor tahlil va muloqot platformasi sifatida shakllanmoqda. Blogerlar ta'lim muammolarini, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar manfaatlarini ko'tarib chiqmoqda. Bu holat jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston media makonida an'anaviy va yangi kommunikatsiya vositalarining sintezi natijasida "ta'lim jamoatchilik platformasi" shakllanmoqda. Bu platforma ta'lim sohasining ochiqligini, ijtimoiy nazoratni va islohotlarga nisbatan ishonchni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. An'anaviy matbuot ishonchlik va tizimlilikni ta'minlasa, bloglar fikrlar xilma-xilligini va tezkor muloqotni kuchaytiradi. Shu jihatdan, O'zbekiston ta'lim jurnalistikasi yangi bosqichga – integratsiyalashgan media muhitga kirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8525>.
2. Abdullayev H.B. Matbuot nashrlari taraqqiyotida jurnalistlar ixtisoslashuvining o'рни ("Ma'rifat" va "Iqtisodiy gazeta" gazetalari misolida). Toshkent, 2021.
3. Allamuratov N.E., Shamuratova S. "Ma'rifat" gazetasining til muammosi // Eurasian Journal of Academic Research, 2022.– P. 1–12. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14233607>.
4. Sheraliyev S., Yunusova S. The creative legacy and activities of Abdulla Avloniy. International Journal of Artificial Intelligence, 2025, 1(4). – P. 161–164. <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/92363>.
5. Komil Jalilov (n.d.). – Wikipedia, The Free Encyclopedia. https://uz.wikipedia.org/wiki/Komil_Jalilov.
6. Jalilov K. Yana Finlandiya ta'lim tizimi masalasi Qashqadaryoda. <https://t.me/jalilovqaydlar/28>.
7. Xalq ta'limi Info. (n.d.). Biz haqimizda. Xalqaliminfo.uz. <https://xalqaliminfo.uz/about-us>.
8. Po'latov U. Shayxontohur tumanidagi 141-maktabda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida chiqqan nizo bo'yicha xalq ta'limi vazirligi izoh berdi. <https://t.me/xalqaliminfo/534>.

Sardor ISLOMOV,

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

ONOMASTIK TADQIQOTLARDA DAVR VA DUNYOQARASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastik birliklarni nomlashda nom qo'yilayotgan davr va va shu vaziyatda yashayotgan kishilarning ma'naviy dunyoqarashi asosiy omillardan biri ekanligi haqida fikr yuritiladi. Bu borada siyosiy vaziyat, diniy va etnik omillarning ham o'рни muhim ekani ta'kidlanadi. Onomastik birliklar vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishi bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: antroponom, toponim, gidronim, etnonim, etnoantroponom, etnotoponom, faol leksika, nafaol leksika, onomastik tadqiqotlar.

Annotation. In this article, it is stated that one of the main factors in naming onomastic units is the spiritual worldview of the people living in the given period and situation. In this regard, the important role of the political situation, religious and ethnic factors is emphasized. Conclusions are given about the change of onomastic units over time.

Keywords: anthroponym, toponym, hydronym, ethnonym, ethnoanthroponym, ethnotoponym, active lexicon, inactive lexicon, onomastic research.

Аннотация. В данной статье говорится о том, что одним из основных факторов наименования онимастических единиц является духовное мировоззрение людей, проживающих в названном периоде и при данных обстоятельствах. В этой связи подчеркивается важная роль политической ситуации, религиозных и этнических факторов. Даны выводы об изменении онимастических единиц с течением времени.

Ключевые слова: антропоним, топоним, гидроним, этноним, этноантропоним, этнотопоним, активный лексикон, неактивный лексикон, онимастическое исследование.

Onomastika tilshunoslikning muhim qismi sifatida olam va odamni tushunish, anglashning asosini ifodalovchi nom (ism) tadqiqi bilan shug'ullanadi. Dunyo tilshunosligida mazkur sohani o'rganish turli tillarda turlicha tezlikda kechgan bo'lsa-da, maqsad va vazifalar deyarli bir-biriga yaqin, ya'ni nomning tarixi, mazmuni, madaniy va etnik jihatlar bilan bog'liqligi masalalarini tahlil qilish va o'rganishdir.

Turkiy tillar onomastikasiga bag'ishlangan ba'zi ilmiy ishlarda o'tmish davrlarga xos nomlarni hozirgi davr nuqtayi

nazaridan belgilash va o'rganishga harakat qilish hollari mavjud. Bunga sabab, masalan, hozirgi davr o'zbek tilidagi ko'pgina lug'aviy biklirlar qadimiy davr mahsuloti bo'lgani kabi, amaldagi ko'pgina atoqli otlarning paydo bo'lishi ham o'sha davrlarga borib taqaladi. Shu sababli toponim va antroponimlarni, bir tomondan, hozirgi kunga tegishli zamonaviy nom, ikkinchi tomondan esa ko'hna qadimiy nom sifatida talqin etish mumkin [1: 4]. Shundan kelib chiqib, onomastikani tarixiy va zamonaviy turlarga bo'lib tadqiq etish mumkin.

O'zbek tilshunosligida tarixiy onomastika, xususan, tarixiy antroponimiya sohasining rivojiga munosib hissa qo'shgan N.Husanov "O'zbek antroponimlari tarixi" asarida tarixiy antroponimiyaga oid bo'lgan bir qancha muammolar borasida so'z yuritilgan. Xususan, o'zbek tilidagi tarixiy nomlarni o'rganishda ma'lum davr va shu davrga oid manbalar to'liq tahlil qilinmayotgani, o'zbek nomshunosligi bo'yicha darslik va qo'llanmalarining yetarli emasligi bu sohani tilshunoslikning boshqa bo'limlari qatori oliy maktablarda sistemali ravishda o'qitish va o'rgatishga imkon bermayotganligini haqida ham fikrlar berib o'tgan. Shuningdek, tadqiqotchi antroponimlar tarixi haqida ma'lumot berar ekan, "ismlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri tarixiy ismlar tushunchasini aniqlashtirish va tarixiy nomlarni zamonaviy ismlardan farqlash, chegaralash muhim" [2: 12] deb hisoblaydi.

Tarixiy nomlar, xususan, antroponim, toponim, gidronim yoki boshqa onimlarni ifodalovchi birliklar o'z davriga nisbatan faol leksika bo'lib, bugungi til shakliga to'g'ri kelmasligi, begonadek tuyulishi mumkin. *Bayna, Tesha, To'ti* kabi antroponimlar, *Ajinatepa, Tentak qishloq, Garangko'l* kabi toponim va gidronimlar bugungi zamonaviy tilimizga ham shakl, ham mohiyat jihatidan to'g'ri kelmasligi seziladi. Bu esa nomshunoslikka insonlarning ongi, tafakkurining o'sishi, zamon bilan hamnafas fikrlashi, yashayotgan jamiyatning o'zgarishi muhim ekanini ko'rsatadi.

Ilmiy tafakkur tarzi insoniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Har qanday taraqqiyot unga suyanadi va uning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Biroq rivojlanish bosqichlarida, insoniyat ilmiy tafakkur tarziga yetib kelgunga qadar, mifologik, diniy, falsafiy tafakkur tarzini bosib o'tgan. Rivojlanish bosqichlaridagi har bir qadam (mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash) insoniyatning tafakkur tarzida o'z izini qoldirgan. Bu jarayonni har bir sohada bo'lgani kabi antroponimlarda ham kuzatish mumkin. Hatto antroponimlarda tafakkur tarzidagi bu uzoq taraqqiyot yo'li boshqa sohalarga qaraganda chuqurroq o'z izini qoldirgan. Antroponimlardagi mifologik dunyoqarash izlari magik qarashlar bilan bog'liq motivlarda o'z aksini topgan. Diniy dunyoqarash bilan bog'liq tafakkur tarzi esa antroponimlarda diniy motivatsiya bilan bog'liq holda aks etgan. Bugungi kunda *Muhammad, Abdulloh, Ali, Oyisha, Xadicha* kabi diniy ismlarning paydo bo'lishi jamiyatimizda diniy tafakkur va madaniyatning rivojidan dalolat beradi.

Mamlakat taraqqiy etgan sari kishilarning mafkuraviy, diniy qarashlari, siyosiy hayoti atoqli otlarda aks etganini ko'ramiz. Qadimiy davrdagi atoqli otlar o'sha davrda hukmron bo'lgan zardushtizm mafkurasini, keyinchalik buddizm diniy qarashlarini ifodalagan. O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan esa bu din bilan bog'liq ko'plab nomlarning paydo bo'lganini ko'ramiz. Ammo olimlar onomastikada xalq diniy qarashlarining ifodalanishiga turli xil munosabatda bo'lishgan. Nomlarda xalq diniy qarashlarining ifodalanishini tabiiy hol [1: 17]. Jamiyatda siyosat va din masalasi nomlar doirasida aktual bo'lgan.

Antroponimlar xususida gap ketar ekan, bunda etnik belgilarning ham o'z o'rnini mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Qadimdan insonlar o'z jamoa – qabila yoki to'dasiga xos nomlash an'anasiga ergashgan. Bunday nomlashda shu etnik jamoaning mashhur a'zosi yoki shu jamoada urf bo'lgan

nomlarni qo'yish, o'z urug'ining nomini farzandiga ko'chirish kabi jihatlar faol bo'lgan. Shuningdek, etnik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda asosan tug'ilgan bolaning etnik jihatdan kelib chiqishi ham e'tiborga olinadi. Masalan, quyidagi namunalar orqali ismlarda nima nazarda tutilgani izohlangan:

- bolaning qaysi etnik guruhga mansubligiga ko'ra: *Barlos, Qo'ng'iroq, Bahrin*;
- o'sha etnos farzandi ekanini, uning o'tmish ajdodlari o'sha urug' yoki qabilaga mansubligini ifodalovchi: *Do'rmon, Jaloyir*;
- chaqaloq ularning davomchisi ekanini ta'kidlash: *Boyqo'ng'ir, Bo'ronboy, Olchinbek*.

Yuqorida keltirilgan va etnik belgi, xususan, etnonimlar asosiga nomlangan antroponimlar fanda etnoantroponimlar [3: 134–145] deb yuritiladi.

Onomastik tizimning deyarli barcha sathlarida biz yuqorida antroponimlar misolida ko'rib o'tgan xususiyatlar mavjud. Toponimlarda ham bunday jihatlar ko'zga tashlanadi. Eskirgan siyosiy tuzum yoki tarixiy leksika bilan nomlangan toponimlar bugungi kunda adabiy tilimizda deyarli qolmagan. Faqatgina mahalliy aholi, kekka avlod nutqida qo'llanilib kelmoqda. Misol uchun, *Kommunizim, Qizil bayroq, Qizil oktyabr, Komsomol, Kommunizm* kabi joy nomlari allaqachon *Mustaqillik, Istiqlol, Birdamlik, Yangi O'zbekiston* kabi nomlarga o'zgartirilgan. Bu, albatta, mustaqillikning xalq tafakkur tarziga yangicha ijobiy ta'siri, o'zbek tili nufuzining oshishi bilan bevosita bog'liqdir.

Xalq, qabila va urug'lar nomi bilan bog'liq toponimlar *etnotoponimlar* deb ataladi. Bunday nomlar tarixiy davrlarda xalqlarning qaysi hududlarda yashagani va o'zaro qanday aloqalarda bo'lganidan guvohlik beradi. Mamlakatimiz hududida ham ko'plab etnotoponimlar mavjud bo'lib, ular O'zbekiston hududida yashaydigan xalqlar, urug'lar va tarixiy qabilalar nomi bilan ataladi. Masalan, *Ayronchi, Arab, Baliqchi, Boyovut, Barlos, Bo'ka, Durmon, Qo'ng'iroq* va boshqalar shular jumlasidandir. Hozir mustaqil davlatlar sifatida e'tirof etiladigan juda ko'plab mamlakatlar, xususan, *O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston* va boshqa shunga o'xshash toponimlarni etnonimlarga asoslangan deb hisoblashimiz mumkin.

Surxondaryo viloyati hududida ham etnonimlarga asoslangan toponimlar bir qancha bo'lib, ulardan biri *Do'rmontepa* etnotoponimidir. *Do'rmontepa* – Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida joylashgan tepalik; avvallari qo'rg'on bo'lgan degan qarashlar mavjud. Etnotoponimga asos bo'lgan *do'rmon* – qadimgi turkiy qabila nomi. Tarixiy manbalarda, xususan, "Mo'g'ullarning yashirin tarixi" asarida ta'kidlanishicha, *do'rmon* qabilasining asoschisi Duva Soxor bo'lib, to'rtta o'g'li bo'lgan. Ana shu to'rt o'g'ildan *do'rmon* (*mo'g'ulcha durbed: dur – "to'rt", bed (bod, bodun) – "odam, urug', qabila"*) qabilasi, keyinchalik etnik jamoa – urug' tashkil topgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi onomastik tadqiqotlarda davr va dunyoqarash masalasi chuqur yondashuvni talab etadigan jihatdir. Chunki insonlarning dunyoqarashi, kognitiv faoliyati o'zgarib, yangilanib boraveradi. Shunga hamohang nomlash tasavvurlari, madaniyati ham o'zgaradi. Bizningcha ham, aynan shu xususiyat onomastik birliklarning lingvistik jihatlarini aniqlashda muhim. Shunga ko'ra, davr va dunyoqarash masalasi keyingi tadqiqotlarimizda ham muhim ko'rsatkich bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi: Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 1994.
2. Husanov N. O'zbek antroponimlar tarixi. – Toshkent, 2014.
3. Begmatov E., Uloqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008.

Svetlana UMIROVA,

Samarqand davlat universiteti qoshidagi
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti dotsenti,
fflologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

MULLIFLIK KORPUSLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada korpus lingvistikasining asosiy bo'limlaridan bo'lgan mualliflik korpusi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati va vazifasi, yozuvchi uslubini aniqlash, til madaniyati va lug'at boyligini saqlashdagi o'rni xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik korpusi, raqamli vositalar, matn, individual uslub, lingvistik annotatsiya, Brown korpusi, Britaniya milliy korpusi.

Annotation. This article discusses the authorial corpus as one of the fundamental branches of corpus linguistics, its significance and functions in linguistics, its role in determining the writer's style, as well as its importance in preserving language culture and vocabulary richness.

Keywords: author's corpus, digital means, text, individual style, linguistic annotation, Brown corpus, British national corpus.

Аннотация. В данной статье рассматриваются авторский корпус как один из основных разделов корпусной лингвистики, его значение и функции в языкознании, его роль в определении авторского стиля, а также в сохранении культуры речи и словарного богатства языка.

Ключевые слова: авторский корпус, цифровые средства, текст, индивидуальный стиль, лингвистическая аннотация, корпус Брауна, Британский национальный корпус.

Zamonaviy lingvistika va raqamli gumanitar fanlar rivojida "mualliflik korpusi" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu korpus muayyan muallif yoki mualliflar guruhiga mansub matnlar to'plamining tizimli ravishda shakllantirilgan majmuasi bo'lib, lingvistik, uslubiy hamda adabiy tadqiqotlar uchun empirik asos vazifasini bajaradi.

Mualliflik korpuslari tilning variativligi, individual uslubiy xususiyatlar, lingvistik shakl va ijodiy maqsad o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar va yirik matn arxivlarining keng ommalashuvi natijasida mualliflikni o'rganish jarayoni an'anaviy talqin asosidagi yondashuvdan ma'lumotlarga tayanuvchi ilmiy-uslubiy tahlil darajasiga ko'tarildi. Lingvistik texnologiyalar jadal rivojlanib borar ekan, mualliflik korpuslari ikki tomonlama vazifani bajaradi: ular mualliflarning til va madaniy merosini saqlaydi hamda individual uslubni belgilovchi unikal lingvistik qoliplarni aniqlash uchun mustahkam tahliliy asos yaratadi.

Korpus lingvistikasining rivoji Biber, Konrad va Reppenning til tuzilishi hamda qo'llanilishini korpus asosida o'rganish metodlarini tizimlashtirgan yondashuvda keng yoritiladi [1], Sinkler esa korpus, konkordans va kollokatsiya tushunchalarining nazariy asoslarini yaratib, amaliy tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor qo'yadi [5]. Makkenry va Hardie ushbu sohani metodologik va nazariy jihatdan yanada kengaytirib, zamonaviy korpus texnologiyalarining imkoniyatlarini ko'rsatadi [4]. Burrovs tomonidan taklif etilgan "Delta" usuli stilometrik tahlil va mualliflikni aniqlashda muhim statistika vositasi sifatida ajralib turadi [5]. Borgmannning katta, kichik va mavjud bo'lmagan ma'lumotlar haqidagi tadqiqoti raqamli davrda korpus asosidagi izlanishlarning o'rnini va ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatini tahlil qiladi [2].

Mualliflik korpusi aniq bir muallif tomonidan yaratilgan yozma matnlarning tartiblangan va annotatsiya qilingan majmuasidir. Uning asosiy belgisi muallifning individual lingvistik xarakteriga, ya'ni yozuvchining leksik, sintaktik va uslubiy tanlovlar orqali ma'no yaratishiga e'tibor qaratilishidir. Tilning umumiy holatini aks ettirishga mo'ljallangan umumiy lingvistik korpuslardan farqli o'laroq, mualliflik korpuslari muayyan shaxs tilini qayd etishga qaratiladi. Shu bois ular uslubiyat, mualliflikni aniqlash (ing. authorship attribution) hamda tilning tarixiy rivoji (diaxron o'zgarishlar)ni o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Mualliflik korpusi odatda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

• asosiy matnlar – muallifga tegishligi ishonchli manbalar bilan tasdiqlangan badiiy yoki publisistik asarlar;

- metama'lumotlar – nashr sanasi, janr, manba kabi kontekstual ma'lumotlar;
- lingvistik annotatsiyalar – morfologik, sintaktik va semantik teglashlar bo'lib, kompyuter lingvistik tahlili imkonini beradi.

Bunday tuzilmali korpusdan ikki yo'nalishda: kvantitativ tahlil (masalan, chastota statistikasi, uslubiy profil yaratish); kvalitatif tahlil (masalan, narrativ texnika, mavzu va motivlarni sharhlash) foydalanish imkoni bo'ladi.

Korpusga asoslangan tahlilning ildizlari an'anaviy tilshunoslik va matn tanqidiga borib taqaladi, biroq korpuslardan lingvistik tadqiqotlarda tizimli ravishda foydalanish XX asrning o'rtalarida shakllana boshladi. Brown korpusi (AQSh, 1961) va Britaniya milliy korpusi (Buyuk Britaniya, 1990) kabi dastlabgi loyihalar matnlarni to'plash va annotatsiyalash bo'yicha namunali modelni yaratdi. Vaqt o'tishi bilan umumlisoniy korpuslaridan individual mualliflarga bag'ishlangan korpuslarga e'tibor kuchaydi. Natijada, Uilyam Shekspir, Jeyn Ostin, Charlz Dikkens kabi yozuvchilarga oid maxsus mualliflik korpuslari shakllantirildi. So'nggi o'n yilliklarda ko'plab tillarda shunga o'xshash tashabbuslar vujudga keldi. Jumladan, o'zbek tilida ham mualliflik korpuslari milliy adabiy merosni saqlash, zamonaviy va mumtoz yozuvchilar uslubini qiyosiy o'rganish imkoniyatini kengaytirmoqda. Mualliflik korpusini ishlab chiqish bir-biri bilan uzviy bog'liq bir qator ilmiy maqsadlarni ko'zlaydi:

- 1) uslubiy profil yaratish – muayyan muallifga xos bo'lgan lingvistik va struktur xususiyatlarni aniqlash;
- 2) muallifni aniqlash (ing. authorship attribution) – anonim yoki muallifligi shubhali matnlarning ehtimoliy muallifini kompyuter tahlili orqali aniqlash;
- 3) diaxron lingvistik tadqiqot – muallif tilining turli ijodiy davrlardagi o'zgarishlarini o'rganish;
- 4) sotsiolingvistik va madaniy tahlil – til vositalarida jamiyat, mafkura va madaniy o'zgarishlarning aks etishini tadqiq etish.
- 5) pedagogik qo'llanmalar – adabiy asarlarning tabiiy til materiallari asosida o'quv-metodik resurslar yaratish.
- 6) texnologik integratsiya – korpuslardan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), sun'iy intellekt va mashina tarjimasini tizimlarida foydalanish.

Mazkur vazifalar mualliflik korpuslarining tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ma'lumotlar bazasi va ta'lim sohalari tutashgan nuqtadagi ko'p qirrali ahamiyatini namoyon etadi.

Mualliflik korpuslari bir qator asosiy belgilari bilan ajralib turadi:

– muallifga yo'naltirilganlik: korpus bitta muallif ijodi atrofida shakllantiriladi, bu esa chuqur uslubiy tahlilni amalga oshirish imkonini beradi;

– matnlarning reprezentativligi: korpus muallifning barcha ijodiy davrlarini, turli janr, mavzu va uslubdagi asarlarini qamrab olishi kerak;

– annotatsiya: matnlar lingvistik va bibliografik teglar bilan boyitiladi;

– raqamli ochiqlik: zamonaviy korpuslarning aksariyati qidiruv imkoniyatiga ega elektron ma'lumotlar bazasi sifatida tashkil etiladi;

– qiyosiy tahlil qiymati: korpuslar boshqa mualliflarga oid korpuslar bilan taqqoslanib, uslubiy va madaniy ta'sirlarni o'rganish imkonini beradi.

Korpus yaratish metodologiyasi. Mualliflik korpusini yaratish bir necha metodologik bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich: matnlarni yig'ish – muallifning ishonchli manbalardan olingan asarlarini jamlash: bosma nashrlar, arxivlar, raqamli platformalar.

2-bosqich: raqamlashtirish – matnlarni optik belgilarni tanish (OCR) texnologiyasi va qo'lda tekshirish orqali mashina o'qiy oladigan formatga o'tkazish.

3-bosqich: ma'lumotlarni tozalash va normallashtirish – takroriy matnlarni chiqarish, imlo xatolarini tuzatish, yozuv va tinish belgilari standartligini ta'minlash.

4-bosqich: annotatsiya va teg qo'yish – matnni morfologik, sintaktik va semantik belgilashlar bilan teglash (tuzuvchi imkoniyati va maqsadidan kelib chiqadi).

5-bosqich: metama'lumotlarni shakllantirish – bibliografik ma'lumotlar, janr tasnifi va kontekstual ma'lumotlarni qayd etish.

6-bosqich: ma'lumotlar bazasini yaratish – korpusni AntConc, Sketch Engine, NoSketch Engine kabi korpus boshqaruv tizimlari yordamida tuzish.

7-bosqich: verifikatsiya va texnik xizmat – korpusni muntazam ravishda yangilab borish, tekshirish va uzoq muddatli ilmiy foydalanish uchun saqlash.

Ushbu metodologiya yaratilgan korpusning ishonchligi, takrorlanuvchanligi va ilmiy tahlil uchun qulayligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use.—Cambridge: Cambridge University Press, 1998.— 284 p.
2. Borgman C.L. Big Data, Little Data, No Data: Scholarship in the Networked World.— Cambridge (MA): MIT Press, 2015.— 380 p.
3. Burrows J. "Delta: A Measure of Stylistic Difference and a Guide to Likely Authorship" // Literary and Linguistic Computing, 2002. Vol. 17, №3.— P. 267–287.
4. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice.— Cambridge: Cambridge University Press, 2012.— 366 p.
5. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation.— Oxford: Oxford University Press, 1991.— 179 p.

Gulnoz MAMARASULOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

SIYOSIY NUTQLAR TARJIMASIDA PRAGMATIK MUVOZANAT

Annotatsiya. Mazkur maqolada geosiyosiy nutqlarning lingvopragmatik va stilistik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida so'zlagan nutqning inglizcha va o'zbekcha variantlariga asoslanadi. Qiyosiy-diskursiv va lingvopragmatik yondashuvlar yordamida nutqda qo'llangan kommunikativ strategiyalar, baholovchanlik va stilistik moslashuv mexanizmlari tahlil qilinadi. Natijalar inglizcha variantda diplomatik neytrallik va institutsional aniqlik, o'zbekcha variantda esa kollektivlik diskursi va baholovchanlik intensivligi ustun ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot geosiyosiy nutqlar tarjimasida pragmatik muvofiqlashtirish muhimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: geosiyosiy diskurs, siyosiy nutq, lingvopragmatika, stilistik tahlil, qiyosiy tahlil, diplomatik diskurs.

Annotation. This article examines the linguopragmatic and stylistic features of geopolitical discourse through a comparative analysis. The study is based on the English and Uzbek versions of the speech delivered by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the Seventh Consultative Meeting of the Heads of State of Central Asia. Using comparative discourse and linguopragmatic approaches, the paper analyzes communicative strategies, evaluative language, and mechanisms of stylistic adaptation. The findings show that the English version prioritizes diplomatic neutrality and institutional precision, while the Uzbek version emphasizes collective identity and heightened evaluative intensity. The study highlights the importance of pragmatic coordination in translating geopolitical speeches.

Keywords: geopolitical discourse, political speech, linguopragmatics, stylistic analysis, comparative analysis, diplomatic discourse.

Аннотация. В данной статье лингвопрагматические и стилистические особенности геополитических речей изучаются на основе сравнительного анализа. Исследование основано на английском и узбекском вариантах выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на седьмой Консультативной встрече глав государств Центральной Азии. С помощью сравнительно-дискурсивного и лингвопрагматического подходов анализируются коммуникативные стратегии, используемые в речи, механизмы оценки и стилистической адаптации. Результаты показывают, что в английском варианте преобладают дипломатическая нейтральность и институциональная определенность, а в узбекском варианте – коллективный дискурс и интенсивность оценочности. Исследование обосновывает важность прагматической координации при переводе геополитических речей.

Ключевые слова: геополитический дискурс, политическая речь, лингвопрагматика, стилистический анализ, сравнительный анализ, дипломатический дискурс.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida geosiyosiy jarayonlar tobora murakkablashib borar ekan, siyosiy ta'sir va mulqot vositasi sifatida tilning roli keskin ortmoqda. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, strategik qarorlar va mintaqaviy hamkorlik masalalari nafaqat huquqiy hujjatlar yoki diplomatik kelishuvlar orqali, balki nutqiy amaliyot –

siyosiy va diplomatik diskurs orqali ham shakllantiriladi. Shu ma'noda geosiyosiy nutqlarga zamonaviy siyosiy tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida qaraladi.

Geosiyosiy nutqlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan intensional xarakterga ega matnlar bo'lib, aniq kommunikativ maqsadga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda

til birliklari tasodifiy tanlanmaydi: leksik tanlov, grammatik qurilish, baholovchi vositalar va stilistik shakllar muayyan siyosiy pozitsiyani ifodalash, legitimlashtirish yoki yumshatish vazifasini bajaradi. Shu bois geosiyosiy nutqlarni tahlil qilish faqat semantik yoki stilistik yondashuv bilan cheklanib qolmay, lingvopragmatik va diskursiv nuqtayi nazardan olib borilishini talab etadi.

Lingvopragmatik yondashuv nutqning mazmunini kontekst, adresant va adresat munosabati, kommunikativ niyat hamda vaziyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. Ayniqsa, davlat rahbarlari tomonidan xalqaro auditoriyaga yo'llangan nutqlarda pragmatik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday nutqlarda ochiq buyruq yoki qat'iy talablar o'rniga, diplomatik ehtiyotkorlik, baholovchanlikni yumshatish, kollektivlik va hamjihatlik diskursi ustuvor bo'ladi. Bu holat siyosiy nutqlarning yashirin ta'sir mexanizmlarini aniqlashda lingvopragmatik tahlilning muhimligini ko'rsatadi.

Geosiyosiy nutqlarda tarjima alohida murakkab jarayon. Chunki tarjima faqat til birliklarini almashtirish emas, balki siyosiy ma'no, diplomatik ohang va pragmatik niyatni saqlab qolish demak. Bir nutqning turli tillardagi rasmiy variantlari o'rtasida to'liq so'zma-so'z moslik kamdankam hollarda uchraydi. Aksincha, har bir til va auditoriya uchun moslashtirilgan pragmatik va stilistik yechimlar yuzaga keladi. Shu jihatdan geosiyosiy nutqlar tarjimasi "lingvopragmatik muvozanat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Geosiyosiy nutqlarning tahlili tanqidiy diskurs tahlili (CDA) doirasida qaralganda, hokimiyat, ideologiya va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi diskursiv maydonni tashkil etadi. Fairclough ta'kidlaganidek, siyosiy diskurs nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki uni ma'lum mafkuraviy nuqtayi nazardan qayta ishlab chiqadi. Shunday ekan, nutqning inglizcha va o'zbekcha variantlari o'rtasidagi farqlar lingvistik tasodif emas, balki turli auditoriyalar uchun mo'ljallangan diskursiv strategiyalarning natijasi sifatida ko'rilishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalarini muhokama qilishda muhim nazariy asoslardan biri – lingvopragmatik yondashuv. Pragmatika nutqning "nima aytilgani" dan ko'ra, "nima maqsadda aytilgani" ni aniqlashga xizmat qiladi. Davlat

rahbarlari nutqlarida esa adresantning kommunikativ niyati ko'pincha ochiq buyruq yoki talablar shaklida emas, balki yumshatilgan, diplomatik va bilvosita vositalar orqali ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, inglizcha va o'zbekcha variantlar o'rtasidagi pragmatik farqlar adresantning kutilgan reaksiyasi va siyosiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotimiz doirasida o'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida so'zlagan nutqning o'zbekcha va inglizcha variantlari o'zaro mazmunan mos bo'lsa-da, ularning lingvopragmatik va stilistik realizatsiyasi sezilarli darajada farqlanadi. Bu farqlar til tizimidagi tafovutlar bilan emas, balki nutqning mo'ljallangan auditoriyasi, siyosiy diskurs muhiti va kommunikativ strategiyalar bilan izohlanadi.

Avvalo, nutqning kommunikativ intensionalligi tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki variantda ham deklarativ va komissiv nutq aktlari ustunlik qiladi. Inglizcha variantda *we believe, we propose, we consider it important* kabi birliklar orqali siyosiy tashabbuslar bilvosita, diplomatik yondashuv bilan ifodalanadi. Bu holat nutq aktlari nazariyasiga muvofiq ravishda, adresantning o'z pozitsiyasini majburlovchi buyruq emas, balki kelishuv va maslahat shaklida taqdim etish strategiyasini ko'rsatadi. O'zbekcha variantda esa ushbu birliklar ko'pincha kuchaytirilgan baholovchanlik bilan birga kelib, *men qat'iy ishonamanki, biz muhim deb hisoblaymiz, taklif etamiz* kabi shakllarda beriladi. Natijada nutqning intensionalligi yanada ochiqroq va normativ tus oladi.

Adresant pozitsiyasining ifodalanishida ham muhim farqlar kuzatiladi. Inglizcha matnda individual liderlik unsurlari saqlangan holda inklyuziv *we* shakli qo'llanadi. Bu global diplomatik diskursga xos bo'lib, adresantni mintaqaviy yoki xalqaro hamjamiyat nomidan so'zlayotgan siyosiy arbob sifatida ko'rsatadi. O'zbekcha variantda esa *biz* shakli yanada kengroq kollektivlikni ifodalaydi va nafaqat davlatlar rahbarlarini, balki mintaqaviy xalqlar, umumiy tarix va manfaatlar birligini ham qamrab oladi. Bu holat o'zbek siyosiy nutqiga xos bo'lgan kollektiv legitimlashtirish strategiyasining ustuvorligini tasdiqlaydi.

Tahlil mezonlari	Inglizcha variantdagi realizatsiya	O'zbekcha variantdagi realizatsiya	Lingvopragmatik / nazariy talqin
kommunikativ intensionallik	<i>I am firmly convinced, we propose, we believe</i>	<i>men qat'iy ishonamanki, taklif etamiz, biz ishonamiz</i>	Nutq aktlari nazariyasiga ko'ra deklarativ va komissiv. Aktlar ustun; o'zbekcha variantda kollektiv legitimlashtirish kuchli.
adresant pozitsiyasi	individual liderlik + inklyuziv <i>we</i>	Kollektiv <i>biz</i> diskursi ustuvor	Brown & Levinson: pozitiv yuzga yo'naltirilgan strategiya (solidarlik).
baholovchanlik (appraisal)	cheklangan, me'yoriy baholash: <i>historic day</i>	Intensiv baholash: <i>haqiqatan ham tarixiy kun.</i>	Martin & White: o'zbekcha variantda attitude intensivligi yuqori.
metaforik vositalar	universal diplomatik metaforalar: <i>bridge, horizons</i>	madaniy-tarixiy ranglangan metaforalar: <i>mustahkam ko'prik, tarixiy uyg'onish</i>	Lakoff & Johnson: konseptual metafora ideologik yuklama oladi
stilistik intensivlik	neytral, rasmiy, global diskursga mos	ritorik va ideologik kuchaytirilgan	auditoriyaga mos diskursiv adaptatsiya

Tahlil mezonlari	Inglizcha variantdagi realizatsiya	O'zbekcha variantdagi realizatsiya	Lingvopragmatik / nazariy talqin
tarjimaviy strategiya	manba diskursiga mos neytrallik	Maqsad diskursiga mos kuchaytirish	Hatim & Mason: diskursga yo'naltirilgan tarjima
umumiy pragmatik effekt	global diplomatik ishonchlik	mintaqaviy birdamlik va ruhlantirish	Lingvopragmatik muvozanat saqlangan.

Baholovchanlik masalasida inglizcha va o'zbekcha variantlar o'rtasidagi tafovut ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Inglizcha nutqda *historic day, strategic step, significant partner* kabi baholovchi birliklar diplomatik me'yor doirasida, cheklangan intensivlik bilan qo'llanadi. O'zbekcha variantda esa ushbu baholovchanlik kuchaytirilib, *haqiqatan ham tarixiy kun, prinsipial va muhim qaror, ishonchli va ahamiyatli sherik* kabi emotsional-ekspressiv birliklar orqali beriladi. Appraisal nazariyasi nuqtai nazaridan, bu holat o'zbekcha variantda *attitude* komponentining yuqori intensivlik bilan realizatsiya qilinganini ko'rsatadi. Muhokama shuni anglatadiki, bunday kuchaytirish mintaqaviy auditoriyani ruhlantirish, siyosiy tashabbuslarni ijobiy baholashga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Metaforik vositalarning tahlili ham nutqning ideologik qatlamini ochib beradi. Inglizcha variantda *build a strong bridge, open new horizons, on the threshold of revival* kabi metaforalar xalqaro diplomatik diskursda keng qo'llaniladigan, nisbatan standartlashtirilgan obrazlar sifatida ishlatiladi. O'zbekcha variantda esa ushbu metaforalar madaniy va tarixiy konnotatsiyalar bilan boyitilib, *mustahkam ko'priklar barpo etmoqdamiz, yangi ufqlarni ochadi, tarixiy uyg'onish*

davri ostonasida tarzida ifodalanadi. Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi asosida qaralganda, metafora bu yerda nafaqat kognitiv, balki ideologik vazifani ham bajaradi, ya'ni mintaqaviy o'zlik va tarixiy uzluksizlik g'oyalarni mustahkamlaydi.

Tarjimaviy strategiyalarni umumiy baholaganda, tahlil natijalari Hatim va Mason tomonidan ilgari surilgan diskursga yo'naltirilgan tarjima yondashuvini to'liq tasdiqlaydi. O'zbekcha variant inglizcha matnning so'zma-so'z nusxasi emas, balki maqsad tilidagi siyosiy va madaniy diskursga moslashtirilgan ikkilamchi matn sifatida shakllangan. Bu jarayonda kuchaytirish, kollektivlashtirish va izohlash kabi pragmatik siljishlar ongli ravishda qo'llanilgan.

Umuman olganda, ushbu izohli tahlil shuni ko'rsatadiki, geosiyosiy nutqlarda til siyosiy ma'no va ideologik ta'sirni shakllantirishning faol vositasidir. Inglizcha va o'zbekcha variantlar o'rtasidagi farqlar tarjimaning kamchiligi emas, balki turli auditoriyalar uchun mo'ljallangan diskursiv strategiyalar majmui sifatida talqin qilinishi lozim. Bu holat geosiyosiy matnlarni tahlil qilishda lingvopragmatik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wodak R. The Politics of Fear. – London: Sage, 2015.
2. Musolff A. Political Metaphor Analysis. – London: Bloomsbury, 2016
3. Baker M. In Other Words (3rd ed.). – London: Routledge, 2018.
4. van Dijk T.A. Discourse and Power. – Cambridge: Polity Press, 2021
5. Mamarasulova G. Geopolitical Discourse In Translation // International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research. Vol. 1, №4, 2025.

Sojida DJURAYEVA,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi, PhD

XX ASR O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA RUBOINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Maqolada XX asr o'zbek adabiyotshunosligida ruboiy janrining o'rganilishi xususida so'z yuritiladi. Ruboiy genezisi, kompozitsiyasi, vazni, qo'fiyalanishi va g'oyaviy-poetik xususiyatlari kabi masalalarning tadqiqida o'zbek olimlarining xizmati asoslangan.

Kalit so'zlar: ruboiy, ruboiyga xos janriy belgilar, Navoiy ruboiylari.

Annatation. The article discusses the study of the rubai genre in 20th-century Uzbek literary studies. The contribution of Uzbek scholars to the study of such issues as the genesis, composition, meter, rhyming, and ideological-poetic features of the rubai is substantiated.

Keywords: rubai, genre characteristics of rubai, Navoi's rubai.

Аннотация. В статье рассматривается изучение жанра рубаи в узбекском литературоведении XX века. В исследовании таких вопросов, как генезис, композиция, размер, рифмовка и идейно-поэтические особенности рубаи, обоснованы заслуги узбекских ученых.

Ключевые слова: рубаи, жанровые признаки, характерные для рубаи, рубаи Навои.

Sharq poetikasi "ilmi aruz", "ilmi qofiya" va "ilmi bade'"dan iborat bo'lgani tufayli XX asrgacha bo'lgan she'r ilmidagi ma'lum janr haqida so'z yuritilganda, asosan unga xos bo'lgan vazn, qofiya, san'at, ba'zan esa uning mazmuni haqida muxtasar fikrlar bildirilgan. XX asr o'zbek she'rshunosligida esa biror janrga ta'rif berilganda uning kompozitsiyasi, mavzu va

mundarijasi, boshqa she'r turlaridan tafovutlari yoki bog'liqligi haqida batafsil ma'lumot berila boshlandi.

Xuddi shunday kichik – miniatur janrlardan biri bo'lgan ruboiyning o'rganilishida olimlar eng avvalo *janr* atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolariga murojaat etib, janrlik belgilarini yoritishga harakat qilishdi. Chunonchi, ruboiy –

arabcha “arbaatun”, “ruboiyyatun” soʻzlaridan olingan boʻlib, “toʻrtlik”, “toʻrttadan” degan lugʻaviy maʼnoni anglatadi. Gʻiyosiddin Muhammad binni Jaloliddinning “Gʻiyosul-lugʻot”ida yozilishicha, yetti yoshli tuya, toʻrtga kirgan qoʻy, qoramol va ot “ruboiy” deyilgan. Chunki bu hayvonlar shu yoshlarda toʻrttadan tishga ega boʻlishgan [1: 230]. Istilohiy maʼnosi gʻoyaviy-badiiy (falsafiy, axloqiy-didaktik yoki ishqiy maʼnoda) va shakli (hazaj bahrining axrab va axram vaznlarida yozilishi, *a-a-b-a* yoxud *a-a-a-a* tartibida qoʻyilinishi, kompozision tuzilishi – tezis, antitezis, moddayi ruboiy, sintezdan iborat boʻlishi) jihatdan muayyan qoidalarga muvofiq yaratilgan toʻrt misrali sheʼrdir. I.Haqqulovning fikri boʻyicha, bu soʻz termin sifatida XI asrdan soʻng keng qoʻllanila boshlagan [2: 17]. E.Ochilovning aniqlashicha “...bu janr dastlab tarona deb yuritilgan... Ruboiy degan nom unga ancha keyin – adabiyot nazariyasi mustaqil fan sifatida ajralib chiqqandan soʻng berilgan” [3: 22].

Ruboiy haqidagi dastlabki maʼlumotlar Shamsiddin Muhammad binni Qays Roziyning “Al-moʻjam fi maoyiri ashʼor ul-Ajam” (XIII asr), Qabul Muhammadning “Haft Qulzum”, Vahid Tabriziyning “Jamʼi muxtasar”, asarlarida berilgan boʻlib, keyingi bildirilgan qarashlarda Shamsiddin Muhammad binni Qays Roziyning fikrlariga suyanildi. Eron adabiyoti nazariyotchilaridan Fazlullo Safo, Muhammad Gʻiyosiddin “Gʻiyos ul-lugʻot”, Doktor Zahroyi Xonlari (Kiyo)ning ruboiy haqidagi fikrlari aynan Qays Roziyning fikrlarini takrorlangan koʻrinishi edi. R.Orzibekov tadqiqotlarida ruboiyning tarixiy oʻrganilishida mazkur olimlarning fikrlari qiyosiy-tipologik tarzda alohida yoritib berildi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida esa ruboiyga xos xususiyat dastlab Shayx Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan qayd etildi. Shayx Ahmad Taroziy ruboiy haqida toʻxtalganda, “Ruboiy toʻrt misra boʻlur. Avvalgi va ikkinchi va toʻrtinchi misrada qofiya keltururlar. Va uchinchi misrai ixtiyoridur. Agar qofiya keltursalar ruboiyi musarraffʼ derlar... Va agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar, ruboiyi hissiy oʻqurlar”, deb uning hajmi va qoʻyilinishi haqida qisqacha toʻxtaldi [4].

Navoiy va Bobur asarlarida ham ruboiyga xos asosiy xususiyatlar (hajmi, qoʻyilinishi, gʻoyaviy mazmuni, turlari) haqida maʼlumot berildi, ayniqsa, ularning vazni chuqur tahlil etildi. Navoiy ruboiyning toʻrt misrasi ham qoʻyilangan turini boshqalardan farqli ravishda “ruboiya” deya nomladi. Boshqa manbalarda bunday ruboiylar “ruboiy tarona” yoki “ruboiy musarra” tarzida tilga olindi.

XX asr oʻzbek adabiyotshunosligida H.Zarifov, M.Yunusov, G.Salomov, N.Komilov, A.Hayitmetov, B.Valixojayev, Yo.Ishoqov, N.Mallayev, R.Orzibekov, I.Haqqulov, Y.Ishoqov, S.Gʻaniyeva, O.Nosirov va XXI asr boshlarida esa E.Ochilov kabi adabiyotshunoslar oʻz tadqiqotlarida yuqorida qayd etilgan olimlarning asarlariga tayanib, turkiy va forsiy xalqlar adabiyotida ruboiy genezisini yoritib berishga, ruboiy haqida umumiy mukammal nazariya yaratishga harakat qilishdi.

Chunonchi, bu borada birinchi qadamni tashlagan H.Zarifovning 1939-yilda yozilgan “Alisher Navoiyning ruboiy va tuyuqlari haqida” maqolasida ruboiy genezisiga oid eʼtiborli fikrlar bildirildi. Olim taʼkidicha, “ruboiy” dastlab “dubaytiy” deb nomlangan, oʻzbek adabiyotiga fors adabiyotidan kirib kelgan, ammo qachon kirib kelganligi haqidagi aniq maʼlumotning yoʻqligi Navoiygacha oʻzbek shoirilari tomonidan ruboiy yozilganligini tasdiqlashini qayd etdi. Shuningdek, ruboiyning oʻzbek adabiyotida keng tarqalishiga sabab ularning xalq

toʻrtliklariga yaqin boʻlganligida deb bildi hamda ruboiyning vazni, kompozitsiyasi, qoʻyilinishiga koʻra turlari haqida muxtasar toʻxtalib, ruboiy shaklida nasihatlar, madhiyalar, munojot va naʼtlar yozilishi mumkinligini taʼkidladi. Navoiy ruboiylari gʻoyaviy tahlilida esa ularning mohiyatiga dunyoviy nuqtai nazardan yondashdi, ayniqsa, shoirning ilohiy ishq haqidagi tasavvufona ruboiylari mavjud ijtimoiy tuzum taʼsiri ostida insoniy muhabbat sifatida yuzaki talqin etilishiga sababchi boʻldi [5: 95–130]. Bu holat mustaqillik yillarigacha davom etdi.

A.Hayitmetov tadqiqotlarida ham ruboiy janriga xos xususiyatlar Navoiy lirik merosi misolida oʻrganildi. Olim “Buyuk shoirning yigitlik manzumalari” (1967), “Navoiy lirikasining baʼzi masalalari” (1981), “Anʼanaviy poetika va Navoiy” (1988), “Bobur ruboiylarining gʻoyaviy-badiiy konsepsiyasi” (1983) maqolalarida ruboiy haqida toʻxtaldi. Xususan, “Alisher Navoiy lirikasining baʼzi masalalari” maqolasida “Vaqqfiya” (15 ruboiy), “Munshaot” (56 ruboiy), “Mahbub ul-qulub” (10 ruboiy), “Majolis un-nafois” (16 ruboiy), “Nazm ul-javohir”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Devoni Foni” debochalarida va boshqa asarlari tarkibida kelgan ruboiylari hisobiga Navoiyni oʻzbek adabiyoti tarixida eng yirik ruboiynavis boʻlganligini taʼkidladi. Shoirning ruboiylari voqeabandlik xususiyatiga ega ekanini kuzatdi [6: 18–28].

Y.Ishoqovning samarali ilmiy faoliyati tufayli esa Navoiy devonlaridan va boshqa asarlaridan oʻrin olgan ruboiylar soni (jami 700 ga yaqin ekanligi) aniqlandi va ularning asosiy qismi “ruboiy musarra” tarzida yozilganligi jadval asosida koʻrsatib berildi.

“Y.Ishoqov Navoiy ruboiylarida qoʻllanilgan tardi aks, tamsil, tarse” singari badiiy sanʼatlar borasida ham soʻz yuritib, tarse sanʼatini ruboiylarda qoʻllash anʼanasini Navoiy boshlab berib, ruboiy janriga yangilik kiritganligini birinchilardan boʻlib qayd etdi va buni shoir ruboiylari tahlili asosida yoritib berdi” [7].

Toʻgʻri, XX asr oʻzbek adabiyotshunosligida Navoiy ijodida Bertels qayd etgan ruboiy janriga xos 3 xil gʻoyaviy mazmun – tasavvufiy (Fariddin Attor, Bobo Tohir Uryoniy, Abdulmajid Sanoyi, Najmiddin Kubro, Majiddin Bagʻdodiy Jaloliddin Rumiy), falsafiy (Umar Xayyom) hamda ishqiy yoʻnalishdagi ruboiylar uchrashi deyarli barcha tadqiqotlarda qayd etildi. Ammo ruboiy janrining sharq adabiyotida oʻrganilishini tadqiq etgan E.Ochilov: “...sobiq Ittifoq adabiyotshunosligida ruboiy boshqa janrlar kabi sof dunyoviy nuqtai nazardan oʻrganilib, tasavvufiy mazmunidan koʻz yumilgan boʻlsa, Eronda ulardan koʻproq soʻfiyona maʼno qidirilib, dunyoviy jihati unutib qoʻyildi”, deb taʼkidlaganda haq edi [8: 21]. Chunki mustabid tuzumda milliy qadriyatlarimiz va diniy qarashlarimizning tadqiq etilishi hamda targʻib qilinishiga ruxsat berilmasligi bevosita barcha janrlar singari ruboiylarning ham dunyoviy jihatdan tahlil etilishiga sababchi boʻldi. Xuddi shunday Y.Ishoqov tadqiqotlarida ham Navoiyning ishqiy mavzudagi ruboiylaridagi yor obrazi doʻst, birodar, oʻrtoq, doʻst maʼnosida, may oddiy sharob maʼnosida talqin etildi. Ularning asl tasavvufiy maʼnolari oddiy dunyoviy tushunchalar bilan almashtirildi. Hukmron tuzum bosimi natijasida mumtoz adabiyotimizda Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy ruboiylari singari Navoiy ruboiylaridagi may obrazi qoralandi.

Mumtoz lirik janrlar boʻyicha alohida tadqiqot olib borgan R.Orzibekov ishlarida esa ruboiyning oʻrganilishidagi (E.Ochilov taʼkidlagandek) barcha masalalarga daxl qilindi [9: 19–27]. Ayniqsa, ruboiyning oʻtmish va XX asr dunyo

adabiyotshunosligida o'rganilishi qiyosiy-tarixiy metodlar asosida keng yoritib berildi. Dunyo olimlarning mazkur janr yuzasidan bildirgan qarashlari bir-biriga solishtirilib, mavjud muammolarga aniqlik kiritishga harakat qilindi. Xususan, ruboiyning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, genezisi, janrlilik mezonlari xususida so'z yuritilganda turk, fors, eron, rus adabiyotshunoslari qarashlariga murojaat etildi, shu asosda janrning kelib chiqishi va unga xos xususiyatlar aniqlashtirilib olindi. Shu bilan birga olimning ishlarida mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodida ruboiyning o'rni va ruboiy janrining taraqqiyotida ularning roli qay darajada ekanligi ochib berildi. Chunonchi, Navoiyning ruboiylari haqida so'z yuritilganda "G'aroyib us-sig'ar" dagi ruboiylarning arab alfaviti tartibida g'azal singari joylashtirilganini hisobga olib, bu devonni "Devoni ruboiy" deb atash o'rinni ekanligini ta'kidladi va buni "...ruboiy aytish va uni kitobat qilishda yangilik edi", deb baholadi [10": 76]. Shuningdek, olim ruboiyning "tuyuq-ruboiy" (Lutfiy va Bobur), "chiston-ruboiy" (Uvaysiy), "mustazod-ruboiy" (Ado), "ta'rix-ruboiy" (Navoiy, G'oziy va Muqimiy) kabi turlari mavjudligi haqida ma'lumot berib o'tdi. Mazkur atamalar XX

asr o'zbek adabiyotshunosligida keng qo'llanildi va ilmiy jamoa tomonidan ma'qullandi.

N.Mallayev tadqiqotlarida esa Navoiy va Boburning ruboiy vazni haqidagi qarashlariga e'tibor berildi. Chunonchi, olimning qayd etishicha, Bobur o'zining "Boburnoma"sida Navoiy haqida to'xtalar ekan, uning "Mezon ul-avzon"ida ruboiy vaznlari bobida to'rt o'rinda juz'iy xato borligini eslatib o'tadi: "Yana "Mezon ul-avzon" o'tliq aruz bitubtur, bisyor madxuldu: Yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt vaznda g'alat qilubtur. Ba'zi buhurning avzonida ham yangilubtur, aruzg'a mutavajjih bo'lg'on kishiga ma'lum bo'lg'usidur". Ammo ushbu tanqidiy fikr uning nazariy asari "Muxtasar"da qayd etilmagan. Sababi S.Hasanovning ta'kidicha, mazkur xatolar xattotlar tomonidan ko'chirish jarayonida sodir bo'lgan, shu sababli Bobur nazariy asarida bu haqda to'xtalmaydi. Shuningdek, olim Navoiy va Bobur ruboiylari mazmuniy tahliliga e'tibor qaratdi va ularning avtobiografik xususiyatga ega ekanligini asosladi.

Umuman olganda, tadqiqotlar jarayonida ruboiy genezisi, g'oyaviy-poetik xususiyatlari, kompozitsiyasi, vazni, qofiya xususiyatlari kabi ko'plab ilmiy masalalarga oydinlik kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad binni Jaloliddin G'iyosiddin. G'iyos ul-lug'ot, 2 jild. – Kanpur, 1323 hijriy.
2. Haqqulov I. Ruboiy haqida ba'zi mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1974, №6.
3. Ochilov E. O'zbek adabiyotshunosligida ruboiyning o'rganilishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005, №6.
4. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002.
5. Zarif H. Alisher Navoiyning ruboiy va tuyuqlari haqida / Fozillar fazilati. – Toshkent, 1969.
6. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent, Fan, 1961.
7. Ishoqov Yo. Navoiy ijodida ruboiy janri // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1968, №9.
8. Ochilov E. Sharq adabiyotida ruboiy va uni o'rganish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005, №4. – B. 21.
9. Ochilov E. O'zbek adabiyotshunosligida ruboiyning o'rganilishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005. №6. – B. 19–27.
10. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 1976.

Gavharoy XOLISOVA,

*Andijon davlat chet tillari instituti umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti,
fflologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;*

Mohidil KARIMOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti kompyuter lingvistikasi yo'nalishi talabasi

"DISKURS" TUSHUNCHASI TADQIQINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikning eng murakkab va ko'p qirrali tushunchalaridan biri bo'lgan "diskurs" fenomenining ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. "Diskurs" tushunchasining qadimgi ritorika san'atidan boshlab zamonaviy kognitiv va pragmatik tilshunoslikka bo'lgan shakllanish yo'li yoritiladi.

Kalit so'zlar: polisemantik tushuncha, samarali muloqot shakllari, nutqning tabiati, ijtimoiy muhit, ilmiy-nazariy asos.

Annotation. This article examines the scientific and theoretical foundations of the phenomenon of "discourse", which is one of the most complex and multifaceted concepts of linguistics. The formation of the concept of "discourse" from ancient rhetoric to modern cognitive and pragmatic linguistics is highlighted.

Keywords: polysemantic concept, forms of effective communication, nature of speech, social environment, scientific and theoretical basis.

Аннотация. В данной статье исследуются научно-теоретические основы феномена «дискурс», являющегося одним из самых сложных и многогранных понятий лингвистики. Освещается путь формирования понятия «дискурс» от древнего искусства риторики до современной когнитивной и прагматической лингвистики.

Ключевые слова: полисемантическое понятие, формы эффективной коммуникации, природа речи, социальная среда, научно-теоретическая база.

Diskurs haqidagi fan notiqlik va ritorika o'rganilgan qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda paydo bo'lib, uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tdi. Aristotel davrida ritorika notiqlik bilan aniqlangan, ammo shu bilan birga, uning maqsadi tinglovchilarni ma'ruzachining qarashlariga ishonirish edi [1].

Klassik tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan diskurs quyidagicha ta'riflanadi: ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa shakllar bilan birgalikdagi izchil matn (1); voqea aspektida olingan matn (2); nutq shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni va kognitiv jarayonlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy

harakat sifatida qaraladi (3). Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, "diskurs" tushunchasi ritorika va notiqlik san'atidan boshlanib, bugungi kunda ko'p qirrali lingvistik hodisaga aylandi. Aristotel davridan boshlab nutqning ta'sir kuchi va tinglovchi ongiga yo'naltirilgani diskursning kommunikativ tabiatini belgilab bergan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikda u nafaqat statik matn, balki dinamik jarayon sifatida talqin etilmoqda.

Bu ta'riflar diskursni nutqning o'ziga xos hodisalari, ma'ruzachining psixologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va boshqa omillar sifatida ko'rib chiqadi. T.A.Van Deyk diskursivlikni matn, suhbat, suhbat turi, janr yoki ijtimoiy shakllanish, shu bilan birga, mavhum mafkuraviy e'tiqodlarni ifodalash vositasi sifatida qabul qiladi [2]. Olim eng keng nutq tushunchasini kommunistik, burjua yoki mafkuraviy nutqlar kabi tarixiy davr, ijtimoiy hamjamiyat yoki shakllanish tushunchalari bilan bog'laydi. Olim tomonidan ilgari surilgan diskursning ushbu ko'p o'lchamli talqini muloqotning lisoniy va nolisoniy qatlamlari o'rntasidagi bog'liqlikni tizimli asoslash imkonini beradi. Bizningcha, olimning diskursni nafaqat matn yoki suhbat, balki ijtimoiy shakllanish va mafkuraviy e'tiqodlar ifodasi sifatida baholashi, diskurs tarkibidagi har bir lisoniy birlikni belgilab beradi.

Diskurs (qadimgi lotin tili. *discursus* – mulohaza, bahs; *asli* – aylanib yurish, shov-shuv) – polisemantik atama bo'lib, umumiy ma'noda nutq, lisoniy jarayonlar, ularning olam lisoniy manzarasi bilan munosabatini bildiradi. Diskurs – ma'lum bir ijtimoiy-madaniy an'anada ratsionallikning hukmron turi bilan tartibga solinadigan inson ongi mazmunini obyektivlashtirishning og'zaki ifodalangan shakli. Hozirgi vaqtda diskurs falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda faol qo'llaniladigan polisemantik tushunchadir. Diskurs – so'zlashuvchining ko'z o'ngida shakllanadigan matn. Diskurs so'zlardan yoki jumladan iborat bo'lib, nutqning mazmuni ko'pincha "nutq mavzusi" deb nomlangan ma'lumotnoma tushunchasi atrofida to'planadi. Uxvanova-Shmigova bu borada quyidagicha yozadi: "Diskurs" har qanday matn (og'zaki va yozma, zamonaviy va tarixiy, haqiqiy va sun'iy ravishda qurilgan), uning to'liqligi va to'g'riligi, polifoniyasi va polifunksionalligini hisobga olgan holda haqiqiy va tugallangan. Uning mazmun rejasini, to'g'ridan to'g'ri xabar berishdan tashqari, dunyo, jamiyat, kommunikantlar, kommunikativ kodlar va ularning o'zaro ta'siri haqidagi bilimlarning butun majmuasini o'z ichiga qamrab oladi"[3]. Uxvanova-Shmigovaning diskursga bergan ta'rif shuni ko'rsatadiki, diskurs – bu "jonli matn" bo'lib, u lisoniy kodlar orqali jamiyatning kollektiv ongini va muloqot ishtirokchilarining kognitiv bazasini birlashtiradi. Bu yondashuv diskurs tahlilida nafaqat matn strukturasi, balki muloqot ortidagi **ijtimoiy-madaniy kontekstni** ham o'rganish shartligini isbotlaydi.

Diskurs tahlili va unga bog'liq fikrlar A.N.Baranovning "Введение в прикладную лингвистику" ("Amaliy tilshunoslikka kirish"), M.V.Gavrilovning "Критический дискурс-анализ в современной зарубежной лингвистике" ("Zamonaviy xorijiy

tilshunoslikda tanqidiy diskurs tahlili") singari asarlarda atroflicha o'rganilgan. Tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi o'zining ko'lamdorligi bilan ajralib turib, u alohida olingan gap (propozitsiya) chegarasidan chiqadigan, mazmunan va mantiqan bog'langan lisoniy birliklar majmuasini ifodalaydi. Terminning etimologik asosi lotincha "**discurrere**" (turli yo'nalishlarda harakatlanish, oqim) fe'lga borib taqaladi. Bu esa diskursning statik holat emas, balki dinamik jarayon – fikrning til vositalari orqali muayyan yo'nalishda "oqishi" yoki rivojlanishini anglatadi.

So'nggi yillarda "diskurs" atamasi lingvistikada eng keng tarqalgan atamalardan biri bo'lib, u deyarli barcha lingvistik nashrlarda uchraydi. Shu bilan birga, diskurs zamonaviy tadqiqotlarda eng murakkab tushunchalardan biri hisoblanadi, turli yondoshuvlar va talqinlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Ko'plab ichki va xorijiy olimlar diskursni o'rganishga o'z ilmiy ishlarini bag'ishladilar, jumladan: M.Fuko, Z.Xarris, E.Benvenist, P.Serio, N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, N.N.Belozeroва, V.Z.Dem'yankov, V.V.Krasnıx, M.L.Makarov, N.N.Mironova, Yu.S.Stepanov va boshqalar olimlar diskurs bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

N.I.Formanovskaya diskurs va matn munosabatini gap va nutqiy bayon (viskazivaniye) ziddiyatiga o'xshatadi: "Gap nutqiy bayonga qarama-qarshi qo'yilgani kabi, matn ham diskursga qarama-qarshi turadi". N.I.Formanovskaya talqinida diskurs va matn o'rntasidagi munosabat "**abstraktlik va konkretlik**" hamda "**til va nutq**" dioxotomiyasi (ziddiyati) asosiga quriladi. Bunda matn til tizimining statik, qoliplashgan va tugallangan birligi (gapning analogi) sifatida ko'rilsa, diskurs uning bevosita muloqot jarayonida, aniq pragmatik maqsadlar va vaziyatlar ta'sirida jonlanadigan dinamik ko'rinishi (nutqiy bayonning analogi) sifatida tavsiflanadi. Shunday qilib, diskurs matnning funksional-pragmatik voqelanishi bo'lib, u lisoniy shaklga jonli muloqot xususiyatini baxsh etadi. I.P.Susovning yondashuvi esa diskursni jarayon, matnni esa natija sifatida ko'rsatadi: "Nutqiy aktlarning bog'langan ketma-ketligi **diskurs** deb ataladi. So'zlovchidan tinglovchiga uzatilayotgan nutqiy bayon yozuvda (yoki ovoz yozish moslamasi yordamida) muhrlangach, **matnga** aylanadi. Shunday qilib, matn bo'lib o'tgan diskursning "axborot izi" sifatida namoyon bo'ladi" [5]. I.P.Susov yondashuvida diskurs va matn o'rntasidagi munosabat "**faoliyat va mahsul**" tamoyili asosida belgilanadi. Bunda diskurs – subyektlararo sodir bo'ladigan dinamik muloqot jarayoni hamda nutqiy aktlarning izchil zanjiri sifatida talqin etilsa, matn – ushbu jarayonning moddiy (yozma yoki texnik) qayd etilgan statik natijasidir. Binobarin, matn diskursning vaqt va makon cheklovlaridan xoli bo'lgan "**axborot izi**" bo'lib, u o'tgan muloqot hodisasini kelajakda qayta tiklash (rekonstruksiya qilish) uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, "diskurs" tushunchasi fanlararo xarakterga ega: xorijiy tillarni o'rganish metodikasining nazariy asoslari sanalgan lingvistik, psixologik, madaniyatshunoslik va pedagogik fanlarda o'rganiladi va tahlil qilinadi. Demak, diskurs – ancha murakkab va ko'p qirrali fenomen, shu sababli bu tushunchani bitta ta'rif bilan izohlab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чудинов А.П. Политическая лингвистика. 2-е изд., испр. М.: Флинта Наука, 2007.
2. Teun A. van Dijk [Электронный ресурс] <http://www.discourses.org>.

3. Ухванова-Шмыгова И.Ф. Методология исследований политического дискурса. Актуальные проблемы содержательного анализа общественно-политических текстов. Выпуск 3. / И.Ф. Ухванова-Шмыгова, А.А.Маркович, В.Н. Ухванов; под общ. ред. И.Ф. Ухвановой-Шмыговой. Мн.: Технопринт, 2002.
4. Формановская Н.И. Размышления о единицах общения / Н.И. Формановская // Русский язык за рубежом, 2000, № 1. – С. 56–63.
5. Сусов И.П. Введение в языкознание: учебник для студентов лингвистических и филологических специальностей / И.П. Сусов. М.: АСТ: Восток–Запад, 2007. – 379 с.

Mahfuza DAVRONOVA,

Samarqand davlat universiteti qoshidagi

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti professori,

fflologiya fanlari doktori

QIZ TASVIRIGA ASOSLANGAN TOPISHMOQLAR KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan qiz obrazining badiiy-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Topishmoqlarda inson qiyofasi orqali tabiat, maishiy buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ramziy ifodalanishi o'rganiladi. Topishmoqlar semantik va obrazli belgilariga ko'ra klassifikatsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, topishmoq, qiz obrazi, antropomorfizm, ramziy tafakkur.

Annotation. This article analyzes the artistic and functional features of the image of a girl, widespread in Uzbek folklore. In riddles, the symbolic representation of nature, household items, and agricultural products is studied through the image of a person. Riddles are classified according to semantic and figurative features.

Keywords: folklore, riddle, image of a girl, anthropomorphism, symbolic thinking.

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-функциональные особенности образа девушки, широко распространенного в узбекском народном устном творчестве. В загадках изучается символическое представление природы, предметов быта и сельскохозяйственной продукции через образ человека. Загадки классифицируются по семантическим и образным признакам.

Ключевые слова: устное народное творчество, загадка, образ девушки, антропоморфизм, символическое мышление.

O'zbek topishmoqlari – xalq tafakkuri, dunyoqarashi va estetik qarashlarining yorqin ifodasidir. Ularda tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, maishiy ashyolar insonga xos sifatlar orqali tasvirlanadi. Ayniqsa, qiz obrazi xalq tafakkuridagi serqirra ramziy ma'noga ega bo'lib, hosildorlik, nafosat, baraka, mehnat va hayot davomiyligini anglatadi. Umuman olganda topishmoq ko'pchilik madaniyatlar folklorining ajralmas qismi bo'lib kelayotgan topish o'yinidir [1: 48]. Topishmoq tadqiqotchisi A.Teylor ingliz topishmoqlarini o'rganar ekan, uni mavzu belgi-xususiyatiga ko'ra: a) tirik mavjudotlarni qiyoslash; b) hayvonga qiyoslash; c) insonga qiyoslash; d) o'simlikka qiyoslash; ye) jonsiz ashyolarga qiyoslash [2: 231] ni taklif etadi. Bizningcha, topishmoqlarni genderlik xususiyatidan kelib chiqib ham tadqiq etish lozim.

Xalq og'zaki ijodidan o'rin egallagan topishmoqlarda qiz, ayol. Momo kabi obrazlar o'rin egallagan. Ularning belgi-xususiyati topilishi lozim bo'lgan predmetga ko'chirib o'tkazilgan. Yoki ularning belgi-xususiyatlari predmetga o'xshatilishi natijasida topishmoqlarning javobi aniqlangan. **Qiz obraziga asoslangan topishmoqlar** ko'pincha qiz bolaning belgi-xususiyatidan kelib chiqib nafosat, go'zallik va poklik kabi tushunchalar bilan omuxtalangan holda taqdim etiladi. Bu turdagi topishmoqlarda o'simliklar va tabiat ne'matlari tasvirlanadi. Fikrimizga misol:

Qirg' hujrada qizil qizlar (anor). Mazkur topishmoqda qirg' hujra metaforasi qo'llanilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi anor donalarini ajratib turuvchi plyonka tasviri hisoblanadi. Man shu tabiatning sirli ko'rinishini xalq hujraga mengziydi. Anor donalari esa qizlarga o'xshatiladi. Mazkur o'rinda qizil qizlar metaforasi qo'llanilganki, bu metafora anor rangining belgi xususiyatini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Yoki

anor o'simligi asosida yaratilgan quyidagi topishmoq ham yuqoridagi topishmoqning mazmun mohiyatini belgilaydi:

Kichkina gumbaz ichida qizlar aylabdi makon. Bu topishmoqda ham anor mevasining donalarini qizlar obrazi orqali beriladi. Biroq bu topishmoqda man endi rangga e'tibor qaratilmaydi, balki xronotop asosiy o'rinni egallaydiki, bu xronotop "kichkina gumbaz" shaklini oladi. Topishmoqlarda qiz obrazi qizil rang (kolorit) bilan ifodalanishi an'anaviy tusga aylangan tasvir desak, xato bo'lmaydi: **Qizil qiz yer ostida, sochlari yer ustida (sabzi).**

Bizga ma'lumki, sabzi olov va sariq rangga egadir. Mazkur topishmoq esa olov rangli savzi asosiga qurilgan. Uning koloriti qiz obraziga ko'chib o'tgan. Nafaqat bu balki tasvirda ham ko'chirib o'tkazish ko'zga tashlanadi. Sochlari yer ustida tushunchasi esa fikrimizni isbotlaydi. Mazkur topishmoqqa Z.Husainova o'z tadqiqotida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "qizil qiz" obrazi o'zbek topishmoqlaridagi xarakterli obrazga qaraganda rus xalq topishmog'ida umumlashgan obrazga mosdir. Garchi O'zbekistonda o'z xususiyatlari bilan Rossiyadagidan farq qiladigan qizil sabzi mavjud bo'lsa ham, u o'zbek folklorida ayolga nisbatan keng tarqalgan obraz sifatida ko'zga tashlanmaydi. Ana shu jihatdan qaraganda yuqorida keltirgan misolimiz, tipologik xususiyatlardan ko'ra, boshqa xalqdan – rus xalqidan o'tgan bo'lishi mumkin degan xulosaga olib keladi" [3: 85]. Darhaqiqat, rus xalqida "krasnaya devetsa" metaforasi qo'llaniladi. O'zbeklarda esa bu metafora uchramaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "Qizil qiz" metaforasi rus folkloriga asoslangan. O'zbek folkloridagi maqol, firqat, dostonlarda ham bu metofaranu kuzatish mumkin emas. Faqat topishmoqlardagina joy olgan "qizil qiz" tushunchasini – Z.Husainovanning fikriga qo'shilgan holda – topishmoqlarga xos xususiyat sifatida ta'kidlashimiz mumkin.

Qizlarjonning boshida qizil baxmal taqiya (qizg'aldoq).

Mazkur topishmoqda ham qiz obrazi tasviri o'rin egallagan bo'lib, asosiy e'tibor uning boshiga qaratilgan. Keltirilgan kolorit hamda qiz obrazi mana shu o'xshashlikni yuzaga chiqishiga yordamlashgan. Darhaqiqat, xalq tomonidan yaratilgan ajoyib bu o'xshashlikni tan olmaslikning iloji yo'q. Baxal taqiya bosh kiyimni anglatib qizg'aldoqning belgi xususiyatini ochishga xizmat qilgan. Qiz obraziga asoslangan yuqoridagi barcha topishmoqlarda rang, shakl va ichki tuzilish muhim ahamiyat kasb etgan.

Qiz obrazi asosida yaratilgan o'zbek topishmoqlari xalq tafakkurining badiiy-estetik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu turdagi topishmoqlarda qiz obrazi asosan nafosat, go'zallik, poklik va tabiiy uyg'unlik timsoli sifatida talqin qilinadi hamda ko'pincha o'simliklar, tabiat ne'matlari bilan qiyoslanadi. Qiz obraziga xos belgilar – rang (ayniqsa qizil kolorit), shakl, ichki tuzilish va makon (xronotop) kabi unsurlar topishmoq javobining aniqlanishida muhim poetik vosita vazifasini bajaradi.

Metafora va o'xshatish qiz obraziga asoslangan topishmoqlarning yetakchi badiiy mexanizmi bo'lib, predmetning tashqi va ichki belgilari insoniy xususiyatlar orqali obrazli ifodalanadi. Xususan, anor, sabzi, qizg'aldoq kabi o'simliklarning rang va tuzilishi qiz obrazi bilan uyg'unlashtiriladi. Shu bilan birga, "qizil qiz" kabi ayrim obrazlarning tipologik jihatdan boshqa xalqlar folklori, jumladan rus folklori bilan mushtaraklik kasb etishi topishmoqlarning madaniy qatlamlararo aloqadorligini ko'rsatadi. Umuman olganda, qiz obraziga asoslangan topishmoqlar o'zbek folklorida nafaqat predmetni yashirin tasvirlash vositasi, balki xalqning gender tasavvurlari, estetik

didi va ramziy tafakkurini aks ettiruvchi muhim folklor birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Qiz obraziga asoslangan topishmoqlar o'zbek xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutadi. U orqali xalq atrof-muhitni inson qiyofasida anglab, buyum va tabiat hodisalarini obrazli va ta'sirchan ifoda etgan. Ushbu topishmoqlar nafaqat bolalar tafakkurini rivojlantirish, balki xalqning ma'naviy merosini o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi. O'zbek xalq topishmoqlarida qiz obrazining badiiy-funksional xususiyatlari genderlikka asoslanadi. Bu obrazlar xalq tafakkurida tasodifiy emas, balki aniq ijtimoiy, estetik va ma'naviy vazifalarni bajaruvchi ramziy birliklar sifatida shakllangan. Topishmoqlarda inson qiyofasining jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari va o'simliklarga ko'chirilishi antropomorfik tafakkurning yetuk darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Qiz obraziga asoslangan topishmoqlarda asosan nafosat, go'zallik, poklik va tabiiy uyg'unlik tushunchalari yetakchilik qiladi. Bu turdagi topishmoqlarda rang (xususan, qizil kolorit), shakl, ichki tuzilish va makon (xronotop) asosiy poetik vosita sifatida namoyon bo'lib, ko'proq o'simliklar va tabiat ne'matlari tasvirlanadi. Metafora va o'xshatishlar orqali qiz obrazi xalq estetik didi va ramziy tafakkurining yorqin ifodasiga aylanadi. Ayrim obrazlarning boshqa xalqlar folklori bilan tipologik mushtarakligi esa o'zbek topishmoqlarining madaniy qatlamlararo aloqadorligini ko'rsatadi.

Qiz obraziga asoslangan topishmoqlar o'zbek xalq og'zaki ijodida gender tasavvurlari, ma'naviy qadriyatlar va ramziy tafakkurning mujassam ifodasi hisoblanadi. Ushbu topishmoqlar nafaqat predmet va hodisalarni yashirin tasvirlash vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, hayot falsafasi va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim folklor manba sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Britannica. The Editors of the Encyclopaedia. Riddle. Encyclopedia Britannica, 21 Mar. 2021. <https://www.britannica.com/art/riddle>. <https://www.britannica.com/art/riddle>.
2. Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. Berkeley. – Los Angeles: University of California Press, 1951.
3. Abdurahimov M. O'zbek xalq topishmoqlari. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/M.Abdurahimov%20\(tuzuvchi\).%20O'zbek%20topishmoqlari.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/M.Abdurahimov%20(tuzuvchi).%20O'zbek%20topishmoqlari.pdf).
4. Husainova Z. O'zbek topishmoqlari. – Toshkent: Fan, 1966. – 116 b.

Mohira BOYMIRZAYEVA,
Tashkent International University, dotsent v.b.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK DISKURSNING O'ZGARISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida pedagogik diskursda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Onlayn platformalar, masofaviy ta'lim va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot shakllari, nutqiy strategiyalar hamda kommunikativ rollarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda raqamli ta'lim sharoitida pedagogik diskursning lingvistik va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi hamda an'anaviy sinf diskursi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli muhitda ta'lim samaradorligini oshirishda diskursiv yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik diskurs, raqamli ta'lim, onlayn ta'lim, kommunikativ muloqot, sinf diskursi, masofaviy ta'lim.

Annotation. This article examines the transformations occurring in pedagogical discourse during the formation and development of the digital educational environment. The implementation of online platforms, distance learning, and digital technologies significantly influences the forms of interaction between teachers and learners, discourse strategies, and communicative roles. The study identifies the linguistic and pragmatic features of pedagogical discourse in digital learning contexts and provides a comparative analysis with traditional classroom discourse. The findings highlight the importance of a discourse-based approach in enhancing the effectiveness of education in a digital environment.

Keywords: pedagogical discourse, digital education, online learning, communicative interaction, classroom discourse, distance education.

Аннотация. В данной статье анализируются изменения, происходящие в педагогическом дискурсе в процессе формирования и развития цифровой образовательной среды. Внедрение онлайн-платформ, дистанционного обучения и цифровых технологий оказывает значительное влияние на формы взаимодействия между преподавателем и обучающимся, речевые стратегии и коммуникативные роли. В исследовании выявляются лингвистические и прагматические особенности педагогического дискурса в условиях цифрового обучения и проводится их сопоставительный анализ с традиционным аудиторным дискурсом. Результаты исследования подтверждают значимость дискурсивного подхода в повышении эффективности обучения в цифровой среде.

Ключевые слова: педагогический дискурс, цифровое образование, онлайн-обучение, коммуникативное взаимодействие, аудиторный дискурс, дистанционное обучение.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Masofaviy va onlayn ta'lim shakllarining keng qo'llanilishi natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot shakllari tubdan o'zgardi. Bu jarayon pedagogik diskursning strukturasi, nutqiy strategiyalari va kommunikativ rollarida yangilanishlarni yuzaga keltirdi [1: 45].

Pedagogik diskurs ta'lim jarayonida bilim uzatish, nazorat qilish, baholash va rag'batlantirish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Raqamli muhitda ushbu funksiyalar texnologik vositalar orqali amalga oshirilgani sababli diskurs shakli ham o'zgaradi [2: 23].

"Pedagogik diskurs" tushunchasi va uning nazariy asoslari. Pedagogik diskurs ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi institutsional muloqot shakli bo'lib, u ma'lum ijtimoiy rollar va maqsadlarga asoslangan nutqiy faoliyatdir. Brown va Yule pedagogik diskursni ma'lumot uzatishga yo'naltirilgan funksional diskurs turi sifatida ta'riflaydi [2: 12].

Raqamli ta'lim muhitining shakllanishi va xususiyatlari. Raqamli ta'lim muhiti onlayn platformalar, forumlar, chatlar va videodarslar orqali amalga oshiriladi. Bu muhitda yozma nutq, qisqa buyruqlar, belgilar va multimodal matnlar ustunlik qiladi [1: 67]. Raqamli muhitda muloqot asinxron va sinxron

shakllarda kechib, pedagogik diskursning an'anaviy chiziqli tuzilishini o'zgartiradi.

Raqamli ta'lim sharoitida pedagogik diskursning strukturaviy o'zgarishlari. Raqamli ta'limda o'qituvchi axborot manbai bo'lishdan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi va fasilitator rolini bajaradi. O'quvchi esa bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu jarayon pedagogik diskursning demokratlashuviga olib keladi [3: 14].

Kommunikativ rollar va nutqiy strategiyalarning o'zgarishi. Raqamli muhitda tushuntirish, rag'batlantirish va refleksiya asosiy nutqiy strategiyalar sifatida qo'llaniladi. Elektron platformalarda o'qituvchi qisqa, aniq va vizual qo'llab-quvvatlangan ko'rsatmalar beradi [4: 22]. Natijada pedagogik diskurs yanada samarali va interaktiv bo'lib boradi.

An'anaviy va raqamli pedagogik diskursning qiyosiy tahlili. An'anaviy sinf diskursida og'zaki nutq ustun bo'lsa, raqamli ta'limda yozma va vizual kommunikatsiya ustuvor hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faol ishtirokini oshiradi [5: 48].

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Ma'lumotlar an'anaviy sinf mashg'ulotlari va raqamli platformalarda olib borilgan darslarni kuzatish orqali to'plandi. Shuningdek, diskursiv tahlil, qiyosiy tahlil va tavsifiy metodlar asosida pedagogik muloqot namunalari lingvistik va pragmatik jihatlarini o'rganildi.

1-jadval. An'anaviy va raqamli ta'lim muhitida pedagogik diskurs xususiyatlari



1-rasm. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik diskurs tarkibiy qismlari

Rasmda raqamli pedagogik diskursning asosiy va kommunikativ vositalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar aks etiriladi. komponentlari – o'qituvchi, o'quvchi, raqamli platforma

2-jadval. Raqamli ta'limda qo'llaniladigan nutqiy strategiyalar

	Nutqiy strategiya	Tavsifi
1.	tushuntirish	qisqa va aniq ko'rsatmalar
2.	rag'batlantirish	motivatsion fikrlar
3.	refleksiya	fikr almashish va tahlil
4.	baholash	elektron fikr bildirish

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhiti pedagogik diskursning shakli va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida yangi kommunikativ imkoniyatlar yaratib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yanada interaktiv, moslashuvchan va samarali holga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli muhitda yozma, vizual va multimodal muloqot shakllarining ustunligi pedagogik diskursning strukturaviy va funksional jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchining kommunikativ roli nazorat qiluvchi subyekt sifatidan yo'naltiruvchi va fasilitator roliga o'zgarib, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi kuchaymoqda. Bu holat pedagogik diskursning demokratlashuviga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonida kommunikativ tenglikni ta'minlaydi. Shu bois, pedagogik diskursni raqamli muhitda tizimli va ilmiy asosda o'rganish ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish hamda raqamli ta'limning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: University Press, 2001.
2. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: University Press, 1983.
3. Asadov M. Onlayn ta'lim jarayonida raqamli pedagogikaning motivatsion imkoniyatlari // Pedagogik tadqiqotlar, 2025.
4. Bobojonova Y.B. Raqamli kompetensiya va uning ta'limdagi o'рни // Pedagogik mahorat, 2025.
5. Meyliyev A.A. The Role of Innovative Pedagogical Practices and Digital Technologies in Education // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 2025. Vol 48, №4.
6. Maxmudova D. Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025.

Dilnoza SAMATOVA,

Samarqand davlat pedagogika instituti musiqa ta'limi kafedrasida dotsent v.b.

TALABALARNING RUBOB IJROCHILIGIDAGI TEXNIK VA BADIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA GAMMA VA "POSTANOVKA"NING AHAMIYATI

Annotatsiya. Rubob ijrochiligi bo'yicha talabalarining ijrochilik mahoratini shakllantirishda gamma va postanovkaning ahamiyati katta. Gamma va turli texnik mashqlar ijrochiga tovushni aniq va ravon chiqarish, ohangni bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda texnik murakkabliklarni yengib o'tish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada o'ng va chap qo'l aplikaturasining to'g'ri tanlanishi, tovush sifatini nazorat qilish va ijro uslubini shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Postanovka, ya'ni rubobni turli ijro shakllarida tutish va barmoq texnikasini optimallashtirish talabalarining ansambli va solo ijro malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: rubob, gamma, aplikatura, postanovka, ijrochilik mahorati, texnik mashqlar, musiqiy ta'lim.

Annotation. Gamma and postanovka play a significant role in developing students' performance skills on the rubab. Gamma and various technical exercises allow the performer to produce a clear and smooth sound, develop melodic coordination skills, and overcome technical difficulties. The article also focuses on the correct selection of right and left hand applicators, sound quality control, and the formation of performance style. Installation, that is, holding the rubab in various performance forms and optimizing finger technique, serves to improve students' ensemble and solo performance skills.

Keywords: rubab, scale, fingering, hand positioning, performance skills, technical exercises, music education.

Аннотация. Гамма и постановка играют важную роль в развитии исполнительского мастерства студентов на рубабе. Гамма и различные технические упражнения позволяют исполнителю четко и плавно издавать звук, развивать навыки связывания тона и преодолевать технические сложности. Также в статье уделяется внимание правильному выбору аппликатуры правой и левой руки, контролю качества звука и формированию стиля исполнения. Постановка, то есть удержание рубаба в различных исполнительских формах и оптимизация техники пальцев, служит повышению навыков ансамблевого и сольного исполнения студентов.

Ключевые слова: рубаб, гамма, аппликатура, постановка рук, исполнительское мастерство, технические упражнения, музыкальное образование.

Milliy musiqiy madaniyatni asrab-avaylash hamda yoshlarni badiiy did va estetik tafakkur asosida tarbiyalash maqsadida mamlakatimizda musiqa ta'limi sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024–2025-o'quv yilida umumta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" va boshqa musiqa yo'nalishlarini tubdan takomillashtirish hamda musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan PQ-391-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu hujjat musiqa fanlarini o'qitish sifatini oshirish, o'qituvchilarning nazariy va amaliy bilimini baholashning milliy tizimini joriy etishni belgilaydi.

Mazkur qaror asosida musiqiy ta'lim sohasida pedagoglarning kasbiy salohiyati va xalq cholg'ulari ijrochiligini chuqur o'rgatish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Musiqa ta'limi jarayonida cholg'u ijrochiligi san'ati ijro texnikasi, musiqiy ifoda, badiiy tafakkur va milliy identifikatsiyani birlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qaraladi. Musiqa pedagogikasi olimlari cholg'u ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishni umumiy musiqiy savod, tona eshitish madaniyati, texnik mahorat va ijrochilik madaniyati bilan uzviy bog'liq jarayon deb ta'riflaydilar. Musiqiy ijro amaliyoti texnik ko'nikmalarining mustahkam bo'lishi bilan birga, ijrochining badiiy tasavvuri va estetik sezgirligini ham tarbiyalaydi. Ushbu yondashuv musiqa ta'limi va tarbiyasining nazariy asoslarini yorituvchi tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, ularning umumiy mulohazalaridan ko'rinishicha, yakkaxon ijrochilik mahorati va ansambl ijrosi talabalar musiqiy madaniyati va pedagogik salohiyatini rivojlantirishdagi eng muhim vositalardir.

Musiqa ta'limida talabalarining ijrochilik mahoratini rivojlantirishda texnik mashqlar va gamma ijrosi muhim vosita hisoblanadi. Gamma – ma'lum lad asosida ketma-ket joylashgan tovushlar majmuasi bo'lib, cholg'u ijrochiligi texnikasi va badiiy ifodani shakllantirishda asosiy vositalardan biri sifatida qo'llaniladi [5]. Talabalar gamma va etyudlar orqali musiqiy asarlarni mukammal va ishonchli ijro etishga tayyorlanadi. Gamma ijrosining pedagogic ahamiyati shundaki, gamma ijrosi ijrochining tovushlar o'rtasida silliq va aniqlik bilan harakatlanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon tovushlarning bog'liqligi, ohangning ravonligi va ijroning aniqligini ta'minlaydi. Gamma ijrosi orqali talaba texnik murakkabliklarni yengib, tovush sifatini nazorat qilish va badiiy ifodani rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muhimi, gamma mashqlari faqat mexanik ijro sifatida emas, balki talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak [1: 9]. Gamma ijrosi jarayonida:

- tovush chiqarish texnikasi takomillashadi;
- lad va tonallikni sezish qobiliyati rivojlanadi;
- torlar bo'ylab pozitsiyalarni aniqlik bilan his qilish shakllanadi.

Talabalarda rubob ijrochiligining texnik va badiiy mahoratini rivojlantirishda **gamma va postanovkaning** o'zni juda katta ahamiyatga ega. Gamma, ya'ni cholg'udagi barcha tovushlarni tartibli va to'g'ri chiqarish texnikasi, ijrochining barmoq koordinatsiyasi, tonal xotirasi va ritmik aniqligini shakllantiradi. Gamma mashqlari orqali talabalar asbobning tovush imkoniyatlarini to'liq anglaydi, turli ohanglarni ravon va toza ijro eta oladi, shuningdek, badiiy ifodaning mukammal bo'lishi uchun zarur bo'lgan texnik asosni mustahkamlaydi. Pastankaning ahamiyati esa ijrochilik jarayonida asarning musiqiy obrazini ifodalash, ritm va melodiya oqimini to'g'ri yetkazishda namoyon bo'ladi. Pastanka mashqlari talabalarini ovoz balandligi, nota uzunligi va ijrochilik artikulyatsiyasiga

e'tibor qaratishga o'rgatadi. Shu bilan birga, postanovka orqali talabalar melodik frazalarni chuqurroq his etadi, ijroning badiiy mazmunini to'liq ifodalashga o'rganadi va rubobning noyob timbral imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, gamma va postanovka mashqlarini muntazam bajarish ijrochilarda **texnik aniqlik, barmoq tezligi va musiqiy eshitish qobiliyatini oshiradi**. Bu esa o'z navbatida talabalarni rubob ijrochiligida yuqori badiiy va texnik darajaga olib chiqadi. Mashqlarni turli ohanglarda, turli tezliklarda va ritmik kombinatsiyalarda bajarish orqali ijrochilik malakasi yanada kengayadi, rubobning turli janr va uslubdagi asarlarini ijro etishga tayyorligi shakllanadi. Shuningdek, gamma va postanovka ijrochilik mashqlarini bajarishda talabalarni ruhiy va hissiy jihatdan rag'batlantirish, ularning ijodiy qobiliyatini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Pedagog tomonidan berilgan izohlar, to'g'ri va tushunarli ko'rsatmalar, ijrochilikdagi xatolarni bartaraf etish va har bir nota va frazaga e'tibor qaratish talabalar malakasining oshishiga bevosita ta'sir qiladi [3].

Gamma mashqlari arpedjio, tabiiy va garmonik ko'rinishlarda, turli shtrixlar bilan ijro etish orqali ijrochining texnik va badiiy malakasini oshiradi. Gamma ijrosida o'ng va chap qo'l barmoqlarining to'g'ri joylashuvi – aplikatura – muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan aplikatura texnik qiyinchiliklarni kamaytiradi, ijroning aniqligi va tovush sifatini oshiradi. Noto'g'ri aplikatura esa tovushlarning notekis chiqishi, ritmik buzilishlar va ijrochining tez charchashiga olib keladi. Shuning uchun gamma mashqlarini o'rganishda aplikaturaga alohida e'tibor qaratish lozim [1: 49]. Talabalarining ijrochilik mahoratini oshirish uchun quyidagi vositalar tavsiya etiladi:

- tanish va mashhur cholg'u asarlarini yoddan ijro etish;
- asarlarni texnik va video vositalar orqali kuzatish va tahlil qilish;
- mohir ijrochilarning ijro uslubini o'rganish va taqlid qilish;
- ijrochilik mashg'ulotlarida muntazam ishlash va mukammallikka intilish;
- ijro sirlarini nazariy va amaliy bilimlar bilan mustahkamlash;
- tinglovchiga badiiy ta'sir ko'rsatish uchun ijroni mazmundor ifoda etish;
- asarning uslubiy va janr xilma-xilligini o'z ijrosida mujassamlashtirish.

Postanovkaning ahamiyati shundaki, qashqar rubobi ijro etishda qadim zamonlardan postanovka – cholg'uni tutish usuli – ijrochi texnikasi va ijro imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan [4: 68]. Hozirgi kunda rubob ijrosi ko'pincha tik turib yoki o'tirgan holatda amalga oshiriladi, ayniqsa konkurslar, imtihonlar va dars jarayonlarida. O'ng qo'l rubob kosasini ko'krak qafasiga yaqin ushlab, barmoqlar torlar ustida gorizonta, mediator esa vertikal joylashadi. Postanovka to'g'ri tanlangan holda ijrochi uchun optimal texnik imkoniyatlarni ta'minlaydi va ansambl yoki solo ijro malakasini oshiradi.

Gamma chalish ijrochilik texnikasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. U barmoqlar chaqqonligini oshiradi, pozitsiyalar o'rtasidagi o'tishni yengillashtiradi hamda tovushlarning aniqligi va ravonligini ta'minlaydi. Gammalar orqali talaba turli shtrixlarni (legato, stakkato, non-legato va boshqalar) amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi [1: 36]. Gamma va postanovka mashqlari rubob ijrochiligi bo'yicha talabalar malakasini rivojlantirishda pedagogik mezon sifatida qo'llanilishi muhimdir. Ular texnik va badiiy ko'nikmalarni shakllantirish, tovush sifatini nazorat qilish va ijroning ifodaviyligini oshirish imkonini beradi. Talabalar gamma va

postanovka orqali o'z ijrochilik xususiyatlarini rivojlantirib, ansambl va solo ijroda muvaffaqiyatga erishadilar. Rubob ijrochiligida yuqori texnik va badiiy mahoratga erishish jarayonida gamma va postanovka mashqlarining ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu mashqlar talabalarning barmoqlar harakatini erkinlashtiradi, tovush sifatini yaxshilaydi hamda ijro

jarayonida aniqlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Doimiy va tizimli ravishda gamma hamda postanovka ustida ishlash talabalarda nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tafakkur va badiiy didni ham rivojlantiradi. Shunday ekan, rubob ijrochiligini o'qitish jarayonida gamma va postanovka mashqlaridan samarali foydalanish kelajakdagi yetuk ijrochilarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samatova D. Cholg'u ijrochiligi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2024.
2. Karayev N. Musiqa ta'limida metodik qo'llanmalar. – Toshkent: Fan, 2016.
3. Rasulova M. Talabalarning ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi // O'zbekiston musiqa pedagogikasi, 2020, 12(3).
4. Qudratov I., Odilov A. Cholg'u asboblari ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2015.
5. Vikipediya. <https://uz.wikipedia.org/>.

Ismoiljon KARIMOV,

*Qo'qon davlat universiteti professori,
Turon FA a'zosi, pedagogika fanlari nomzodi*

O'QUVCHILARDA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani darslarida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ayrim yangi omillar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik ko'nikmasi, faoliyat bosqichlari, buyumlarning murakkablik darajasi, buyumlar tayyorlash va ulardan foydalanishga qo'yiladigan texnik-texnologik talablar, fanlararo bog'lanishlar.

Annotation. The article discusses some of the new factors aimed at developing students' creativity skills in technology classes taught in general secondary schools.

Keywords: creativity skills, stages of activity, complexity of objects (products), technical and technological requirements for the manufacture and use of objects (products), interdisciplinary connections.

Аннотация. В статье рассматриваются отдельные инновационные факторы, способствующие развитию творческих способностей учащихся в процессе преподавания предмета Технология в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: творческие навыки, этапы творческой деятельности учащихся, степень уровня изделий, технико-технологические требования к изделиям, межпредметные связи.

Ma'lumki, ijodkorlikka inson aqliy va jismoniy faoliyatining eng yuqori bosqichi sifatida qaraladi. Chunki bunda jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarish sohalarida yuqori va samarali natijalar beradigan yangiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun bu masla ko'pdan beri turli soha tadqiqotchilarining diqqatini o'ziga qaratib kelmoqda. Natijada bu sohada bir qator nazariyalar, metodlar, metodikalar yaratilgan va yaratilmoqda. Biz mazkur maqolada yuqoridagi ishlarni takomillashtirishga qaratilgan, boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko'rsatilmagan bir qator omillar haqida fikr yuritmoqchimiz.

I omil. O'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlanitirishda ularning faoliyat bosqichlarini kengaytirish. Bularga quyidagilar kiradi:

Nazariy tayyorgarlik bosqichi. Ijodkorlik – pedagogik va psixologik tomondan murakkab jarayon bo'lganligi uchun o'quvchilar bu jarayonga tezda va oson kirishib keta olmaydilar. Shu sababli ularni avvalo bu jarayonga kirishishga tayyorlash zarur.

2. Ijodiy izlanish bosqichi. Bu quyidagilardan iborat: berilgan topshiriqning mohiyatini anglash; tayyorlanadigan buyumni qanday maqsadda ishlatilishini aniqlash; tayyorlanadigan buyumning ko'rinishini, shaklini, qanday qismlardan iborat bo'lishini va ularni qanday biriktirilishini tasavvur etish; buyumni tayyorlash yechimini topish.

3. Tashkiliy ishlar bosqichi. Bu ishlar quyidagilardan iborat: buyumni tayyorlash rejasini tuzish; buyumni tayyorlash uchun material(lar) tanlash, ishlatiladigan asbob-uskunalarni va ish o'rnini hozirlash.

4. Texnologik ishlar bosqichi. Mazkur ishlar quyidagilardan iborat: berilgan shartlar yoki o'z yechimi bo'yicha buyumni tayyorlash; tayyorlangan buyumni sinab ko'rish, kamchiliklarini tuzatish va pardozlash; tayyorlangan buyumning xizmat doirasini, undan foydalanish qulayligini, qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, mustahkamligini oshirish, badiiy ishlov berish yo'llarini qidirish va topish [1: 188].

II omil. O'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan buyumlarning murakkablik jarajasini hisobga olish. Bu maqsadda o'quvchilarning o'quv va uquv imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular tomonidan tayyorlanadigan buyumlarning tuzilishi, buyum qismlarini biriktirish usullari, ularni tayyorlashda ishlatiladigan materiallarning, ish asboblari va ish usullarining turlari hamda soniga qarab quyidagi 5 ta darajaga bo'lib olishdir:

1. Bir detalli eng oddiy buyumlar.

2. Bir necha xil xil materialdan qilinadigan ko'p detalli oddiy birikmali buyumlar.

3. Bir necha xil materiallardan qilingan ko'p detalli, murakkab birikmali buyumlar.

4. Oddiy mexanizmlilik buyumlar.

5. Harakatlanuvchi buyumlar va radioqurilmalar [2: 144].

O'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan buyumlarni bunday oddiydan murakkabga qarab boruvchi xususiyat asosida darajalarga bo'lib olinishi ularning ilk o'smirlik davridagi aqliy va jismoniy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlarga mos holda besh xil yo'nalish bo'yicha ijodkorlik ko'nikmalarini

shakllantirishda dastlabki bosqich vazifasini o'taydi. Binobarin bu holat o'quvchilarning zerikmay, toliqmay, o'z imkoniyatlari darajasida mustaqil va ijodiy ishlashlariga katta yordam beradi [3: 1166–1170]. Bu ishlarni amalga oshirishda yana shuni ham hisobga olish kerakki, o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish murakkab faoliyat ekanligi sababli o'quvchilarni bunday ijodkorlik ishlariga kirishib keta olishlari oson emas. Shuning uchun bunda avvalo faoliyatni o'quvchilarni ijodkorlikka tayyorlaydigan ishlarni o'rgatishdan boshlash va bu ishlarni bora-bora murakkablashtirib borish zarur.

III omil. O'quvchilarga buyumlar tayyorlash va ulardan foydalanishga qo'yiladigan texnik-texnologik talablar haqida tushuncha berish. Bunda o'quvchilarga *dizayn, konstruktivlik, tejamkorlik, ishlanuvchanlik, qo'llanuvchanlik, go'zallik* kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish tushuniladi.

IV omil. O'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ularda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanganlik darajasini hisobga olish. O'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanganlik darajasini shartli ravishda uch xil darajaga bo'lish mumkin:

1- daraja – *quyi daraja* (asosan subyektiv ko'rinishdagi yangiliklar).

2- daraja – *o'rta daraja* (ham subyektiv, ham obyektiv ko'rinishdagi yangiliklar).

3- daraja – *yuqori daraja* (asosan obyektiv ko'rinishdagi yangiliklar).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Texnologiya ta'limi metodikasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
2. Karimov I. Uyg'unlashgan texnologiyalar vositasida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillarining metodik asoslari (umumta'lim maktablarining Texnologiya fani misolida): Monografiya. – Toshkent, 2025.
3. Yulchiyeva M. Ijodkor shaxsni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari //Science and Education. – Toshkent, 2022, №4. – B. 1166–1170.
4. Karimov I. O'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari / /Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2024. Vol. 1, №12. – B. 27–29.

Sarbaroy MIRZAYEVA,

*Namangan davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

DIDAKTIK O'YINLARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ularning o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini kuchaytirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Didaktik o'yinlarning turlari, ularni dars jarayonida qo'llash usullari hamda pedagogik samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, o'yinli ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarda muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash, muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, matematik bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, ta'lim roli, sujetli o'yinlar, rolli o'yinlar, harfli-raqamli (matematik) o'yinlar.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of didactic games in the educational process and their importance in the formation of learners' knowledge, skills, and competencies. Didactic games are considered an effective means of increasing students' cognitive activity, developing independent thinking, and enhancing interest in the learning material. The study examines the types of didactic games, methods of their implementation in the teaching process, and their pedagogical effectiveness. In addition, the role of game-based educational technologies in developing learners' communication culture, collaboration skills, and problem-solving abilities is substantiated.

Keywords: didactic games, mathematical knowledge, skills, competencies, educational role, plot-based games, role-playing games, letter-number (mathematical) games.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль дидактических игр в образовательном процессе, а также их значение в формировании знаний, умений и навыков у обучающихся. Дидактические игры рассматриваются как эффективное средство повышения познавательной активности учащихся, развития самостоятельного мышления и усиления интереса к изучаемому материалу. В исследовании раскрываются виды дидактических игр, способы их применения в учебном процессе и их педагогическая эффективность. Кроме того, обосновывается роль игровых образовательных технологий в развитии коммуникативной культуры, навыков сотрудничества и умений решать проблемные задачи у обучающихся.

Ключевые слова: дидактические игры, математические знания, умения, навыки, роль в образовании, сюжетные игры, ролевые игры, буквенно-цифровые (математические) игры.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirish dolzarb masalalardan biri. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini kuchaytirishda didaktik o'yinlar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Didaktik o'yinlar o'qitish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilib, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi didaktik o'yinlarning ilmiy, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. "Har qanday davlatning rivoji sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Yangi O'zbekiston qurilishida sog'lom, bilimli, ziyrak va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoit yaratilishi shart" – degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Bu yo'nalishlar ta'limda innovatsion metodlarni, xususan, didaktik o'yinlarni joriy etishni talab etadi.

Boshlang'ich sinfga endigina qadam qo'ygan o'quvchilar uchun matematika ko'pincha eng qiyin fanlardan biri sifatida qabul qilinadi va ba'zi bolalarda bu fanga nisbatan qiziqish past bo'ladi. Buning sababi shundaki, ularning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish hamda guruhlash kabi muhim aqliy ko'nikmalari hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu bois o'qitish jarayonining ilk bosqichlaridanoq o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va ularni faol ishtirok etishga jalb etish zarurdir. Bu maqsadga erishishning eng samarali yo'llaridan biri – darslarda didaktik o'yinlardan foydalanishdir.

O'zbek va xorijiy pedagogik adabiyotlarda didaktik o'yinlarning tasnifi va matematik ta'limdagi roli keng o'rganilgan. Xususan, S.Y. Kurochkina o'yinlar o'rganish faoliyat xarakteriga ko'ra quyidagicha tasnifladi: ijro etuvchi, takrorlovchi, nazorat qiluvchi va o'zgartiruvchi o'yinlar. V.G.Kovalenko matematika o'qituvchilari uchun metodik adabiyot muallifidir. U metodikalarni darslarda qo'llash bo'yicha "Дидактические игры на уроках математики" amaliy qo'llanmasini yaratgan. O'zbek olimlari G.Umarova, Y.S.Yunus didaktik o'yinlarni mazmuniga ko'ra tinch (jumboqlar, savol-javob) va harakatli o'yinlarga, shakliga ko'ra individual, juftlik va guruh o'yinlariga ajratishni taklif etishgan. Ularning asosiy ishi didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi, matematik savodxonlikni oshirish. Ushbu maqolada didaktik o'yinlarning guruhi va matematik bilimlarni shakllantirishdagi rolini o'rganish uchun nazariy-tizimlashtirish yo'llari asosiy metod sifatida qo'llanilgan. Didaktik o'yinlarni tasniflash va ularning matematik ta'limdagi pedagogik samaradorligini aniqlash, matematik ko'nikmalarga bo'lgan samaradorligini modellashtirish, amaliy tavsiyalar berish maqsadlarini o'z ichiga olgan.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik, topqirlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi muhim pedagogik vositadir. O'yinlar nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonini ham faollashtiradi. Didaktik o'yinlarning o'qitish vositasi sifatidagi samaradorligi ularning mazmuni, tuzilishi va metodik tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir.

Didaktik o'yinlarning tasnifi ularning maqsad va vazifalariga, mazmuni hamda o'tkazish shakliga qarab belgilanadi. O'quv jarayonidagi o'rniga ko'ra ular o'quv, nazorat, mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi o'yinlarga bo'linadi.

O'quv o'yinlari yangi bilimlarni egallash jarayonida qo'llanilib, o'quvchilarning diqqatini mavzuning mohiyatiga qaratadi va tushunchalarni shakllantirishda yordam beradi. Nazorat o'yinlari esa o'zlashtirilgan bilimlarni baholash, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Mustahkamlovchi o'yinlar ilgari o'rganilgan materialni eslab qolish va amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, ularni muntazam qo'llash o'quvchilarning mustahkam bilim hosil qilishini ta'minlaydi. Rivojlantiruvchi o'yinlar o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini, ya'ni solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ba'zi manbalarda (T.Karimova, 2019; O.Jo'rayeva, 2020) didaktik o'yinlar shuningdek kommunikativ, integrativ va kreativ yo'nalishlarga ajratiladi, bu esa ularning ta'limiy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Quyidagi tamoyillar dars jarayonida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun muhim hisoblanadi. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

1. O'quv maqsad o'yin vazifasi sifatida taqdim etiladi. Darsdagi asosiy o'quv maqsadi (masalan, yangi mavzuni o'zlashtirish yoki bilimni mustahkamlash) o'yin shaklida ifodalanadi. O'quvchi o'yin topshirig'ini bajarayotganini his qiladi, aslida esa o'quv maqsadiga erishadi.

2. O'quv jarayoni o'yin qoidalariga bo'ysundiriladi. Darsda o'yin jarayoni uchun maxsus qoidalar belgilanadi (vaqt cheklovi, navbat bilan harakat qilish, ball to'plash va hokazo), bu o'quvchilarni tartibga soladi va faol ishtirok etishga undaydi.

3. O'quv materiali o'yin vositasi sifatida ishlatiladi. Darsdagi o'rganilayotgan material (so'zlar, formulalar, tarixiy voqealar va boshqalar) o'yinning asosiy elementi sifatida qo'llaniladi. Masalan, matematik misollarni "topishmoq" tarzida yechish yoki tarixiy shaxslarni "rol o'ynash" orqali o'rganish.

4. Raqobat (rag'bat) unsuri bilan qiziqarilik oshiriladi. O'yin jarayonida kichik musobaqalar, jamoalar o'rtasidagi bellashuvlar tashkil qilinadi. Bu o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi, darsni jonli va qiziqarli qiladi.

5. Didaktik vazifa o'yin natijasi bilan bog'lanadi. O'yin yakunida o'quvchilar o'z natijalarini baholaydilar, bu esa o'quv maqsadiga erishish darajasini ko'rsatadi. Ya'ni o'yin natijasi bevosita o'quv natijasiga tenglashtiriladi.

Didaktik o'yinlarni tasniflashda turli mezonlardan foydalaniladi, ularning har biri o'quv jarayonining maqsad va vazifalariga muvofiq holda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Quyida boshlang'ich ta'lim jarayonida keng qo'llaniladigan didaktik o'yin turlarining psixologik-pedagogik xususiyatlari, mazmuni va amaliy qo'llanish misollari keltiriladi.

1. Mavzuli (sujetli) o'yinlar. Bu turdagi o'yinlarda o'quv jarayoni muayyan mavzu yoki syujet asosida tashkil etiladi. Syujetli o'yinlar bolalarda obrazli fikrlashni rivojlantiradi, ularning matematik tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olish malakasini mustahkamlaydi. Masalan, "Do'konda mehmonimiz" o'yini orqali o'quvchilar xaridor va sotuvchi rollarini bajarib, pul birliklari, qo'shish va ayirish amallarini bajarishadi. Bunda bolalar o'yin davomida matematik bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llab, mustahkam o'zlashtiradilar.

2. Rolli o'yinlar. Rolli o'yinlarda o'quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llaydilar. Bu o'yinlar ularning kommunikativ, mantiqiy va refleksiv faoliyatini faollashtiradi. Masalan, "Matematika darsi teleko'rsatuvda" o'yinida bir o'quvchi

o'qituvchi rovida, boshqalar esa "tomoshabin" yoki "ishtirokchi" sifatida qatnashib, berilgan masalalarni yechishadi, javoblarni tahlil qilishadi. Bu turdagi o'yinlar o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi.

3. Harfli-raqamli (matematik) o'yinlar. Mazkur o'yinlar matematik tushunchalar, arifmetik amallar va raqamlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchilarda hisoblash malakasini, tahliliy tafakkurni va diqqatni rivojlantiradi. Masalan, "Davom ettir" o'yini. Bir o'quvchi matematik termin aytadi, ikkinchi o'quvchi uning oxirgi harfiga boshqa matematik termin aytadi. O'yin o'quvchilar soni tugaguncha davom etadi. Yoki o'tilgan mavzuladagi terminlarni takrorlamagan holda o'quvchilar soni tugaguncha davom ettirish.

4. "Play on words" (So'z oyini). Bu o'yin chaqqonlikni oshiradi, tez fikrlashga o'rgatadi, xotirani mustahkamlaydi (1 nafar qiz bola va 1 nafar o'g'il bolani doskaga yoniga chiqariladi). Qizlar uchunchak, ay..., bir..., ...uvchi, siya,bola, ...bat, para...,aj,lik (beshburchak, aylana, ayiriluvchi, kamayuvchi, proporsiya, giperbola, musbat, parallelogram, maxraj, tekislik va hokazo) O'g'il bolalar uchun ...rat,chak, ...fiy, med..., ay..., ...iz,lik, ko'p....., para... , chiz.....,do.... (kvadrat, uchburchak, manfiy, mediana, aylana, ayirma, ko'pburchak,parallelepiped, doira, cheksizlik,ildiz, chiziq). "Sehrli kvadratlar", "Kim tezroq hisoblaydi?" yoki "Matematik domino" kabi o'yinlar o'quvchilarning raqamlar orasidagi bog'liqlikni anglash, mantiqiy xulosalar chiqarish va natijalarni tekshirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

5. O'yin-sayohatlar. Bu o'yinlar o'quvchilarni shartli ravishda "sayohat"ga olib chiqish orqali o'quv jarayonini jonlantiradi. O'yin davomida ular turli "bekatlar"da matematik topshiriqlarni bajarib boradilar. Masalan, "Matematika olamiga sayohat" o'yinida har bir bekatda qo'shish, ayirish, taqqoslash yoki geometrik shakllarni topish kabi topshiriqlar beriladi yoki rasmlar bilan ishlab masalalar tuzishadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarda kognitiv faollikni, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

6. Musobaqa o'yinlari. Musobaqa shaklidagi o'yinlar o'quvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, tezkor fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Eng topqir matematik", "Kim ilgari yetadi?" yoki "Matematik estafeta" kabi o'yinlar jarayonida bolalar o'z bilimlarini bahslashuv muhitida sinovdan o'tkazadilar. Bunday o'yinlarda raqobat elementi darsga emotsional ko'tarinkilik kaxsh etadi, motivatsiyani oshiradi.

"Termin guruhleri" o'yini. Har bir so'z guruhida bitta yot so'z bor. Ularni toping. Maqsad: o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini va so'zlar orasidagi mavzuli bog'lanishni aniqlash malakasini rivojlantirish.



Pifagor x (matematik olim)

A.Navoiy x (yot so'z – adib, matematik emas)

Qalam x (yot so'z – asbob, atama emas).

7. Ijodiy didaktik o'yinlar. Bu o'yinlar o'quvchilardan mustaqil fikrlash, yangicha yondashuv va ijodiy yechimlarni talab etadi. O'yin jarayonida bolalar o'z fantaziyasi va tasavvuriga tayangan holda yangi matematik vaziyatlar yaratadilar. Masalan, "O'zing masala tuz", "Topishmoqli misollar" yoki "Geometrik shakllardan rasm yasaymiz" kabi o'yinlar nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki ijodiy tafakkur, estetik did va muammoli vaziyatda to'g'ri yechim topish malakasini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, didaktik o'yinlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan. O'yinli topshiriqlar orqali o'quvchilar bilimlarni tezroq va mustahkamroq egallagan, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari rivojlangan. Shuningdek, o'quvchilarda darsga bo'lgan ijobiy munosabat va ichki motivatsiya kuchayganligi aniqlandi. Matematika ta'limida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni dars jarayoniga faol jalb etadi hamda o'quv motivatsiyasini mustahkamlaydi. O'yinli faoliyat davomida o'quvchilar o'z bilim va malakalarini amalda sinab ko'radilar, bu esa ularning kognitiv faolligini oshiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Olingan natijalar didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi. Didaktik o'yinlar an'anaviy o'qitish usullarini to'ldirib, o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy izlanishlar bilan solishtirilganda, o'yinli ta'lim texnologiyalarining bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi ijobiy ta'siri yana bir bor isbotlandi. Shuningdek, o'yin jarayonida raqobat, hamkorlik va o'zaro yordam elementlarining mavjudligi ijobiy ijtimoiy tajribani shakllantiradi. Shu bois, didaktik o'yinlar o'qituvchi uchun ham o'quvchilar bilimni individual baholash va ularning rivojlanish dinamikasini aniqlashda qulay vosita hisoblanadi.

Metodik tavsiyalar: didaktik o'yinlarni matematika darslarida samarali qo'llash uchun o'qituvchilarga quyidagi amaliy yo'riqnomalar:

1. O'yinlarni tanlash mezonlari:
2. O'qituvchi uchun maslahatlar:
 - O'quvchilarni diqqatni boshqarish: O'yin oldidan savol – "Kim g'olib bo'lmoqchi?",
 - Xatolarni tuzatish: "Yana bir bor sinab ko'ramizmi?" deb rag'batlantirish
 - Guruh dinamikasi: har darsda rollarni almashtirish (rahbar, hisobchi)
 - Uy vazifasi: o'yinlarni oilaviy shaklda davom ettirish.
3. Bilim samaradorligini baholash.
4. Har bir bo'limga o'yinlar reja namunasi.

Ushbu metodik tavsiyalarni qo'llash orqali matematika darslari 30% qiziqarliroq bo'lib, o'quvchilarning bilimlari 25% mustahkamlanadi. O'qituvchilar haftasiga 3 – 4 ta o'yin bilan boshlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar matematika o'qitish metodikasining ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, fikrlash jarayonlarini faollashtirishda, o'quv motivatsiyasini kuchaytirishda hamda ta'limning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini amalga oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlarning to'g'ri tanlanishi va metodik jihatdan asosli tashkil etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, o'quvchining intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab ta'limidagi islohotlarning yangi bosqichi. <https://president.uz/oz/lists/view/8127>.
2. Abdurasulovna X. Texnologiya fani mashg'ulotlarida akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash // Shokh library, 2025, 1(10).
3. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
4. Торопова Г. Дидактические игры на уроках математики // Педсовет, 2021.
5. Umarova G. Didaktik o'yinlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – Qoqon: Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot, 2024.
6. Yunusova G. Boshlang'ich sinf matematikasida darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o' quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish // Ilm fan xabarnomasi, 2024.
7. Xusayinova G. Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025, 3(12).

Lazokatxon SHABDULLAYEVA,

*Andijon davlat tibbiyot instituti farmatsiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH: AN'ANAVIY VA INNOVATSION TAMOYILLAR

Annotatsiya. Talabaning mustaqil ta'limi uning shaxsiy qobiliyatlari, aqliy faoliyati va ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Talabaga o'z bilimini mustaqil shakllantirishi uchun motivatsiya, diqqat, xotira va tahliliy fikrlash qobiliyatlari zarur bo'ladi. Motivatsiya yuqori bo'lsa, talaba o'rganishga yanada faol kirishadi va o'zining natijalarini mustaqil baholay oladi. Mustaqil ish bilan shug'ullangan talabalar ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tezroq rivojlantiradi, stressga bardoshli va muammolarni mustaqil hal qilishga qodir bo'ladi. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim jarayonidagi samarali va innovatsion tamoyillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, ichki va tashqi omillar, qobiliyat, mustaqil ish, amaliyot, bilim, ko'nikma va malaka.

Annotation. A student's independent learning is directly related to their personal abilities, mental activity, and inner motivation. Students need motivation, attention, memory, and analytical thinking skills to independently form their knowledge. With high motivation, the student becomes more active in learning and can independently evaluate their results. Students engaged in independent work develop creative and critical thinking skills faster, become stress-resistant, and are able to solve problems independently. This article provides information on effective and innovative principles in the process of independent learning.

Keywords: learning process, internal and external factors, ability, independent work, practice, knowledge, skills and abilities.

Аннотация. Самостоятельное обучение студента напрямую связано с его личными способностями, умственной деятельностью и внутренней мотивацией. Студенту необходимы мотивация, внимание, память и аналитическое мышление для самостоятельного формирования своих знаний. При высокой мотивации студент более активно участвует в обучении и может самостоятельно оценивать свои результаты. Студенты, занимающиеся самостоятельной работой, быстрее развивают навыки творческого и критического мышления, устойчивы к стрессу и способны самостоятельно решать проблемы. В данной статье представлена информация об эффективных и инновационных принципах в процессе самостоятельного обучения.

Ключевые слова: учебный процесс, внутренние и внешние факторы, способность, самостоятельная работа, практика, знания, умения и навыки.

O'quv jarayonida mustaqillikni rivojlantirish uchun talabaga topiladigan vazifalarni bajarish usullari va tartibini tanlash imkoniyati beriladi. Bu talabaning ijodiy va tanlov qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabani o'z faoliyatini rejalashtirishga o'rgatish, ishni qanday va qaysi tartibda bajarishini mustaqil belgilash imkonini yaratadi. Shu bilan birga o'zini baholash va natijalarni tahlil qilish orqali talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va ularni yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ishning misollari sifatida referat yozish, insho tayyorlash, loyiha ishlab chiqish, eksperiment va tajribalarni o'tkazish, muammo yechimlarini tahlil qilish keltiriladi. Bularning barchasi talabada o'z bilimini mustaqil egallash amaliyotva amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Talabalarda mustaqil ta'limning samarali bo'lishi ichki va tashqi omillarga bog'liqdir. Ichki omillarga talabaning motivatsiyasi, qiziqishi, bilim darajasi va psixologik holati kiradi. Talaba o'rganishga qiziqsa va maqsadga intilsa, mustaqil ta'lim samarali bo'ladi. Tashqi omillar esa o'qituvchining yo'riqnomasi, o'quv materialining sifati, texnologiyalar va ijtimoiy muhit bilan bog'liq. O'qituvchi talabaning mustaqil ishini rejalashtirish va nazorat qilishda yordam berishi, kerakli resurslarni taqdim etishi va izohlar bilan yo'l-yo'riq ko'rsatishi zarur. Shu bilan birga, talaba uchun qulay va motivatsion o'quv muhitining mavjudligi ham muhim hisoblanadi. Bu jarayon talabada mas'uliyat, o'zini boshqarish va vaqtni to'g'ri

taqsimlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, shuningdek, kelajakda kasbiy faoliyat va hayotiy ko'nikmalar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mustaqil ta'lim talabaning shaxsiy bilim olish faoliyati sifatida pedagogik va psixologik asoslarda mustahkamlanadi, o'quv jarayonida uning faol ishtirokini ta'minlaydi va zamonaviy texnologiyalar yordamida bilimni chuqurroq egallashga yordam beradi.

Talabalarda mustaqil ta'limning samarali bo'lishi uchun bir qancha asosiy tamoyillar mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonida bilimni chuqurroq egallash, ko'nikmalarni mustahkamlash va shaxsiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Birinchi tamoyil bu faoliyatning faolligi bo'lib, talabaning faolligi mustaqil ishning muvaffaqiyati uchun asosiy shart hisoblanadi. Talaba faollik bilan ma'lumotni izlaydi, tahlil qiladi, o'z fikrini shakllantiradi va natijalarni amaliyotda qo'llaydi. Faol talaba dars davomida olingan bilimni yodlabgina qolmay, ularni amaliyotga tatbiq etadi, o'zini sinab ko'radi va yangi ma'lumotlar bilan bog'laydi. Faollik tamoyili shuni ko'rsatadiki, o'rganish jarayoni passiv yondashuv bilan cheklanmay, talaba faol va mustaqil harakat qilsa, bilim va ko'nikmalar yanada mustahkam bo'ladi.

Ikkinchi tamoyil bosqichma-bosqichlik bo'lib, bu talabaning o'z faoliyatini rejalashtirish, maqsadlarni belgilash va vazifalarni ketma-ket bajarish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talaba birinchi navbatda mavzuni umumiy tushunishga harakat qiladi, keyin

ma'lumotni tahlil qiladi, muhim jihatlarni ajratadi va oxirida natijalarni shakllantiradi. Bosqichma-bosqichlik talabani o'z bilimni tizimli o'zlashtirishini ta'minlaydi va murakkab masalalarni bosqichma-bosqich yechishga o'rgatadi. Shu tarzda talaba bilimning har bir bosqichini o'zlashtiradi, xatolarini aniqlaydi va o'zini to'g'ri baholash imkoniga ega bo'ladi.

Uchinchi tamoyil shaxsiylashtirish bo'lib, bu talabani individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashgan ta'lim jarayonini anglatadi. Har bir talaba o'z imkoniyatlariga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos ravishda vazifalarni bajarishi kerak. Masalan, ba'zi talabalar yozma ishlarda faol bo'lsa, boshqalari loyiha yoki eksperiment ishlari orqali bilimni yaxshiroq egallaydi. Shaxsiylashtirish tamoyili talabani kuchli tomonlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, individual yondashuv yordamida talaba o'z qobiliyatlarini maksimal darajada namoyon eta oladi, bilimni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishda muvaffaqiyatga erishadi.

To'rtinchi tamoyil nazorat va o'zini baholashdir. Talaba o'z ishini yakunlagach, natijalarni tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va o'zini baholash orqali o'z bilim darajasini tushunadi. Nazorat nafaqat o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, balki talabani o'z-o'zini baholashi ham muhimdir. Shu jarayon talabani shaxsiy mas'uliyatini oshiradi, vaqtni to'g'ri taqsimlash va ishini rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mustaqil ish davomida o'zini baholash talabani o'z kuchli va zaif tomonlarini anglashiga yordam beradi, shuningdek, kelajakdagi bilim olish jarayonini samaraliroq tashkil etishga imkon yaratadi.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning yana bir muhim jihati bu o'quv resurslaridan to'g'ri foydalanishdir. Talaba kitoblar, maqolalar, elektron resurslar va amaliy materiallardan foydalangan holda o'z bilimni kengaytiradi. Shuningdek, guruhda muhokama va tajriba ishlari orqali talaba boshqalar bilan fikr almashadi, o'z xatolarini tuzatadi va yangi yondashuvlarni o'rganadi. Mustaqil ish davomida har bir vazifa talabani bilimni mustahkamlash, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Talabani mustaqil ta'limi uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'z bilimni mustaqil egallash, tahlil qilish, natijalarni shakllantirish va o'zini baholash orqali talaba kelajakda mustaqil qaror qabul qilish, murakkab vazifalarni

hal qilish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga mustaqil ta'lim talabani o'z vaqtini boshqarish, mas'uliyat hissini rivojlantirish va o'zini tashkil etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Talabalarda mustaqil ta'limni shakllantirishning usullari ham muhim omil sifatida qaraladi. Shaxsiy ishlar, masalan, referat, insho, loyiha tayyorlash talabani mustaqil fikrlash, izlanish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Guruh ishlari va muhokamalar esa talabani ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi, fikr almashish va birgalikda yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga elektron va raqamli resurslardan foydalanish talabaga bilimni tez va samarali izlash, tahlil qilish va qo'llash imkoniyatini beradi. Mustaqil ta'lim jarayonida har bir talaba o'z vazifalarini belgilaydi, ularni ketma-ket bajaradi va natijalarni baholaydi, bu esa o'z navbatida uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga talaba uchun mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun reja tuzish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va natijalarni baholash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Talaba har bir bosqichni amalga oshirayotganda o'z harakatlarini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va bilimni mustahkamlaydi. Bu jarayon ichki va tashqi omillar bilan uyg'unlashganda, talabani shaxsiy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi uchun kuchli poydevor yaratadi.

Mustaqil ta'lim talabani shaxsiy bilim olish faoliyati sifatida pedagogik va psixologik asoslarda shakllanadi, o'quv jarayonida talabani faol ishtirokini ta'minlaydi va bilimni chuqurroq egallash imkonini beradi. Elektron va raqamli resurslar, interaktiv dasturlar va onlayn materiallar talabani mustaqil ta'lim jarayonini samarali qiladi. Talaba turli manbalarni o'rganib, natijalarni solishtiradi va xulosalar chiqaradi, shu tarzda bilim nafaqat yodlash orqali, balki amaliyot va tahlil orqali mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim talabani shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan samarali yondashuvdir. Talaba mustaqil izlanish, tahlil qilish, rejalashtirish va amaliyotga tadbir etish jarayonida o'z bilimni chuqurlashtiradi, shaxsiy mas'uliyatini oshiradi va kelajakdagi murakkab vazifalarni hal qilishga tayyor bo'ladi. Shu bilan birga mustaqil ta'lim pedagogik va psixologik omillar bilan uyg'unlashib, talabani ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, guruh ishlari va muhokamalar orqali ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi va samarali bilim olish jarayonini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov S., Ta'limda mustaqil ishlash metodlari. – Samarqand, 2019.
2. Abdullayev T., Talabalarda o'quv faoliyatini tashkil etish. – Toshkent, 2021.
3. Rustamov A., Pedagogika va o'quv jarayonida innovatsiyalar. – Buxoro, 2018.
4. Tursunov N., Mustaqil ta'limning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2022.
5. Jones P., Independent Learning in Higher Education. – London, 2017.
6. Brown H., Strategies for Effective Student Learning. – New York, 2019.

Dilnoza SALAXOVA,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ispan tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

ISPAN TILI DARSLARIDA QISQA METRAJLI FILMLAR VA QO'SHIQLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish jarayonida qisqa metrajli filmlar va qo'shiqlardan foydalanishning didaktik samaradorligi tahlil qilinadi. Audiovizual materiallarning eshitib tushunish, og'zaki nutq va madaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ona tilisi o'zbek va rus tili bo'lgan talabalarga ispan tilini o'qitish jarayonida yuzaga keladigan lingvodidaktik xususiyatlar va interferensiya muammolari ko'rib chiqiladi. Qisqa metrajli filmlar asosida tashkil etilgan darslarning metodik modeli tavsiflanib, amaliy tajriba natijalari keltiriladi. Tadqiqot natijalari audiovizual materiallardan tizimli foydalanish ispan tilini o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ispan tili, ikkinchi til, qisqa metrajli filmlar, qo'shiqlar, audiovizual materiallar, til o'qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya.

Annotation. This article examines the didactic effectiveness of using short films and songs in teaching Spanish as a second language. The study highlights the role of audiovisual materials in developing listening comprehension, speaking skills, and intercultural competence. Special attention is given to the linguodidactic features of teaching Spanish to students whose native languages are Uzbek and Russian, as well as to issues of language interference. The paper describes a methodological model for organizing lessons based on short films and presents the results of practical classroom experience. The findings demonstrate that the systematic use of audiovisual materials significantly enhances the effectiveness of Spanish language teaching.

Keywords: spanish language, second language, short films, songs, audiovisual materials, language teaching methodology, communicative competence.

Аннотация. В статье рассматривается дидактическая эффективность использования короткометражных фильмов и песен в процессе обучения испанскому языку как второму языку. Анализируется роль аудиовизуальных материалов в развитии навыков аудирования, устной речи и межкультурной компетенции обучающихся. Особое внимание уделяется лингводидактическим особенностям обучения студентов с узбекским и русским родным языком, а также проблемам языковой интерференции. В работе описывается методическая модель организации занятий на основе короткометражных фильмов и приводятся результаты практического опыта. Полученные результаты свидетельствуют о том, что систематическое использование аудиовизуальных материалов повышает эффективность обучения испанскому языку.

Ключевые слова: испанский язык, второй язык, короткометражные фильмы, песни, аудиовизуальные материалы, методика обучения, коммуникативная компетенция.

Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki shaxsning madaniy va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ispan tili dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lib, xalqaro muloqot, ta'lim, turizm va madaniyat sohalarda muhim o'rin egallaydi. Shu sababli ispan tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasini takomillashtirish zamonaviy til ta'limining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

An'anaviy til o'qitish usullarida grammatika va leksik birliklarga asosiy e'tibor qaratilishi, ko'pincha talabalarning og'zaki nutqi va eshitib tushunish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi. Ayniqsa, ona tili o'zbek yoki rus tili bo'lgan talabalar uchun ispan tilining fonetik, intonatsion va pragmatik xususiyatlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bunday holatda tilni faqat matn yoki mashqlar orqali o'rgatish kutilgan natijani bermaydi.

So'nggi yillarda chet tillarini o'qitishda audiovizual materiallardan foydalanish samarali metodik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Qisqa metrajli filmlar, kinolavhalar va qo'shiqlar tilni tabiiy nutq muhiti orqali idrok etish imkonini beradi. Ushbu materiallar yordamida talabalar til birliklarini sun'iy mashqlar doirasida emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda kuzatish va tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Natijada til o'rganish jarayoni yanada jonli, mazmunli va motivatsiyaga boy bo'ladi. Qisqa metrajli filmlarning afzalligi shundaki, ular qisqa vaqt ichida muayyan mavzu va g'oyani yoritib beradi, dialoglar esa kundalik nutqqa yaqin bo'ladi. Bu esa ispan tilini o'rganayotgan talabalarda eshitib tushunish, so'zlashuv va madaniy kompetensiyani bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, vizual obrazlar va ovoz uyg'unligi talabalarining xotirasida til materialining mustahkamroq saqlanishiga yordam beradi. O'zbek va rus tilli talabalar bilan ishlash jarayonida ona tilining ta'siri muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Rus tilida grammatik jins va fe'l zamonlari tizimi mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bunday kategoriyalar yo'qligi ispan tilini o'zlashtirishda interferensiyaga sabab bo'lishi mumkin. Audiovizual materiallar aynan shu farqlarni yumshatishda, til birliklarini kontekst asosida tushuntirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda qisqa metrajli filmlar, kinolavhalar va qo'shiqlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek va rus tilli talabalar bilan olib borilgan dars jarayonlari tahlil qilinib, audiovizual materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning til o'rganish jarayoniga ta'siri ko'rsatib

beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi ispan tili darslarida qisqa metrajli filmlardan foydalanishning samarali metodikasini asoslashdan iborat.

Bugungi kunda chet tillarini, xususan ispan tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayoni an'anaviy grammatik-tarjima yondashuvdan bosqichma-bosqich voz kechib, kommunikativ va funksional yondashuvlar asosida rivojlanib bormoqda. Zamonaviy til ta'limida til faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli o'qitish jarayonida talabalarni tabiiy nutq muhitiga imkon qadar yaqinlashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [5]. Ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda kommunikativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til birliklari alohida-alohida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatlar doirasida o'zlashtiriladi. Talaba tilni faqat tushunish emas, balki undan faol foydalanishni o'rganishi lozim.

Bunday yondashuvda eshitib tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarining rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi [2].

Zamonaviy metodikada multimodal ta'lim tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Multimodal yondashuv til o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta idrok kanallaridan – vizual, audial va kinestetik vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot vizual va eshitish orqali birgalikda taqdim etilganda, o'rganilayotgan materialning eslab qolinish darajasi sezilarli darajada oshadi [3]. Shu nuqtai nazardan, audiovizual materiallar, xususan qisqa metrajli filmlar ispan tilini o'qitishda samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qisqa metrajli filmlar real nutq namunalari, tabiiy intonatsiya va talaffuzni, shuningdek, til bilan chambarchas bog'liq bo'lgan madaniy kontekstni o'zida mujassam etadi. Bu esa talabalarni sun'iy o'quv matnlaridan ko'ra real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi [8].

Ona tili o'zbek yoki rus tili bo'lgan talabalar uchun ispan tilini o'zlashtirish jarayonida fonetik va grammatik farqlar muhim rol o'ynaydi. Rus tilida grammatik jins va fe'l zamonlari tizimi mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bu kabi kategoriyalarning yo'qligi ispan tilini o'rganishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Audiovizual materiallar ushbu farqlarni kontekst orqali tushuntirish imkonini beradi va interferensiya ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi [1].

Qisqa metrajli filmlar chet tillarini, jumladan ispan tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda samarali audiovizual material sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning asosiy didaktik ustunligi qisqa vaqt ichida aniq mazmun va kommunikativ vaziyatni ifodalash imkoniyatiga ega ekanligi bilan bog'liq. Bu esa dars jarayonida filmni to'liq namoyish etish, tahlil qilish va amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Qisqa metrajli filmlarda til birliklari sun'iy ravishda soddalashtirilgan holda, ya'ni real kontesktida qanday qo'llansa shunday ko'rinishda namoyon bo'ladi. Dialoglar kundalik hayotga xos bo'ladi, unda ispan tilining tabiiy leksik boyligi, so'zlashuvga xos iboralar hamda pragmatik birliklar faol qo'llaniladi. Bu holat talabalarni faqat grammatik jihatdan emas, balki funksional va kommunikativ jihatdan ham tayyorlashga xizmat qiladi. Didaktik nuqtai nazardan, qisqa metrajli filmlar eshitib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda ayniqsa muhimdir. Film davomida talabalar nutq tezligi, intonatsiya, turli emotsional jarayon yoki holatlarda urg'u va talaffuzning tabiiy shakllari bilan bevosita tanishadilar. Eshitish va ko'rish kanallarining birgalikda ishlashi tufayli til materiali yaxlit holda idrok etiladi va bu jarayon til o'rganishda kutilgan yaxshi natijalarga olib keladi. Shuningdek, qisqa metrajli filmlar madaniy kompetensiyani shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ispan tilini o'rganish jarayonida ispan tilida so'zlashuvchi jamiyatlarining qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlari va kommunikativ xulq-atvori bilan tanishish muhim ahamiyatga ega. Filmlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy vaziyatlar talabalarni madaniy farqlarni anglashga va ularni to'g'ri talqin qilishga o'rgatadi [9].

O'zbek va rus tilli talabalar bilan ishlash jarayonida qisqa metrajli filmlarning yana bir afzalligi grammatik va leksik qiyinchiliklarni kontekst asosida tushuntirish imkonini berishidir [9]. Masalan, ispan tilidagi fe'l zamonlari yoki artikllarning qo'llanishi film syujeti va dialoglar asosida izohlanganda, talabalar ushbu birliklarni abstrakt qoida sifatida emas, balki real nutq vositasi sifatida qabul qiladilar. Bu esa ona tilidan kelib chiqadigan interferensiya ta'sirini kamaytiradi. Qisqa metrajli filmlardan foydalanish talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Film syujeti asosida tashkil etilgan muhokamalar, rolli o'yinlar va yozma topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlashini va ijodiy yondashuvini rivojlantirish bilan bir qatorda dars jarayoni biryozlama axborot uzatish shaklidan interaktiv o'quv muhitiga aylanishiga xizmat qiladi.

Ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish jarayonida talabalar ona tilining ta'siri muhim lingvodidaktik omil sifatida namoyon bo'ladi [4]. O'zbek va rus tilli talabalar bilan ishlashda ushbu ta'sir turlicha shaklda kuzatiladi va bu holat o'qitish metodikasini moslashtirishni talab etadi. Ayniqsa, fonetik, grammatik va pragmatik jihatlardagi farqlar ispan tilini o'zlashtirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [6].

Rus tilida grammatik jins kategoriyasining mavjudligi ispan tilidagi otlar va sifatlarning kelishuvini o'zlashtirishda nisbatan qulaylik yaratsa-da, fe'l zamonlari va aspektual ma'nolarning farqlanishi talabalarda xatolarga olib kelishi mumkin. O'zbek tilida esa grammatik jins va artikl kategoriyalarining mavjud emasligi ispan tilini o'rganishda sezilarli interferensiyani yuzaga chiqaradi. Natijada talabalar ko'pincha artikllarni tushirib qoldirish yoki noto'g'ri qo'llash holatlariga yo'l qo'yadilar. Audiovizual materiallar, xususan qisqa metrajli filmlar, ushbu lingvodidaktik muammolarni yumshatishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Film kontekstida til birliklari vizual vaziyat bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lgani sababli, talabalar grammatik shakllarning funksional ahamiyatini yaxshiroq anglay boshlaydilar. Masalan, artikllarning ma'no farqlari yoki fe'l zamonlarining qo'llanishi film syujeti orqali tushuntirilganda, ularning abstrakt qoida emas, balki kommunikativ vosita ekanligi aniqroq namoyon

bo'ladi. Filmlarning tilni bilish darajalariga moslanganligi bunda juda qo'l keladi.

Fonetik jihatdan qaralganda, ispan tilining ritmik va intonatsion xususiyatlari o'zbek va rus tilli talabalar uchun muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Qisqa metrajli filmlar orqali talabalar tabiiy nutq tezligi, urg'u va pauzalarning joylashuvi bilan tanishadilar. Vizual qo'llab-quvvatlash esa eshitalayotgan nutqni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi va fonetik ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ispan tilida qo'shiq matnini talabalarga berish va eshittirish tilni boshlang'ich o'rganayotgan talabalarga so'zlarning talaffuzini eshitib kuzatib borishga, so'zdan so'zni ajratishga yordam beradi, ya'ni "quloq moslashadi".

Pragmatik kompetensiya nuqtai nazaridan ham audiovizual materiallar muhim ahamiyatga ega. Filmlarda namoyon bo'ladigan muloqot vaziyatlari, imo-ishoralari, nutqiy odob qoidalari va ijtimoiy rollar talabalarni ispan tilida so'zlashuvchi madaniyatga yaqinlashtiradi. Bu esa talabalarning nutqiy xatti-harakatlarini madaniy jihatdan mos shakllantirishga yordam beradi va noto'g'ri kommunikativ strategiyalarning oldini oladi.

Ispan tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda qisqa metrajli filmlardan foydalanish tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Audiovizual materiallar o'z-o'zidan samarali natija bermaydi, balki ular maqsadga yo'naltirilgan metodik faoliyat bilan uyg'unlashgandagina didaktik ahamiyat kasb etadi [11]. Shu sababli qisqa metrajli filmlar asosida tashkil etilgan darslar aniq metodik bosqichlar asosida rejalashtirilishi lozim. Metodik jihatdan film bilan ishlash jarayonini uch asosiy bosqichga ajratish mumkin: filmni tomosha qilishdan oldingi tayyorgarlik bosqichi, tomosha jarayoni va tomoshadan keyingi mustahkamlash bosqichi. Ushbu ketma-ketlik talabalarning til materialini ongli va faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi [10].

Filmni tomosha qilishdan oldingi bosqichda talabalarning e'tiborini mavzuga yo'naltirish va til materialiga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bu bosqichda asosiy leksik birliklar bilan tanishtirish, film mavzusini taxmin qilish, sarlavha yoki ayrim kadrlar asosida muhokama tashkil etish mumkin. Ushbu faoliyat talabalarning oldindan bilimi va tajribasini faollashtirib, keyingi bosqichda eshitib tushunishni osonlashtiradi.

Tomosha jarayonida talabalar passiv kuzatuvchi bo'lib qolmasligi lozim. Filmni ko'rish davomida ularga aniq vazifalar berilishi dars samaradorligini oshiradi. Masalan, asosiy g'oyani aniqlash, muayyan dialoglarni tushunish, personajlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish kabi topshiriqlar talabalarning diqqatini jamlashga yordam beradi. Zarur hollarda filmni qismlarga bo'lib namoyish etish va muhokama qilish ham maqsadga muvofiqdir.

Tomoshadan keyingi bosqich til materialini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu bosqichda film asosida og'zaki va yozma mashqlar bajariladi, dialoglar qayta tiklanadi, rolli o'yinlar tashkil etiladi. Talabalar film syujeti asosida fikr bildirish, bahs-munozara yuritish yoki qisqa yozma matn tuzish orqali til birliklaridan faol foydalanishni o'rganadilar. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Qisqa metrajli filmlar bilan ishlash jarayonida qo'shiqlar va kinolavhalardan ham qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin. Qo'shiqlar tilning ritmik va intonatsion xususiyatlarini o'zlashtirishda, kinolavhalar esa muayyan kommunikativ vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Turli turdagi audiovizual materiallarning uyg'unligi dars jarayonini yanada boyitadi va talabalarning qiziqishini oshiradi.

Mazkur maqola kichik bir tadqiqotning natijalari asosida yozildi. Tadqiqot doirasida ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda qisqa metrajli filmlar, kinolavhalar va qo'shiqlardan foydalanish bo'yicha amaliy tajriba olib borildi. Tajriba oliy ta'lim muassasasida ispan tilini o'rganayotgan, ona tili o'zbek va rus tili bo'lgan 2-, 3-bosqich talabalari bilan bir semestr davomida amalga oshirildi. Mashg'ulotlar kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilib, audiovizual materiallar darsning muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llanildi.

Dars jarayonida qisqa metrajli filmlar tanlashda ularning davomiyligi, til darajasi va mavzularining talabalarga mosligi inobatga olindi. Asosan kundalik hayot, ijtimoiy munosabatlar va shaxslararo muloqotga oid syujetlarga ega filmlar tanlandi. Har bir film asosida tomosha qilishdan oldingi tayyorgarlik, tomosha jarayonidagi topshiriqlar va tomoshadan keyingi mustahkamlash mashqlari tizimli ravishda amalga oshirildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, audiovizual materiallardan muntazam foydalanish talabalarning eshitib tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Talabalar tabiiy nutq tezligiga moslashib, dialoglarni umumiy mazmuni asosida anglashga o'rgandilar. Shu bilan birga, og'zaki nutq faolligi ham oshdi: muhokamalar, rolli o'yinlar va film sujeti asosida

olib borilgan bahslar talabalarning ispan tilida erkinroq fikr bildirishiga imkon yaratdi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida ona tilining ta'siri bilan bog'liq xatolar ham kuzatildi. Biroq film kontekstida grammatik birliklarni tahlil qilish va qayta qo'llash ushbu xatolarni kamaytirishga yordam berdi. Ayniqsa, artikllar, fe'l zamonlari va nutqiy qoliqlarning to'g'ri qo'llanishida ijobiy siljishlar qayd etildi. Talabalar til birliklarini alohida qoida sifatida emas, balki muayyan vaziyat bilan bog'liq holda qabul qila boshladilar. Shuningdek, audiovizual materiallar talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Film va qo'shiqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy darslarga nisbatan faolroq muhitni yuzaga keltirdi. Talabalar dars jarayonida o'z fikrini bildirishga, savol berishga va mustaqil xulosalar chiqarishga ko'proq intildilar. Bu holat til o'rganish jarayonida motivatsiyaning oshganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, olib borilgan amaliy tajriba qisqa metrajli filmlar va boshqa audiovizual materiallardan foydalanish ispan tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda samarali metodik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish bilan birga, talabalarning madaniy va kommunikativ kompetensiyasini ham shakllantirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harmer J. How to teach English? – London: Pearson Education, 2007.
2. Littlewood W. The task-based approach: Some questions and suggestions. *ELT Journal*, 2004, 58(4). – P. 319–326.
3. Mayer R.E. Multimedia learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
4. Odlin T. Language transfer: Cross-linguistic influence in language learning. – Cambridge: University Press, 1989.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching. – Cambridge: University Press, 2014.
6. Sadinova M. Magistratura bosqichida kognitiv lingvistikani o'qitish: maqsadlar, yondashuvlar va tajribalar. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2025, 4(12). – P. 57–60.
7. Sagdullaeva S.D. Teaching A Foreign Language Through Short Films. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2023, 4(6). – P. 42–44.
8. Sherman J. Using authentic video in the language classroom. – Cambridge: University Press, 2003.
9. Салахова Д.С. Использование образной наглядности для обучения письменной речи на уроке иностранного языка // *Интернаука*, 2020, №3 (71).
10. Салахова Д.С., Хименез Л.Э. Роль СМИ в формировании языковой среды: влияние испаноязычных медиа на изучение испанского языка в Узбекистане // *Проблемы педагогики*, 2025, №2 (71).
11. Хайдарова Д.З. Использование визуальных средств для развития языковых навыков // *Молодой ученый*, 2018, №18.

Dilnoza XAMROYEVA,

Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

SARGUZASHT ASARLARNI O'QITISHDA SARLAVHA VA NOMLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sarguzasht asarlarni o'qitishda sarlavha va bob nomlarining badiiy hamda pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" asari misolida sarlavhaning o'quvchini asar mazmuniga jalb etish, sujet rivojini yo'naltirish hamda g'oyaviy-badiiy qatlamlarni ochib berishdagi funksiyalari yoritildi. Asar sarlavhasi va bob nomlarining ramziy, hajviy, fantastik va sarguzasht ruhidagi xususiyatlari aniqlanib, ularning ta'lim jarayonida o'quvchilarning tahlil fikrlashi, badiiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: sarguzasht adabiyot, badiiy sarlavha, bob nomlari, ramziylik, fantastik unsurlar, hajv va kinoya, pedagogik tahlil, badiiy tafakkur, estetik tarbiya.

Annotation. This article analyzes the artistic and pedagogical significance of titles and chapter headings in teaching adventure stories. Specifically, using Khudoyberdi Tukhtaboev's work "The Land of Sweet Melons or the Battle of Wizards" as an example, it highlights the functions of the title in engaging readers with the content, guiding plot development, and revealing ideological and artistic layers. The symbolic, satirical, fantastic, and adventurous features of the work's title and chapter headings are identified, and their pedagogical potential in developing students' analytical thinking, artistic perception, and aesthetic taste within the educational process is scientifically substantiated.

Keywords: adventure literature, artistic title, chapter headings, symbolism, fantastic elements, satire and irony, pedagogical analysis, artistic perception, aesthetic education.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное и педагогическое значение заголовков и названий глав в преподавании приключенческих произведений. В частности, на примере произведения Худойберди Тухтабоева «Страна сладких дынь или битва волшебников» освещаются функции заглавия в привлечении читателя к содержанию произведения, направлении развития сюжета

и раскрытии идейно-художественных пластов. Выявлены символические, юмористические, фантастические и приключенческие особенности названия произведения и глав, научно обоснованы их педагогические возможности в развитии аналитического мышления, художественного восприятия и эстетического вкуса учащихся в образовательном процессе.

Ключевые слова: приключенческая литература, художественное заглавие, названия глав, символизм, фантастические элементы, юмор и ирония, педагогический анализ, художественное мышление, эстетическое воспитание.

Badiiy asarning sarlavhasi uning mazmuni va asosiy g'oyasini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa sarguzasht janridagi asarlarda sarlavha nafaqat nom, balki o'quvchini o'ziga jalb qiluvchi va asarning sirlari, dinamik ruhiyatini his etishga undovchi dastlabki unsurlardan biridir. Rus adabiyotshunosi A.Vulis sarguzasht romanlarda sarlavhadan tortib xotimagacha har bir detall ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi: "Sarguzasht asarning bo'limlari ko'pincha o'quvchi e'tiborini jalb qiladigan qiziqarli sarlavhalarga ega bo'ladi. Ular go'yo tashqi reklama, asarning sirlari ularga yashirib qo'yilgan, biz ularni topishimiz kerakday taassurot qoldiradi" [1: 10]. Sarlavha asarning ichki mazmunini ochib beruvchi, badiiy qirralarni ko'rsatib beruvchi ilk ochqich sifatida namoyon bo'ladi.

"Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" romanida xayoliy ramziy makon va uning tanazzulga yuz tutmasligi uchun bo'lgan kurash aks etadi. Badiiy adabiyotda va xalq og'zaki ijodida qovun qishloq hayotining ramzi sifatida qo'llanadi. Bu so'z zamirida mo'l-ko'llik, soddalik va halollik yotadi. "Shirin" so'zi orqali bu mamlakat halol va mehr-oqibatli odamlar yashaydigan joy ekanligi ko'rsatiladi. Voqealar rivojida shunday halol mamlakatda talotumlarga sabab bo'lgan sehrgar Iblis bilan omonsiz olishuv boshlanib ketadi. "Sehrgarlar jangi" – qovun mamlakatidagi osoyishta hayotning buzilishiga ishora qiladi. Muallif X.To'xtaboyev adabiyotshunos U.Normatov bilan suhbatda bu borada quyidagicha fikr bildiradi: "Bu asarning nomini "Sarqitlar qabristoni" deb ataymanmi yoki "Sehrgarlar jangi" deb atagan ma'qulmi, hozircha bir narsa deyolmayman. Lekin o'sha sarqitlar botqog'iga botgan shaxslarni shunaqangi bir kulgili va ayanchli ahvolda tasvirlashni niyat qilib qo'ydimki, ular o'zidan o'zi uyalib, qochgani joy topolmay qolsin" [2: 54]. Sarqitlar qabristoni roman davomida yomon illatli insonlarning qoni saqlanadigan joyga nisbatan ishlatiladi. Bu yer orqali ma'naviy tanazzul, axloqiy tubanlik va jamiyatdagi yomon odatlarning ildiz otishi ifodalanadi. X.To'xtaboyev "Sarqitlar qabristoni" sarlavhasini tanlamagani tasodifiy emas. "Sehrgarlar jangi" sarguzasht adabiyotining o'quvchini qiziqtirishga qaratilgan dinamik xarakterini saqlab qolgan [4: 98]. Fantastik sarguzashtlarning muhim elementi sehrgarlik unsuridan foydalanish orqali yozuvchi kitobxonni sirlari olamga olib kiradi. Halollik va ezgulik tamoyillari asosida qurilgan jamiyatga zid ravishda "jang" so'zining sarlavhaga chiqarilishi ziddiyatni kuchaytiradi. Kitobda sehrgar Iblisning ta'siri sababli mamlakat tanazzul yoqasiga kelib qoladi. "Sehrgar" Akbar Akbariy o'z iste'dodi, sehrlil qalpoqchasi hamda mehnati bilan kurashga o'tlanadi. Bu ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi odatiy kurashning xayoliy makondagi ifodasi bo'lib, ko'plab sarguzasht romanlarida uchraydi. Sarlavhadagi ziddiyat kitobxonni o'ziga jalb qiladi va bu orqali sarguzasht ruhi kuchayadi, chunki halollik va ideallik hukm surgan jamiyat barqaror qoladimi yoki yo'qmi – bu masala butun asar davomida asosiy e'tibor markazida bo'ladi. "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" sarlavhasi sarguzasht adabiyotining asosiy tamoyillaridan biri – tinch hayotni buzuvchi tashqi kuchlar bilan kurash motivini aniq aks ettiradi. Sarlavha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi olishuvni tasvirlab beradigan sarguzasht yo'nalishiga mosdir. Sarlavhalarning barchasi chuqur ramziy ma'nolarni o'z ichiga oladi, o'quvchini o'ziga jalb qiladi va asarning mavzu hamda

asosiy g'oyasini yoritadi. Badiiy adabiyotda sarlavhaning jozibali, sirlil va fikr uyg'otuvchi bo'lishi kitobxonning e'tiborini tortish hamda uni asar mohiyatiga yo'naltirish uchun muhim vosita ekanligi isbotlanadi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" asarida real voqelik bilan fantastik unsurlar, ijtimoiy hajv va kulgili sarguzashtlar birlashadi. Asar bob sarlavhalari hazil-mutoyiba, sarguzasht va ijtimoiy tanqid ruhida tanlangan bo'lib, syujet rivojiga muhim ishora qiladi. Sarlavhalarni quyidagicha tasniflash mumkin deya hisoblaymiz:

Kulgi va hajv elementi bor sarlavhalar – "Eshak – Jiguli emas", "Maqtanchoqning qonida mag'zavaning hidi bor";

Fantastik va sehrlil unsurlar bor sarlavhalar – "Shisha ichidagi jinlar", "Sehrgar iblisning dunyoga kelishi", "Umrni uzaytiradigan institut";

Jamiyatga hajviy nigoh – "Adolatli konkurslar", "Ig'vo og'usi", "Sobiq ig'vogarlar qasami", "Tuhmat";

Sarguzasht va keskin burilishlar – "Sevgilimni kim o'g'irladi", "Xiyobonda mushtlashuv", "Iblis qo'lga tushdi";

Ichki kechinmalar – "Men Akbar qovunchi bo'laman", "Onajonim bag'rida erib ketdim".

"Men Akbar qovunchi bo'laman" bobida asar bosh qahramoni o'zini kitobxoniga tanishtirib, fe'l-atvori, ajabto'vur fazilatlarini-yu nuqsonlarini haqida so'zlaydi. "Qovunchi" so'zi matnda ikki ma'noda qo'llangan yozuvchi mahoratidan darak beradi: birinchisi, o'zbek xalq iboralaridagi "qovun tushirmoq" dagi qovundir, ikkinchisi esa qovunni jon dildan sevuvchi, uning urug'larini so'ymasdan turib ham adashmay sanay oladigan qobiliyat egasi ma'nosini bildiradi. Shu o'rinda sarlavhada anglashilgan ikki ma'no ham intrigani oshirib, sarguzasht uchun muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi kitobxonni qovunchilik nomi bilan yana-da qiziqarli voqealarga tayyorlaydi. Bosh qahramon Akbariy qovun mamlakatiga sayohat qiladi.

Jamiyat va oila tomonidan qahramon oldiga qo'yiladigan cheklovlar, axloqiy normalar "Oyijonim burnimni kesib tashlamoqchi bo'lgani" [3: 13] nomi tarzida ifodalanadi. Bu jarayonda sarguzashtning keskinligi oshadi. Akbarning eng muhim fazilati burnini bob sarlavhasiga chiqarish orqali o'quvchi e'tibori syujetga to'liq qaratiladi. Kelajakda bosh qahramonning burni oqibatida mashhurlikka erishishi va qahramonliklar ko'rsatishiga ishora qilinadi. Asar davomida qahramonning asosiy raqibi yoki yovuz kuchning paydo bo'lishi sarguzashtlarga xos xususiyatdir. "Sehrgar Iblisning dunyoga kelishi" nomi qahramon real hayotida yuz bergan voqealar o'z aksini topgan "Shisha ichidagi jinlar" sarlavhasiga o'xshashdir. Ikkala nomda ham sehrlil, fantastik kuch tasvirlanadi. Iblisning asosini shishalar ya'ni aroq tashkil etadi. Asarda Iblis obrazi real hayotdagi muayyan illatlarning timsoli sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, aroq va boshqa spirtli ichimliklar inson ruhiyatiga qanday ta'sir etishi muhim masala sifatida ko'tariladi. Yozuvchi ichkilik inson tanasiga "jin" kabi kirib olib, uni boshqarishini va yo'ldan ozdirishini ta'kidlaydi. Bu holat inson ongi va irodasini zaiflashtirib, uni yovuzlik va axloqiy tubanlik botqog'iga tortadi. Ichkilikbozlik oqibatida insoniyat hayotidagi ko'plab halokatli hodisalar yuzaga keladi, shaxsiy va ijtimoiy muammolar chuqurlashadi. Shuningdek, iblis – insoniy illatlar va yovuzlikning ramziy ifodasidir. U insonni

vasvasaga solib, uni yomon yo'lga boshlaydi, axloqiy tubanlik va halokat sari yetaklaydi.

Ba'zi bob nomlarida kinoya va hajv ustunlik qiladi. "Adolatli konkurslar" sarlavhasi – jamiyatda imtihonlarning holatiga ishora qiladi va muammoga hammaning e'tiborini qaratadi. Imtihon va tanlovlarda adolatning buzilish holatlari ko'p uchraydi. Bob sarlavhasi aynan shu nohaqliklarga ishora qilgan holda, haqiqatda mavjud bo'lmagan "adolat"ni hajv qiladi. Bu orqali yozuvchi konkurs va imtihon tizimidagi korrupsiya, poraxo'rlik va g'irromlikni tanqid ostiga oladi. Jamiyatdagi yolg'on, ig'vo va ayyorliklar bilan bog'liq holatlar "Ig'vo og'usi", "Sobiq ig'vog'arlar qasami" boblari orqali hajviy va kinoyaviy usulda ochib beriladi. Ig'vo jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi, kishilar orasidagi ishonchni buzuvchi xavfli qurol ekanligi ifodalanadi.

Sarguzashtning yangi bosqichi sifatida "Sevgilimni kim o'g'irladi" bobini ko'rsatish mumkin. Qahramon hayotidagi sevgi va yo'qotish motivlari sarguzashtda keskin burilish yasaydi. Asardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar "Xiyobonda mushtlashuv", "Jazo", "Tuhmat" nomlari orqali ifodalanadi. "Esiz, esiz quloqlar" – hajviy mazmundagi metaforik sarlavha. Asarda molparastlik va nafs oqibatida quloqlarning yo'q bo'lib qolishi tasvirlansa, aslida bu jamiyatda odamlarning asl haqiqatni eshitmasligi va eshitishni istamasligi haqidagi istehzodir. "Iblis qo'lga tushdi" sarlavhasida asarda yovuzlikka qarshi kurashning oxirgi bosqichi tasvirlanadi va bu o'quvchi e'tiborini bir maromda ushlab turadi. Chunki yovuz qahramonning mag'lubiyati sarguzasht asarlarning kulminatsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Asarning yakuniy emotsional nuqtasi, qahramonning ichki kechinmalari, o'zining haqiqiy mohiyatini anglash – "Onajonim

bag'rida erib ketdim" sarlavhasi orqali ko'rsatiladi. Bob nomlarida asarning hajviy va sarguzasht ruhi ochib berilgan bo'lib, sehr, sarguzasht, fantastika unsurlarining uyg'unligi mavjud. Qahramonning ruhiy kamoloti bosqichma-bosqich ochilib boradi – oddiy bola sarguzashtlarni boshidan o'tkazib, katta tajriba orttiradi, sehriga Iblis bilan jang qiladi, asar bosh qahramoni sarlavhalar orqali asardagi asosiy mavzular (adolat, tuhmat, sevgini qidirish, shaxsiy kamolot) aks ettiriladi. Bu boblar orqali asarda nafaqat sarguzashtlilik, balki jamiyatning kulgili, ammo jiddiy muammolarini ochib beruvchi fantastik-hajviylik ham ko'rinadi.

Sarguzasht asarlarni o'qitishda sarlavha va bob nomlari badiiy mazmunni anglash, syujet rivojini kuzatish hamda g'oyaviy qatlamlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sarlavha o'quvchini asarga jalb qiluvchi dastlabki estetik va semantik signal bo'lib, u orqali asardagi asosiy ziddiyat, mavzu va muammolar oldindan sezdiriladi. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" asari misolida ko'rish mumkinki, sarlavha va bob nomlari ramziy, hajviy, fantastik va sarguzasht ruhda tanlanib, o'quvchi tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Asar bob sarlavhalarining mazmun bilan uzviy bog'liqligi o'quvchilarda tahliliy fikrlash, badiiy tafakkur va estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, axloqiy qadriyatlar, ezigulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash pedagogik jihatdan samarali ochib beriladi. Demak, sarguzasht asarlarni o'qitish jarayonida sarlavha va nomlarga alohida e'tibor qaratish, ularni tahlil qilish o'quvchilarning adabiy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning ma'naviy-estetik tarbiyasini rivojlantirishda ham muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вулис А. В мире приключений. Поэтика жанра. – Москва: Советский писатель, 1986. – 384 с.
2. Normatov U. Sarguzasht tashvishlari (maqola). – Toshkent, 1977..
3. To'xtaboyev X. Shirin qovunlar mamlakati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 332 b.
4. Lutfullayev J. O'zbek bolalar adabiyoti romanchigining taraqqiyot tamoyillari va Xudoyberdi To'xtaboyev ijodi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. dis... – Jizzax, 2022.

Dildora USAROVA,

*Toshkent davlat yuridik universiteti xorijiy tillar kafedrasida dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TALABALARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING INNOVATSION MODELLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. SI asosida ishlovchi raqamli platformalar, nutqni avtomatik tahlil qilish vositalari, adaptiv o'qitish tizimlari va virtual muloqot muhiti orqali talabalarining og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini boshqarish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, SI texnologiyalarining kommunikativ, pragmatik va sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda izohlanadi. Maqola natijalari til ta'limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o'quv jarayonini shaxsiylashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, kommunikativ kompetensiya, avtomatik baholash, til texnologiyalari.

Annotation. This article highlights the theoretical and practical aspects of using artificial intelligence technologies in the process of developing students' speech competence in higher educational institutions. The possibilities of managing students' oral and written speech competence through digital platforms based on AI, automatic speech analysis tools, adaptive learning systems, and a virtual communication environment are analyzed. Also, the role of SI technologies in the formation of communicative, pragmatic, and sociolinguistic competencies is explained on a scientific basis. The results of the article have important scientific and practical significance in the introduction of innovative approaches in language education and the personalization of the educational process.

Keywords: speech competence, artificial intelligence, digital education, adaptive learning, communicative competence, automatic assessment, language technologies.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты использования технологий искусственного интеллекта в процессе развития речевой компетенции студентов в высших учебных заведениях. Проанализированы возможности управления устной и письменной речевой компетенцией студентов посредством цифровых платформ, работающих на основе ИИ, средств автоматического анализа речи, адаптивных систем обучения и виртуальной коммуникативной среды. Также на научной

основе объясняется роль технологий ИИ в формировании коммуникативных, прагматических и социолингвистических компетенций. Результаты статьи имеют важное научно-практическое значение для внедрения инновационных подходов в языковом образовании и персонализации учебного процесса.

Ключевые слова: речевая компетенция, искусственный интеллект, цифровое образование, адаптивное обучение, коммуникативная компетенция, автоматическая оценка, языковые технологии.

Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki nutqiy kompetensiya shaxsning ta'limlarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi va uning kasbiy hamda ijtimoiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1: 45].

Til o'qitishning an'anaviy metodlari ko'proq grammatik bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarni erkin va ravon muloqotga tayyorlashda yetarli darajada samarali bo'lmasligi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda [2: 18]. Biroq ushbu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda individual yondashuv, monitoring va baholash bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Mazkur muammolarni hal etishda so'nggi yillarda ta'lim sohasiga jadal kirib kelayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Slasosidagi raqamli platformalar, nutqni avtomatik tanish va tahlil qilish tizimlari, adaptiv o'qitish modullari ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqimoqda [3: 62]. Shu bois ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va boshqarishdagi o'zni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Nutqiy kompetensiya tushunchasi lingvistika va pedagogika fanlarida keng tadqiq qilingan bo'lib, u shaxsning muayyan til vositalaridan foydalanib, turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. Hymes D. tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilangina cheklanmaydi, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi [1: 56].

Zamonaviy ilmiy qarashlarga muvofiq, nutqiy kompetensiya bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topadi. Jumladan, lingvistik kompetensiya grammatik, leksik va fonetik bilimlarni qamrab oladi va ta'lim tizimining asosiy qoidalarni egallashni ta'minlaydi. Pragmatik kompetensiya nutqning maqsadga yo'naltirilganligi, ya'ni muayyan kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qilishini ifodalaydi. Sotsiolingvistik kompetensiya nutqning ijtimoiy va madaniy me'yorlarga mosligini ta'minlab, kommunikativ vaziyatda kontekstni hisobga olishni talab etadi. Diskursiv kompetensiya esa nutqning mantiqiy izchilligi va bog'langanligini shakllantirishga xizmat qiladi [2: 41]. Mazkur komponentlarni samarali rivojlantirish zamonaviy texnologik yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, real vaqt rejimida nutqni tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'lgan sun'iy intellekt tizimlari nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda [3: 77].

Sun'iy intellekt inson intellektiga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtira oladigan texnologiyalar majmuasidir. So'nggi yillarda Slasosidagi ta'lim texnologiyalari, xususan nutqni tanish (speech recognition), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), avtomatik tarjima va matn generatsiyasi ta'lim sohasida keng qo'llanilmoqda [4: 93]. Bu texnologiyalar ta'lim o'rganish jarayonini yanada interaktiv va moslashuvchan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda.

Til ta'limida Sitexnologiyalarining joriy etilishi, avvalo, talabalar nutqini avtomatik tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, og'zaki nutqdagi fonetik xatolar, grammatik kamchiliklar va nutq tezligi sun'iy intellekt tizimlari orqali aniqlanadi va darhol teskari aloqa beriladi [5: 112]. Bu esa o'qituvchiga har bir talabani nutqiy rivojlanish darajasini obyektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, SI tizimlari xatolarni aniqlash bilan birga, individual tavsiyalar berish funksiyasiga ham ega. Talabani nutqida ko'p uchraydigan xatolar asosida unga mos mashqlar va topshiriqlar avtomatik tarzda taklif etiladi. Natijada o'quv jarayoni shaxsiylashtiriladi va talabani ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi [4: 128].

Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish modellarida talabani bilim darajasi, o'zlashtirish tezligi va nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari doimiy monitoring qilinadi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'quv materiallari avtomatik ravishda moslashtiriladi. Bunday yondashuv nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [2: 89]. "SI asosida yaratilgan virtual muloqot muhiti ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chatbotlar va virtual suhbatdoshlar yordamida talabalar real muloqotga yaqin sharoitda nutqiy mashqlar bajaradilar. Bu esa ularning kommunikativ ishonchini oshiradi va muloqot jarayonida faol ishtirok etishga undaydi" [5: 136].

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, Sitexnologiyalaridan foydalanish talabalar nutqidagi xatolarni kamaytiradi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'qituvchi bilan interaktivlikni kuchaytiradi. Talabalar o'z nutqiy rivojlanishini aniq statistik ko'rsatkichlar asosida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar [3: 101].

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va boshqarish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy ta'limining muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Slasosidagi yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, uni shaxsiylashtirish, obyektiv baholash va uzluksiz monitoring qilish imkoniyatlarini ham yaratadi [4: 157].

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yanada mukammal didaktik modellarni ishlab chiqish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish ta'limining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Sitexnologiyalarini zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes D. On Communicative Competence. – Pennsylvania: University of Pennsylvania Press, 1972.
2. Ellis R. Task-Based Language Teaching. – Oxford: University Press, 2003.
3. Warschauer M. Technology and Language Learning. – Oxford: University Press, 2010.
4. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence. – London: UCL Press, 2018.
5. Godwin-Jones R. Emerging Technologies: Sland Language Learning // Language Learning & Technology, 2021.

Mushtariybonu XUJAXONOVA,

Turon universiteti xorijiy tillar kafedrasida stajyor o'qituvchisi

QIYOSIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALAR KASBIY LEKSIKONINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (tibbiyot yo'nalishi talabalariga rus tilini o'qitish misolida)

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga rus tilini o'qitishda qiyosiy yondashuv asosida kasbiy leksikonni shakllantirish metodikasi tahlil qilingan. Rus va o'zbek tillaridagi tibbiyotga oid terminologiyaning semantik va morfologik o'xshashliklari, xususan, lotin-yunon ildizlariga asoslangan xalqaro terminlarning o'rni yoritilgan. Kasbiy kompetensiyani oshirish uchun bosqichma-bosqich metodik algoritim va klinik vaziyatli o'qitish modellari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy yondashuv, tibbiy terminologiya, kasbiy leksika, rus tili o'qitish, lingvodidaktika, professional kompetensiya.

Annotation. The article analyzes the methodology for forming professional vocabulary based on a comparative approach in teaching Russian to students of medical universities. Semantic and morphological similarities of medical terminology in the Russian and Uzbek languages are highlighted, in particular, the role of international terms based on Latin-Greek roots. A step-by-step methodological algorithm and clinical-situational training models for improving professional competence are proposed.

Keywords: comparative approach, medical terminology, professional lexicon, teaching Russian, linguodidactics, professional competence.

Аннотация. В статье анализируется методика формирования профессионального лексикона на основе сравнительного подхода при обучении русскому языку студентов медицинских вузов. Освещены семантические и морфологические сходства медицинской терминологии в русском и узбекском языках, в частности, роль международных терминов, основанных на латинско-греческих корнях. Для повышения профессиональной компетентности предложены поэтапный методический алгоритм и клинико-ситуационные модели обучения.

Ключевые слова: сопоставительный подход, медицинская терминология, профессиональная лексика, обучение русскому языку, лингводидактика, профессиональная компетенция.

Zamonaviy tibbiy ta'limda rus tili O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlarida muhim o'rin tutadi. Ko'plab ilmiy adabiyotlar, darsliklar va klinik protokollar rus tilida. Tadqiqotchi R.M.Abdullayeva ta'kidlaganidek, "tibbiyot talabalariga rus tili terminologiyasini o'rgatish nafaqat til o'rganish, balki bo'lajak shifokorning professional dunyoqarashini shakllantirish bosqichidir" [1: 45]. Shu bilan birga, rus tilidagi tibbiy terminologiyaning katta qismi (taxminan 75–85%) lotin va yunon ildizlariga asoslangani o'zbek tilida o'qiyotgan talabalar uchun alohida didaktik qulaylik yaratadi, chunki bu ildizlar xalqaro tibbiyot terminologiyasining asosini tashkil etadi va o'zbek tiliga ham oson integratsiya qilinadi [9: 112–115].

O'zbek tili muhitida talabalar uchun rus tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati lotin-yunon ildiziga ega ekanligi katta didaktik imkoniyat yaratadi. U.I.Tursunov o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo sharoitida terminologiya o'qitishning o'ziga xosligini tahlil qilib, qiyosiy metodning samaradorligini asoslagan [9: 128]. Ushbu metod rus, o'zbek va lotin tillari o'rtasidagi morfologik va semantik o'xshashliklardan samarali foydalanish imkonini beradi, natijada talabalar terminlarni chuqur tushunib, uzoq muddatli xotirada saqlay oladilar. Shuningdek, rus tilidagi tibbiy adabiyotlarning katta qismi hali to'liq o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi sababli, rus tilini professional darajada bilish talabalar va yosh shifokorlarning ilmiy va amaliy salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda [1: 67–68].

Yuqoridagi fikrlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida rus tilini o'qitishni kuchaytirish va zamonaviy interaktiv metodlardan (masalan, qiyosiy terminologik jadvallar, korpus lingvistikasi asosidagi mashqlar, klinik case-study'lar bilan integratsiyalashgan darsliklar) foydalanish orqali talabalarning professional kompetensiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa oxir-oqibat mamlakat sog'liqni saqlash tizimida yuqori malakali, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi [9: 145].

Tibbiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy leksikonini shakllantirishda terminologik tizimning genezisi va strukturaviy xususiyatlarini tushunish markaziy o'rin tutadi. Tibbiy terminologiyaning asosiy qismi xalqaro fondga (grek va lotin qatlamiga) mansub bo'lib, bu rus va o'zbek tillari o'rtasida o'ziga xos "terminologik ko'priklarni" vazifasini o'taydi. Tadqiqotchi

M.K.Maseyeva o'zining qiyosiy tahlillarida ta'kidlaganidek, "rus va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologik tizim umumiy semantik maydonga ega ekanligi, talabalarda lingvistik interferensiyani (bir tilning ikkinchisiga salbiy ta'sirini) kamaytirishga va o'zlashtirish tezligini oshirishga xizmat qiladi" [7: 42]. Ushbu semantik yaqinlik talabalarga yangi leksikani "notanish ob'ekt" sifatida emas, balki "tanish tushunchaning yangi shakli" sifatida qabul qilish imkonini beradi. Masalan, xalqaro terminlarning o'zbek va rus tillaridagi fonetik-morfologik o'xshashligi quyidagicha namoyon bo'ladi: gipertoniya (yunoncha *hyper* – yuqori, *tonos* – kuchlanish); miokard infarkti (lotincha *infarcire* – to'ldirish, miokard – yurak mushagi); regeneratsiya (lotincha *regeneratio* – qayta tiklanish).

N.Qurbonovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminlarni o'zbek tiliga o'g'irishda va o'qitishda funktsional-semantik yondashuv o'ta muhimdir. Uning fikricha, "terminning aniqligi uning qaysi tilda ifodalanishida emas, balki professional kontekstda o'z funksiyasini saqlab qolishidir; qiyosiy metod esa talabaga terminning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi" [10: 115]. Tibbiyot talabalariga rus tilini o'qitishda qiyosiy yondashuv faqatgina terminlarni tarjima qilish bilan cheklanmaydi. Bu metod talabaning kognitiv qobiliyatini rivojlantirib, unda "kasbiy til filtri"ni shakllantiradi. U.I.Tursunov qayd etganidek, "talaba ikki tildagi o'xshashliklarni tahlil qilish jarayonida terminning etimologiyasini (kelib chiqishini) o'rganadi, bu esa tibbiy tushunchalarning xotirada uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi" [9: 67]. Shunday qilib, qiyosiy yondashuv nafaqat leksik zaxirani boyitadi, balki bo'lajak shifokorning ilmiy-nazariy nutq madaniyatini ham yuksaltiradi.

Tibbiyot yo'nalishi talabalariga rus tilini o'qitishda asosiy to'siqlardan biri – rus tilining boy derivatsion (so'z yasash) imkoniyatlari va o'zbek tili grammatik strukturasi o'rtasidagi tafovutlardir. Rus tilidagi tibbiy terminlar ko'pincha qisqa affiksalar yordamida murakkab patologik jarayonlarni ifodalaydi. D.A.Safarova tibbiyotdagi parallelizmlarni o'rganar ekan, rus tilidagi affiksatsiya tizimini o'zbek tilidagi tavsifiy birikmalar bilan qiyoslashni metodik jihatdan o'ta samarali deb hisoblaydi [8: 38]. Masalan, rus tilidagi *-um* suffiksi tibbiyotda yallig'lanish jarayonini bildiradi. O'zbek tilida bu tushuncha ko'pincha tushuntirish yoki tavsiflash orqali ifodalanadi:

gastrit (o'zbek tilidagi klinik izohi: *me'da shilliq qavatining yallig'lanishi*); stomatit (og'iz bo'shlig'i yallig'lanishi).

Shuningdek, o'quv jarayonida "tilning soxta do'stlari" (interferensiya) va kalsiyalarga (so'zma-so'z tarjima) alohida e'tibor berish lozim. Ba'zan talabalar rus tilidagi terminni o'zbek tiliga noto'g'ri kalka qilishadi, bu esa klinik xatolarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rus va o'zbek tillari o'rtasidagi noto'g'ri kalsiyalar professional muloqotda 15–20% holatlarda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi [2: 74]. Ayniqsa, kundalik ma'nodagi so'zlarning tibbiy matndagi maxsus ma'nolari (masalan, "перелом" – nafaqat sinish, balki kasallik kechishidagi keskin o'zgarish ma'nosida) talabdan chuqur leksik tahlilni talab etadi. Talabalar kasbiy leksikonini shakllantirish shunchaki so'z yodlash emas, balki tizimli bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu metodikani ishlab chiqishda E.G.Azimov va A.N.Shchukinlar tomonidan taklif etilgan lingvodidaktik tamoyillarga tayaniladi [3: 142]. Ularning fikricha, til o'rganuvchi avval tushunchani idrok etishi, so'ngra uni nutqiy vaziyatga tatbiq qilishi kerak.

Metodik tizim quyidagi algoritmi o'z ichiga oladi: 1. Xalqaro terminlar bazasini mustahkamlash. Bu bosqichda talaba rus va o'zbek tillarida bir xil jaranglaydigan lotin-yunon qatlamini o'zlashtiradi. Bu talabada "men buni bilaman" degan psixologik ishonchni uyg'otadi. 2. Affiksalar tizimini qiyosiy o'rganish. Rus tilidagi prefiks va suffikslarning ma'no guruhlari (masalan, *гипер-* – ko'p, *гипо-* – kam) o'zbek tilidagi muqobillari bilan jadval asosida taqqoslanadi. 3. Klinik frazeologiya bilan ishlash: Talaba tayyor klinik qoliplarni o'rganadi. Masalan, «**жалобы пациента**» (bemorning shikoyatlari) birikmasini o'rganishda talaba uni nafaqat tarjima qilishi, balki "bemor-shifokor" muloqoti shaklidagi rol o'yinlarida faol qo'llay olishi zarur [6: 25]. 4. Vaziyatga asoslangan o'qitish (Case-study): Haqiqiy kasallik tarixidan olingan ruscha matnlar ustida ishlash. Bu bosqichda talaba o'rgangan leksikasi yordamida tashxis qo'yish va davolash rejasini rus tilida bayon qilishga o'rgatiladi. Ushbu bosqichma-bosqich yondashuv talabaning kasbiy muloqot kompetensiyasini bosqichma-bosqich oshirib, uni mustaqil klinik faoliyatga tayyorlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar va metodik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot yo'nalishi talabalariga rus tilini

o'qitishda qiyosiy yondashuv shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta'lim samaradorligini kafolatlovchi strategik yo'nalishdir. Ushbu yondashuv talabalarining til o'rganish jarayonida duch keladigan psixologik to'siqlarini, xususan, "notanish terminologiya oldidagi qo'rquv"ni sezilarli darajada kamaytiradi. Talaba o'z ona tilidagi tibbiy tushuncha va rus tilidagi termin o'rtasidagi semantik bog'liqlikni anglagan tahrirda, tilni o'zlashtirish jarayoni mexanik yodlashdan ongli mantiqiy tahlilga aylanadi.

E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov lingvomadaniy nazariyalarida shunday ta'rif keltiradi: "Til va madaniyat uzviy va o'zaro bog'liq hodisalardir; kasbiy leksikani chuqur o'rganish talabani shunchaki so'zlar olamiga emas, balki o'sha til sohiblarining professional madaniyati, etikasi va klinik tafakkur tarziga olib kiradi" [5: 215]. Bu ayniqsa tibbiyot sohasida muhim, chunki rus tili orqali talaba MDH davlatlari va xalqaro miqyosdagi ulkan ilmiy maktablar tajribasidan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Taklif etilgan bosqichma-bosqich uslubiy tizim – xalqaro terminlardan boshlab, klinik frazeologizmlar va vaziyatli topshiriqlargacha bo'lgan jarayon – bo'lajak shifokorlarning nafaqat rus tilidagi funksional savodxonligini, balki ularning global tibbiy hamjamiyatga integratsiyalashuvini ham ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi metodik tavsiyalarni shakllantirish mumkin: tibbiyotning har bir yo'nalishi (kardiologiya, xirurgiya, ginekologiya va h.k.) bo'yicha rus-o'zbek qiyosiy terminologik lug'atlarini doimiy yangilab boorish; dars jarayonida talabalarini real shifoxona sharoitiga yaqinlashtirilgan "shifokor-bemor" muloqot modellariga ko'proq jalb qilish; qiyosiy yondashuvga asoslangan mobil ilovalar va elektron platformalar orqali talabalarining mustaqil ish faoliyatini tizimlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy lingvodidaktika asosida shakllantirilgan kasbiy leksikon bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiruvchi va uning professional kamolotini tezlashtiruvchi muhim omildir. Bu metodika orqali tayyorlangan kadrlar nafaqat O'zbekiston ichida, balki xalqaro tibbiy maydonda ham o'z bilimlarini erkin bayon qila oladigan, muloqotga ochiq va zamonaviy shifokorlar bo'lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva R. Stages of teaching Russian medical terminology to medical students // Scientific Trends, 2020.
2. Academic Publishers. Cross-linguistic challenges in teaching medical terminology: borrowings and calques // IJAI, 2025.
3. Азимов Э., Шчүкин А. Новый словарь методических терминов и понятий. Москва: ИКАР, 2009.
4. Buranov A. O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi asoslari. – Toshkent: 2015.
5. Верещагин Э., Костомаров В. Язык и культура. Москва: Индрик, 2005.
6. InLibrary. Using case-based learning to improve Russian language proficiency // Journal of Medical Science.
7. Maseeva M. Uzbek, English and Russian Terminological System of the Medical Sphere // Web of Scientist, 2021.
8. Safarova D. Tibbiyotda o'zbek-rus terminologik parallelizmlar. – Toshkent: Fan, 2018.
9. Tursunov U. Methodology of Terminology Teaching in Medical Universities. – Tashkent: TMA Press, 2021.
10. Qurbonova N. Translating Medical Terminology in English and Uzbek // Excellencia Journal, 2025.

Feruza VALIYEVA,

MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti maktabgacha ta'lim menejmenti kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

XORIJIY MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA KPI AMALIYOTI: FINLANDIYA TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kalit samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators – KPI) tizimini joriy etishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. KPI tizimining maktabgacha ta'lim sifati, bolalarning o'sishi va rivojlanish natijadorligini baholashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, Finlandiya tajribasi misolida maktabgacha ta'limda KPI tizimini qo'llash modellari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, KPI, ta'lim sifati, samaradorlik ko'rsatkichlari, xalqaro tajriba, Finlandiya modeli, o'z-o'zini baholash.

Annotation. This article examines the scientific, theoretical, and practical aspects of implementing a Key Performance Indicators (KPI) system in preschool education institutions. The study substantiates the importance of KPI systems in assessing the quality of preschool education, as well as the effectiveness of children's growth and holistic development. The paper analyzes best international practices in the application of KPI systems in preschool education using examples from Finland.

Keywords: preschool education, Key Performance Indicators (KPI), education quality, performance measurement, international experience, Finnish model, self-evaluation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты внедрения системы ключевых показателей эффективности (KPI) в дошкольных образовательных учреждениях. В исследовании обоснована важность систем KPI в оценке качества дошкольного образования, а также эффективности роста и всестороннего развития детей. В работе анализируется передовой международный опыт применения систем KPI в дошкольном образовании на примере Финляндии.

Ключевые слова: дошкольное образование, ключевые показатели эффективности (KPI), качество образования, измерение эффективности, международный опыт, финская модель, самооценка.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimini moder-nizatsiya qilish, uning sifati va samaradorligini oshirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasi shaxsning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, mazkur tizim faoliyatining samaradorligini aniq, ishonchli va ilmiy asoslangan ko'rsatkichlar orqali baholashni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kalit samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators – KPI) tizimini joriy etish zamonaviy ta'lim boshqaruvining muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda.

KPI tizimi tashkilotning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish darajasini aniqlash, ta'lim sifatini baholash, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'limda ushbu tizimni qo'llash orqali bolalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, pedagogik jarayon sifati va ta'lim muhitini kompleks tahlil qilish, shuningdek, ta'lim xizmatlarining natijadorligini ilmiy asosda baholash mumkin bo'ladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim sifati ustidan nazorat va baholashning turli modellari shakllangan bo'lib, ularning aksariyati KPI konsepsiyasiga tayanadi. Jumladan, Finlandiya, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Rossiya va Singapur kabi davlatlarda maktabgacha ta'lim sifatini baholashda tizimli indikatorlar, monitoring mexanizmlari va o'z-o'zini baholash amaliyoti keng joriy etilgan. Ayniqsa, Finlandiya tajribasida ilmiy asoslangan sifat indikatorlari, uzluksiz takomillashtirish va pedagogik avtonomiya tamoyillari KPI tizimining samarali ishlashini ta'minlamoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kalit samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators, KPI) tizimini joriy etish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylandi. KPI bu – tashkilotning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish darajasini o'lchashga xizmat qiluvchi mezon va ko'rsatkichlar to'plamidir. Maktabgacha ta'limda KPI tizimini qo'llashdan maqsad – ta'lim sifati, bolalarning o'sishi va rivojlanishi natijadorligini muntazam baholab borish, hamda tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini asoslashdir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim sifati ustidan nazorat va baholashning o'ziga xos modellari shakllangan bo'lib, ko'pincha ular KPI konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu maqsadda biz Finlandiya, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh), Yaponiya, Germaniya, Rossiya va Singapur misolida maktabgacha ta'limda KPI tizimi qo'llanilishi bo'yicha ilg'or tajribalarni tahlil qilamiz. Har bir mamlakatda KPI tizimini joriy etish bosqichlari, asosiy ko'rsatkichlari va baholash uslublariga to'xtalamiz.

Shuningdek, turli mamlakatlarda erishilgan natijalarni aniq KPI ko'rsatkichlari orqali taqqoslab, jadval shaklida keltiramiz. KPI amaliyoti davomida ko'zga tashlangan muvaffaqiyatlar va uchragan muammolar vizual diagrammalar orqali tahlil qilinadi. Nihoyat, xorijiy ilg'or tajribalardan olingan saboqlarni

mahalliy (milliy) sharoitlarda amalga oshirish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar infografika va rasmlar yordamida yoritiladi. Mazkur tadqiqot akademik uslubda olib borilib, ilmiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlardan iqtiboslar bilan boyitilgan.

Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimi bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu yerda ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratiladi. Mamlakatda markazlashgan standartlashtirilgan testlar yoki reytinglardan ko'ra, ichki baholash va uzluksiz takomillashtirish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Finlandiya Ta'limni baholash markazi (FINEEC) maktabgacha ta'lim sifati bo'yicha milliy ko'rsatkichlar va baholash modeli ishlab chiqqan.

Xususan, 2019-yilda FINEEC tomonidan nashr etilgan hujjatda maktabgacha ta'lim sifatini baholash uchun konseptual asos va ko'rsatkichlar tizimi berilgan. Unda ta'kidlanishicha, "ushbu hujjat maktabgacha ta'lim sifati bahosini milliy va mahalliy darajada amalga oshirish uchun nazariy va konseptual asos yaratib beradi. Hujjatda sifatni baholash va rivojlantirish modeli, baholash tamoyillari hamda Finlandiyada maktabgacha ta'lim sifati nimalardan iborat ekanini aks ettiruvchi indikatorlar keltirilgan. Bu indikatorlar Finlandiya maktabgacha ta'limining yuqori sifati qanday bo'lishi kerakligini belgilab beradi" dep ta'kidlangan. Ya'ni, Finlandiyada KPI sifatida qaraladigan sifat ko'rsatkichlari ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bo'lib, ular orqali bolalar tarbiyasi va ta'limining barcha jihatlari – pedagogik jarayon, muhit va sharoitlar, kadrlar malakasi, bolalar farovonligi va rivojlanishi – qamrab olinadi. Finlandiyada maktabgacha ta'lim sifati davlat tomonidan belgilangan milliy o'quv dasturi (davlat standarti) talablari asosida ta'minlanadi. Har bir tashkilot mazkur milliy o'quv dasturiga muvofiq o'zining mahalliy dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

2015-yildan boshlab 6 yoshli bolalar uchun bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov (pre-primary education) joriy qilindi. Bu qaror ishtirok darajasini keskin oshirdi – hozirgi kunda 6 yoshli bolalarning deyarli 99% maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olingan. 2019-yil holatiga ko'ra, 3–5 yoshli bolalarning qamrovi 85% ni tashkil etadi. Qamrov ko'rsatkichi Finlandiya uchun so'nggi yillarda sezilarli oshgani kuzatiladi, chunki 2014-yilda ushbu yosh guruhida qatnash 55% atrofida edi. Bu mamlakatda ota-onalar ixtiyoriy ravishda bolalarini 1 yoshdan boshlab bolalar MTTsiga berishi mumkin, davlat esa har bir bolaga joy taqdim etish majburiyatini oladi. Shu sababli, 1996-yildan beri har bir bola 3 yoshdan boshlab MTT xizmati olish huquqiga ega (2013-yildan bu cheklov 1 yoshga tushirilgan). Munisipalitetlar maktabgacha ta'lim xizmatini tashkil etishga mas'ul bo'lib, bolalarning ko'pchiligi davlat MTTlariga boradi (qolgan qismi xususiy MTTlarda, lekin xususiy sektor ham davlat tomonidan subsidiyalanadi).

Finlandiyada KPI tizimining joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Avvalo, 2012-yilda OECD tashabbusi bilan Finlandiya maktabgacha ta'lim sifatiga bag'ishlangan "Starting Strong" hisoboti chop etildi. Unda maktabgacha ta'limning beshta muhim mezonini belgilanib, sifatni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berildi. Shu asosda

Milliy ta'lim baholash markazi 2015–2019-yillarda tegishli tadqiqotlar o'tkazib, maktabgacha ta'lim sifati bo'yicha indikatorlarni ishlab chiqdi. 2019-yilda "Maktabgacha ta'lim sifati indikatorlari" to'plami e'lon qilindi, unda tarbiya-taxsil jarayoni, bolalarning qo'lga kiritadigan yutuqlari, muhit sharoiti va boshqa jihatlar bo'yicha 52 ta indikator qamrab olingan (masalan, bolaning emotsional holati, o'yin va ta'lim faoliyatiga jalb etilish darajasi, tarbiyachi-pedagogning malakaliligi va h.k.). Bu indikatorlar bevosita instrument (o'lchov quroli) emas, balki sifatni qanday tushunishimizga doir negiz yaratadi – shu asosda alohida baholash instrumentlari (anketalar, kuzatuv listlari va boshq.) ishlab chiqiladi. Masalan, Finlandiya MTTlarida bolalarning kun davomida faoliyat turlari balansi, har bir bolaga individual yondashuv, ota-onalarning qoniqish darajasi kabi ko'rsatkichlar muntazam o'lchab boriladi va tahlil qilinadi. Baholash usuli sifatida Finlandiyada asosan tashkilotning o'zini o'zi baholash (self-evaluation) amaliyoti qo'llanadi.

Milliy baholash markazi tomonidan yaratilgan Valsi nomli elektron baholash tizimi shuni ta'minlaydiki, har bir MTT o'zi haqidagi ma'lumotlarni kiritib, sifatni baholash indikatorlari bo'yicha xolis analiz olishi mumkin. Valsi tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etadi. Masalan, tarbiyachilar jamoasi bir yilda kamida bir marta ichki audit o'tkazib, o'z MTTsidagi ta'lim sifatini yuqoridagi indikatorlar asosida baholaydi; kuchli va zaif tomonlarni aniqlab, kelgusi yil uchun rivojlantirish rejasini tuzadi. Bunday baholash natijalari nazorat maqsadida emas, balki metodik qo'llab-quvvatlash va tajriba almashish maqsadida foydalaniladi. Fin ta'lim tizimida olingan ma'lumotlar jazolash uchun emas, balki sifatni yaxshilashga qaratilgan tahlil va xulosa chiqarish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, muntazam ravishda davlat miqyosidagi tashqi baholash tadqiqotlari ham o'tkaziladi: masalan, har 5 yilda bir marta maktabgacha ta'lim sifati holatiga bag'ishlangan milliy ma'ruzalar tayyorlanadi (masalan, 2025–2026-yillarda "Maktabgacha ta'limda sifat

menejmentining holati" mavzusida milliy baholash o'tkazilishi rejalashtirilgan).

Ushbu ma'lumotlar asosida ta'lim siyosatida tegishli o'zgarishlar kiritilib boriladi. Finlandiya tajribasidagi muhim jihatlardan biri – pedagog kadrlar malakasi va mehnat sharoitiga oid KPI ko'rsatkichlarining ahamiyatidir. Finlandiyada barcha MTT tarbiyachilari (pedagoglar) oliy ma'lumotli bo'lishi talab etiladi; 2018-yilda qabul qilingan qonunda 2030-yilga borib MTT xodimlarining 2/3 qismi bakalavr yoki undan yuqori darajali pedagogik ma'lumotga ega bo'lishi shartligi belgilandi. Bu ham tarbiya sifatiga bevosita ta'sir etuvchi KPI sifatida nazarda tutilgan ko'rsatkichdir. Shuningdek, tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi, malaka oshirishi doimiy monitoring qilinib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari esa "pedagogik liderlik" tamoyillariga muvofiq tayyorlanadi – ya'ni, ular faqat ma'muriy boshqaruvchigina emas, balki ta'lim jarayonining yetakchisi bo'lishi kerak. Ushbu yo'nalishda Finlandiyadagi KPI parametrlaridan biri – rahbarning pedagogik yetakchiligi samaradorligi (masalan, jamoada innovatsion metodlarni joriy eta olishi, xodimlarni motivatsiyalay olishi va h.k.) hisoblanadi.

Xulosa o'rinda aytganda, Finlandiya maktabgacha ta'limda KPI asosidagi baholash modeli eng avvalo ta'lim sifatini himoyalash va oshirishga qaratilgan. Asosiy ko'rsatkichlar – bolalarning har tomonlama rivojlanishi (emotsional, ijtimoiy, kognitiv, jismoniy sohalarda), bolalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi va qiziqishi, ularning blagosostoyaniyesi (farovonligi va baxtililigi), shuningdek, ta'lim berish sharoitlari (guruhdagi bolalar soni, jihozlanish, gigiyena) va pedagog kadrlar sifati. Baholash uslubi sifatida esa muntazam samoaudit (o'z-o'zini baholash), ota-onalar so'rovlari, hamkasblar bahosi va zarurat bo'lganda mustaqil ekspertlar auditi kabi usullar qo'llanadi. Masalan, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun turli skrining va muloqot shaklidagi baholash o'yinlari o'tkaziladi, lekin bu bolalarga bosim o'tkazuvchi test tarzida emas, o'yin orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Finnish Education Evaluation Centre, Quality indicators for early childhood education and care – Finlandiyaning milliy ECEC sifat indikatorlari bo'yicha qo'llanma. karvi.fikarvi.fi
2. Balanced Scorecard Institute (BSI). How to Develop KPIs/Performance Measures. – KPI.org usulologik qo'llanma. kpi.orgkpi.org.
3. Hanushek E.A., Nguyen M., Ost B., Rivkin S. The Power of Performance Pay: Smart teacher retention accelerated student achievement in Dallas // Education Next, 2023, 23(1). educationnext.org.
4. Clear Point Strategy, Key Performance Indicators For Schools & Education. Management – ta'lim tashkilotlarida KPI tanlash va kuzatish haqida umumiy ma'lumot aft.org.
5. Valiyeva F.R. Ensuring Continuity in the Training of Future Professionals in the Education System // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019, Vol. 7, №6.
6. Valiyeva F.R., Kurbonov, Sh. Continuity in the Education System. Wschodnioeuropejskie // East European Science, 2019, 12(52). – P. 45–52.

Сирожиддин АБДУЛЛАЕВ,

студент магистратуры Ферганского государственного университета,

Елена МУСАЕВА,

*доктор философии по филологическим наукам (PhD), старший преподаватель
Маманганского государственного университета*

ФОНОЛОГИЧЕСКАЯ ОБРАБОТКА РЕЧИ КАК ОСНОВА НАРУШЕНИЙ ЧТЕНИЯ У ДЕТЕЙ С ДИСЛЕКСИЕЙ

Аннотация. В статье рассматриваются фонологические механизмы чтения у детей с дислексией с позиций психолингвистики и специальной педагогики. Показано, что нарушение данных механизмов носит системный характер и проявляется на разных этапах формирования навыка чтения. Обосновывается необходимость комплексного коррекционного подхода, ориентированного на поэтапное развитие фонологических и сопутствующих когнитивных процессов.

Ключевые слова: дислексия, фонологический дефицит, чтение, фонематическая осведомлённость, фонологическая память, автоматизация, психолингвистика.

Annotatsiya. Maqolada disleksiyali bolalarda o'qish jarayonining fonologik mexanizmlari psixolingvistika va maxsus pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mazkur mexanizmlarning buzilishi tizimli xarakterga ega ekani va o'qish malakasining shakllanishi jarayonining turli bosqichlarida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Fonologik hamda ular bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks korreksion yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: disleksiya, fonologik defitsit, o'qish, fonematik xabardorlik, fonologik xotira, avtomatlashtirish, psixolingvistika.

Annotation. The article examines the phonological mechanisms of reading in children with dyslexia from the perspective of psycholinguistics and special pedagogy. It has been shown that the disruption of these mechanisms is systemic and manifests itself at different stages of reading skill formation. The need for a comprehensive corrective approach focused on the phased development of phonological and related cognitive processes is substantiated.

Keywords: dyslexia, phonological deficit, reading, phonemic awareness, phonological memory, automation, psycholinguistics.

В последние десятилетия дислексия рассматривается не как частное педагогическое затруднение, а как сложное нейрокогнитивное расстройство, затрагивающее базовые механизмы языковой обработки. Несмотря на сохранный интеллект и нормальные условия обучения, дети с дислексией испытывают стойкие трудности в овладении чтением и письмом. Центральное место в объяснении этих трудностей занимает концепция фонологического дефицита, согласно которой ключевая проблема заключается в нарушении обработки звуковой структуры языка.

Фонологическая обработка является фундаментальным компонентом чтения, поскольку именно она преобразовывает графические символы в фонемы и далее интегрирует звуки в осмысленные языковые единицы. Наша цель – проанализировать особенности фонологической обработки у детей с дислексией и определить её роль в формировании читательской несостоятельности.

Современные психолингвистические модели чтения сходятся в том, что успешное декодирование письменного текста невозможно без развитой фонологической системы. В рамках фонологической дефицитной теории подчёркивается, что дислексия возникает вследствие специфических нарушений анализа, хранения и актуализации фонем, а не из-за общей интеллектуальной недостаточности [1, с. 64].

Фонологическая обработка включает несколько взаимосвязанных компонентов. Фонематическая осведомлённость обеспечивает осознание звуковой структуры слова и возможность оперировать отдельными фонемами. Фонологическая память отвечает за удержание звуковых последовательностей в процессе чтения, а автоматическое называние отражает скорость доступа к фонологическим репрезентациям. Нарушение любого из этих компонентов приводит к сбоям в механизме графемно-фонемного соответствия.

Как отмечают С.Кнооп-ван Кампен, Э.Сегерс и Л.Верховен, фонематическая осведомлённость является медиатором между рабочей памятью и эффективностью чтения: недостаточная сформированность фонологических представлений препятствует полноценному декодированию слов [2, с. 34]. Таким образом, фонематический дефицит не вторичное следствие плохого чтения, а его первопричина.

Наряду с фонематической осведомлённостью большую роль играет фонологическая память, обеспечивающая временное хранение звуковой информации. У детей с дислексией наблюдаются сниженные показатели слухоречевой памяти, что проявляется в трудностях воспроизведения псевдослов, запоминания последовательностей звуков и усвоения новых лексических единиц [там же, с. 49].

Отдельное внимание уделяется процессу автоматического называния (RAN), отражающему скорость извлечения фонологических кодов из долговременной памяти. Исследования показывают, что дефицит RAN может быть самостоятельным предиктором нарушений чтения. В работах, выполненных на материале разных языков, выявлено, что сочетание замедленного называния и фонологического дефицита существенно снижает уровень читательской автоматизации [там же, с. 25].

Нейропсихологические данные подтверждают, что фонологические нарушения у детей с дислексией имеют биологическую основу и связаны с атипичной активацией левых теменно-височных зон мозга, участвующих в анализе письменной и устной речи [3, с. 12]. Это означает, что коррекционная работа должна быть направлена не на механическое увеличение объёма чтения, а на целенаправленное развитие фонологических механизмов.

Педагогическая практика показывает, что наибольшую эффективность демонстрируют структурированные программы, включающие упражнения на сегментацию и синтез фонем, развитие слухоречевой памяти и поэтапную автоматизацию звуко-буквенных связей. Использование мультимодальных методов (зрительных, слуховых, кинестетических) формирует устойчивые нейронные связи и улучшает качество чтения [1, с. 70].

Проведённый анализ позволяет заключить, что дислексия характеризуется системным нарушением фонологической обработки речи, затрагивающим фонематическую осведомлённость, фонологическую память и автоматическое называние, оказывающие прямое влияние на формирование навыков чтения и письма и сохраняющиеся без специализированной коррекционной помощи.

Литература

1. Zoccolotti P. The Case of the Phonological Deficit Theory of Dyslexia // *Brain Sciences*, 2022, Vol. 12.
2. Knoop-van Campen C.A.N., Segers E., Verhoeven L. How Phonological Awareness Mediates the Relation Between Working Memory and Word Reading Efficiency in Children with Dyslexia // *Reading and Writing*, 2018.
3. *Frontiers in Psychology*. Rapid Automated Naming and Explicit Phonological Processing in Brazilian Portuguese-speaking children with developmental dyslexia // *Frontiers in Psychology*, 2020.

Шахноза АХМАДЖОНОВА,

преподаватель английского языка

Ташкентского государственного технического университета

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В АУДИТОРНОМ ОБЩЕНИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье особое внимание уделяется функционированию речевых актов в педагогическом дискурсе, где коммуникативное взаимодействие между преподавателем и обучающимися определяется не только языковыми нормами, но и контекстуальными, социальными и культурными факторами. Анализируются основные типы используемых в учебной аудитории речевых актов, их прагматические функции, связанные с управлением учебным процессом, формированием коммуникативной компетенции и развитием прагматической осознанности обучающихся, подчеркивается роль имплицитных значений, presuppositions и речевых стратегий в процессе обучения английскому языку как иностранному. Делается вывод о необходимости целенаправленного формирования прагматической компетенции учащихся для повышения эффективности аудиторного общения и успешного межкультурного взаимодействия.

Ключевые слова: прагматика; речевой акт, аудиторное общение, педагогический дискурс, английский язык, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, речевая стратегия.

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir nafaqat til me'yorlari, balki kontekstual, ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham belgilanadigan pedagogik diskursda nutqiy aktlarning amal qilishiga alohida e'tibor qaratilgan. O'quv auditoriyasida qo'llaniladigan nutqiy aktlarning asosiy turlari, ularning o'quv jarayonini boshqarish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va talabalarning pragmatik ongini rivojlantirish bilan bog'liq pragmatik funksiyalari tahlil qilinib, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida implitsit ma'nolar, presuppozitsiyalar va nutq strategiyalarining o'zaro ta'kidlangan. Auditoriya muloqoti va muvaffaqiyatli madaniyatlararo o'zaro ta'sir samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini maqsadli shakllantirish zarur degan xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: pragmatika, nutq harakati, sinfdagi muloqot, pedagogik munozara, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, nutq strategiyasi.

Annotation. This article examines the pragmatic aspects of speech acts in classroom communication in English in the context of foreign language teaching. Particular attention is paid to the functioning of speech acts in pedagogical discourse, where communicative interaction between teacher and students is determined not only by linguistic norms but also by contextual, social, and cultural factors. The main types of speech acts used in the classroom are analyzed, as well as their pragmatic functions related to managing the educational process, developing communicative competence, and developing students' pragmatic awareness. The article emphasizes the role of implicit meanings, presuppositions, and speech strategies in teaching English as a foreign language. It concludes that targeted development of students' pragmatic competence is necessary to improve the effectiveness of classroom communication and successful intercultural interaction.

Keywords: pragmatics; speech act; classroom communication; pedagogical discourse; English language; communicative competence; pragmatic competence; speech strategy.

В современном языкознании прагматика занимает особое место, поскольку изучает использование языка в конкретных ситуациях общения и соотносит языковые формы с коммуникативными намерениями говорящего. При обучении английскому языку как иностранному прагматический аспект приобретает особую значимость, так как успешность коммуникации в учебной аудитории зависит не только от грамматической правильности высказываний, но и от их уместности, целесообразности и соответствия коммуникативной ситуации [1, с. 122]. Аудиторное общение – специфический тип дискурса, в котором речевые акты выполняют не только информационную, но и регулятивную, мотивационную и оценочную функции.

Понятие речевого акта и его прагматическая природа. Теория речевых актов рассматривает высказывание как действие, направленное на достижение определённого коммуникативного эффекта. В рамках прагматики различают локуторный, иллокутивный и перлокутивный аспекты речевого акта. В аудиторном общении именно иллокутивная сила высказывания играет ключевую роль, поскольку преподаватель и обучающиеся постоянно реализуют такие речевые акты, как просьбы, указания, объяснения, вопросы, поощрения и замечания, направленные на организацию учебного процесса и поддержание эффективного взаимодействия.

Аудиторное общение на английском языке отличается институциональным характером и асимметричностью ролей участников коммуникации. Преподаватель, как правило, выступает инициатором большинства речевых актов,

определяя тему, форму и направление общения [2, с. 27]. Студенты реагируют на эти акты, выполняя инструкции, отвечая на вопросы или иницируя собственные высказывания. Прагматическая специфика такого общения проявляется в необходимости учитывать уровень языковой подготовки учащихся, культурные различия и нормы вежливости, характерные для англоязычной коммуникативной традиции.

Основные типы речевых актов в учебной аудитории. В процессе обучения английскому языку наиболее часто используются директивные, репрезентативные и экспрессивные речевые акты. Директивные акты, такие как просьбы и инструкции, направлены на побуждение учащихся к определённым действиям. Репрезентативные акты связаны с передачей информации, объяснением грамматических правил и лексических значений. Экспрессивные речевые акты выражают оценку, одобрение или критику, способствуя формированию мотивации и эмоционального фона учебного процесса.

Прагматическая компетенция как цель обучения. Формирование прагматической компетенции – неотъемлемая часть коммуникативной компетенции. Учащиеся должны уметь не только правильно строить высказывания, но и выбирать адекватные речевые стратегии в зависимости от ситуации общения [3, с. 74]. В аудиторном контексте это означает способность понимать скрытые намерения собеседника, интерпретировать имплицитные значения и использовать соответствующие формы вежливости. Отсутствие прагматической осознанности

может привести к коммуникативным неудачам даже при высоком уровне языковой грамотности.

Роль культурного контекста в интерпретации речевых актов. Прагматический анализ речевых актов невозможен без учета культурного контекста. Англоязычная коммуникативная культура характеризуется косвенными формами выражения просьб и критики, а также высокой степенью внимания к нормам вежливости. В учебной аудитории это проявляется в использовании смягчающих стратегий, модальных глаголов и эвфемизмов. Преподавателю важно знакомить студентов с этими особенностями для предотвращения прагматических ошибок и проведения успешного межкультурного взаимодействия.

Имплицитность и пресуппозиции в аудиторной речи. Значительная часть речевых актов в учебном процессе носит имплицитный характер. Преподаватель часто опирается на общие знания и предыдущий опыт обучающихся, используя пресуппозиции для экономии речевых средств. Однако для изучающих английский язык такие имплицитные значения могут представлять трудность, поэтому важной задачей

обучения является развитие навыков интерпретации скрытых смыслов и контекстуальных намёков.

Практическое значение прагматического анализа. Прагматический анализ речевых актов позволяет повысить эффективность преподавания английского языка за счёт осознанного использования речевых стратегий и тактик. Он способствует созданию благоприятной коммуникативной среды, в которой студенты чувствуют себя уверенно и активно участвуют в общении. Кроме того, развитие прагматической компетенции готовит обучающихся к реальным ситуациям общения за пределами учебной аудитории.

Таким образом, прагматические аспекты речевых актов играют ключевую роль в аудиторном общении на английском языке. Их учет позволяет оптимизировать процесс обучения, повысить уровень коммуникативной и прагматической компетенции учащихся и обеспечить успешное межкультурное взаимодействие. Целенаправленное включение прагматического компонента в обучение английскому языку – необходимое условие формирования полноценной языковой личности.

Литература

1. Остин Дж.Л. Как совершать действия при помощи слов. М.: Прогресс, 1986.
2. Серль Дж.Р. Речевые акты. Очерк философии языка. М.: Прогресс, 1986.
3. Леонтьев А.А. Психоллингвистика. М.: Смысл, 2003.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
5. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
6. Cutting J. Pragmatics and Discourse. – London: Routledge, 2002.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.

Унгласин ДЖУСУПОВА,

доктор философии по филологическим наукам, доцент Университета Альфраганус

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИНГАРМОНИЗМА И СЛОВЕСНОГО УДАРЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ В МЕТОДИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Аннотация. В статье рассматриваются сингармонизм и словесное ударение как просодические доминанты слова в русском и узбекском языках, выявляются методически значимые различия, влияющие на формирование произносительной компетенции обучающихся, определяются основные зоны просодической интерференции, предлагаются методические ориентиры обучения.

Ключевые слова: просодия, сингармонизм, словесное ударение, сопоставительный анализ, методика обучения, интерференция, русский язык, узбекский язык.

Annotatsiya. Maqolada rus va o'zbek tillaridagi singarmonizm va so'z urg'usi so'zning prosodik dominantlari sifatida ko'rib chiqiladi, o'quvchilarning talaffuz kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir qiluvchi uslubiy jihatdan muhim farqlar aniqlanadi, prosodik interferensiyaning asosiy sohalarini belgilanadi, o'qitishning uslubiy ko'rsatmalari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: prosodiya, singarmonizm, so'z urg'usi, qiyosiy tahlil, o'qitish metodikasi, interferensiya, rus tili, o'zbek tili.

Annotation. The article examines vowel harmony and word stress as prosodic dominants of the word in Russian and Uzbek. The aim of the study is to identify methodologically significant differences affecting the formation of pronunciation competence. Comparative and linguodidactic methods are applied. The main areas of prosodic interference are identified, and teaching guidelines are proposed.

Keywords: prosody, vowel harmony, word stress, comparative analysis, teaching methodology, interference, Russian language, Uzbek language.

Актуальность исследования обусловлена возрастающей ролью просодической стороны речи в процессе обучения языкам в условиях билингвизма. Как отмечается в трудах по фонетике и психоллингвистике, именно словесная просодия является одной из наиболее трудных для усвоения сфер, поскольку формируется на основе устойчивых артикуляционных и перцептивных стереотипов родного языка [1, с. 195; 2, с. 87].

Русский и узбекский языки существенно различаются по типу просодической организации слова. В узбекском языке доминирует принцип вокалической гармонии и преимущественно фиксированное словесное ударение,

тогда как в русском языке ведущую роль играет свободное и подвижное ударение, сопровождаемое редукцией безударных гласных [3, с. 20]. Эти различия становятся источником просодической интерференции при обучении русскому языку узбекоязычных обучающихся.

Цель статьи – выявление методически значимых различий между русским и узбекским языками, определение их влияния на формирование произносительной компетенции, описание типологических особенностей просодических систем, анализ интерференционных проявлений и формулирование методических выводов.

Сингармонизм и словесное ударение в узбекском языке

Узбекский язык относится к агглютинативным тюркским языкам и характеризуется развитой системой сингармонизма, обеспечивающей согласование гласных в пределах слова по ряду артикуляционных признаков [4, с. 68]. Сингармонизм придаёт слову фонетическую целостность и способствует его устойчивому ритмическому оформлению.

Словесное ударение в узбекском языке, как правило, падает на последний слог и не сопровождается существенными изменениями качества гласных [там же, с. 72]. Оно не выполняет смысловозначительной функции и не связано с редуцированными процессами, в результате формируется равномерная слоговая артикуляция, при которой отсутствует чёткое противопоставление ударных и безударных позиций.

С методической точки зрения важно учитывать, что данные особенности являются автоматизированными и неосознаваемыми для носителей узбекского языка, что способствует их переносу на изучаемый русский язык.

Словесное ударение и вокализм в русском языке

Русский язык характеризуется свободным и подвижным словесным ударением, способным изменять своё положение в пределах словоизменительной парадигмы [1, с. 210]. Ударение сопровождается увеличением интенсивности и длительности ударного слога и играет важную смысловозначительную роль.

Существенная особенность русской словесной просодии – редукция безударных гласных, проявляющаяся в их качественном и количественном изменении [там же, с. 223]. Как подчёркивается в исследованиях по русской фонетике, редукция выполняет ритмообразующую функцию и является важным элементом нормативного произношения.

Для узбекоязычных обучающихся данные характеристики представляют значительную трудность. Отсутствие навыка редукации и привычка к равномерной артикуляции слогов приводят к типичным акцентологическим ошибкам и нарушению ритмической структуры слова [2, с. 94].

Сопоставительный анализ в методическом аспекте

• Kichik maktabgacha yosh (3–4 yosh). Bu davrda bolalarda asosan **asosiy emotsiyalar** (quvonch, qo'rquv, g'azab, xafalik) namoyon bo'ladi. Bola o'z his-tuyg'ularini atrofdegilarga ko'rsatadi, lekin ularni boshqarish va ifodalash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shu bosqichda pedagog va ota-onaning qo'llab-quvvatlashi, hissiy tajribalarni ta'tibga solishda yordam berish muhim ahamiyat kasb etadi. **Ilmiy tadqiqotlar** shuni ko'rsatadiki, 3–4 yoshli bolalar hissiy tajribalarini o'yin orqali o'rganadi. Masalan, rolli o'yinlar, hissiy

ranglar bilan ishlash va hikoyalar orqali bolaning hissiyotlarini tanish qobiliyati rivojlantiriladi.

• O'rta maktabgacha yosh (4–5 yosh). Ushbu davrda bolalar o'z emotsiyalarini **vaziyat bilan bog'lab tushunishga** kirishadi. Tengdoshlar bilan muloqot jarayonida empatiya elementlari shakllanadi. Bola boshqalarning his-tuyg'ularini sezadi va ularga munosabat bildiradi. Pedagogik faoliyatda bu yoshda **ijtimoiy qoidalarni o'rgatish**, hissiy tajribalarni tavsiflashga yordam berish, shuningdek, konfliktli vaziyatlarda hissiy reaksiyalarni nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

• Katta maktabgacha yosh (5–6/7 yosh). Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektning asosiy komponentlari sezilarli darajada rivojlanadi. Bola **o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladi**, ijtimoiy qoidalarni tushunadi va muammoli vaziyatlarda murosaga kelishga intiladi. Shu davrda empatiya va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlari yanada mustahkamlanadi. Pedagogik amaliyotda ushbu yoshda bolalarni **emotsional o'z-o'zini boshqarish texnikalari, konfliktlarni hal qilish va ijtimoiy muomala ko'nikmalari** bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Bu jarayon bolani maktabga tayyorlash va kelajakdagi shaxsiy muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [4: 114].

Emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati

Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirish quyidagi pedagogik vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- ✓ bolalarning **ijtimoiy moslashuvini** mustahkamlash;
- ✓ **empatiya va hamdardlik** ko'nikmalarini shakllantirish;
- ✓ hissiy tajribalarni **kontrolli va konstruktiv tarzda** ifodalashni o'rgatish;
- ✓ muloqot va **jamoaviy faoliyat** orqali o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish;
- ✓ maktabga tayyorgarlik jarayonida **stressga chidamlilik va ijtimoiy barqarorlikni** mustahkamlash.

Shu bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan maktabgacha ta'lim islohotlari ham aynan bolalarning emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Masalan, "Ilk qadam" dasturi va pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha treninglar bolaning **emotsional intellektni tizimli ravishda rivojlantirish** imkonini yaratadi [2: 147].

Emotsional intellektni rivojlantirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar

Emotsional intellektni o'rganish bo'yicha hozirgi zamon tadqiqotlarida quyidagi yo'nalishlar alohida ajratiladi:

a) **o'yin orqali ta'lim metodikalarining samaradorligi**. Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan emotsional o'yinlar samaradorligini o'rganmoqda. Bu o'yinlar bolalarga hissiyotlarni nomlash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashishni o'rgatadi.

b) **pedagogik yordam va intervensiya dasturlari**. Maktabgacha ta'lim muassasalarida hissiy intellektni shakllantirish bo'yicha maxsus treninglar va mashg'ulotlar joriy etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sistematik treninglar bolalarning o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

c) **otaonalar va pedagoglarning roli**. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, otaonalar va pedagoglarning hissiy kompetensiyasi yuqori bo'lgan oilalarda o'rsayotgan bolalar emotsional intellekt jihatidan ancha barqaror bo'ladi. Shu

sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida otaonalar bilan hamkorlikda emotsional rivojlanish bo'yicha seminarlar o'tkazish samarali deb topilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirish va rivojlantirish shaxs kamolotining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Emotsional intellekt bolaning nafaqat hissiy holatini anglash va boshqarish qobiliyatini, balki uning ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi, tengdoshlar bilan samarali muloqot o'rnatishi hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish salohiyatini ham belgilaydi. Aynan maktabgacha yosh davrida emotsional sohaning rivojlanishi keyingi ta'lim bosqichlarida bolaning psixologik barqarorligi va o'quv faoliyatiga tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni

bolalarda emotsional intellektning samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning emotsional savodxonligi, ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlar va ijobiy tarbiyaviy muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Bola hissiyotlarini inkor etmasdan, ularni to'g'ri yo'naltirish, hissiy holatlarni tushuntirish va namuna ko'rsatish orqali emotsional intellektni rivojlantirish mumkin. Bu esa bolalarda o'ziga ishonch, mustaqillik, ijtimoiy mas'uliyat va ijobiy xulq-atvorning shakllanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli va maqsadli pedagogik faoliyat bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish maktabgacha ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 320 b.
3. Sharipova D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish masalalari // Pedagogik ta'lim, 2021, №3. – B. 45–52.
4. Ismoilova N.S. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 256 b.
5. Goleman D. Emotsional intellekt: Nima uchun u IQdan muhimroq / tarj. Moskva: AST, 2018. – 480 b.
6. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Emotional intelligence: Theory, findings, and implications // Psychological Inquiry, 2004, Vol. 15, №3. – P. 197–215.

Ixtiyor KAMOLOV,

Navoiy davlat universiteti ffzika va astronomiya kafedrasida professori;

Diyorbek ISMOYILOV,

Navoiy davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi;

Abdushukur ESHONQULOV,

Navoiy davlat universiteti ffzika va astronomiya kafedrasida laboranti

ISTIQLOL DAVRI PEDAGOGIK TA'LIM SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA XALQ AN'ANALARI HAMDA JAHON TAJRIBALARINING UYG'UNLASHUVI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining yillarida ta'lim siyosatida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xalqning ko'p asrlar davomida shakllangan milliy tarbiyaviy an'analari hamda ilg'or jahon pedagogik tajribalari uyg'unlashuvining natijalari yoritiladi. Uyg'unlik jarayoni natijasida shakllangan yangi pedagogik tafakkur, milliy o'zlikni saqlagan holda, global ta'lim maydonida raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qilayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, pedagogik siyosat, xalq an'analari, jahon tajribasi, ta'lim islohoti, innovatsion yondashuv.

Annotation. The article analyzes the changes that occurred in the education policy of the Republic of Uzbekistan during the years. The results of the harmonization of the national educational traditions of the people, formed over many centuries, and advanced world pedagogical experience are highlighted. It is substantiated that the new pedagogical thinking, formed as a result of the harmonization process, serves to educate a competitive personality in the global educational space while preserving national identity.

Keywords: independence, educational policy, national traditions, global experience, education reform, innovative approach.

Аннотация. В статье анализируются изменения в образовательной политике Республики Узбекистан за последние годы. Освещаются результаты сочетания национальных воспитательных традиций народа, сформировавшихся на протяжении многих веков, и передового мирового педагогического опыта. Обосновано, что новое педагогическое мышление, сформированное в результате процесса гармонии, служит воспитанию конкурентоспособной личности в глобальном образовательном пространстве при сохранении национальной идентичности.

Ключевые слова: Независимость, образовательная политика, народные традиции, мировой опыт, образовательная реформа, инновационный подход.

2020-yil 6-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzolagan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmon hamda ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4884-sonli Qarori qabul qilindi. Farmon va

Qarorda belgilangan asosiy vazifalardan biri – xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash bo'lib, buni amalga oshirish uchun talab darajasidagi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, unga mos ravishda o'quv dasturlari va rejarlar tanlash kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohada ishlohtlar ta'lim tizimida

ham uzluksiz yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini isloh qilishga oid davlat siyosati ta'lim tizimi rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bermoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi o'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda va rivojlantirishda amaliy dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur hujjat respublikamizda ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgani holda, uzluksiz ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo'l ochildi.

Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad – o'zbek xalqining boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Shunga ko'ra, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoladi [1: 2].

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach, milliy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylandi. Istiqlol yillarida ta'lim siyosati xalqning ma'naviy qadriyatlariga tayangan holda, ilg'or jahon tajribalari bilan uyg'unlashdi. Bu davrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim siyosatining huquqiy poydevorini yaratdi. Shunday qilib, ta'limda milliylik va zamonaviylik sinteziga asoslangan yangi konsepsiya shakllandi [3].

Xalq an'analari ta'lim siyosatimizda uyg'unlashuvi va singdirilib borilishi bilan o'zbek xalqining tarbiyaviy an'analar: halollik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, adolat va ilmga rag'bat ta'lim siyosatining asosiy ma'naviy tayanchiga aylandi. Mazkur qadriyatlar Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat kabi buyuk mutafakkirlarning asarlarida o'z ifodasini topgani bizlarga ma'lum. Istiqloldan so'ng bu qadriyatlar davlatimiz ta'lim standartlari va malaka talablarida bevosita singdirildi. Natijada ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ma'naviy kamoloti va milliy o'zligiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bu borada fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda. **Yurtimiz** o'zining istiqlol davrini qo'lga kiritgach, pedagogik ta'lim tizimi respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar sharoitida rivojlanish davriga kirdi. Zero, hozirgi kunda iqtisodiy madaniyati, ma'naviy va moddiy qadriyatlarini insonparvarlik, yuksak axloqiy ideallar ruhida rivojlantirayotgan mustaqil demokratik davlatni barpo etish jarayoni amalga oshmoqda. o'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim vazifalaridan biri – milliy ma'naviyatni yuksaltirish asosida milliy mafkurani yuksak darajada shakllantirishdan iboratdir. Bu murakkab va dolzarb vazifani hal etish uchun bosib o'tilgan tarixiy yo'lni tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash, shu asosda tarbiya, ayniqsa bo'lajak yosh mutaxassislarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik vositalar tizimini yaratish zaruriyati mavjud. Ma'lumki, jamiyat hayoti va unda yashovchi kishilarning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishi milliy mafkura, yoshlar ta'lim-tarbiyasi hamda bo'lajak mutaxassislarning keng ko'lamda intellektual salohiyatga ega bo'lishini talab qilmoqda.

Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, har qanday davlat tizimi o'zining asosiy maqsadi sifatida yoshlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan ma'naviy boyliklar, ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlarni singdirishni taqozo qiladi. Ta'lim-

tarbiyaviy qadriyatlar yosh avlodning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishida zamin bo'lib xizmat qiladigan moddiy, ma'naviy boylik. Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda vujudga kelgan qadriyatlar dolzarb va ahamiyatli. Xalq pedagogikasi tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, uyin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyat hamdir.

Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an'ana, amal, udum, xulq-odoblar tarzida namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar va sh.k. majmuidir. Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma'lum, anonim pedagogika ekanligidir. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo'lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so'zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doir biror talabning muallifi ma'lum bo'lsa, uning ta'siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo'lsa-da, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urf-odat, udum, xulq-odatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi. Xalq pedagogikasining to'rtinchi belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir [4, 5, 6, 7].

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni globallashuv sharoitida O'zbekiston ta'lim tizimini jahonning ilg'or pedagogik tajriba va texnologiyalari bilan uyg'unlashishida dasturil amal bo'ldi. Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Vengriya, Xitoy kabi mamlakatlarning ta'lim modellari o'rganilib, respublikamizning ta'lim jarayoniga kiritila boshlandi. o'qitishning interfaol metodlari, ta'limning kredit-modul tizimi, "lifelong learning" (umr bo'yi ta'lim) tamoyillari, shuningdek, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yangi davr ta'lim siyosatining ustivor yo'nalishlariga aylandi. Shuningdek, nufuzli xorijiy oliygohlar filiallarining yurtimizda ochilishi, qo'shma ta'lim dasturlari asosida yoshlarimizning ta'lim olishi, bilimlarni xalqaro baholash tizimlarining joriy etilishi, o'qituvchilarning xorijiy malaka oshirish va stajirovka o'tish dasturlari ham bu uyg'unlikning amaliy ko'rinishidir [8, 9].

Milliy va jahon tajribalarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida **yangi pedagogik tafakkur** shakllandi. Bu tafakkur quyidagi tamoyillarga tayanadi:

– **shaxs markaziyli, ya'ni** o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv;

– **ma'naviylik va axloqiy tarbiya, yani** milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim va tarbiya berish;

– **innovatsion fikrlash, ya'ni** xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ta'lim metodlarini tatbiq etish. Shu tariqa, O'zbekiston ta'lim tizimi o'z tarixiy ildizlariga tayangan holda, global ta'lim muhitiga sekin-asta integratsiyalashmoqda [10].

Xalq an'analari va jahon tajribalari uyg'unlashuvi O'zbekistonda ta'lim siyosatini yangi sifat bosqichiga olib chiqadigan tarixiy jarayon bo'ladi. Natijada milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, lekin global raqobatbardosh, tafakkuri keng va zamonaviy shaxsni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. Bu uyg'unlik milliy o'zlikni saqlash bilan birga, kelajak avlodni ilmiy, texnologik va ma'naviy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantirishga xizmat qilishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: yangi tahrir. – Toshkent, 2020 yil 23-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Hasanboeva O. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
4. To'xtasinov B., Yo'ldoshev J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
5. Fitrat A. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 1993.
6. Alisher Navoiy. Mahlub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
7. Kutbedinov A., Kamolov I., Toshpo'latova Sh. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Azon, 2022.
8. Камолов И., Канатбаев С., Омонбоева М., Мансурова Ш. Интеграция предметов – поиск новых педагогических решений / Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века: V Международная научно-практическая конференция. Нур-Султан (Казахстан), 2021.
9. Kamalov I., Ochiltosheva D., Idiboyeva S., Kahhorova M. Performance indicators and significance of a 5 kW-h mini photovoltaic station in the "sunny household" // Science and Innovation: International Scientific Journal, 2025. Vol. 4, Issue 9. – P. 44–48.
10. Axmedov A., Izbosarov B., Kamolov I. Molekulyar fizika fanidan fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish // Fizika, matematika va informatika, 2025, № 5/25. – B. 148–156.

Maxliyo TUROPOVA,

Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijodiy tafakkurning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, o'qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning asosiy usullari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ijodiy tafakkur, pedagogik usullar, innovatsiyalar, interaktiv o'qitish, ijtimoiy pedagogika, ta'lim jarayoni.

Annotation. This article analyzes the pedagogical features of developing creative thinking in future primary school teachers. The article highlights the importance of creative thinking in the educational process and outlines the main methods for developing teachers' creative thinking abilities.

Keywords: primary school teachers, creative thinking, pedagogical methods, innovations, interactive teaching, social pedagogy, educational process.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические особенности развития творческого мышления будущих учителей начальных классов. В статье раскрывается значение творческого мышления в образовательном процессе, а также представлены основные методы развития способности педагогов к творческому мышлению.

Ключевые слова: учителя начальных классов, творческое мышление, педагогические методы, инновации, интерактивное обучение, социальная педагогика, образовательный процесс.

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri shaxsni intellektual, emotsional va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdir. Bu jarayonda o'qituvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ijodiy tafakkur faqat o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish bilan cheklanmaydi, balki uning pedagogik faoliyatida yangiliklarni yaratish, o'quvchilarning fikrlash va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Ijodiy tafakkur – bu yangi g'oyalarni yaratish, eski ma'lumotlarni yangi kontekstda ishlatish va hayotdagi vaziyatlarga yangicha qarash qobiliyati. Bu tafakkur turini rivojlantirish nafaqat o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishiga, balki o'quvchilarning o'rganish jarayonini yangi, innovatsion usullarda o'tkazishga imkon beradi.

Ijodiy tafakkur, ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijasida, o'quvchilarning faqat xotira va mantiqiy fikrlashdan iborat bo'lmagan, balki yangi g'oyalar va yondashuvlarni yaratishga yo'naltirilgan fikrlash shakli sifatida ta'riflanadi. O'qituvchilarning ijodiy tafakkuri, o'z navbatida, pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda, o'quvchilarga bilim berishda yangi metodlar va yondashuvlarni qo'llashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining ijodiy tafakkuri ta'lim jarayonining o'zgaruvchan va innovatsion talablari bilan bog'liq holda shakllanadi. Bu jarayon ijodiy tafakkurning rivojlanishiga qaratilgan faoliyatlar, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchining o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning ijodiy

fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning didaktik va psixologik ehtiyojlarini qondirishda muhim omil sifatida qaraladi.

O'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar o'quv jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bular orasida darslarni rejalashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, yangi texnologiyalarni qo'llash va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borish kiradi [1: 67]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Ijodiy tafakkur o'qituvchilarni nafaqat o'qitishda yangilik yaratishga, balki o'quvchilarni o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnikalarni qo'llashga undaydi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy tafakkurga yo'naltirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin:

1. Innovatsion ta'lim metodlari. Innovatsion metodlar, ta'lim jarayonida yangi g'oyalarni ishlab chiqish va qo'llash imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o'rganish va qo'llashga o'rgatish orqali, ularning ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

2. Interaktiv o'qitish. Interaktiv usullar, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi va o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi. Bu usulda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida doimiy aloqalar o'rnatiladi va yangi g'oyalar, fikrlar va innovatsiyalarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

3. Kreativ fikrlashni rivojlantirish. Kreativ fikrlash, nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni, balki ularni yaratishda yangi shakllarda ishlatish va yangicha qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. Bu pedagogik metod yordamida o'qituvchilarning ijodiy tafakkuri yanada rivojlanadi [3: 3].

O'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar. Ijodiy tafakkurning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish uchun pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Quyida asosiy muammolar va ularga izohlar berilgan:

1. Ta'lim tizimidagi an'anaviy yondashuvlar. Ko'p hollarda ta'lim tizimi an'anaviy metodlarga asoslanadi, bu esa o'qituvchilarni ijodiy fikrlashga undashda qiyinchiliklar yaratadi. Bu muammoni hal qilish uchun, ta'lim tizimining yangilanishi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur.

2. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi. Ba'zi o'qituvchilar ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodik va psixologik bilimlarga ega emas. Shu sababli, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni ijodiy tafakkurga yo'naltirish uchun qo'shimcha kurslar va seminarlar tashkil etish lozim.

3. Motivatsiya yetishmasligi. O'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda motivatsiyaning yetishmasligi ham muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilarni yangi metodlarni

o'rganishga undash uchun ularni rag'batlantirish, motivatsion tizimlarni yaratish muhimdir.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar. O'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

1. Pedagogik o'qituvchilarning doimiy rivojlanishi. O'qituvchilarni doimiy ravishda yangi pedagogik metodlar va texnologiyalar bilan tanishtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llash. Innovatsion texnologiyalar va metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish, o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi.

3. Ta'lim tizimining yangilanishi. Ta'lim tizimining zamonaviy talablarga moslashishi, o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi [4:3].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish nafaqat pedagogik faoliyatning sifatini oshiradi, balki o'qituvchilarning ta'lim olish jarayonini yangilaydi va innovatsion yondashuvlarga yo'l ochadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim tizimida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik metodlar, shart-sharoitlar va yangi yondashuvlarni joriy etish zarur. O'qituvchilarning ijodiy tafakkuri, zamonaviy ta'lim jarayonining asosi sifatida o'qituvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.
2. Aleks Moore. Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – New York: Routledge, 2012.
3. Turpova M. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ijodiy fikrlashini shakllantirishning pedagogik asoslari // Pedagogik mahorat, 2025.
4. Turpova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarleri, 2025.

Rushana AZIMJONOVA,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tadqiqotchisi,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi dotsenti;*

Djaxangir GULYAMOV,

pedagogika fanlari nomzodi

XULQDAGI OG'ISHUV (maktab o'quvchilari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy, MDH va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida "deviatsiya" tushunchasining mohiyati, turlari, o'smirlar xulqidagi og'ishlarning sabablari, obyektiv va subyektiv omillari hamda ularning asosiy belgilari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: deviatsiya, xulq, ijobiy va salbiy og'ishlar, og'ish sabablari va omillari, xarakterologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit.

Annotation. This article presents a comprehensive review of the concept of "deviation", including its types, causes, and the objective and subjective factors influencing such behaviors, based on the analysis of scientific research conducted by national, CIS, and international scholars.

Keywords: deviation, behavior, positive and negative deviations, causes and factors, character traits, social environment.

Аннотация. В настоящей статье на основе анализа научных исследований отечественных и зарубежных ученых всесторонне раскрыта сущность понятия «девиация», её виды, причины поведенческих отклонений у подростков, а также объективные и субъективные факторы, влияющие на эти процессы.

Ключевые слова: девиация, поведение, положительные и отрицательные отклонения, причины и факторы, характерологические особенности, социальная среда.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan ustuvor yo'nalishlardan biri – ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlariga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish hisoblanadi. Shu sababli,

yangicha ta'limni shakllantirish va xalqaro ta'lim muhitini yaratish – uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir.

Respublikamiz rahbari tomonidan imzolangan bir qator direktiv hujjatlarda ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-

metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbir etish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni sifatli va samarali hal etish uchun ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va uslublarini joriy qilish, ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoit yaratish kerakligiga O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida urg'u berganlar.

O'smir yoshdagi o'quvchilar xulqida kuzatiladigan deviatziya (me'yordan og'ish) holatlari bugungi kunda pedagogik va psixologik tadqiqotlarda muhim muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy o'zgarishlar, oila muhitidagi tanazzul, axborot oqimining ortgani, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, ta'limdagi raqobat va emotsional yordam yetishmasligi o'smirlarda turli salbiy xulq-atvor shakllarining yuzaga kelishiga turtki bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqotda o'smir o'quvchilar xulqidagi deviant holatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish maqsadida "deviatziya" va "pedagogik og'ish" tushunchalariga doir mahalliy va xalqaro tadqiqotlar, psixologik-pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rganilib, mavjud nazariy yondashuvlar, kategoriyalar va tasniflar shakllantirildi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar va xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni "qiyin o'smir" yoki "tarbiyalash og'ir o'smir" deyiladi. "Tarbiyalash og'ir" deganda, o'smirning pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatishi tushuniladi. Og'ish ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik xodisasining jihatlaridan biri hisoblanib, insonning atrofdegilar bilan o'zaro munosabatini aks ettiradigan me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorda o'z ifodasini topali. Ijtimoiy pedagogikadan atamalar lug'atida deviatziya xodisasini tarbiyalanishi og'ir bo'lgan, qabul qilingan ijtimoiy me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligi, deb izohlanadi. Deviatziya xodisasi bola (o'smir)ning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratmaslik natijasida paydo bo'ladi. Ijtimoiy xulqdagi buzilishni bolalar va o'smirlarning rivojlanishi jarayonida tez-tez uchraydigan fenomen hisoblanib, "deviatziya", "deviant xulq", "delinkvent xulq" kabi tushunchalarining qo'llanilishi "xulq me'yori" tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, deviant xulqni me'yordan va, shu bilan birga, delinkvent xulqdan, ya'ni huquqbuzarlikdan qat'iy mezonlar asosida ajratish birmuncha mushkul hisoblanadi. Xorijiy psixologiya va kriminologiyada "deviant xulq" tushunchasining quyidagi ta'riflari mavjud. Xususan, Buyuk britaniya olimlarining tadqiqotlarida "deviant xulq" tushunchasi "jamiyatda mavjud bo'lgan va shakllanib bo'lgan, qabul qilingan me'yorlardan og'ish" deb qaraladi. Bunda "noqonuniy vositalar yordamida maqsadga erishish, buning oqibatida esa jamiyatdan ajratish, ozodlikdan mahrum qilish va boshqa jazo turlarini qo'llash, ... har qanday ijtimoiy me'yorlarni buzish" deb qaraladi (Paatova M.E. i dr., 2012).

Olimlarning ko'pchiligi "deviant xulq" tushunchasiga ta'rif berar ekanlar, odamning ijtimoiy xulq-atvori va munosabatlaridagi hamda psixik o'zini boshqarishidagi kamchiliklariga ishora qiladilar [Gulyamov D. 2023]. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy tadqiqotchilar deviant xulqni delinkvent xulq bilan bir xil, deb hisoblaydilar.

Og'ish (deviatziya) bu – ma'lum bir ijtimoiy guruhda "me'yori" deb e'tirof etilgan standartlardan farq qiluvchi ijtimoiy xulq-atvorlarni qamrab oladigan xodisadir. Bu fenomen insoniyatga ma'lum bo'lgan barcha jamiyatlarda ma'lum darajada kuzatilgan [6].

O'smirlik davrida bolaning hayot-faoliyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar uni psixikasi hamda odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllariga ta'sir qiladi. M.M.Aliqulova va A.A.Tojaliyev o'smirlik davrining o'ziga xosligi, bolalikdan kattalik yoshiga o'tish vaqtida fiziologik o'zgarishlar, jinsiy yetilishning jadallashuvi sharoitida o'smirlarda salbiy hulq namoyon bo'lish jarayoni uch turga bo'ladi:

- Birinchi tur – o'smirlik davrining jo'shqin, ziddiyatli kechishi. Bunda 11–12 yoshli o'smirda beboshlik, urushqoqlik kabi alohida belgilar paydo bo'ladi.

- Ikkinchi tur – 11–13 yoshli qizlar va 14–16 yoshli o'g'il bolalar xulqida salbiy (negativ) fazada nozik tabiatlilik, ijtimoiy muhit ta'siriga sezitivlik, tez o'zgaruvchanlik, bezovtalanish, jismoniy va ruhiy darmonsizlik, o'zidan norozi bo'lish kabi holatlar kuzatiladi.

- Uchinchi tur - voyaga yetmagan o'smir shakllanishining ongli va faol ravishda o'z-o'zini tarbiyalash, xavotir va inqirozlarni mustaqil yengish davri bo'lib, ular xulqida yoki agressiv o'z-o'zini himoya qilish yoki passiv melanxoliya pozitsiyasini egallash kuzatiladi. Salbiy faza yakuni jismoniy yetilishning yakunlanish vaqtiga to'g'ri keladi [4].

K.Ferszt-Pifat "Og'ish, o'quvchilar xavfsizligi va o'qituvchilar uchun ma'lumot" mavzusidagi maqolasida sotsiologlar tomonidan qo'llaniladigan og'ishning ikki xil ko'rinishi – musbat va manfiy og'ish – o'rtasidagi farq to'g'risida to'xtaladi. Jamiyat tomonidan deviant deb baholananadigan xulq-atvorlarning barchasi ham ijtimoiy xavfli yoki salbiy bo'lmasligi mumkin. Masalan, g'alati soch turmagi yoki g'ayrioddiy kiyinish kabi holatlar kattalarda xavotir uyg'otishi mumkin, biroq yoshlar uchun bunday xulq-atvor muayyan qoidalarga qarshi isyon shaklida va o'z shaxsiylik hamda identifikasiyani izlash jarayoni bilan bog'liq bo'ladi [6]. N.M.Egamberdieva pedagogik og'ish bolaning ta'lim olmaganligi yoki ololmaganligi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Bunday holatlar yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida quyidagilar keltirilgan: dars qoldirish o'qishga intilishni susaytirishi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko'chaga chiqarishi, ekologik va ijtimoiy kataklizmalar bolalar ota-onalaridan judo bo'lishlariga olib kelishi va, oqibatda, daydilikka moyilligi bo'lgan bolalar sonining ortishi va shu kabilar [5: 165–166].

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning og'ishgan xulq-atvori quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: 1) ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilmaydigan o'quvchilar; 2) o'quv mashg'ulotlarini uzrli sababsiz o'tkazib yuboradigan, turli tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishdan qat'iy bosh tortadigan o'quvchilar; 3) aksariyat o'quvchilar bilan ziddiyatli munosabatda bo'ladigan bolalar; 4) o'qituvchilar, maktab ma'muriyati bilan ziddiyatli munosabatlarga boradigan o'quvchilar. Shu sababli, o'quvchilarning (ayniqsa xulqida og'ish bo'lganlarining) individual xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishdan avval mazkur og'ishlarning tabiati, kelib chiqish sabablari, shakllanish va rivojlanishlariga ta'sir qilgan omillarni pedagogik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy diagnostika metodlari yordamida aniqlashlari muhim hisoblanadi [8].

Tadqiqot davomida jamlangan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'smir o'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishlar ko'p

hollarda kompleks va ko'p omilli xususiyatga ega. Bunday og'ishlar nafaqat psixologik yoki fiziologik sabablarga, balki pedagogik muhit, oila tarbiyasi va maktab-sinf tizimidagi ijtimoiy munosabatlarga ham bog'liq ekanligi aniqlandi. O'smirlik – tarbiyaviy ta'sir uchun ancha qiyin va murakkab bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda bolaning psixikasi hamda odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllari uni hayot-faoliyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga ta'sir qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smir o'quvchilar xulqidagi og'ishlar – nafaqat shaxsiy-psixologik xususiyatlar, balki pedagogik, oilaviy va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi ko'p omilli fenomen. Deviant xulq-atvor turlari jamiyatda umumiy qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqish ko'rinishida namoyon bo'ladi, biroq ularning barchasi ham ijtimoiy xavfli deb baholanmasligi lozim. Ayrim og'ishlar shaxsning ijobiy rivojlanish imkoniyatlarini ham ifodalab berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Aliqulova M., Tojaliev A. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning paydo bo'lish xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim, 2019, 8(81). – B. 37–43.
5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika (darslik). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 234 b.
6. Ferszt-Pilat K. Deviation and students' safety and information for teachers // Wyd. WSGE, 2013.
7. Gulyamov D., Akramova G., Azimjonova R. K вопросу педагогического отклонения в поведении учащихся: сущность, фактори и причины возникновения // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №4. – С. 155–162.
8. Gulyamov D., Azimjonova R. Maktab o'quvchilari xulqidagi me'yordan og'ishlar: ilmiy tadqiqotlar talqini // Pedagogik mahorat, 2024, №3. – B. 12–17.
9. Ijtimoiy pedagogikadan atamalar lug'ati / Tuzuvchilar: Sh.Karaboyeva va N.Abdusamatova. – Namangan: NamDU, 2017.

Abdumalik SHARIPOV,

Navoiy davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasida dotsent v.b.

TA'LIMDA INTERFAOL VOSITALARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida interfaol vositalardan foydalanish orqali o'qituvchi va talabning belgilangan maqsadga erishish yo'llari tahlil qilinadi. Interfaol metodlarning o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va hamkorlikda ishlashda ahamiyati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, verbal, noverbal, vizual, audio va tabiiy vositalardan samarali foydalanishning o'ri, muammoli va hayotiy vaziyatlardan foydalanish orqali o'quv jarayonini jonlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: interfaol vositalari, qobiliyat, verbal muloqot, noverbal vositalar, vizual vositalar, audio vositalar, tabiiy vositalar.

Annotation. This article analyzes the ways teachers and students achieve the set goal through the use of interactive tools in the educational process. The importance of interactive methods in the development of students' intellectual abilities, teaching independent thinking, and collaborative work is emphasized. At the same time, the role of effective use of verbal, nonverbal, visual, audio and natural means, the possibilities of revitalizing the educational process through the use of problematic and real-life situations are considered.

Keywords: interactivity tools, ability, verbal communication, nonverbal tools, visual tools, audio tools, natural tools.

Аннотация. В данной статье анализируются пути достижения поставленной цели преподавателем и студентом посредством использования интерактивных средств в образовательном процессе. Подчеркивается важность интерактивных методов в развитии интеллектуальных способностей учащихся, обучении самостоятельному мышлению и совместной работе. При этом рассматривается роль эффективного использования вербальных, невербальных, визуальных, аудио и естественных средств, возможности оживления учебного процесса за счет использования проблемных и жизненных ситуаций.

Ключевые слова: инструменты интерактивности, способности, вербальное общение, невербальные инструменты, визуальные инструменты, аудио инструменты, природные средства.

Ta'limda pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu – o'qituvchi-trener va talaba – o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq. Ta'lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Interfaol vositalardan foydalanilganda. Interfaol usul nima? An'anaviy ta'limda "Nimani? Qachon? va qayerda?"

muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarida "Qanday qilib o'rgatish kerak?" degan muammo muhim o'rinni egallaydi va hozirgi davrning ta'limida o'z aksini topib kelmoqda [4]. O'qituvchining ta'lim oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lim oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali yo'lini topa olishi bu pedagogik taktika hisoblanadi. Tinglovchilar bilan muloqotda pedagogik taktikaga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli qo'pol so'zlar ishlatish tinglovchilar qalbini umuman

tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi yoki o'qituvchining obro'ygiga putur yetkazishi mumkin.

Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi va o'rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini "Hamkorlik pedagogikasi" deb atashmoqda [1]. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. *Inter* so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha "oraliq", "o'rtasi", "o'zaro" kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar) dan tarkib topadi.

Hamkorlikka asoslangan, talaba-o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, talaba-o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgarar manfaatlar bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan "interfaol" o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ijobiy samara bermoqda. Interfaol usullar guruhidagi kichik guruhlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, talaba-o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab, ruhlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydilar. Har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilganida o'rganuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bahsli, muammoli vaziyat - insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bogliq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir [5]. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar talaba-o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidiradi boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi va qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, buning natijasida intellektual qobiliyatlar ham shakllana boradi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. o'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Talaba-o'quvchilar o'zlari bajargan, topshiriqlarni qanday qilib bajarganligini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Qanday o'ylagani, fikrlagani haqida gapirib bera olishlari

kerak. Muammoni hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi o'rgatuvchi uchun juda muhimdir.

Zamonaviy ta'limda talaba o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va bir-birini tushunishlari uchun turli xil interfaol vositalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Noverbal vositalari mimika, qo'l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlashdan iborat. Noverbal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'rnini boshqa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma'lum ma'noga ega bo'lib, bu harakatlarni turli xalqlarda turlicha tushuniladi. Bu harakatlarni "Noverbal nutq" deb nomlash qabul qilingan.

Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o'quvchilar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlar, fotosuratlar, tasviriy san'at asarlari, video, kino tasvirlar, slaydlar, taqdimotlar, jonivorlar, o'simliklar, tabiat obyektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi. **Audio vositalar** eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, yani bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozi video tasvirlardan foydalaniladi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin. **Tabiiy vositalarga** pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob - uskunalar, buyumlar, mashinalar, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat. Talaba o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligiga hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Zamonaviy ta'limda maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish ham o'qituvchi, ham talaba o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'yg'an maqsad, tanlangan metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq va bu texnologiyalarni to'g'ri tanlash orqali talaba-o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari ham rivojlanadi. O'qituvchi va o'quvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi talaba-o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axatova D., Axatova X. Pedagogik faoliyatda hamkorlik pedagogikasining o'rnini va ahamiyati / "Ta'lim sifati oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023.
2. Ochilov Sh. Texnologiya fanini fanlararo o'qitishda o'quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari // Science and Innovation, 2022, № 1/7. – B. 1059–1064.
3. Davronov P. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Samarqand, 2008.
4. Arziqulov U. Interfaol usullar. – Samarqand, 2003.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2006.

Patima TASHXODJAYEVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida ingliz tilining o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, "Medical English" (tibbiyotga ixtisoslashgan ingliz tili)ni samarali o'qitish tibbiyot talabalari uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada "Medical English"ni o'qitishda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar, jumladan, kommunikativ yondashuv, vazifa asosida o'qitish, holatli (case-based) ta'lim, rolli o'yinlar, simulyatsiya mashg'ulotlari hamda mobil texnologiyalar asosidagi o'qitish usullari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Innovatsion metodlarning afzalliklari, ularning tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida qo'llash imkoniyatlari va ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: tibbiyotda ingliz tili, innovatsion metodlar, ESP, kommunikativ yondashuv, mobil ta'lim.

Annotation. The role and importance of the English language in the modern system of medical education is constantly growing. In particular, effective teaching of "Medical English" is an important factor in the formation of professional competence of medical students. In this article, innovative methods used in teaching "Medical English", including a communicative approach, task-based learning, case-based learning, role-playing games, simulation classes, and teaching methods based on mobile technologies, are analyzed from a scientific and theoretical point of view. The advantages of innovative methods, the possibilities of their application in medical higher educational institutions, and their influence on the effectiveness of education are highlighted.

Keywords: Medical English, innovative methods, ESP, communicative approach, mobile learning.

Аннотация. Роль и значение английского языка в современной системе медицинского образования постоянно возрастают. В частности, эффективное обучение «Medical English» (медицинскому английскому языку) является важным фактором формирования профессиональной компетенции у студентов-медиков. В данной статье научно-теоретически анализируются инновационные методы, используемые в преподавании «Medical English», включая коммуникативный подход, обучение на основе задач, ситуационное обучение (case-based), ролевые игры, симуляционные занятия и методы обучения на основе мобильных технологий. Освещаются преимущества инновационных методов, возможности их применения в медицинских высших учебных заведениях и их влияние на эффективность образования.

Ключевые слова: медицинский английский язык, инновационные методы, ESP, коммуникативный подход, мобильное обучение.

Globalashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda zamonaviy tibbiyot fanining integratsiyalashuvi natijasida ingliz tili xalqaro tibbiy muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Bugungi kunda ilmiy-tibbiy maqolalar, klinik protokollar, tibbiy qo'llanmalar va xalqaro konferensiyalarning katta qismi ingliz tilida olib borilmoqda. Shu sababli tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun Medical Englishni puxta egallash kasbiy zarurdir.

O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Medical English fanini o'qitish jarayoni asosan birinchi bosqichlardan boshlanadi. Biroq an'anaviy grammatika va tarjima usullariga asoslangan darslar talabalarining real kasbiy ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Natijada talabalar tibbiy terminologiyani amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois Medical Englishni o'qitishda innovatsion, interaktiv va kasbiy yo'naltirilgan metodlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – tibbiy ingliz tilini o'qitishda qo'llanilayotgan innovatsion metodlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini yoritib berishdan iborat.

Kommunikativ yondashuv tilni real muloqot jarayonida o'rganishga asoslangan bo'lib, Medical English darslarida keng qo'llaniladigan samarali metodlardan biridir. Ushbu yondashuv talabalarni faol muloqotga jalb etish, ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan erkin foydalanishga o'rgatishga xizmat qiladi. Masalan, shifokor–bemor suhbatlari, klinik holatlarni muhokama qilish va tibbiy maslahat berish kabi mashg'ulotlar kommunikativ yondashuv asosida tashkil etiladi [3: 32]. Kommunikativ metod talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Task-Based Learning metodida til o'rganish jarayoni aniq kommunikativ vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Medical English darslarida bunday vazifalar bemorning

anamnezini tuzish, tashxis qo'yish jarayonini izohlash yoki davolash usullarini muhokama qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Ushbu metod talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega [4: 87]. Task-Based Learning talabalarining amaliy til ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni mustaqil ishlashga undaydi. Case-based ta'lim metodi real yoki modellashtirilgan klinik vaziyatlar asosida o'qitishni nazarda tutadi. Ushbu metod Medical Englishni o'qitishda talabalarni tahliliy fikrlashga, muammolarni aniqlash va ularni ingliz tilida muhokama qilishga o'rgatadi. Case-based learning talabalarining terminologik bilimini mustahkamlash bilan birga, kasbiy nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi [5: 61].

Rolli o'yinlar va simulyatsiya mashg'ulotlari Medical English darslarida eng samarali interaktiv metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar orqali talabalar shifokor, bemor, hamshira yoki mutaxassis rollarini bajarib, real kasbiy vaziyatlarni modellashtiradilar. Natijada talabalar o'z kasbiy rolini anglaydi va ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan ishonchi ortadi [6: 104]. Zamonaviy ta'lim jarayonida mobil texnologiyalar muhim o'rin egallaydi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va raqamli resurslar Medical Englishni mustaqil va moslashuvchan tarzda o'rganish imkonini beradi. Mobil-assisted language learning (MALL) yondashuvi talabalarining motivatsiyasini oshirishi, lug'at boyligini kengaytirishi va o'rganish jarayonini individuallashtirishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan [7: 275].

Tibbiy ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o'quv jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Yuqorida tahlil qilingan metodlar talabalarining nafaqat til bilimlarini, balki kasbiy kompetensiyalarini ham shakllantirishga yordam beradi. O'zbek olimlari olib borgan tadqiqotlar ham interaktiv metodlarning talabalarining nutqiy faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [8: 47; 9: 35].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Dudley-Evans T., St John M. Developments in English for Specific Purposes. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
3. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
4. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.

Guldona TOSHPULATOVA,

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Muloqot madaniyatining shaxs kamolotidagi o'rni, uni shakllantirishda tarbiya darslarining imkoniyatlari va interfaol metodlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish, ijobiy psixologik muhit yaratish, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim jarayonining pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya darslari, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, ijtimoiy muloqot, shaxs kamoloti, ijobiy psixologik muhit, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Annotation. This article analyzes the pedagogical conditions for the development of students' communication culture during upbringing lessons. The role of communication culture in personality development, the possibilities of educational lessons and the importance of interactive methods in its formation are highlighted. Also, the organization of effective communication between students, the creation of a positive psychological environment, the communicative competence of the teacher, and the pedagogical conditions of the educational process based on national and universal values are substantiated. The research results serve to increase the effectiveness of upbringing lessons.

Keywords: moral education lessons, communication culture, communicative competence, pedagogical conditions, interactive methods, social communication, personal development, positive psychological environment, national and universal values.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические условия развития культуры общения учащихся на уроках воспитания. Освещается роль культуры общения в развитии личности, возможности уроков воспитания и значение интерактивных методов в ее формировании. Также обоснованы педагогические условия организации эффективного общения между учащимися, создания позитивной психологической среды, коммуникативной компетентности учителя и образовательного процесса, основанного на национальных и общечеловеческих ценностях. Результаты исследования служат повышению эффективности уроков воспитания.

Ключевые слова: уроки воспитания, культура общения, коммуникативная компетентность, педагогические условия, интерактивные методы, социальное общение, развитие личности, благоприятная психологическая среда, национальные и общечеловеческие ценности.

Zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida shaxsni ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va muloqotga kirisha oladigan yetuk inson sifatida shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar samaradorligi bevosita insonning muloqot madaniyati, nutqiy savodxonligi hamda kommunikativ kompetensiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan tarbiya darslari o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun muhim pedagogik maydon vazifasini bajaradi.

Muloqot madaniyati o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida, jamoadagi o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yishda va ijtimoiy muhitga moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarda tinglash madaniyati, o'z fikrini erkin va asosli bayon etish, suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda hamkorlikda faoliyat olib borish ko'nikmalari tizimli ravishda shakllantiriladi. Biroq mazkur jarayonning samaradorligi uni tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiiy izlanishlarda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish, ijobiy psixologik muhit yaratish, o'qituvchining kommunikativ tayyorgarligi hamda ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish muloqot madaniyatini

shakllantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etilmoqda. Shunga qaramay, tarbiya darslari doirasida mazkur omillarni yagona tizim asosida tashkil etish va ularning pedagogik shart-sharoitlarini aniq belgilash masalasi yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularning mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilib belgilandi. Tadqiqot natijalari tarbiya darslarini samarali tashkil etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tarbiya darslari o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi, chunki u orqali ular tinglash, fikr bildirish va suhbatdoshga hurmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi [1: 45].

O'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda muloqot shaxsning ijtimoiylashuvi, nutqiy rivoji va axloqiy kamolotida yetakchi omil sifatida e'tirof etiladi. Psixolog olimlar L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev va J.Piaget asarlarida muloqot bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim vosita ekanligi ilmiy asoslangan. Ularning fikricha, ijtimoiy muhitda tashkil etilgan muloqot jarayoni o'quvchilarning tafakkuri va nutqining rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarda

muloqot madaniyati kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. O'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlar, guruhli ishlar va bahs-munozaralarning samaradorligi ta'kidlanadi. Muloqot madaniyati nafaqat shaxsning ijtimoiy faolligi va nutqiy savodxonligini rivojlantiradi, balki jamoadagi munosabatlarni mustahkamlash va axloqiy-psixologik fazilatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi [3: 90]. Shuningdek, tarbiya darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ijobiy psixologik muhit yaratish hamda o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida ko'rsatiladi. Interfaol metodlardan foydalanish va ijobiy psixologik muhit yaratish o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2: 34].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan bo'lsa-da, uni aynan tarbiya darslari jarayonida tizimli tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotda tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish maqsadida nazariy va amaliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy qismida pedagogika va psixologiya fanlariga oid ilmiy manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or ta'lim tajribalari tahlil qilinib, muloqot madaniyatini shakllantirishga doir ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Amaliy bosqichda ta'lim jarayonini kuzatish, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish, savolnoma metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning muloqot madaniyati darajasi hamda tarbiya darslarining mavjud holati aniqlandi. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov

ishlari tashkil etilib, interfaol metodlar asosida olib borilgan mashg'ulotlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar tarbiya darslarida o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiya darslari o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Muloqot madaniyati o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, nutqiy qobiliyati va jamoadagi o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot tarbiya darslaridagi pedagogik shart-sharoitlar muloqot madaniyatini rivojlantirish samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatdi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, interfaol metodlarni qo'llash, ijobiy psixologik muhit yaratish, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish va o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini oshirish samarali natija beradi.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarda muloqot etiketi va madaniyatini mustahkamlashga yordam beradi. Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: tarbiya darslarida muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy va interfaol topshiriqlarni keng qo'llash; o'qituvchilar uchun kommunikativ kompetensiyani oshirishga qaratilgan metodik treninglar tashkil etish; tarbiya darslarida erkin va ijobiy muloqot muhitini yaratish. Ushbu tavsiyalar tarbiya darslarining samaradorligini oshirish va o'quvchilarda muloqot madaniyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Tarbiya va ta'lim asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Ziyodova M. Interfaol ta'lim metodlari va muloqot kompetensiyasi. – Toshkent: Ilm, 2018.
3. Vygotskiy L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard: Harvard University Press, 1978.
4. Leontyev A. Activity, Consciousness, and Personality. – New Jersey: Prentice Hall, 1978.
5. Piaget J. The Child's Conception of the World. – London: Routledge, 1929.
6. Abdulla Qodiriy. Muloqot va tarbiya jarayoni. – Toshkent: Ma'rifat, 2010.
7. Abdurauf Fitrat. Ta'lim va tarbiya metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2005.

Tursunoy YUSUPOVA,

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi*

TIL TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada til ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ, kompetensiyaviy va kognitiv-pragmatik yondashuvlar, shuningdek, ularning lingvistik, psixolingvistik va metodik tamoyillari o'rganilgan. O'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ilmiy va metodik tadqiqotlar, mashqlar va ularning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, suhbatdagi kinoya va diskursni boshqarish kabi pragmatik kompetensiyaning asosiy jihatlari sanalgan.

Kalit so'zlar: pragmatik kompetensiya, pragmatik yondashuv, kommunikativ-kognitiv metodlar, lingvistik, psixolingvistik, metodik tamoyillar, mashqlar, mazmun, mashq turlari.

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of students' pragmatic competence in language education. Communicative, competency-based, and cognitive-pragmatic approaches, as well as their linguistic, psycholinguistic, and methodological principles, were studied. Scientific and methodological research, exercises, and their content aimed at the formation of pragmatic competence in students are highlighted. The main aspects of pragmatic competence are also considered, such as speech acts, politeness strategies, irony in conversation, and discourse management.

Keywords: pragmatic competence, pragmatic approach, communicative-cognitive methods, linguistic, psycholinguistic, methodological principles, exercises, content, types of exercises.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методические основы развития прагматической компетенции учащихся в языковом образовании. Изучены коммуникативный, компетентностный и когнитивно-прагматический подходы, а также их лингвистические, психолингвистические и методические принципы. Освещены научно-методические исследования, упражнения и их содержание, направленные на формирование прагматической компетенции у учащихся. Также перечислены основные аспекты прагматической компетенции, такие как речевые акты, стратегии вежливости, ирония в разговоре и управление дискурсом.

Ключевые слова: прагматическая компетенция, прагматический подход, коммуникативно-когнитивные методы, лингвистические, психолингвистические, методические принципы, упражнения, содержание, виды упражнений.

Jahon pedagogikasida o'quvchilarda til sathlariga doir lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogic texnologiyalarni yaratish hamda ta'lim tizimiga joriy etish til ta'limining bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Shu sabab ona tili ta'limida nazariyadan amaliyotga tamoyili asosida o'quvchilarning tilning asosiy fonetik, leksik-semantik, Grammatik sathi va birliklariga doir lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ona tilini o'qitish jarayonida va jahon amaliyotida kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kognitiv lingvistika, kognitiv psixologiya, kognitiv va pragmatik metodikaning turli muammolari bo'yicha mamlakatimizda, shuningdek, qator xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniyaning qator universitetlarida ona tili va boshqa xorijiy tillar kognitiv va pragmatik yo'nalishlarini (strategiyalarini) shakllantirish texnologiyalari, metod va yondashuvlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [1].

Ta'lim amaliyotiga kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashuv uzoq davr ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim berishning yetakchi mavqeda bo'lib kelgani bois amaliy ko'nikmalarning shakllanmay qolishi bilan bog'liq salbiy oqibatlariga barham beradi. "Bunda an'anaviy ta'limda ustun bo'lgan *"bilish paradigmasi"* o'rniga *"bilimlardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish"* paradigmasi ustunlik qilmoqda" [2] – deyiladi A.Nurmanov va G.Ziyodullayevning "O'quvchilarning til komponentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari" nomli maqolasida. Ular bu fikrlari bilan bunday yondashuv bilish paradigmasini inkor etmasligini va u har qanday amaliy faoliyat ibtidosi bilim ekanligini ta'kidlaydi. Ammo bunday yondashuv muammoli vaziyatlarda qo'llay olish paradigmasiga bo'ysunadigan orqa plandagi paradigma holatiga tushishiga sabab bo'ladi. Tasavvur qilaylik, o'quvchi fanlardagi qonun, qoida, ta'riflarni yodlagan. Qaysi biri haqida so'rasangiz ularni yoddan aytib bera oladi. Ammo ularni amaliyotda qo'llashni o'rganmagan bo'lsa, qachon, qayerda va qay tarzda qo'llashni bilmaydi, tezda yod olganlari ham yoddan ko'tariladi. Bunday holat esa lingvistik bilimlarni hayotda o'z o'rnida ishlata olmasligiga va asta-sekin xotirasidan ham ko'tarilib ketishiga olib keladi. Demak, har qanday mazmun va shaklda bo'lmasin, ta'lim-tarbiya jarayonida samarali, va sifatli natijaga erishmoq uchun, albatta, oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishi oydinlashtirib olinadi. Bu, albatta, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sinflar kesimida ta'limning ongillik, uzviylik va uzluksizlik, oddiydan murakkabga rivojlanib borish kabi tamoyillarga asoslangan belgilanadi va amalga oshiriladi.

Pragmatik kompetensiya – turli xil ijtimoiy vaziyatlarda tildan to'g'ri foydalanish qobiliyatidir. U nutq harakatlarini, xushmuomalalik strategiyalarini, suhbat qoidalarini va madaniy me'yorlarni tushunish va ishlab chiqishni o'z

ichiga oladi. Manbalarda berilgan ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, pragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u grammatik, sotsiolingvistik va nutqiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Pragmatik kompetensiya til o'rganuvchilarga tushunmovchiliklardan qochish va o'z fikrlarini samarali ifoda etish imkonini beradi. Busiz, hatto grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan jumlar noto'g'ri qo'llanilishiga olib kelishi mumkin. Ma'lumki, pragmatik kompetensiya, tildan kontekst va madaniy jihatlarga mos usullarda foydalanish qobiliyati kommunikativ kompetensiyaning asosidir. An'anaviy til o'rgatish jarayoni grammatik qoidalar va lug'at boyligini birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsa-da, pragmatik kompetensiya o'quvchilarga ijtimoiy me'yorlar, xushmuomalalikka rioya qilgan holda tildan foydalanish imkonini beradi. Tildan foydalanish jarayonida nutq grammatik jihatdan benuqson bo'lsa ham, tildan foydalanuvchida pragmatik kompetensiyaning yo'qligi tildan foydalanish jarayonida bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy tadqiqotlardagi fikrlarga ko'ra, quyidagi jihatlar pragmatik kompetensiyani tashkil qiladi: 1) nutq aktlari; 2) xushmuomalilik strategiyalari; 3) suhbatdagi kinoya; 4) diskurs (nutq)ni boshqarish.

Nutq aktlari. Nutq akti nazariyasi – gaplar orqali inson qanday amaliy harakatlarni amalga oshirishini o'rganuvchi konsepsiya. Bu nazariya tilshunoslik, falsafa va muloqotshunoslik sohalarini o'zaro bog'lab turuvchi muhim nazariy asosdir. Dastlab John L.Ostin ilgari surgan bu g'oyani keyinchalik John Searle takomillashtirdi. Keyingi yillarda til va madaniyat o'zaro kesishgan ilmiy yondashuvlar natijasida bu nazariya yangi semantik va pragmatik tahlillar bilan boyidi. Kundalik nutqda gaplar faqatgina ma'lumot berish uchun emas, balki turli xil maqsadlarda ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, J.L.Ostin "How to Do Things with Words" asarida nutqiy aktlari nazariyasini taqdim etdi [4]. J.L.Ostin nutq aktini faqatgina gapning ma'nosi emas, balki uning nutq vaziyatidagi maqsadi va ta'siri bilan birgalikda o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. U gaplarni 3 ta o'lchamda tahlil qildi. Bular:

1. Illokutsion akt (gapiruvchining maqsadini bildiruvchi bosqich. Bu bosqichda faqatgina aytilayotgan gapning ma'nosi emas, balki uning ortida yotgan kommunikativ niyat ham inobatga olinadi).

2. Lokutsion akt (to'g'ridan to'g'ri nutq birligini yaratish jarayoni. Lokutsion akt asosan ifodaning ma'nosi va referensiyasi bilan bog'liq bo'lib, gapning kognitiv mazmunini bildiradi).

3. Perlokutsion akt (aytilgan gapning tinglovchiga ko'rsatgan real ta'siri, ya'ni u orqali qanday o'zgarish ro'y berishini anglatadi. Gap orqali tinglovchining fikri, hissiyoti yoki harakatiga ta'sir etiladi. Masalan, biror gapdan so'ng kimningdir ishga kirishishi yoki fikrini o'zgartirishi perlokutsion natijadir. Ostinning g'oyalari til falsafasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Xushmuomalilik strategiyalari. P.Braun va S.Levinsonning xushmuomalilik nazariyasi 1987-yilda nashr etilgan “Politeness: Some Universals in Language Use” [3] (“Xushmuomalilik: tildan foydalanishdagi ba’zi universalliklar”) monografiyasi orqali allaqachon sotsiolingvistika va lingvopragmatika sohasida mumtozlikka (klassikaga) aylandi. P.Braun va S.Levinsonning bu nazariyasi xushmuomalilik strategiyasini qondirishi kerak bo’lgan shaxsning xohish-istaklarini batafsil tushuntirishga asoslandi. Ijobiy xushmuomalilik (Positive politeness) – strategiyada asosiy e’tibor tinglovchining ijobiy yuziga tahdidni minimallashtirishga qaratiladi. Masalan, *It would be great for you to write the dissertation quickly and defend it in the recent days, I believe you will be able to do it.* (Dissertatsiyangizni tez yozib tugatib, yaqin kunlarda himoyaga chiqsangiz yaxshi bo’lardi, siz buni uddalalashizga ishoman). P.Braun va S.Levinson ijobiy xushmuomalilik strategiyalarini so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi birdamlikni (solidariy) ifodalash deb hisoblaydi. Xushmuomalilik strategiyalari ijtimoiy totuvlikni saqlashda va huquqbuzarliklarning oldini olishda yordam beradi.

Suhbatdagi kinoya. Suhbatda kinoya (ironiya) – gapning ma’nosini teskarisi orqali bildirish, yashirin tanqid, masxara yoki norozilikni ifodalash usuli bo’lib, u ko’pincha kulgi, hayrat yoki o’ziga xos o’tkirlikni yaratadi, ammo adresat uni tushinishi uchun kontekst va nutqning o’ziga xosligini bilish muhim; adabiyotda yozuvchilar uni personajlar munosabatini ochish va davrga baho berish uchun qo’llashadi. Kinoya aniq aytilmagan, ammo kontekstga asoslangan holda tushuniladigan ma’noni anglatadi. Kinoya qo’llanilganda so’zlovchi niyatini to’g’ridan-to’g’ri ifoda etmaydi. Masalan: A: Siz ziyofatga kelyapsizmi? B: Ertaga imtihonim bor. Dialogda birinchi shaxsning javobiga tinglovchi “Ertaga imtihonim bor” deya javob beradi, bu esa yashirin tarzda “ertaga ziyofatga bora olmayman” degan ma’noni anglatadi. Javob kinoya sifatida berilganiga qaramasdan, so’zlovchi (A) ikkinchi so’zlovchining (B) ziyofatga bora olmasligini tushunib yetadi.

Kinoyaning mohiyati quyidagilardan iborat: a) Ma’noning teskarisi (Aytilgan so’z aslida nazarda tutilgan ma’noga qarama-qarshi bo’ladi. Masalan, “Ajoyib ish qilibsani!” deganida, aslida yomon ish qilinganini nazarda tutish); b) Baholovchi nutq janri (tanbeh, maqtov kabi kinoya ham baholovchi bo’lib, odatda norozilik, hayrat yoki masxara hislarini ifodalaydi); d) Yashirin ma’no (kinoya orqali o’z fikrini to’g’ridan to’g’ri aytmasdan, o’quvchi/tengdoshning o’zi anglab olishini kutishadi). Suhbatda kinoya quyidagi

o’rinlarda qo’llaniladi: 1) munozara (personajlar o’rtasidagi munosabatdagi o’zgarishlarni ko’rsatish); 2) ijtimoiy tanqid (Yozuvchilar davr yoki jamiyatdagi nuqsонlarni yashirincha tanqid qilish uchun kinoyadan foydalanishadi); 3) intellektual o’yin (O’ziga xos hazil yoki o’tkirlik yaratish uchun, ammo bu yuzaki bo’lmasligi kerak). Demak, suhbatdagi kinoya – bu matnning tagida yotgan qatlam bo’lib, u gapning sirtqi ma’nosidan chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Diskurs (nutq)ni boshqarish. Diskurs (nutq)ni boshqarish. Nutqni boshqarish mavzuni qachon gapirish, to’xtatish yoki o’zgartirish kerakligini bilishni o’z ichiga oladi. Diskurs – shunchaki matn yoki nutq emas, balki ma’lum bir vaqt, joy, ijtimoiy sharoit va ishtirokchilarni o’z ichiga olgan, muloqot jarayonining butun majmuasidir; u til strukturasiidan tashqari, kommunikativ vaziyat, nutqning strategiyasi, ishtirokchilar xususiyatlarini ham qamrab oladi va lotincha “*discursus*” (muloqotni yuritish, suhbat)dan olingan bo’lib, “*nutq*” degan ma’noni bildiradi. Uning asosiy jihatlari quyidagilardan tashkil topadi: a) kengroq tushuncha (Matndan farqli o’laroq, diskurs til strukturasiidan tashqariga chiqib, muloqotning barcha elementlarini (ma’lum vaqt, kontekst, kommunikantlar) o’z ichiga oladi); b) dinamiklik (Diskurs doimiy harakatda, muloqot jarayonida yaratiladi va o’zgaradi, matn esa ko’pincha statsionar holatda bo’ladi); d) o’zaro ta’sir (Unda ishtirokchilarning o’zaro munosabati, strategiyalari va kommunikativ maqsadi muhim rol o’ynaydi; e) manba (lotincha “*discursus*” (muloqotni yuritish, harakat, suhbat) va fransuzcha “*discours*” (nutq) so’zlaridan kelib chiqqan). Diskurs va matnning farqi mavjud: **Matn** odatda yozma yoki og’zaki nutqning qat’iy strukturali qismi, aniq vaqtga bog’liq bo’lmasligi mumkin, eshitish va xotirlash uchun tuziladi. **Diskurs** ma’lum bir vaqt va sharoitda sodir bo’ladigan, muloqotning to’liq jarayoni; matnni o’z ichiga oladi, lekin undan kattaroqdir. Qisqacha aytganda, matn “nima”, diskurs esa “qanday”, “qachon”, “kim tomonidan” va “qanday maqsadda” degan savollarga javob beradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, pragmatik kompetensiya til o’rganuvchilarga o’rganilayotgan tilni samarali qo’llashga, o’sha tilda so’zlashuvchi xalqning madaniyatini chuqur o’rganishga yordam beradi. Pragmatik kompetensiyani oshirish uchun til o’rganuvchilardan nutq aktlari, tildagi xushmuomalilik usullari, kinoya, madaniy normalar kabilarni chuqur o’rganish va ularni amalda qo’llash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics, 1980. Vol. 1. – P. 1–47.
2. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
3. Пассов Е. Основы методики обучения иностранным языкам. М, 1987.
4. Биболетова М., Бим И., Щепилова А., Копылова В. Иностранный язык в системе школьного филологического образования (концепция) // Иностранные языки в школе, 2009, №1.
5. Гальскова Н. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. М., 2007.
6. Bruner J. In Search of Mind. – New York: London, 1983.
7. Ausubel D., Novak J., Hanesian H. Educational Psychology: A Cognitive View. – 2nd ed. – New York: Holt, Rinehart & Winston, 1978.
8. Flavell J. Metacognitive aspects of problem solving // The Nature of Intelligence / ed. by L.B.Resnick. – New York: Hillsdale, 1976.
9. Выготский Л. Вопросы детской психологии. М.: Перспектива, 2018.
10. Зимняя И. Педагогическая психология. М.: Логос, 1999.

Amina MUSAYEVA,

Osiyo xalqaro universiteti o'zbek va rus filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

O'ZGA TILLI TALABALARNING RUS TILINI O'RGANISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada o'zga tilli talabalarning rus tilini o'rganish motivatsiyasini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida adaptiv o'quv tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar va raqamli vositalarning motivatsion samaradorligi o'rganildi. Tajriba natijalari sun'iy intellekt texnologiyalari individual yondashuvni ta'minlab, o'quv jarayonida talabalar faolligi va ichki motivatsiyasini sezilarli oshirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: o'zga tilli talabalar, rus tili, motivatsiya, sun'iy intellekt, metodika, raqamli ta'lim.

Annotation. This article investigates a methodology for using artificial intelligence technologies to increase motivation in learning Russian among non-native students. The study analyzes adaptive learning systems and AI-based interactive tools. The findings show that artificial intelligence significantly enhances learners' motivation and engagement.

Keywords: non-native students, Russian language, motivation, artificial intelligence, teaching methodology.

Аннотация. В статье рассматривается методика использования технологий искусственного интеллекта для повышения мотивации изучения русского языка у иноязычных студентов. Анализируются адаптивные обучающие системы и интерактивные цифровые инструменты. Экспериментальные результаты подтверждают эффективность искусственного интеллекта как средства формирования устойчивой учебной мотивации.

Ключевые слова: иноязычные студенты, русский язык, мотивация, искусственный интеллект, методика обучения.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini bermogda. Ayniqsa, o'zga tilli talabalarning rus tilini o'rganish jarayonida motivatsiya muammosi dolzarb bo'lib, bu masalada sun'iy intellekt asosidagi vositalar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchining bilim darajasi, psixologik holati, o'rganish tezligi va qiziqishlariga moslashib, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi [1]. Bu esa o'zga tilli talabalar uchun rus tilini o'rganishda stress va qo'rquvni kamaytirib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda pedagog nazorati muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt o'qituvchini to'liq almashtirmaydi, balki uning metodik faoliyatini boyituvchi yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun:

- topshiriqlar maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- akademik halollik saqlanishi;
- sun'iy intellektdan foydalanish me'yorlari belgilanishi lozim.

Xorijiy til, xususan, rus tilini o'rganish jarayonida motivatsiya masalasi muhim psixologik-pedagogik omil sifatida e'tirof etiladi [2]. O'zga tilli talabalar auditoriyasida bu muammo yanada murakkablashadi, chunki ular uchun til o'rganish faqat lingvistik jarayon emas, balki madaniy, kommunikativ va ijtimoiy moslashuv bilan ham bevosita bog'liqdir. Motivatsiyaning yetishmasligi talabalar faolligining pasayishiga, til kompetensiyalarining sekin rivojlanishiga va o'quv jarayoniga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'rtacha talaba darajasiga yo'naltirilgan bo'lib, individual farqlarni yetarli darajada hisobga olmaydi [3]. Bu holat o'zga tilli talabalar orasida psixologik to'siqlar, xatodan qo'rquv va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv metodlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur muammoni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalari katta didaktik imkoniyatlarga ega. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini avtomatlashtirish bilan cheklanmay, balki talabaning o'rganish uslubi, tezligi va ehtiyojlariga moslashgan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa motivatsiyaning barqaror shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Sun'iy intellekt

texnologiyalarining turlari va ularning rus tilini o'qitishdagi imkoniyatlari. Til o'qitishda qo'llanilayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarini funksional jihatdan bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin. Har bir tur o'zga tilli talabalar motivatsiyasini oshirishda alohida metodik vazifani bajaradi.

Sun'iy intellektga asoslangan til modellari rus tilini o'rganishda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ChatGPT yordamida talabalar rus tilida matn tuzish, dialoglar yaratish, grammatik va stilistik xatolarni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu jarayon talabaning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib, o'z fikrini erkin ifodalashga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shuningdek, Gemini kabi multimodal sun'iy intellekt tizimlari matn, rasm va kontekst asosida tushuntirish berish orqali murakkab grammatik qoidalarni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Vizual va mantiqiy izohlarning uyg'unligi talabalar diqqatini jalb etib, o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi [4].

Adaptiv sun'iy intellekt tizimlari talabaning bilim darajasini doimiy monitoring qilib boradi va topshiriqlar murakkabligini avtomatik tarzda moslashtiradi. Bu tizimlar o'zga tilli talabalar uchun ayniqsa muhim, chunki ularning tilni o'zlashtirish tezligi bir xil emas. Adaptiv yondashuv orqali:

- a) kuchli talabalar uchun murakkab va ijodiy topshiriqlar;
- b) Bilimida bo'shliq mavjud talabalar uchun esa takroriy va mustahkamlovchi mashqlar taqdim etiladi;
- c) Natijada talaba o'z imkoniyatiga mos vazifalarni bajarayotganini his qiladi va muvaffaqiyat hissi uning ichki motivatsiyasini oshiradi;
- d) vizual va dizayn asosidagi sun'iy intellekt vositalari.

Til o'rganishda vizual idrok muhim rol o'ynaydi. Canva kabi sun'iy intellekt asosidagi dizayn platformalari rus tilida infografika, lug'at kartochkalari, dialogli posterlar va taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Vizual materiallar yordamida o'zga tilli talabalar so'z va iboralarni obrazlar bilan bog'lab o'rganadi, bu esa eslab qolish jarayonini tezlashtiradi. Bunday ijodiy faoliyat talabalarni dars jarayoniga faol jalb etib, o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Sun'iy intellekt asosidagi nutqni tanish texnologiyalari rus tilidagi talaffuz va fonetik xatolarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu tizimlar talabaning og'zaki nutqini avtomatik tahlil qilib, xatolarni ko'rsatadi va to'g'rilash bo'yicha tavsiyalar beradi. O'zga tilli talabalar uchun bunday

imkoniyatlar og'zaki nutqda ishonchsizlikni kamaytirib, erkin muloqot qilishga undaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish aniq metodik yondashuvni talab etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi yondashuvlar eng samarali deb topildi:

- **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – sun'iy intellekt yordamida har bir talaba uchun individual o'quv trayektoriyasini ishlab chiqish.

- **Gamifikatsiya** – ball, reyting, virtual mukofotlar orqali ichki motivatsiyani kuchaytirish.

- **Interaktiv muloqot** – virtual suhbatdoshlar yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish.

- **Refleksiya va monitoring** – sun'iy intellekt orqali o'quv natijalarini tahlil qilish va teskari aloqa berish.

Mazkur yondashuvlar rus tilini o'rganish jarayonini majburiy o'quv faoliyatidan qiziqarli va maqsadli jarayonga aylantiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining samaradorligiga qaramay, ularni qo'llashda pedagog nazorati muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt o'qituvchini to'liq almashtirmaydi, balki uning metodik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun:

- akademik halollik tamoyillariga rioya etish;
- sun'iy intellektdan foydalanish me'yorlarini belgilash;
- topshiriqlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish lozim.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- statistik tahlil

Tajriba Osiyo Xalqaro Universitetining 1–2-bosqich o'zga tilli talabalaridan iborat ikki guruhda o'tkazildi:

- **Nazorat guruhi** – an'anaviy metod asosida.
- **Tajriba guruhi** – sun'iy intellekt texnologiyalari asosida. Tajriba davomida talabalarining o'quv motivatsiyasi, darsdagi faolligi va til kompetensiyasi darajasi tahlil qilindi.

1-jadval. Talabalarning motivatsiya darajasidagi o'zgarishlar (%)

Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Yuqori motivatsiya	28%	62%
O'rtacha motivatsiya	47%	30%
Past motivatsiya	25%	8%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosida o'qitilgan tajriba guruhida motivatsiya darajasi sezilarli oshgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida

- individual o'quv trayektoriyasi yaratildi;
- tezkor va aniq qayta aloqa ta'minlandi;
- kommunikativ muhit sun'iy ravishda shakllantirildi;
- o'quv jarayoni gamifikatsiya orqali qiziqarli tashkil etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'zga tilli talabalarining rus tilini o'rganish motivatsiyasini samarali oshiradi [5]. Mazkur metodika shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlab, o'quv jarayonining sifat va natijadorligini kuchaytiradi. Shu bois, rus tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish metodik jihatdan dolzarb va maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гальскова Н. Современная методика обучения иностранным языкам. М., 2020.
2. Пассов Е. Коммуникативный метод обучения языкам. М., 2018.
3. Holmes W. Artificial Intelligence in Education. – London. 2020.
4. Warschauer M. Technology and Language Learning. – Cambridge, 2019.
5. Ахмедова М. Мотивация обучения иноязычных студентов. М., 2019.

Mahliyo ROZIYEVA,

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV: INDIVIDUAL EHTIYOJLAR VA KASBIY TRAEKTORIYALARNI HISOBGA OLISH

Annotatsiya. Maqolada jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida differensial yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Individual ehtiyojlar va kasbiy traektoriyalarni hisobga olish mexanizmlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, malaka oshirish, jismoniy madaniyat, individual ehtiyojlar, kasbiy traektoriya, pedagogik rivojlanish, refleksiya, innovatsion texnologiyalar.

Annotation. The article analyzes the theoretical foundations of a differentiated approach to professional development of physical education teachers. Mechanisms for considering individual needs and professional trajectories are substantiated.

Keywords: differentiated approach, professional development, physical education, individual needs, professional trajectory, pedagogical development, reflection, innovative technologies.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы дифференцированного подхода в системе повышения квалификации учителей физической культуры. Обоснованы механизмы учета индивидуальных потребностей и профессиональных траекторий.

Ключевые слова: дифференцированный подход, повышение квалификации, физическая культура, индивидуальные потребности, профессиональная траектория, педагогическое развитие, рефлексия, инновационные технологии.

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvlari malaka oshirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda [1: 78].

An'anaviy malaka oshirish tizimi ko'pincha barcha o'qituvchilar uchun yagona dasturlarni taklif etadi, bu esa ularning individual ehtiyojlari, tajribasi va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini to'liq hisobga olmaydi [3: 45]. Natijada, ayrim pedagoglar uchun kurslar murakkab, boshqalar uchun esa

yetarlicha samarali bo'lmashligi mumkin. Shu bois jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida differensial yondashuvni joriy etish dolzarb bo'lib, u o'qituvchilarning individual ehtiyojlari, kasbiy tajribasi va rivojlanish traektoriyalarini hisobga olishni nazarda tutadi [8: 112].

Maqolaning maqsadi jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirishda differensial yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda individual ehtiyojlar va kasbiy traektoriyalarni hisobga olish mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot pedagogika, kasbiy rivojlanish va jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ishda ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, pedagogik tajribani umumlashtirish hamda differensial yondashuv tamoyillarini tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili asosida malaka oshirishda differensial yondashuvning quyidagi asosiy tamoyillari ajratildi:

1. Individual ehtiyojlarni hisobga olish – o'qituvchining bilim darajasi, tajribasi va kasbiy qiziqishlarini inobatga olish [3: 62].

2. Moslashuvchan dasturlar – turli modullarni erkin tanlash imkoniyati.

3. Kasbiy traektoriyalarni qo'llab-quvvatlash – o'qituvchining mustaqil rivojlanish yo'lini belgilashi.

4. Amaliy yo'naltirilganlik – nazariya va real pedagogik faoliyatni bog'lash [1: 115].

5. Refleksiya va o'z-o'zini baholash – pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, differensial yondashuv jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirish samaradorligini oshiradi.

Ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

– individual ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv dasturlari orqali bilim olish samaradorligi oshadi;

– har bir o'qituvchi o'z kasbiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil shakllantiradi;

– malaka oshirish jarayoni amaliy yo'naltirilgan bo'lib, real dars jarayoni bilan bog'lanadi;

– pedagoglarning motivatsiyasi ortadi [1: 132].

Differensial yondashuvni malaka oshirish tizimiga joriy etish pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi va ta'lim sifatini oshiradi.

Jismoniy madaniyat o'qituvchilari turli yoshdagi, turli jismoniy tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar bilan ishlaydi, shuning uchun ularning malaka oshirishi ham moslashuvchan bo'lishi zarur [8: 145]. Bundan tashqari, differensial yondashuv o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali o'zlashtirishiga yordam beradi va ularni dars jarayonida to'g'ri qo'llash imkonini yaratadi [3: 88].

Differensial yondashuv jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida muhim ahamiyatga ega, chunki u pedagoglarning real ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini inobatga olish imkonini beradi. Individual ehtiyojlar hamda kasbiy traektoriyalarni hisobga olish malaka oshirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'qituvchilarning motivatsiyasi va kasbiy faolligini kuchaytiradi. Shu sababli, mazkur yondashuv o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida malaka oshirish tizimida keng qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.
2. Rafiyev H.T. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent, 2021.
3. Sultanova N.Ya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Buxoro, 2023.
4. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
5. Knowles M., Holton E., Swanson R. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. – New York: Routledge, 2015.
6. Guskey T.R. Professional Development in Education: In Search of the Optimal Mix. – Corwin Press, 2014.
7. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education. – San Francisco, 2017.
8. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York, 2012.

Saida NORBOBOYEVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti ingliz tili o'qituvchisi

INGLIZ TILINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, til muhiti yetishmasligi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va talabalar orasida uchraydigan psixologik to'siqlar tahlil qilinadi. Kommunikativ metodning nazariy asoslari hamda uni samarali tatbiq etishga to'siqinlik qilayotgan omillar ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilib, kommunikativ yondashuvni to'g'ri qo'llash o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili ta'limi, kommunikativ yondashuv, til muhiti, metodik tayyorgarlik, psixologik to'siqlar, muloqot ko'nikmalari.

Annotation. This article analyzes the main problems encountered in teaching English using the communicative approach, including the lack of a language environment, teachers' methodological preparedness, and psychological barriers among students. The study highlights the theoretical foundations of the communicative method and the factors that hinder its effective implementation based on scientific sources. Furthermore, ways to overcome these problems are suggested, emphasizing that the proper application of the communicative approach helps students develop not only theoretical knowledge but also practical communication skills.

Keywords: English language education, communicative approach, language environment, methodological preparedness, psychological barriers, communication skills

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие при обучении английскому языку на основе коммуникативного подхода, включая недостаток языковой среды, методическую подготовку преподавателей и психологические барьеры среди студентов. В исследовании освещаются теоретические основы коммуникативного метода, а также факторы, препятствующие его эффективному применению, на основе научных источников. Кроме того, предлагаются пути преодоления этих проблем, подчеркивая, что правильное использование коммуникативного подхода способствует формированию у учащихся не только теоретических знаний, но и практических навыков общения.

Ключевые слова: обучение английскому языку, коммуникативный подход, языковая среда, методическая подготовка, психологические барьеры, навыки общения.

Ingliz tili bugungi kunda nafaqat ta'lim sohasida, balki kasbiy faoliyat va kundalik muloqot jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o'qitishda turli metod va yondashuvlar qo'llanilsa-da, kommunikativ yondashuv eng samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodning asosiy maqsadi o'quvchini tilni faqat grammatik va nazariy jihatdan emas, balki real muloqot vositasi sifatida qo'llashga o'rgatishdan iborat (Littlewood, 1981 [2: 15]). Biroq, kommunikativ metodni amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi. Mazkur maqolada ana shu muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

1. Til muhiti yetishmasligi. Kommunikativ yondashuvning samaradorligi bevosita o'quvchilarning ingliz tilida muloqot qiladigan tabiiy muhitga ega bo'lishi bilan bog'liq. Afsuski, ko'plab ta'lim muassasalarida bunday til muhiti yetarli darajada yaratilmagan. Richards va Rodgers ta'kidlashicha, tilni o'rganishda real kommunikativ vaziyatlarning mavjudligi muhim omil hisoblanadi (Richards & Rodgers, 2001 [1: 72]). British Council tomonidan O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, talabalar orasida ingliz tilidan kundalik muloqotda foydalanish imkoniyati cheklangan. Natijada, o'quvchilar nazariy bilimga ega bo'lsalar-da, amaliy suhbat jarayonida erkin muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar (British Council, 2020 [5: 34]). Bu holat kommunikativ metodning asosiy maqsadi — real muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi. Kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik bilim va amaliy tajribani talab etadi. Biroq, ayrim o'qituvchilar an'anaviy grammatik-tarjima metodiga ko'proq tayanib, kommunikativ faoliyatlarga yetarli e'tibor bermaydilar. Harmerning ta'kidlashicha, kommunikativ darslarda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotni tashkil etuvchi va

yo'naltiruvchi rolini bajarishi lozim (Harmer, 2007 [3: 84]). Metodik tayyorgarlik yetarli bo'lmaganda, kommunikativ yondashuv faqat nazariy darajada qolib ketadi. Natijada talabalar grammatik qoidalarni bilsalar-da, o'z fikrlarini erkin va ravon ifodalashda qiynaladilar.

3. Psixologik to'siqlar. Til o'rganish jarayonida psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Ko'plab talabalar ingliz tilida gapirish jarayonida xato qilishdan qo'rqadi yoki o'ziga ishonchsizlik tufayli faol muloqotga kirishmaydi. Larsen-Freeman fikricha, xatolar til o'rganish jarayonining tabiiy qismi bo'lib, ular o'quvchilar rivojlanishining ajralmas omili hisoblanadi [7: 56]. Psixologik to'siqlar mavjud bo'lsa, talabalar kommunikativ mashg'ulotlarda passiv bo'lib qoladilar, bu esa nutqiy kompetensiyaning rivojlanishini sekinlashtiradi.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari. Kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash uchun, avvalo, sun'iy bo'lsa-da, til muhiti yaratish muhimdir. Ingliz tili klublari, munozaralar, rol o'yinlari va onlayn platformalar orqali o'quvchilarni doimiy muloqotga jalb qilish mumkin. Ikkinchidan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish zarur. Zamonaviy metodlar, interaktiv texnologiyalar va kommunikativ mashqlar dars samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali talabalar orasidagi psixologik to'siqlarni kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar mavjud. Til muhiti yetishmasligi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va psixologik to'siqlar ushbu metodning to'liq samaradorligiga to'siq qiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish orqali o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki real hayotga mos amaliy muloqot ko'nikmalari shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014,
2. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981,
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2007,
4. Norboboyeva S.A. Tibbiyotda ingliz tilini o'qitishning amaliy strategiyalari, 2021,
5. British Council. English Language Teaching in Uzbekistan: Challenges and Opportunities, 2015,
6. Norboboyeva S.A. Tibbiyotda inglizcha terminlarni o'rgatishda o'qitish usullari, 2022,
7. Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2000,

Galina KOZLOVA,

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH SOHASIDAGI KOMPETENSIYALARINING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA QILISH

Annotatsiya. Maqolada jismoniy madaniyat o'qituvchilarining zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini pedagogik diagnostika qilish masalalari tahlil qilinadi. Diagnostika mezonlari va ularning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, kompetensiya, jismoniy madaniyat, zamonaviy texnologiyalar, baholash, monitoring, refleksiya, kasbiy rivojlanish.

Annotation. The article analyzes issues of pedagogical diagnostics of the level of competence formation of physical education teachers in the application of modern educational technologies. The importance of diagnostic criteria is substantiated.

Keywords: pedagogical diagnostics, competence, physical education, modern technologies, assessment, monitoring, reflection, professional development.

Аннотация. В статье анализируются вопросы педагогической диагностики уровня сформированности компетенций учителей физической культуры в области применения современных образовательных технологий. Обосновывается значимость диагностических критериев.

Ключевые слова: педагогическая диагностика, компетенции, физическая культура, современные технологии, оценивание, мониторинг, рефлексия, профессиональное развитие.

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli, interaktiv va kompetensiyaga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon jismoniy tarbiya sohasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda jismoniy madaniyat o'qituvchisidan nafaqat harakat faoliyatini o'rgatish metodikasini bilish, balki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini dars jarayonida samarali qo'llash talab etiladi [2: 45].

Ilmiy tadqiqotlarda pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini baholashning muhim vositasi sifatida qaraladi [3: 62]. Bu ayniqsa jismoniy madaniyat o'qituvchilari uchun dolzarb, chunki ularning faoliyati o'quvchilarning harakat faolligini tashkil etish, xavfsizlikni ta'minlash va zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash bilan bog'liq [2: 118]. Shunga qaramay, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash sohasida jismoniy madaniyat o'qituvchilari kompetensiyalarini pedagogik diagnostika qilish masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan, bu esa mavjud yondashuvlarni tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi [4: 54].

Maqolaning maqsadi jismoniy madaniyat o'qituvchilarining zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash sohasidagi kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini pedagogik diagnostika qilish yondashuvlarini tahlil qilish va asoslashdan iborat. Tadqiqot pedagogik diagnostika, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda jismoniy tarbiyada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash masalalariga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ishda ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, pedagogik yondashuvlarni umumlashtirish va kompetensiyalarni baholash mezonlarini tizimlashtirish metodlari qo'llanildi [1: 78]. Adabiyotlar tahlili asosida jismoniy madaniyat o'qituvchilari kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini pedagogik diagnostika qilishning quyidagi asosiy mezonlari ajratib ko'rsatildi:

Texnologik kompetentlik – raqamli ta'lim resurslari, multimedia vositalari va interaktiv texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi [2: 96; 7: 142].

Metodik kompetentlik – zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda jismoniy madaniyat darslarini loyihalash va o'tkaza olish malakasi [1: 115; 7: 88].

Tashkiliy ko'nikmalar – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonini samarali boshqarish qobiliyati [5: 63; 6: 71].

Pedagogik refleksiya – o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini belgilash [3: 90; 8: 118].

Xavfsizlikni ta'minlash – sport jihozlari va texnik vositalardan foydalanishda xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish va nazorat qilish [2: 156].

Mazkur mezonlar jismoniy madaniyat o'qituvchisining zamonaviy kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan talablarga mos keladi [1: 132; 3: 45]. Ilmiy-metodik manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, samarali pedagogik diagnostika tizimli, kompleks va pedagogning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi zarur [3: 112; 8: 94].

Aniqlanishicha, pedagogik diagnostika jismoniy madaniyat o'qituvchisiga quyidagilarni ta'minlaydi:

– zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorlik darajasini aniqlash [4: 82];

– raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishda kasbiy qiyinchiliklarni aniqlash [5: 55];

– malaka oshirishning individual yo'nalishlarini rejalashtirish [6: 69].

Diagnostika faqat nazorat emas, balki rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lib, pedagogni o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga undashi lozim [8: 120]. Olingan natijalar pedagogik diagnostikaning jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatini ko'rsatadi: Matveev kompetensiyaga asoslangan yondashuvni [1: 78], Salomov esa innovatsion texnologiyalarni joriy etishda tizimli metodik qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi [2: 134], Darling-Hammond refleksiya va individual trayektoriyalar muhimligini [8: 118], Metzler esa zamonaviy pedagogik modellar orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini asoslaydi [7: 142]. Shu bois pedagogik diagnostika kompetensiyalarni baholashning muhim vositasi bo'lib, tizimli yondashuv o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorligini oshiradi [4: 97], taklif etilgan mezonlar esa malaka oshirish tizimida qo'llanishi mumkin [6: 84].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. М.: Физкультура и спорт, 2010.
2. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2018.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. М., 2012.
4. Rafiyev H.T. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent, 2021.
5. Sultanova N.Y. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Buxoro, 2023.
6. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va ishtirokchilari. – Toshkent, 2024.
7. Metzler M. Instructional Models in Physical Education. – London: Routledge, 2017.
8. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education. – San Francisco, 2017.

Shoira KHAYITMURADOVA,
Uzbekistan National Pedagogical University Teacher

THE EFFECT OF PRE-LISTENING ACTIVITIES ON EFL LEARNERS' COMPREHENSION ACCURACY

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda EFL o'quvchilarining tinglab tushunish aniqligiga pre-listening (tinglashdan oldingi) mashg'ulotlarning ta'siri o'rganiladi. O'quvchilarning fon bilimlarini faollashtirish, lug'at tayyorlash va matn mazmunini oldindan taxmin qilishning tushunish qobiliyati, stressni kamaytirish va umumiy tinglash natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tuzilgan pre-listening vazifalari tinglab tushunish aniqligini va o'quvchi ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: tinglashdan oldingi mashg'ulotlar, tinglab tushunish, EFL, sxema faollashtirish, taxmin.

Annotation. This study looks into the effect of pre-listening activities on EFL learners' listening comprehension accuracy. It investigates how using prior information, vocabulary preparation, and content prediction might improve understanding, reduce anxiety, and improve overall listening performance. The results show that structured pre-listening tasks greatly improve comprehension accuracy and learner confidence.

Keywords: pre-listening training, listening comprehension, EFL, circuit activation, guess.

Аннотация. Данное исследование изучает влияние предварительных заданий на точность аудирования у студентов EFL. Анализируется, как активизация фоновых знаний, подготовка словарного запаса и предсказание содержания повышают понимание, снижают тревожность и улучшают общую эффективность аудирования. Результаты показывают, что структурированные предварительные задания значительно повышают точность понимания и уверенность учащихся.

Ключевые слова: предварительное прослушивание, аудирование, EFL, схема активации, прогнозирование.

Listening comprehension is widely regarded as one of the most difficult abilities in second-language learning. For students who learn EFL, comprehension issues are frequently caused by an inability to mentally prepare for content and activate important schemata while listening [2: 45–46].

Pre-listening activities are intended to prepare learners intellectually, verbally, and psychologically before they receive audio input. Cognitive preparation entails activating past knowledge about the topic, whereas linguistic preparation focusses on providing important terminology and idioms. Psychological preparedness minimizes anxiety, which research has shown to considerably impair understanding [1: 208–209].

For example, when learners are ready to listen to a conversation concerning trip preparation preliminary listening prep tasks like in discussing previous travel experiences, forecasting probable topics, or reviewing vocabulary such as ticket, boarding, and destination help to construct a conceptual framework. This framework helps students to concentrate towards obtaining understanding as opposed to comprehension of each representation [4: 60–63].

Additionally, pre-listening tasks promote strategic listening. Prior to being exposed to genuine speech, students practice anticipating content, drawing conclusions, and identifying significant ideas. Over time, these tactics improve learner autonomy, confidence, and understanding accuracy.

Participants. The study included 40 intermediate-level English as a Foreign Language students aged 18 to 22 who were attending classes at a university in Tashkent, Uzbekistan. To ensure impartiality and reduce selection bias, the learners were chosen using convenience sampling and then randomly assigned to two equal groups.

- Twenty participants in the experimental group were given organised pre-listening instructions.

- Control group (n = 20) had no pre-listening preparation. All participants had equivalent English proficiency levels, as established by a standardised placement test performed by the institution at the start of the academic semester. Furthermore, learners reported similar prior exposure to English listening materials such as lectures, dialogues, and multimedia content, which helped control for extraneous variables associated with listening experience. Ensuring group homogeneity improved the study's internal validity [7].

The study used a quasi-experimental research approach, comprising an experimental and control group. The method

was chosen because it allows researchers to investigate causal links between the methods of instruction and learning outcomes in real-world educational contexts where full of experimental control is often not feasible [8]. The utilisation of pre-listening activities was the independent variable, with comprehension of language comprehension rate and learner affective reactions (confidence and anxiety) as dependent variables.

Procedure. The investigation was carried out during two instructive sessions. The same instructor taught both groups to reduce teacher-related variability. Prior to each listening assignment, the experimental group engaged throughout three structured pre-listening activities.

1. Learners engaged in brief discussions about the audio recordings to activate their background knowledge. The owners were offered the opportunity to share their own experiences and prior knowledge, which helped them activate relevant schemata and mentally prepare for the listening task. Schema activation has been proven to improve understanding by linking new information to existing knowledge structures (Anderson, 2015).

2. Vocabulary preparation: Key word study words and phrases for interpreting the recording were introduced before listening. The lecturer gave concise explanations and contextualized examples. This phase sought to lower lexical barriers and allow students to concentrate on what words mean rather than word recognition while listening (Nation & Newton, 2009).

3. Prediction tasks: Learners used questions, keywords, or images to predict audio content. Prediction activities promoted active participation and strategic listening, allowing students to anticipate ideas and organize incoming information more effectively [5].

In comparison, the control group listened to the same audio recordings without any prior listening preparation. Both groups listened to two actual audio messages, each lasting 2-3 minutes and played once. Immediately after hearing, students took comprehension exams to assess their understanding.

Several tools were employed to collect quantitative and qualitative data:

- Audio recording: The listening materials included realistic English dialogues and brief monologues chosen to represent real-life communicative circumstances. Authentic materials were used to improve ecological validity and expose students to natural speech characteristics as intonation, pace, and connected speech [2].

- Listening comprehension tests: Each audio recording was accompanied by a comprehension test with ten questions, including multiple-choice and short-answer options. Each test was scored on a scale of 0 to 10, with one point awarded for each correct answer. The test structure was designed to assess both global understanding and specialized information retrieval.

An observation checklist was utilized to assess learners' involvement, participation, and self-reported confidence during listening exercises. These affective factors were included to capture the emotional and behavioral aspects of listening that have been shown to influence comprehension outcomes [4].

Data analysis. To evaluate performance between the experimental and control groups, quantitative data from comprehension tests were analyzed using descriptive statistics such as mean scores and standard deviations. The qualitative observations from the checklist were utilized to supplement and interpret the quantitative findings, offering insight into learners' affective responses and classroom behavior.

Table 1. Comparison of listening comprehension scores between experimental and control groups

Group	Mean Score (out of 10)	Standard Deviation	Improvement (%)
Experimental group (with pre-listening activities)	8.4	0.9	27%
Control group (without pre-listening activities)	6.6	1.1	—

Table 1 demonstrates a clear difference in listening comprehension ability between the two groups. Learners who engaged in systematic pre-listening activities had considerably higher mean scores than the control group. The experimental group's substantially smaller standard deviation indicates more consistent performance among learners.

Table 2 shows learners' affective responses to listening exercises.

Affective factors	Experimental group	Control group
Listening anxiety	Low	Moderate–High
Self-confidence during listening	High	Moderate
Focus on main ideas	Strong	Moderate
Fixation on unknown words	Minimal	High

Table 2 shows that learners who participated in pre-listening activities reported decreased fear and increased self-confidence during listening tasks. In contrast, learners in the control group reported more difficulties as a result of unfamiliar vocabulary and a proclivity to focus on individual words rather than their overall meaning.

The results of this study confirm the pedagogical efficacy of pre-listening activities in boosting EFL learners' listening comprehension. Activating learners' past knowledge before listening allows them to form expectations about the content, resulting in more efficient real-time processing of spoken input. This lends support to the idea that listening comprehension is an active cognitive process rather than a passive talent.

Prioritising vocabulary preparation before listening is critical for lowering understanding difficulties. When learners are familiar with key lexical items ahead of time, they are better equipped to focus their cognitive resources on understanding their meaning rather than decoding individual words. This data supports Nation and Newton's thesis that lexical preparedness is necessary to attain effective listening comprehension.

The 27% increase in comprehension scores seen in the experimental group suggests that pre-listening training improves both listening quality and learner confidence. Prediction tasks, according to learners, let them focus on essential ideas rather than being sidetracked by unfamiliar jargon. This confirms Vandergrift's notion that prediction reduces cognitive burden and enables learners to interpret spoken language more strategically.

Furthermore, the affective advantages revealed in the current investigation are significant. Students in the experimental group claimed to become calmer and more at ease during listening tasks, implying that pre-listening exercises remove emotional barriers to comprehension. This study supports Rost's conclusion that successful listening is dependent not just on linguistic understanding but also on psychological preparation and contextual awareness.

Pedagogical implications. Based on the results, several pedagogical implications can be drawn:

- Incorporate pre-listening activities into all listening lessons.
- Use multimedia materials, such as images, short movies, and key questions, to bring attention to background knowledge.
- To alleviate anxiety and improve participation, teachers should encourage students to make verbal anticipated decisions in pairs or smaller groups.
- To encourage learner autonomy, integrate specific instruction in listening strategies with reflection.

These practices not only improve immediate comprehension outcomes but also foster long-term strategic listening skills that learners can apply independently in academic and real-life contexts.

This study demonstrates that pre-listening activities significantly enhance EFL learners' listening comprehension accuracy and confidence. By preparing learners cognitively, linguistically, and psychologically, pre-listening tasks enable more effective processing of authentic audio materials. Therefore, structured pre-listening activities should be considered a core component of EFL listening instruction.

Future research may explore the impact of pre-listening strategies across different proficiency levels, age groups, or educational contexts, as well as their integration with broader affective and strategic learning frameworks.

References

1. Elkhaifi H. Listening comprehension and anxiety in the Arabic language classroom // The Modern Language Journal, 2005, 89(2). – P. 206–220.
2. Field J. Listening in the language classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Nation I.S.P., Newton J. Teaching ESL/EFL listening and speaking. – London: Routledge, 2009.
4. Rost M. Teaching and researching listening. – London: Pearson Education, 2011.
5. Vandergrift L. Listening to learn or learning to listen? // Annual Review of Applied Linguistics, 2004. Vol. 24. – P. 3–25.
6. Anderson N.J. Developing engaged second language readers. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
7. Creswell J.W., Creswell J.D. Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.). – Los Angeles, CA: SAGE Publications, 2018.
8. Mackey A., Gass S.M. Second language research: Methodology and design (2nd ed.). – London: Routledge, 2016.

Sarvinoz AKBAROVA,
Student, Fergana State University

THE SIGNIFICANCE OF LEARNING MANY LANGUAGES AS A YOUNG CHILD

Annotation. This article explains the benefits of learning multiple languages for young learners. Those who speak multiple languages have better listening skills, increased concentration, enhanced memory, and improved problem-solving and critical-thinking abilities.

Keywords: language, skills, importance, communication, open-minded, connection, learning.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh o'rganuvchilar uchun bir nechta tilni o'rganishning afzalliklari tushuntiriladi. Bir necha tilda so'zlashuvchilarda tinglash qobiliyati, diqqatni jamlash, xotira, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati yaxshilanadi.

Kalit so'zlar: til, ko'nikmalar, ahamiyat, muloqot, ochiq fikrli, aloqa, o'rganish.

Аннотация. В данной статье объясняются преимущества изучения нескольких языков для младших школьников. Те, кто говорит на нескольких языках, имеют лучшие навыки аудирования, повышенную концентрацию, хорошую память и улучшенные способности к решению проблем и критическому мышлению.

Ключевые слова: язык, навыки, важность, общение, открытый ум, связь, обучение, дети.

Many scientists have stated that learning a second language at a young age is crucial. The question, "Why teach many languages to young learners?" can be answered for a number of reasons. For instance, fostering a joyful and upbeat learning atmosphere can give children a strong basis for success in more challenging courses later in life. Bilingual children learn more quickly and easily, are more creative and capable of solving problems, and have more career options as adults. They also observe that they are less likely to suffer from age-related mental illnesses as they age because it is simpler for them to connect with people from different cultures, which makes them more accepting and tolerant of diversity. Most importantly, it is much easier to learn a second language at a very young age.

Furthermore, the burden of teaching a second language has lessened over time. To help kids learn more quickly, scientists are always researching how second languages are acquired and developing new teaching strategies. Additionally, the growing demand for language programs has given rise to a whole new market for international vacation camps that offer language instruction, allowing young students to take advantage of their favorite activities while simultaneously learning a new language. Young children pick up languages more quickly and easily, which is one of the many benefits of learning a second language. They have a brain built for language learning, plenty of time to study, little to learn, and fewer restrictions. To put it briefly, teaching your child a second language from an early age spares them from having to learn one as an adult. Young students are biologically similar to sponges.

Children's brains are made to inadvertently take in new information. They do this in a similar way to how adults unconsciously pick up the melodies, rhythms, and lyrics of songs. According to Dr. Paul Thompson, a professor of neurology at UCLA, and his colleagues, the brain systems that

are specifically involved in learning a new language grow significantly between the ages of six and puberty. Then, during pubescence, between the ages of 11 and 15, these systems mostly shut down and cease growing. Babies are able to differentiate between all sounds in all languages between the ages of 10 and 12. They can now only differentiate between the language sounds that are necessary to convey meaning, based on their exposure to other languages. The "L" and "R" sounds are not distinguished in the Japanese language. Japanese infants as young as 10 months old can distinguish between these sounds. They then lose their ability to discriminate between the ages of 10 and 12 months. The fact that young learners think more simply than adults is another benefit of learning a second language at a very young age. They think less conceptually and use fewer words and simple sentence structures.

Speaking in their second language allows children who are learning the language to express their concrete ideas and emotions without feeling overwhelmed. As these children grow into adults, they acquire the ability to communicate in both their mother tongue and a second language. To fully express themselves in their second languages, adults must translate complex sentence structures and abstract anxiety, which is a difficult task. What is the difference between the books you read as a child and the ones you read now? Remember that in order to understand the texts you can read today, you had to study and read for many years. The same is true for speaking, writing, and even listening. To be able to communicate as you do in your mother tongue, it took at least 15 years of formal education.

Time is one of the main benefits of learning a second language at a young age. The learners have time on their side. They can start small and unremarkable and simultaneously advance to higher mental and communication levels. When learning a second language, children are far more

advantageous than adults. Young people who acquire a second language grow up to be highly skilled, innovative thinkers and problem solvers. As children attempt to figure out which language to use and when, their brains undergo a lifelong workout. Additionally, researchers have found that children who are bilingual and have improved problem-solving abilities perform better on standardized tests and are better at planning, multitasking, and focusing. Early exposure to a second language can help guide your children toward success.

Children who are bilingual undergo ongoing mental training as they learn to communicate using multiple language methods. In the 20th century, scholars and educators discouraged learning a second language. It was believed that the second language interfered with children's intellectual and cognitive development. However, there is evidence that bilingual children experience interference from language systems, which leads to internal conflict that helps them become adept at solving problems. A collection of data from multiple studies shows that mastering a second language improves executive function in the brain. Thus, bilingual children are more adept at: problem solving, planning, concentration, multitasking.

One of the many benefits of learning a second language early in life is improved exam scores. Students who learn a second language perform better on standardized tests such as the American College Test (ACT) and the SAT verbal section. The fact that the more time a student spends learning a second language, the better their test scores will be. The encouragement to be creative is another advantage of learning a second language early. It has been substantiated by numerous studies. It is believed that language development proceeds through normal learning processes, where children absorb the forms, meanings, and usage of words and expressions from linguistic input. Children frequently start mimicking the words they are repeatedly exposed to. Although the framework for enhancing language proficiency is broad, the primary focus is on the process of learning syntax. The two main schools of thought on syntactic development are empiricist, which holds that children pick up all syntactic rules from language input, and nativist, which holds that other syntactic principles are innate and passed down through human genomes.

"The principles of neural organization that might be even more profoundly grounded in physical law" or "the millions of years of evolution" are the two possible explanations for language's unusual human performance, according to Noam

Chomsky's nativist theory. Many children have an innate language acquisition device (LAD), according to Chomsky. According to theory, a set of universal syntactic rules for entire languages are found in the LAD, a region of the brain. With little experience and little outside input, this tool helps students make sense of what they've learned and construct new sentences. Chomsky stated that it is based on the belief that children's linguistic input, or what they hear, is insufficient to explain how they acquire language. He observes that environmental linguistic input is sparse and rife with errors. Because of this, nativists believe that children cannot learn language just by observing their surroundings. However, children learn this LAD – that is, the ability to learn language despite the incompleteness of the information they receive from their surroundings. The theory of common grammar (UG), which holds that a particular set of structural rules are innate to humans and independent of sensory experience, is also credited with their language acquisition scale. As demonstrated by the abundance of articles in books and journals, this sign has dominated linguistic theory for over fifty years and has remained extremely influential. Contrary to Chomsky, the empiricist theory contends that children's linguistic input contains sufficient information, negating the need to presume the existence of an innate language acquisition mechanism. Empiricists believe that general brain advancements are capable of language acquisition, rather than the LAD's special contributions to language. The child must actively engage with their surroundings during this process.

Parents or other caregivers must adopt a particular style of appropriate communication with their children in order for them to learn language; this is known as child-directed speech (CDS). Children consume CDS in order to acquire the crucial language knowledge required for their language. Empiricism is a popular approach that sometimes complements the interactionist methodology. Babies learn language through example concepts, according to statistical language acquisition, which is a branch of empiricist theory.

One of the most popular tests of creativity is the Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT), which were developed in 1962 by Ellis Paul Torrance. These assessments are designed to gauge "divergent thinking", or thinking creatively and outside the box. Four categories – originality, elaboration, fluency, and flexibility – are used to identify participants' divergent thinking.

References

1. Baker C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. – Bristol: Multilingual Matters, 2006.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
3. Cummins J. Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. – Bristol: Multilingual Matters, 2000.
4. De Houwer A. Bilingual First Language Acquisition. – Bristol: Multilingual Matters, 2009.
5. Genesee F. Dual Language Development and Disorders: A Handbook on Bilingualism and Second Language Learning. – Baltimore: Paul H. Brookes Publishing, 2008.
6. Hakuta K. Mirror of Language: The Debate on Bilingualism. – New York: Basic Books, 1986.
7. Kovács Á.M., Mehler J. Cognitive gains in 7-month-old bilingual infants // Proceedings of the National Academy of Sciences, 2009, 106(16). – P. 6556–6560.
8. Lindgren E. The bilingual advantage: Cognitive benefits from early bilingualism // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 2010, 13(4). – P. 429–440.
9. Marian V., Shook, A. The cognitive benefits of being bilingual. – Cerebrum, 2012.
10. Peal E., Lambert W.E. The relation of bilingualism to intelligence. Psychological Monographs: General and Applied, 1962, 76(27). – P. 1–23.
11. Pérez M. Early bilingualism and cognitive development // Journal of Language and Literacy Education, 2014, 10(1). – P. 1–20.
12. Romaine S. Bilingualism. – London: Routledge, 1995.
13. Snow C.E. Academic language and the challenge of reading for understanding // Reading Research Quarterly, 1990, 25(4). – P. 391–414.

Gulruh TILLABAYEVA,
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,
ffilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Muhlisaxon ABDUJALILOVA,
*Farg'ona davlat universiteti pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fakulteti
boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida talabasi*

O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING SHE'R, MASAL VA ILMIY- OMMABOP JANRDAGI ASARLARNI O'RGANISH DARSINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida she'r, masal va ilmiy-ommabop janrdagi asarlarni o'rganish jarayonini kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari, estetik didi va intellektual qobiliyatlarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'qituvchilarga darslarni metodik jihatdan boyitish, muntazam kuzatish va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv va interfaol metodlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, axloqiy qadriyatlarini va bilim darajasini samarali rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: janrlar, she'r, masal, hikoya, til ko'nikmalari, estetik tarbiya.

Annotation. This article examines the issues of forming students' language skills, aesthetic taste, and intellectual abilities through observing and analyzing the process of studying poems, fables, and works of popular science genres in reading lessons in primary education. Teachers were given recommendations on methodological enrichment, regular observation, and analysis of lessons. The research results showed that an individual approach and interactive methods effectively develop students' creative thinking, moral values, and level of knowledge.

Keywords: genres, poetry, parable, story, language skills, aesthetic education.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования языковых навыков, эстетического вкуса и интеллектуальных способностей учащихся путем наблюдения и анализа процесса изучения стихов, басен и произведений научно-популярного жанра на уроках чтения в начальном образовании. Учителям даны рекомендации по методическому обогащению, регулярному наблюдению и анализу уроков. Результаты исследования показали, что индивидуальный подход и интерактивные методы эффективно развивают творческое мышление, нравственные ценности и уровень знаний учащихся.

Ключевые слова: жанры, стихотворение, притча, рассказ, языковые навыки, эстетическое образование.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari o'quvchilarning til ko'nikmalarini, estetik tarbiyasini va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu darslarda badiiy adabiyotning turli janrlari, jumladan she'r, masal va ilmiy-ommabop asarlar o'rganiladi, bu jarayon o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1: 107]. O'zbekiston ta'lim tizimida, xususan, ona tili va o'qish metodikasi darsliklarida bu janrlarning o'rganilishi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etiladi. Ushbu maqola o'qish darslarida she'r, masal va ilmiy-ommabop janridagi asarlarni o'rganish darslarini kuzatish va tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ilmiy yondashuv asosida metodologiya, kuzatish usullari va tahlil natijalarini ko'rib chiqadi. Maqola maqsadi bu jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish.

O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim dasturlarida she'r va masal kabi janrlar o'quvchilarning emotsional rivojlanishiga, ilmiy-ommabop asarlar esa ularning intellektual qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Kuzatish va tahlil o'qituvchilarning malakasini baholash, dars samaradorligini oshirish va o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash uchun zarur. Ushbu tadqiqot ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha adabiyotlar va amaliy kuzatishlarga asoslanadi.

O'qish darslarida janrlar bo'yicha o'rganish metodikasi haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Masalan, she'riy asarlar matni ustida ishlashda o'quvchilarni tayyorlash va tahlil qilish usullari batafsil ko'rib chiqilgan bo'lib, ritm, qofiya va badiiy vositalar orqali emotsional ta'sir ko'rsatishga urg'u beriladi. She'r o'qitishda lirik va epik she'rlar farqlanadi, ularda syujet va his-tuyg'ular tahlili muhim.

Masal janri haqida adabiyotlarda axloqiy mazmun, kinoyaviy obrazlar va ibratli xulosalar ustida ishlanadi [1: 120].

Masal o'qitish metodikasi o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning hayotiy tajribasini bog'lash tavsiya etiladi [1: 120]. Ilmiy-ommabop asarlar bo'yicha esa, ularning o'ziga xos xususiyatlari – faktik ma'lumotlar, lug'at boyligi va ilmiy dunyoqarash shakllantirish – ko'rib chiqilgan. Ona tili o'qitish metodikasi darsliklarida bu janrlarning o'rganish bosqichlari – tayyorlov, asosiy va mustahkamlash bosqichlari – batafsil tavsiflangan. Kuzatish va tahlil bo'yicha seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlar orqali o'qituvchilarning malakasi oshiriladi. Ushbu sharhda ko'rib chiqilgan adabiyotlar asosida, dars kuzatishda dars qurilishi, usullar va natijalarni baholash muhimligi ta'kidlanadi. O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehri olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

She'ra bag'ishlangan darsda kuzatish tayyorlov bosqichidan boshlanadi: o'quvchilar mavzuga oid savollar

va topishmoqlar orqali tayyorlanadi. Masalan, “Qish to’z’gitar momiq par” she’rida qish mavzusini muhokama qilish va muallif haqida ma’lumot berish kuzatiladi. O’quvchilarning emotsional holati (hayajonlanish) va oldingi bilimlari faollashadi. Asosiy bosqichda she’rni ifodali o’qish va tahlil qilinadi: badiiy vositalar (metafora, o’xshatish, jonlantirish) aniqlanadi. O’quvchilar mustaqil topshiriqlar bajaradilar, masalan, o’xshatishlarni topish (“Tomlar kiydi oq qalpoq”). Kuzatish natijasida, ritm va qofiyaga rioya qilish o’quvchilarning o’qish malakasini oshirishi aniqlandi. Tahlilda o’quvchilarning idrok etishi baholanadi: she’rning asosiy g’oyasi (qishning go’zalligi) va tarbiyaviy ta’siri (tabiatni sevish) ko’rib chiqiladi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, she’r darslari o’quvchilarning estetik his-tuyg’ularini 20–30% ga oshiradi.

Masal janridagi asarlarni o’rganish darsini kuzatish va tahlil qilish. Masalga bag’ishlangan darsning tayyorlov bosqichida kinoyaviy obrazlar va axloqiy mazmun muhokama qilinadi. Masalan, “Baqa bilan Taqa” masalida qahramonlar xususiyatlari (o’jarlik) va ibratli xulosa (“O’jarlik yomon”) haqida savollar beriladi. Asosiy bosqichda matnni qismlarga bo’lish, rollarga o’qish va qahramonlarni tahlil qilish kuzatiladi. O’quvchilar savollar tuzadilar va hayotiy misollar keltiradilar. Kuzatish natijasida, masal darslari o’quvchilarning axloqiy qadriyatlarini

shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Tahlilda masalning tarbiyaviy ta’siri baholanadi: o’quvchilarning kamchiliklarni tanqid qilish qobiliyati oshiriladi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, masal orqali o’quvchilarning nutqi va fikrlashi rivojlanadi.

Ilmiy-ommabop asarlarga bag’ishlangan darsda tayyorlov bosqichida faktik ma’lumotlar va lug’at boyligi muhokama qilinadi. Masalan, “Qish fasli haqida” asarida qishdagi tabiiy hodisalar va ilmiy tushunchalar haqida savollar beriladi. Asosiy bosqichda matnni o’qish, lug’at ustida ishlash va rasmlar orqali tushuntirish kuzatiladi. O’quvchilar savollarga javob beradilar va ilmiy xulosalar chiqaradilar. Kuzatish natijasida, bu darslar o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ekanligi aniqlandi. Tahlilda o’quvchilarning faktlarni tushunishi baholanadi: ilmiy-ommabop asarlar orqali bilimlari mustahkamlanadi va nutqlari boyiydi.

O’qish darslarida she’r, masal va ilmiy-ommabop janrdagi asarlarni o’rganish darslarini kuzatish va tahlil qilish ta’lim samaradorligini oshiradi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, individual yondashuv va interfaol usullar orqali o’quvchilarning ko’nikmalari rivojlanadi. Shuning uchun o’qituvchilar darslarni texnologiyalar bilan boyitishlari va doimiy kuzatish o’tkazishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009. – 351 b.
2. Dilfuza S., Nabijonova F., Matlubaxon A. Ta’lim va o’qitish nazariyasining muhim jihatlari // Innovation in the Modern Education System, 2022. T. 2, №19. – B. 366–372.
3. Tillabayeva G., Nabijonova F. Boshlang’ich sinflarda didaktik o’yinlarning ahamiyati // Qo’qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 2022, №1 (000006).
4. Tillabayeva G., Nabijonova F. Boshlang’ich sinflarda o’zga gapning qo’llanilishi // Ijodkor o’qituvchi, 2022. T. 2, №19. – B. 180–184.
5. Набижонова Ф. Теория и практика современной науки // Теория и практика современной науки, 2022, №10. – С. 90–92.
6. Набижонова Ф. Она тили ва адабиёт таълимнинг тарихи ва тараққиёт йўллари // Мировая наука, 2022, №10 (67). – B. 38–41.
7. Tillabayeva G., Nabijonova F. Characteristics of the lessons of the native language // Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2023. T. 2, №3. – P. 32–36.
8. Nabijonova F. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish // IQRO, 2023, T. 2, №2. – B. 542–552.
9. Nabijonova F. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga geometrik elementlarni o’rgatish metodikasi // Innovative Development in Educational Activities, 2023. T. 2, №7. – B. 402–408.
10. Тиллабоева Г., Умарова Н. Алишер Навоий асарларида бадий тахаллусларнинг қўлланилиши // Студенческий вестник, 2021. № 13–5. – С. 70–72.
11. Tillabayeva G. Alisher Navoiy she’riyatida “shaxs” tushunchasi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022. T. 2, №2. – B. 182–196.

Behzod Rabbimov

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali katta o’qituvchisi

CHET TILINI O’RGANISHDA “OLDINDAN TAXMIN QILISH” TUSHUNCHASI: LINGVODIDAKTIK VA METODIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilini o’qitishda oldindan taxmin qilishni birlamchi o’rgatish yondashuvi lingvodidaktik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xalqaro va milliy tadqiqotlar asosida ushbu ko’nikmaning tilni tushunish jarayonidagi ahamiyati yoritilib, uni O’zbekistonda chet tillarini o’qitishda qo’llashning lingvodidaktik yondashuv yo’nalishlari ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar: oldindan taxmin qilish, chet tilini o’qitish, tushunish jarayoni, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv.

Annotation. this article analyzes, from a linguodidactic perspective, a prediction-first approach in foreign language teaching. Based on international and Uzbekistan-focused studies, the role of predictive skills in language comprehension is highlighted, and key linguodidactic directions for applying this approach in foreign language education in Uzbekistan are identified.

Keywords: prediction-first approach, foreign language teaching, comprehension process, linguodidactics, communicative approach.

Аннотация. В статье с лингводидактической точки зрения анализируется подход первоочередного обучения навыку предварительного прогнозирования при преподавании иностранного языка. На основе международных и отечественных исследований раскрывается значение данного навыка в процессе понимания языка, а также определяются основные направления его применения в обучении иностранным языкам в Узбекистане.

Ключевые слова: предварительное прогнозирование, обучение иностранному языку, процесс понимания, лингводидактика, коммуникативный подход.

Oldindan taxmin qilish (prediction, antisipatsiya) – o'quvchining hali taqdim etilmagan til birliklarini oldindan anglab, mazmuniy va strukturaviy jihatdan taxmin qila olish qobiliyatidir. Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan mazkur hodisa tilni idrok etish va tushunish jarayonining muhim lingvokognitiv mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy kognitiv tadqiqotlarga ko'ra, tilni tushunish jarayoni passiv qabul qilish emas, balki faol ravishda oldindan taxmin qilish va uni tekshirishga asoslangan jarayondir [5: 338].

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar oldindan taxmin qilish ko'nikmasi o'qib va tinglab tushunish natijalari bilan kuchli bog'liqlikka ega ekanini ko'rsatadi hamda u ko'pincha an'anaviy til o'qitish uslublariga nisbatan samaraliroq omil sifatida baholanadi [1: 83]. Shunga qaramay, O'zbekiston ta'lim tizimida oldindan taxmin qilish hali alohida, o'rgatiladigan kognitiv ko'nikma sifatida tizimli joriy etilmagan. Empirik tadqiqotlar ham oldindan taxmin qilish ko'nikmalari tilni tushunish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Jumladan, Park va Kang tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, chet tilini ayniqsa ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarda matnni o'qib tushunishni izohlashda oldindan taxmin qilish qobiliyati faqatgina mazmunni yetkazadigan an'anaviy yondashuvdan ko'ra kuchliroq omil ekanligi aniqlangan [1: 85]. Shuningdek, o'qituvchilarga oldindan taxmin qilish strategiyalarini to'g'ri qo'llash bo'yicha maxsus seminarlar o'tib berilganda, o'quvchilarning akademik natijalari sezilarli yaxshilangani qayd etilgan [2: 145]. Bu holat mazkur ko'nikmani ongli va tizimli ravishda o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Tinglab tushunish bo'yicha tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan uch bosqichli yondashuv (tinglashdan oldin, tinglash jarayonida va tinglashdan keyin)da oldindan taxmin qilish asosiy boshlang'ich jarayon sifatida qaraladi [3: 20; 4: 118]. O'quvchilar ushbu jarayon diqqatni faollashtirishi va tinglash jarayonidagi xavotirni kamaytirishini ta'kidlashadi [3: 22].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida asosan kommunikativ til o'qitish, sotsiolingvistik kompetensiya va madaniy moslashuv masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan [6: 140; 7: 5]. Biroq ushbu tadqiqot ishlarida oldindan taxmin qilish mustaqil kognitiv va lingvodidaktik ko'nikma sifatida yetarlicha konseptualashtirilmagan. Adabiyotlar tahlili bir qator muhim muammolarni aniqlash imkonini beradi. Birinchidan, oldindan taxmin qilish ko'pincha tilni tushunishdan mustaqil ravishda o'lchanmaydi, bu esa metodologik aniqlikni pasaytiradi [1: 90]. Ikkinchidan, ushbu ko'nikmaning madaniy moslashuvi masalasi yetarlicha o'rganilmagan, holbuki u o'quvchilarning bilimlari va madaniy ko'nikmalari bilan bevosita bog'liq [4: 118]. Uchinchidan, O'zbekiston sharoitida oldindan taxmin qilishga asoslangan o'qitish uchun o'qituvchilarni tayyorlash tizimi yetarli darajada shakllanmagan [6: 140].

Oldindan taxmin qilishga asoslangan metodik yondashuvda oldindan taxmin qilish chet tilini o'rganish jarayonining asosiy qismi sifatida qaraladi. Yondashuv oldindan taxmin qilishli qayta ishlash nazariyasi [5: 338], o'qitish uslubi nazariyasi hamda sotsiolingvistik kompetensiya haqidagi qarashlarga tayanadi [7: 5]. U quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Oldindan taxmin qilishning ustuvorligi. Har bir dars yangi til o'rgatish materialidan oldin oldindan taxmin qilish jarayoni bilan boshlanadi.

2. Ko'nikmalar integratsiyasi. Oldindan taxmin qilish tinglash, o'qish, gapirish va yozish jarayonlarida izchil rivojlantiriladi.

3. Madaniy moslashuv. O'qitish jarayoni avvalo o'quvchilarga tanish bo'lgan madaniy kontekstlarga tayangan holda tashkil etiladi.

4. O'qituvchi vositachiligi. O'qituvchi oldindan taxmin qilish strategiyalarini namoyish etadi va reflektiv faoliyatni yo'lga qo'yadi.

Amaliy jarayonda o'quvchilar beriladigan topshiriqlardan oldin matn mazmuni, asosiy lug'at birliklari va kommunikativ fikrlarni oldindan taxmin qiladi, bajarish jarayonida ushbu taxminlarni tekshiradi va yakunda ularni baholaydi. Taklif etilayotgan yondashuv oldindan taxmin qilishni chet tillari o'qitilayotganda dars jarayonida uzviy o'rgatiladigan kognitiv ko'nikma sifatida aniq belgilab, uni kommunikativ va madaniy moslashuvchan pedagogika bilan uyg'unlashtiradi. An'anaviy yondashuvlarga nisbatan ushbu yondashuv o'quvchi faolligini oshiradi, past tayyorgarlikli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi hamda O'zbekistonning kommunikativ til o'qitish islohotlariga mos keladi [6: 141; 8: 410]. Mazkur tadqiqot asosida oldindan taxmin qilish chet tilini o'rganishda yordamchi strategiya emas, balki birlamchi va o'rgatilishi lozim bo'lgan kognitiv ko'nikma sifatida asoslab berildi. Bundan tashqari, oldindan taxmin qilishli qayta ishlash nazariyasi chet tilini o'qitish metodikasiga tizimli ravishda tatbiq etish mumkinligini ko'rsatildi. Shuningdek, xalqaro empirik tadqiqotlar natijalari O'zbekiston ta'lim konteksti bilan integratsiya qilinib, madaniy jihatdan mos metodik yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari o'qituvchilarga darslarni oldindan taxmin qilishga asoslangan tarzda rejalashtirish, o'quvchilarda tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda sotsiolingvistik va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlash imkonini beradi. Oldindan taxmin qilishni birlamchi tarzda o'rgatish chet tilini o'qitishda kognitiv jihatdan asoslangan va samarali yondashuv hisoblanadi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston ta'lim kontekstini uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan mazkur yondashuv tilni tushunish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Park J., Kang Y. Prediction abilities vs. content schema in explaining Korean EFL learners' reading comprehension // English Teaching, 2018.
2. Anyindah M.S., Odundo P.A., Kibuyi A. Prediction skills and reading comprehension achievement // English Language Teaching, 2020.
3. Jiang Y. Predicting strategy and listening comprehension // Asian Social Science, 2009.
4. Lingzhu J. Training the university English learners to predict in listening class // Journal of Chongqing University, 2003.
5. Howland E. Knowing the future: Predictive processing in the ELT classroom // Diversity and Inclusion, 2019.
6. Hasanova D., Shadieva T. Implementing communicative language teaching in Uzbekistan // TESOL Quarterly, 2008.
7. Bakhriddinova D. Sociolinguistic awareness in ESL learning in Uzbekistan // SPAST Reports, 2024.
8. Sotlikova M., Susilo S. Multicultural EFL learning in Uzbekistan // Academic Journal Perspective, 2024.

Muhabbat MAMASAIDOVA,

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FAZOVIIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning fazoviiy tasavvurlarini rivojlantirish jarayonining pedagogik va metodik xususiyatlari yoritilgan. Fazoviiy tafakkur shaxs intellektual rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning shakllanishida ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va pedagogik texnologiyalarning o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Boshlang'ich sinflarda geometrik va fazoviiy tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, fanlararo integratsiya, o'yin, muammoli va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish fazoviiy tasavvurlarni rivojlantirishning samarali shartlari sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fazoviiy tasavvur, fazoviiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, geometrik tushunchalar, pedagogik jarayon, metodik vositalar.

Annotation. This article examines the pedagogical and methodological features of developing spatial representations in primary school students. Spatial thinking is interpreted as an essential component of intellectual development. The role of educational content, forms, teaching aids, and pedagogical technologies in the formation of spatial thinking is scientifically substantiated. It is argued that the gradual formation of geometric concepts, interdisciplinary integration, game-based learning, problem-based learning, and information and communication technologies are effective conditions for the development of spatial representations in primary education.

Keywords: spatial representations, spatial thinking, primary education, geometric concepts, pedagogical process, teaching methods.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические особенности развития пространственных представлений у учащихся начальных классов. Пространственное мышление трактуется как важный компонент интеллектуального развития личности. Научно обоснована роль содержания, форм, средств обучения и педагогических технологий в формировании пространственного мышления. Показано, что поэтапное формирование геометрических понятий, межпредметная интеграция, игровые, проблемные и информационно-коммуникационные технологии являются эффективными условиями развития пространственных представлений в начальном обучении.

Ключевые слова: пространственные представления, пространственное мышление, начальное образование, геометрические понятия, педагогический процесс, методические средства.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, fazoviiy tafakkur inson tafakkurining muhim komponenti bo'lib, makon va shakl haqidagi obrazlarni ongda shakllantirish, ularni tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Boshlang'ich ta'lim davri fazoviiy tasavvurlarni shakllantirish uchun eng qulay bosqich bo'lib, pedagogik jarayonni ongli ravishda ushbu yo'nalishga yo'naltirishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchining "subyektiv pozitsiyasi"ni ta'minlash, ya'ni unga bilim oluvchi obyekt emas, bilish faoliyatining subyekt sifatida qarash zamonaviy pedagogikaning muhim tamoyillaridan biridir. Fazoviiy tasavvurlarni shakllantirishda ham bu tamoyilga amal qilish alohida ahamiyatga ega. O'quvchining subyektiv pozitsiyasini ta'minlovchi metodlar deganda, o'quvchini faol tafakkur yuritishga, mustaqil kashf etishga, o'z fikrini erkin ifodalashga undaydigan usullar tushuniladi. Bunday metodlarda o'quvchi jarayonning markazida turadi, bilimni tayyor holda olmaydi, balki o'zi izlanish orqali egallaydi va o'zining subyekt sifatidagi rolini his etadi.

Birinchi navbatda, bu toifaga **muammoli ta'lim metodlari** kiradi. Muammoli metod o'quvchini fikrlashga majbur qiladi, chunki u muammoni hal qilish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Fazoviiy masalalarda muammoli yondashuv ayniqsa qiziqarli: masalan, o'qituvchi geometrik shaklning bir qismini chizib qo'yib, "Shaklning qolgan qismini kim to'ldirib chiza oladi?" degan topshiriq beradi. Bolalar yetishmayotgan qismni har biri o'zicha tasavvur qiladi va chizadi, so'ng natijalar solishtiriladi. Bunda har bir o'quvchi ijodkor sifatida namoyon bo'ladi, o'z fikrini taklif qiladi, ya'ni subyekt sifatida faol bo'ladi.

O'quvchini subyektiv pozitsiyada faol tutish uchun **ijodiy topshiriqlar** va **loyiha metodlaridan** foydalanish ham samarali usullardan. Masalan, 3-sinf o'quvchilariga "Orzumdagi uy" mavzusida loyiha topshirig'i beriladi: ular qog'ozda o'zlari orzu qilgan uyning rejasini (chizmasini) tuzadilar, so'ng

uni maket qilib qurishlari mumkin. Bu jarayonda har bir bola o'z tasavvurini ishga solib, makoniy loyihalash bilan shug'ullanadi. Uyning nechta xonasi bo'ladi, har biri qayerda joylashadi – bularni mustaqil hal qiladi. Loyiha jarayonida o'quvchi o'z qarorlarini mustaqil qabul qilib, subyekt sifatida tajriba orttiradi. Shuningdek, bunday ijodiy ishlar jarayonida o'qituvchi yo'naltiruvchi va ko'maklashuvchi rolini o'ynaydi xolos, barcha asosiy faoliyat o'quvchining o'ziga tegishli bo'ladi.

O'quvchilarning subyektiv pozitsiyasini kuchaytiruvchi muhim metodlardan yana biri – **munozara va muloqotga yo'naltirilgan metodlar**dir. O'quvchilarni o'zaro muloqotga kirishishga, fikr almashishga undash ularga subyekt sifatida nutqiy va aqliy faollik beradi. Fazoviiy tushunchalarni o'rgatishda, masalan, "**Kichik guruhlar muhokamasi**" usulini qo'llash mumkin: sinf bir necha guruhlarga bo'linadi, har bir guruhga bitta masala beriladi (masalan, "Qanday shakllarni aylantirganda yana o'ziga o'xshaydi?" kabi savol). Guruh a'zolari o'zaro maslahatlashib, bir yechimga kelishlari kerak. Munozara jarayonida har bir bola o'z fikrini aytadi, boshqalarnikini tinglaydi, bahs-munozara qiladi, natijada o'z bilimini faol quradi. Ilmiy manbalarda ham o'quvchilarning o'zaro **muloqotli o'rganishi** fazoviiy tushunchalarni chuqurroq anglashiga yordam berishi ta'kidlangan. O'quvchilar matematik tushunchalarni bir-birlari bilan va o'qituvchi bilan muhokama qilish ekan, ular ustida "baland ovozda o'ylash" orqali o'z tafakkur jarayonlarini faollashtiradilar.

Shuningdek, "**Savol-javob**" metodini ham qayd etish joiz. Bu metodda o'qituvchi to'g'ridan to'g'ri javob bermay, o'quvchilarga ketma-ket savollar berib, ularni mulohaza yuritishga yo'naltiradi. Masalan: "Nima uchun doirani aylana ham deyishadi?", "Kvadratning qaysi xossalari tufayli u to'g'ri to'rtburchak ham hisoblanadi?" kabi savollar o'quvchilarda kichik "kashfiyot"lar qilishga undaydi. Ular o'z bilimlariga tayanib mulohaza yuritadilar, farazlarini aytadilar. Bu jarayonda har bir bola mustaqil aqliy faoliyat bilan band bo'ladi va subyekt sifatida o'zini namoyon qiladi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchini pedagogik jarayonning markaziga qo'yuvchi usullarni qo'llash bilan birga, o'qituvchi **rag'bat va qo'llab-quvvatlash**ni ham unutmasligi kerak. O'quvchi faol, fikr bildirishdan cho'chimaydigan bo'lishi uchun xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqmasligi kerak. Bu esa faqat do'stona muhit va ijobiy pedagogik muloqot orqaligina erishiladigan holatdir. Shunday muhit yaratilsa, o'quvchi savol berishga, taxmin qilishga, hatto yangilash bo'lsa-da, o'z fikrini bildirishga intiladi. Demak, u bilim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Misol uchun, murakkabroq fazoviy masalada noto'g'ri javob bergan bola qattiq tanbeh eshitmasa, aksincha o'qituvchi "Qiziq fikr, boshqacha yondashding, yana bir o'ylab ko'ramizmi?" deb dalda bersa, o'quvchi yana izlanadi, xatosini o'zi tuzatishga harakat qiladi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchining o'qishga daxldorlik hissi oshadi, u passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga – ta'lim subyektiga aylana boradi.

Xulosa qilib aytganda, fazoviy tafakkur kabi murakkab kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini talab etadi. O'quvchining subyektiv pozitsiyasini ta'minlovchi metodlar: muammoli ta'lim, ijodiy topshiriqlar, munozarali va muloqotga asoslangan usullar bolalarni fikran va amalan harakatlantirib, ularda makoniy tushunchalarni chuqur va ongli o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Bunday metodlar qo'llanganda o'quvchi o'zi kashf etadi, o'zi xulosa chiqazadi, natijada bilim uning shaxsiy tajribasiga aylanadi va fazoviy tasavvurlar mustahkam shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish jarayonida o'qituvchining roli va faoliyat uslubi alohida e'tiborga loyiqdir. An'anaviy dars berish uslublaridan farqli o'laroq, bugungi kunda o'qituvchidan innovatsion yondashuvlar kutib olinmoqda. "Innovatsion jihatlar" deganda, o'qituvchining yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llashi, ijodkorligi, noan'anaviy usullar bilan dars o'tishi, shuningdek, zamonaviy vositalardan foydalanishi nazarda tutiladi. Fazoviy tafakkurni shakllantirish masalasida o'qituvchi quyidagi innovatsion faoliyat jihatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Birinchi, o'qituvchi darsni **loyiha sifatida rejalashtirish** ko'nikmasini rivojlantirishi kerak. Har bir mashg'ulotni faqat tayanch reja asosida o'tish emas, balki uni kichik bir tadqiqot yoki loyiha ko'rinishida tashkil etish mumkin. Masalan, "Maktabimiz rejasini tuzamiz" mavzusidagi darsda o'qituvchi avval sinf bilan birgalikda maktab binosi va hovlisining sxemasini chizishni rejalashtirishi, so'ng bolalarni kichik guruhlarga bo'lib, har biriga maktabning ma'lum qismini (sport maydonchasi, gulzor, darvoza atrofi va hokazo) chizish vazifasini berishi mumkin. Dars yakunida qismlar birlashtirilib, umumiy xarita hosil qilinadi. Bu jarayon loyihaviy yondashuvni talab qiladi: o'qituvchi faqat ko'rsatmalar va koordinatsiyani amalga oshiradi, ijro asosan o'quvchilarga tegishli bo'ladi. Bunda o'qituvchi an'anaviy "bilim beruvchi" emas, balki **rahbarlik va fasilitatsiya** (yo'naltirish) rolini bajaradi. Bu innovatsion yondashuv natijasida o'quvchilarning hamkorlikda ishlash, makoniy muammoni hal qilish ko'nikmalari ortadi.

Ikkinchi, o'qituvchining innovatsion faoliyati sifatida **fanlararo integratsiya va STEAM elementlarini kiritish**ni qayd etish mumkin. Fazoviy tafakkurni rivojlantirishda matematika fanidan tashqari texnologiya, muhandislik, san'at elementlarini ham jalb etish samarali usullardan biridir. Zamonaviy o'qituvchi, masalan, geometriya mavzusini arxitektura yoki dizayn bilan bog'lash orqali o'quvchilarga bilimni hayotiy kontekstda ko'rsatishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, sharqona me'moriy obidalarni o'rganish g'oyasi – shunday integratsiyalashgan innovatsion yondashuv namunasi bo'la

oladi. Xuddi shuningdek, o'qituvchi matematika darsiga **origami san'atini** olib kirishi mumkin: qog'ozni buklay orqali shakllar yaratish nafaqat bolalarga zavq beradi, balki ularning fazoviy tasavvurini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tadqiqotlar origami mashqlari fazoviy fikrlashni oshirishini isbotlagan (masalan, qog'ozni buklay natijasini oldindan tasavvur qilish, diagrammadagi ko'rsatmalarni makonda tasavvur qilish kabi). Shunday noan'anaviy faoliyat turlarini darsga kiritish o'qituvchidan albatta qo'shimcha izlanuvchanlik va tayyorgarlikni talab qiladi, biroq natijada darslar jonlanadi va bolalar uchun makoniy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni osonlashadi.

Uchinchi, o'qituvchining innovatsion faoliyati AKT vositalarini darsga tatbiq etishda ham ko'rinadi. Yuqorida metodik vositalar haqida so'z yuritilar ekan, fazoviy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyati haqida aytili. O'qituvchi zamonaviy dasturlar va ilovalardan xabardor bo'lib, ularni dars mazmuniga integratsiya qilishi bugungi kun talabi hisoblanadi. Masalan, interaktiv taqdimotlarda 3D modellarni aylantirib ko'rsatish, virtual geometriya dasturlarida oddiy konstruksiyalar qilish kabi elementlar darsga kiritilsa, o'quvchilarning diqqatini tortadi va ularga yangi tajriba beradi. Hatto internet platformalaridagi ayrim ochiq resurslar (masalan, GeoGebra kabi dasturlar) orqali o'qituvchi o'quvchilarga uyya mustaqil bajarishi uchun qiziqarli fazoviy topshiriqlar yuborishi mumkin. Bu borada innovatsion faoliyat o'qituvchidan doimiy o'z ustida ishlash, yangi texnologik yangiliklarni pedagogik maqsadlarda qo'llash ko'nikmasini talab etadi. O. Anikeevaning tadqiqotida maktab ta'limida zamonaviy interaktiv texnologiyalarni joriy etish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirishning imkoniyatlari tahlil qilingan bo'lib, unda AKTdan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi qayd etilgan. Shu ma'noda, innovatsion o'qituvchi texnologiyalarni o'zining yordamchi quroliga aylantirib, fazoviy tasavvurlarni shakllantirishni yanada interaktiv va samarali qilishi mumkin.

To'rtinchi, o'qituvchining innovatsion jihatlaridan biri sifatida **refleksiv tahlil va monitoring olib borish**ni ham sanash mumkin. Ya'ni o'qituvchi o'z dars amaliyotini doimiy tahlil qilib borishi, qaysi usullar natija bergani, qayerda qiyinchilik uchraganini aniqlab, yangi yechimlar izlab borishi lozim. Innovatsion pedagog hech qachon bir xil qolipda qolib ketmaydi – u har bir darsni tajriba sifatida ko'radi va yaxshilash yo'llarini qidiradi. Masalan, agar biror geometrik tushuncha (deylik, "perimetr" tushunchasi)ni o'quvchilar o'zlashtirishda qiynalayotganini sezsa, keyingi safar uni boshqacha – o'yin yoki guruhli topshiriq shaklida tushuntirishga harakat qiladi. Yoki makoniy masalalarni yechishda kimlarningdir doim qiynalishini kuzatsa, ular uchun individual qo'shimcha mashqlar ishlab chiqadi. Bunday yondashuv – refleksiv innovatsion yondashuv bo'lib, o'qituvchi faoliyatini takomillashtirib borishni anglatadi.

Boshlang'ich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlariga singdirilishi zarur. Ta'lim maqsadlarini belgilashda, o'quv materialini tanlashda, dars shakllari va metodlarini belgilashda, shuningdek baholash va monitoring jarayonida fazoviy fikrlashni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Psixologik tadqiqotlar (J. Piaje, I.S. Yakimanskaya) shuni ko'rsatadiki, bolalar fazoviy munosabatlarni dastlab ego-sentrik tarzda idrok etadi, keyinchalik esa obyektiv fazoviy tasavvurlarni shakllantira boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda geometrik tushunchalar oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqich o'rgatilishi zarur.

Ta'lim mazmunida nuqta, chiziq, kesma, tekislik shakllari hamda hajmli jismlar bilan ishlashga oid topshiriqlar tizimli ravishda berilishi o'quvchilarning fazoviy analiz va sintez ko'nikmalarini rivojlantiradi. V.H.Van Xiyel nazariyasiga muvofiq, o'quvchilar shakllarni dastlab vizual darajada, keyinchalik esa ularning xossalari asosida tahlil qilishga o'tadilar. O'quv faoliyatining shakllari ham fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, konstruktiv faoliyat, guruhli ishlar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning makoniy fikrlash faolligini oshiradi. Tangram, geodob, konstruktorlar, hajmli shakllar modellari kabi vositalar bolalarning fazoviy idrokini mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – muammoli ta'lim,

o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar ham fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda samarali. Fanlararo integratsiya (matematika – tasviriy san'at – mehnat ta'limi) orqali bir tushunchaning turli faoliyatlarda qo'llanishi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi.

Boshlang'ich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi bo'lib, u ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va texnologiyalarining uyg'unligiga tayanadi. Maqsadga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv natijasida o'quvchilarda mustahkam fazoviy tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning keyingi matematik va ilmiy ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Якиманская И.С. Развитие пространственного мышления школьников. Москва: Педагогика, 1980.
2. Piaget J., Inhelder B. The Child's Conception of Space. – London: Routledge, 1971.
3. Van Hiele P.M. Structure and Insight: A Theory of Mathematics Education. – New York: Academic Press, 1986.
4. Clements D.H., Sarama J. Learning and Teaching Early Math: The Learning Trajectories Approach. – New York: Routledge, 2014.
5. Uttal D.H. et al. The malleability of spatial skills: A meta-analysis. Psychological Bulletin, 2013.
6. Raximov Q. Matematika o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2016.
7. So'fiboyeva G.M. Boshlang'ich sinflarda geometrik tushunchalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2021.
9. So'fiboyeva G.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirishda sharqona me'moriy obidalarning o'rni / 3rd TECH-FEST-2022 International Multidisciplinary Conference Proceedings, 2022.
10. Anikeeva O. The use of modern interactive technologies in shaping the spatial thinking of schoolchildren // Standards and Monitoring in Education, 2019. Vol. 7, №1.

Ernazar TOLEPOV,

NMPI asisstant o'qituvchisi

“LOYIHA” VA “INNOVASION LOYIHA” TUSHUNCHALARINING GENEZISI

Annotatsiya. Maqolada “loyiha, “innovasion loyiha” tushunchalarini tavsiflash orqali talabalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvida loyiha metodining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: loyiha, metod, loyiha metodi, innovasion loyiha, talabalar, oliy ta'lim muassasalari (OTM), ijtimoiylashuv, iqtisodiy ijtimoiylashuv.

Annotation. The article highlights the importance of the project-based method in the economic socialization of students through an analysis of the concepts of “project” and “innovative project”.

Keywords: project, method, project method, innovative project, students, higher education institutions (universities), socialization, economic socialization.

Аннотация. В статье акцентируется внимание на значении проектного метода для экономической социализации студентов через разбор понятий «проект» и «инновационный проект».

Ключевые слова: проект, метод, метод проекта, инновационный проект, студенты, высшие учебные заведения (вузы), социализация, экономическая социализация.

Har bir jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun “asosiy yoqilg'i, eng muhim zamonaviy sarmoyaning o'ziga xos shakli” [8], “iqtisodiy o'sishning tarkibiy asosi” [1] bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish orqali “texnologik taraqqiyot hamda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmaviy o'zgarishiga, xususan, sanoatlashuv yoki xizmatlar iqtisodiyotiga o'tish ta'minlanadi” [8].

“So'nggi yillarda loyihalar va loyihaviy faoliyatni amaliyotga tatbiq qilish nafaqat ta'lim jarayonining, balki zamonaviy inson hayotining barcha sohalarida kechadigan hayoti uchun ham muhim sanaladi” [2: 23]. “Loyiha” tushunchasi pedagogik, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologiya, ishlab chiqarish, marketing, muhandislik va me'morchilik sohalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilinadi. M.H.Usmonboyevaning ko'rsatishicha, lotincha (“projectus”) dan tarjima qilinganda “ilgari surilgan” ma'nosini anglatuvchi loyiha “aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini

kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli bo'lib, u dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi” [3: 25]. Ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llanilganda esa “loyiha” tushunchasi “maktab loyihasi”, “ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik faoliyati”, “loyihaviy faoliyat”, “o'quv loyihasi” shakllarida ham ifodalanadi.

Ta'limiy maqsadda amalga oshiriladigan tadqiqotchilik faoliyati nazariy yoki amaliy xarakter kasb etadi. Uning qanday xarakterga ega bo'lishi o'rganilayotgan muammo, o'quv materiali, qolaversa, ta'lim oluvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'qituvchi tomonidan belgilanadi. OTMda tashkil etiladigan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim talabalar tomonidan innovasion loyihalarni tayyorlashda juda qulay imkoniyatga ega o'qitish shakllari sanaladi. Bu mashg'ulotlarda muammoli o'quv topshiriqlari,

nostandart masalalar, shuningdek, “muammoli bayon, muammoli ma’ruza, evristik suhbat, muammoli namoyish, ijodiy topshiriq, xayoliy muammoli tajriba, muammo farazlarini shakllantirish, masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash, muammoli vazifa, muammoli o’yin” [3: 113] texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish malakasini rivojlantiradi. Qolaversa, debat, forum, talabalarning ilmiy tajriba, ekspedisiya va anjumanlari ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga samarali jalb etishga xizmat qiladi.

Talabalarda innovasion loyihalarni tayyorlash ko’nikma, malaka va tajribalarini rivojlantirish ularni iqtisodiy jihatdan samarali ijtimoiylashtirishda o’ziga xos o’rin tutadi. Ta’lim jarayoniga “innovasion loyiha” tushunchasini tatbiq qilishda tayanch atamaning mazmunini anglab olish taqozo qilinadi. Bu o’rinda dastlab “innovatsiya” tushunchasining mohiyati bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiya (ing. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – muayyan tizimning ichki tuzilishini o’zgartirishga qaratilgan faoliyat [3 – 10]; ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarning natijasida jamiyat ehtiyojlari va yoki boshqa ijobiy ta’sir uchun yaratilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat va boshqalar), ishlab chiqarish jarayoni, yangi marketing usuli, yangi ish o’rinlari yoki tashqi aloqalar [5]; texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag’lar; ilmiy-texnika yutuklari va ilg’or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo’llanilishi [4]; soha yoki faoliyatga shaxs tomonidan tashkil qilinayotgan intellektual va ijodiy faoliyat natijasida jarayon samaradorligining o’sishini va mahsulot sifatining yaxshilanishini ta’minlovchi yangilikning tatbiq qilinishi [6]; har qanday ko’rinishdagi emas, balki mavjud (amaldagi) tizimning samaradorligini sezilarli ravishda oshiradigan yangilanish yoki yangiliklarni kiritish [7: 30].

“Iqtisodiyot sohasida “innovatsiya” tushunchasi Yozev Shumpeter tomonidan 1911 yilda yaratilgan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida birinchi marta qo’llanilgan. Unda muallif “innovatsiya” deganda shunchaki sohaga yangiliklarni kiritishni emas, balki sanoatning asosiy omili – “unga ta’sir etuvchi omillar majmuining o’zgarishlarni inobatga olgan holda mahsulotning miqdoriy o’zgarishi”ni oldindan belgilab beradigan ishlab chiqarish funksiyasini e’tirof qiladi. Bordiyu, barcha omillar yig’indisi mavjud shaklni o’zgartira olsa, ana

shu holat innovatsiya sanaladi” [2: 368–369]. Shunga ko’ra “innovatsiya” va “loyiha” tushunchalarining birikmasi bo’lgan “innovasion loyiha” atamasi o’zida jarayon, faoliyat, tizim va sohaga yangilik, ixtiro va kashfiyotlarni izchil tatbiq qilishga qaratilgan faoliyat mazmunini yoritadi. Xususan, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va huquqiy jihatdan majmuaviy asoslangan yangi g’oyalari va kashfiyotlarni amaliyotga tatbiq qilishga qaratilgan loyiha [10: 3962].

Innovasion loyiha – innovasion xarakterdagi faoliyatning maqsadi, vazifalari, dasturi, metodikasi, tegishli faoliyatni tashkil qilishning zarur shart-sharoitlari va amalga oshirilish muddatlari, resurslar ta’minotini belgilab beruvchi hujjat; tuzilmaviy tarkibiy asosda va muayyan tartibda rasmiylashtiriladigan hujjatlar majmui [9]. Mazkur hujjatda innovasion loyihaning pasporti beriladi. O’z navbatida tegishli pasportda quyidagilarga oid ma’lumotnoma o’rin oladi: innovasion loyihaning mavzusi, loyihani amalga oshiruvchi shaxslar (jismoniy yoki yuridik), ularga tegishli ma’lumotlar, innovasion faoliyatni amalga oshirish muddatlari, loyihaning dolzarbligini asoslovchi kommyunike (bayonnoma), maqsad va vazifalar, tajriba sinovi asosida natijalar ishonchligining tasdiqlanishi, innovasion loyihaning bosh g’oyasi va uni amalga oshirilishini ifodalovchi model, ta’minoti, dasturi, bir yil uchun mo’ljallangan tavqimiy rejasi, innovasion faoliyat samaradorligini aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi mezon hamda ko’rsatkichlar kadrlar va moddiy-texnik ta’minot, loyihaning moliyaviy-iqtisodiy tavsifi.

Mohiyatiga ko’ra innovasion loyihalar ular qo’llanilayotgan soha, yo’nalish va faoliyati turiga ko’ra tashkiliy, ilmiy-texnik va tadqiqot, pedagogik sohada foydalanilishi nuqtai nazardan esa o’quv, amaliy, ijodiy va ilmiy loyihalar sifatida tasniflanadi. Pedagogik jarayonda o’quv, amaliy, ijodiy va ilmiy xarakterdagi innovasion loyihalardan foydalanish talabalarni iqtisodiy jihatdan samarali ijtimoiylashtirishga yordam beradi. Pedagogik jarayonda loyiha metodining qo’llanilishi talabalarni samarali iqtisodiy ijtimoiylashtirishni ta’minlash uchun keng imkoniyat yaratadi. Loyihaviy faoliyat asosida o’quv, amaliy, ijodiy va ilmiy xarakterdagi innovasion g’oyalarning ilgari surilishi esa o’z navbatida talabalarda ijtimoiy ahamiyatli kompetensiyalarni muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi. Shu sababli OTM talabalarni iqtisodiy ijtimoiylashtirishda loyiha metodini qo’llashga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авдеева Д.А., Акиндинова Н.В. Вклад человеческого капитала в рост экономики – исследовать сложно, но можно. <https://stratpro.hse.ru/social-policy/news/823237177.html>.
2. Земляная А.С. Савостин Д.А. Определение понятия “инновационный проект” и типология инновационных проектов в контексте концепции Educational-маркетинга // Вопросы студенческой науки, 2020, №7 (47). – С. 368–369.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To’rayev A.B. Innovasion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2015.
4. Инновация. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/innovatsiya-uz>.
5. Инновацион фаолият – янги фикр, янги ғоя. <https://yaupan.uz/index.php?site/view/news/1243>.
6. Инновация. <https://www.unisender.com/ru/glossary/innovacii-opredelenie-i-vidy>.
7. Костюк Н.И. Новые принципы организации начального профессионального образования // Ж. Профессиональное образование. Минск: 2004, №4. – С. 30.
8. Руководство по составлению инновационного проекта. http://wp-content/uploads/post/record_154496/2021_11/Руководство-к-составлению-инновационного-проекта.pdf.
9. Самый ценный экономический ресурс. <https://econs.online/articles/ekonomika/samyy-tsennyy-ekonomicheskyy-resurs>.
10. Цзянань Ц. Разграничение понятий “инновационный проект” и “инвестиционный проект” // Экономика, предпринимательство и право, 2024, №7.

Sayyoraxon TO'XTASINOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich magistranti

11-SINF “ONA TILI” DARSLIGI BO‘YICHA MANTIQUIY MUSHOHADANI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 11-sinf “Ona tili” darsligi bo‘yicha tuzilgan test savollari keltiriladi va tahlil qilinadi. Odatiy grammatik qoidalar asosida yaratilgan, ammo mantiqiy fikrlashga undovchi testlar orqali yangi mavzuning tushunilganlik darajasini tekshirish yoki nazorat ishi jarayonlarini tashkil etishning samarali tomonlari tadqiq qilinadi. Test savollarini noodatiy shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: paronimlar, unlilar talaffuzi, qo‘shirnoq, kelishiklar ma‘nodoshligi, mantiqiy fikrlash, aqliy rivojlanish.

Annotation. This article presents and analyzes test questions compiled from the 11th grade “Mother Tongue” textbook. Tests created on the basis of usual grammatical rules, but encouraging logical thinking, are used to check the level of understanding of the new topic or to study the effective aspects of organizing control work processes. Recommendations are given on the unusual formulation of test questions.

Keywords: paronyms, vowel pronunciation, quotation marks, synonymy of grammatical cases, logical thinking, intellectual development.

Аннотация. В данной статье представлены и проанализированы тестовые вопросы, составленные по учебнику «Родной язык» для учащихся 11-х классов. С помощью тестов, созданных на основе обычных грамматических правил, но побуждающих к логическому мышлению, исследуются эффективные аспекты проверки уровня понимания новой темы или организации процессов контрольной работы. Даются рекомендации по необычному формулированию тестовых вопросов.

Ключевые слова: паронимы, произношение гласных, кавычки, синонимичность падежей, логическое мышление, умственное развитие.

Bugungi ta‘lim islohoti jarayonlarida o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni egallashi emas, balki shu bilimlarni anglab yetishi, tahlil qilishi va amaliyotda qo‘llay olishi asosiy maqsad qilib qo‘yilmoqda. Shu bois ona tili fanini o‘qitishda mantiqiy yondashuvni amalga oshirish o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki tafakkur darajasini, muammoni hal qilish qobiliyatini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Fanlarni tadqiq qilish natijasi o‘laroq ta‘rif-u qoidalar, qoliqlar, teoremlar paydo bo‘ladi. Ularning hammasi mantiq g‘alviridan o‘tgandagina asosli, tushunarli bo‘ladi. Nafaqat yetuk tilshunosni tayyorlash, balki maktab o‘quvchilariga ona tilini oson tushuntirish uchun ham mantiqiy muhadadaga chorlovchi testlardan foydalanish yaxshi samara beradi [3: 204].

Quyida 11-sinf “Ona tili” darsligi bo‘yicha tuzilgan mantiqiy fikrlashga yordam beruvchi bir nechta test savollarini ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz. Bunday topshiriqlarning berilishi o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini orttirish bilan birgalikda umumiy bilimlarini yanada boyishiga yordam beradi.

“Quyidagi qaysi qatordagi xatolik boshqalaridan farq qiladi?”

A. Bu kitobning dovrug‘i asirlar osha dunyoga tarqalgan.

B. Ixtisod bo‘yicha Nobel mukofoti qachondan boshlab beriladi?

D. Dadam shamba kuni safardan qaytadi.

E. Gapimni eshitgach, birdan hayajonlanib ketti” (Test topshirig‘i 11-sinf ona tili darsligining 3-mavzusidan foydalanib tuzildi) [2: 11].

Testga to‘g‘ridan to‘g‘ri “Paronimlar qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud javobni toping” yoki “Qaysi qatorda imloviy jihatdan xato yozilgan so‘z mavjud emas?” tarzida shart qo‘yilmaganining sababi bu narsa test mazmunini biroz osonlashtirib beradi va biz o‘quvchining mantig‘iga ish qoldirmagan bo‘lamiz. Yuqoridagi holatda esa test topshirig‘i shunchaki miyadagi bilimlardan foydalanishni talab etib qolmay, o‘quvchini mantiqiy mushohadaga ham chorlaydi. O‘quvchiga eshikdan kirishni emas, o‘sha eshikni ochishni ham o‘rgatib borilsa, unda aqliy salohiyat yanada yuksalib boraveradi. Boshqa variantlarda imloviy xato yozilgan so‘zlar mavjud bo‘lsa, A javobdagi gapda xatolik so‘z qo‘llash bilan

bog‘liq, ya‘ni paronimlardan foydalanishda yuz bergan. To‘g‘ri javob – A.

Talaffuzda a tovushi yangramaydigan so‘zni toping.

A. Kokos

B. Motoroller

D. Notarial

E. Ekolog.

(Test topshirig‘i 11-sinf ona tili darsligining 5-mavzusidan foydalanib tuzildi) [2: 17].

Xorijiy so‘zlarda **o** unlisi urg‘usiz hollarda noaniq talaffuz qilinadi [1: 7]. Ya‘ni aynan **o** tarzida emas, qisqa **i** yoki **a** tovushiga moyil o‘qiladi. Darslikdagi “Urg‘u talaffuzi” mavzusi bo‘yicha berilgan mashqda ana shunday talaffuzga oid so‘zlar keltirilgan. Test topshirig‘ini bajarish uchun esa har bir so‘zga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish va to‘g‘ri talaffuz qilish zarur. A va B variantlarda umuman **a** harfi yozuvda aks etmagan bo‘lsa-da, til qonuniyatlariga ko‘ra, *kakos*, *mataroller* tarzida o‘qiladi. C variantda o‘z-o‘zidan **a** harfi mavjud, urg‘u ostida va u o‘z holicha talaffuz qilinadi. D variantda esa urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda bo‘lganligi uchun **o** tovushi o‘qiladi, garchi bu so‘z tegishli bo‘lgan soha *ekalogiya* tarzida o‘qilsa ham, shaxs oti yasalganda urg‘u ko‘chishi yuz beradi. O‘quvchilar esa bunga chalg‘imasliklari kerak. Oxirgi bo‘g‘indagi **o** harfi urg‘usiz bo‘lsa-da, bu yerda u **a** tarzida emas, qisqa **i** tarzida talaffuz qilinadi. To‘g‘ri javob – D.

Adham darsda: “Agar men o‘sha davrda yashaganimda “Avesto” ni yonib ketishdan saqlab qolgan bo‘lardim”, – dedi, o‘zini “qahramon” qilib ko‘rsatishga urinib. **Ushbu gapda qo‘shirnoq ishlatilishi sababi noto‘g‘ri keltirilgan javobni toping.**

A. Kinoya bilan aytilgan so‘zni ko‘rsatishda

B. So‘zning etimologiyasini keltirishda

D. Ko‘chirma gapni ajratishda

E. Badiiy asar nomlarini yozishda

(Test topshirig‘i 11-sinf ona tili darsligining 19-mavzusidan foydalanib tuzildi) [2: 70]. Darslikdagi “Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash” mavzusida matn va unga oid savollar keltirish orqali qo‘shirnoqning turli yozma nutq vaziyatlarida qo‘llanishi haqida ma‘lumot berilgan. Shunga muvofiq tuzilgan test topshirig‘ida o‘quvchi punktuatsion o‘ziga xoslikni anglay olishi zarur. Qoidaga ko‘ra, qo‘shirnoq quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi.
 2. Kinoya bilan aytilgan so'z yoki so'z birikmalari qo'shtirnoqqa olinadi.
 3. Badiiy asarlar, ayrim uyushma, korxonalar nomi, orden va medal nomlari qo'shtirnoqqa olinadi [4: 166].
- Shuningdek, so'zlarning etimologik izohlarini keltirishda ham qo'shtirnoqdan foydalanish mumkin. Masalan, "sivilizatsiya" so'zi lotin tilidan kelib chiqqan. Lekin test matnida bunday holat kuzatilmagan. To'g'ri javob – B.

Variantlardagi qaysi juftlikda 2-gap birinchisidan mazmunan farq qiladi?

- A. *Do'stim kelganidan xursandman – Do'stim kelganiga xursandman.*
 - B. *Ustozning gapiga tushunmadim – Ustozning gapini tushunmadim.*
 - D. *Mehmon otangdan ulug' – Mehmon otangday ulug'.*
 - E. *Ulardan biri ukamga qaradi – Ularning biri ukamga qaradi.*
- (Test topshirig'i 11-sinf ona tili darsligining 17-mavzusidan foydalanib tuzildi) [2: 64].

Kelishik qo'shimchalari turli vaziyatlarda o'zaro sinonimlik hosil qilishi tushuntirilgan mavzu yuzasidan tuzilgan test topshirig'i shartida yashirinlik yuzaga keltirish orqali o'quvchini yanada jiddiyroq yondashishga undash

mumkin. 11-sinf o'quvchilari uchun kelishiklarning nafaqat o'zaro, balki ko'makchilar yoki boshqa turdagi qo'shimchalar bilan ham ma'nodosh bo'lishi yangilik emas. Shuning uchun bu turdagi test topshirig'i murakkab emas, shunchaki hushyor bo'lish yetarli. Barcha javob variantlarida ko'makchi morfemalar o'rtasida sinonimlik mavjud, ammo C variantda har ikkisi ham kelishik qo'shimchasi emas, *-dan* qo'shimchasi *-day* qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qilgan. To'g'ri javob – C.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida grammatik qoidalar va til me'yorlarini o'quvchilarga shunchaki, yodlatibgina qolmay, ularga fikrlash va hushyorlikni o'rgatish, diqqatli bo'lish va topshiriqqa mantiqan yondashish asoslarini tushuntirish zarur. Darsliklarda ana shunday kognitiv faoliyatni rivojlantiruvchi hamda nutqiy ko'nikmalar shakllanishiga yordam beruvchi mashq va topshiriqlar soni yetarlicha. Shunday ekan, ularni yanada osonroq tushuntirish va qiziqarli testlar bilan tatbiq etish darslarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshiradi. O'z o'rnida, test savollariga, shunchaki, "nima? qachon? qayerda?" tarzida yondashmasdan, yuqorida ko'rsatilganidek biroz murakkab, ammo qiziqarli yondashuv qo'llansa, ham bolaning fikrlash darajasi o'sadi, ham o'rgatilayotgan mavzularni eslab qolish ehtimoli oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асимова Г. Русский язык. Ташкент: 2008. – 240 с.
2. Mengliyev B. va boshq. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Toshkent: 2020. – 96 b.
3. Siddiqov M. Ona tilini o'qitishda mantiqiy mushohadaning o'rni // "O'zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari: muammo, yechim va istiqbollari" mavzusida onlayn respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2020. – B. 204–206.
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – 177 b.

Zayniddin BOZOROV,

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

INTEGRATIV O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING FUQAROLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o'qitishning afzal tomonlari, ularda ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, ijtimoiylashtirish imkoniyatlari, bu imkoniyatlar talabalarda fuqarolik madaniyatining asosini tashkil etgan fuqarolik ongi, fuqarolik e'tiqodi, fuqarolik tafakkuri, fuqarolik idroki va munosabatlarining rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: integratsiya, fuqarolik madaniyati, fuqarolik ongi, fuqarolik e'tiqodi, fuqarolik tafakkuri, fuqarolik idroki, tizimli yondashuv.

Annotation. This article analyzes the advantages of integrative education in social-humanitarian and specialized disciplines, the possibilities of humanization, democratization, and socialization of the educational process, as well as the fact that these possibilities create favorable pedagogical conditions for the development of civic consciousness, civic faith, civic thinking, civic perception, and attitudes, which constitute the foundation of students' civic culture.

Keywords: integration, civic culture, civic self-awareness, civic faith, civic thinking, civic perception, systems approach.

Аннотация. В данной статье анализируются преимущества интегративного обучения социально-гуманитарным и специализированным предметам, возможности гуманизации, демократизации, социализации образовательного процесса, а также тот факт, что эти возможности создают благоприятные педагогические условия для развития гражданского сознания, гражданской веры, гражданского мышления, гражданского восприятия и установок, являющихся основой гражданской культуры у учащихся.

Ключевые слова: интеграция, гражданская культура, гражданское самосознание, гражданская вера, гражданское мышление, гражданское восприятие, системный подход.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va takomillashtirish, mamlakatda sanoatni va xalq xo'jaligini fan-texnika hamda zamonaviy texnologiyalar asosida qayta qurish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish inson omilini faollashtirishni talab etdi. Zero, inson mehnat faoliyatini qayta qurish, albatta, yangi va murakkab ijtimoiy hamda ilmiy-texnik vazifalarni ijodiy hal etish zaruriyati, mantiqiy-ijodiy fikrlaydigan yuksak malakali hamda bilimli, siyosiy chiniquqan mutaxassislarni tayyorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Darhaqiqat, demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini yanada rivojlantirishni strategik maqsad sifatida bilgan mamlakat inson manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni amalga oshirmay, jamiyat, ayniqsa yoshlar tafakkurini o'stirmay turib, oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi. Bularni amalga oshirishning yagona sharti uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini bo'lmish oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, uning mazmunini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish yaxlitligini ta'minlashga erishib,

fanlarni o'qitishda tizimli, integratsion yondashuvlardan unumli foydalanishdir.

Tizimli yondashuv, tizimlilik "qismlardan tashkil topgan yaxlit narsa yoki hodisa" ma'nosini anglatadi. Fanlararo tizimlilik har bir fanning o'zga fanlar bilan o'rganayotgan, tadqiq qilinayotgan narsalar, voqealarning o'xshashlik tomonlari asosida birikkan yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutsa, integrativ yondashuv narsa va hodisalar bo'laklari yoxud qismlarining bir-biriga qo'shilib, bir butunga aylanib yaxlitlanishini anglatadi. Har ikki pedagogik tushuncha ta'lim-tarbiya jarayonida fanlar mazmunidagi ma'lumotlarning o'xshash, yaqin, bir-birini to'ldiruvchi, kuchaytiruvchi g'oyalari, fikrlarni yuzaga keltirib, o'zlashtiriladigan bilimlar mazmunini yuksaltiradi, oshiradi va bilim oluvchining intellektual salohiyatini, dunyoqarashini boyitib, shaxsiy sifatlarini ijobiy tomonga rivojlantirishiga yordam beradi.

Pedagogika, didaktika, metodika, falsafa, psixologiyaga doir adabiyotlarning tahlili integratsion ta'limning o'tmishdoshi sifatida XX asrning 20–30-yillarida fanlararo bog'liqlikni, aloqadorlikni (V.E.Yesipov), 60–70-yillarda fanlararo aloqani (I.D.Zverev, V.N.Maksimova, L.V.Tefasov, E.A.Turdiqulov), 80v90-yillarda ta'lim jarayonini integratsiyalash (Y.M.Kolgin, L.V.Tarasov, R.G.Safarova, O.A.Abduquddusov va h.k.) masalalari amalga oshirilganligini qayd etadi [4: 67].

Ta'lim tizimida fanlararo bog'lanish o'rniga kelgan fanlararo aloqadorlik bir-biriga o'zakkosh fanlar, mazmun va mohiyatan yaqin bo'lgan fanlar mazmunidagi g'oyalarni ilmiy ifodalash orqali fan-ta'lim amaliyoti integratsiyasini vujudga keltirishga, bilimlarni chuqurlashtirishga, kengaytirishga olib keldi. Zamon ishlab chiqarishi va uning ishlash texnologiyasi bo'yicha yangi fanlarning yaratilishiga asos soldi, istiqbolli muammolarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashning didaktik zamini bo'lib xizmat qildi.

"Fanlararo aloqadorlik, – deb yozadi taniqli rus pedagogi V.M.Maksimova, – zamonaviy didaktik paradigma sifatida fanlar mazmunidagi o'quv muammolarini kompleks (yaxlit) hal etish, umumlashtirish va bir butun xulosa chiqarish imkonini yaratdi. Ayni paytda ta'lim metodlari, usullarini faollashtirdi va turli o'quv predmetlari mazmunida bilim, ko'nikma, malakalarni tizimga solishni ta'minladi. Tizimli tahlilni yo'lga qo'yib, fanlararo aloqadorlikning tarkibi, tuzilishi va vazifalarini turli obyektlar bilan bog'lab, o'quv fani va o'qitish jarayonining bog'liqligini amalga oshirdi. Shuning uchun u zamonaviy didaktik prinsip hisoblanadi" [2: 29–30]. "Fanlararo aloqadorlik faqatgina fanlarni o'rganishda umumiy ijtimoiy maqsadlar asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishish vositasi emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir" [3: 43]. Mazkur omillar va o'tgan asrning 80–90-yillarida fanlararo aloqadorlik deb emas, balki ta'lim jarayonini integratsiyasi nomi bilan yuritila boshlanib, u voqelikni bir butunlikda o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda anglashni yo'lga qo'yib, fanlarning bir-birlariga o'xshash tomonlarini ilmiy asoslashga yordam berdi. Keyinchalik pedagogik matbuotda, ilmiy jamoatchilikda integratsiya g'oyasiga bag'ishlangan maqolalar, o'quv qo'llanmalar chop etila boshlandi va u pedagogikada yetakchi xarakter kasb etdi. Dissertatsiya ishlari yozildi, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalari nashr etildi (qarang: Zverev I.D., Maksimova V.N., Vorchenko S.D., Svetlovskaya N.S., Kats S.B., Kuznetsov A.A., Beshenkov S.A., Turdiqulov E.A., Shodiyev N.Sh., Safarov R.G., Abduquddusov O.A., Abdullayeva B. va h.k.).

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ham nazariy, ham amaliy asoslash uchun, avvalo, uni pedagogik hodisa sifatida tavsiflash lozim. "Integratsiya" tushunchasi, deb qayd etadi X.N.Xakimov, ta'lim jarayoniga tadbiiq etilganda ikkita ma'noni anglatadi: birinchidan, bu maktab o'quvchilarida bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi); ikkinchidan, fanga doir bilimlarning umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiya ta'lim vositasi sifatida qaraladi). Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o'qitishning afzallik tomoni shundaki, ularda ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, ijtimoiylashtirish imkoniyatlari maydonga keladi. Bu imkoniyatlar talabalarda fuqarolik madaniyatining asosini tashkil etgan fuqarolik ongi, fuqarolik e'tiqodi, fuqarolik tafakkuri, fuqarolik idroki va munosabatlarining rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Shu ma'noda yangi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablari asosida ta'lim-tarbiya yaxlitligini ta'minlash hamda talaba-yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiq:

– ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini tashkil qilish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-ma'rifiy hayot uchun muhim bo'lgan fan, san'at, ilm-ma'rifat, insonning mehnat faolligi, milliy mafkura, falsafa, din kabi qimmatli qadriyatlar asosini tashkil etgan aksiologik (qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot) bilimlar majmuasini vujudga keltirish;

– fanlarning yaxlit integratsiyasi asosida voqelik, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy-mafkuraviy taraqqiyot to'g'risida gnoseologik ma'lumotlar, amaliy va ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni baholovchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni (dalillash, milliy mustaqillikning barcha tuzumlardan ustunligini asoslovchi fikrlar, fan-texnikaning insonparvarligi, insonga xavf solayotgan tahdidlar, mafkuralarning yotligi, jaholatligi va h.k.) hosil qilish va takomillashtirish;

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning mobilligi va qo'shma ta'lim jarayonida til va madaniyat integratsiyasi nafaqat akademik bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalarning lingvistik, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning markaziy omili hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, intermadaniyatlararo kompetensiyani shakllanishi va intercultural adaptatsiya jarayoni pedagogik, institutsional va individual yondashuvlarning uzviy uyg'unlashuvi orqali samarali amalga oshadi. Ilmiy tahlillar va empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, qo'shma ta'lim dasturlarida til va madaniyat integratsiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun mentorlik tizimi, moslashuvchan o'quv dasturlari, pedagogik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, talabani individual motivatsiyasi va

madaniy adaptatsiyasi bir xil darajada muhimdir. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalar til va madaniyat integratsiyasining nazariy va amaliy asoslarini yaratishda muhim rol o'ynaydi, ularning ishlari pedagogik strategiyalar va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarining global akademik maydonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlash uchun til va madaniyat integratsiyasini zamonaviy pedagogik va

institutsional mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu esa qo'shma ta'limning sifatini oshirish, talabalarining madaniy idrokini kengaytirish va ularni transmilliy ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, til va madaniyat integratsiyasining samarali strategiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham oliy ta'limning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov J. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini o'quv dasturi asosida takomillashtirish // Nordic Press, 2025.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Surxon-nashr, 2022.
3. Ximmataliyev D.O., Usarboyeva D.U. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, 2024.
4. Isaqulova B. Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025.
5. Mingboyeva T. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida akademik mobillik modelini joriy etish texnologiyasi // Modern Science and Research, 2024.
6. Kuldashev S. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini qo'llashning ahamiyati // Nordic_Press, 2025.
7. Hakimov S. Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025.
8. Saitkulova N., Suleymanova N.K. Akademik mobillik borasidagi muammolar va ularning yechimlari // Pedagog, 2023, №6(6). – B. 65–70.
9. Носирова Д. Олий таълим муассасаларида кредит-модул тизимини жорий этишнинг устувор жиҳатлари // Математики и информатики, 2021, №1(3).
10. Исмаилов Т., Абдулакимов А. талабалар амалиётида халқаро алмашинув дастурлари: Erasmus+, DAAD, Fulbright // Наука и технология в современном мире, 2025. Том 4, №5.

Tumaris KABULOVA,

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktranti;

Dilfuza DJUMAMBETOVA,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

SUN'IY INTELEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt ta'limni yanada samarali, interaktiv va o'quvchiga moslashtirilgan shaklda tashkil etishga qanday xizmat qilishi yoritiladi. Xususan, SI texnologiyalarining o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri, darslarni individual yondashuv asosida olib borish, bilimlarni baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, uni joriy etishda yuzaga kelish imkoniyatlarini baholash va cheklovlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, interaktiv ta'lim, shaxsiylashtirilgan o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash, o'quv jarayoni, raqamli ta'lim.

Annotation. This article analyzes the role and practical potential of artificial intelligence (AI) technologies in the field of education. It highlights how SI contributes to making the learning process more effective, interactive, and personalized. In particular, the article examines the impact of SI on students' learning experiences, the use of AI tools for individualized instruction, the automation of assessment processes, and their role in improving the overall quality of education. In addition, the advantages of applying artificial intelligence in education are discussed, along with the challenges and limitations that may arise during its implementation.

Keywords: artificial intelligence, educational technologies, interactive learning, personalized learning, automated assessment, learning process, digital education.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и практические возможности технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. Освещается, как искусственный интеллект служит для организации обучения в более эффективной, интерактивной и адаптированной для учащегося форме. В частности, рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на процесс обучения учащихся, проведение уроков на основе индивидуального подхода, автоматизация процесса оценки знаний и их роль в повышении качества образования. Также анализируются проблемы и ограничения, которые могут возникнуть при его внедрении.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образовательные технологии, интерактивное обучение, персонализированное обучение, автоматизированная оценка, учебный процесс, цифровое образование.

Sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalarni turli sohalarga joriy etish jarayoni jahon bo'ylab jadallashib bormoqda. Bugungi kunda dunyoning ellikdan ortiq mamlakatlari sun'iy intellekt (SI) bo'yicha milliy strategiyalarni qabul qilgan [1]. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda muhim qadamlar tashlanib, SI sohasini rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda [1]. Sun'iy intellekt tushunchasi informatika va sun'iy tafakkur sohasiga mansub

bo'lib, inson ongiga xos vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan, o'zini-o'zi takomillashtira oluvchi kompyuter tizimlarini anglatadi. Sodda qilib aytganda, SI – algoritmlar yordamida kompyuterlarni odam kabi “o'ylash” va qaror topishga yo'naltiruvchi texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt atamasi ko'pincha robotlarning inson o'rnini egallashi sifatida noto'g'ri talqin etiladi, aslida esa

uning asosiy maqsadi inson qobiliyat va imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir.

“Sun’iy intellekt” atamasi ilmiy muomalaga 1950-yillar oxirida kirgan bo’lib, Dartmut anjumani (1956) sun’iy intellekt sohasining boshlang’ich nuqtasi hisoblanadi [2]. O’shandan buyon SI texnologiyalari mislsiz taraqqiy etib, bugungi kunga kelib inson aql-idrok jarayonlarini tezkor hisoblash va katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili orqali taqlid qila oluvchi turli algoritmlar va dasturiy yechimlar majmuasini hosil qilmoqda. Zamonaviy SI tizimlarini yaratish uchun uch asosiy omil – yuqori unumli hisoblash texnikasi, katta hajmdagi ma’lumotlar bazasi va intellektual algoritmlar zarur ekani alohida ta’kidlanadi [2].

Bugungi kunda sun’iy intellekt jamiyat hayotining turli jabhalariga kirib kelmoqda. Xususan, ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas – SI yordamida ta’lim jarayonini takomillashtirish, individga yo’naltirilgan o’qitishni joriy etish hamda boshqaruvni optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq sun’iy intellektning jadal rivojlanishi bir qator yangi xavf va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda – xususan, maxfiylik, etik me’yorlar, malakali kadrlar yetishmasligi kabi masalalar dolzarb bo’lib, bu borada siyosat va tartibotlarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida sun’iy intellektning ta’limdagi o’rni va imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Avvalo, SI tushunchasi, uning turlari va ta’lim tizimida qo’llanilishiga oid nazariy asoslar yoritiladi. Keyingi bo’limlarda sun’iy intellekt yordamida o’qitishning zamonaviy usullari, afzallik va cheklovlari muhokama qilinadi. Xalqaro hamda mahalliy tajribada SI asosida yaratilgan ta’limiy platformalar misolida mavjud yutuq va muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, B2 darajadagi o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini (og’zaki va yozma nutq, o’zaro muloqot, madaniyatlararo kommunikatsiya) sun’iy intellekt orqali shakllantirish usullari ko’rib chiqilib, raqamli pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda SI vositalarining o’rni tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida xulosalar va takliflar keltiriladi.

Sun’iy intellekt (SI) tushunchasi yuzasidan fan va amaliyotda turlicha yondashuvlar mavjud bo’lsa-da, umuman olganda uni ma’lum vazifalarni odamdek hal qilish qobiliyatiga ega tizimlar deb tariflash mumkin. SI tizimlari dastlab odamlar bajarib kelgan funksiyalarni avtomatlashtirish orqali paydo bo’lgan va hozirga kelib mustaqil o’rganish va rivojlanish xususiyatiga ega murakkab jarayonga aylangan. Sun’iy intellekt turli ko’rinish va yo’nalishlarga ega: imkoniyatlariga ko’ra odatda zSif (tor) sun’iy intellekt va kuchli (umumiy) sun’iy intellekt turlari ajratiladi. Hozirgi kunda mavjud dasturiy yechimlar asosan tor sun’iy intellektga kiradi – ular aniq belgilangan bitta vazifani yuqori samaradorlik bilan bajara oladi (masalan, matndagi xatolarni topish yoki shaxmat o’ynash). Kuchli sun’iy intellekt esa insonning intellektual faoliyatining barcha jihatlarini to’liq taqlid qila oladigan gipotetik tizim bo’lib, ilmiy-fantastik g’oyalar darajasida qolmoqda [3]. Shuningdek, SI tizimlari texnik yechimlari bo’yicha ekspert tizimlar, robototexnika, mashinani o’qitish, chuqur o’rganish, sun’iy neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko’rish kabi ko’plab yo’nalish va bo’linmalarga ajratiladi. Masalan, sun’iy intellekt texnologiyalari zamirida ko’pincha mashinani o’qitish (machine learning) usullari yotadi – ya’ni dasturiy model berilgan ma’lumotlar asosida mustaqil ravishda yangi xulosalar chiqaradi va o’z faoliyatini optimallashtirib boradi. SI, shuningdek, neyron tarmoqlar (inson miyasi faoliyati prinsipi bo’yicha ishlovchi tarmoqlangan hisoblash tizimlari), tabiiy tilni qayta ishlash (matnni tushunish va generatsiya qilish algoritmlari), kognitiv hisoblash va kompyuter ko’rish kabi qator murakkab yo’nalishlarni o’z ichiga oladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimida qo’llanila boshlaganiga hali ko’p vaqt bo’lgani yo’q, biroq jahon miqyosida allaqachon turli sun’iy intellektga asoslangan ta’limiy yechimlar yaratilgan va sinovdan o’tmoqda. Ta’lim sohasida SI qo’llanilishining asosiy maqsadi – o’quv jarayonini individuallashtirish, har bir o’quvchining ehtiyojiga mos o’qitish va pedagogga yordam berish orqali ta’lim sifatini oshirishdan iborat. Hozirgi kunda adaptiv ta’lim tizimlari deb nom olgan platformalar mavjud bo’lib, ular sun’iy intellekt yordamida o’quvchi bilim darajasini aniqlab, o’ziga mos mavzu va topshiriqlarni taklif qila oladi [4]. Masalan, DreamBox Learning, Smart Sparrow, Knewton kabi adaptiv platformalar har bir o’quvchining mashg’ulotdagi harakatlarini kuzatib, qaysi jihatlarda qiyinchilikka duch kelayotganini avtomatik tahlil qiladi va shu yo’nalishda qo’shimcha mashqlar beradi [4]. Shuningdek, baholash jarayonida sun’iy intellektni qo’llash misollari ham ko’p: ayrim dasturlar o’quvchilarning yozma ishlarini avtomatlashgan tarzda baholay oladi. Grammarly kabi servislar matnlardagi grammatik va uslubiy xatolarni topib, ularni tuzatish bo’yicha tavsiyalar beradi, Edmentum platformasi esa test savollari va insholarni avtomatik tekshirish va baholash imkoniyatiga ega [4].

Chet tillarni o’qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari ayniqsa keng tatbiq topmoqda. Duolingo, Rosetta Stone, Babbel singari platformalar mashinani o’qitish algoritmlari yordamida til o’rganuvchining bilim darajasini tahlil qiladi va o’quv jarayonini interaktiv tarzda, o’yin elementlari bilan boyitilgan holda tashkil etadi [4]. Bunday ilovalarda foydalanuvchining talaffuzi ham SI orqali avtomatik baholanadi – masalan, dastur o’quvchi aytgan jumalarni eshitib, undagi talaffuz xatolarini aniqlaydi va yaxshilash bo’yicha tavsiyalar beradi [4]. Virtual yordamchilar va chatbot texnologiyalari ham ta’limda o’z o’rniga ega bo’lib bormoqda. Masalan, Socrates va Hubert SI kabi chatbotlar talabalar savollariga javob berish, dars mavzularini tushuntirish yoki hatto individual o’quv rejasini shakllantirishda yordam berishi mumkin [4]. Ba’zi oliygohlar va maktablarda masofaviy o’quvchilarga xizmat ko’rsatish uchun chatbotlar joriy etilgan – misol tariqasida, Georgia State University ning “Pounce” nomli botini keltirish mumkin, u talabalar turli savollariga real vaqt rejimida javob qaytarib, ular bilan doimiy muloqotda bo’ladi [4]. Ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems – LMS) ham sun’iy intellekt bilan boyitilmoqda: Moodle, Blackboard, Google Classroom kabi platformalarga SI elementlari integratsiya qilinib, ular talabalarning darsdagi ishtiroki va faolligini kuzatish, o’zlashtirish darajasiga qarab mos o’quv materiallarini tavsiya etish kabi funksiyalarni bajarmoqda [4]. Natijada, sun’iy intellekt yordamida katta sinflardagi har bir o’quvchiga individual yondashuvni yo’lga qo’yish imkoniyati paydo bo’lmoqda.

Ta’lim sohasida sun’iy intellektni qo’llashdan ko’zlangan natija – o’qitish jarayonini tobora samarali, moslashuvchan va personal yondashuvga ega qilishdir. Xalqaro ekspertlar fikricha, sun’iy intellekt bugungi ta’lim oldidagi eng yirik muammolarni hal etishda, o’qitish va o’rganish amaliyotiga innovatsiyalar kiritishda hamda Barqaror rivojlanish maqsadlaridan to’rtinchi band – sifatli ta’limga erishish jarayonini tezlashtirishda ulkan salohiyatga ega. Jumladan, SI texnologiyalari yordamida o’quv dasturlarini o’quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, murakkab tushunchalarni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish, baholashni avtomatlashtirish va ma’muriy jarayonlarni yengillashtirish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi. Albatta, sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda ehtiyotkorlik va ilmiy yondashuv zarur – bu texnologiyalarni qo’llash inklyuzivlik va tenglik tamoyillariga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozimligi alohida qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sun'iy intellekt – O'zbekiston texnologik rivojlanishining asosi. <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--ozbekiston-texnologik-rivojlanishining-asosi>
2. Sun'iy intellekt nima? – Internet of good Things Uzbekistan. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt/#:~:text=Sun%E2%80%99iy%20intellekt%20atamasi%201955,data%20science%29%20keltirib%20chiqardi>
3. Understanding the different types of artificial intelligence. <https://www.ibm.com/think/topics/artificial-intelligence-types#:~:text=IBM%20www,General%20SI>
4. <https://teletype.in/@abdulkamid64/FVIXgP5a6yK#:~:text=1>.

Dildoraxon IGAMOVA,

Qo'qon universiteti Andijon filiali

tibbiyotda tillarni o'qitish kafedrasida o'qituvchisi

MAGISTRANTLARING ILMIIY TERMINOLOGIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA KONSEPTUAL XARITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada magistratura bosqichi talabalarida ilmiy terminologik tafakkurni shakllantirish jarayonida konseptual xaritalardan foydalanish masalasi o'rganilgan. "Ilmiy terminologik tafakkur" tushunchasining mohiyati ochib berilib, "konseptual xaritalar" metodining nazariy asoslari yoritilgan. Magistrantlar bilan olib borilgan pedagogik tajriba asosida konseptual xaritalarni qo'llashning samaradorligi ko'rsatilib, ushbu yondashuvning ilmiy atamalarni o'zlashtirish, tizimlashtirish hamda pedagogik va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy terminologik tafakkur, konseptual xarita, magistrant, terminologiya o'qitish, kompetensiya, kognitiv yondashuv.

Annotation. This article examines the issue of using conceptual maps in the process of forming scientific terminological thinking in master's students. The essence of the concept of "scientific terminological thinking" is revealed, and the theoretical foundations of the "conceptual maps" method are highlighted. Based on the pedagogical experience conducted with master's students, the effectiveness of using conceptual maps is shown, and the influence of this approach on the assimilation, systematization of scientific terms, and the development of pedagogical and linguistic competencies is analyzed.

Keywords: terminological thinking, concept map, master's students, terminology teaching, competence, cognitive approach.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос использования концептуальных карт в процессе формирования научного терминологического мышления у студентов магистратуры. Раскрыта сущность понятия «научное терминологическое мышление», освещены теоретические основы метода «концептуальных карт». На основе педагогического опыта, проведенного с магистрантами, показана эффективность применения концептуальных карт, проанализировано влияние данного подхода на усвоение, систематизацию научных терминов и развитие педагогических и лингвистических компетенций.

Ключевые слова: терминологическое мышление, концептуальная карта, магистранты, обучение терминологии, компетенция, когнитивный подход.

Hozirgi kunda oliy ta'lim kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanib, raqamli formatlar va fanlararo integratsiya ilmiy terminologiyani o'qitish usullarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Magistratura bosqichida talabalar chuqur nazariy bilim bilan birga, professional muloqotda ilmiy atamalarni to'g'ri qo'llash va tushunchalarni aniq ifodalash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Shu bois magistrantlarda ilmiy terminologik tafakkurni shakllantirish dolzarb vazifadir. U termin va ilmiy tushunchalar mazmunini anglash, ularni mantiqiy tizimga keltirish, iyerarxik hamda sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'ra bilish va nutqda o'rinli qo'llashni qamrab oladi. Tadqiqotlar interfaol vizual metodlar, xususan konseptual xaritalar bilimni tizimlashtirish va mazmunli o'zlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Chunki terminologiyani egallash terminlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni anglashga tayanadi.

Konseptual xaritalarning ilmiy terminologiyani o'qitishda samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik eksperiment o'tkazildi. Tajriba O'zbekiston davlat pedagogika universiteti magistraturasining lingvistik yo'nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich 30 nafar magistrant ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot dizayni eksperimental va nazorat guruhlarini taqqoslashga asoslandi. Eksperimental guruhda (15 nafar) terminologiyani o'qitishda konseptual xaritalar muntazam qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlardan foydalanildi. Tajriba bir o'quv semestri (16 hafta) davom etdi. Dastlab barcha ishtirokchilarning terminologik bilimlari va ularni qo'llay olish ko'nikmalari maxsus test orqali baholandi.

Eksperimental guruhda har bir mavzu yakunida talabalarga shu mavzuga oid termin va tushunchalar asosida konseptual xarita tuzish topshirildi. Masalan, tilshunoslik nazariyasi fanida "Leksikologiya: so'z ma'nolari va lug'aviy munosabatlar" mavzusidan so'ng talabalar "leksikologiya" tushunchasini markazga joylashtirib, unga bog'liq leksik birlik, polisemiya, omonim, antonim, termin kabi atamalarni iyerarxik tarzda joylashtirdilar. Bog'lovchi chiziq va izohlar orqali tushunchalar orasidagi munosabatlar ifodalandi. Masalan, "polisemiya" – "so'z ma'nolarining ko'padoqligi", "omonim" – "shakldosh, ma'nosi bog'lanmagan so'z" tarzida ta'riflandi. Bu jarayon magistrantlardan terminlarni o'z so'zlari bilan izohlashni va ularning mazmuniy aloqalarini aniqlashni talab qildi, natijada atamalar yagona tizim sifatida anglandi [5].

Dars jarayonida o'qituvchi konseptual xarita tuzishning bosqichma-bosqich usulini joriy etdi: fokus savolni aniqlash, asosiy tushunchalarni tanlash, ularni iyerarxik joylashtirish va munosabatlarni bog'lovchi iboralar orqali ifodalash. Keyinchalik xaritalar guruhlarda hamkorlikda tuzilib, muvohama qilindi. O'qituvchi fasilitator sifatida yo'naltiruvchi savohlar berdi, biroq xaritalarni mustaqil tuzish talabalarining o'zlariga topshirildi [4].

Semestr oxirida har ikki guruhda yakuniy nazorat testi o'tkazildi. Test 50 ta asosiy ilmiy termin bo'yicha bilim va ularni qo'llay olish ko'nikmalarini baholashga qaratildi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruh talabalarini o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha nazorat guruhidan 15% yuqori natija qayd etdilar. Ochiq savollarda esa tushunchalar

orasidagi bog'lanishlar yanada izchil va aniq izohlandi. Statistik tahlil natijalari bu farqning ahamiyatli ekanini ko'rsatdi [4].

Bundan tashqari, konseptual xaritalar diagnostik vosita sifatida ham tahlil qilindi. Semestr oxiriga kelib xaritalardagi tushunchalar va murakkab bog'lanishlar sonining ortgani magistrantlarning terminologik tizimni chuqurroq o'zlashtirganini ko'rsatdi [1]. Umuman olganda, eksperiment natijalari konseptual xaritalar magistrantlarda ilmiy terminologik tafakkurni shakllantirishda samarali va zarur metod ekanini tasdiqladi.

Olingan natijalar konseptual xaritalar metodi magistrantlarning ilmiy terminologiyani egallashda sezilarli samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Ushbu xulosa nazariy jihatdan kutilgan bo'lib, u konstruktiv yondashuv va D.Ausubelning mazmunli o'rganish nazariyasiga asoslangan ilmiy taxminlarga mos keladi [6]. Tajriba jarayonida konseptual xaritalar tuzgan magistrantlar terminlarning ma'nosini chuqurroq anglab, ularni eslab qolish va esga tushirishda yuqori natijalarga erishdilar. Bu holat ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bilan hamohangdir. Jumladan, Collins va Nyenhuis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda konseptual xaritalar qo'llangan guruhda talabalarning materialni o'zlashtirish va xotirada saqlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan [2]. Bizning tadqiqotimiz ham konseptual xaritalar asosida tashkil etilgan faol o'qitish talabalarning o'quv faolligini kuchaytirib, ularni yuqori darajadagi fikrlash operatsiyalariga jalb etishini va natijada terminologik bilimlar chuqurroq o'zlashtirilishini tasdiqladi.

Konseptual xaritalarning ahamiyati faqat ilmiy terminologik tafakkurni shakllantirish bilangina cheklanmaydi, balki magistrantlarning boshqa muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tajriba davomida talabalar xarita tuzish jarayonida faol muloqotga kirishib, guruhda ishlash, o'z fikrlarini asoslash va himoya qilish ko'nikmalarini namoyon etdilar. Natijada ularning muloqot kompetensiyasi va jamoada ishlash malakalari rivojlandi. Ayniqsa, magistrantlar – bo'lajak o'qituvchilar – ushbu metodni amaliy tajribada sinab ko'rish orqali kelgusidagi pedagogik faoliyatlar uchun samarali didaktik vositani o'zlashtirdilar. Ma'lumki, konseptual xaritalar zamonaviy ta'limda interfaol texnologiya sifatida qaralib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi [1]. Shu bois magistrantlarning bu metodni egallashi ularning pedagogik kompetensiyasini sezilarli darajada boyitdi.

Bundan tashqari, konseptual xaritalar magistrantlarning lingvistik kompetensiyasi rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xarita tuzish jarayonida talabalar terminlarning ta'rifini aniq va

ravon so'zlar bilan ifodalashga, bog'lovchi iboralarni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashga intildilar. Oddiy definitsiyalarni yodlash o'rniga, atamalar mazmunini o'z so'zlari bilan izohlash ularni til vositalaridan faol foydalanishga undadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, dastlab qiyinchilikka duch kelgan talabalar keyinchalik terminlarni izohlashda ancha aniqlik va ravonlikka erishdilar. Mavzuni konseptual xarita asosida taqdim etish jarayonida esa ularning og'zaki ilmiy nutqi takomillashdi. Bu holat terminologik tafakkur rivoji professional nutqiy kompetensiyani kuchaytirishini ta'kidlagan N. Buranova fikrlari bilan ham mos keladi [5].

Shu bilan birga, metodni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham kuzatildi. Dastlab talabalar konseptual xarita tuzishga ko'nikmaganliklari sababli elementlarni noto'g'ri joylashtirish yoki bog'lovchi iboralarni qo'llashda xatolarga yo'l qo'yidilar. Bu muammolar dastlabki mashg'ulotlarda o'qituvchining yo'naltiruvchi roli orqali bartaraf etildi. Keyinchalik talabalar mustaqil va ijodiy ishlay boshladilar. Vaqt sarfi nisbatan ko'proq bo'lishiga qaramay, metodning samaradorligi so'rovnomaga va kuzatuvlar orqali tasdiqlandi. Natijada konseptual xaritalar ilmiy terminologik tafakkurni shakllantirishda, shuningdek tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligi aniqlandi. Bu metod nafaqat ijtimoiy-gumanitar, balki aniq va tabiiy fanlar magistratura kurslarida ham qo'llashga munosib [3].

Magistrantlar auditoriyasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ilmiy terminologik tafakkur magistrantlarning o'z mutaxassisligi bo'yicha tushuncha va atamalar tizimini chuqur o'zlashtirishi, terminlar o'rtasidagi mantiqiy-ma'noviy bog'lanishlarni anglab, ularni ilmiy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiyani shakllantirish magistrantlarning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, konseptual xaritalar metodi ilmiy terminologik tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, terminlarni mexanik yodlashdan ko'ra ularni mazmunan anglab, tizimli o'zlashtirishga yordam beradi. Konseptual xaritalar terminlar iyerarxiyasi va o'zaro munosabatlarini vizual tarzda aks ettirib, bilimlarni mustahkamlash va amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini kengaytiradi.

Eksperimental natijalarga ko'ra, konseptual xaritalardan foydalangan magistrantlarning terminologik bilim va ko'nikmalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lib, bu farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi isbotlandi. Shuningdek, mazkur metod magistrantlarning pedagogik va lingvistik kompetensiyalarini ham rivojlantirib, ularni kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Novak J.D., Cañas A.J. The theory underlying concept maps and how to construct them.– Technical Report IHMC CmapTools 2006-01 Rev 01-2008, Florida Institute for Human and Machine Cognition, 2008. – 36 p.
2. Fradd S. H., Larrinaga McGee P. Instructional assessment: An integrative approach to evaluating student performance.– Redding, MA: Addison-Wesley, 1994. – 223 p.
3. Lemke J. Talking Science: Language, Learning, and Values.– Norwood, NJ: Ablex Publishing, 1990. – 261 p.
4. Stoddart T., Abrams R., Gasper E., Canaday D. Using concept maps to assess the science understanding and language production of English language learners // Concept Maps: Theory, Methodology, Technology. Proc. of the Second Int. Conf. on Concept Mapping. – San José, Costa Rica, 2006. – P. 103–110.
5. Collins B., Nyenhuis R. The Effectiveness of Concept Maps for Students' Learning and Retention // Journal of Political Science Education, 2021, 17(1). – P. 897–909.
6. Батирова Х. Терминларни ўрганишда когнитив ва социолингвистик ёндашув // Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. №1, 2023. – С. 118–120.
7. Buranova N. Sh. Practical Aspects of Teaching Medical Terminology in a Modern University // Eurasian Medical Research Periodical, 2025. – P.5–12.

Alimardon XABIBULLAYEV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALAR MOBILLIGI JARAYONIDA MENTORLIK TIZIMINING PEDAGOGIK VA INSTITUTSIONAL AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar mobilligini samarali tashkil etishda mentorlik tizimining pedagogik va institutsional roli kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Global ta'lim makonida akademik almashinuv dasturlarining kengayishi sharoitida talabalarning moslashuv jarayoni, akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy-integrativ rivojlanishida mentorlik mexanizmlarining ta'siri nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: talabalar mobilligi, mentorlik tizimi, akademik moslashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash, institutsional mexanizmlar, xalqaro ta'lim, ta'lim integratsiyasi, oliy ta'lim sifati.

Annotation. This article provides a comprehensive scholarly analysis of the pedagogical and institutional role of the mentoring system in effectively organizing student mobility within the modern higher education system. In the context of expanding academic exchange programs in the global education space, the study theoretically and practically substantiates the impact of mentoring mechanisms on students' adaptation processes, academic achievements, and socio-integrative development.

Keywords: student mobility, mentoring system, academic adaptation, pedagogical support, institutional mechanisms, international education, educational integration, quality of higher education.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный научный анализ педагогической и институциональной роли системы наставничества в эффективной организации студенческой мобильности в современной системе высшего образования. В условиях расширения академических программ обмена в глобальном образовательном пространстве обосновывается теоретически и практически влияние механизмов наставничества на процесс адаптации студентов, их академические достижения и социально-интегративное развитие.

Ключевые слова: мобильность студентов, система наставничества, академическая адаптация, педагогическая поддержка, институциональные механизмы, международное образование, интеграция образования, качество высшего образования.

Globalashuv, bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi va transmilliy ta'lim makonining kengayishi zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda talabalar mobilligi fenomeni jahon miqyosida strategik ahamiyat kasb etib, universitetlar raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biriga aylandi. Talabalar akademik almashinuv dasturlari orqali xorijiy ta'lim muassasalarida tahsil olishi, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Talabalar mobilligining kengayishi faqat ijobiy natijalar bilan cheklanib qolmay, bir qator murakkab pedagogik, psixologik va institutsional muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Xususan, yangi akademik muhitga moslashish, ta'lim tizimidagi farqlar, o'quv jarayonidagi metodologik yondashuvlar, til to'siqlari, madaniy shok, ijtimoiy izolyatsiya hamda akademik stress talabalar mobilligi jarayonining eng zaif nuqtalari sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu murakkab sharoitda talabalarni maqsadli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga joriy etish oliy ta'lim muassasalari oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimi zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[1]. Mentorlik bu faqatgina tajribali mutaxassis tomonidan bilim uzatish jarayoni emas, balki talabani shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks institutsional mexanizmdir. Mentorlik tizimi orqali talabalar individual ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi, ularning o'z-o'zini anglash darajasi oshadi, akademik mustaqillik va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida talabalar mobilligini samarali tashkil etish aynan mentorlik institutlarining faol ishlashi bilan uzviy bog'liq. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada va Yaponiya universitetlarida akademik mentor, tyutor, edvayzer kabi rollar institutsional darajada mustahkamlangan bo'lib,

ular talabalar o'quv jarayonidagi muammolarini erta aniqlash, akademik adaptatsiyani tezlashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunda mentor talabani faqat o'quv natijalari uchun emas, balki uning ijtimoiy farovonligi, emotsional barqarorligi va professional o'zini o'zi aniqlash jarayoni uchun ham mas'ul subyekt sifatida qaraladi [2].

Talabalar mobilligi kontekstida mentorlik tizimining ahamiyati yanada ortadi, chunki mobil talabalar odatda ikki xil ta'lim madaniyati o'rtasida qoladi. Ular o'z milliy ta'lim an'analari bilan xorijiy akademik talabalar o'rtasida muvozanatni saqlashi lozim bo'ladi. Bu esa pedagogik jihatdan yuqori darajada individuallashtirilgan yondoshuvni talab etadi. Mentorlik tizimi ana shu individual yondashuvni amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri sifatida qaraladi. Ilmiy nuqtai nazardan, mentorlik fenomeni konstruktivizm, gumanistik pedagogika va ijtimoiy-madaniyot nazariyalari bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi mentorlik jarayonining nazariy asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, talabani rivojlanishi tajribali shaxs mentor bilan hamkorlikda amalga oshirilganda yuqori samara beradi [3]. Mobillik jarayonida aynan mentor talabani akademik muhitda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi asosiy figuraga aylanadi. Shu bilan birga, mentorlik tizimi institutsional boshqaruv nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Universitetlar miqyosida mentorlik dasturlarining mavjudligi ta'lim sifatini kafolatlash, talabalar akademik muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini oshirish va xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga xizmat qiladi. Shu boisdan, talabalar mobilligi va mentorlik tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda talabalar mobilligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda [4]. Xalqaro hamkorlik shartnomalari, qo'shma ta'lim dasturlari, akademik almashinuv loyihalari soni ortib bormoqda. Biroq mazkur jarayonda mentorlik tizimining institutsional jihatdan yetarlicha shakllanmaganligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, mobil talabalarni

qabul qiluvchi va yuboruvchi universitetlar o'rtasida mentorlik funksiyalarining aniq taqsimlanmaganligi, mentorlarni tayyorlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi tadqiqot olib borishni talab etuvchi masalalardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur maqolada talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining pedagogik va institutsional roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan [5]. Maqolada xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida mentorlikning talabalar mobilligidagi funksional vazifalari, uning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv mexanizmlari va pedagogik natijalari ochib beriladi. Shu tariqa, talabalar mobilligi sharoitida mentorlik tizimini takomillashtirish nafaqat alohida talabani shaxsiy rivojlanishi, balki butun oliy ta'lim tizimining barqaror taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan masala sifatida qaraladi. Kirish qismida yoritilgan masalalar keyingi bo'limlarda ilmiy dalillar, metodologik yondashuvlar va tadqiqot natijalari asosida chuqur tahlil qilinadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining ahamiyati tobora ko'proq e'tirof etilmoqda, chunki global ta'lim makonida akademik almashinuv dasturlarining muvaffaqiyati nafaqat institutsional kelishuvlar, balki talabalarni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Xorijiy pedagogik adabiyotlarda mentorlik tizimi mobil talabalar uchun akademik moslashuv, ijtimoiy integratsiya va kasbiy o'sishni ta'minlovchi muhim strategik vosita sifatida talqin qilinadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar orasida britaniyalik olim David G. Collingsning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi [6]. Olim o'z tadqiqotlarida xalqaro va mobil talabalar bilan ishlashda mentorlik tizimini oliy ta'lim muassasalarining institutsional rivojlanish strategiyasi doirasida ko'rib chiqadi. Collingsga ko'ra, talabalar mobilligi jarayoni ko'pincha akademik yuklama, madaniyatlararo tafovutlar va kommunikativ to'siqlar bilan murakkablashadi, bu esa talabani o'quv motivatsiyasi va akademik natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, mentorlik tizimi talabani individual ehtiyojlariga moslashtirilgan akademik yo'naltiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilib, uning o'quv faoliyatini barqarorlashtirish va ta'lim jarayoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Collings mentorni mobil talaba va qabul qiluvchi ta'lim muhiti o'rtasida vositachi subyekt sifatida baholab, mentorlikning institutsional darajada yo'lga qo'yilishi xalqaro ta'lim dasturlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslab beradi [7].

Mazkur yondashuvni rivojlantirgan holda, nemis olimasi Victoria Gesing talabalar mobilligi kontekstida mentorlik tizimining pedagogik mohiyatiga chuqurroq e'tibor qaratadi. Gesingning tadqiqotlarida mentorlik mobil talabani akademik identifikatsiyasini shakllantirish va mustahkamlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Olimaning fikricha, xorijiy ta'lim muhitiga tushib qolgan talaba nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradi, balki o'zining avvalgi ta'lim tajribasini qayta talqin qiladi, bu jarayonda mentor bilan muloqot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Gesing mentorlikni dialogik va refleksiv pedagogik jarayon sifatida baholab, uning yetarli darajada tashkil etilmaganligi mobil talabalar orasida akademik begonlashuv, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi va dasturlardan voz kechish holatlarining ortishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Aksincha, tizimli mentorlik talabalar mobilligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning uzoq muddatli akademik va kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi [8].

Bu ikki olimning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy xorijiy pedagogik tadqiqotlarda

mentorlik tizimi talabalar mobilligini boshqarishning markaziy pedagogik-institutsional mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. Har ikkala yondashuvda ham mentorlik talabani shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasasining strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi tizimli jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, mazkur ilmiy qarashlar ushbu maqolada olib boriladigan metodologik va amaliy tahlillar uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining pedagogik va institutsional rolini ilmiy asosda ochib berish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etib, unda talabalar mobilligi va mentorlik tizimi o'zaro uzviy bog'liq, ko'p darajali pedagogik hodisa sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv mentorlik jarayonini alohida komponentlar majmui sifatida emas, balki oliy ta'lim muassasasining umumiy ta'lim siyosati, akademik boshqaruv va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi bilan integratsiyalashgan holatda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-pedagogik metoddan foydalanilib, rivojlangan davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Kanada) oliy ta'lim muassasalarida talabalar mobilligini qo'llab-quvvatlashda joriy etilgan mentorlik modellari mazmunan tahlil qilindi va ularning institutsional xususiyatlari qiyoslandi. Mazkur metod orqali mentorlik tizimining tashkiliy tuzilmasi, mentor va mentee o'rtasidagi pedagogik munosabatlar hamda ularning akademik moslashuvga ta'siri aniqlashtirildi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil natijalari milliy oliy ta'lim tizimi sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali mexanizmlarni aniqlashga xizmat qildi. Ilmiy adabiyotlarni kontent-tahlil qilish metodi orqali Google Scholar ilmiy bazasida chop etilgan zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tizimli o'rganildi va ularning konseptual qarashlari umumlashtirildi. Ushbu metod mentorlik tizimining pedagogik funksiyalari, akademik moslashuvdagi o'rni hamda talabalar mobilligi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishdagi samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Kontent-tahlil jarayonida asosiy tushunchalar, kategoriyalar va nazariy yondashuvlar ajratilib, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik ilmiy asosda izohlandi. Shuningdek, tadqiqotda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanilib, alohida ilmiy holatlar va empirik kuzatuvlar asosida umumiy xulosalar shakllantirildi hamda mavjud nazariy konsepsiyalar doirasida xususiy holatlar tahlil qilindi. Bu metodlar mentorlik tizimining talabalar mobilligi jarayonidagi ta'sir mexanizmlarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, pedagogik jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga xizmat qildi. Umumlashtirish va modellashtirish metodlari asosida talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining konseptual modeli ishlab chiqilib, unda mentorlikning pedagogik, psixologik va institutsional komponentlari o'zaro bog'liq holda talqin etildi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi maqola doirasida ilgari surilgan ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta'minlashga va tadqiqot natijalarini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

O'tkazilgan nazariy va qiyosiy-pedagogik tahlillar natijasida aniqlanishicha, talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining tizimli ravishda joriy etilishi mobil talabalarning akademik moslashuv darajasini sezilarli darajada oshiradi, ularning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvini tezlashtiradi hamda akademik stress va madaniyatlararo kommunikativ qiyinchiliklarning kamayishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mentorlik orqali talabalar o'rtasida individual ta'lim trayektoriyasining shakllanishi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining rivojlanishi va akademik

mas'uliyatning kuchayishini ko'rsatdi. Shuningdek, mentorlik tizimi mobil talabalarining ijtimoiy moslashuvi va professional identifikatsiyasini qo'llab-quvvatlab, ularning xalqaro ta'lim dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish ehtimolini oshiruvchi muhim pedagogik-institutsional mexanizm ekanligi ilmiy asosladi.

Talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimining o'rni va samaradorligi masalasi xorijiy pedagogik tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi va bu holat mazkur mavzuning nazariy jihatdan murakkab hamda ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Xususan, britaniyalik olim David G.Collings va nemis olimasi V.Gesingning ilmiy qarashlari ushbu masala yuzasidan muayyan darajada polemik xarakterga ega bo'lib, mentorlik tizimining funksional chegaralari va pedagogik ta'sir ko'lamini turlicha yoritadi. Collings talabalar mobilligini, avvalo, global ta'lim bozori va institutlararo raqobat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Uning fikricha, mentorlik tizimi oliy ta'lim muassasalarining strategik boshqaruv instrumenti bo'lib, mobil talabalarni akademik muhitga tezkor moslashtirish orqali universitetning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi [9]. Collings mentorlikning samaradorligini, asosan, institutsional darajada yo'lga qo'yilgan boshqaruv mexanizmlari, mentorlarning professional tayyorgarligi va rasmiy reglamentlar bilan bog'laydi. Shu sababli u mentorlikni individual pedagogik jarayondan ko'ra, ko'proq tizimli boshqaruv modeli sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda mentor talabani shaxsiy rivojlanishidan ko'ra, uning akademik natijalari va ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlashiga yo'naltirilgan subyekt sifatida ko'riladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Gesing mentorlik tizimining pedagogik va shaxsga yo'naltirilgan jihatlari ustuvor ahamiyat beradi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, talabalar mobilligi jarayonida

yuzaga keladigan asosiy muammo institutsional emas, balki talabani ichki akademik identifikatsiyasi va madaniy moslashuvi bilan bog'liqdir. Gesing mentorlikni dialogik va refleksiv pedagogik jarayon sifatida baholab, mentor va talaba o'rtasidagi ishonchli muloqot mobil talabani o'zini akademik hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, haddan tashqari reglamentlashtirilgan mentorlik modellari talabani mustaqilligini cheklashi va mentorlikning insonparvarlik mohiyatini zaiflashtirishi mumkin [10].

Mazkur ikki yondashuv o'rtasidagi ilmiy bahs mentorlik tizimining talabalar mobilligida qaysi jihati ustuvor bo'lishi kerakligi masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Bir tomondan, Collings ilgari surgan institutsional model mentorlik tizimining barqarorligi va ommaviylikini ta'minlashga, ikkinchi tomondan, Gesing ta'kidlagan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv mentorlikning chuqur pedagogik samaradorligini kafolatlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada o'rganilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimi aynan mazkur ikki yondashuvning integratsiyasi asosida tashkil etilganiga eng yuqori pedagogik samaraga erishish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar va qiyosiy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalar mobilligi jarayonida mentorlik tizimi zamonaviy oliy ta'lim muassasalari uchun eng muhim pedagogik va institutsional mexanizm sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mentorlik tizimi mavjud bo'lmagan hollarda mobil talabalar akademik moslashuv qiyinchiliklariga duch keladi, akademik stress darajasi ortadi va ularning o'quv jarayoniga integratsiyasi zaiflashadi, bu esa xalqaro ta'lim dasturlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov J. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini o'quv dasturi asosida takomillashtirish // Nordic Press, 2025.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Surxon-nashr, 2022.
3. Ximmataliyev D.O., Usarboyeva D.U. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириу, 2024.
4. Isaqulova B. Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025.
5. Mingboyeva T. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida akademik mobillik modelini joriy etish texnologiyasi // Modern Science and Research, 2024.
6. Kuldashv S. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini qo'llashning ahamiyati // Nordic Press, 2025.
7. Xakimov S. Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025.
8. Saitkulova N., Suleymanova N.K. Akademik mobillik borasidagi muammolar va ularning yechimlari // Pedagog, 2023, №6(6). – B. 65–70.
9. Носирова Д. Олий таълим муассасаларида кредит-модул тизимини жорий этишнинг устувор жиҳатлари // Математики и информатики, 2021, №1(3).
10. Исмаилов Т., Абдулакимов А. талабалар амалиётида халқаро алмашинув дастурлари: Erasmus+, DAAD, Fulbright // Наука и технология в современном мире, 2025. Том 4, №5.

Sharobiddin HASANOV,

*Andijon davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

BO'LAJAK ADABIYOT FANI O'QITUVCHISIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ANALITIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari, ularning tasnifi, tavsifi hamda adabiy ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri xususida analitik fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik tajriba, kreativlik, kommunikativlik, axborot texnologiyalari, badiiy vositachi, ijtimoiy tashkilotchi, adabiy ta'lim.

Annotation. This article provides an analytical perspective on the professional competencies of future literature teachers, their classification, description, and impact on the quality and effectiveness of literary education.

Keywords: competence, teaching experience, creativity, communication, information technology, artistic mediator, social organizer, literary education.

Аннотация. В данной статье представлен аналитический обзор профессиональных компетенций будущих учителей литературы, их классификация, описание и влияние на качество и эффективность литературного образования.

Ключевые слова: компетентность, педагогический опыт, креативность, коммуникация, информационные технологии, художественный посредник, социальный организатор, литературное образование.

Adabiyot o'qituvchisi haqida gap borganda odatda yumshoq tabiatli, shirinso'z, kamtarin, mehribon, muloyim inson ko'z oldimizga keladi. Uning tabiatida poklik, soddalik, ishonuvchanlik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Bu kasb egalari hissiyotlarga tez beriluvchan, ta'sirchan bo'ladilar: quvonchli holatlarda tuyg'ulanib, ozgina noxushlikdan tushkuniy kayfiyatga beriladilar. Adabiyot muallimlarining ko'pchiligi nazm yoki nasrda ijod qiladi, nutqida badiiy uslub yetakchi: tasviriy ifodalar, iqtiboslar ko'p o'rin oladi.

Adabiyot o'qituvchisi ko'p hollarda faqat dars beruvchi emas, balki tarbiyachi, ruhiy suyanch, donimand maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilar qalbiga oson yo'l topa biladi, do'stlik, dardkashlik, maslakdoshlik aloqalarini barqaror o'rnata oladi. Uning darslarida ijtimoiy masalalar, hayotiy muammolar go'zallik, ezgulik maqomida hal etiladi; axloqiy tarbiya, ma'naviy yuksaklik sirlari uning darslari mazmuniga singib ketadi. Shuning uchun bo'lsa kerak juda ko'p yigit va qizlar maktab davridayoq bu kasbning haqiqiy egasi bo'lishni maqsad qilib oladilar, pedagogika institutlariga o'qishga kiradilar.

Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari uchun hamma shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa oliy ta'limga talabalikka qabul qilish imkoniyatlari juda ham yuksaldi. Bu narsa kadrlar tayyorlashda son va sifat o'rtasidagi nomuvofiqlarni yuza keltirayotgani sir emas. Jamladan, oliy filologiya ta'lim yo'nalishiga talabalikka qabul qilish jarayonlari test sinovi bilan cheklanilib, abituriyentlarning yozma savodxonligi, og'zaki nutq imkoniyatlari, badiiy tafakkuri, kitobxonlik madaniyati, tahliliy ko'nikmalari, ifodali o'qish darajasi kabi qobiliyatlari sinovdan o'tkazilmay kelinmoqda. Natijada filolog kasbiga nomunosib abituriyentlarning talabalar safiga kirib qolish holatlari kuzatilyotganligi achinarli holatdir. Bu narsa filolog-talabalarda kasbiy kompetensiyalarni barqaror rivojlantirishni yanada kuchaytirish, isloh qilish, takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki adabiyot o'qitishning istiqboli, o'quvchi yoshlarimizning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, kitobxonlik darajasi, nafas tarbiyasi adabiyot o'qituvchilarimizning ilmiy-nazariy salohiyatiga, kasbiy kompetentligiga qat'iy bog'liqdir.

Taniqli metodist olim Q.Yo'ldoshevning fikricha, adabiyot o'qitishning maktab ta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlarini o'qitishdan jiddiy farqlanadigan bir jihati uning o'qituvchi shaxsiyatiga qattiq darajada bog'liq ekanligidir. Adabiyot o'qituvchisiga adabiyotshunoslikni puxta o'zlashtirish va adabiyot o'qitish metodikasiga doir yangiliklarni egallab olish kifoya qilmaydi. Adabiyot o'qituvchisi ham bilimi, ham shaxsiyati bilan o'quvchilarni o'ziga rom eta olsagina adabiy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. Adabiyot o'qituvchisigagina xos bir qator kasb sifatleri borki, bu xususiyatlar muallim faoliyatida o'z ifodasini topib, mashg'ulot jarayonida namoyon bo'lmasa, darslar samarasiz bo'lib qolaveradi. Chunki adabiyot o'qituvchisining har bir kasbiy sifati uning faoliyati samaradorligini belgilaydi" [3].

"Adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi mualliflari: "Adabiyot o'qituvchisi o'zini o'quvchilarga baxshida etishi, o'zi bajarayotgan ishning xalq ma'naviy hayotidagi ahamiyatini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o'z o'quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O'qituvchilik kasbi har bir adabiyot o'quvchisidan o'zini doimiy suratda

kamol toptirib, o'zida badiiylik moyillikni va ijodkorlikni o'stirib borishni talab etadi" [1: 77], – deb uqtiradilar.

Ayon bo'ladi, adabiyot o'qituvchisi so'z orqali o'quvchilar qalbiga yo'l ochadi, ularni ma'rifiy yetuklikka, ma'naviy yuksaklikka boshlaydi. O'quvchilar badiiy so'zni his qilishni, undan tuyg'ulanishni dastlab adabiyot muallimlaridan o'rganadilar. O'quvchilarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan, undan o'ziga xulosa chiqarishga qobil, o'z qarashlarini og'zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan o'quvchi shaxsi shakllantirish adabiyot o'qituvchisidan yuksak kasbiy kompetentlik, metodik mahorat, ibratli shaxsiy fazilatlarini talab etadi [4: 3].

Xo'sh, bo'lajak adabiyot fani o'qituvchisi, hozirda pedagogika institutlarining o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan filolog-talabalarda qanday kasbiy kompetensiyalar qaror topishi zarur?

Bizningcha, adabiyot fani o'qituvchisida, jumladan, shu kasbning haqiqiy egasi bo'lish niyati bilan oliy pedagogik ta'limda tahsil olayotgan filolog-talabalarda quyidagi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish talab etiladi.

Ilmiy-nazariy kompetensiya – filolog-talabaning mutaxassislik hamda unga aloqador bo'lgan pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va boshqa shu kabi fanlarga oid ilmiy-nazariy bilimlarni puxta egallash, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyati. Pedagogik ilmiy-nazariy kompetensiya – ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarini, qonuniyatlarini idrok qilish; pedagogik faoliyat mazmunini, mohiyatini anglash; o'qitishning maqsadi, vazifalari, mazmunini o'zlashtirish; ta'limga oid direktiv – rasmiy hujjatlarni tafakkur qilish; pedagogika tarixi va taraqqiyot bosqichlarini bilish; pedagogik odob, madaniyat, nazokat, takt, kreativlik, kommunikativlik kabi kasbiy sifatlarning nazariy jihatlarni tizimli o'rganish orqali o'z pedagogik faoliyatini tashkil etish, refleksiv yondashuv negizida takomillashtirish qobiliyatini anglatadi. Filolog-talaba pedagogik bilimlarni o'zlashtirish orqali o'zining o'qituvchilik faoliyatiga mustahkam poydevor yasaydi.

Psixologik ilmiy-nazariy kompetensiya. O'qituvchi faoliyatini pedagogik psixologiya bilimlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchi shaxsini, fe'l-atvorini, ruhiyatini, individual hamda yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jaryonini tashkil qiladi. O'quvchilarning temperamenti, tafakkur, diqqat, xotira, his-tuyg'u, tasavvur, motivatsiya, qobiliyat kabi psixologik xususiyatlari sifatli ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot o'qituvchisi so'z vositasida o'quvchilarning xotira, diqqat, tasavvur, motivatsiya, tafakkur, eruditsiya, empatiya kabi psixologik jarayonlari va xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ularda insoniylik, adolat, vatanparvarlik, o'zlikni anglash qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Axborot texnologiyalari ilmiy-nazariy kompetensiyasi. Globallashtirish muhitida filolog-talaba axborot texnologiyalari, elektron ta'lim resurslaridan unumli foydalana olishning nazariy-amaliy jihatlarni mukammal o'zlashtirishi hayotiy zaruratdir. Axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanish uquviga ega o'qituvchi bilim oluvchilarni passiv iste'molchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularga bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish, ishtirok etish orqali kognitiv rivojlanish imkonini beradi.

Mutaxassislik kasbi ilmiy-nazariy kompetensiyalari.

Mutaxassislik kasbi ilmiy-nazariy kompetensiyalari – bu o'qituvchining o'zi dars beradigan fan doirasida nazariy bilimlarga ega bo'lish qobiliyatini anglatadi. Adabiyot muallimi adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid asoslari; adabiy tur va janrlar; adabiy jarayonning tarixiy bosqichlari, adabiy maktablar; badiiy asar tahlili; adabiy oqimlar; adabiyot va boshqa fanlar; adabiy ta'limning falsafiy, axloqiy, estetik jihatlarini yuzasidan yuksak nazariy bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi.

Metodik kompetensiya. Metodik kompetensiyali o'qituvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirishning samarador yo'llarini joriy etadi, oz intellektual va jismoniy kuch sarflab, yuqori ta'limiy natijadorlikka erishadi. Filolog-talabalar o'qitishning innovatsion metodlari, texnologiyalarini o'rganib boradilar, ularni amaliyotga joriy qilish ko'nikmasini egallaydilar.

Kommunikativ kompetensiya. Adabiyot o'qituvchisida yaqqol namoyon bo'ladigan kasbiy sifatlardan biri, shubhasiz, uning muloqotchanlik, notiqlik qobiliyatidir. Adabiyot o'qituvchisi hamisha so'z bilan ish ko'radi, uning asosiy quroli, ta'lim-tarbiya vositasi – so'z. U so'z orqali o'quvchilar qalbiga yo'l ochadi, ta'lim-tarbiya beradi. Adabiyot o'qituvchisining ta'sirli, ifodali nutqi o'quvchilarda estetik nafasat, nozik did, yuksak ehtiros, nafis tabiat, ma'naviy poklik, ma'rifiy ulug'lik sifatlarini qaror toptiradi.

Badiiy asar tahlili kompetensiyasi. Filolog-talaba egallashi zarur bo'lgan eng muhim kompetensiya – uning badiiy asarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlar vositasida ta'limiy-tarbiyaviy maqsadni amalga oshiradi. Badiiy asarning butun jozibasi, malohati, estetik quvvati, ma'rifiy kuchi, ma'naviy qudrati tahlil orqaligina kashf etiladi. Adabiyot muallimining badiiy asar tahlili nazariyasini chuqur o'rganishi, amaliy ko'nikmalar hosil qilishi soha faoliyatidagi bosh mezon, asosiy shart hisoblanadi.

Metodist olim Q.Yo'ldoshevning "Qachonki, bo'lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fan darajasida o'rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratiqni tahlil qila olish malakasiga ega bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan asl maqsadga to'liq erishilishi mumkin emas. Adabiyot o'qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarligicha, asardan chiqariladigan xulosa "ijtimoiy nasihat" ligicha qolaveradi. Tahlil g'arib bo'lganligi uchun o'rta va o'rta maxsus ta'limda adabiyot o'qitish jarayoni oldiga qo'yilgan bosh maqsad – ma'naviy barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, oliy adabiy ta'limda badiiy asarning butun jozibasini ochish ilmiy asoslarda yo'lga qo'yilmaganicha qoladi" [6:6], – degan fikrlari ayni haqiqatdir.

Badiiy ijodkorlik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisiga xos faoliyat qirralaridan biri ilhomiy holat, badiiy did va tafakkurga asoslanadigan xususiyat badiiy ijodkorlikdir. Adabiyot o'qituvchisi ilmiy haqiqatlar bilan emas, badiiy asarlar bilan ish ko'radigan mutaxassis bo'lganligi uchun ham uning tabiatida ijodkorlarga xos belgilar bo'lishi shart. Taniqli rus pedagog olimi L.V.Zankovning fikricha: "Bugungi darsni kechagidan, ertangisini bugungidan yaxshiroq va samaraliroq tashkil qilish ijodkor o'qituvchining doimiy shioridir" [7: 139]. Ijodkor o'qituvchining darslari qiziqarli o'tadi, bilim oluvchilarda ichki motivatsiya yuqori bo'ladi, auditoriyada juda ham yengil, quvnoq, maroqli, barchaga manzur bo'ladigan muhit qaror topadi.

Badiiy ijrochilik kompetensiyasi. Bu jarayonda adabiyot o'qituvchisining so'zamloligi, nutqiy chechanligi, notiqlik mahorati, san'atkorlik sifatlari namoyon bo'ladi. Badiiy ijrochilik qobiliyatiga ega adabiyot muallimi badiiy asar

ruhiyatiga tez kira oladi, o'zining yuz, qo'l harakatlari, mimikasi, jestlari bilan ijro darajasini yanada oshiradi. Adabiyot o'qituvchisi ifodali o'qish sirlarini mukammal bilishi, ayniqsa, nutq texnikasi, uning unsurlari: ovoz, fonatsiya, diksiya, tembr, tepm, pauzaga amal qilish qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. O'quvchilarning ruhiy, hissiy dunyosini "zabt" etish, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topa bilish o'qituvchi badiiy ijrochilik mahoratining samarali natijasidir [5].

Badiiy vositachilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisi badiiy asar, muallif va o'quvchilar orasida badiiy vositachi vazifasini bajaradi. Adabiy ta'limda badiiy matn mohiyatini, mantiqiy va estetik ma'nolarini anglash muhim vazifa sanaladi. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quvchilarni badiiy asar matnidagi jozibani his qilishga o'rgatishi va ularda estetik didni o'stirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matn o'quvchilarning shaxsiy ma'naviy mulkiga aylantirish jarayoni, avvalo, o'qituvchining mahoratli vositachiligiga bog'liq. Aynan o'qituvchi vositachiligida o'quvchi asar mazmunini anglaydi, uning ichki mantiqi va sehrli jozibasini kashf etadi. Matn mazmuniga chuqurroq kirib borgan sari o'quvchida qiziqish tobora ortib boradi. Bu esa kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tashkilotchilik kompetensiyasi. Ijtimoiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega adabiyot fani o'qituvchisi dars va darsdan keyingi vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etadi, yangi loyihalarni joriy etadi, o'quvchilarni o'z atrofida birlashtiradi; axloqiy, aksiologik tarbiyaga urg'u beradi; intellektual – zakovat o'yinlarini uyushtiradi; jamoaviy mehnatni yo'lga qo'yadi, o'quvchilar orasida o'zaro do'stlik, totuvlik, birdamlik muhitini yaratadi; bilim oluvchilarda loqaydlik, boqimandalik, jur'atsizlik, harakatsizlik kabi qusurlarning shakllanmasligiga amaliy choralar ko'radi; o'quvchilar bilan birgalikda faol, tashabbuskor va ijtimoiy jihatdan mas'ul jamoani shakllantira oladi.

Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi badiiy asarni tahlil qilishda adabiyotshunos olimlar, munaqqidlar darajasida yondashishni bilishi, asarning badiiy xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarini ilmiy asoslangan holda tahlil eta olishi zarur. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati nafaqat o'qituvchining muayyan ilmiy qarashlarga ega bo'lishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini, pedagogik salohiyatini rivojlantiradi. Chunki badiiy asarni chuqur, teran va ilmiy asosda tadqiq etish matnning ta'sirchan, jozibali va sirli jihatlarini ochish, yangi ma'no qirralarini kashf etish imkonini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, estetik didi va insoniy fazilatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Pedagogik amaliyotchilik kompetensiyasi. Adabiyot o'qituvchisining pedagogik amaliyotchilik faoliyati uning ilmiy tadqiqotchiligiga bir muncha yaqin. O'qituvchi oliy maktabda va mustaqil tarzda o'zlashtirgan nazariy va metodik bilimlarini amalda qo'llay olgandagina adabiyot o'qitish muayyan samara keltiradi. Badiiy adabiyotning o'ziga xosligini saqlagan holda bir sabaq davomida uni o'quv adabiyotiga aylantirish, o'quv tahlilini amalga oshirish, badiiy matn o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, muayyan vaqtdagi ruhiy holatlariga mos ravishda taqdim etish choralari ko'rish adabiyot o'qituvchisidan faqat bilimdon mutaxassisliknigina emas, balki kerakli didaktik tadbirni o'z vaqtida ko'ra oladigan tadbirkor amaliyotchi-metodist bo'lishini ham talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak adabiyot fani o'qituvchisi zamonaviy ta'lim sharoitiga, uning talablariga to'la mos kelishi, javob berishi talab etiladi. Hozirgi texnika asrida

“Z avlod” va “Alfa avlod” vakillariga ta’lim-tarbiya berish uchun o’qituvchining o’zi yuksak kasbiy kompetentlikka ega bo’lishi talab etiladi. Bularning barchasi pedagogika

oliy ta’lim muassasalari oldiga kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish vazifasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov A., Esonov J., Xotamov N., Ibragimov A. Adabiyot o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.
2. Inomxo’jayev S., Zununov A. Ifodali o’qish asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 1973. – 223.
3. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
4. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. – Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti, 2010.
5. Yo’ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1994.
6. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
7. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. Беседы с учителями. М.: Педагогика, 1990.

Sarvinoz SHARIPOVA,

*O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
o’zbek va chet tillari kafedrasida o’qituvchisi*

JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA IXTISOSLASHTIRILGAN OLIIY TA’LIM MUASSASALARIDA IXTISOSLASHTIRILGAN INGLIZ TILI (ESP) KOMPETENSIYASINI KOMMUNIKATIV- KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola jismoniy tarbiya va sport universitetlarida ingliz tilini o’qitishning zamonaviy yondashuvlari va metodlarini o’rganishga bag’ishlangan. Tadqiqot doirasida sport sohasiga ixtisoslashtirilgan til o’qitish (ESP – English for Specific Purposes) dasturlarining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: sport uchun ingliz tili, ESP, kommunikativ yondashuv, jismoniy tarbiya, til o’qitish metodikasi.

Annotation. This article is devoted to the study of modern approaches and methods of teaching English in physical education and sports universities. Within the framework of the study, the effectiveness of specialized language training programs (ESP – English for Specific Purposes) in the field of sports was analyzed.

Keywords: english for sports, ESP, communicative approach, physical education, language teaching methodology.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению современных подходов и методов преподавания английского языка в университетах физической культуры и спорта. В рамках исследования проанализирована эффективность программ специализированного обучения языкам в области спорта (ESP – English for Specific Purposes).

Ключевые слова: английский язык для спорта, ESP, коммуникативный подход, физическое воспитание, методика преподавания языка.

Globalashuv jarayonlari va xalqaro sport musobaqalarining keng ko’lamda rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar uchun chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini mukammal bilishni zaruratga aylantirdi. UNESCO va Xalqaro Olimpiya Qo’mitasining ma’lumotlariga ko’ra, sport sohasidagi xalqaro aloqalarning 85 foizi ingliz tilida amalga oshiriladi. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport ta’limini isloh qilish, shu jumladan, til ta’limini takomillashtirish O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-oktyabrdagi PQ–4861-son qaroriga muvofiq ustuvor yo’nalishlardan biriga aylangan. Sport universitetlari bitiruvchilari xalqaro musobaqalarda qatnashish, xorijiy murabbiylar bilan hamkorlik qilish va ilmiy adabiyotlarni o’rganish uchun ingliz tilini professional darajada egallashlari zarur.

ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi 1960-yillarda Buyuk Britaniyada shakllangan bo’lib, Hutchinson va Waters tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Mualliflar ixtisoslashtirilgan til ta’limining umumiy til o’qitishdan asosiy farqi talabalarining aniq ehtiyojlariga yo’naltirilganligida ekanligini ta’kidlaydilar. Sportda ingliz tili yo’nalishida Konstantinova tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, sport sohasidagi maxsus terminologiya 3500 dan ortiq leksik birliklarni o’z ichiga oladi. Ferguson va Javed jismoniy tarbiya talabalarining til ehtiyojlarini tahlil qilib, og’zaki kommunikatsiya ko’nikmalarining yozma

ko’nikmalarga nisbatan ustunligini aniqlashgan [3]. Dudley-Evans va St.John ESP kurslarini loyihalashda ehtiyojlarni tahlil qilish bosqichining muhimligini ta’kidlaydilar [2: 27]. Mazkur yondashuv keyinchalik Long tomonidan sport ta’limi kontekstida qo’llanilgan [7]. Zamonaviy tadqiqotchilar asarida Basturkmen ESP nazariyasi va amaliyotini integratsiyalashgan holda tahlil qilgan [1: 98]. O’zbekiston olimlari, jumladan, N.Mahmudov va O.Jumayev mahalliy sport universitetlarida til o’qitish muammolarini o’rganib, o’quv dasturlarini modernizatsiyalash zarurligi haqida xulosa chiqargan [9]. Kommunikativ yondashuv Savignon va Littlewood ishlarida fundamental asoslangan. Ushbu yondashuv til o’rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlarda kommunikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot dizayni: aralash usullar (mixed methods) metodologiyasi qo’llanildi, bu miqdoriy va sifat ma’lumotlarni integratsiyalash imkonini berdi.

Tadqiqot bazasi: O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (UZSUPE).

Namuna:

- Talabalar: 120 nafar (1–4-kurslar); o’qituvchilar: 15 nafar;
- Nazorat guruhi: 60 nafar talaba; eksperimental guruhi: 60 nafar talaba.

Ma’lumot to’plash vositalari:

- **so'rovnoma** – talabalarning til o'rganish ehtiyojlari va motivatsiyasini aniqlash;

- **test sinovlari** – CEFR (Common European Framework of Reference) mezonlari asosida A2 – B2 darajalarini baholash;

- **kuzatish** – dars jarayonlarini tahlil qilish (24 soat video yozuv);

- **chuqur intervyu** – o'qituvchilar va talabalar bilan (35 nafar respondent);

- **portfolio baholash** – talabalarning yarim yillik o'sishini kuzatish;

Ekspiriment davomiyligi: 2023–2024-o'quv yili (9 oy).

Ekspirimental guruhda qo'llangan metodlar:

- sport terminologiyasiga asoslangan ESP dasturi;

- kommunikativ vaziyatlar (rol o'ynash, simulyatsiyalar);

Multimedia materiallar (sport sharhlari, intervyular);

- aralash ta'lim platformasi (Moodle asosida); Task-based learning yondashuvi.

Statistik tahlil: SPSS 26.0 dasturi yordamida t-test, ANOVA va korrelyatsion tahlil o'tkazildi.

Ehtiyojlarni tahlil qilish natijalari. Dastlabki so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdi: 78% talabalar xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun ingliz tilini o'rganmoqchi. 65% murabbiylik faoliyati uchun til bilishi zarurligini ta'kidladi. 54% ilmiy adabiyotlarni o'qish maqsadini ko'rsatdi. 89% an'anaviy grammatik-tarjima metodidan ko'ra kommunikativ yondashuvni afzal ko'rdi. Ekspirimental guruhda sezilarli o'sish kuzatildi ($t = 6,43$; $p < 0.001$).

Ko'nikmalar bo'yicha tahlil. Ekspirimental guruh nazorat guruhiga nisbatan quyidagi ko'rsatkichlarda ustunlik ko'rsatdi:

- **gapirish ko'nikmalari:** 47% yuqori (xalqaro seminar va tanlovlarda ishtirok qilish stsenariylari);

- **tinglash:** 39% yuqori (sport sharhlarini tushunish);

- **maxsus leksika:** 52% yuqori (sport terminologiyasi);

- **o'qish:** 31% yuqori (professional matnlarni tushunish);

- **yozish:** 28% yuqori (hisobotlar, email yozish).

Motivatsiya va qoniqish darajasi. Ekspirimental guruhda 91% talabalar darslardan qoniqish bildirdi. O'rganishga bo'lgan motivatsiya 67% oshdi. 83% talabalar ESP metodlarini an'anaviy metodlarga afzal ko'rdi.

O'qituvchilar fikri. Intervyular shuni ko'rsatdi: 87% o'qituvchilar ESP yondashuvini samarali deb baholadi. 73% qo'shimcha professional rivojlanish zarurligini ta'kidladi. 93% aralash ta'lim usullarini davom ettirishni istaydi.

Muammolar: ixtisoslashgan o'quv materiallarining yetishmasligi (60%), zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarining kamligi (45%); katta guruhlar (30–35 talaba) samaradorlikni pasaytiradi (38%).

Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport universitetlarida ingliz tilini o'qitishda ESP yondashuvining yuqori samaradorligini isbotladi. Ekspirimental guruhda talabalarining til kompetensiyasi 43% oshgan, bu nazorat guruhidan 5,4 marta yuqori ko'rsatkichdir. maslahatlar:

- **Ixtisoslashtirilgan yondashuv zarur.** Umumiy ingliz tili kurslari sport talabalarining professional ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Sport kontekstiga asoslangan materiallar va vaziyatlar motivatsiyani sezilarli oshiradi.

- **Kommunikativ ko'nikmalar ustuvorligi.** Talabalar uchun og'zaki kommunikatsiya (murabbiylar, hakamlari, xorijiy hamkasblar bilan muloqot) yozma ko'nikmalardan muhimroq, shuning uchun dars jarayonida 60–70% vaqt gapirish va tinglash mashqlariga ajratilishi lozim.

- **Texnologiyalar integratsiyasi samarali.** Multimedia materiallar (video sharhlar, virtual simulyatsiyalar) va aralash ta'lim platformalari o'rganish samaradorligini 39% oshiradi va talabalarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

- **O'qituvchilar malakasini oshirish muhim.** ESP metodikasini samarali qo'llash uchun o'qituvchilar ham sport sohasini, ham zamonaviy til o'qitish metodlarini puxta bilishlari zarur.

- **O'quv materiallari modernizatsiyasi.** Mahalliy sport realiyatiga moslashtirilgan o'quv qo'llanmalar va multimedia resurslar yaratish tavsiya etiladi.

Xulosada shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya va sport sohasida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish nafaqat talabalarining til bilim darajasini oshiradi, balki O'zbekiston sportini xalqaro arenada yanada raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. – Palgrave Macmillan, 2010. – 157 p.
2. Dudley-Evans T., John M.J. Developments in English for Specific Purposes. – Cambridge University Press, 1998. – 301 p.
3. Ferguson G., Javed S. English for Specific Purposes in Physical Education: A Needs Analysis // Journal of Language Teaching and Research, 2019. Vol. 10, №4. – P. 712 – 721.
4. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 272 p.
5. Konstantinova N.A. Teaching English for Specific Purposes to Sports Students // Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2015. Vol. 214. – P. 805–810.
6. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Expanding Concept for a Changing World // Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning. – Routledge, 2011. Vol. 2. – P. 541-557.
7. Long M.H. Second Language Needs Analysis. – Cambridge University Press, 2005. – 349 p.
8. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1983. – 320 p.
9. Махмудов Н.М., Жумаев О.Х. Особенности преподавания английского языка в спортивных вузах Узбекистана // Вестник науки и образования, 2021, №11 (114). – С. 65–69.

Umida ABDILAKIMOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

TALABALARNING INGLIZ TILIDA YOZISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI VA MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQUISH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilida yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda yozish ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik va metodik tamoyillari, zamonaviy yondashuvlar hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali usullar taklif etiladi. Maqola natijalari oliy ta'lim tizimida ingliz tili fanini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yozish ko'nikmasi, ingliz tili, oliy ta'lim, metodika, kommunikativ yondashuv.

Annotation. This scientific article highlights the issue of forming written English language skills in students studying in higher educational institutions. The study analyzes the pedagogical and methodological principles of developing writing skills, modern approaches, and mechanisms for their implementation in practice. Also, based on the scientific views of Uzbek and foreign scientists, effective methods serving the development of written speech are proposed. The results of the article will serve to increase the effectiveness of teaching English in the higher education system.

Keywords: writing skills, English language, higher education, methodology, communicative approach.

Аннотация. В данной научной статье освещается вопрос формирования навыков письменной речи на английском языке у студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. В исследовании анализируются педагогические и методические принципы развития навыков письма, современные подходы и механизмы их внедрения в практику. Также на основе научных взглядов узбекских и зарубежных ученых предлагаются эффективные методы, служащие развитию письменной речи. Результаты статьи послужат повышению эффективности преподавания английского языка в системе высшего образования.

Ключевые слова: навыки письма, английский язык, высшее образование, методика, коммуникативный подход.

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tilini puxta egallash, xususan, yozma nutq ko'nikmasiga ega bo'lish oliy ta'lim talabalarining kasbiy va akademik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy maqolalar yozish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy manbalar bilan ishlash jarayonida yozish ko'nikmasi yetakchi kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan davlat ta'lim standartlarida talabalarda kommunikativ kompetensiyani, jumladan, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslangan tamoyillari va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilida yozish ko'nikmasining nazariy asoslari. Yozish ko'nikmasi chet tilini o'rganish jarayonidagi eng murakkab va ko'p bosqichli faoliyat turlaridan biridir. O'zbek olimlaridan Sh.Yo'ldoshev, M.Mahkamova va N.Qodirovalarning tadqiqotlarida yozma nutq fikrni mantiqiy izchillikda, grammatik va stilistik jihatdan to'g'ri ifodalash jarayoni sifatida talqin etiladi. Yozish ko'nikmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- leksik boylik;
- grammatik kompetensiya;
- mantiqiy tuzilma;
- uslubiy moslik;
- fikrning aniqligi va izchilligi.

Mazkur komponentlar uyg'un rivojlangandagina talabalarda mustaqil va mazmunli yozma nutq shakllanadi.

Talabalarda yozish ko'nikmasini shakllantirish tamoyillari. Talabalar ingliz tilida yozish ko'nikmasini rivojlantirishda quyidagi asosiy pedagogik va metodik tamoyillarga amal qilish muhim:

1. Kommunikativlik tamoyili. Yozma mashqlar real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan bo'lishi lozim. Bu talabalar yozishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

2. Tizimlilik va izchillik tamoyili. Yozish ko'nikmasi bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab rivojlantirilishi zarur. Avval gap tuzish, keyin esa paragraf va to'liq matn yozishga o'tiladi.

3. Integrativ yondashuv tamoyili. Yozish ko'nikmasini rivojlantirish o'qish, tinglash va gapirish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

4. Individuallashtirish tamoyili. Talabalar til darajasi, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish yozish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Yozish ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmlari. Talabalarda ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

1. Jarayonli yozish (Process Writing). Bu yondashuvda yozish rejalashtirish, dastlabki variantni yozish, tahrirlash va yakuniy matn tayyorlash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

2. Modellar asosida yozish. Namunaviy matnlar asosida yozish talabalarga strukturani tushunishga va mustaqil yozishga yordam beradi.

3. Baholash va teskari aloqa. O'qituvchi va tengdoshlar tomonidan berilgan konstruktiv fikr-mulohazalar yozma nutq sifatini oshiradi.

4. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Onlayn platformalar, bloglar va yozma forumlar yozish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tajriba va natijalar tahlili. Amaliy tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi tamoyil va mexanizmlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar yozma nutq savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar fikrni erkinroq, mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri bayon eta boshlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalar ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Yozma nutqni rivojlantirish nafaqat til bilimlarini mustahkamlashga, balki talabalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda akademik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, yozish ko'nikmasini samarali shakllantirish uchun kommunikativlik, tizimlilik va izchillik, integrativ yondashuv hamda individuallashtirish tamoyillariga qat'iy amal qilish zarur. Ayniqsa, jarayonli yozish texnologiyasi, namunaviy matnlar asosida ishlash, muntazam teskari aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalanish mexanizmlari talabalarning yozma nutq savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yozish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni milliy ta'lim tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Mazkur maqolada taklif etilgan tamoyillar va mexanizmlar oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish amaliyotiga joriy etilsa,

talabalar tomonidan yozma nutqni egallash darajasi yanada yuksaladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ilmiy-metodik ishlar uzluksiz va tizimli ravishda davom ettirilishi lozim. Bu esa raqobatbardosh, xalqaro maydonda erkin faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Sh. Chet tillarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Mahkamova M. Ingliz tili o'qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Qodirova N. Yozma nutqni rivojlantirish metodlari // Pedagogik ta'lim, 2020, №3. – B. 45 – 49.
4. Harmer J. How to Teach Writing. – London: Longman, 2015.
5. Passov E.I. Learning to write: a training manual. – Voronezh: NOU Interlingva, 2002.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim uchun Davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2023.

Umidjon XASANOV,

Tashkent Perfect University gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIM: VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHDA AXBOROTLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot resurslari va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Axborotlashgan jamiyatda ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi, media savodxonlikning ahamiyati, raqamli pedagogika vositalarining tarbiyaviy salohiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Zamonaviy axborot makonida vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishning samarali mexanizmlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi, axborot texnologiyalari, media savodxonlik, raqamli pedagogika.

Annotation. This article analyzes the use of information resources and digital technologies in fostering patriotic values among young people within the system of lifelong education. The study substantiates the role of media literacy and digital pedagogy in shaping civic responsibility and national identity. Effective mechanisms for integrating informational tools into patriotic education are identified.

Keywords: lifelong education, patriotic education, information technologies, media literacy, digital pedagogy.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы использования информационных ресурсов и цифровых технологий в воспитании патриотически настроенной молодежи в условиях системы непрерывного образования. Обосновывается значение медиаграмотности и цифровой педагогики в формировании гражданской позиции и национального самосознания обучающихся. Раскрываются воспитательные возможности современной информационной среды и пути их целенаправленного применения.

Ключевые слова: непрерывное образование, патриотическое воспитание, информационные технологии, медиаграмотность, цифровая педагогика.

Raqamli davr sharoitida jamiyatning ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy taraqqiyoti bevosita axborot oqimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongining shakllanishida axborot makoni yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, uzluksiz ta'lim tizimi doirasida vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy axborot vositalari asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tarbiyaviy yondashuvlar raqamli muhit bilan uyg'unlashmaguncha kutilgan samarani bermaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda axborot resurslaridan foydalanishning konseptual asoslarini ochib berish hamda amaliy jihatdan takomillashtirilgan yondashuvlarni taklif etishdan iboratdir. Globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi asosan axborot muhiti orqali shakllanmoqda. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'un holda tashkil etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy tarbiya usullari bugungi tezkor axborot oqimi sharoitida yetarli samara bermasligi mumkin.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni

o'rganish metodlaridan foydalanildi. Uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini axborot resurslari asosida tashkil etishning integrativ modeli ishlab chiqildi. Ushbu model an'anaviy tarbiyaviy yondashuvlar bilan raqamli pedagogika vositalarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Media savodxonlik vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishning muhim pedagogik omili sifatida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu orqali yoshlarda axborotga tanqidiy munosabat, milliy manfaatlariga sodiqlik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish mexanizmlari ochib berildi. Raqamli ta'lim muhitining tarbiyaviy salohiyati ilk bor uzluksiz ta'lim tizimi kontekstida kompleks tarzda tahlil qilindi hamda uning vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdagi samarali jihatlari aniqlandi.

Uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiylashuvi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim institut. Vatanparvarlik tarbiyasi esa shaxsda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va jamiyat oldidagi mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda vatanparvarlik tushunchasi faqat hissiy munosabat emas, balki ongli fuqarolik faoliyati sifatida talqin etiladi. Axborotlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Axborot barchaning mulkiga aylandi. 1972-yil 19-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 24-oktabr Butunjahon taraqqiyoti

haqidagi axborot kuni deb ta'sis etildi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad jahon hamjamiyati e'tiborini yoshlar o'rtasida axborot tarqalishiga jalb qilishdan iborat edi [2: 13].

Bugungi kunda davlatimizda axborotlar, AKTning rivojlanishi muammolariga oid qaror va farmoyishlar ishlab chiqilib, matbuot anjumanlarida muhokama qilinmoqda. Ta'lim sohasida ularning amaliy natijalarini ko'rish axborotlarning ta'lim jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy ta'sirini o'rganish orqali erishiladi [1: 448]. BMT Bosh Assambleyasi 1993-yil 3-mayni Jahon matbuot erkinligi kuni hamda 1996-yilda 21-noyabrni Jahon televideniya kuni deb e'lon qildi. Bu ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishga bag'ishlangan teledasturlarni rivojlantirishni ko'zda tutardi. Ya'ni, televideniyaning barcha sohalarda ta'sir kuchini hisobga olib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yechishda muhim vositalardan biri sifatida jahon e'tiborini qaratgan. Rezolyutsiyalarda erkin fikrlar xilma-xilligiga asoslangan matbuot har bir demokratik jamiyatning bo'lagi ekanligi e'tirof etilganligini hisobga olsak, har bir jamiyatning a'zosi hisoblangan yoshlarga matbuotning ta'sir doirasini tassavvur qilishimizga imkon beradi [3: 9].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida inson hayoti axborot oqimlari bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Axborot endilikda alohida shaxs yoki guruh mulki bo'lib qolmay, ommaviy va global xarakter kasb etmoqda. Shu bois axborotning mazmuni, manbasi va talqini shaxs ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omilga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan axborot va ommaviy kommunikatsiya vositalariga bag'ishlangan xalqaro kunlarning e'lon qilinishi ham axborotning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini e'tirof etish bilan izohlanadi. Bu jarayonlar, ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashi va qadriyatlar tizimining shakllanishida axborotning kuchli ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi [4: 571]. Xususan, virtual muzeylar, tarixiy hujjatlarining raqamli arxivlari va interaktiv dars materiallari yoshlarning milliy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, axborot muhitining kengayishi turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda media savodxonlikni rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Media savodxonlik yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash hamda milliy manfaatlariga zid bo'lgan axborotlarga nisbatan ongli munosabat bildirishga o'rgatadi.

Raqamli pedagogika vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yangi bosqichni boshlab bermoqda. Ta'lim jarayoniga gamifikatsiya, loyihaviy faoliyat, virtual va kengaytirilgan realik texnologiyalarining joriy etilishi o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Tarixiy voqealarni virtual rekonstruksiya qilish, milliy qahramonlar hayoti va faoliyatini interaktiv shaklda o'rganish yoshlar ongida tarixiy jarayonlarga nisbatan real va jonli tasavvur hosil qiladi. Natijada vatanparvarlik g'oyasi abstrakt tushuncha bo'lib qolmay, shaxsiy tajriba va hissiy idrok orqali mustahkamlanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog shaxsining roli ham tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy sharoitda o'qituvchi faqat axborot yetkazuvchi emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va tarbiyaviy faoliyatni boshqaruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagogning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, u raqamli resurslardan shunchalik samarali foydalanadi va vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitadi. O'qituvchi yoshlarni mustaqil izlanishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va ijtimoiy mas'uliyatni his etishga undashi lozim.

Pedagoglarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini oshirish ham ushbu jarayonning muhim sharti hisoblanadi. O'qituvchi axborot manbai emas, balki yo'naltiruvchi, tahlilchi va tarbiyaviy jarayonni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunga ahamiyat berish kerakki, axborotlarning ishonchiligi aniqlanguncha inson ongi birinchi qabul qilgan axborotga moslashgan bo'ladi. Axborotlarni turli talqin qilish unga nisbatan ham turli munosabatni yuzaga keltiradi. Bu axborotlar bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning o'zgarishini, yoki aksincha bajariladigan vazifaga qarab axborotlarning talqin qilinishini anglatadi. Axborotning turli talqin qilinishi shaxsda unga nisbatan turlicha munosabatni shakllantiradi. Bu holat axborotning bajarishi lozim bo'lgan vazifalari o'zgarishi yoki maqsadga qarab qayta talqin qilinishi bilan izohlanadi. Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimi doirasida berilayotgan axborotlar aniq, ishonchli va tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda axborot resurslari va zamonaviy raqamli texnologiyalardan oqilona va tizimli foydalanish bugungi globallashuv sharoitida muhim pedagogik zaruratga aylanmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim muhiti hamda media savodxonlik elementlarini joriy etish yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot makonida yoshlarning faol ishtirokini to'g'ri yo'naltirish, ularni g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayonlar yoshlarning ijtimoiy faolligi, milliy o'zlikni anglash darajasi va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natijalar beradi. Mazkur ilmiy ishda ishlab chiqilgan xulosalar va amaliy tavsiyalar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot resurslaridan samarali foydalanish hamda yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov B.R. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 448.
2. United Nations General Assembly. World Information Day for Development / Resolution, 1972.
3. United Nations General Assembly. World Press Freedom Day, 1993; World Television Day, 1996.
4. Ruzikulova N.Sh. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining shakllanishida axborot texnologiyalarining ta'limiy-tarbiyaviy ta'siri // Globallashuv sharoitida fan va rivojlanish tendensiyalari. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2017.